

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari va 2026-yil 10-apreldagi №384- son qarori bilan kimyo fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2026-9/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2026

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dots.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.d., dots.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Kushmanov Jasur Baxodirovich, f.f.f.d., dots.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q-x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Karimov Ravshanbek Allayarovich, q-x.f.f.d., k.i.x.
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dots.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, f.f.f.d.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Najmeddinov Axmad Raxmatovich, PhD, dots.
Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, f.f.f.d., dots.
Normuratov Oybek Ulug‘berdiyevich, q-x.f.d., dots.
Omonov Mamatqobil Ismoilovich, b.f.d., dots.
Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dots.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q-x.f.n., dots.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dots.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dots.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q-x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dots.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD
Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№9/3 (142), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2026 y. – 199 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Abdinasirov Q.A. Qoraqalpog‘istonning shimoliy tumanlari gidronimlarining hududiy tarqalish xususiyatlari	5
Abdiyazova M.Sh. Xorazmda ilk shaharlarning shakllanish tarixi	8
Abdrimova S. Neolit davri Kaltaminor madaniyati yodgorliklari arxeologiyasining o‘rganilishi natijasida olingan ma’lumotlar ilmiy tahlili	11
Abdullaeva N.R. Soviet and western approaches in the historiography of the Turkestan banking system: a comparative analysis of opposing interpretations	15
Abdullayeva M.S. Xiva xonligida Mennonitlar jamoasi: ko‘chib kelish omillari, ijtimoiy-madaniy hayot va tarixiy muloqot	18
Abdullayeva Z.N. Jamiyat taraqqiyoti tahlilidagi axloqiy qarashlar	21
Allaberganova R.K. O‘zbekiston Respublikasida 1991–2023-yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar: Prezident va ijod maktablari hamda yangi baholash tizimi misolida	24
Axmedov B.A., Tursunov M.A. O‘zbekiston qorako‘l terisining Yevropa bozorlariga chiqarilishi tarixi	27
Axmedov B.A., Tursunov M.A. Sovet davrida O‘zbekistonda qorako‘lchilik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va savdo tizimi	29
Azodov A.O., Sadullayev B.P. IX-XI asrlar sopol qozonlari	32
Batirova B.N. Qarshi cho‘llariga aholining ko‘chirilishi tarixidan	36
Davletov X.Yu. Xiva xonligiga temir yo‘l izlarini olib kelish harakatlari	38
Ergashev F.G’. O‘zbekiston SSRda sport taraqqiyotining tarixiy jarayonlari	42
G‘aybullayev A. O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlarida ta’lim, fan va yoshlar almashinuvi jarayonlari	45
Ibragimova M.M. Termiz ilmiy havzasining (IX asr) Hanafiy fiqh va hadis an‘anasidagi roli: al Hakim at-Termiziy va Imom at-Termiziy qiyosi	48
Ismoilova D.A., Sunnatov N.B. Turizm sohasini huquqiy tartibga solishning evolyusiyasi: O‘zbekiston tajribasi	51
Jabborova O.O. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida davriy matbuotda Toshkent shahar tibbiy infratuzilmasining yoritilishi	54
Jumaniyozov D.X. Xorazm shaharlarining XIV–XV asrlardagi savdo faoliyati tarixshunosligi: XIX–XX asr tadqiqotlari tahlili	56
Karimbayeva S. Mustaqillik davrida milliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning qayta tiklanishi	62
Matnazarova D.R. Oila va uning tarixiy rivojlanish shakllari	65
Maxamadiyev G‘.I. Shahribarbar yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar	67
Muhammadjonova H.O. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining tarixiy evolyutsiyasi: an‘anaviy davlatchilikdan zamonaviy huquqiy davlat sari	71
Nabijonov M.R. Soxta salafiylarning tavassul va istig‘osaga oid da‘volarining Ahl as sunna aqidasi asosida rad etilishi	73
Narbayeva D.M. Surxon vohasi an‘anaviy kashtachiligida chorvachilik mahsulotlarining o‘rni: ip tayyorlash texnologiyasi va ramziy bezaklar	76
Qodirov I.E. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasining sug‘orish va melioratsiya tizimida amalga oshirilgan islohotlarning qishloq xo‘jaligiga ta’siri	79
Rahmanova S. Globallashuv jarayonida milliy-madaniy qadriyatlar muammosi	82
Rajabaliyeva M.A., Ravshanova G.P. Poyon Ravshanovning behbudiyshunoslik tadqiqotlarida arxiv hujjatlari va og‘zaki xotira sintezi	87
Rajabova D.Sh. Ilk renessans davrida Xorazmda ilmiy muhitning vujudga kelishi va institutsional xususiyatlari	89
Raxmonov A.T. XX asrning 50–80-yillarida Qashqadaryo sanoatida erishilgan yutuqlar	92
Raxmonov A.T. XX asrning 70–90-yillarida Sho‘rtan neft-gaz sanoatining taraqqiyot tarixi	95

Saburov J.J. Buxoro tasavvuf maktabi: X–XV asrlarda islomiy tafakkur va ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni	98
Saparbayerova E.D. O'rta va Quyi Zarafshon vohasidagi koreys diasporasining hududiy taraqqiyotidagi o'rni	101
Shakirova M.M. O'rta Osiyoda qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	104
Soliyeva G. Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» asarida XVI asr Toshkent muhiti	108
Soliyev J.I. Raqamli jamiyat sharoitida huquqiy ong transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	110
Tog'oyeva M.S. Mustaqillikning dastlabki yillarida buxoro vohasida agroiklim sharoitga mos ekin navlarini sinash va rayonlashtirish jarayonlari	112
Xabibullo Xoji M.A. Turkistonda xotin-qizlar ta'limi tarixiga oid jadid matbuoti, arxiv hujjatlari va memuar manbalar tahlili	115
Xayitov Z.U. Prisk Paniyskiy asarlari ilk Vizantiya diplomatiyasi bo'yicha manba sifatida	118
Xurramov X.B. Temir darvoza Temuriylar davri manbalarida	122
Абдукадиров А.А., Барсукова А.В. От Согда до Мавераннахра: преемственность таджикско-узбекских историко-культурных связей	124
Бекмуҳаммад У. Хўжайли, Қўнғирот ва Чимбойдаги жадид мактаблари ҳамда уларнинг таълим ривожланиши ва жадидчилик ҳаракатида тутган ўрни	128
Мирзохидова Е.Е. Морфологическая типология стеклянных сосудов Шаха IX — начала XIII века	135
Нажмиддинов З. «Ятимат ад-дахр» асарининг Хоразм фикҳ мактаби тарихини ўрганишдаги аҳамияти	143

PEDAGOGIKA FANLARI

Bafoyev I.I., Nafetdinov Sh.Sh. Sabzavotchilik fanidan pomidor o'simligi mavzusini o'rganishda innovatsion klaster metodidan foydalanish	147
Hamroyeva Sh.Sh. Talabalarda akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish: lingvistik muammolar va metodik yechimlar	150
Hamroyeva Sh.Sh. Methodological challenges in teaching academic writing	153
Hayitova N.D. Ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan metod va usullar samaradorligini aniqlash	155
Ibrohimova M.S. EFL teachers' perspectives on top-down and bottom-up reading strategies in EFL reading instruction: a qualitative study	158
Ismoilova Sh. Lotin tilini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish	161
Mahmudova M.D. Ingliz tilini o'rganishda fonetikaning roli	165
Makhsufova M.A. The role of digital technology in student-centered medical education	167
Qurbanova H.M. Developing effective lesson plans: principles, strategies, and outcomes	174
Raxmatov A.A. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish	177
Salikhova N.I. Critical-creative thinking and design in language learning	180
Samarova Sh.R. O'quvchilar tafakkur jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixokorreksion dasturlarning pedagogik-psixologik natijalari	184
Teshayev A.T. XIX asrda Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlarni tarix ta'limida o'rgatish metodikasi	187
Tuychiyev A.I. Sport and Tourism as the Primary Means of Physical Culture Activities	190
Xayitov J.X. Ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati	193

TIBBIYOT FANLARI

Kosimxojieva F.T. Reprodukativ yoshdagi ayollarda bachadon miomasining zamonaviy davolash usullari va ularning reprodukativ funksiyaga ta'siri	196
---	-----

TARIX FANLARI

UO'K:913.1/913.8

**QORAQALPOG'ISTONNING SHIMOLIY TUMANLARI GIDRONIMLARINING
HUDUDIIY TARQALISH XUSUSIYATLARI****Q.A.Abdinasirov, mustaqil tadqiqotchi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus**

Annotatsiya. *Qoraqalpoq'iston Respublikasi Taxtakopir, Qorao'zak va Chimboy tumanlari hududida 134 ta gidronim borligi aniqlandi. Taxtakopir tumani hududi katta va ko'pchilik qismini Qizilqum cho'li egallab yotganligidan bu rayonda gidronimik obyektlarning ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu obyekt nomlarining ko'pchilik qismini antropotoponimlar (odam nomlari bilan bog'liq) tashkil etgan. Chimboy tumani hududi asosan aholi erta davrlardan ko'chib kelgan Amudaryoning delta qismi bo'lib, bu tuman hududida eng ko'p gidronimlar borligi aniqlandi. Bu gidronimlarining asosiy ko'pchiligini qoraqalpoq urug' nomlari (etnogidronimlar) tashkil etishini aytib o'tish kerak.*

Kalit so'zlar: *gidronim, topotermin, etnogidronim, antropogidronim, ko'l, quduq, buloq.*

Аннотация. *Установлено, что на территории Тактакупирского, Караузякского и Чимбайского районов Республики Каракалпакстан насчитывается 134 гидронима. Обширная территория Тактакупирского района, значительную часть которой занимает пустыня Кызылкум, отличается большим количеством гидронимов. Большинство этих географических названий — антропотопонимы (названия, образованные от личных имен). Установлено, что наибольшее количество гидронимов сосредоточено на территории Чимбайского района, расположенного преимущественно в дельте Амударьи — местности, заселенной с древних времен. Значительную часть этих названий составляют гидронимы, образованные от наименований каракалпакских родов (этногидронимы).*

Ключевые слова: *гидроним, топотермин, этногидроним, антропогидроним, озеро, колодец, родник.*

Abstract. *It has been established that there are 134 hydronyms within the territory of the Takhtakupir, Karauzak, and Chimbay regions of the Republic of Karakalpakstan. The vast territory of the Takhtakupir region, a significant portion of which is occupied by the Kyzylkum Desert, is characterized by a large number of hydronyms. Most of these geographical names are anthropotoponyms (names derived from personal names). It has been established that the greatest number of hydronyms is concentrated in the Chimbay region, located primarily in the Amu Darya Delta—an area inhabited since ancient times. A significant portion of these names consists of hydronyms derived from the names of Karakalpak clans (ethnohydronyms).*

Key words: *hydronym, topo-term, ethno-hydronym, anthropo-hydronym, lake, well, spring.*

Kirish. Bugungi kunda insoniyatning tabiat bilan uzviy aloqasi natijasida shakllangan tabiiy muhit va uning tarkibiy qismlarini hududiy hamda tarixiy jihatdan o'rganish geografiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, tabiiy landshaft elementlarining hudud bo'ylab tarqalishi, ularning tarixiy shakllanishi va o'zgarishlarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan sanaladi. Tabiiy muhitda kechadigan turli jarayon va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglash har doim ham oson bo'lmagan. Shu sababli insonlar kundalik hayot davomida atrof-muhitdagi tabiiy obyektlarni bir-biridan ajratish uchun ularning o'ziga xos belgilariga asoslangan holda turli nomlardan foydalanganlar.

Geografik nomlar uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan bilim va tajribalarni o'zida mujassam etib, muayyan hududning tabiiy sharoiti va tarixiy taraqqiyoti haqida qimmatli ma'lumot beruvchi manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda tabiatdan oqilona foydalanish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish masalalarini tadqiq etishda toponimik ma'lumotlardan foydalanishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Chunki inson o'zi o'zlashtirgan tabiiy makondagi geografik obyektlarni boshqa obyektlardan farqlash maqsadida ularga nom bergan.

Shu nuqtayi nazardan, har qanday geografik nom geografik qobiqning, aniqrog'i, inson tomonidan xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilgan tabiiy muhitning mahsuli sifatida qaralishi mumkin. Demak, joy nomlari orqali ma'lum hududning tabiiy sharoiti, mavjud resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy obyektlari to'g'risida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Bunday nomlar nafaqat tarixiy-madaniy, balki amaliy geografik tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekistonda mahalliy geografik terminlar hamda joy nomlarining tabiiy-geografik xususiyatlarini tadqiq etgan olimlardan biri M.T. Mirakmalov hisoblanadi. Olimning ilmiy tadqiqotlarida turli hududlardagi gidronimlarning shakllanishida mahalliy geografik terminlarning tutgan o'rni keng yoritilgan. Jumladan, Toshkent viloyati gidronimlari tarkibida "ko'l", "buloq", "soy" va "suv" kabi gidronimik terminlar keng tarqalganligi aniqlangan. Jizzax viloyatida esa "quduq", "soy" va "buloq" terminlari nisbatan ko'p uchrashi qayd etilgan. Xorazm viloyatida esa gidronimlarning sezilarli qismi "ko'l" topotermini asosida shakllanganligi ko'rsatilgan [1].

Qoraqalpog'iston toponimikasini o'rganishda geograf olim, professor J. Matmuratovning tadqiqotlari ham alohida ahamiyatga ega. Uning Qoraqalpog'iston toponimikasiga bag'ishlangan maqolalarida hududdagi geografik nomlarning tabiiy sharoit va bu yerda istiqomat qiluvchi xalqlarning til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Olim respublikaning kartografik ma'lumotlarini tahlil qilish asosida 400 dan ortiq geografik nomni aniqlagan. Ushbu nomlarning 193 tasi daryo, ko'l, kanal va kollektor kabi gidrografik obyektlarga, 133 tasi ovul, aholi punktlari va shaharlarga, 61 tasi tog'lar, yerlar hamda foydali qazilma konlariga, 8 tasi esa tabiatni muhofaza qilish xo'jaliklariga tegishli ekanligi ko'rsatib o'tilgan [2].

Qoraqalpog'istonning o'ng qirg'oq shimoliy tumanlari toponimlarini tadqiq etgan Q.M. Seytniyazovning ishlarida ham gidronimlarga katta e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi Qoraqalpog'iston hududida gidronimlarning juda keng tarqalganligini, daryo va ko'llarning uzoq tarixiy davr mobaynida mavjud bo'lganligini qayd etadi. Shuningdek, hududdagi suv obyektlarining o'zak, kanal, jarma, jap va jarmis kabi turlarga bo'linishi haqida ma'lumotlar keltirilgan [3].

Qoraqalpog'iston xalqi hayotida Amudaryoning alohida o'rin tutishi ham tadqiqotlarda qayd etilgan. "Katta daryo" sifatida e'tirof etiladigan Amudaryo respublika hududining asosiy suv manbalaridan biri bo'lib, aholi va xo'jalik faoliyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Q.M. Seytniyazov Qoraqalpog'iston o'ng qirg'oq shimoliy tumanlari gidronimlarini bir necha guruhga ajratadi. Birinchi guruhga suv obyektlarining chuqurligi, oqimi va rangini ifodalovchi gidronimlar, jumladan, Erkindaryo, Qorako'l, Qorateren kabi nomlar kiritilgan. Ikkinchi guruhni esa suv obyektlarining tabiiy xususiyatlari, kattaligi hamda suvning sho'rlik darajasini aks ettiruvchi Bo'zjap, Jalpaqjap, Oqjap singari gidronimlar tashkil etadi.


Natijalar va muhokamalar. Geografik nomlar milliy qadriyatlarning muhim qismi bo'lishi bilan birga, tabiat va uning komponentlarida yuz bergan uzoq muddatli o'zgarishlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli toponimlar hududning tabiiy sharoiti, uning tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar va tarixiy taraqqiyot davomida sodir bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy geografik nomlarda tabiiy muhitning qadimgi holati va tarixiy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi mumkin. Bunga ilgari mavjud bo'lgan, biroq bugungi kunda geografik xaritalarda yoki joyning o'zida saqlanmagan suv obyektlari nomlarining hozirgacha yashab kelayotganini misol qilish mumkin. Ayrim ko'l, ariq, o'zan va boshqa suv obyektlari fizik jihatdan yo'qolgan bo'lsa-da, ularning nomlari mahalliy toponimik tizimda saqlanib qolgan.

Qoraqalpog'iston hududidagi suv obyektlarining turini ifodalovchi gidronimik topoterminlar qatoriga "ko'l", "daryo", "o'zan", "ariq", "quduq", "buloq" va boshqa terminlarni kiritish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aniqlangan obyektlarning 48 tasi, ya'ni qariyb 36 foizida "jap" termini, 12 tasi yoki qariyb 13 foizida "ko'l" topotermini ishtirok etgan. Mazkur ko'rsatkichlar hududda tarixan o'zaro tutashgan va tarmoqlangan ko'llar tizimi mavjud bo'lganligini taxmin qilish imkonini beradi. Biroq Amudaryo suvining kamayishi, Orol dengizining qurishi va suv obyektlarining,

ayniqsa, ko'llarning qisqarib yoki butunlay yo'qolib ketishi natijasida qadimgi gidrografik tarmoqning katta qismi o'zining avvalgi holatini yo'qotgan. Shunga qaramay, ayrim suv obyektlarining nomlari bugungi kungacha geografik nom sifatida saqlanib qolgan (1-rasm).

Tarixiy kartografik ma'lumotlarni zamonaviy holat bilan taqqoslash Janubiy Orolbo'yi hududlarida ilgari daryolarning ko'plab tarmoqlari va bir-biri bilan bog'langan ko'llar tizimi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda esa ushbu hududdagi ko'llarning aksariyati qurib ketgan, daryolarning ko'plab o'zaklari o'z faoliyatini to'xtatgan. Tarmoqlangan ko'llar tizimining izlari bugungi tadqiqot doirasiga kiritilgan Taxtako'pir va Qorao'zak tumanlari hududlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Taxtako'pir tumanida hozirgi kunda yirik ko'llardan biri hisoblangan Qorateren ko'li mavjud bo'lib, ushbu hududda turizm, xususan, etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Tarixiy ma'lumotlar Qorateren ko'li atrofida ilgari ko'plab kichik ko'llar ham bo'lganligini ko'rsatadi.



1-rasm. Herbert Wood. The shores of lake Aral. London, 1876.

Bugungi kunda mazkur tarixiy xaritada tasvirlangan ko'llarning aksariyati mavjud emas. Shu bilan birga, tarixiy davrda qayd etilgan ko'l tarqalish hududlari bilan hozirgi davrda aniqlangan ayrim suv obyektlarining joylashuvi o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud. Tadqiqot davomida aniqlangan 34 ta ko'lining asosiy qismi Taxtako'pir va Qorao'zak tumanlari hududiga to'g'ri kelishi ham bunga dalil bo'la oladi.

Aniqlangan 34 ta ko'lining 16 tasi, ya'ni 47 foizi Taxtako'pir tumani hududida joylashgan. Qorao'zak tumanida esa 11 ta ko'l qayd etilgan bo'lib, bu umumiy ko'rsatkichning 32,3 foizini tashkil qiladi. Qolgan 7 ta ko'l Chimboy tumani hududida aniqlangan.

Chimboy tumani qadimdan qoraqalpoq aholisining zich joylashgan hududlaridan biri bo'lib, bu yerda dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari uzoq tarixiy davr davomida rivojlanib kelgan. Dehqonchilikning asosan sug'orma xarakterga ega bo'lganligi hududda ariq va japlarning keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Tadqiqot natijalari Chimboy tumanida boshqa hududlarga nisbatan ariq, jap va kanallar soni yuqori ekanligini ko'rsatdi. Jami 77 ta ariq, jap va kanaldan 35 tasi, ya'ni 45 foizi Chimboy tumani hududiga to'g'ri keladi. Qorao'zak tumanida esa ushbu turdagi 20 ta obyekt, ya'ni 26 foizi aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar mazkur hududlarda Taxtako'pir tumaniga nisbatan sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq hududlar nisbatan kengroq tarqalganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ariq, jap va kanal nomlarining tarkibiy xususiyatlari ham muhim ma'lumot beradi. Ularning orasida urug' nomlari bilan bog'liq etnogidronimlar hamda shaxs nomlari asosida shakllangan antropogidronimlar ko'p uchraydi. Bu holat mahalliy aholining geografik obyektlarga nom berish an'analarini aks ettiradi.

Ma'lumki, qoraqalpoqlar azaldan urug'-qavm bo'lib yashab kelgan va ular obyektlarga nom qo'yishda ayniqsa, gidroobyektlarni orientir qilib olishgan va ko'plab gidroobyektlar ushbu urug'-qavm nomlari hamda urug' oqsoqollarining ism yoki laqablari bilan nomlangan.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Geografik obyektlar nomlari katalogi ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida

Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Qorao'zak va Chimboy tumanlari hududida jami 134 ta gidronim mavjudligi aniqlandi.

Taxtako'pir tumani hududining maydoni katta bo'lib, uning muayyan qismini Qizilqum cho'li egallagan. Shu sababli hududdagi gidronimik obyektlarning tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega. O'rganilgan gidronimlar orasida quduq nomlari salmoqli ulushni tashkil etadi. Shuningdek, obyektlarning katta qismi antropotoponimlar, ya'ni insonlarning ismlari bilan bog'liq geografik nomlar asosida shakllanganligi aniqlandi.

Chimboy tumani Amudaryoning delta qismida joylashgan bo'lib, qadimdan aholi zich istiqomat qilgan hududlardan biri hisoblanadi. Tabiiy-geografik sharoit va xo'jalik faoliyatining rivojlanishi natijasida ushbu hududda gidronimlar nisbatan ko'p shakllangan. Ularning muhim qismini etnogidronimlar, ya'ni qoraqalpoq urug'-qavmlarining nomlari asosida vujudga kelgan geografik nomlar tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миракмалов М.Т. Ўзбекистон топонимларининг табиий географик хусусиятлари ва географик лингвистика. География фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 55 б.
2. Матмуратов Ж. Карақалпақ топонимикасы машқалалары ҳаққында // Совет Қарақалпақстаны, 1991. 4-июль. № 126 (15795); Мәтмуратов Ж. Өзлеримизде де пәкизе атамалар бар ямаса карақалпақ топонимикасына байланыслы гейпара ойлар // Өміўдәрә, 1991. № 10. – Б. 123-126.
3. Сейтнийзов К.М. Топонимы северных районов правобережья Каракалпакии: Диссертация на соис. к.г.н. –Т.: 1998. – 138 с., Сейтнийзов К.М. Распространение типов географических названий в Каракалпакистане // Вестник Каракалпацкого отделения АН Узбекской, 2001. № 3. – С. 109-110.

UO'K 902/904(575.1)

XORAZMDA ILK SHAHARLARNING SHAKLLANISH TARIXI

M.Sh.Abdiyazova, stajor o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi Xorazm hududida bino qilingan qadimiy shaharlar va ularning qurilish uslublari hamda bu shaharlarda tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilarning faoliyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.G.Vorob'eva, Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Xazorasp, B.V.Andrianov, Toshxirmon tepa, Katta Qirqqiz qala, Ayoqkala.

Аннотация. В данной статье представлена информация о древних городах, построенных на территории древнего Хорезма, методах их строительства и деятельности исследователей, проводивших исследования в этих городах.

Ключевые слова: С.П. Толстов, Я.Г. Гулёмов, М.Г. Воробьева, Козаликыр, Хумбузтепа, Хазорасп, Б.В. Андрианов, Таухирмон Тепа, Камта Киргизская Кала, Айозкала.

Abstract. This article presents information about the ancient cities built in the territory of ancient Khorezm, their construction methods, and the activities of researchers who conducted research in these cities.

Key words: S.P. Tolstov, Ya.G. Gulyomov, M.G. Vorob'eva, Kozalikyr, Khumbuztepa, Khazorasp, B.V. Andrianov, Tashkhirmon Tepa, Katta Kyrgyz Kala, Ayoqkala.

Bugungi kunda shaharlarning shakllanish va rivojlanish tarixi bilan turli fan sohalari vakillari shug'ullanib kelishadi. Ular o'zlarining tadqiqot obyektidan kelib chiqib, fikr bildiradilar va shaharning turli jihatlarini tahlil qiladilar. Tarixchilar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan tahlil qilib, shaharlarning shakllanish omillari va rivojlanish jarayonlarini yoritadilar [5.B.5.]. Shahar insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlarida vujudga kelgan va doimo jamiyatning harakatchan va yetakchi bo'lagi bo'lib kelgan.

Yaqin Sharqda ilk shaharlar mil.avv. VIII ming yilliklarda, O'zbekistonda mil. avv. II ming yilliklarda [2. B. 24] vujudga kelgan. O'zbekiston hududida shakllangan ilk shahar Surxondaryo hududidan topilgan Jarqo'ton yodgorligi hisoblanadi. Uni tadqiq qilgan akademik olim A.Asqarov ilk shaharga xos bo'lgan barcha arxeologik belgilar unda mavjud ekanligini asoslab bergan.

Unda shahar tushunchasi tahlil qilingan, shaharsozlik madaniyatining urbanizatsiya jarayoni bilan farqli tomonlari ko'rsatilgan. Shaharsozlikda shahar va undagi binolarning qurilish uslubi, tarhi,

me'moriy bezaklari, ko'cha, maydonlari, mudofaa tizimi, ixtisoslashuvi kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi. Urbanizatsiya shaharning o'sish va rivojlanish jarayonini tavsiflaydi. Bunda aholining ko'payishi, iqtisodiy rivojlanish bilan shaharlarning o'sish jarayoni ham tahlil qilinadi. Bo'limda shaharsozlik madaniyatini o'rganishning nazariy va uslubiy tamoyillari bayon qilingan. Qadimgi davr shaharsozlik madaniyatini o'rganishning uslublari ko'rsatib o'tilgan. Bunda arxeologik tadqiqotlar, tarixiy manbalar, kartografiya, qiyosiy tahlil, statistik, tipologik, topografik tahlillar, me'moriy binolar va yodgorliklarning tarixiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaharsozlik madaniyati tarixi yozma manbalar va arxeologik tadqiqot natijalarining tahlili asosida XX asrning o'rtalaridan keng o'rganila boshlangan. Bu jarayonda arxeologlar xalq orasida saqlanib qolgan afsona va rivoyatlarni ham tahlil qilganlar.

Qadimiy shaharlarning tarixi va qurilish uslubi asosan, arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Qadimgi Xorazm qal'alarini arxeologik jihatdan o'rganishni 2 yirik davrga bo'lish mumkin:

1. 1938-yildan – 1991-yilgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda qadimgi Xorazm hududidagi tadqiqot ishlari Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiya a'zolari tomonidan olib borilgan. Bu davrda S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.G.Vorob'eva, B.V.Andrianov, O.A.Vishnevskaya, I.Jobborov va boshqa bir qator arxeologlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

2. 1991-yildan – bugungi kungacha bo'lgan davr bo'lib, bu O'zbekiston mustaqilligi davri bilan bog'liq. Bu davrda O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Avstraliyaning Sidney universiteti, Rossiyaning Arxeologiya instituti va Sharq xalqlari muzeyi hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu davrda V.N.Yagodin, B.I.Vaynberg, M.Mambetullaev, G'.Xodjanilyazov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov, V.G.Betts, N.A.Egamberdieva, Q.Sobirov, R.Abdrimov, M.S.Abdullaev, B.P.Sa'dullaev va boshqalar qadimgi davr shaharlar tarixini o'rganishda muhim hissa qo'shganlar.

Buyuk ipak yo'li qadimgi Xorazmning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ta'sir qilgan. Shaharlar savdo-sotiq markazi, davlat chegarasi, bo'xona, iqtisodiy, ma'muriy, madaniy va harbiy markaz taraqqiy qilishiga olib kelgan. Qadimgi Xorazmda vohaning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoitiga va siyosiy vaziyatga mos bo'lgan me'morchilik maktabi shakllandi. Bu maktab tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida yanada taraqqiy qildi.

O'zbekistonning janubiy hududida ilk shahar bronza davrida shakllangan. Bu davrda Amudaryoning quyi oqimida Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyati aholisi istiqomat qilgan. Mil.avv. I ming yillikning boshlarida bu madaniyatlar qorishivi natijasida Amirobod madaniyati shakllangan [3. B. 25]. Mil.avv. VIII-VII asrlarda quyi Amudaryo havzasining shimoli-g'arbiy qismida Quysisoy aholisi, shimoli-sharqiy tomonida amirobodliklar, janubi-sharqiy qismida Meshekli madaniyati aholisi yashagan. Bu madaniyatlarni yaratgan aholining barchasi asosan chayla, yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, chorvachilik, qayir dehqonchiligi va metallga ishlov berish hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar.

Mil.avv. VI asrda esa, qadimgi Xorazm vohasining shimoli-g'arbiy qismida Ko'zaliqir, janubida Xumbuztepa, Xazorasp kabi mustahkam mudofaa devorlariga ega qal'alar qurilgan. Tadqiqotchilarda ham xuddi shu jihat, ya'ni chayla va yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, qo'lda sopol idish yasab yurgan aholi qay tarzda qisqa muddat ichida mustahkam mudofaaga ega bo'lgan qal'alarni bunyod qilgan. Charxda ishlangan sopol idishlarning eksporti bilan shug'ullangan degan savol munozarada bo'lgan. Aynan shu savolni tadqiq qilish ham qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekistonlik tarixchilar o'rtasida Ko'zaliqir, Xumbuztepa va Xazorasp qal'alarining qurilish davri va shakllanish tarixi munozarali hisoblanadi. Akademik A.Asqarov qadimgi Xorazm tarixidagi bu davrni tahlil qilib, uni mil.avv. VI asr, asosan Doro I davri bilan bog'laydi va shaharlarning qurilishini janubdan kelgan aholi bilan bog'laydi [1. B. 276-84].

XX asrning 80-90 yillarida Xumbuztepa yodgorligi arxeologik jihatdan tadqiq qilgan olim S.B.Bolelov mil.avv. VII asrning oxirlari deb ko'rsatadi [4. B. 29-32]. Uning fikricha, janubdan ko'chib kelgan xorasmiylar dastlab janubiy Xorazm hududini o'zlashtirganlar. Tuyamo'yin atroflarida, Amudaryoning chap qirg'og'ida chayla qurib yashaganlar va o'zlarining kasblari, ya'ni

sopol idishlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanganlar deb ko'rsatgan. O'z fikrini shu davrda Murg'ob daryosi vohasining qurishi natijasida u yerda yashagan aholining ko'chishi bilan asoslagan.

Tadqiqot ishida qadimgi Xorazmda ilk shaharsozlik madaniyati Ahamoniylar hukmronligidan oldin shakllanganligi ko'rsatilgan va shakllanishiga 2 xil omil sabab qilib ko'rsatilgan:

1. Janubiy Xorazm hududiga janubdan ko'chib kelgan aholi bo'lsa;
2. Shimoliy-g'arbiy Xorazm hududida mahalliy chorvador aholi o'zining chorvalarini

himoya qilish uchun bunyod qilgan qal'a.

Qadimgi Xorazm hududlariga janubdan aholining ko'chib kelishi masalasi deyarli 100 yildan ortiq tadqiqotchilar o'rtasida muhokama bo'lib kelgan. Uning asosida "Katta Xorazm" davlati masalasi o'rtaga qo'yilgan. Bir guruh olimlar quyi Amudaryo bo'ylarida shakllangan davlat o'z hududlarini kengaytirib, Murg'ob vohasigacha borgan deb asoslashsa, boshqa guruh olimlar quyi Amudaryo bo'ylariga janubdan aholining ko'chib borganligini va shaharsozlik madaniyatiga asos solganliklarini ko'rsatishgan [7. B. 24].

Bugungi kunda arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini solishtirish orqali ham quyi Amudaryo bo'ylariga aholining ko'chib kelib joylashganligini masalasiga oydinlik kiritilmoqda. Amudaryoning quyi oqimi hududlaridan mil.avv. VI asrga oid sinkretik madaniyat izlari topilgan. Unda Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya madaniyatiga xos moddiy topilmalar topilgan [3. B. 33]. Bu masalada N.A.Egamberdieva Amudaryoning quyi oqimi dastlab Murg'ob vohasidan kelgan aholi tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik ahamoniylar bosqini va siyosati natijasida Marg'iyona, Baqtriya hududlaridan aholi kelib joylashgan degan xulosani bergan [7. B. 98].

Qadimgi Xorazmning shimoli-g'arbiy hududlarida Ahamoniylar imperiyasi o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-da, hududdagi shaharsozlik madaniyatiga ularning ta'siri kuzatilmagan. Mahalliy an'analar yetakchi o'rinni egallagan. Ahamoniylar hukmronligi o'rnatilgandan keyin qadimgi Xorazm hududida qal'a-shaharlar sonining ortganligini ko'ramiz. Bu davrda Ko'zaliqir, Qalaliqir I, Oybuyirqala, Dingilji kabi arxeologik yodgorliklar o'rganilgan. Antik davrga oid ko'plab yodgorliklarning quyi qatlamlaridan ham arxaik davr madaniy qatlamlari aniqlangan: Bozor qala, Odamli qala, Toshxirmon tepa, Katta Qirqqiz qala, Ayoq qala va boshqalar [6]. Mil.avv. V asrga oid Dingilji qo'rg'oni topilgan. Bu esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Oqchadaryo bo'yida bunyod etilgan.

Mil.avv. V-asrning oxirlarida Xorazm davlati imperiyaga qaramlikdan ozod bo'lgach, uning rivojlanishida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ko'plab yangi qal'alar qurilib, davlat chegaralari yanada mustahkamlangan.

Shaharlarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan beshta omil ko'rsatilgan va ularning barchasi ham ilk shaharlar shakllanish jarayonida bo'lmasligi ham mumkinligi ko'rsatilib, ba'zida bitta omilning mavjud bo'lishi ham shaharning tarkib topishiga sabab bo'lishi ko'rsatilgan. Shu sababdan har bir shaharning o'ziga xos shakllanishining tarixi bo'ladi. Buni esa, sharoitning o'zi belgilaydi. Qadimgi Xorazmning tabiiy geografik sharoiti tahlil qilinib, shaharlar shakllanish uchun asos mavjud bo'lgan bo'lsada, bu hududga janubdan ko'chib kelgan aholining ta'siri bo'lganligi ham ko'rsatilgan. Qadimgi Xorazmning shimoli-g'arbiy qismida ilk shahar Ko'zaliqirning shakllanishida Kuyisoy madaniyati aholisining ta'siri kuzatilgan.

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining rivojlangan davri antik davr, ya'ni mil.avv. IV asrdan – milodiy IV asrlar hisoblanadi. Bu davrda Xorazm mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan va o'z chegara hududlarini mustahkamlash uchun chegara hududlarda ko'plab shaharlarni bunyod etgan.

Qadimgi davr shaharsozligida shaharlarning harbiy mudofaasi – fortifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shaharlar fortifikatsiyasining takomillashuvi ham uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tgan. Shaharlarni tashqi dushmandan himoyalash uchun birinchi navbatda tabiiy to'siqlar – jarlik, tepalik, tog', daryo bo'ylari e'tiborga olingan. Lekin shaharlarning o'sishi bilan shahar mudofaasini sun'iy ravishda mustahkamlash zaruriyati kelib chiqqan. Natijada mudofaa devorlari, darvoza, burj, shinak, xandak kabi sun'iy mudofaa tizimlari yaratildi. Bunday mudofaa tizimlari hududning geografik sharoitiga mos holda bunyod etildi. Bu jihat esa, mudofaa tizimlarining takomillashuviga olib keldi. Harbiy qurollarning rivojlanishi ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shaharlarning mudofaa

tizimini bunyod etishda bir qator mohir me'morlar, poliorketika, qurilish, mudofaa ishlari bo'yicha mutaxassislar, hunarmandlar keng jalb etilgan.

Mudofaa tizimining takomillashib borishi davlatning iqtisodiy holati, me'morchilik va harbiy san'at bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga qo'shni mamlakatlardagi harbiy san'atda qo'lga kiritilgan o'zgarishlar ham unga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qo'shni hududlar bilan o'zaro aloqalar yoki urushlar harbiy me'morchilikning doimo rivojlanishda yoki o'zgarishda bo'lib turishiga olib kelgan. Harbiy me'morchilikning rivojlanishi davlatlarning mustahkamligini ta'minlagan.

Shaharlarning asosiy mudofaa elementlari ark, devor, burj, shinak, darvoza hisoblangan. Ularning qanchalik mahorat bilan bunyod qilinganligi shaharga ko'rk ham bag'ishlagan va uning mustahkamligini ta'minlagan. Shu sababdan har bir shahar o'ziga xos tarzda bunyod etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Тошкент. 2004. – Б.76-84.
2. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. – Ташкент: Маънавият, 2001. – 24 б.
3. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. – С. 33.
4. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016 – С. 29, 32.
5. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент. 1982. – С.5.
6. Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР. В двух томах. Отв. ред. В.Н.Ягодин. – Нукус, “Каракалпакстан”, 1995 –1996.
7. Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв. VIII-мил. IV асрлар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. – Тошкент.2021. – Б. 98.

UO'K 902/904

NEOLIT DAVRI KALTAMINOR MADANIYATI YODGORLIKLARI ARXELOGIYASINING O'RGANILISHI NATIJASIDA OLINGAN MA'LUMOTLAR ILMIY TAHLILI

S.Abdrimova, o'qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada arxeologik qidiruv-qazishma ishlari natijasida qo'lga kiritilgan neolit davrida yashagan Kaltaminor madaniyati tipiga mansub aholining xo'jalik madaniy tiplari, kundalik turmushi tahlil qilingan. Bu jamoalarning me'morchilik ko'nikmalari va badiiy bezak namunalari yoritilgan.

Kalit so'zlari: Neolit, Oqchadaryo havzasi, turar-joylar, Jonbos-IV, S.P.Tolstov, Katta va Kichik Tuzkon, Mohandaryo.

Аннотация. В статье на основе материалов археологических раскопок анализируются хозяйственно-культурные типы и повседневная жизнь населения, относящегося к неолитической кельтеминарской культуре. Также рассматриваются архитектурное мастерство и образцы художественного орнамента этих сообществ.

Ключевые слова: неолит, бассейн Акча-Дарьи, поселения, Джонбос-IV, С.П. Толстов, Катта и Кичик Тузкон, Мохан-Дарья.

Abstract. This article analyzes the economic-cultural types and daily life of the population belonging to the Neolithic Kelteminar culture, based on findings from archaeological excavations. It also highlights the architectural skills and examples of artistic ornamentation of these communities.

Key words: Neolithic, Akcha-Darya basin, settlements, Jonbos-IV, S.P. Tolstov, Katta and Kichik Tuzkon, Mohan-Darya.

O'rta Osiyoda kaltaminor madaniyati yodgorliklari birmuncha yaxshi o'rganilgan. Bunday yodgorliklarni tadqiq qilish, yangi ma'lumotlar va artefaktlarni qo'lga kiritish bu davr makonlarini yanada kengroq o'rganib, ilmiy amaliy adabiyotlarga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo Xorazm vohasida neolit davri Kaltaminor madaniyatiga mansub makonlarni arxeologik tadqiq qilishda arxeolog S.P.Tolstovning xizmatlari katta hisoblanadi. U Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari bilan birgalikda XX asrning 30-40 yillar oralig'ida Quyi Amudaryo hududlarida neolit

davriga oid manzilgohlarni qazib ko'plab arxeologik buyumlar to'plagan. Ularning 3-4 ta manzilgohining madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. Bular Jonbas-4, Qavat-7, Tolstov, Tumek Kichidjik qabristonidir [1]. U tomonidan ochilgan eng qimmatli va arxeologik jihatdan mashhur yodgorliklaridan biri bu Jonos-IV yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlikni 1939-yilda S.P. Tolstov ochib o'rgangan. Bu makonni ochib o'rganish vaqtida 290 kv m hajmli (24m ga 17 m kattalikdagi) turar joyning qoldig'i topilgan. Jonbos-4 makoni Oqchadaryo qirg'oqlaridan topilgan [2]. Makondan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon va baliq suyaklari bilan birga katta chayla qoldig'i ham topilgan. Chaylada neolit davrida yong'in bo'lganligi aniqlangan. U qalin loyqa ostida qolgan. Chayla yarim yertola shaklida bo'lib, U yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Uning tomiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, usti qamish bilan yopilgan. S.P.Tolstovning fikriga ko'ra, yodgorlik yong'in ostida qolgan. Yong'indan so'ng deyarli darhol sodir bo'lgan suv toshqini makonning loy bilan qoplanishiga olib keladi va holat uni 5 ming yil davomida saqlanib qolishiga sabab bo'ladi [3]. Chayla sathining ko'p joylaridan katta-kichik chuqurchalar topilgan. Bu ustun va sinchlar o'rnatilgan chuqurchalar bolgan. Chayla o'rtasida katta markaziy o'choq qoldig'i, uning atroflaridan esa, 100ga yaqin mayda o'choqlar qoldig', chayla atrofida esa kul, kuygan qamish va yog'och qoldiqlari topilgan. S.P.Tolstov hisobiga ko'ra, bu erda 120-125 odam yashagan. Jonbos-4 katta urug' jamoaning makoni bo'lgan [4]. Jonbos makonidan so'nggi neolit davriga xos nukleuslar, nayza paykonlari, qirg'ich, o'q uchlari va tosh qurollar topilgan. Makonning madaniy qatlamidan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul, o'rdak, g'oz tuxumlari po'choqlari, jiya danaklari ham topilgan. Topilgan suyaklarning 86% baliqlarning suyaklari bo'lib chiqqan [5]. Ushbu ma'lumotlardan shu narsani anglab olishimiz lozim bo'ladiki, neolit davri jamoalari hayotida baliqchilik va baliq iste'moli yetakchilik qilgan. Oqchadaryo havzasi bo'ylaridagi neolit jamoalari o'z oziq-ovqat ratsionining katta qismini suv havzalaridan qoplashgan, chorvachilik va dehqonchilik xo'jalikning yordamchi tarmoqlari bo'lgan.

Bu davr kishilari yashagan keyingi muhim yodgorliklardan biri bu–Tolstov manzilgohi hisoblanadi. Makonni A.V.Vinogradov 1976-yilda Jonbos-4 makoniga yaqin joydan topgan va ustozi S.P.Tolstov sharafiga "Tolstov manzilgohi" nomini bergan. Tadqiqotlar natijasida makonning rivojlangan neolit davriga to'g'ri kelishi va mil.avv. IV ming yilliklarga oid ekanligi aniqlandi. Makondan ikkita xona qoldig'i topilgan bo'lib, ulardan birining maydoni 110-120 kv.m [6]. Xonaning konussimon tomi avval qamish, so'ngra daraxt qobig'i bilan yopilgan. Xonadan ustun qoldiqlari va o'choq izlari aniqlandi. Makondan chaqmoqtoshdan ishlangan mikrolit qurollar, kamon o'q uchlari, turli xil suyak qurollar - gapunlar, qarmoqlar, ignasimon uchli qurollar, ignalar, silliqalanib ishlangan boltachalar, tosh va sopollarni silliqalaydigan asboblar, chig'anoqlardan, parranda suyaklari va feruza toshdan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Shuningdek, qora-qizg'ish va oq rangdagi bo'yoqlar bilan bo'yalgan turli naqshlar bilan bezatilgan sopol buyumlarning parchalari topilgan. Tolstov manzilgohidan topilgan ashyolar Kaltaminor madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yanada oydinlashtirdi [7]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, feruza va turli xildagi toshlardan yasalgan taqinchoqlar hamda rang-barang naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar hududda istiqomat qilgan aholining hunarmandchilik mahsulotlari yuksak darajada rivoj topganini ko'rishimiz mumkin.

1960 yilda P.Gryaznov maslahati bilan Zarafshon vodiysining quyi qismida Y.G'ulomov guruhi tomonidan arxeologik tadqiqotlar amalga oshiriladi. Bu yerda, Zarafshon (Moxondaryo) irmoqlarining quruq kanallari hududida birinchi marta 28 ga yaqin neolit davri yodgorliklari topilgan. Oldingi suv omborlari qirg'oqlarida va Katta va Kichik Tuzkonning tekisliklarida tosh pichoqlar, tosh qirg'ichlar, o'q uchlari va qo'lda yasalgan sopol idish bo'laklari o'rganilgan. Topilmalar Moxondaryo madaniyatining Kaltaminor madaniyatiga juda yaqinligini ko'rsatadi. Xuddi shu hududda Katta va Kichik Tuzkon sohillarida bronza davriga tegishli 12 ta makonlar topiladi. Manzilgohlar miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning ikkinchi yarmi bilan sanaladi [8].

1961-yil bahorida Zarafshon-Moxondaryoning quruq kanali bo'ylab razvedka ishlarini olib borgan guruh neolit va bronza davriga oid bir qancha yodgorliklarni topib o'rganadi. Zarafshon daryosining quyi oqimida ham neolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlangan. Ularning umumiy sonini jami 700 ta. Shulardan Darvozaqir 1, 2, Katta va kichik Tuzkon, Darayi Sho'r, Qorong'i sho'r

makonlari yaxshi o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida neolit davrida Zarafshon daryosining beshta tarmog'i Amudaryoga qo'shilganligi aniqlandi. Mazkur tarmoqlar Qizilqum hududida katta, kichik ko'larni hosil qilgan. Zarafshon daryosining yirik tarmog'i Moxandaryo bo'lib, uning ham oqimida ko'lar shakllangan. Bugungi kunda ular sho'rlanib, xalq orasida Katta tuzkon, Kichik tuzkon deb atalib kelinadi. Shu qadimgi ko'l yoqalarida neolit davri aholisi istiqomat qilgan. 1950-yillarda Ya.G'ulomov Moxandaryo bo'ylab arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi [9]. 1960-yillarda esa bu hududda A.Asqarov bilan O' Islomovlar tadqiqot ishlarini olib borib, 100 dan ortiq neolit davri manzilgohlarini topdilar. Ular bir-biriga juda yaqin masofada joylashgan. Bu joylardan qirg'ichlar, pichoqlar, o'roq-randalar, nayza uchlari, o'roqlar, parma, teshkichlar, yorg'uchoq, qayroqtosh, bolta va boshqa buyumlar topilgan. Tosh qurollardan tashqari bu hududdan, taqinchoqlar, munchoqlar, sopol idishlari topilgan. Sopol idishlarning katta- kichigi, bezagi har xil bo'lib, og'zi kengroq, osti dumaloq shaklda bo'lgan. Lekin bu erda suyakdan qurollar topilmagan. Uning ko'plari mavsumiy manzilgohlar bo'lib, madaniy qatlamlar etarli saqlanib qolmagan [10].

Katta Tuzkon makoni Buxoro viloyatining Qorako'l tumani shimoli markazidan 40 km shimoli g'arbda joylashgan. Katta Tuzkondan 35 ta makon aniqlangan. Makon 1961-1963 yillarda O' Islomov tomonidan tekshirilgan. Bu makon ovchilarning va baliqchilarning neolit davri makoni hisoblanadi. Uning qo'shni hududlardagi Kaltaminor majmualariga to'liq o'xshashligi tosh qurollarining shakli va nisbatlarida namoyon bo'ladi. Yodgorlikning pastki xronologik chegarasi radiokarbon usuli bilan miloddan avvalgi IV mingyillikning boshlariga to'g'ri kelgan. Uning yuqori chegarasi miloddan avvalgi III mingyillik oxiriga to'g'ri keladi [11]. Katta Tuzkon makonida cho'rtan zog'ora, laqqa baliqlar, jayron, yovvoyi ot va boshqa hayvonlarning suyaklari uchraydi. Bundan tashqari makondan romb yoki trapetsiya shaklidagi chaqmoqtosh yaproqchalari, va tosh qurollar topilgan. Sopol idishlari kulolchilik charxida ishlanmagan, ularga to'lqunsimon yoki chuqurcha shaklidagi naqshlar bilan bezak berilgan. Katta Tuzkon makoni qabilalari O'rta Osiyoning cho'l va dasht mintaqalari bilan yaqin aloqada bo'lgan [12].

Kichik Tuzkon makonlari. Bu yodgorliklar Katta Tuzkondan janub va janubi-g'arb tomonda qadimgi gujayli sohillarida joylashgan makon hisoblanadi. U Katta Tuzkondan farqli o'laroq 3 ta joy-makondan iborat. Makonlarning madaniy qatlamlaridan qirg'ich, o'roq qadamalari, nukleus, plastink parralar, shuningdek, sopol idishlarning parchalari ham topilgan. Sopol idishlarning og'iz qismi o'rta qismiga qaraganda biroz kengroq. Sopol idishlar ancha qalin bo'lib, qo'lda yasalgan va kuydurilib pishirilgan.

Darvozaqir I makoni hozirgi paytga kelib qurib qolgan va Buxoro viloyatining Qorako'l shaharchasidan 40-45 km shimoli-g'arbidagi Katta Tuzkon ko'lidan 600-700 metr masofada joylashgan. Makon 1961-yillarda arxeolog Y. Gulomov boshchiligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. U erda 3ta madaniy qatlam topilgan bo'Mib, yuqori qatlami buzilib ketgan. Lekin undan ancha boy materiallar tosh mehnat qurollari - silliqqlangan tosh boltalar, qirg'ich, teshgich, o'roqranda, parma topilgan. Ikkinchi qatlamdan esa gulxan qoldiqlari va oz miqdorda qurollar topilgan. Uchinchi qatlamdan esa, o'choqlar va turar joy qoldiqlari, silliqqlangan tosh bolta, boshqa xil tosh qurollar, to'liqli chiziqlar bilan bezatilgan sopol buyumlar va hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan [13]. Makonning 3-madaniy qatlamidan 81m kv joyni egallagan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi chaylaning o'rni aniqlangan. Bu chayla ham Yonbosh-4 makonidagi chaylaga o'xshash bo'lgan. Darvozaqir madaniy yodgorliklariga o'xshash buyumlar Qashqadaryoning quyi oqimidan Qumsulton va Poykent pasttekisliklaridan ham topilgan. Poykent makonlaridan tosh bolta, qirg'ich, teshkich, o'roq qadamalar va sopol idishlarning siniqlari topilgan. Tadqiqot natijasida ularning mil.avv. IV—III ming yilliklarga mansubligi aniqlandi. Makondan topilgan tosh qurollarning ko'pchiligi chaqmoqtoshdan yasalgan. Bundan tashqari nisbatan sifatliroq bo'lgan oqish chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Qurollar yasash uchun xomashyo esa Nurota tog'ining shimoliy yonbag'irlaridan (Chaqmoqtepa) keltirishgan [14].

Darvozaqir II makoni ham Kaltaminor bosqichiga oid neolit davri makoni. Bu makon 1 ta madaniy qatlamli makon hisoblanadi. Makonda uy-joylarning o'rni aniqlanmagan. Arxeologik qidiruv ishlari davomida topilgan buyumlar tosh qurollar va sopol parchalaridan iborat bo'lgan [15]. Bu tosh qurollari bolta, yorg'uchoq, pichoq, nayzaning uchi va mikrolitlar hisoblanadi. Taqinchoq va

munchoqlar ham toshdan yasalgan. Sopollar ham qo'lda yasalgan bo'lib ularning naqshsiz va naqshli turlari ajralgan.

Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichi (IV mingyillikning oxiri-III mingyillikning birinchi yarmi) Lavlakon namgarchiligining oxirgi bosqichiga to'g'ri keladi. Sariqamish havzasidagi Tumek Kichijik qabristonida Kaltaminor madaniyatiga oid 30 ta yodgorliklar o'rganilgan. Tumek-kichidjik qabristoni neolit davrining so'nggi bosqichiga oid manzilgoh hisoblanadi. Yodgorlik 1972-yilda topilgan. U yerda 1973-74 yillarda arxeologik tadqiqot olib borilgan. Arxeologik qidiruv ishlari davomida 27 qabr ochib o'rganilgan. Qabrga dafn etilganlar chalqanchasiga yotqizilgan, boshlari esa, asosan, shimoli-sharqqa qaratib qo'yilgan va kiyim boshlari bilan ko'milgan. Skeletlar ustida taqinchoqlar saqlanib qolgan. Tosh qurollar va sopol buyumlarning parchalari qo'yilgan. Qabrdagi suyaklarda qizil rang izlar mavjud. Bu ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'gan. Amudaryoning qadimiy kanallari muammosi va ularning joylashishi tarixi bilan bog'liq holda janubiy Aqchadaryo deltasining Kelteminar joylarining relyefi bo'yicha kuzatishlar nihoyatda muhim. Qoida tariqasida, ular deltaning qirg'og'ida, tog' jinslari qumlari bilan chegarada, to'g'ridan-to'g'ri sug'orish chegarasidan tashqarida yoki yirik delta ichidagi tepaliklar-orollar etagida joylashgan (masalan, qirg'oq yaqinida saytlar majmuasi mavjud. Janbos-qal'a). Daryoning asosiy va yon kanallarini o'rab turgan takirlardagi delta ichida neolit davriga oid joylar juda kam uchraydi [16].

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada arxeologlar tomonidan Kaltaminor madaniyatiga mansub yodgorliklarni arxeologik jihatdan qazib o'rganish, tadqiq qilish, aholining xo'jalik turmush tarzi, diniy va dunyoviy qarashlar borasidagi qanday bo'lganligi atroflicha tahlil qilingan. XX asrning 30-40 yillari davomida Xorazm vohasi hududlarida olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonlarida S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, A.Asqarov hamda O'.Islomov kabi olimlar o'z jonbozliklarini ko'rsatganlar. Geografik jihatdan Quyi Amudaryo havzasi va Zarafshon etaklarida yashab kun kechirgan neolit davri jamoalarining turmush tarzi to'laqonli tarzda tiklandi. Bu davr odamlari yashagan Jonbos-IV va Darvozaqir I makonlaridan topilgan yerto'la va yarimyerto'la shaklidagi turar joy qoldiqlari namunalar asosida arxeolog va tarixchilar bu davr kishilarining turar joy va me'morchilik sohalarida ham yuksak namunalar yaratganligini ko'rishimiz mumkin. Yog'och ustunlar, sinchlar va bu uylardagi o'choq izlari, urug' a'zolarining hamjihatlikda yashaginin bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari ko'plab yodgorliklarda uchragan chaqmoqtoshdan va suyakdan yasalgan, turli xil maqsadlarda foydalanilgan qurollar, sirtiga xilma-xil turdagi geometrik va o'simliksimon naqshlar bilan bezatilganligining o'zi ham aholining madaniy hayoti ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Tumek-Kichidjik qabristonidagi 27 ta qabrning o'rganilishi so'nggi neolit davri aholisining dafn marosimlari, kiyim-kechaklari va suyaklardagi qizil bo'yoq (oxra) izlari orqali ularning murakkab dunyoqarashi va diniy e'tiqodlariga oydinlik kiritadi. Umuman olganda, Kaltaminor madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi O'rta Osiyoning eng qadimgi o'troq va mavsumiy tarzda hayot kechirayotgan jamoalari taraqqiyot bosqichlarini xolis va ilmiy asosda tiklashga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan xulosalar va arxeologik artefaktlar neolit davri tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitish hamda uni ilmiy-amaliy adabiyotlar va ta'lim jarayoniga kengroq joriy etishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. Виноградов А.В. Археологические исследования в низовьях Амударьи. – Ташкент, 1958.
2. Қосимов Ж. Ўзбекистон тарихида археологик тадқиқотлар. – Самарқанд: СамДУ, 2018.
3. N.A. Egamberdiyeva. Arxeologiya: O'quv qo'llanma. – Toshkent : Fan va texnologilar, 2011. – 60 b
4. Egamberdiyeva N.A. Ko'rsatilgan adabiyot. T.: O'zbekiston, 2011. – B.56.
5. Назаров К. Неолит даври жамиятлари ва уларнинг иқтисоди. – Тошкент: Фан, 2020.
6. Зоҳидов Ҳ. Тарих ва уни ўрганиш усуллари. – Т.: О'zbekiston, 2006.
7. Egamberdiyeva N.A. Ko'rsatilgan adabiyot. T.: O'zbekiston, 2011. – B.60.
8. Очилов Алишер Тўлис ўғли. Бухоро археологияси: ўқув қўлланма. – Бухоро: Фан ва таълим нашриёти, 2022. – Б. 48–90.
9. Я. Г. Гулямов, Археологические работы к западу от Бухарского оазиса // Труды Института истории и археологии АН Узбекской ССР. вып.- Ташкент, 1956. – С.8.
10. Egamberdiyeva N.A. Ko'rsatilgan adabiyot. T.: O'zbekiston, 2011. – B.58.
11. Ochilov alisher To'lis o'g'li. o'quv qo'llanma. – Buxoro: Fan va ta'lim nashriyoti, 2022. – B.48-90.

12. Xolboyev.Z., Alimov. A O'zbekistonning arxeologiya yodgorliklari. O'quv Qo'llanma. –Toshkent: 2014. – 144 b.
13. Egamberdiyeva N.A. Ko'rsatilgan adabiyot. T.: O'zbekiston, 2011. – B.59.
14. Ibragimov Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T.: O'zbekiston, 2020. – B.61.
15. Ibragimov R. Arxeologiya. – T.: O'zbekiston, 2022. – B.69.
16. Толстов С.П. По древним делам Окса и Яксрта. Москва(ИВЛ), 1962. – С.30.

UDC 94(575.1):336.7:930.1

SOVIET AND WESTERN APPROACHES IN THE HISTORIOGRAPHY OF THE TURKESTAN BANKING SYSTEM: A COMPARATIVE ANALYSIS OF OPPOSING INTERPRETATIONS

N.R.Abdullaeva, Basic Doctoral Student, Namangan State University, Namangan

Annotatsiya. Maqolada Chor Rossiyasi davrida Turkistonda bank tizimi tarixshunosligidagi ikki yirik nazariy an'ana sovet strukturaviy maktabi va g'arb moliyaviy vositachilik nazariyasi birgalikda qiyosiy tahlil qilinadi. Ko'rsatilishicha, sovet tarixshunosligi bank kapitalini mustamlaka ekspluatatsiyasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan bo'lsa, g'arb nazariy adabiyoti bankni axborot, tavakkal va likvidlikni boshqaruvchi funktsional institut sifatida ko'radi. Tahlil natijasida har ikki an'ananing tahlil birligi, tushuntirish quvvati va metodologik cheklanishlari aniqlanadi, lokal-arxiviy tarixshunoslik esa ular o'rtasidagi oraliq empirik bo'g'in vazifasini bajarishi asoslanadi. Xulosa qilib aytganda, ikkala yondashuvni tanqidiy sintez qilish orqaligina Turkiston bank tizimining gibrid tabiatini yaxlit tushunish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, bank tizimi, tarixshunoslik, sovet maktabi, moliyaviy vositachilik nazariyasi, kolonial moliya, bank kapitali, institutsional tahlil, tanqidiy sintez.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ двух крупных теоретических традиций в историографии банковской системы Туркестана периода царской России - советской структурной школы и западной теории финансового посредничества. Показано, что советская историография трактовала банковский капитал как инструмент колониальной эксплуатации, тогда как западная теоретическая литература рассматривает банк как функциональный институт управления информацией, риском и ликвидностью. В результате анализа определены единица анализа, объяснительная сила и методологические ограничения каждой традиции, а также обосновано, что локально-архивная историография выполняет функцию промежуточного эмпирического звена между ними. Делается вывод, что только критический синтез обеих традиций позволяет целостно понять гибридную природу банковской системы Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, банковская система, историография, советская школа, теория финансового посредничества, колониальные финансы, банковский капитал, институциональный анализ, критический синтез.

Abstract. The article offers a comparative analysis of two major theoretical traditions in the historiography of the Turkestan banking system under Tsarist Russian rule - the Soviet structural school and the Western theory of financial intermediation. It is shown that Soviet historiography interpreted bank capital as an instrument of colonial exploitation, while Western theoretical literature treats the bank as a functional institution managing information, risk, and liquidity. The comparison identifies the unit of analysis, explanatory strengths, and methodological limitations of each tradition, and demonstrates that local-archival historiography serves as an intermediate empirical link between them. The article concludes that a critical synthesis of both traditions is necessary to understand the hybrid, simultaneously dominating and adaptive nature of the Turkestan banking system.

Key words: Turkestan, banking system, historiography, Soviet school, financial intermediation theory, colonial finance, bank capital, institutional analysis, critical synthesis.

Kirish. Turkistonda bank tizimi tarixining tarixshunoslikda yoritilishi mustamlaka boshqaruvi, moliyaviy vositachilik nazariyasi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar kesishgan nuqtada

shakllangan. Sovet davri tarixshunosligi bank institutlarini mustamlaka iqtisodiy siyosatining texnik quroli, ya'ni markaziy kapitalning periferiyaga kirib kelish kanali sifatida talqin qilgan (Lavrentyev, 1930; Aminov, 1959). G'arb iqtisodiy-nazariy adabiyoti esa bankni axborot assimetriyasini kamaytiruvchi, tavakkalni boshqaruvchi va likvidlikni qayta taqsimlovchi mustaqil funktsional institut sifatida ko'radi (Allen & Santomero, 2001; Levine, 1997). Bu ikki an'ana nafaqat turli xulosalarga, balki turli savollarga ham olib keladi, shu sababli ularni oddiy “to'g'ri yoki noto'g'ri” mezon bilan emas, har birining o'z tushuntirish vazifasi nuqtai nazaridan baholash zarur.

Ushbu ikki an'ananing metodologik asoslari va bir-biriga nisbatan cheklanishlari hali Turkiston bank tizimi tarixshunosligida sistemali qiyoslanmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati yoki bitta an'ana doirasida qolib ketadi, yoki ikkala an'anani mexanik tarzda yonma-yon qo'yadi, ularning ichki mantig'ini va bir-biriga nisbatan tushuntirish salohiyatini tahlil qilmaydi. Aynan shu metodologik bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi, chunki Turkiston bank tizimi kabi murakkab, ko'p qatlamli institutsional hodisani faqat bir an'ana doirasida tushuntirish muqarrar ravishda tarixiy manzarani soddalashtiradi. Mazkur maqolaning maqsadi ikkala an'anani bir tahliliy maydonda qiyoslab, ularning Turkiston bank tizimi tarixini tushuntirishdagi nisbiy imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek ularni tanqidiy sintez qilish zaruratini asoslashdan iborat. Vazifalar: sovet maktabining ichki tipologiyasini ko'rsatish; g'arb nazariyasining kontseptual yutuqlarini tizimlashtirish; ikkala an'ananing epistemologik farqlarini aniqlash; lokal-arxiviy tarixshunoslikning oraliq bo'g'in sifatidagi rolini asoslash; nihoyat, mavjud tahlilning metodologik cheklanishlarini ko'rsatib, kelgusi tadqiqotlar uchun aniq yo'nalishlarni belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda birinchi marta Turkiston bank tizimi tarixshunosligidagi ikki yirik nazariy an'ana bir maydonda, yagona qiyosiy mezonlar asosida tahlil qilinadi. Mavjud adabiyotda bu ikki an'ana odatda alohida-alohida yoki sof sovet-tanqidiy, yoki sof funktsional-iqtisodiy nuqtai nazardan muhokama qilingan, ularning o'zaro nisbati va bir-birini to'ldirish salohiyati esa maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ob'ekti sifatida Turkiston bank tizimi tarixshunosligida shakllangan ikki nazariy an'ana sovet strukturaviy maktabi va g'arb moliyaviy vositachilik nazariyasi olindi. Tadqiqot predmeti esa ushbu ikki an'ananing tahlil birligi, tushuntirish mantig'i va Turkiston materialiga nisbatan tatbiq etilish imkoniyatlaridan iborat. Manba bazasini tanlashda ikki mezon qo'llanildi: birinchidan, har bir manba o'z an'anasining eng vakiliy, ko'p iqtibos qilinadigan asari bo'lishi; ikkinchidan, manba Turkistonga o'xshash periferik-kolonial kontekstga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan nazariy apparatni taklif etishi kerak edi. Bundan tashqari, ikkala an'ana o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida lokal-arxiviy tadqiqotlar alohida tahlil kategoriyasi sifatida kiritildi, chunki ular nazariy abstraksiyalar bilan empirik dalillar o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi.

Tadqiqot metodi sifatida qiyosiy-tarixshunoslik tahlili (comparative historiographical analysis) qo'llanildi. Bu metod doirasida har bir manba to'rt mezon bo'yicha baholandi: (1) tahlil birligi; (2) bankning mohiyatiga berilgan ta'rif; (3) yondashuvning kuchli tomoni; (4) yondashuvning zaif tomoni. Metod sifat-tahliliy (qualitative) xususiyatga ega bo'lib, statistik protseduralarni o'z ichiga olmaydi, chunki tadqiqot predmeti nazariy matnlar va ularning kontseptual tarkibi miqdoriy o'lchovga bo'ysunmaydigan materialdir.

Natijalar.

1. Sovet strukturaviy maktabi. Sovet tarixshunosligining ilk va o'rta bosqichida Turkiston bank tizimi masalasi “kapitalizmning kirib kelishi” va “burjua kolonizatsiyasi”ning tarkibiy qismi sifatida talqin qilindi. Lavrentyev (1930) Turkistondagi kapitalistik o'zgarishlarni bevosita “burjua kolonizatsiyasi” kategoriyasi bilan bog'lab, moliyaviy institutlarni imperiya manfaatlari uchun xizmat qiluvchi ustqurma sifatida ko'rgan. Aminov (1959) bank va kredit tizimini tashqi kapitalning hududga kirib kelishini ta'minlovchi mexanizm sifatida muhokama qilgan, Vekselman (1987) va Yuldashev (1961) esa rus monopolistik kapitalining O'rta Osiyoga kirib borishini markaziy tushuncha sifatida ilgari surgan. Buning kuchli jihati bank tizimini kapital oqimlari bilan bog'lab ko'rishga majbur qilishida, zaif tomoni esa bankning o'ziga xos institutsional tabiati depozit, diskont, tavakkalni baholash funktsiyalari “moliyaviy kapital hukmronligi” formulasi ichida erib ketishidadir.

Sovet maktabi ichida ham sezilarli ichki farqlanish mavjud: ayrim mualliflar bank tizimini bir xil, to'g'ridan-to'g'ri ekspluatatsion tarmoq sifatida ko'rsa, boshqalari uni notekis rivojlangan, markaziy kapital bilan mahalliy moliyaning nomutanosib aloqasi sifatida talqin qiladi. Bu farqlar sovet va postsovet tarixshunosligining o'zi ham bir tekis emasligini ko'rsatadi uning ichida bank tizimini total hukmronlik mexanizmi deb ko'radigan ham, uni notugal va periferik institutlar majmui deb talqin qiladigan oqimlar ham mavjud.

2. G'arb moliyaviy vositachilik nazariyasi. Allen va Santomero (2001) klassik depozit-kredit sxemasining zamonaviy bank amaliyotini tushuntirishga ojizligini ko'rsatib, banklarni komissiya ishlab chiqaruvchi faoliyat va tavakkalni boshqarish orqali rolini saqllovchi institut sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, XX asr oxiri amaliyotida an'anaviy bank biznesining nisbiy ulushi qisqarib, banklar hujjatli operatsiyalar, hisob-kitob va bozorlarga bog'lovchi xizmatlar orqali rolini saqlab qolgan, shu sababli bankni faqat jamg'armadan investitsiyaga ko'priksifatida ta'riflash yetarli emas.

Levine (1997, 2002) moliyaviy tizimni kapitalni, axborotni, likvidlikni va tavakkalni qayta taqsimlovchi yaxlit funktsional majmua sifatida ta'riflab, bank tizimi tushunchasini institutsional mexanizm darajasiga olib chiqadi. Bu tezis Turkiston bank tizimi tarixini alohida banklar yig'indisi emas, keng iqtisodiy infratuzilma sifatida ko'rishga imkon beradi. Shu bilan birga, Levine (2002) banklar va bozorlarni "qaysi biri yaxshi?" tarzida qarama-qarshi qo'yish analitik jihatdan samarasiz ekanini, asosiy masala esa ikkisi ham samarali ishlashi mumkin bo'lgan huquqiy muhitni yaratish ekanini ta'kidlaydi.

Muhokama

1. Epistemologik qarama-qarshilik. Sovet va g'arb yondashuvlarining asosiy farqi tahlil birligida namoyon bo'ladi: sovet maktabi "kim va nima uchun kapitalni boshqaradi?" savolini, g'arb nazariyasi esa "bank funktsiyasini qanday bajaradi?" savolini qo'yadi. Ikkinchi muhim farq ikkala an'ananing tarixiy o'zgaruvchanlikka munosabatida: sovet maktabi bank tizimini ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning ko'rinishi sifatida ko'radi, shu sababli uning tahlili tarixiy davrlashtirish bilan chambarchas bog'liq, g'arb nazariyasi esa ko'proq universal-funktsional xarakterga ega bo'lib, bank vazifalarini istalgan tarixiy muhitga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan abstraktsiya sifatida taqdim etadi. Uchinchi farq esa dalil turiga bog'liq: sovet maktabi ko'proq statistik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, g'arb nazariyasi esa nazariy modellashirish va empirik regressiya tahliliga tayanadi, bu esa ularni Turkiston materialiga qo'llashda turli manba talablarini keltirib chiqaradi.

2. Lokal-arxiviy tarixshunoslik oraliq bo'g'in sifatida. Alimdjanov va Choriev (2021) hamda Potapova (2011) kabi lokal-arxiviy tadqiqotlar mazkur ikki an'ana o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi empirik bo'g'in vazifasini bajaradi. Ular, bir tomondan, sovet maktabining makro tezislarni filial darajasidagi aniq dalillar bilan tekshiradi, ikkinchi tomondan, g'arb nazariyasining funktsional tushunchalarini monitoring, tavakkalni baholash, mijoz tanlovi real arxiv hujjatlari orqali empirik tarzda to'ldiradi. Bunday tadqiqotlarning qiymati shundaki, ular nazariy abstraktsiyani arxiv hujjati darajasida tekshirish imkonini beradi: masalan, bank filiali direktorining hisobotida qayd etilgan mijozlar tarkibi yoki kredit qarorlari sovet maktabining "kim manfaatdor" savoliga ham, g'arb nazariyasining "qanday tavakkal boshqarilgan" savoliga ham bir vaqtning o'zida javob beradi.

Xulosa. O'tkazilgan qiyosiy tahlil kirish qismida qo'yilgan maqsadga erishilganini tasdiqlaydi: sovet strukturaviy maktabi va g'arb moliyaviy vositachilik nazariyasi bir tahliliy maydonda qiyoslandi va ularning Turkiston bank tizimi tarixini tushuntirishdagi nisbiy imkoniyatlari aniqlandi. Tadqiqot ko'rsatadiki, sovet strukturaviy maktabi (Lavrentyev, 1930; Aminov, 1959; Vekselman, 1987; Yuldashev, 1961) bank kapitalining kolonial-siyosiy joylashuvini ko'rsatishda kuchli, biroq institutning ichki funktsional mantig'ini xiralashtiradi. G'arb moliyaviy vositachilik nazariyasi (Allen & Santomero, 2001; Levine, 1997, 2002; Hakenes, 2004) esa bankning axborot, tavakkal va likvidlik boshqaruvi sifatidagi mohiyatini ochadi, biroq kolonial siyosiy assimetriyani o'z-o'zidan tushuntirmaydi. Demak, ikkala an'ana ham Turkiston bank tizimi tarixini alohida, mustaqil ravishda to'liq tushuntira olmaydi; ularning har biri boshqasi ko'rmaydigan bir bo'lakni ochib beradi.

Lokal-arxiviy tarixshunoslik (Alimdjanov & Choriev, 2021; Potapova, 2011) ushbu ikki an'ana o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi empirik bo'g'in ekani isbotlandi. Shu sababli Turkiston bank tizimini

“mustamlakachilik quroli” yoki “neytral moliyaviy institut” tarzidagi ikki qutbli talqindan chiqarib, uni hukmronlik, moslashuv va funktsional vositachilikning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan tarixiy shakli sifatida tahlil qilish zarur. Bunday tanqidiy sintez keyingi arxiviy tadqiqotlar uchun aniqroq nazariy-tushunchaviy asos yaratadi va Turkiston bank tizimi tarixshunosligini yangi metodologik bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Turkiston bank tizimi tarixi faqat bitta nazariy tilda emas, balki bir necha tushuntirish tili o'rtasidagi doimiy muzokara sifatida yozilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimdjanov, B., & Choriev, Sh. (2021). *Employees of the Volga-Kama Commercial Bank branches in Central Asia*. Herald of an Archivist, (2), 450–468.
2. Allen, F., & Santomero, A. (2001). *What do financial intermediaries do?* Journal of Banking & Finance, 25(2), 271–294.
3. Aminov, A. (1959). *Ekonomicheskoe razvitie Srednei Azii: kolonialnyi period [Economic development of Central Asia: The colonial period]*. Gosizdat UzSSR. (In Russian)
4. Lavrentyev, V. (1930). *Kapitalizm v Turkestane [Capitalism in Turkestan]*. Izd-vo Kommunisticheskoi akademii. (In Russian)
5. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. *Journal of Economic Literature*, 35(2), 688–726.
6. Levine, R. (2002). Bank-based or market-based financial systems: Which is better? *Journal of Financial Intermediation*, 11(4), 398–428.
7. Potapova, N. (2011). *Istoriya predprinimatelstva v Turkestane [History of entrepreneurship in Turkestan]*. UMED. (In Russian)
8. Vekselman, M. (1987). *Rossiiskii monopolisticheskii i inostrannyi kapital v Srednei Azii [Russian monopoly and foreign capital in Central Asia]*. Fan. (In Russian)
9. Yuldashev, A. (1961). *Proniknovenie rossiiskogo monopolisticheskogo kapitala v ekonomiku Turkestana [Penetration of Russian monopoly capital into Turkestan's economy]* [Doctoral dissertation abstract]. Tashkent. (In Russian)

UO'K 94(575.1)

XIVA XONLIGIDA MENNONITLAR JAMOASI: KO'CHIB KELISH OMILLARI, IJTIMOY-MADANIY HAYOT VA TARIXIY MULOQOT

M.S.Abdullayeva, kich.i.x., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
<https://orcid.org/0009-0002-7092-1940>

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning oxirgi choragida Xiva xonligiga ko'chib kelgan nemis mennonitlari jamoasining tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayoti tadqiq etilgan. Ko'chib kelishning diniy-oxiratga oid hamda geosiyosiy omillari aniqlanib, “Oqmachit” jamoasining xonlik iqtisodiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissasi manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, sovet davridagi jamoaviy qarshilik harakatlari va inqiroz jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Muhammad Rahimxon II, mennonitlar, Oqmachit, migratsiya, diniy bag'rikenglik, Chiqirchi, Klaus Yepp,

Аннотация. В статье исследуется историческая, социально-культурная жизнь общины немецких меннонитов, переселившихся в Хивинское ханство в последней четверти XIX века. Выявлены религиозно-эсхатологические и геополитические факторы миграции, на основе источников освещен вклад общины “Акмечеть” в экономику и культуру ханства. Также анализируются коллективные протесты и процессы кризиса общины в советский период.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Мухаммад Рахим-хан II, меннониты, Акмечеть, миграция, веротерпимость, Чикирчи, Клаус Эпп.

Abstract. The article examines the historical, socio-cultural life of the German Mennonite community that migrated to the Khiva Khanate in the last quarter of the 19th century. The religious-eschatological and geopolitical factors of migration are identified, and the contribution of the “Oqmachit” community to the economy and culture of the khanate is highlighted based on sources. The collective resistance movements and crisis processes during the Soviet period are also analyzed.

Key words: Khiva Khanate, Muhammad Rahim Khan II, Mennonites, Oqmachit, migration, religious tolerance, Chiqirchi, Claas Epp.

Kirish. XIX asrning oxirgi choragida Rossiya imperiyasining markaziy hududlaridan kelib chiqqan nemis mennonitlarining O'rta Osiyoga, xususan, Xiva xonligiga ko'chib kelishi mintaqa tarixidagi eng o'ziga xos migratsion harakatlar va etnik-diniy o'zgarishlardan biridir. Jamoaning harbiy xizmatdan bosh tortish tamoyillari hamda diniy qarashlari ularni uzoq Sharq o'lkalaridan boshpana izlashga majbur qildi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) tomonidan ko'rsatilgan diniy bag'rikenglik va himmat tufayli bu xristian jamoasi Xorazm vohasida o'zining iqtisodiy va madaniy hayotini yo'lga qo'ya oldi.

Mennonitlar jamoasining o'z an'anaviy yashash joylarini tark etishiga imperiya miqyosida o'tkazilgan huquqiy va harbiy islohotlar turtki bo'ldi. Bu jarayon xorijiy muhojirlarning huquqiy maqomini o'zgartirib yubordi: "Xorijiy mustamlakachilar maqomini o'zgartirgan va umumiy harbiy xizmatning qandaydir shaklini talab qilgan islohotlar butunlay teskari natija berdi; ular mennonitlar orasida jiddiy xavotir uyg'otdi. Ushbu bezovtalikning eng ko'zga ko'ringan belgilaridan biri ham sharqqa, ham g'arbga – Shimoliy Amerika va Sibirga ko'chishlar bo'ldi... Imperiyaning ulkan hududlari va chekka o'lkalari bo'lgan Sibir va Markaziy Osiyo hududlari imperiya siyosiy tizimiga integratsiyalashuvdan xoli bo'lgan tanholikni taqdim eta olar edi" [3].

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida o'zbek va xorijiy manbalarning tarixiy-qiyosiy tahlili hamda sotsiomadaniy rekonstruksiya metodlaridan foydalanilgan. Ushbu jarayonda bezovtalik faqat huquqiy omillar bilan emas, balki jamoaning diniy yetakchilari, xususan, Klaas Epp tomonidan ilgari surilgan oxiratga oid va bibliya bashoratlari bilan ham quvvatlangani tahlil etiladi: "Bartsh va boshqalar uchun Sibir (va uning orti) o'n yilliklar, hattoki asrlarni qamrab olgan Yevropa adabiyoti tufayli ustun keldi, zero ushbu adabiyotga ko'ra, Injil bashoratlarning ro'yobga chiqishida haqiqiy dindorlarning omon qolgan qismi yovuzlik hukmdorligidan qutqariladi va sharqda ilohiy najot taqdim etiladi. Ko'chishga ilhom bergan Klaas Epp kabi ba'zi mualliflar uchun ushbu bashoratlarning amalga oshishi Markaziy Osiyo hududi bilan bog'liq edi" [4].

Tadqiqot natijalari: Nemis mennonitlari xonlik hududiga joylashishda o'ziga xos diplomatik yo'lni bosib o'tgan. Mennonitlar guruhlarining mintaqaga kelishi bir necha bosqichda va murakkab jarayonlar orqali amalga oshdi. Ularning dastlabki harakatlari va Xiva xoni bilan aloqalar o'rnatilishi quyidagicha bayon etiladi: "Xiva xoni (Feruz) Muhammad Rahimxon II (1844-1910) ham Kaufman taklifini qabul qiladi va Xiva yaqinidagi bir qishloqni ularning ixtiyoriga topshiradi. Ana shu tariqa 1880-yildan boshlab mennonitlarning Medemtal, Valdexim, Molotschna nomli guruhlarini dastlab Toshkent, keyin Buxoro, undan so'ngina Xorazmga kelib o'rnatishadi" [2]. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning bu taklifni qabul qilib, ularga yer ajratib berishi xonlikning nafaqat muhojirlarni qabul qilishga tayyorligini, balki mintaqada o'ziga xos bag'rikeng diplomatik muhit yaratganini ko'rsatadi.

Xonlik ma'muriyati bilan bevosita muzokaralar o'tkazish jamoaning ichki tartiblarini saqlab qolish va hududiy joylashuvini aniqlash imkonini berdi: "Mennonitlarning yo'lboshchilaridan Emil Rayson Feruzxon bilan uchrashib, o'zlari uchun alohida qishloq ajratib berishni iltimos qiladi. Xiva xoni mennonitlarga faqat cho'chqa boqmaslik sharti bilangina Xivadan 12 km janubiy-sharqdagi Chiqirchi qishlog'idan yer ajratib beradi" [1].

Mennonitlar dastlab Amudaryo bo'yidagi Lavzan kanali atrofida to'xtagan bo'lsalar-da, keyinchalik xonlik amaldorlari va shaxsan xonning tashabbusi bilan xavfsizroq va qulayroq hududga joylashtirildi: "Xonning orzusi nemislar tufayli ushlab, qolaversa, shunday bo'lgan taqdirda o'zi ham yuksak mavqega ko'tarilishini bilgan Qosim devon nemis ustalarini Xivaga yuboradi. Lavzan kanali bo'yidan Xivagacha bo'lgan 150 chaqirim yo'lni otda bosib o'tib charchagan ustalarni xonning o'zi samimiy kutib oladi" [1].

Ushbu uchrashuv va kelishuvlar natijasida muhojirlarning Chiqirchiga kelishiga ruxsat berilgan: "Natijada, 1884-yil 16-aprel kuni Klass Epp, Emil Rayson, Vilgelm Penner, Jakob Janatzen, Michel Klassen boshchiligidagi oqsoqollardan iborat 34 oil Chiqirchi qishlog'iga kelib o'rnatishadi. Shu tariqa asrlar davomida islom diniga e'tiqod qilib kelayotgan voha Feruzxonning himmati, diniy bag'rikengligi sababli mennonitlarga o'z bag'ridan joy beradi" [1].

Munozara: Chiqirchi qishlog'iga kelgan nemis jamoasi tez orada o'zlarining madaniy va diniy markazlarini barpo etishdi. Bu markaz mahalliy aholi orasida o'ziga xos nom oldi: "Kengashlik nemislar, deya aytib kelingan xalqqa Klass Epp boshchilik qilgan. Klass Epp Oqmachitga asos solgan. U o'zlarining diniy marosimlarini o'tkazishlari uchun qishloqda cherkov qurdirgan. Cherkov juda baland va oq rangga bo'yalgan bo'lib, bir vaqtning o'zida 25 ta mennonit oilasiga xizmat qilgan. Mahalliy aholi cherkovni "Oqmachit" deya atashgan va bu atama vaqt o'tib mennonitlar qishlog'ining nomiga aylangan" [2]. Mahalliy aholining ushbu ibodatxonaga qarab qishloqni "Oqmachit" deb atashi o'lkada o'zbek va nemis xalqlari o'rtasidagi o'zaro ijobiy til va madaniyat o'zgarish hamda tarixiy muloqot muvaffaqiyatini ko'rsatadi.

Mennonitlar faqat muhojir jamoa bo'lib qolmay, o'zlarining bosiqliqi va yuksak xo'jalik yuritish madaniyati bilan ajralib turishdi. Ular musulmon Sharqi muhitida madaniyatlararo muloqotning noyob namunasini yaratdilar: "Eksatologik qarashlari mutaassiblardan yiroq bo'lgan holda, sharqqa sayohat qilganlarning ko'pchiligi hozirgi O'zbekiston hududida gullab-yashnayotgan iqtisodiy jamoalarga asos solgan bosiq va rasmana fikrlaydigan mennonitlar edi. Va ular xristian-musulmon muloqotiga mennonitlarning qo'shgan o'ziga xos hissasi bo'ldilar" [5]. Muhammad Rahimxon II jamoaning madaniy hayotiga, xususan, ularning san'atiga alohida qiziqish va hurmat bilan qaragan: "Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ularning cherkovida faoliyat ko'rsatgan xorga yuqori baho bergan va tinglagan. Ana shu dalillarning o'ziyoq Oqmachitlik nemislarning Xorazm taraqqiyotida sezilarli va o'ziga xos o'ringa ega bo'lganini ko'rsatadi" [2].

1920–1930-yillarda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va kollektivlashtirish siyosati Oqmachit mennonitlarining osoyishta hayotiga chek qo'ydi. Biroq, tinchliksevar bo'lishlariga qaramay, jamoa a'zolari o'z huquqlari va oilalarini himoya qilishda qat'iy birdamlik namoyish etishdi: "Yaqinda ma'lum bo'lgan va ma'lum darajada muvaffaqiyat qozongan ikkita uyushgan norozilik voqeasi – biri O'zbekistonning Oqmachit qishlog'ida, ikkinchisi Halbshtadt qishlog'ida – mennonitlarni safarbar qilingan kamchilik sifatida ko'rsatadi... Ratliff o'zining "Ipak yo'lidagi ziyoratchilar" asarida Oqmachitdagi juda qiziqarli qarshilik shaklini batafsil bayon qiladi: u yerda ayollar sho'rolar hukumati tomonidan hukm qilingan ba'zi oilalarni olib ketilishiga yo'l qo'ymay, birgalikda "Yo barchamiz, yo hech birimiz!" deb hayqirishgan. O'sha kuni sovetlar qaytib ketishga majbur bo'lgan va keyinchalik butun mennonit aholisini ko'chirish uchun qayta kelishgan" [6]. Bu voqealardan so'ng, 1937-yilga kelib, sovet ma'muriyati jamoani to'liq deportatsiya qildi va Oqmachit nemis jamoasining yarim asrlik tarixi yakunlandi [7]. Sovet hokimiyati tomonidan o'tkazilgan kollektivlashtirish siyosati Oqmachit mennonitlari jamoasining tinch va osoyishta hayotini butunlay buzdi. Jamoa tabatan tinchliksevar bo'lishiga qaramay, sho'rolar hukumatining zulmiga qarshi o'z huquqlari va oilalarini himoya qilishda kuchli birdamlik ko'rsatdi.

Xulosa: Shu tariqa asrlar davomida islom diniga e'tiqod qilib kelayotgan Xorazm diyorida Xiva xoni Feruzxonning himmati va diniy bag'rikengligi sababli mennonitlarga o'z bag'ridan joy berdi.

Xiva xonligidagi mennonitlar jamoasi tarixi – ikki xil dunyoqarash, din va madaniyat vakillarining o'zaro tinch-totuv va samarali hamkorlik qila olishini isbotlovchi tarixiy tajribadir. Muhammad Rahimxon II ning bag'rikenglik siyosati va mennonitlarning yuksak mehnatsevarligi tufayli tashkil topgan Oqmachit qishlog'i nafaqat iqtisodiy markaz, balki Markaziy Osiyodagi xristian-musulmon muloqotining eng yorqin sahifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bekmuhammad, U. Xorazmda yashagan nemislar: tarixiy risola.–Urganch : "Xorazm" nashriyoti, 2019. – 48 b.
2. Bekmuhammad, U. Anna Germanning armonlari: tarixiy risola.–Urganch : "Xorazm" nashriyoti, 2019. – 52 b.
3. Loewen, R., Toews, P. Siberia in the Writings of North American Mennonite Historians // Journal of Mennonite Studies. – 2010. – Vol. 28. – P. 365–372.
4. Bartsch, F. Unser Auszug nach Mittelasien. – Halbstadt, 1907. – Reissued: Winnipeg, 1948.
5. Juhnke, J. C. Rethinking the Great Trek // Mennonite Life. – 2007. – Vol. 62, No. 2.
6. Ratliff, W. R. Pilgrims on the Silk Road: A Muslim-Christian Encounter in Khiva. – Eugene (OR) : Wipf and Stock Publishers, 2010. – 214 p.
7. Savin, A. I. Ethno-Confession in the Soviet State. – Fresno (CA), 2008.

UO'K 101.1:316.4

**JAMIYAT TARAQQIYOTI TAHLILIDAGI AXLOQIY QARASHLAR
(FALSAFIY JIHATLAR VA NUQTAI NAZAR)****Z.N.Abdullayeva, dots., PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, Toshkent****ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0318-2091>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotiga oid turli axloqiy qarashlar falsafiy va ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy va texnologik o'zgarishlar bilan bir qatorda adolat, erkinlik, tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Aristotel, Konfutsiy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, I. Kant va J. S. Mill kabi mutafakkirlarning jamiyat va inson munosabatlari o'ldirida qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, taraqqiyot, axloq, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, erkinlik, mas'uliyat, ma'naviyat, globallashtirish, raqamlashtirish.

Аннотация. В статье анализируются различные этические взгляды на развитие общества с философской и социально-нравственной точек зрения. Рассматривается связь общественного развития с экономическими, политическими и технологическими изменениями, а также с такими ценностями, как справедливость, свобода, равенство, гуманизм и социальная ответственность. Проводится сравнительный анализ взглядов Аристотеля, Конфуция, Абу Насра аль-Фараби, Ибн Сины, И. Канта и Дж. С. Милля. Особое внимание уделяется нравственным проблемам современного общества, связанным с цифровизацией, искусственным интеллектом и глобализацией.

Ключевые слова: общество, развитие, этика, нравственные ценности, социальная справедливость, гуманизм, свобода, ответственность, духовность, глобализация, цифровизация.

Abstract. This article analyzes various ethical perspectives on social development from philosophical and socio-ethical viewpoints. It examines the relationship between social development and economic, political, and technological changes, as well as values such as justice, freedom, equality, humanism, and social responsibility. A comparative analysis is provided of the views of Aristotle, Confucius, Abu Nasr al-Farabi, Avicenna, I. Kant, and J. S. Mill. Particular attention is given to contemporary ethical issues related to digitalization, artificial intelligence, and globalization.

Keywords: society, development, ethics, moral values, social justice, humanism, freedom, responsibility, spirituality, globalization, digitalization.


Kirish. Jamiyat taraqqiyoti insoniyat tarixining eng muhim va murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning rivojlanishi davomida iqtisodiy munosabatlar, siyosiy institutlar, ilm-fan, madaniyat, ta'lim va texnologiyalar doimo o'zgarib boradi. Biroq jamiyat taraqqiyotini faqat moddiy boyliklarning ko'payishi yoki texnologik imkoniyatlarning kengayishi bilan baholash yetarli emas [1, 44].

Axloq insonlarning bir-biriga, jamiyatga, tabiatga va kelajak avlodlarga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi ma'naviy mezonlar tizimidir. Adolat, halollik, mas'uliyat, insonparvarlik, bag'rikenglik, erkinlik va burch kabi qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi [2, 18].

Tarix davomida turli xalqlar va mutafakkirlar jamiyat taraqqiyotining axloqiy asoslari haqida turlicha fikr bildirganlar. Qadimgi Sharq falsafasida jamiyat barqarorligi ko'proq tartib, burch, o'zaro hurmat va ma'naviy kamolot bilan bog'langan bo'lsa, G'arb falsafasida erkinlik, shaxs huquqlari, adolat va foydalilik kabi g'oyalarga katta e'tibor berilgan [3, 328]. Bugungi kunda raqamlashtirish va

sun'iy intellektning jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining axloqiy jihatlarini yanada dolzarblashtirmoqda [4, 43].

Jamiyat taraqqiyoti — insonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning tarixiy o'zgarishi va takomillashuvi jarayonidir. Axloq esa ushbu munosabatlarning insonparvarlik va ma'naviy jihatlarini belgilab beradi. Shu sababli taraqqiyotning ikki muhim jihatini ajratish mumkin: moddiy taraqqiyot va ma'naviy-axloqiy taraqqiyot.



1-rasm. Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan turli axloqiy qarashlarning umumlashgan tahlili

Ushbu rasmda jamiyat taraqqiyotiga nisbatan mavjud asosiy axloqiy qarashlar umumlashirilgan holda ko'rsatilgan. Unda diniy, liberal, utilitaristik, sotsialistik, ekzistensialistik va ekologik qarashlarning jamiyat rivojiga munosabati aks ettirilgan.

Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan turli axloqiy qarashlarning tahlili:

1. **An'anaviy qarash** — jamiyat taraqqiyoti milliy va ma'naviy qadriyatlarni saqlagan holda amalga oshishi kerak. Uning asosiy mezonlari an'ana va qadriyatlardir. Bu qarash milliy o'zlikni saqlashga xizmat qiladi, biroq yangiliklarni qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

2. **Diniy-axloqiy qarash** — jamiyat taraqqiyoti ezgulik va ma'naviyat tamoyillari bilan uyg'un bo'lishi kerak. Uning asosiy mezonlari ezgulik, adolat va halollikdan iborat. Ushbu qarash jamiyatda ma'naviyatni kuchaytiradi, ammo turli qarashlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelishi mumkin.

3. **Gumanistik qarash** — taraqqiyot inson qadr-qimmati va farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Uning asosiy mezonlari inson huquqlari va erkinligidir. Bu qarash inson manfaatini markazga qo'yadi, biroq ayrim hollarda jamoaviy manfaatning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

4. **Utilitar qarash** — jamiyat uchun eng ko'p odamga eng katta foyda keltiradigan taraqqiyot ma'qul hisoblanadi. Uning asosiy mezonlari umumiy manfaatdir. Bu yondashuv jamiyat foydasini hisobga olishga yordam beradi, ammo ozchilik manfaatlarini e'tibordan chetda qolishi mumkin.

5. **Liberal-demokratik qarash** — erkinlik, tenglik va fuqarolarning faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim asoslari hisoblanadi. Uning asosiy mezonlari erkinlik, tenglik va huquqlardir. Ushbu qarash fuqarolik faolligini rivojlantiradi, biroq erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur.

6. **Ijtimoiy-adolatga asoslangan qarash** — jamiyat taraqqiyoti imkoniyatlar va resurslarning adolatli taqsimlanishini ta'minlashi kerak. Uning asosiy mezonlari adolat va teng imkoniyatdir. Bu qarash ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi, ammo mutlaq tenglikni ta'minlash amaliy jihatdan qiyin.

7. **Pragmatik qarash** — jamiyat taraqqiyoti amaliy natija va samaradorlik asosida baholanadi. Uning asosiy mezonlari samaradorlik va real natijadir. Ushbu qarash amaliy muammolarga yechim topishga yordam beradi, biroq ma'naviy qadriyatlar ikkinchi o'ringa tushib qolishi mumkin.

8. **Ekologik-axloqiy qarash** — jamiyat taraqqiyoti tabiat va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Uning asosiy mezonlari ekologik

mas'uliyatdir. Bu qarash tabiatni muhofaza qilishga xizmat qiladi, ammo iqtisodiy va ekologik manfaatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi mumkin.

9. **Texnokratik qarash** — ilm-fan va texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Uning asosiy mezonlari innovatsiya va texnologik rivojlanishdir. Ushbu qarash hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi, biroq texnologik rivojlanish ustidan axloqiy nazoratni ta'minlash zarur.

10. **Barqaror rivojlanish qarashi** — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar o'zaro muvozanatda bo'lishi kerak. Uning asosiy mezonlari muvozanat va mas'uliyatdir. Bu qarash uzoq muddatli taraqqiyotni ta'minlaydi, ammo qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni uyg'unlashtirish qiyin bo'lishi mumkin [5, 44].

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan turli axloqiy qarashlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli davr va sivilizatsiyalar vakillari taraqqiyotning mazmunini turlicha talqin qilgan bo'lsalarda, ularning qarashlarida umumiy jihatlar mavjud.

Birinchidan, ko'pchilik axloqiy ta'limotlarda adolat jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida qaraladi. Adolatsizlik mavjud bo'lgan jamiyatda iqtisodiy yoki texnologik o'sishning o'zi barqaror farovonlikni ta'minlay olmaydi.

Ikkinchidan, inson qadr-qimmati taraqqiyotning markazida turishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar qanchalik rivojlangan bo'lsin, ular inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tamoyiliga zid kelmasligi lozim.

Uchinchidan, mas'uliyat tushunchasi jamiyat taraqqiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir inson o'z harakatlarining nafaqat o'ziga, balki boshqa insonlarga, jamiyatga va tabiatga ta'sirini hisobga olishi kerak.

To'rtinchidan, ilm va ta'lim axloqiy taraqqiyotning muhim vositasi hisoblanadi. Bilimli inson axborotni tanqidiy tahlil qilish, to'g'ri qaror qabul qilish va jamiyat manfaatlarini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Beshinchidan, bugungi raqamli jamiyatda axloqiy masalalar yangi mazmun kasb etmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, avtomatlashtirish va raqamli platformalar inson hayotining ko'plab sohalariga kirib kelmoqda.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan turli axloqiy qarashlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, taraqqiyot tushunchasi murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Insoniyat tarixida jamiyatning rivojlanishiga oid turli nazariyalar shakllangan bo'lsa-da, ularning aksariyati inson, jamiyat va axloq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tirof etadi. Qadimgi falsafiy ta'limotlarda axloqiy kamolot va ijtimoiy tartibga, Sharq va islom falsafasida ilm, adolat, ma'rifat va fozil jamiyat g'oyalariga, G'arb falsafasida esa shaxs erkinligi, huquqlari, burch va umumiy farovonlik masalalariga alohida e'tibor berilgan. Zamonaviy jamiyat sharoitida esa ushbu qarashlarni yangi texnologik jarayonlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt va globallashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratayotgan bir vaqtda, ulardan mas'uliyatsiz foydalanish yangi axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni faqat texnologik yoki iqtisodiy o'sish emas, balki inson qadr-qimmatining ta'minlanishi, ijtimoiy adolat, axloqiy mas'uliyat, ta'lim va ma'naviy kamolotning rivojlanishi bilan ham belgilanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. — Paris: UNESCO, 2022. — 44 b. [UNESCO rasmiy nashri](#)
2. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023–24: Breaking the Gridlock: Reimagining Cooperation in a Polarized World. — New York: UNDP, 2024. — 328 b. [UNDP Human Development Report 2023–24](#)
3. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. — Paris: UNESCO, 2021. — 43 b.
4. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence: Implementation and Policy Areas. — Paris: UNESCO, 2023. — 44 b. [UNESCO AI Ethics materiali](#)
5. UNESCO. Ethics of Artificial Intelligence: Human Rights-Based Approach. — Paris: UNESCO, 2024. [UNESCO Ethics of Artificial Intelligence](#)

UO'K: 37.014.3(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 1991–2023-YILLARDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: PREZIDENT VA IJOD MAKTABLARI HAMDA YANGI BAHOLASH TIZIMI MISOLIDA**R.K.Allaberganova, mustaqil tadqiqotchi, Urganch Davlat Pedagogika instituti, Urganch**

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida 1991–2023-yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda yangi baholash tizimi misolida yoritilgan. Shuningdek, Xorazm viloyatida 2023/2024-o'quv yilida yangi baholash tizimining joriy etilishi va uning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim islohotlari, Prezident maktablari, ijod maktablari, yangi baholash tizimi, summativ baholash.

Аннотация. В статье освещаются реформы системы образования Республики Узбекистан в 1991–2023 годах на примере Президентских, творческих и специализированных школ, а также новой системы оценивания. Также проанализированы внедрение новой системы оценивания в Хорезмской области в 2023/2024 учебном году и её результаты.

Ключевые слова: образовательные реформы, Президентские школы, творческие школы, новая система оценивания, суммативное оценивание.

Abstract. The article examines education reforms in the Republic of Uzbekistan from 1991 to 2023 through the example of Presidential, creative and specialized schools, as well as the new assessment system. It also analyzes the introduction of the new assessment system in Khorezm region in the 2023/2024 academic year and its results.

Key words: education reforms, Presidential schools, creative schools, new assessment system, summative assessment.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. 1991-yildan keyingi davrda ta'lim sohasida milliy qadriyatlar, zamonaviy bilimlar, xalqaro tajriba va mehnat bozori talablarini uyg'unlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Dastlabki yillarda asosiy e'tibor ta'limning huquqiy asoslarini yaratish, kadrlar tayyorlashning milliy modelini ishlab chiqish va uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga qaratildi. Keyingi bosqichlarda esa ta'lim sifati, o'quv dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimi, baholash mexanizmlarining shaffofligi va natijadorligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. 2019-yildan boshlab O'zbekistonda iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimida yangi bosqich boshlandi. Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida o'qitish, ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim tajriba maydoniga aylandi. Dastlab bu muassasalar Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimida tashkil etilgan bo'lsa, keyingi yillarda boshqaruv tizimi takomillashtirilib, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi doirasida faoliyat yurita boshladi [5; 6]. Bu jarayon ta'limda ixtisoslashuv, saralash, individual yondashuv va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillarini kuchaytirdi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy-huquqiy, statistik va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Material sifatida O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, rasmiy axborot manbalari hamda Xorazm viloyati bo'yicha hududiy tahlil ma'lumotlari o'rganildi. Normativ-huquqiy hujjatlar orqali ta'lim siyosatining bosqichlari aniqlashtirildi, rasmiy xabarlar asosida esa yangi baholash tizimining amaliy joriy etilish holati tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida 1991–2023-yillar shartli ravishda uch bosqichga ajratildi: birinchi bosqich — mustaqillikdan keyingi huquqiy va tashkiliy asoslarning shakllanishi; ikkinchi bosqich — ta'lim mazmuni va sifatiga oid islohotlarning chuqurlashuvi; uchinchi bosqich — Prezident, ijod,

ixtisoslashtirilgan maktablar hamda yangi baholash tizimi orqali natijadorlikka yo'naltirilgan modelning shakllanishi.

Xorazm viloyati misolida yangi baholash tizimi bo'yicha ochiq e'lon qilingan ma'lumotlar va hududiy hisobot ko'rsatkichlari umumlashtirildi. 17 879 nafar o'quvchi, Urganch shahar 1-son maktabining yuqori ko'rsatkichli maktablar qatoriga kiritilishi hamda Xorazm viloyatining o'zlashtirish darajasi bo'yicha yuqori natijasi hududiy tahlil ma'lumotlari doirasida talqin qilindi.

Natijalar: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1991–2023-yillarda O'zbekiston ta'lim tizimi mazmunan uch asosiy yo'nalishda rivojlandi. Birinchidan, milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi. Ikkinchidan, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan strategik hujjatlar qabul qilindi. Uchinchidan, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ta'lim natijalarini mezonlar asosida baholash tizimi shakllandi.

2019-yilda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi umumiy o'rta ta'limni modernizatsiya qilishda muhim hujjat bo'ldi [3]. Ushbu bosqichda ta'lim sifati, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok, o'qituvchilar malakasi, maktab infratuzilmasi va boshqaruv samaradorligi kabi masalalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Prezident maktablarini tashkil etish bo'yicha 2019-yilda qabul qilingan qaror esa iqtidorli yoshlarni xalqaro ta'lim standartlari asosida o'qitishga qaratilgan alohida modelni shakllantirdi [4]. Prezident maktablari STEAM fanlari, xorijiy tillar, tanqidiy fikrlash, muammo yechish, mustaqil izlanish va xalqaro baholashga tayyorgarlik kabi yo'nalishlar bilan umumiy ta'lim tizimiga metodik ta'sir ko'rsata boshladi.

Ijod maktablari esa o'quvchilarning adabiyot, til, san'at, ijodiy tafakkur va milliy madaniyatga qiziqishini rivojlantirishga xizmat qildi. Bunday maktablar ta'lim tizimida faqat aniq fanlarga emas, balki ijodiy va gumanitar yo'nalishlarga ham chuqurlashtirilgan yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Natijada Prezident maktablari intellektual raqobat muhitini, ijod maktablari esa ijodiy salohiyatni rivojlantirish tizimini mustahkamladi.

2023/2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimida yangi baholash tartibining joriy etilishi islohotlarning navbatdagi muhim bosqichi bo'ldi. Bu tizim formativ va summativ baholashga asoslanadi. Formativ baholash o'quvchining o'quv jarayonidagi rivojlanishini muntazam kuzatish, unga o'z vaqtida teskari aloqa berish va ta'limdagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Summativ baholash esa chorak, yarim yil, o'quv yili yoki muayyan bo'lim yakunida o'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini umumlashtirilgan holda aniqlashga qaratiladi [7].

Yangi baholash tizimining muhim jihati shundaki, u faqat baho qo'yish jarayoni emas, balki ta'lim sifati monitoringini yuritish, o'quvchilar natijasini tahlil qilish, o'qituvchi faoliyatining samaradorligini aniqlash va maktab boshqaruvini dalillarga asoslangan qarorlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur tizim Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda shakllangan natijaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini umumta'lim maktablariga tatbiq etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

2023/2024-o'quv yilida yangi baholash tizimining joriy etilishi bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Respublika / Xorazm misolida holat	Izoh
Respublika bo'yicha yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablar	500 ta umumta'lim maktabi	2023/2024-o'quv yilidan boshlangan bosqich
Xorazm viloyatida yangi baholash tizimi joriy etilgan maktablar	29 ta maktab	Viloyat bo'yicha dastlabki bosqich
Xorazm viloyatida qamrab olingan o'quvchilar	17 879 nafar	Hududiy tahlil ma'lumotlari asosida
Yuqori ko'rsatkich qayd etgan maktab	Urganch shahar 1-son maktabi	Yillik summativ baholash natijalari bo'yicha
Xorazm viloyatining o'zlashtirish ko'rsatkichi	Respublika bo'yicha 1-o'rin	Hududiy tahlil ma'lumotlari asosida
2024/2025-o'quv yilida Xorazmda qo'shimcha qamrov	121 ta maktab	Yangi baholash tizimi qamrovining kengayishi

Jadvaldan ko'rinadiki, yangi baholash tizimi dastlab tajriba va bosqichma-bosqich kengaytirish tamoyili asosida yo'lga qo'yilgan. Xorazm viloyatida 29 ta maktabning ushbu tizimga jalb qilinishi

hududiy darajada baholash madaniyatining yangilanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, yillik summativ baholash natijalari asosida Urganch shahar 1-son maktabining yuqori ko'rsatkichli maktablar qatoridan o'rin olishi yangi baholash tizimining amaliy natija berayotganini ko'rsatadi.

Muhokama. O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 1991–2023-yillar oralig'ida ta'lim siyosati oddiy tashkiliy o'zgarishlardan natijaga yo'naltirilgan sifat boshqaruvi tizimiga o'tib bordi. Dastlabki davrda ta'limning huquqiy asoslari va milliy modeli yaratilgan bo'lsa, keyingi davrda ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida yangilash, iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash, chuqurlashtirilgan ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda o'quvchilar bilimini ob'ektiv baholash masalalari ustuvor bo'ldi.

Prezident maktablari va ijod maktablari ta'lim tizimida ikkita muhim vazifani bajardi. Birinchidan, ular yuqori salohiyatli o'quvchilar uchun maxsus ta'lim muhitini yaratdi. Ikkinchidan, bu maktablar umumiy ta'lim tizimi uchun tajriba maydoniga aylandi. Ya'ni, bu muassasalarda qo'llanilgan o'quv dasturlari, tanlov asosida qabul qilish, fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, xalqaro yondashuvlar va baholash mexanizmlari keyinchalik umumta'lim maktablariga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan model sifatida qaraldi.

Yangi baholash tizimi esa ta'limda “baho uchun o'qish” yondashuvidan “natija va rivojlanish uchun o'qish” yondashuviga o'tish imkonini beradi. An'anaviy baholashda o'quvchining yakuniy javobi asosiy mezon sifatida qaralgan bo'lsa, formativ baholashda o'quvchining rivojlanish dinamikasi, xatolari, ehtiyojlari va keyingi o'sish yo'nalishlari aniqlanadi. Summativ baholash esa ta'lim bosqichi yakunida o'zlashtirish darajasini tizimli o'lchashga xizmat qiladi.

Xulosa. 1991–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'limning huquqiy asoslari va milliy modeli yaratildi. Keyingi bosqichlarda ta'lim sifati, xalqaro standartlarga moslashish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim natijalarini ob'ektiv baholash masalalari ustuvor yo'nalishga aylandi.

Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar mamlakatda iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yangi institutsional modelini shakllantirdi. Bu maktablar orqali fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, tanlov asosida qabul qilish, xalqaro ta'lim standartlariga moslashish va natijadorlikka asoslangan boshqaruv tajribasi yaratildi.

Umuman olganda, Prezident va ijod maktablari hamda yangi baholash tizimi O'zbekiston ta'lim islohotlarining mazmunan sifat bosqichiga o'tganini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu tizimning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarning baholash savodxonligini kuchaytirish, hududiy metodik yordamni tizimli tashkil etish, summativ baholash natijalarini chuqur tahlil qilish va ilg'or maktablar tajribasini ommalashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1997-yil 29-avgust, 463-I-son.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. 2019-yil 20-fevral, PQ-4199-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni. 2019-yil 9-sentabr, PF-5815-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2023-yil 26-may, PF-79-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sifatli ta'limni ta'minlashda ijobiy natijaga erishgan umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati va o'qituvchilarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. 2024-yil 6-may, 263-son.
8. Xorazm viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi. “Xorazmda mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimi” mavzusidagi rasmiy axborot materiali. 2024.

O'ZBEKISTON QORAKO'L TERISINING YEVROPA BOZORLARIGA CHIQARILISHI TARIXI

B.A.Axmedov, v.b. prof., Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi

M.A.Tursunov, o'qituvchi, 23-umumiy o'rta maktab, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston qorako'l terilarining Yevropa bozorlariga chiqarilishi tarixi, savdo yo'nalishlari va eksport jarayonlari tarixiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buxoro qorako'lining Yevropa bozorlarida shakllangan nufuzi, Parij, London va Leyptsig savdo markazlarining ahamiyati hamda sovet davrida eksport tizimining markazlashuvi yoritiladi. Statistik ma'lumotlar asosida qorako'l terisi ishlab chiqarish, tayyorlash va eksport hajmlarining o'zgarishi tahlil qilinib, O'zbekistonning xalqaro qorako'l savdosidagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekcha: qorako'l, qorako'l terisi, eksport, Yevropa bozori, Buxoro, savdo, xalqaro savdo, Leyptsig, London, Parij, karvon, davlat xaridi, sovet davri, tashqi bozor, O'zbekiston.

Аннотация. В статье исследуется история выхода каракульских шкур Узбекистана на европейские рынки, основные торговые направления и особенности экспортных процессов. Анализируется международная известность бухарского каракуля, значение Парижа, Лондона и Лейпцига как торговых центров, а также централизация экспортной системы в советский период. На основе статистических данных рассматривается динамика производства, заготовки и вывоза каракульских шкур. Определяется роль Узбекистана в международной торговле каракулем и раскрывается влияние государственных закупок на развитие экспортного потенциала отрасли.

Ключевые слова: Русский: каракуль, каракульская шкура, экспорт, европейский рынок, Бухара, торговля, международная торговля, Лейпциг, Лондон, Париж, караван, государственные закупки, советский период, внешний рынок, Узбекистан.

Abstract. This article examines the history of Uzbek Karakul skins entering European markets, major trade routes, and the development of export processes. It analyzes the international reputation of Bukhara Karakul, the importance of Paris, London, and Leipzig as major trading centers, and the centralization of export mechanisms during the Soviet period. Statistical evidence is used to examine changes in production, procurement, and exports, while assessing Uzbekistan's role in international Karakul trade and the economic significance of European demand.

Keywords: Karakul, Karakul skin, export, European market, Bukhara, trade, international trade, Leipzig, London, Paris, caravan, state procurement, Soviet period, foreign market, Uzbekistan.

Kirish. Qorako'l terisi Markaziy Osiyoning jahon bozoridagi eng mashhur chorvachilik mahsulotlaridan biri sifatida uzoq tarixga ega. Ayniqsa, Buxoro hududida yetishtirilgan qorako'l terilari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridayoq Rossiya hamda Yevropa bozorlarida yuqori talabga ega bo'lgan. Qorako'l mahsulotlari Sankt-Peterburgdagi auksionlar, Nijniy Novgorod va Makar yarmarkalari, shuningdek, Fransiyaning Lion shahridagi savdo markazlari orqali xalqaro bozorlarga chiqarilgan. 1934-yilda fransuz geografi Daniel Faucher tomonidan e'lon qilingan tadqiqotda Buxoro qorako'li Yevropadagi mo'yna bozorlarining muhim mahsulotlaridan biri sifatida tavsiflangan. Unda 1920-yillardan boshlab Buxoro hududidan yiliga taxminan 1 million dona qorako'l terisi yig'ilgani, shundan 800 ming donasi sovet savdo tashkilotlari tomonidan xom holda Parij, Nyu-York, London va Leyptsig bozorlariga chiqarilgani qayd etiladi. Leyptsig esa Yevropa mo'yna sanoati uchun qorako'l terilarining eng muhim savdo markazlaridan biri bo'lgan[1].

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganishda tarixiy, statistik va iqtisodiy manbalar muhim ahamiyatga ega. D. Faucherning 1934-yilda Annales de Géographie jurnalida chop etilgan "Le commerce des peaux d'astrakan" maqolasi Yevropada qorako'l terisi savdosining geografiyasi va Buxoro mahsulotlarining xalqaro bozordagi o'rnini o'rganishda muhim manbadir. Muallif Buxorodan eksport qilingan terilarning Parij, London va Leyptsig bozorlaridagi harakatini ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Buxoro qorako'lining Rossiya va Yevropa bozorlaridagi savdosi,

xorijiy savdo firmalari va savdo markazlari faoliyati yoritilgan. Xususan, Buxoro qorako'lining Lion, Nijniy Novgorod va boshqa yirik bozorlarda sotilgani qayd etiladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiylik tamoyillari asosida olib borildi. Mavzuni tahlil qilishda tarixiy-qiyosiy, statistik, xronologik, retrospektiv va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Qorako'l terisi savdosining rivojlanishi ishlab chiqarish, tayyorlov, davlat xaridi, tashqi savdo va Yevropa bozorlaridagi talab bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Statistik metod orqali turli davrlardagi qorako'l terisi ishlab chiqarish va eksport hajmlari qiyoslandi. Xronologik metod yordamida Yevropa bozorlariga chiqishning asosiy bosqichlari aniqlandi. Savdo geografiyasini o'rganishda Parij, London, Leyptsig, Lion va Nijniy Novgorod kabi markazlarning o'zaro aloqalari tahlil qilindi[3].

Natijalar va muhokamalar. O'zbekiston qorako'l terisining Yevropa bozorlariga chiqishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan xalqaro savdo tizimining davomiy jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Buxoro qorako'li dastlab Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston va Rossiya orqali Yevropa bozorlariga yetib borgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropada qorako'l terisiga bo'lgan talabning ortishi mahsulotning tijoriy qiymatini keskin oshirdi. 1850-yillardan boshlab qorako'l mo'ynasi Yevropa va AQSh moda bozorlarida keng tarqalib, "Persian lamb" yoki "Astrakhan fur" nomlari bilan mashhur bo'ldi. Buxoro qorako'lining Yevropa bozorlariga kirib borishida savdo vositachilari va xalqaro savdo markazlari muhim rol o'ynadi. Buxoro amirligi hududida faoliyat olib borgan xorijiy savdo firmalari Germaniya, Fransiya, Angliya va Italiya kompaniyalari bilan aloqalar o'rnatgan. Tadqiqotlarda Buxoro qorako'lining Rossiya bozorlaridan tashqari Yevropa davlatlarida ham xaridorgir bo'lgani, mahsulotning Lion va boshqa yirik savdo markazlarida sotilgani qayd etiladi[4]. Yevropa bozorlarining shakllanishida Fransiyaning Lion shahri alohida o'rin tutgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Lion Yevropadagi muhim mo'yna savdosi markazlaridan biri bo'lgan. Qorako'l terisi bu yerda nafaqat xomashyo sifatida, balki moda sanoatida ishlatiladigan qimmatbaho mo'yna sifatida baholangan. Qorako'l mahsulotlarining Yevropadagi mashhurligi ayollar kiyimlari, yoqalar, bosh kiyimlar va boshqa mo'yna mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq edi.

1911–1914-yillarda Buxoro amirligidan yiliga 1,5 million boshgacha qorako'l qo'yi eksport qilingani haqidagi ma'lumotlar ham qorako'lchilikning xalqaro savdodagi salohiyatini ko'rsatadi. Shu davrda Buxoro qorako'li Yevropada yuqori sifatli mahsulot sifatida baholangan. Yevropalik savdogarlar qorako'l qo'ylarining o'z mamlakatlarida yetishtirilishiga ham qiziqqa boshlaganlar. Avstriya va Germaniyada qorako'lchilikni rivojlantirishga urinishlar amalga oshirilgani bu mahsulotning xalqaro iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi[5].

1917-yildan keyingi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar qorako'l savdosining an'anaviy mexanizmlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Buxoro hududining sovet iqtisodiy tizimiga qo'shilishi bilan qorako'l terisi savdosi asta-sekin davlat nazoratiga o'ta boshladi. Xususi savdogarlar o'rmini davlat va kooperativ tashkilotlar egalladi. Natijada mahsulotni tayyorlash, saralash, xarid qilish va eksportga chiqarish markazlashtirilgan tizim asosida amalga oshirila boshlandi.

1930-yillarga kelib O'zbekiston qorako'l terisini eksport qilishda SSSRning asosiy markazlaridan biriga aylandi. 1934-yilda chop etilgan fransuz tadqiqotida 1920-yillardan boshlab Buxoroda yiliga taxminan 1 million dona qorako'l terisi yig'ilgani qayd etiladi. Shundan taxminan 200 ming donasi Rossiyada iste'mol qilingan, 800 ming donasi esa eksport qilingan. Eksportning sovet savdo tashkilotlari tomonidan xom holda amalga oshirilgani va mahsulotning Parij, Nyu-York, London hamda Leyptsig bozorlariga chiqarilgani ko'rsatiladi[6]. Bu ma'lumotlar O'zbekiston qorako'l terisi eksportining miqyosini baholash uchun juda muhimdir. Agar yiliga 800 ming dona teri tashqi bozorga chiqarilgan bo'lsa, uning katta qismi Yevropa mo'yna sanoatining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Leyptsig bozori Yevropa mo'yna sanoati uchun muhim savdo markazi sifatida ajralib turgan. Shu sababli O'zbekiston qorako'l terisi Yevropa moda sanoatining xomashyo bazalaridan biriga aylangan.

Qorako'lchilikning hududiy bazasida Buxoro bilan bir qatorda Qashqadaryo ham muhim o'rin egallagan. Qashqadaryoda 1926-yilda 185 ming dona, 1926–1927-yillarda 215,5 ming dona, 1927–1928-yillarda 229,9 ming dona, 1928–1929-yillarda esa 240 ming dona qorako'l terisi tayyorlangan.

Mazkur ko'rsatkichlar hududning O'zbekiston qorako'lchilik ishlab chiqarish tizimidagi salohiyatini ko'rsatadi.

1930-yillarning oxirida ishlab chiqarish hajmining yanada ortishi eksport imkoniyatlarini kuchaytirdi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 1939-yilda qorako'l xomashyosi tayyorlash hajmi 1934-yilga nisbatan 76 foizga oshgan. 1940-yilda davlat tomonidan 1 002,1 ming dona qorako'l terisi xarid qilingani ham ishlab chiqarish va davlat eksport tizimining katta hajmga ega bo'lganini tasdiqlaydi.

Urushdan keyingi davrda Yevropa bozorlarida qorako'l terisiga talab saqlanib qoldi. Sovet eksport tizimida O'zbekiston asosiy xomashyo yetkazib beruvchi hududlardan biri bo'lib qoldi. Keyingi yillarda eksport geografiyasi yanada kengayib, Skandinaviya mamlakatlari, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya, Italiya, Fransiya va boshqa davlatlar sovet qorako'l terilarining xaridorlari qatorida bo'ldi[7].

Shunday qilib, O'zbekiston qorako'l terisining Yevropa bozorlariga chiqishi bir necha tarixiy bosqichdan iborat bo'lgan. Dastlab Buxoro amirligi davrida shakllangan xususiy va xalqaro savdo tarmoqlari keyinchalik sovet davlatining markazlashgan eksport tizimi bilan almashtirildi. Biroq geografik jihatdan Yevropaning asosiy mo'yna markazlari — Parij, London, Lion va Leyptsig — O'zbekiston qorako'l mahsulotlarining xalqaro bozordagi harakatida muhim ahamiyatini saqlab qoldi.

Xulosa. O'zbekiston qorako'l terisining Yevropa bozorlariga chiqishi XIX asr oxirida shakllanib, XX asrda yanada kengaydi. Buxoro qorako'li Parij, London, Lion va Leyptsig kabi markazlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotga aylandi. Sovet davrida eksport davlat nazoratiga o'tdi va O'zbekiston Yevropa bozorlarini qorako'l xomashyosi bilan ta'minlovchi asosiy hududlardan biri bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Закиров М.Д. Каракуль Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 221 с.
2. Закиров М.Д. Состояние и перспективы развития каракулеводства в СССР и за рубежом. – Ташкент: УЗНИИТИ, 1977. – 126 с.
3. Faucher D. Le commerce des peaux d'astrakan // *Annales de Géographie*. – 1934. – Т. 43. – № 242. – P. 212.
4. Ruzimuratov R.H., Ruzimurodov R.R., Yakhyayev B.S. The study of merchandise of karakul pelts. – Tashkent, 2015. – 360 p.
5. Akhmedov B.A., Muminova G.E. The Role of Bukhara in the Development of the Global Karakul Sheep Industry // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*. – 2020.
6. Ochildiyev F. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining xorijiy mamlakatlarga qorako'l teri eksporti. – 2025.
7. Avlaev K. Динамика торговли местными и импортными товарами на рынках Бухарского эмирата в XVIII–XX вв. // *Общество и инновации*. – 2025. – Vol. 6. – № 3. – С. 360–365.

UO'K: 636.3:637.6:338.439(575.1)"1925/1991"

SOVET DAVRIDA O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIK MAHSULOTLARINI TAYYORLASH, QAYTA ISHLASH VA SAVDO TIZIMI (1925–1991-YILLAR)

B.A.Axmedov, v.b. prof., Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi
M.A.Tursunov, o'qituvchi, 23-umumiy o'rta maktab, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sovet davrida O'zbekistonda qorako'lchilik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va savdo tizimining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. 1925–1991-yillarda qorako'lchilik xo'jaliklarining tashkil etilishi, davlat tomonidan mahsulotlarni majburiy xarid qilish mexanizmlari, terilarni saralash, konservatsiyalash, qayta ishlash va ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qorako'lchilik, qorako'l terisi, tayyorlash, qayta ishlash, savdo, eksport, davlat xaridi, kolhoz, sovxoz, naslchilik, mahsulot sifati, konservatsiya, bozor, O'zbekiston SSR, sovet iqtisodiyoti.

Аннотация. В статье анализируются процессы формирования и развития системы заготовки, переработки и торговли каракулевыми изделиями в Узбекистане в советский период. Рассматриваются организация специализированных хозяйств, государственная

система закупок, сортировка, консервирование и переработка каракулевых шкур, а также механизмы их реализации на внутреннем и внешнем рынках в 1925–1991 годах.

Ключевые слова: Каракулеводство, каракульские шкурки, заготовка, переработка, торговля, экспорт, государственные закупки, колхоз, совхоз, племенное дело, качество продукции, консервация, рынок, Узбекская ССР, советская экономика.

Abstract. This article examines the formation and development of the system for collecting, processing and trading karakul products in Uzbekistan during the Soviet period. It analyzes the establishment of specialized farms, state procurement mechanisms, grading, preservation and processing of karakul pelts, as well as their distribution through domestic and foreign markets between 1925 and 1991. Statistical and historical evidence is used to identify changes in production volumes, the role of state monopoly, breeding development and export policy.

Keywords: Karakul breeding, karakul pelts, procurement, processing, trade, export, state procurement, collective farm, state farm, breeding, product quality, preservation, market, Uzbek SSR, Soviet economy.

Kirish. O'zbekistonning sovet davri iqtisodiy tarixida qorako'lichilik qishloq xo'jaligining muhim ixtisoslashgan tarmoqlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. 1925-yilda O'zbekiston SSR tashkil etilgach, chorvachilikni qayta tashkil etish, mahsulot yetishtirishni ko'paytirish va uni davlat ehtiyojlariga yo'naltirish siyosati kuchaydi. Bu jarayon qorako'lichilikka ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1924–1925-yillarda O'zbekistonda qorako'l qo'ylari sonining 600–700 ming boshgacha kamayishi ishlab chiqarish va eksport hajmining pasayishiga olib kelgan edi. Keyingi yillarda davlat tomonidan ixtisoslashgan xo'jaliklar tashkil etilishi, naslchilik ishlarining yo'lga qo'yilishi, mahsulotlarni markazlashgan holda xarid qilish va qayta ishlash tizimining shakllantirilishi natijasida sohada sezilarli o'zgarishlar yuz berdi[1]. Ayniqsa, qorako'l terisini tayyorlash, saralash, konservatsiyalash va eksportga tayyorlash jarayonlari yagona davlat tizimiga birlashtirildi. Shu sababli 1925–1991-yillar oralig'ida qorako'lichilik nafaqat chorvachilik tarmog'i, balki davlat eksport siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Sovet davrida O'zbekiston qorako'lichiligi tarixini o'rganishda tarixiy, iqtisodiy, statistik va qishloq xo'jaligiga oid manbalar muhim ahamiyatga ega. M.D. Zakirovning tadqiqotlarida O'zbekiston qorako'lichiligining ishlab chiqarish bazasi, naslchilik va mahsulot sifati masalalari yoritilgan. Qorako'l terilarining tovar xususiyatlari R.H. Ruzimuratov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa sovet davlatining qorako'lichilikni rivojlantirish siyosati, davlat xaridlari, eksport va Qashqadaryo vohasidagi ishlab chiqarish jarayonlari tahlil qilingan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish masalalari nisbatan keng yoritilgan bo'lsa-da, tayyorlash–qayta ishlash–savdo–eksport tizimining yagona tarixiy jarayon sifatidagi rivojlanishini kompleks tadqiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. 1925–1991-yillar shartli ravishda dastlabki qayta tashkil etish va davlatlashtirish, kollektivlashtirish va ixtisoslashuv, urush yillari, urushdan keyingi tiklanish hamda kech sovet davri bosqichlariga ajratib tahlil qilindi. Statistik ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash orqali qorako'l terisi tayyorlash hajmining dinamikasi aniqlandi. Qashqadaryo vohasiga oid ma'lumotlar respublika miqyosidagi jarayonlar bilan solishtirildi. Shuningdek, davlat xaridlari, kolxoz va sovxozlar faoliyati, qayta ishlash korxonalari hamda eksport mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda o'rganildi. Manbalardagi statistik ma'lumotlarning turli yillarga oid ko'rsatkichlari tarixiy jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun qiyosiy usulda tahlil qilindi[3].

Natijalar va muhokamalar. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida O'zbekistonda qorako'lichilik og'ir iqtisodiy holatda edi. 1924–1925-yillarda qorako'l qo'ylarining soni 600–700 ming boshgacha kamayib, qorako'l terisi ishlab chiqarish va eksport hajmi keskin pasaygan. Bu holat chorvachilikning avvalgi xo'jalik tizimi izdan chiqishi, yaylovlardan foydalanishdagi muammolar, yem-xashak tanqisligi va xo'jaliklarning iqtisodiy zaiflashuvi bilan bog'liq edi. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab davlat qorako'lichilikni qayta tashkil etishga kirishdi. Mahsulot tayyorlash

jarayonida davlat kooperativ tashkilotlari va xo'jalik birlashmalari muhim rol o'ynay boshladi. Qorako'l terilarini yig'ish, dastlabki tayyorlash, saralash va davlatga topshirish mexanizmlari markazlashtirildi. 1926–1927-yillarda Qashqadaryo okrugida “Окрсельсоюз”[4] tomonidan 46 646 dona qorako'l terisi tayyorlangan. Shu davrda 129 200 kg pilla, 21 282 bosh qo'y terisi, 45 762 dona echki terisi va 8 134 pud jun ham tayyorlangan. Bu ko'rsatkichlar qorako'lchilik mahsulotlarini tayyorlash tizimi boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan birgalikda tashkil etilganini ko'rsatadi.

1928-yilda O'zbekistonda “Muborak” qorako'lchilik davlat xo'jaligining tashkil etilishi sohaning institutsional rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Keyinchalik ixtisoslashgan xo'jaliklar va naslchilik fermalari shakllantirildi. 1931–1933-yillarda “Muborak” sovxozidan “Nishon”, “Qoraqum”, “Tallimarjon”, “Ko'kdala”, “Qizil chorvador”, “Kirov”, “Qarnob”, “Ulus” va “G'uzor” kabi xo'jaliklar ajralib chiqdi. Bu xo'jaliklarning tashkil etilishi ishlab chiqarishni hududiy ixtisoslashtirish va qorako'l terisi sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

Biroq davlat rejalari har doim ham to'liq bajarilmagan. Masalan, Beshkent qo'ychilik shirkati 25 ming dona qorako'l terisi tayyorlash rejasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, amalda 19 416 dona mahsulot yetishtirilgan. Bundan tashqari, tayyorlangan terilarning sifati belgilangan davlat talablariga har doim ham javob bermagan. Bu holat sovet rejalashtirish tizimida miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat masalasi ham muhim muammo bo'lganini ko'rsatadi[5].

1930-yillarda qorako'lchilik mahsulotlarini qayta ishlash va sifat nazorati tizimi ham rivojlantirildi. Qorako'l terilarini rang, jingalak shakli, zichligi, yaltiroqligi va boshqa tovar belgilariga ko'ra saralashga katta e'tibor berildi. Naslchilik ishlarining kuchaytirilishi natijasida yuqori sifatli qora, kulrang va sur rangli qorako'l terilarini yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar shakllandi. Bu jarayonda ilmiy-tadqiqot muassasalari va tajriba xo'jaliklarining faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida qorako'lchilikning iqtisodiy ahamiyati yanada oshdi. 1942-yilda SSSRda tayyorlangan qorako'l terilarining 63 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning butun ittifoq miqyosida qorako'lchilikning asosiy markaziga aylanganini ko'rsatadi. Shu davrda sifat ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'zgarish kuzatildi: 1938-yilda xo'jaliklarda tayyorlangan terilarning 23,6 foizi birinchi navga mansub bo'lgan bo'lsa, 1939-yilda 57,8 foizga, 1941-yilda 61,3 foizga va 1942-yilda 67,2 foizga yetgan[6].

1944-yilda qorako'l xomashyosini tayyorlash hajmi 1940-yilga nisbatan 59 foizga oshgan. Urushdan keyingi davrda ham davlat qorako'lchilikni rivojlantirishni davom ettirdi. 1945-yil 20-iyunda SSSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan O'zbekiston SSR kolxozlarida qorako'lchilikni rivojlantirish va yaxshilashga qaratilgan maxsus qaror qabul qilindi. Qaror asosida qorako'l terisi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo'jaliklarning yer maydonlarini kengaytirish va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash ko'zda tutilgan[7].

Shunday qilib, 1925–1991-yillarda O'zbekistonda qorako'lchilik mahsulotlarining harakati oddiy chorvachilik mahsulotlarini sotish tizimidan markazlashgan ishlab chiqarish – tayyorlash – qayta ishlash – davlat xaridi – savdo – eksport zanjiriga aylandi. Ushbu tizimda davlat asosiy xaridor, taqsimotchi va eksport jarayonini nazorat qiluvchi subyekt sifatida faoliyat yuritdi. Natijada O'zbekiston sovet davrining ikkinchi yarmiga kelib SSSRdagi qorako'lchilikning eng muhim ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi.

Xulosa. 1925–1991-yillarda O'zbekistonda qorako'lchilik mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va savdo tizimi davlat boshqaruvi asosida shakllandi. Ixtisoslashgan kolxoz va sovxozlarning tashkil etilishi, naslchilik, mahsulot sifatini nazorat qilish hamda markazlashgan davlat xaridlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli oshirdi. Natijada O'zbekiston SSSRning asosiy qorako'lchilik markaziga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Закиров М.Д. Каракуль Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 221 с.
2. Закиров М.Д., Валиев У.В. Состояние и перспективы развития каракулеводства в СССР и за рубежом. – Ташкент: УЗНИИТИ, 1977. – 38 с.
3. Faucher D. Le commerce des peaux d'astrakan // Annales de Géographie. – 1934. – Т. 43. – № 242. – P. 212.
4. Ruzimuratov R.H., Ruzimurodov R.R., Yakhyayev B.S. The study of merchandise of karakul pelts. – Tashkent, 2015. – 360 p.

5. Ахмедов Б.А., Муминова Г.Э. The Role of Bukhara in the Development of the Global Karakul Sheep Industry // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2020.
6. Ochildiyev F. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining xorijiy mamlakatlarga qorako'l teri eksporti. – 2025.
7. Avlaev K. Динамика торговли местными и импортными товарами на рынках Бухарского эмирата в XVIII–XX вв. // Общество и инновации. – 2025. – Vol. 6. – № 3. – С. 360–365.

UO'K 902.6(575.1)

IX-XI ASRLAR SOPOL QOZONLARI

*(Kat qal'a qazishma materiallari asosida)**A.O.Azodov, kichik ilmiy xodim, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva**Orcid ID: <https://orcid.org/0009-0000-8837>**B.P.Sadullayev, katta ilmiy xodim, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazmning muhim tarixiy aholi punktlaridan biri bo'lgan Chap qirg'oq Kat qal'a yodgorligini arxeologik o'rganishlar davomida aniqlangan IX–XI asrlarga oid o'choqboshi idishlardan sopol qozonlar kompleks arxeometrik va uslubiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotni to'liqroq ochib berish uchun mazkur yodgorlik tarixi va umuman kulolchilikda sopol qozonlar ishlab chiqarish tarixiga ham to'xtalindi. Tadqiqot davomida topilmalarning texnologik, tipologik xususiyatlari va bezak naqshlariga e'tibor qaratildi. Bu turdagi topilmalar o'rta asrlar sopol buyumlari orasida alohida ajralib turishiga oid dalillar keltirildi. Morfologik tuzilishi jihatidan mazkur yodgorlikdan topilgan sopol qozonlar Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalaridan olingan moddiy artefaktlar va etnografik ma'lumotlar bilan taqqoslanadi. Shuningdek, materiallarni ishlashda loy tarkibi ham o'rganildi va uzoq vaqt qozonlar mustahkamligini ta'minlash materiallari aniqlandi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Chap qirg'oq Kat qal'a, Xorazm Ma'mun akademiyasi, o'choqboshi idishlar, qozon, restavratsiya, angob, arxeologik tadqiqot

Аннотация. В данной статье на основе комплексного археометрического и стилистического анализа рассматриваются керамические кухонные горшки, датируемые IX–XI веками и обнаруженные в ходе археологических исследований левобережной крепости Кят — важного исторического поселения в Хорезме. Для создания более полной картины в работе также освещаются история самого памятника и общая история производства керамической кухонной посуды. Исследование сосредоточено на технологических и типологических характеристиках находок, а также на особенностях их декора, что позволяет выделить данный тип сосудов на фоне прочей средневековой керамики. С точки зрения морфологии найденные горшки сопоставляются с вещественными памятниками и этнографическими данными из других регионов Центральной Азии. Кроме того, был проведен анализ состава глины, использованной при их изготовлении, с целью выявления материалов, обеспечивших высокую долговечность этих сосудов.

Ключевые слова: Хорезм, левобережная крепость Кат, Хорезмская академия Мамуна, сосуды для очага, котел, реставрация, ангоб, археологические исследования

Abstract. This article examines ceramic cooking pots—specifically those dating to the 9th–11th centuries and identified during archaeological investigations at the Left-Bank Kat fortress, a significant historical settlement in Khorezm—through a comprehensive archaeometric and stylistic analysis. To provide a more complete picture, the study also addresses the history of the site itself and the broader history of ceramic cooking pot production. The research focuses on the technological and typological characteristics of the finds, as well as their decorative patterns, presenting evidence that distinguishes this type of vessel from other medieval ceramics. In terms of morphological structure, the pots recovered from the site are compared with material artifacts and ethnographic data from other regions of Central Asia. Additionally, the composition of the clay used in their manufacture was analyzed to identify the materials that ensured the long-term durability of the vessels.

Key words: *Khorezm, Left Bank Kat Fortress, Khorezm Mamun Academy, hearth vessels, cauldron, restoration, engobe, archaeological research.*

Asosiy qism: Tadqiqot doirasida sopol idishlar tarixini o'rganish barobarida avvalo, Xorazm vohasi sopollari uchun etalon vazifasini o'taydigan Vakturskayaning "Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.)" kitobi hisoblanib, bu manbada vohaning butun o'rta asrlar sopollari klassifikatsiyasi berilgan. Ammo manbada sopol qozonlar haqida materiallar mavjud emas. Chap qirg'oq Kat qal'a yodgorligidan IX-XI asrlarga oid sopol qozon namunalarini ilk bor 1986-1987-yillarda D.Chunixin tadqiqotlarida aniqlangan. Keyingi yillardagi tadqiqotlarda ham arxeologik materialdan namunalar aniqlanib kelingan. 2004-2010-2011-yilgi tadqiqotlarda ham bittadan namunalar, 2022-2023-yilgi arxeologik izlanishlarda ham bu tipdagi sopol qozon namunalari aniqlangan.

Tadqiqot ishida adabiyotlar tahlil qilinib, mazkur hududga yaqin bo'lgan, ilmiy ishlar o'rganildi. Bu turdagi idishlar Markaziy Osiyoning ko'pgina IX-XI asr yodgorliklaridan aniqlangan. Afrosiyob yodgorligi[Соколовская., 2015: 256], Robinjontepa yodgorligi, Dabusiya yodgorliklaridan[Berdimurodov.A.E.,2023: 105], Jigarband yodgorligi[Вишневская.Н.,2001: 176], Sug'ddan [Шишкина.,1986: 194], Marv vohasi[Бяшимова.,1984: 136] hamda Choch [Брусенко.,1986: 122], Poikand[A.П Мухамеджанов, Ш.Т Адылов, Д.К Мирзаахмедов, Г.Л Семенов., 1988: 197] materiallarida bu tipdagi qozonlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, IX-XI asrlar Janubiy Orol bo'yi hududlardagi arxeologik tadqiqot doirasida Mizdakhon, Jampiq qal'a va Puljay yodgorliklaridan[Soipov S.T.,2023: 184] ham sopol qozonlar va qopqoqlar topilganligi o'rganildi. Bu yodgorliklar materiallarini arxeolog Sadulla Soipov batafsil o'rganilib texnologik xususiyatlari to'liq ochib bergan. Ushbu materiallarni Kat qal'a yodgorligi materiallariga ham solishtirib o'rganish muhim deb o'ylaymiz. Chunki shu orqali o'sha davr davlatchiligi demografik chegaralarini bilishimiz mumkin bo'ladi.


Xorazmdagi arxeologik tadqiqotlar jarayonida o'rta asrlar sopol buyumlari ko'plab topilmoqda. Xususan keyingi yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologlari tadqiqot o'tkazib kelayotgan Qiyot (Kat qal'a) shaharchasi arxeologik yodgorligidan ham bu davrga xos bo'lgan topilmalar ko'plab uchraydi. Yodgorlik hududidagi arxeologik izlanishlar davomida minglab arxeologik materiallar aniqlangan. Ushbu materiallar orasida arxaiik davrlar materiallaridan tortib, XX asr odamlarining kundalik turmushda ishlatilgan sopollar majmuasi tashkil qiladi. Bu davrlar orasidan rivojlangan o'rta asrlarga ya'ni IX-XI asrlarga tegishli bo'lgan sopol idishlar asosan sirlangan va sirlanmagan idishlardan iborat. Ular orasida maishiy ahamiyatga ega idishlar ustunlik qiladi. Idishlarning aksar qismi kulolchilik charxida yasalgan. Sopollar orasidagi o'choqboshi idishlari ko'p sonli yupqa devorli qozonlar bilan ifodalangan, ba'zan esa ular murakkab jimjimador profilga ham ega. Xususan sopol qozonlar tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kulolchilik paydo bo'lgandan ya'ni neolit davrlaridan buyon ishlanib kelinayotgan oshxona anjomlaridan biri hisoblanadi.

Har bir shaxs bo'lsin, predmet bo'lsin davrlar mobaynida shakllanib borganidek, qozonlarning ham hududlarga qarab yasaliish texnologiyasi, bezatilishi va tuzilishi kabilar o'zgarishi kuzatiladi. Dastavval bezaklarsiz dumaloq tagli keng og'izli qilib qo'lda ishlangan bo'lsa, keyinchalik loyini mustahkam bo'lishi uchun tarkibiga turli xil minerallar qo'shib, kulolchilik charxlarida ishlab, foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun tutqichlar bilan bezatilgan, halqasimon tutqich qozonlarni ishlatishni qulaylashtirgan, qozon yuzalariga bezaklar berib, idishlarga angob surtib, kulolchilik xumdonlarida quritib foydalanganlar. Bu halqasimon tutqichlar dastlabki qozonlarda qo'llanilgan bo'lsa, IX-XI asr idishlarida bir biriga gorizontal joylashgan uzun qadama kemtik tutqichlar ko'p ishlatilgan. Keyingi taraqqiyot bosqichida esa gorizontal bilan birgalikda vertikal joylashgan juft kemtik, trident tutqichlardan ham ishlatilgan. Bu bezatilishlar o'sha davr muhitiga bog'liq bo'lgan.

Tadqiqot materiali sifatida mazkur yodgorlikdan shu paytgacha aniqlangan sopol qozon namunalari o'rganildi.

Arxeologik materiallarni o'rganishda avvalo uning tuzilishi hamda hajmiga qarab ajratib olinadi. Deyarli ko'pchilik qozonlarning og'iz qismlari saqlangan bo'lib, ularning diametrlari 10 sm dan 24 sm gacha. Ushbu o'lchamlariga qarab katta hajmli, o'rtacha hajmli va kichik hajmli

qozonlarga bo'lib ham o'rganish mumkin. Topilmalar restavratsiyasi natijasida ular 0,9 litrdan 3,0-3,1 litrgacha bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Bunday turdagi idishlarni ajratishda birinchi navbatda hajmi tomonlarga bo'lsa, keyin yasalishi va tashqi qismidagi bezaklarga ya'ni tutqichlar, naqshlariga e'tibor qaratiladi.



1-rasm. Yodgorlikda o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlarda aniqlangan materiallar


Yasalishiga qaraydigan bo'lsak, 2 xilda **qo'lda** hamda **kulolchilik charxida** yasalgan turlari mavjud.

Kulolchilik charxida yasalgan qozonlar qo'lda yasalgan qozonlarga nisbatan yupqa va nozik did bilan ishlangan. Biz o'rganayotgan davrimizda sopol qozonlarni qo'lda yasalgan turlari deyarli uchramaydi.

Tashqi qismiga qarab farqlanishida asosan og'iz qismiga qaratiladi. Bu toifaga ko'ra mazkur yodgorlikdan 4 xil shaklga ega qozonlar aniqlangan. Bular a-tokchasimon shaklda ishlangan(1-rasm. 2,3,6 2-rasm.2-4,9-10), b-tikka shaklidagi og'izli(1-rasm. 1,5), c-gardishli ishlangan og'izli(2-rasm. 1.7), d-bo'g'i og'izli(2-rasm. 8.). Tokchasimon og'izli qozonlarning idishlarda gardishi ostidan 2-3 qatorli gorizantal mayda egatchalar bilan bezatilgan. Bu holat c va d tipdagi qozonlarda ham uchraydi. Shuningdek, bu egatchalar ustidan ko'pchilik qozonlar uchun umumiy belgi bo'lgan tig'simon asbob yordamida idishlar quritilishidan oldin tushirilgan tirnoqsimon chiziqlar ham hosil qilingan. Ayrim qozonlarning tokchasida to'lqinsimon tirnalgan yoki arqonsimon bo'rtma naqshlar ham tushirilgan.

Tikka og'izli qozonlarda og'iz qismida naqsh yoki bezak elementlari kuzatilmaydi. Bu turdagi qozonlarda asosiy e'tibor qorin qismidagi tutqichlariga qaratilgan. Shu bilan birgalikda bu turdagi qozonlar boshqalariga qaraganda balandroq va silindrsimon shaklda bo'ladi. Gardishli ishlangan qozonlarning yuqori lab qismida kamarsimon belbog' qo'llanilgan uning qalinligi idishning katta-kichikligiga qarab o'zgarib boradi. Qozonlarning deyarli barchasida gorizantal 7,2 sm dan 12,5 sm gacha uzunlikdagi, 1-1,5 sm qalinlikdagi qoshsimon bo'rtma tutqichlar qo'yilgan. Bunday tutqichlardan ayrim idishlarda 2 ta bo'lsa, ba'zilarida 4 ta joylashtirilgan. Joylashuvi ham idishning diametriga qarab teng nisbatda qilingan. Topilmalarni orasida vertikal joylashgan tutqichlar ham, "trident" shaklidagi tutqichlar ham keng tarqalgan(2-rasm. 8,10). Bunday shakldagi tutqichlarni "ajdar yoli" tutqichlari ham deb atashadilar[Sadullayev B.,2023: 344]. Tutqichlar buyumlarning og'iz qismidan 60% foiz pastida joylashtirilgan. Vertikal tutqichlar esa og'ziga yaqin joylashgan.

Buyumlarda tutqichlar bilan birgalikda zanjirsimon, arqonsimon bezaklar ham berilgan. Bu bezaklar ham qozonlarning og'ziga yaqin yelka qismlarida hamda idishning lab qismlaridan o'rin olgan. Bu turdagi naqshlarni hosil qilish uchun idish belgilangan shaklga kelgandan so'ng ipsimon loy idishning yuzasiga suv surtib, yopishtirilgan va barmoq uchi yoki shu shaklni beruvchi maxsus asboblarni ketma-ket bosish orqali arqonsimon naqshlar hosil qilingan.



2-rasm. Yodgorlikda 2025-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda aniqlangan materiallar

Biz o'rganayotgan qozonlar olovda issiq ovqat pishirish uchun mo'ljallangan idishlar bo'lib, olovga chidamli qilib ishlangan hamda yupqa bo'lganligi sababli issiqlikni tezda o'tkazish uchun ham mo'ljallangandir. Topilmalar uzoq vaqt o'choqda ishlatilganligi sababli tashqi qismi qop-qora qatlam hosil qilgan. Idishlarning ostki qismi olovning alangasi ta'sirida kuchli pishgan, yuqorilarida bu holat kuzatilmaydi. Shuningdek, topilmalarda sir qoplamasi kuzatilmaydi. Idishlarda bezaklar asosan tashqi tomonda qorin, yelka va og'iz qismlarida berilgan. Bezaklarning og'iz va yelka qismidagilari uchli maxsus asboblarda tirnab ishlangan. Og'iz qismidagi ayrim bezaklar esa asboblarsiz chimchilangan arqon kabi qo'lda ishlangan. Bu egatchalar juda idishga botirmasdan yupqa qilib ishlangan. Qorin qismlaridagi bezaklar hamda tutqichlar qo'shimcha yopishtirma holat idishning jozibadorligini oshiradi. Bu bezaklarning hammasi idish pishirilishidan oldin qilingan.

Xulosa. Tadqiqot o'choqboshi sopollarning nafaqat maishiy buyum, balki ijtimoiy, madaniy identifikatsiya va savdo aloqalarining ko'rsatkichi sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu ish o'rta asr hunarmandchiligi va texnologik innovatsiyalarni tahlil qilishda yangi ma'lumotlar taqdim etadi.

Topilgan sopol buyumlar qoldiqlari Xorazm vohasidagi yodgorliklarda o'zining o'xshash turlarini ham namoyon qiladi va umumiy o'ziga xos madaniy makonning ajralmas qismi sifatida ko'zga tashlanadi. Xorazmning IX-XI asrlar o'choqboshi idishlarini o'rganib, kelgusida bu tadqiqot doirasini kengaytirish va davrlar miqyosida Xorazm sopollari tipologiyasini to'liq o'rganish mumkin.

Shuningdek, bu sopol qozonlar loyi va ishlanishiga qarab bugungi kunda ham temir, cho'yan, alyumin va mis qozonlar bilan raqobatlasha oladigan va sog'liq uchun foydaliroq bo'lgan, ajdodlarimiz hayotini eslatib turuvchi sopol qozonlarni kundalik turmushimizda muomalaga kiritish mumkin. Shu bilan bir qatorda bu materiallar sayyohlarga ham manzur bo'ladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Саколовская., Неглазуванная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасиаб кон. VII-нач. XIII вв.): автореферат дис. ... кандидата

исторических наук: 07.00.06. — Ташкент, 1995. — 15 с.:ил.

2. Berdimurodov A.E., 2023-yilda Dabusiya yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar., O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar:2023-yil to'plami., 105-109-bet

3. Вишневецкая Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента (IV в. до н.э – начало XIII в. н.э.). М.: Восточная литература, 2001. 176 с

4. Шишкина Г.В. Ремесленная продукция средневекового Согда. — Т.: Фан, 1986. — 194 с.

5. Бяшимова Н.С. Эволюция орнамента глазурованной керамики Южного Туркменистана IX – XI вв. (по материалам Мерва) // В сб.: Проблемы археологии Туркменистана. — Ашхабад: “Бълм”, 1984. — С. 136-158.

6. Брусенко Л.Г. Глазурованная керамика Чача IX-XII веков. — Т.: Фан, 1986. — 122 с.

7. Мухаммеджанов А.Р., Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л. Городище Пайкенд. К проблеме изучения средневекового города Средней Азии. — Т.: «ФАН», 1988. — 197 с Ахраров И. Кухонная керамика Ферганы // ИМКУ. 1966. Вып. 7. С. 125–133.

8. Саипов С.Т., Котлы и крышки Южного Приаралья в IX–XI вв. MAPFYЛАН OҚУЛАРЫ – 2023 2-том. С. 184-195

9. Sadullayev B., 2023-yilda Chap qirg'oq Kat qal'ada olib borilgan tadqiqotlar., O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar:2023-yil to'plami., 344-351-bet.

UO'K 908

QARSHI CHO'LLARIGA AHOLINING KO'CHIRILISHI TARIXIDAN

B.N.Batirova, dots., Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. Mazkur maqolada sovet davrida Qarshi cho'llariga aholining ko'chirilishi, uning tarixiy sabablari va amalga oshirish jarayonlari tahlil qilingan. Aholini yangi o'zlashtirilgan hududlarga joylashtirish Qarshi magistral kanalining qurilishi, sug'oriladigan yerlarning kengaytirilishi, yangi sovxozlarning tashkil etilishi hamda paxtachilikni rivojlantirish siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Shuningdek, maqolada ko'chirilgan oilalarning yangi tabiiy va ijtimoiy sharoitga moslashishi, turar joy va ichimlik suvi bilan bog'liq muammolari hamda ko'chirish siyosatining demografik va ijtimoiy oqibatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qarshi cho'li, ko'chirish, irrigatsiya, sovxoz, paxtachilik.

Аннотация. В статье анализируются исторические причины и основные этапы переселения населения в Каршинскую степь в советский период. Размещение населения на вновь освоенных территориях было тесно связано со строительством Каршинского магистрального канала, расширением орошаемых земель, созданием новых совхозов и развитием хлопководства. Особое внимание уделено адаптации переселённых семей к новым природным и социальным условиям, проблемам обеспечения жильём и питьевой водой, а также демографическим и социальным последствиям переселенческой политики.

Ключевые слова: Каршинская степь, переселение, ирригация, совхоз, хлопководство.

Abstract. This article analyses the historical causes and main stages of population resettlement to the Karshi Steppe during the Soviet period. The settlement of newly developed territories was closely connected with the construction of the Karshi Main Canal, the expansion of irrigated land, the establishment of new state farms and the development of cotton production. Particular attention is paid to the adaptation of resettled families to new environmental and social conditions, problems related to housing and drinking water, and the demographic and social consequences of the resettlement policy.

Keywords: Karshi Steppe, resettlement, irrigation, state farm, cotton production.

Kirish. Qarshi cho'li Qashqadaryo vohasining g'arbiy va janubi-g'arbiy qismidagi qurg'oqchil hudud bo'lib, uning xo'jalik jihatdan keng o'zlashtirilishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Sovet hokimiyati bu hududni yirik sug'orish tizimi, yangi sovxozlar va paxtachilik xo'jaliklari orqali o'zgartirishga kirishdi. Loyihalarni ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun viloyatning tog'oldi va aholisi zich qishloqlaridan oilalar yangi yerlarga ko'chirildi.

Tahlil va natijalar. Qarshi cho'lini o'zlashtirish g'oyasi faqat yangi yer ochish masalasi emas edi. U sovet agrar siyosatining paxta yetishtirishni ko'paytirish, qishloq aholisini davlat xo'jaliklari atrofida jamlash va mehnat resurslarini reja asosida taqsimlash vazifalarini birlashtirdi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda Qashqadaryo viloyatining tabiiy imkoniyatlari qayta baholandi. Mahalliy daryolar suvi katta maydonni barqaror sug'orishga yetmasligi sabab Amudaryo suvini nasoslar orqali cho'lga chiqarish asosiy yechim deb topildi. Shu tariqa irrigatsiya qurilishi aholini ko'chirish siyosatining moddiy negiziga aylandi [1; 3]. Qarshi magistral kanalining birinchi navbati 1965–1973-yillarda bunyod etildi. Kanal Amudaryodan suv olib, Qarshi cho'lining balandroq qismiga yetkazdi. Suvni qariyb 132 metr balandlikka ko'taruvchi yirik nasos stansiyalari tizimi o'sha davr muhandislik siyosatining muhim loyihalaridan biri bo'ldi. Magistral kanal va undan tarqalgan xo'jaliklararo tarmoqlar ilgari asosan yaylov sifatida foydalanilgan hududlarda sug'orma dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini berdi. Biroq kanalning qurilishi bilan yer darhol yashashga tayyor bo'lib qolmadi. Dalani tekislash, kollektor-drenaj tarmoqlarini qazish, yo'l, elektr, ichimlik suvi va turar joy barpo etish talab qilindi.

Yangi yerlar bugungi Nishon, Mirishkor, Muborak va ularga tutash hududlarda sovxozlar tashkil etish orqali o'zlashtirildi. Sovxoz ma'muriyati bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish markazi va aholi yashash joyini boshqaruvchi tuzilma vazifasini bajardi. Uy-joy, tomorqa, maktab, tibbiyot punkti va savdo shoxobchasi xo'jalik markazi atrofida qurildi. Natijada cho'lda yangi aholi punktlari paydo bo'ldi, yo'l va aloqa tarmoqlari kengaydi. Shu bilan birga, turar joy bilan dala, suv ta'minoti hamda ijtimoiy xizmatlar bir xil sur'atda bitmagan. Dastlabki ko'chib kelgan oilalar ko'pincha vaqtinchalik uylar, cheklangan ichimlik suvi va og'ir iqlim sharoitida yashashga majbur bo'lgan. Irrigatsiya loyihasining iqtisodiy maqsadi paxta maydonlarini kengaytirish edi. Shu sababli yangi xo'jaliklarning ishlab chiqarish tarkibi markaziy reja bilan belgilandi. Ko'chirilgan aholining chorvachilik, bog'dorchilik yoki tog'oldi dehqonchiligiga oid avvalgi tajribasi har doim ham yangi joydagi mehnat talabiga mos kelmagan. Ular sho'rlanishga moyil yerda paxta parvarishi, nasos orqali keladigan suvdan foydalanish va kollektor tarmoqlarini saqlashni o'rganishlari kerak edi. Moslashuvning muvaffaqiyati oilaning tirishqoqligidan tashqari, sovxozning texnika, suv va qurilish materiallari bilan ta'minlanishiga ham bog'liq bo'lgan [2].

Ko'chirish viloyat va tuman ijroiya organlari, qishloq sovetlari hamda kolxoz-sovxoz rahbarlari ishtirokida amalga oshirildi. Avvalo yangi xo'jalik uchun zarur ishchi kuchi hisoblandi, so'ng oilalar ro'yxati tuzildi. Mehnatga layoqatli a'zolari ko'p, qishloq xo'jaligi tajribasiga ega oilalarga ustunlik berilgan. Ayrim ko'chuvchilarga uy-joy, yo'l xarajati, chorva uchun joy yoki pul yordami va'da qilingan. Rasmiy hujjatlarda bunday ko'chirish ko'pincha "ixtiyoriy" deb yuritilgan. Amalda ixtiyoriylik darajasi turlicha edi. Yer tanqisligi, ishga joylashish muammosi yoki uy-joyga ehtiyoj oilalarni ko'chishga undagan bo'lsa, ma'muriy targ'ibot va xo'jalik rahbarlarining bosimi ham qarorga ta'sir ko'rsatgan. Ro'yxatga kiritilgan oilaning rad javobi berishi oson bo'lmagan. Ko'chuvchining tanlash imkoniyati, berilgan va'dalarning bajarilishi va avvalgi yashash joyiga qaytish huquqi har bir holat bo'yicha alohida o'rganilishi zarur. Qarshi cho'lga asosan Qashqadaryoning tog'oldi va tog'li tumanlaridan, jumladan Yakkabog' va Dehqonobod tomondan oilalar kelgani mahalliy xotiralarda qayd etiladi. Aholisi zich qishloqlardagi yer yetishmasligi ko'chirishning iqtisodiy asosi sifatida ko'rsatilgan. Yangi joyda esa oilaga turar joy va doimiy ish taklif qilingan. Ko'chish faqat manzil almashishi emas, balki turmush tarzining o'zgarishi edi: tog' yoki voha muhiti o'rnini ochiq cho'l, kolxoz mehnati o'rnini qat'iy reja asosidagi sovxoz tartibi egalladi. Birinchi yillarda moslashuvning eng og'ir tomoni tabiiy sharoit bo'ldi. Yozning issig'i, shamol, chang va ichimlik suvi taqchilligi sog'liq hamda mehnat unumiga ta'sir ko'rsatdi. Uy-joylar tez qurilgani sabab ularning sifati bir xil emas edi. Maktab va tibbiy xizmat yo'lga qo'yilguncha bolalar ta'limi, homilador ayollar va keksalarga yordam masalasi oilaning o'z zimmasida qoldi. Ayrimlar sharoitga moslashib, yangi qishloqning doimiy aholisiga aylandi; ayrim oilalar esa avvalgi joyiga qaytishga yoki boshqa hududga ketishga harakat qildi.

Ko'chirish natijasida Qarshi cho'lida yangi aholi manzilgohlari shakllandi. Turli tumanlardan kelgan oilalar bir sovxozda yonma-yon yashay boshladi. Bu holat mahalliy guruhlar o'rtasidagi aloqa, quda-andachilik va mehnat tajribasi almashuvini kuchaytirdi. Ayni paytda eski qishloqdagi

qarindoshlik yordami, mahalla nazorati va an'anaviy suvdan foydalanish tartibi zaiflashdi. Yangi jamoa birdan shakllanmagan; umumiy mehnat, maktab va kundalik ehtiyojlar uni asta-sekin birlashtirgan. Ayollar ko'chirish jarayonining asosiy yukini ko'targan guruhlardan biri edi. Ular yangi uyda ro'zg'or tashkil etish, suv va oziq-ovqat muammosini hal qilish bilan birga paxta dalasida ham ishladilar. Bolalar bog'chasi, tibbiy punkt va maishiy xizmat yetishmagan davrda ishlab chiqarish vazifasi bilan oilaviy majburiyat bir vaqtda bajarildi. Rasmiy hisobotlarda ko'proq yangi yer, hosil va qurilish ko'rsatkichlari qayd etilgan, oilaning kundalik moslashuv xarajatlari esa kam yoritilgan.

Ko'chirish yangi kasb va ijtimoiy mavqelarni ham yuzaga keltirdi. Mexanizator, nasos stansiyasi operatori, meliorator, agronom, quruvchi va haydovchilarga talab oshdi. Yoshlar texnik bilim olish imkoniga ega bo'ldi. Sovxoz markazlaridagi maktab va madaniyat muassasalari savodxonlik hamda kasbiy harakatchanlikka xizmat qildi.

1970-yillarning oxirida Qarshi cho'lining Muborak va Bahoriston tomoni yana bir siyosiy loyiha bilan bog'landi. Sovet rahbariyati Qrim tatarlarining tarixiy vataniga qaytish talabini to'xtatish uchun ularning bir qismini shu hududda muqim joylashtirish, yangi sovxozlar va aholi punktlari tashkil etishni rejalashtirdi. Targ'ibotda ish, uy-joy va yangi xo'jalik istiqboli ta'kidlandi. Ammo ko'pchilik Qrim tatarlari bu loyihani o'z vataniga qaytish huquqining o'rnini bosuvchi choraga aylantirishga qarshi chiqdi. Natijada "Muborak loyihasi" kutilgan siyosiy natijani bermadi [4]. Uzoq muddatli natijalar ziddiyatli bo'ldi. Sug'orish tizimi, yo'llar va yangi qishloqlar Qashqadaryoning iqtisodiy xaritasini o'zgartirdi. Ammo paxtachilikka kuchli ixtisoslashuv suv sarfi, sho'rланish va meliorativ xarajatlarni oshirdi; Amudaryodan ko'p suv olinishi Orol havzasidagi tanglik bilan bog'landi [3; 5]. Davlat avval texnik loyihani belgilab, aholi va mehnat resurslarini uning ehtiyojiga mos joylashtirdi. Shu sabab ko'chirishni faqat irrigatsiya yutug'i emas, insonlarning kundalik tajribasi orqali ham baholash lozim.

Xulosa. Qarshi cho'liga aholini ko'chirish irrigatsiya va paxtachilik siyosatining tarkibiy qismi bo'ldi. Yangi kanal va qishloqlar xo'jalik imkoniyatini kengaytirdi, ammo oilalar uy-joy, suv, iqlim va moslashuv qiyinchiliklarini boshdan kechirdi. Jarayon tarixini sovxoz hujjatlari va ko'chib kelganlar xotiralari asosida chuqurroq o'rganish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayev M. (ilmiy muharrir). O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. — Toshkent: Sharq, 2000.
2. Ravshanov P. Qarshi tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Peterson M.K. Pipe Dreams: Water and Empire in Central Asia's Aral Sea Basin. — Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
4. Polian P. Against Their Will: The History and Geography of Forced Migrations in the USSR. — Budapest: Central European University Press, 2004.
5. Micklin P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. — 2007. — Vol. 35. — P. 47–72.

UO'K 94(575.1):625.1

XIVA XONLIGIGA TEMIR YO'L IZLARINI OLIB KELISH HARAKATLARI

X.Yu.Davletov, o'qituvchi, Urganch Innovation Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasida, xususan Xiva xonligida temir yo'l qurilishining boshlashi va bu yo'llar orqali olib ketilgan o'lka milliy boyliklari va o'lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qanday ta'sir qilganligini o'rganish ham dolzarb masaladir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nafaqat Xorazm vohasida, balki O'rta Osiyo miqyosida temir yo'llar qurilishi tarixi, temir yo'l transportining shakllanishi va taraqqiyoti masalasi nisbatan kam o'rganilgan mavzular qatoriga kiradi. Shu jihatdan olganda mazkur maqola dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: K.V.Chevkin, V.A. Perovskiy, S.A. Xrulev, S.I. Baranovskiy, I.O. Shuksintsev, N.A. Xalfin, Z.K. Ahmadjonova, Kaspiy-Orol loyihasi, Ustyurt, Hind-Volga-Xiva loyihasi, Chorjo'y-Andreev-Gay.

Аннотация. Актуальной проблемой является изучение начала строительства железных дорог в Туркестанском регионе Российской империи, в частности в Хивском

ханстве, и того, как они повлияли на перевозимые по этим дорогам национальные богатства региона и на социально-экономическую жизнь региона. Следует отметить, что история железнодорожного строительства, формирования и развития железнодорожного транспорта не только в Хорезмском оазисе, но и в Центральной Азии, является одной из относительно малоизученных тем. В этой связи данная статья посвящена одной из актуальных проблем.

Ключевые слова: К.В. Чевкин, В.А. Перовский, С.А. Хрулев, С.И. Барановский, И.О. Шукиинцев, Н.А.Халфин, З.К. Ахмаджонова, Каспийско-Аральский проект, Устьурт, Индо-Волго-Хивинский проект, Чарджуй-Андреев-Гай.

Abstract. It is also an urgent issue to study the beginning of the construction of railways in the Turkestan region of the Russian Empire, in particular in the Khiva Khanate, and how they affected the national wealth of the region transported through these roads and the socio-economic life of the region. It should be noted that the history of railway construction, the formation and development of railway transport, not only in the Khorezm oasis, but also in Central Asia, is one of the relatively understudied topics. In this regard, this article is devoted to one of the urgent topics.

Key words: K.V. Chevkin, V.A. Perovsky, S.A. Khrulev, S.I. Baranovsky, I.O. Shuksintsev, N.A.Xalfin, Z.K. Akhmadjonova, Caspian-Aral project, Ustyurt, Indo-Volga-Khiva project, Chorjoy-Andreev-Gai.

Kirish. XIX asrning 40-50-yillaridan boshlab, Rossiyaning O`rta Osiyo hududlari, shu jumladan Xiva xonligini bosib olishi hamda kelgusida bu hududlarni xom ashyo bazasiga aylantirishi kabi strategik rejalarda, eng avvalo birinchi o`rinda xonliklar hududlarda temir yo`llar tarmoqlarini qurish va kengaytirish masalasi turgan edi. Bu bejiz emas albatta, zero, temir yo`l transportining afzalliklaridan biri – boshqa transportlarga nisbatan yuk tashish qiymatining arzonligi, yilning har qanday faslida va bir yo`la katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatiga egaligidadir. Shu jihatdan olganda Rossiya imperiyasining kelajakda O`rta Osiyo hududlarini egallab olish jarayonida ham, bu yo`llardan foydalanib xonliklar tabiiy boyliklari katta tezlikda hamda ko`p miqdorda talon-taroj qilishiga ham xizmat qilishi kerak edi. Bu strategik rejani amalga oshirish tashabbuskorlari temir yo`llarning qurilishi O`rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olishda hamda keyinchalik tabiiy boyliklarini o`zlashtirishda juda qulay imkoniyatlarni yaratishini alohida ta`kidlaganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XIX asr 50-60-yillaridan boshlab, O`rta Osiyo hududlarini bo`ysundirishga kirishgan Rossiya imperiyasi hukmron sinflari ichida endilikda egallanishi kerak bo`lgan hududlarga temir yo`llarni o`tkazish rejalari eng muhim, birinchi darajali vazifaga aylanib qolgan edi. Shu jihatdan olganda O`rta Osiyo hududlariga jumladan Xiva xonligiga temir yo`llarni yotqizish bo`yicha bir qator loyihalar ishlab chiqildi. Shu jihatdan olganda, bu mavzuga oid birlamchi manbalar aynan shu loyihalar hisoblanib, birinchi navbatda ularning mazmun-mohiyatini tahlil qilish lozim. Jumladan, bu boradagi ilk loyiha birinchisi Ustyurt eski karvon yo`llari bo`ylab, ikkinchisi esa Kaspiy dengizidan Orol dengizigacha bo`lgan hududlarga temir yo`l yotqizish loyihalari ishlab chiqilgan edi [3].

Mavzuga oid ikkinchi guruh manbalari bu XIX asrning 80-yillaridan boshlab Kaspiyorti temir yo`l tarmoqlari hamda umumiy holatda O`rta Osiyoni Sibir bilan bog`lovchi yo`llar, Orenburg-Toshkent yo`nalishi temir yo`l tizimining qurilishi bilan bog`liq hamda ularning qurilishidan keying faoliyatiga oid hujjatlar, maqolalar va tadqiqotlar tashkil qiladi. Bu turdagi tadqiqotlar jumlasiga, S.A. Xrulev, E. Tsimmerman, A.I. Rodzevich, B.B. Glinskiy, I.O. Shuksintsev, V.V. Andreevskiy va A.O. Brikelmeyr kabi tadqiqotchilar asarlari kiradi [1,5-11; 4; 8; 11; 12; 17].

Xiva xonligiga temir yo`l izlarini olib kelish harakatlari aks etgan eng asosiy tadqiqot bu A.N. Kovalevskiyning ma`lumotnoma-eslatma asari hisoblanib, bu tadqiqotda Xiva xonligiga temir yo`l izlarini olib kelish yo`llari aks etgan loyiha sifatidagi mutaxassisning fikrlari-mulohazalari hamda bu temir yo`llarning kelgusida qanday siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etishi xususidagi xulosalari bayon qilingan [7].

Sovet davri tadqiqotlari jumlasiga, A.I. Sergeev, F.I. Zavarkina, N.A. Xalfin, Z.K.Ahmadjanova kabi tadqiqotchilar asarlari kiradi [1; 10; 15; 16].

Bu mavzuga oid zamonaviy tadqiqotlar sirasiga D.V. Vasilyev, R.Karimov, K. Rahmonov, K.Nurjonov, T.Safarov, M.M. Mahmudov, F.Jumaniyozov kabi tadqiqotchilar maqola va asarlari kiradi [2; 5; 6; 9; 13; 14].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyoga temir yo'l o'tkazish borasidagi fikrlar XIX asrning 50-yillarida, o'lkada Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi o'rnatilishidan ilgariroq vujudga kelgan edi. Shu bilan birga, Xiva xonligida temir yo'l qurilishi borasidagi dastlabki fikrlar va xulosalar tan olish kerakki, eng avvalo Rossiya imperiyasi hukmron doiralari ichida vujudga kelgan bo'lib, bunga eng asosiy sabablardan birinchisi, mustamlakachi Buyuk Britaniyaning Hindistonni to'liq egallashi hamda bu hududda temir yo'llar tarmoqlarini jadallik bilan kengaytirib, kelgusida bu temir yo'llarning Afg'onistonga, yanada keyinchalik O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishidan Rossiya imperiyasining qo'rquvi, ikkinchidan, Rossiya imperiyasining bu temir yo'llarni o'ziga xos "temir qafas"ga aylantirib, O'rta Osiyo xalqlarini uzoq muddatli qaramlikda tutib turishga imkon yaratish, uchinchidan O'rta Osiyo hududlari xom ashyo mahsulotlarini tez va juda katta miqdorda Rossiyaga tashish imkoniyatining vujudga kelishi kabi strategik rejalar sabab bo'lgan edi.

Bu masaladagi ilk takliflarda o'lkani istilo qilishni tezlashtirish maqsadida temir yo'llar qurish g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, ular Rossiya imperiyasining harbiy vazirligiga taqdim etilgan edi. Jumladan, 1854, 1856, 1857, 1858 yillarda temir yo'llar qurish bo'yicha takliflar kiritilgan va loyihalar tayyorlangan. Bu loyiha va takliflardan Xiva xonligi ham chetda qolmagan albatta. Jumladan, Kaspiy dengizidan Orol dengizigacha bo'lgan hududlarda hamda Ustyurtdan o'tgan eski va shu vaqtda ham faoliyatda bo'lgan karvon yo'llari bo'ylab temir yo'l qurilishi loyihalari bevosita Xiva xonligi bilan bog'liq edi [3; 17,14-175].

Yuqoridagi yillarda (1854, 1856, 1857, 1858 yillarda) taklif qilingan loyihalar ichida aynan 1856 yilda Rossiya imperiyasi aloqa yo'llari boshqarmasi bosh boshqaruvchisi K.V. Chevkinning o'sha paytdagi Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiye yozgan maktubi Xiva xonligiga temir yo'l o'tkazish rejalarini ichida eng birinchisi edi. Ammo, mazkur maktubda keltirilgan hamda kelgusida Kaspiy dengizdan to Orol dengizigacha yo'nalgan temir yo'l tarmog'i loyihasi muallifi ismi-sharifi noma'lum. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, bu loyihaning aynan V.A. Perovskiye taklif qilinishi bejiz emas edi. Chunki, V.A. Perovskiye Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bo'ysundirish borsidagi strategik rejalarining bosh ijrochisi sifatida 1839-1840 yillarda Xiva xonligiga qarshi ekspeditsiya uyushtirgan, bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsada, V.A. Perovskiye o'zining rejalaridan voz kechmasdan, endilikda Orenburgdan to xonliklar chegarasigacha harbiy istehkomlar qurdirib, ulardan kelgusida tayanch baza sifatida foydalanish ko'zda tutilgan edi. Qolaversa, 1853 yilda u Qo'qon xonligiga qarashli Oqmachit qalasini egalladi (bu qal'a shundan so'ng Perovskiye nomini oldi). 1854 yilda esa u Xiva xonligi bilan Rossiya uchun manfaatli bo'lgan shartnoma imzolashga muvaffaq bo'lgan edi. Ammo, 1856 yilda K.V.Chevkin tomonidan taklif qilingan temir yo'l g'oyasi amalga oshmay qoldi. Zero, bunga birinchi sabab, V.A. Perovskiye 1857 yilda vafot qildi. Qolaversa, Rossiya imperiyasining o'zida, ya'ni markaziy hududlarida temir yo'llar tarmog'ining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermagan[17,149].

Quyida Amudaryo havzasi va u orqali Markaziy Osiyoga temir yo'l qurish g'oyasi va loyihalarining paydo bo'lishining ikkinchi bosqichi, ruslar bosqinining birinchi yillaridanoq, ya'ni XIX asrning 60-yillari o'rtalaridan boshlangan. Jumladan, 1865-1888 yillar orasida o'lkaga temir yo'llar o'tkazish borasidagi 40 dan ortiq loyihalar muhokama etildi. Ularning aksariyati o'zining maqsad va yo'nalishiga ko'ra to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Kaspiy va Orol orol dengizlari orasidan O'rta Osiyoning ichkarisiga bo'lgan yo'nalishidagi temir yo'l loyihalari.

Orenburg-Toshkent yo'nalishidagi temir yo'l loyihalari.

Parij-Kalkutta yo'nalishidagi, ya'ni Yevropani Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy bilan O'rta Osiyo orqali bog'lovchi temir yo'llar loyihalari.

Kaspiy dengiz bo'yidan Turkiston o'lkasining ichki hududlarigacha bo'lgan yo'nalishdagi temir yo'l loyihalari [1, 30,214].

Bu strategik rejalarning tashabbuskori va ashaddiy tarafdori bo'lmish mashhur general S.A. Xrulevning Rossiya imperiyasi hukmron doiralariga va shaxsan imperatorga 1856 yildagi murojaatida, agar Rossiya hukumati tez muddatlarda O'rta Osiyo xonliklarini bo'ysundirmasa, bu hududlar Rossiyaning birinchi raqamli dushmani Buyuk Britaniya ta'siriga tushib qolishi xavfi borasida ogohlantirgan edi. Zero, S.A. Xrulev qatnashgan 1853-1856 yillardagi Qrim urushida aynan Buyuk Britaniya ham rasman, ham amalda urush g'olibiga aylangan edi. Bundan tashqari, o'zi amalda Buyuk Britaniya ham Eron, ham Afg'oniston tomonidan tobora O'rta Osiyo xonliklariga yaqinlashib kelgan edi. Shuning uchun, S.A. Xrulev dastavval, Rossiyaning Astraxan shahridan boshlab, Mang'ishloq hamda Ustyurt hududlarigacha temir yo'llar o'tkazish g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan edi. Shu bilan birga u O'rta Osiyo xonliklari bozorlarini rus tovarlari bilan to'ldirib, avvalo xonliklar bozorini egallab, bu bozorga Buyuk Britaniyaning kirib kelishiga yo'l qo'ymasdan, xonliklarni avvalo iqtisodiy qaram qilishni taklif qilgan [4, 42-66; 11, 14-18].

Xususan, yana shu A.S. Xrulevning fikricha, Xiva xonligi hududida paxtachilik, g'allachilik, ipakchilik kabi sohalarining rivojlanishi, xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari – paxta tozalash va yog'-moy zavodlarining qurilishi, tayyor mahsulotlarni tashish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qilardi. SHu sababli dunyodagi ilg'or davlatlar sanoatchilari orasida o'z o'rmini egallash uchun kurashayotgan rus ishbilarmonlari O'rta Osiyodan arzon xom ashyoni tashib ketish yo'llarini izlay boshladilar [4,42-66].

Va nihoyat 1873 yilda Xiva xonligi bosib olinishidan keyin ham xonlikka temir yo'l tarmoqlarini keltirish loyihalari to'xtamadi. Jumladan, ular orasida o'qituvchi va ixtirochi S.I. Baranovskiyning loyihasi alohida e'tiborga loyiqdir. U birinchi marta 1871-yilda Peshovarga temir yo'l liniyasini qurishni taklif qilgan va uch yildan so'ng o'zining yangi, batafsil loyihasi – “Hind-Volga temir yo'li”ni nashr etgan. U ko'rib chiqqan uchta yo'nalish - Yekaterinburg, Orenburg va Saratov - orasidan u Saratov, Kalmikovskaya stansiyasi (Ural tog'lari), Ustyurt platosi, Xiva, Buxoro, Samarqand va Peshovar liniyasini afzal ko'rdi. U o'z tanlovini bu eng qisqa yo'l ekanligini va Saratov allaqachon temir yo'l orqali Rossiyaning Yevropa qismiga ulanganligini, bu esa o'z navbatida G'arbiy Yevropaga ulanganligi bilan asosladi. Hukumat, tijorat, sanoat va akademik doiralardagi keng muhokamalar davomida mutaxassislar va manfaatdor tomonlar ko'plab e'tirozlar va tanqidlarni bildirishdi, natijada S.I. Baranovskiyning loyihasi real voqelikka to'g'ri kelmaydi degan asos bilan rad etildi [16,449].

1873-1917 yillar davomida ikki davlat o'rtasida Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qiluvchi savdo-sotiq munosabatlari ancha rivoj topgan. Bu davrda Xiva xonligi butun O'rta Osiyodagidek Rossiya sanoati mahsulotlari sotiladigan daromadli bozorga aylangan. Rossiya savdogarlari va sanoatchilari Xiva bozorlariga gazlama, choy, qand, shakar, konfet, paxta ipi, kiyim tikadigan mashina, gugurt, sham, qoramurch, zanjir achchiq tosh, bulg'or charmi taxta, mix, kerosin, neft, qalay va xar xil metall mahsulotlari keltirganlar. Xivadan esa paxta, ipakdan kilingan chopon, mol, qo'y, tulki va qorako'l terilari, qo'y va tuya yungi, gilam, kigiz mahsulotlari, ro'yan va boshqalar olib ketilgan [18]. Rus savdo firmalari Xiva xonligi bozoriga mahsulot olib kirishda monopol huquqqa ega bo'lganligi sababli juda katta foyda olar edilar. SHuning uchun ham Xiva xonligiga temir yo'l keltirish Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun juda zarur edi. Ammo, to XX asrning 40-50-yillarigacha yuqoridagi loyihalarning birortasi ham amalga oshmadi.

Xulosa va takliflar. Xiva xonligiga temir yo'l qurish g'oyasi Markaziy Osiyoni Rossiya imperiyasi bilan bog'lash harakatlari zahirida shakllangan bo'lishiga qaramasdan Xorazm vohasini iqlim sharoiti, xonlikdagi siyosiy vaziyat temir yo'llarni o'tkazish masalasini chekkaga surib qo'yilishiga hamda Turkistonning boshqa mintaqasidan mazkur sohada orqada qolishiga sabab bo'ldi. Vohadagi transport bilan bog'liq ishlar karvonlar va suv yo'llari orqali amalga oshirildi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligiga temir yo'l tarmoqlarini o'tkazishga qattiq harakat qilingan bo'lsada, ammo bu harakat bilan bog'liq loyihalar turli sabablarga ko'ra (tabiiy, iqtisodiy va siyosiy) amalga oshmay qoldi. Shu jihatdan olganda, Xiva xonligiga temir yo'l tarmoqlarini o'tkazish borasidagi loyihalarni va ayniqsa bu boradagi sa'y-harakatlarni ilmiy

jihatdan chuqur tahlil qilish lozim. Zero, bu mavzuga oid hali ko'pgina tadqiqotlar, ayniqsa arxiv hujjatlari ma'lumki, ularni chuqur o'rganish lozim bo'ladiki, bu Xorazm vohasi tarixining eng dolzarb muammolardan birini to'liq ochib berishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмаджонова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 гг.). – Ташкент: Наука, 1965. – 214 с.
2. Васильев Д.В., Васильев С.Д. Роль железнодорожного транспорта в экономике Закаспийской области: на примере Мургабского государственного имения (1896–1912). Научный диалог. 2025, 14(8). – С.442-459.
3. Дело архива Оренбургской ученой архивной комиссии “По предложению об устройстве железной дороги через Усть-Урт между Каспийском и Аральским морями. Нач. 28 июля 1856 года, конца 20 января 1857 года на 44 листах”.
4. Докладная записка генерал-лейтенанта С. А. Хрулева о возможности военной экспедиции в Индию // Русский архив. – Москва: Университетская типография (М. Катков и К°), 1882. – Книга 3. – С.42-66.
5. Жуманиёзов Ф.Б. Хоразм транспорти: кеча ва бугун. – Бухоро: “Дурдона”. 2020. – 164 б.
6. Каримов Р. На стальных магистралях Хорезма. – Ургенч, 1993. – 47 с.
7. Каспийско-Аральская железная дорога в экономическом отношении: К проекту А.О. Брикемлейра и К.В. Николаевского: Экон. зап. Стат.-экон. материалы. Приложение... / Под ред. Л.Л. Рума. – Санкт-Петербург: тип. А.С. Суворина “Новое время”, 1914. – 554 с. разд. паг., 12 л. ил.; 25.
8. Ковалевский А. Н. Записка к проекту Хивинской железной дороги. – Петроград: тип. т-ва п/ф “Электро-тип. Н.Я. Стойковой”, 1915. – [2], 100 с., 1 л. карт.: 36.
9. К вопросу о путях сообщения Хивинского оазиса // Туркестанский курьер, 1911, 05 июль, № 147.
10. Махмудов М. Хоразмнинг пўлат излари // Хоразм тарихи мустақиллик кўзгусида. – Урганч, 2013. – Б. 33-43.
11. Проблема транспортной связи Хорезмского оазиса. – Ташкент: Госплан УзССР, 1935. – 255 с.
12. Проект устава товарищества для развития торговли с Средней Азией / Сост. С. Хрулев. – Санкт-Петербург: тип. Главного артиллерийского управления, 1863. – С.14-18.
13. Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Ташкентской и Средне-Азиатской. 1907-1908 / Сост. по офиц. данным под ред. А.И. Дмитриева-Мамонтова. - 8-е изд. – Санкт-Петербург : тип. И. Шурухта, 1915. – VIII. – 452 с.
14. Рахмонов К., Нуржонов К., Каримов Р. Бахт йўли. Из истории железнодорожной магистрали Чоржўй – Ургенч – Кунград (Ўзбек ва рус тилларида). – Урганч: Мураббий, 1992. – 38 б.
15. Сафаров Т.Т. Ўрта Осиё темир йўлининг қурилиши ва унинг Россия билан савдо алоқарида тутган ўрни // “Тарихий хотира – ва унинг маънавият асоси” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2008. – Б. 79-82.
16. Сергеев А. И. Туркменская ССР и Чарджуй-Хивинская железная дорога / А. И. Сергеев; Гос. плановая комис. - Ашхабад: Госплан ТССР, 1927. - 24 с.
17. Халфин Н.А. Из истории железнодорожного строительства в дореволюционном Туркестане (проекты создания линии Чарджуй – Александров Гай) // Проблемы общеполитической истории России и славянских стран. – М., 1963. – С.445-457.
18. Шукшинцев И. О железной дороге между Каспийским и Аральским морями / Труды Оренбургской ученой архивной комиссии. Вып. 16. – Оренбург: Паровая Типо-литография Ф. Г. Каримова, 1906. – С.149-175.
19. ЎзМА, И-125-фонд, 1-руйхат, 56-йиғма жилд, 211-212-варақлар.

UO'K 908

O'ZBEKISTON SSRDA SPORT TARAQQIYOTINING TARIXIY JARAYONLARI (1946–1991-YILLAR)

F.G'.Ergashev, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada futbol, boks, yengil atletika, gimnastika, kurash va boshqa sport turlarining rivojlanishi hamda O'zbekiston sportchilarining Butunittifoq va xalqaro musobaqalardagi ishtiroki tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet sport tizimining bir tomondan aholining jismoniy faolligi, sport infratuzilmasi va mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilgani, ikkinchi tomondan esa sportning mafkuraviy-tarbiyaviy va davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida qo'llanilganligi asoslanadi. 1980-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida sport tizimida yuzaga kelgan yangi tendensiyalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, jismoniy tarbiya, sport, sovet sport tizimi, spartakiada, sport jamiyatlari, sport maktablari, sport mutaxassislari, sport inshootlari, GTO, Olimpiya o'yinlari, ommaviy sport, professional sport.

Аннотация. В статье анализируется развитие футбола, бокса, лёгкой атлетики, гимнастики, борьбы и других видов спорта, а также участие спортсменов Узбекистана во всесоюзных и международных соревнованиях. В исследовании обосновывается, что советская система спорта, с одной стороны, способствовала повышению физической активности населения, развитию спортивной инфраструктуры и подготовке квалифицированных специалистов, а с другой — использовалась как составная часть идеологического воспитания и государственной политики. Кроме того, рассматриваются новые тенденции, возникшие в спортивной системе в условиях общественно-политических преобразований, начавшихся во второй половине 1980-х годов.

Ключевые слова: Узбекская ССР, физическая культура, спорт, советская система спорта, спартакиада, спортивные общества, спортивные школы, спортивные специалисты, спортивные сооружения, ГТО, Олимпийские игры, массовый спорт, профессиональный спорт.

Abstract. The article analyzes the development of football, boxing, athletics, gymnastics, wrestling, and other sports, as well as the participation of Uzbek athletes in All-Union and international competitions. The study demonstrates that, on the one hand, the Soviet sports system contributed to increasing the physical activity of the population, developing sports infrastructure, and training qualified specialists; on the other hand, sport was used as an integral component of ideological education and state policy. The article also examines new trends that emerged in the sports system amid the socio-political transformations that began in the second half of the 1980s.

Keywords: Uzbek SSR, physical education, sport, Soviet sports system, Spartakiad, sports societies, sports schools, sports specialists, sports facilities, GTO, Olympic Games, mass sport, professional sport.

Kirish. 1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning ommaviy xarakteri kuchaydi. Bunda Butunittifoq spartakiadalari tizimi alohida ahamiyat kasb etdi. SSSR xalqlari spartakiadalari 1956-yildan boshlab muntazam o'tkazila boshlandi. Mazkur musobaqalar ittifoq respublikalarida sportchilarni saralash, tayyorlash va yuqori natijalar sportiga jalb etishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston SSR sportchilari ham ushbu musobaqalarda muntazam qatnashdilar. Shu bilan birga, respublika miqyosida spartakiadalar, maktab o'quvchilari va talabalar musobaqalari, korxonalar va qishloq xo'jaligi jamoalari o'rtasidagi sport bellashuvlari kengaytirildi.

1961-yilga kelib O'zbekistonda 6538 ta jismoniy tarbiya jamoasi faoliyat yuritib, ularda 964 ming kishi birlashtirilgani haqidagi ma'lumotlar sport harakatining ancha keng ommaviy bazaga ega bo'lganini ko'rsatadi. O'sha davrda respublikaning 30 ta oliy o'quv yurtida gimnastika, yengil atletika, basketbol, voleybol, futbol, og'ir atletika, velosport, otish, alpinizm va kurash kabi sport turlari rivojlangan. Bu ko'rsatkichlar sportning faqat poytaxt Toshkent bilan cheklanmaganligini, balki viloyat va shaharlar miqyosida ham institutsional tus olganligini ko'rsatadi.

Asosiy qism: Jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvi bevosita moddiy-texnik bazaning kengayishini talab qildi. Shu sababli 1950–1980-yillar davomida stadionlar, sport zallari, futbol va voleybol maydonlari, suzish havzalari, tennis kortlari, otish maydonlari va boshqa sport obyektlari qurildi. Toshkentdagi «Paxtakor» stadioni respublikadagi yirik sport inshootlaridan biri sifatida shakllandi. 1955-yilda stadion qurilishining boshlanishi va uning 55 ming tomoshabinga mo'ljallangani qayd etiladi.

1976-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda 9845 ta jismoniy tarbiya jamoasi faoliyat yuritib, ularda 2,5 milliondan ortiq kishi qatnashgan. Shu davrda 120 ta stadion, 3700 ta futbol maydoni, 1900 ta sport zali, 94 ta suzish havzasi, 83 ta tennis korti, 736 ta otish tiri va 23,3 mingta turli sport maydonchalari mavjud bo'lgan. Bolalar-o'smirlar sport maktablari soni 241 taga yetib, ularda 88 ming nafar yosh shug'ullangan. Ushbu raqamlar sovet davrining ikkinchi yarmida O'zbekistonda sport infratuzilmasi sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi.

Biroq mazkur jarayonni faqat miqdoriy o'sish sifatida baholash yetarli emas. Sport inshootlarining joylashuvi hududlar bo'yicha bir xil bo'lmagan, zamonaviy jihozlar bilan

ta'minlanish darajasi ham turlicha edi. Ayniqsa qishloq joylarida sport bazasining sifati shaharlarga nisbatan past bo'lgan. Sovet sport tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sportchilar zaxirasini yoshligidan tayyorlash edi. Shu sababli O'zbekistonda bolalar-o'smirlar sport maktablari faoliyati bosqichma-bosqich kengaytirildi.

Komsomol tashkilotlari ham yoshlar sportining rivojlanishida faol ishtirok etdi. «Charm to'p», «Oltin shayba», shaxmat bo'yicha «Oq ruh» kabi musobaqalar, shuningdek, harbiy-sport o'yinlari yoshlarni ommaviy sportga jalb etish vositalaridan biri bo'ldi. «Zarnitsa» harbiy-sport o'yini 1967-yildan, «Orlyonok» musobaqalari esa 1972-yildan yo'lga qo'yilgan. Bu tizimning ijobiy jihati yoshlar o'rtasida jismoniy faollik va sport ko'nikmalarini kengaytirgan bo'lsa, uning siyosiy-mafkuraviy jihati ham mavjud edi. Yoshlar sporti vatanparvarlik, jamoaviylik va davlatga sodiqlik kabi sovet ideologiyasining asosiy qadriyatlarini singdirish vositasi sifatida ham ishlatilgan.

Natija va muhokamalar: Futbol O'zbekiston SSRda eng ommabop sport turlaridan biri bo'lib qoldi. Toshkentning «Paxtakor» jamoasi respublika futbolining ramziga aylandi. Jamoa 1956-yildan SSSR futbol chempionatlarida qatnashib, 1960-yildan yuqori divizion darajasida o'ynadi. Boks ham respublikada yuqori natijalar sportining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. SSSR xalqlari spartakiadalaridagi natijalar O'zbekiston boks maktabining bosqichma-bosqich kuchayganini ko'rsatadi. Masalan, 1975-yilgi spartakiadada O'zbekiston bokschilari 6 medal qo'lga kiritgan va jamoaviy hisobda ikkinchi o'rinni egallagan. 1991-yilgi musobaqada esa O'zbekiston jamoasi 7 medal bilan to'rtinchi o'rinni olgan.

1952–1988-yillar davomida O'zbekiston SSR vakillarining Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki bosqichma-bosqich kengaydi. Ayniqsa 1980-yilgi Moskva Olimpiadasi respublika sportchilari uchun muhim voqea bo'ldi. O'zbekiston sportchilarining SSSR terma jamoasi tarkibida xalqaro maydonga chiqishi respublikada yuqori malakali sportchilar tayyorlash tizimining shakllanganidan dalolat beradi. Biroq bu yerda muhim metodologik jihat mavjud: sovet davridagi sportchi xalqaro musobaqalarda O'zbekiston SSRning mustaqil vakili sifatida emas, balki SSSR terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan. Shu sababli sovet davridagi sport yutuqlarini bugungi milliy sport yutuqlaridan tarixiy jihatdan farqlash lozim.

1970-yillarga kelib O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimi ancha yirik institutsional tarmoqqa aylandi. Sport jamoalari, sport jamiyatlari, bolalar-o'smirlar maktablari, oliy sport mahorati maktablari va oliy o'quv yurtlaridagi sport bo'linmalari o'zaro bog'langan tizimni tashkil etdi. 1976-yildagi ma'lumotlar bu jarayonning miqyosini yaqqol ko'rsatadi: respublikada 2,5 milliondan ortiq kishini qamrab olgan 9845 ta jismoniy tarbiya jamoasi mavjud edi.

1982-yilga kelib esa respublikada 174 ta yirik stadion, 5557 ta futbol maydoni, 9094 ta basketbol, 17 121 ta voleybol maydoni, 3309 ta sport zali va 257 ta suzish havzasi mavjudligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bu ko'rsatkichlar sport infratuzilmasining miqdoriy jihatdan katta tizimga aylanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkichlarni statistik manbalarning metodologiyasi va hisoblash usullarini hisobga olgan holda talqin qilish lozim.

1985–1991-yillar O'zbekiston sport tarixida **eski sovet modelining so'nggi bosqichi** bo'lib, 1991-yildan keyin sport boshqaruvi, moliyalashtirish va xalqaro sport aloqalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. 1985–1991-yillardagi O'zbekiston sporti bo'yicha zamonaviy tarixshunoslik ham sportchilar, sport inshootlari, spartakiada natijalari va an'anaviy sportlarni shu siyosiy o'zgarishlar kontekstida tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining jismoniy tarbiya va sport masalalariga oid qarorlari.
2. Sovet davrida O'zbekistonda xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi va uning natijasi. Jamiyat va innovatsiyalar.
3. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi (1920–1990 yy.). Ilmiy-metodik material.
4. O'zbekiston SSR. Большая советская энциклопедия ma'lumotlari: jismoniy tarbiya, sport, sport jamiyatlari va sport inshootlari statistikasi.
5. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti tarixiga oid ilmiy materiallar.
6. SSSR xalqlari spartakiadalar va O'zbekiston SSR sportchilari ishtirokiga oid statistik materiallar.

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MUNOSABATLARIDA TA'LIM, FAN VA YOSHLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI**A.G'aybullayev, mustaqil izlanuvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov****ORCID: 0009-0004-8264-0550**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p asrlik qardoshlik, yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklik munosabatlarining bugungi bosqichi keng tahlil qilingan. Xususan, ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar, oliy ta'lim, fan, hududlararo iqtisodiy-ijtimoiy integratsiya hamda san'at va kinematografiya yo'nalishlaridagi hamkorlikning amaliy natijalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: strategik sheriklik, madaniy diplomatiya, gumanitar aloqalar, oliy ta'lim, akademik mobillik, hududlararo hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, madaniy meros, xalqaro festivallar.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется современный этап многовековых отношений дружбы, добрососедства и стратегического партнерства между Узбекистаном и Казахстаном. В частности, раскрыты практические результаты сотрудничества в области культурно-гуманитарных связей, высшего образования, науки, межрегиональной социально-экономической интеграции, а также искусства и кинематографии.

Ключевые слова: стратегическое партнерство, культурная дипломатия, гуманитарные связи, высшее образование, академическая мобильность, межрегиональное сотрудничество, экономическая интеграция, культурное наследие, международные фестивали.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current stage of the centuries-old relations of brotherhood, good-neighborliness, and strategic partnership between Uzbekistan and Kazakhstan. In particular, it highlights the practical results of cooperation between the two nations in areas such as cultural and humanitarian ties, higher education, science, inter-regional socio-economic integration, art, and cinematography.

Key words: strategic partnership, cultural diplomacy, humanitarian ties, higher education, academic mobility, inter-regional cooperation, economic integration, cultural heritage, international festivals.

Kirish. Bugungi jadal globallashuv va geosiyosiy o'zgarishlar davrida davlatlararo munosabatlarning tamoyillari tubdan o'zgarib, an'anaviy diplomatiya qatorida xalqlar yuragiga yo'l topuvchi madaniy-gumanitar mexanizmlar oldingi planga chiqmoqda. Jahon diplomatiya amaliyotida "madaniy diplomatiya" va "yumshoq kuch" tushunchalari davlatlarning tashqi siyosatidagi strategik ustuvor vazifalardan biriga aylanib, xalqaro maydonda o'zaro ishonch va hamjihatlik muhitini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan, ko'p asrlik qardoshlik, yaxshi qo'shnihilik va mushtarak ma'naviy-madaniy ildizlarga asoslangan O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p asrlik qardoshlik, yaxshi qo'shnihilik va umumiy ma'naviy-madaniy ildizlarga asoslangan rishtalar bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yangi mazmun bilan boyitishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Zamonaviy xalqaro munosabatlar va diplomatiya amaliyotida madaniy diplomatiya nafaqat xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtiruvchi ma'naviy ko'pri, balki Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, tinchlik va o'zaro ishonch muhitini mustahkamlovchi ta'sirchan hamkorlik mexanizmiga aylanmoqda. O'zaro muloqotning institutsional asoslari kengayib borishi natijasida mazkur hamkorlik bugungi kunda davlat idoralari, madaniyat vazirliklari, hududiy hokimliklar, diaspora tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar darajasida tizimli va izchil tus olganini ko'rish mumkin.

Ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi gumanitar aloqalarning jadallashuvi har ikki xalqning intellektual va badiiy salohiyatini namoyon etishda muhim maydon vazifasini o'tayotganligi diqqatga sazovordir. Buning yaqqol amaliy ifodasini so'nggi yillarda, xususan, 2025-yilning yanvar-avgust oylarida tashkil etilgan o'ndan ortiq yirik madaniy tadbir va festivallar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu davr mobaynida o'tkazilgan Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrining Qozog'iston sahnasidagi muvaffaqiyatli gastrollari, Qozog'iston poytaxti Ostonada yuqori saviyada tashkil etilgan "Toshkent kunlari" doirasidagi tadbirlar ikki mamlakatning madaniy hayotida unutilmas voqelikka aylandi [2]. Shu bilan bir qatorda, ikki davlat san'at ustalarining maxsus ko'rgazmalari, taniqli adiblar va shoirlar ishtirokidagi ijodiy uchrashuvlar, shuningdek, milliy hunarmandchilik yo'nalishidagi festivallar xalqlarimizning madaniy yaqinlashuvini yanada kuchaytirib, yosh avlodni umumiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim poydevor yaratmoqda.

O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik va do'stona munosabatlar bugungi kunda sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilib, jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, ta'lim, fan hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida ham izchil va samarali rivojlanib bormoqda. Ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi tarixiy ildizlarga, mushtarak madaniy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ushbu intellektual integratsiya davlatlarimiz rahbarlarining o'zaro siyosiy irodasi tufayli yanada mustahkamlanib, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda [3]. Xususan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot yo'nalishidagi hamkorlikni kengaytirish, kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zaro integratsiya qilish borasida ulkan amaliy natijalarga erishilayotgani diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'istonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasida imzolangan 280 dan ortiq o'zaro manfaatli hamkorlik shartnomalari, bitimlar va memorandumlar mazkur strategik sheriklikning huquqiy-tashkiliy poydevorini tashkil etib, amaliy aloqalarning izchil va uzluksiz tus olganidan dalolat beradi. Ushbu keng ko'lamli jarayonda Qozog'istonning 60 dan ortiq nufuzli oliy o'quv yurtlarining faol ishtirok etishi ikki mamlakat yoshlari va tadqiqotchilari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda [4]. Xususan, bu kabi yaqin hamkorlik talaba va professor-o'qituvchilarning akademik mobilligini ta'minlash, xalqaro talablarga javob beradigan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish hamda dolzarb ilmiy-tadqiqotiy izlanishlarni o'zaro muvofiqlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning qator yetakchi universitetlari va ilmiy markazlarida amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar mazkur ikki tomonlama munosabatlarning naqadar jonli va samarali ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, shuningdek, Qoraqalpoq va Guliston davlat universitetlari hamda Nukus, Jizzax, Navoiy davlat pedagogika institutlarida qozoq tili, adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganishga mo'ljallangan maxsus fakultetlar va kafedralar faoliyati yo'lga qo'yilgani qardosh xalqlarning ma'naviy yaqinligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi [5]. Bu kabi ixtisoslashgan ta'lim maskanlari orqali qozoq tili va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish qo'llab-quvvatlanib, ikki xalq o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalar ilmiy asosda yanada boyitilmoqda.

O'z navbatida, qardosh Qozog'istonda ham o'zbek tilida ta'lim olish, milliy o'zlikni, Ona til va boy madaniy merosni saqlash hamda rivojlantirish masalalariga davlat darajasida alohida e'tibor qaratilayotgani yuksak e'tirofga loyiqdir. Joriy holat va statistik ma'lumotlarga ko'ra, qo'shni mamlakatdagi 141 ta umumta'lim maktabining 5814 ta sinfida 89 ming nafarga yaqin o'quvchi o'z ona tilida ta'lim olayotgani ikki davlat o'rtasidagi o'zaro madaniy hurmat, do'stlik va teng huquqlilik tamoyillarining amaldagi yorqin ifodasidir [6]. Bunday g'amxo'rlik va e'tibor chet eldagi vatandoshlarimizning o'z milliy qadriyatlari bilan birga kamol topishiga, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-gumanitar ko'priklarning yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Mazkur ta'limiy va intellektual ko'priklar kelajakda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi barcha jabhalardagi, jumladan, gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni sifat jihatidan yanada yuksak bosqichga ko'taradigan mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim va fan sohasidagi o'zaro integratsiyaning chuqurlashuvi ertangi kun uchun yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan,

ikki xalq o'rtasidagi do'stona rishtalarni qadrlaydigan intellektual kadrlarni tayyorlab berish bilan birga, butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishiga ulkan hissa qo'shadi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali strategik sheriklik munosabatlari faqatgina oliy darajadagi siyosiy muloqotlar va davlatlararo bitimlar bilan cheklanib qolmay, balki hududlar miqyosida ham tobora jadal va amaliy tus olib bormoqda. Ikki qardosh davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni yanada chuqurlashtirishda 2018-yildan buyon muntazam tashkil etib kelinayotgan Hududlararo hamkorlik forumi o'ziga xos muhim strategik muloqot maydoni sifatida xizmat qilmoqda. Barcha viloyatlar, yirik shaharlar va ishbilarmon doiralar vakillarini o'zida jamlovchi ushbu anjuman hududlararo iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy integratsiyani chuqurlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Mazkur an'ananing mantiqiy davomi sifatida to'rtinchi forum 2024-yil 20-21-oktyabr kunlari qadimiy va tabarruk Samarqand shahrida yuksak saviyada tashkil etilgan bo'lsa, navbatdagi beshinchi yirik anjumanni Qozog'iston Respublikasida o'tkazish rejalashtirilganligi ikki tomonlama aloqalarning izchil davomiyligini ta'minlaydi [7].

Bugungi kunda ikki mamlakat o'rtasidagi hududlararo aloqalar mustahkam va puxta shartnomaviy-huquqiy baza asosida izchil kengayib bormoqda. Shu kungacha imzolangan jami 288 ta salmoqli hujjatning salmoqli qismi aynan markaziy idoralar vositachilgisiz, hududlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan amaliy bitimlar va shartnomalarni o'z ichiga olgani bu hamkorlikning naqadar hayotiy va samarali ekanini ko'rsatadi [6]. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan forumlar doirasida qishloq xo'jaligining ilg'or tarmoqlari, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, transport-tranzit yo'laklarini rivojlantirish, logistika zanjirlarini takomillashtirish hamda turizm salohiyatini yuzaga chiqarish kabi ustuvor yo'nalishlarda yirik qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan muhim kelishuvlarga erishilmoqda. Bu esa o'z navbatida, chegarasiz va o'zaro ishonchga asoslangan iqtisodiy makonni shakllantirib, har ikki mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Ikki tomonlama strategik sheriklik va ko'p qirrali munosabatlarning intellektual poydevorini yanada mustahkamlashda ilmiy-gumanitar aloqalarning o'rni har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bugungi kunda Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarining nufuzli muzeylarida qardosh xalqning ko'p asrlik hayoti, boy tarixi va madaniyatiga oid 500 ga yaqin qimmatli eksponatning saqlanayotgani ikki davlat o'rtasidagi buzilmas tarixiy mushtaraklik va madaniy yaqinlikning yaqqol ifodasidir [6]. O'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari bundan o'ttiz yildan ziyodroq vaqt oldin, aniqrog'i 1994-yil 10-yanvarda imzolangan Hukumatlararo bitimning fundamental tamoyillariga tayangan holda bugungi kunda ham izchil va bardavom tarzda rivojlanib bormoqda. Mazkur huquqiy asoslar negizida O'zbekiston OTMlari Qozog'istonning 50 dan ortiq yetakchi universitetlari bilan professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, shuningdek, dolzarb mavzularda qo'shma tadqiqot dasturlarini amalga oshirish bo'yicha o'nlab o'zaro manfaatli shartnoma va memorandumlarga ega ekanligini ko'rsatadi [8]. Shu bilan bir qatorda, ikki mamlakat Fanlar akademiyalari o'rtasidagi yaqin ilmiy integratsiya doirasida kimyo, biologiya va biotexnologiya, biotibbiyot, farmatsevtika, seysmologiya hamda arxeologiya kabi ustuvor yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar samarali davom ettirilib, mintaqa ilm-fanining salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasidagi integratsiya jarayonlarining amaldagi yorqin ko'rsatkichi sifatida esa hozirgi vaqtda Qozog'istonning 97 ta oliy o'quv yurtida 17014 nafar o'zbekistonlik yoshlarning tahsil olayotgani kelgusidagi umumiy taraqqiyot va intellektual salohiyat kafolati bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir [6].

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishida ijodkorlarning xalqaro miqyosdagi festivallarda faol ishtirok etishi o'zaro ma'naviy yaqinlikni mustahkamlashning eng ta'sirchan va samarali ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, qozog'istonlik san'atkorlar, sozandalar va hunarmandlarning O'zbekistonda tashkil etiladigan nufuzli xalqaro anjumanlar, jumladan, Samarqanddagi "Sharq taronalari", Shahrisabzdagi xalqaro maqom san'ati, Termizdagi baxshichilik san'ati, Marg'ilondagi "Buyuk ipak yo'li" hamda Qo'qondagi xalqaro hunarmandchilik festivallarida doimiy va faol qatnashib kelishi ikki qardosh xalqning asriy an'analari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor namoyon qiladi [9]. Bu kabi

nufuzli madaniy tadbirlar nafaqat milliy san'at turlarini o'zaro boyitish, balki umumiy merosimizni jahon sahnasida targ'ib etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

O'z navbatida, o'zbekistonlik kinorejissorlar, ssenariynavislar va ijodiy jamoalar ham Qozog'istonda o'tkaziladigan xalqaro kinofestivallarda o'zlarining so'nggi yillarda yaratgan sara badiiy va hujjatli filmlarini muntazam namoyish etib kelmoqdalar. Ushbu kinematografik asarlar orqali zamonaviy san'at yutuqlari namoyish etilibgina qolmay, balki ikki qardosh xalqning mushtarak qadriyatlarini, boy tarixlari, bugungi kundagi bunyodkorlik jarayonlari va ma'naviy olami ta'sirchan vositalar orqali keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Kinematografiya va san'at sohasidagi bunday muloqotlar davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona rishtalarni yanada mustahkamlashga, xalqlarimizni bir-birining madaniyati bilan yaqindan tanishtirishga hamda umumiy Markaziy Osiyo madaniy makonini boyitishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali munosabatlar bugungi kunda sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilib, jamiyat hayotining barcha jabhalarida yuksak samaralar bermoqda. Ta'lim, fan, hududlararo hamkorlik va madaniy-gumanitar aloqalarning izchil rivojlanishi nafaqat ikki qardosh xalqning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyot, tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun qo'shma ilmiy-tadqiqot markazlarini ko'paytirish va madaniy almashinuv mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Sodiqov Q. Qardosh xalqlar adabiy aloqalari va madaniy yaqinlashuv omillari // Sharqshunoslik. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 78–85.
3. To'xliyev S. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari: yaxshi qo'shniçilik va strategik hamkorlik rishtalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 212 b.
4. Qosimova M. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ta'lim va fan sohasidagi integratsiya jarayonlari // Markaziy Osiyo ilmiy axborotnomasi. – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 45–52.
5. Yusupov A. Madaniy diplomatiya zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida. – Toshkent: Akademya, 2023. – 160 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik ko'rsatkichlari (Rasmiy statistik to'plam). – Toshkent, 2025. – 110 b.
7. Raximov M. O'zbekistonning tashqi siyosati va mintaqaviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2024. – 195 b.
8. Karimov N. Markaziy Osiyo mamlakatlarining madaniy-gumanitar aloqalari: tarix va hozirgi zamon. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. – 184 b.
9. Nazarov B. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi va umumiy ma'naviy qadriyatlarini. – Toshkent: Qomus, 2021. – 230 b.

UO'K 94(575.1)

TERMIZ ILMIY HAVZASINING (IX ASR) HANAFIY FIQH VA HADIS AN'ANASIDAGI ROLI: AL HAKIM AT-TERMIZIY VA IMOM AT-TERMIZIY QIYOSI

M.M.Ibragimova, talaba, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

ORCID: 0009-0007-4206-6795

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX asrda Islom olamining eng nufuzli intellektual markazlaridan biriga aylangan Termiz ilmiy havzasining Hanafiy fiqhi va hadis an'anasi rivojida o'rni hamda o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolaning markaziy qismini ushbu havzaning ikki buyuk namoyandasi – Imom at-Termiziy va Al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosining qiyosiy tahlili tashkil etadi. Tadqiqotda Imom at-Termiziyning zohiriy (shariat/huquqiy) ilmlarni, xususan, qiyosiy fiqh va hadis metodologiyasini tizimlashtirishdagi xizmatlari hamda Al-Hakim at-Termiziyning botiniy (hikmat/tasavvuf) ilmlar orqali shariat ahkomlarining falsafiy-ruhiy mohiyatini (maqasid ash-shari'a) ochib berishdagi yondashuvlari qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: Termiz, Hakimiya, zohir va botin ilm, Sihohisitta, hakim, bilvosita, hasan, g'oriyb, hadis, fiqh, madrasa.

Аннотация. В данной статье исследуются роль и специфические особенности Термезской научной школы IX века в развитии ханафитского фикха (мусульманского права) и традиций хадисоведения. Центральное место в исследовании занимает сравнительный анализ научного наследия двух великих представителей этого интеллектуального центра — Имама ат-Тирмизи и Аль-Хакима ат-Тирмизи. В работе сопоставляются заслуги Имама ат-Тирмизи в систематизации экзотерических (захир/правовых) наук, в частности сравнительного фикха и методологии хадисов, и подходы Аль-Хакима ат-Тирмизи к раскрытию философско-духовной сущности шариатских предписаний (макасид аш-шариа) через эзотерические (батин/суфийские) знания и мудрость (хикма).

Ключевые слова: Термез, Хакимия, видимое и скрытое знание, Сихахиситта, хахим, косвенный, хасан, гариб, хадис, фикх, медресе

Abstract. This article examines the role and distinct characteristics of the 9th-century Termiz school of Islamic learning in the development of Hanafi jurisprudence (fiqh) and Hadith traditions. The central focus of the study is a comparative analysis of the scholarly legacies of two paramount figures of this intellectual circle: Imam al-Tirmidhi and Al-Hakim al-Tirmidhi. The research contrasts Imam al-Tirmidhi's contributions to systematizing the esoteric (zahir/legal) sciences, particularly comparative fiqh and Hadith methodology, with Al-Hakim al-Tirmidhi's approach to uncovering the philosophical and spiritual dimensions of Islamic law (maqasid al-shari'ah) through esoteric (batin/mystical) wisdom (hikmah).

Key words: Termez, Hakimiya, apparent and hidden knowledge, Sihahisitta, hakim, indirect, hasan, gharib, hadith, fiqh, madrasa.

Kirish. Mamlakatimizdagi har bir shaharning o'ziga xos tarixiy o'tmishi bir butun holda Vatan tarixini tashkil etadi. Ana shunday ko'hna va strategik maskanlardan biri — o'tmishning sirli voqealariga guvoh bo'lgan Termiz shahridir. Qadimgi manbalarda shahar ilk bor “Taramayeta” (“Taromayeta”) shaklida bitilgan bo'lib, asrlar davomida lisoniy o'zgarishlar natijasida *Taramata*, *Tarmat* (*Tarmad*) va nihoyat Termiz ko'rinishini olgan. Ushbu maskan “Avesto” yodgorligida “Tarmida” deb atalsa, arab manbalarida geografik o'rniga muvofiq “Daryo bo'yidagi shahar” ma'nosini anglatadi. Tarixda uzoq vaqt harbiy-mudofaa qal'asi vazifasini o'tagan.

Biroq Termiz nafaqat harbiy istehkom, balki o'zbek ilmi va madaniyatini jahonga taratgan buyuk allomalar hamda ulug' avliyolar yurti hamdir. Ayniqsa, IX asrda bu yerda o'ziga xos ilmiy havza shakllandi. Movarounnahr zaminidagi ilk tasavvufiy yo'nalish — “Hakimiya” tariqatining asoschisi Al-Hakim at-Termiziy o'zining bizgacha bezavol yetib kelgan 55 dan ortiq asari bilan Islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shdi. Uning an'analarini sobiq va solih shogirdi Abu Bakr Varroq Termiziy muvaffaqiyatli davom ettirdi.[1]

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotni tizimli va xolis muvozanatda olib borish uchun qiyosiy-tarixiy, konseptual-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv kabi zamonaviy ilmiy-tadqiqot usullari (metodlari) qo'llanildi. Ushbu metodlar asosida IX asr Movarounnahr va xususan Termiz mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy, intellektual muhit o'rganildi. Ikki allomaning yashagan davri, ustozlari va shogirdlari zanjiri tarixiy kontekstda solishtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Hanafiy mazhabi VIII asr oxiri va IX asr boshlarida Iroq hamda Xuroson ilmiy maktablari ta'sirida Movarounnahrqa yetib keldi. Mintaqadan ko'plab ilm ahli Kufaga borib, Imom A'zam Abu Hanifa ta'limotini o'rgandilar va uning fatvolarini o'z yurtlariga olib keldilar. Bu jarayon dastlab Balx va Ray shaharlarida boshlandi. Xususan, hijriy 142 (milodiy 759–760) yildayoq Abu Hanifaning shogirdi Abu Bakr Balxiy Balx qozisi etib tayinlandi va u yerda hanafiylik asoslarini mustahkamladi.[2] Ushbu mazhabning keng yoyilishida o'zining yuksak hissa qo'shgan ikki buyuk Termiziyning bog'liqligini ko'rib o'tamiz.

Termiz shahri azaldan Mag'ribu Mashriqni bog'lagan, Buyuk ipak yo'li chorrahasida turli din va madaniyatlar (zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va islom) yonma-yon yashagan ko'hna sivilizatsiya markazidir. Ana shunday ulkan tarixiy qatlamga ega bo'lgan muhitda IX asrda islom olmining buyuk mutafakkiri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan al-Hakim at-Termiziy dunyoga keldi. Alloma dastlabki saboqlarini o'z oilasida — mashhur muhaddis bo'lgan otasi Ali ibn

Hasan, onasi va bobosidan oldi. Keyinchalik tahsilni qo'shni Balx shahri madrasalarida davom ettirib, Shafiq al-Balkhiy, Ahmad Xizraviya va Saqafiy al-Balkhiy kabi yetuk ulamolar bilan ilmiy muloqotlar qildi.[3] Ilmga bo'lgan cheksiz tashnalik uni Sharqning eng yirik markazlari — Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Ray, Hamadon, Bag'dod, Basra, Kufa hamda Makka va Madinaga yetakladi. Bu safarlar asnosida u hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini mukammal egallab, ona shahri Termizga qaytdi.

Al-Hakim at-Termiziy asrlar davomida Bag'dod hadischilik maktabida yetakchi bo'lgan va "Sihohisitta" mualliflariga ustozlik qilgan ulug' shayxlar — Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, Al-Qosim ibn Ubbod, Al-Jarud ibn Ma'oz kabi zotlardan ta'lim oldi. Shu bilan birga, Termizdagi an'anaviy hanafiy ulamolari (Xolid ibn Ziyyod va Abdulaziz ibn Xolid) muhitida kamol topdi.[5] Biroq, allomaning shariat ahkomlarini botiniy falsafa bilan tushuntirishi va valiyulikni o'ziga xos talqin qilishi o'z davrining ayrim yuzaki ulamolari va jahmiya oqimi vakillari tomonidan keskin qarshilikka uchradi. Uni kofirlikda ayblab, ona shahri Termizdan badarg'a qilishdi. Balx shahrida ham ma'lum muddat tazyiq ostida bo'lgan alloma, keyinchalik o'zining yuksak ilmiy salohiyati va o'tkir mantiqiy dalillari bilan raqiblarini lol qoldirdi va Termizga g'olibona qaytib, xonaqo va masjidlarda dars berishni davom ettirdi.

Al-Hakim at-Termiziy asos solgan "Hakimiya" maktabi keyingi asrlarda islom falsafasi va tasavvufining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Imom al-G'azzoliy o'zining mashhur "Ehyo ulum id-din" asarida Termiziyning zohir va batin ilmlariga oid qarashlaridan to'liq foydalangan. Bahouddin Naqshband hazratlari o'z asarlarida Hakim Termiziy ruhiyatidan tarbiya olganini va 22 yil davomida uning tariqatiga ergashganini e'tirof etgan. Tarixda mislsiz xizmatlari uchun allomaga Muxaddis, Hofiz, Zohid, Imom, Oromi usuli ad-din kabi unvonlar berilgan bo'lsa-da, u xalq orasida ilohiy hikmatlar sohibi sifatida qisqacha "Hakim" (ilmning ichki sirlarini biluvchi) nomi bilan mashhur bo'ldi. Uning hayoti va qoldirgan ilmiy merosi bugungi kunda ham milliy ma'naviyatimizning eng teran bo'g'inini tashkil etadi.

Movarounnahr, xususan, Termiz ilmiy muhitining islom sivilizatsiyasi tarixidagi eng yirik natijalaridan biri — bu Imom Abu Iso at-Termiziy (824–892) ilmiy maktabining shakllanishidir. At-Termiziyning ilmiy faoliyati IX asrda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq o'rtasidagi intellektual integratsiyaning yaqqol namunasidir. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, alloma 26 yoshidan (850-yildan) boshlab Hijoz (Makka, Madina), Iroq va Xuroson kabi yirik ilmiy markazlarga safar qilgan.

Tarixchi Sh. az-Zahabiy ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, allomaning Misr va Shom ulamolaridan bilvosita (oraliq roviylar orqali) hadis rivoyat qilgani uning ilmiy mas'uliyati va asor (manba) aniqligiga bo'lgan qat'iy talabini ko'rsatadi. Allomaning ustozlari (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud) va shogirdlari (Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Abu ibn Muhammad an-Nasafiy) geografiasini tahlil qilinganda, Movarounnahrda o'sha davrda haqiqiy "ilm baynalmilalligi" va umumbashariy ilmiy hamkorlik muhiti mavjud bo'lgani aniqlandi.[5]

At-Termiziyning taxminan 60 yoshlarida (hijriy 270 / milodiy 884-yilda) yozib tugatgan "Al-Jomi'" asari hadisshunoslikda inqilobiy bosqich bo'ldi. Muhokama jarayonida ushbu asarning boshqa "Sihohi sitta" (olti sahih to'plam) asarlaridan farqli bo'lgan quyidagi metodologik jihatlari aniqlandi:

✓ Hadislar klassifikatsiyasi: At-Termiziyga qadar hadislar asosan ikki toifa (sahih va zaif) ajratilgan. Alloma ilk bor ilmiy muomalaga "hasan" (maqbul, yaxshi) va "g'ariyb" (g'alati, yagona roviyli) tushunchalarini kiritdi va tizimlashtirdi. Bu metodologiya hadis matnshunosligini yanada moslashuvchan va aniq qildi.

✓ Fiqhiy (huquqiy) yo'naltirilganlik: Asarning "Sunan" deb atalishi undagi fiqh masalalariga oid ahkom hadislarning ko'pligidir. Alloma shunchaki hadis to'plamadi, balki har bir bobda turli fiqhiy maktablar (Hanafiy, Shofiiy, Molikiy va b.) qaysi hadisga tayanib hukm chiqarganini tahlil qilib berdi. Bu esa asarni ilk islom huquqi qiyosiy ensiklopediyasiga aylantirdi.

✓ Pedagogik va asxloqiy qimmat: "Al-Jomi'" tarkibidagi tahlillar (tahorat, namozdan tortib, odob-axloq, kasalliklar va taqdirgacha bo'lgan boblar) asarning nafaqat huquqiy, balki kuchli ijtimoiy-tarbiyaviy, qomusiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. IX asr Termiz ilmiy havzasi hanafiy fiqhi va hadis an'anasini o'zaro uyg'unlashtirgan Sharq Renessansining eng yirik intellektual markazlaridan biridir. Havzaning ikki buyuk

namoyandasi o'ziga xos ilmiy yo'nalishlari bilan islom sivilizatsiyasi poydevorini yaratdilar. Imom at-Termiziy hadis ilmini ilmiy va tanqidiy asosda isloh qildi. Ilk bor hadislarni "hasan" va "g'ariyb" kategoriyalariga ajratib, tasniflash tizimini mukammallashtirdi. Uning "Al-Jomi" asari turli mazhablar qarashlarini qiyoslagan ilk huquqiy-ensiklopedik manba bo'ldi. Al-Hakim at-Termiziy hadislarni shunchaki matn sifatida emas, balki ularning ichki falsafiy va botiniy ma'nolarini (ilm al-asror) tahlil qildi. Imom at-Termiziy o'z metodologiyasida dinning zohiriy qonun-qoidalarini qat'iy tizimlashtirgan bo'lsa, Al-Hakim at-Termiziy uning ichki mag'zi va ruhiy hikmatini ochib berdi. Ushbu ikki yondashuv bir-birini rad etmay, aksincha, Termiz ilmiy maktabining fundamental va universal quvvatini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojidagi roli (Buxoriy, Muslim, Termiziy): Tarix. PhD dis. ... mualliflik huquqi. - Toshkent: TIU, 2002. - 44 b.
2. Uvatov U. Ikki buyuk donishmand (Abu Iso at-Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy). - T.: Sharq, 2005. - 80 b.
3. Aminov M., Hasanov F. Buyuk Ajdodlarimiz T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010,—208 b.
4. Tursunov S, Murtazoev B. Termiziylarning ilmiy tafakkuri. Toshkent "O'zbekiston-2016, 180 bet.
5. Uvatov, U. Abu Iso at-Termiziy / U. Uvatov // Ziyouz.uz: elektron portal. – 2012. – 25 fevral. – URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/din/abu-iso-at-termiziy/> (murojaat qilingan sana: 15.06.2026).
6. Uvatov, U. Al-Hakim at-Termiziy. Ziyouz.uz portali, 2012. – URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/din/al-hakim-at-termiziy/> (murojaat qilingan sana: 15.06.2026).

UO`K: 930.85(575.1):338.48

TURIZM SOHASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING EVOLYUSIYASI:

O'ZBEKISTON TAJRIBASI

D.A.Ismoilova, doys., t.f.n., Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

N.B. Sunnatov, dots., PhD, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda mustaqillikdan hozirgi kungacha turizm sohasini huquqiy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan.

Tadqiqotda 1992-2025 yillar orasida qabul qilingan asosiy me'yoriy – huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilingan. Sohani tartibga solishning 5 bosqichi ajratilgan. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar yoritilgan. Qonunchlikning markazlashgan boshqaruvdan bozor mehanizmlariga, liberallashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish tomon evolyutsiyasi ko'rsatilgan. Kelajakda raqamli iqtisodiyot, ekoturizm va agroturizmga oid qonunchilikni takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Turizm, huquqiy tartibga solish, qonunchilik evolyutsiyasi, liberallashtirish, "O'zbekturizm", xalqaro standartlar turistik infratuzilma, viza rejimi, turizm turlari, investitsiyalar.

Аннотация. Данная статья посвящена формированию и развитию системы правового регулирования в сфере туризма в Узбекистане с момента обретения независимости до нашего времени. В исследовании проведен системный анализ основных нормативно-правовых актов, принятых в 1992-2025 годах. Выделены 5 этапов регулирования сферы. Охарактеризованы особенности каждого этапа, достигнутые результаты и существующие проблемы. В статье показано эволюция законодательство от централизованного управления к рыночному механизму, либерализации и гармонизации с международными стандартами. Обосновано необходимость дальнейшего совершенствования законодательство в области цифровой экономики, экотуризма и агротуризма.

Ключевые слова: Туризм, правовая регулирование, эволюция законодательство, либерализация, "Узбектуризм", международные стандарты, туристическая инфраструктура, визовый режим, виды туризма, инвестиции.

Abstract. This article analyzes the formation and development of the legal regulation system in the tourism sector of the Republic of Uzbekistan from the early years of independence to the present. The study systematically examines the main regulatory legal documents adopted during 1992-2025. The author identifies five stages of legal regulation in the sector, characterizing the features of each stage, achieved result, and exiting problems. The article demonstrates the evolution of tourism

legislation from a centralized management system to market mechanisms, liberalization, and harmonization with international standards. The necessity of further improving legislation in the field of digital economy, ecotourism, and agrotourism is substantiated.

Keywords: *tourism, legal regulation, legislative, evolution, liberalization, “Uzbektourism”, international standards, tourism infrastructure, visa regime, types of tourism, investments.*

Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda turizm sohasini bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish va yangi huquqiy baza yaratish zarurati paydo bo'ldi. 1992-yilda “O'zbekturizm” MK tashkil etilishi bilan sohani boshqarish tizimi markazlashtirildi.[1] 1993 yilda O'zbekistonning Butunjahon Turistik tashkilotiga (UNWTO) a'zo bo'lishi[2] milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga turtki berdi. Maqolada 1991-2025 yillarda turizm sog'asini huquqiy tartibga solishning bosqichlari, yutuqlari va muammolarini tizimli tahlil maqsad qilib olindi. Айтиш жоизки mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm sohasi masalalari turli mualliflar tomonidan o'rganilgan. Xususan iqtisodchi olimlar tomonidan turizmning iqtisodiy jihatlarini (To'xliiev N., Abdullaeva T.,[3] Naro'z-zoda B.N.[4]) kabi soha tadqiqotchilari ishlarida hamda tarixchi olimlar tomonidan turizmning tarixiy rivojlanish bosqichlari (U. Narzullaev,[5] N.Daminov[6], X. Murodov[7]), kabi bir qator tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlar asosan turizmning iqtisodiy samaradorligi, infratuzilma yoki tarixiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, sohani huquqiy tartibga solishning evolyusiyasi, uning bosqichlari va har bir bosqichdagi huquqiy mexanizmlar tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Ayniqsa, 2016-2025-yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, yangi qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning soha rivojiga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni, liberallashtirish va zamonaviy turizm turlarini huquqiy tartibga solish masalalari ham alohida tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Mavjud ilmiy ishlarda turizm qonunchiligining rivojlanish bosqichlariga oid yagona tizimlashtirilgan yondoshuv mavjud emas.

Huquqiy tartibga solishning evolyusiyasini shuningdek, xalqaro tadqiqotlar Butunjahon Turistik tashkiloti (UNWTO) (xisobotlari, jahon banki tahlillari) kabi manbalar orqali yoritishga harakat qilindi. Biroq, ushbu tadqiqotlarda sohani huquqiy tartibga solishning bosqichma-bosqich tahlili, 2016-yildan keyingi islohotlarning tizimli yoritilishi yetishmaydi. Shuning uchun mazkur tadqiqotda 1992-2025 yillardai barcha asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilinib, sohani huquqiy tartibga solishning 5 bosqichi ajratildi va har bir bosqich o'ziga xos xususiyatlari, yutuqlari va muammolari aniqlandi.

Turizm sohasini huquqiy tartibga solishning evolyusiyasi sifat jihatidan o'zgarishiga qarab 5 bosqichga bo'lindi.

Birinchi bosqich (1992-1998) – tashkiliy-huquqiy asoslarni shakllanirish. Bu davrda “O'zbekturizm” MK tashkil etildi, nizomi tasdiqlandi. 1995 yilda xalqaro turizm yarmarkasini tashkil etish va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha qarorlr qabul qilindi.[8]

Ikkinchi bosqich (1999-2016) – tizimli qonunchilikni shakllantirish. 1999 yilda “Turizm to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.[9] 2003 yilda turistik faoliyatni litsenziyalash tizimi joriy etildi.[10] 2007-2012 yillarda infratuzilmani rivojlantirish va sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Uchinchi bosqich (2016-2019) – liberallashtirish va islohotlar. 2016 - yilda turizm strategik sektor deb e'lon qilindi. 2017-yilda litsenziyalash bekor qilinib, xabardor qilish tartibi joriy etildi; viza rejimi liberallashtirildi. 2019-yilda yangi farmonlar bilan sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

To'rtinchi bosqich 2019-2024 – zamonaviylashtirish. 2019 yilda yangi “Turizm to'g'risida”gi qonun qabul qilinib, unda turizmning 8 turi qonun darajasida belgilandi. Davlat – xususiy sheriklik mexanizmlari kengaytirildi. 2020-2023 yillarda “Turizm qishloqlari” va “Turizm mahallari”ni tashkil etish bo'yicha mexanizmlar joriy etildi.

Beshinchi bosqich. (2024-2025) – strategik rivojlantirish. 2024-yilda turoperatorlarga 50 million AQSh dollarlik imtiyozli kredit liniyasi tashkil etildi. 2024-yil dekabrda turistik klasterlar to'g'risidagi qaror qabul qilindi. 2025-yildan 2030-yilgacha bo'lgan strategik maqsadlar (turizmning

YaIMdagi ulushini 7 foizga, xorijiy turstilar oqimini 20 millionga, eksportni 6 milliard dollarga yetkazish) belgilandi.[11] Shu yili O'zbekistonda YuNVTOning "Turistlarni himoya qilish xalqaro kodeksi"ga qo'shildi.[12]

Turizm qonunchiligining evolyusiyasi O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning umumiy mantig'ini aks ettiradi: Markazlashgan boshqaruvdan bozor mexanizmlariga, liberallashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish sari. Litsenziyalashning bekor qilinishi sohadagi eng muhim byurokratik to'siqni olib tashladi, natijada turistik tashkilotlar soni keskin oshdi va raqobat muhiti shakllandi.

2018-2024 yillarda ellikdan ortiq hujjat qabul qilinishi islohotlarning tizimlilikini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turistik xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha samarali emas, mahalliy turistik mahsulotning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish zarur. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Xulosa qilib aytganda mustaqillik yillarida turizm qonunchiligi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. 2016-2019 yillarda olib borilgan islohotlar sohani liberallashtirdi, 2019-2024 yillarda esa xalqaro standartlarga moslashtirildi va strategik tarmoqqa aylantirildi. Natijada viza rejimi liberallashtirildi, litsenziyalash bekor qilindi, turizmning yangi turlari va klasterlar mexanizmi joriy etildi. 2025-yili may oyida 1 million xorijiy turist tashrif buyurishi ham sohadagi islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Fikrimizcha kelajakda raqamli iqtisodiyot, ekoturizm va agroturizmga oid qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi PF-447-sonli «"O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining Butunjahon turistik tashkilotiga (UNWTO) 1993 yilda a'zo bo'lishi to'g'risidagi ma'lumot.
3. To'xliiev N., Abdullaev T. Menejment va turizm biznesini tashkil etish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 367 b.,
4. Navruz-Zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi: monografiya. – Buxoro: "Sadriddin Salim" nashriyoti, 2022.
5. Narzullaev U.O. O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining zamonaviy tarixi va barqaror rivojlanish omillari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 28 b.
6. Daminov N. A. Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarning rivojlanish tarixi va istiqbollari (1991-1916 yy). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 1916, - B. 190.
7. Murodov X.S. Buxoroda turizmning rivojlanishi tarixi (1991–2021 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 2 martdagi 78-son «Ipak yo'li turizmi xalqaro turistik yarmarkani tayyorlash va o'tkazish to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – 1995. – 8-son. – 45-modda;
9. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 830-I-son «Turizm to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 9-son, 227-modda
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-noyabrdagi 497-son «Turistik faoliyatni litsenziyalash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 11-son, 113-modda
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 noyabrdagi PQ-348-son "Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. . <https://president.uz/ru/lists/view/8692>.
12. O'zbekiston Turizm qo'mitasining 2025 yil 28-fevraldagi xabariga ko'ra, mamlakatimiz 2025-yil 24-fevralda BMT Jahon Turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan ishlab chiqilgan Turistlarni himoya qilish xalqaro kodeksiga (ICPT) rasman qo'shildi.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA DAVRIY MATBUOTDA TOSHKENT SHAHAR TIBBIY INFRATUZILMASINING YORITILISHI

O.O.Jabborova, magistrant, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent
<https://orcid.org/0009-0004-7357-2613>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahri tibbiy infratuzilmasining holati, aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar darajasi va sanitar-gigiyenik muammolarning davriy matbuot sahifalarida yoritilishi tahlil qilinadi. Davriy matbuot materiallari asosida profilaktika chora-tadbirlari, epidemiologik vaziyat, ayollar va bolalar ambulatoriyalari faoliyati hamda xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotga nisbatan aholi munosabati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Toshkent, tibbiy infratuzilma, matbuot, sanitar-gigiyena, ambulatoriya, shifoxona, bemor, mahalliy

Аннотация. В данной статье анализируются состояние медицинской инфраструктуры города Ташкента в конце XIX – начале XX века, уровень медицинского обслуживания населения и освещение санитарно-гигиенических проблем на страницах периодической печати. На основе материалов периодической печати освещаются профилактические меры, эпидемиологическая ситуация, деятельность женских и детских амбулаторий, а также отношение населения к народной медицине и современной медицине.

Ключевые слова: Туркестан, Ташкент, медицинская инфраструктура, пресса, санитария и гигиена, амбулатория, больница, пациент, местный

Abstract. This article analyzes the state of the medical infrastructure of Tashkent city in the late 19th and early 20th centuries, the quality of medical services provided to the population, and the coverage of sanitary and hygienic issues in the periodic press. Based on materials from the period press, preventive measures, the epidemiological situation, the activities of outpatient clinics for women and children, as well as the public attitude toward traditional medicine and modern medicine are highlighted.

Keywords: Turkestan, Tashkent, medical infrastructure, press, sanitation and hygiene, outpatient clinic, hospital, patient, local.

Kirish. Turkiston jadidchilik harakati XX asr boshlarida shakllangan ijtimoiy-intellektual uyg'onish jarayonining markazida turib, o'lkaning ta'lim, madaniyat, siyosat va ilm-fan sohalarida modernizatsion burilish yasadi. Xususan, Turkistonda tibbiy infratuzilmaning holati qoniqarsiz ekanligi, kasalxona va malakali shifokorlar yetishmasligi jadid matbuoti diqqat markazida edi. Mazkur masalalar "Sadoi Turkiston", "Shuhrat", "Turkiston viloyati gazet" kabi davriy nashrlar sahifalarida ilk bor tizimli ba'zan tanqidiy yondashuvda yoritildi. Bu maqolalarda sanitar-gigiyenik madaniyatni shakllantirish, bolalar va ayollar salomatligi hamda shifoxonalarga murojaatlarga doir masalalar keng muhokama qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, qiyosiy-tahliliy hamda statistik tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot manbalar bazasi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkentda chop etilgan "Turkiston viloyati gazet", "Taraqqi", "Sadoi Turkiston" kabi vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan rasmiy xabarlar, shifoxonalarning oylik va yillik hisobotlari hamda shifokor va ma'rifatparvarlarning publitsistik maqolalaridan birlamchi manba sifatida foydalanildi. Matbuotda e'lon qilingan bemorlar soni, kasallik turlari va moliyaviy ajratmalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar xronologik tartibda qiyoslanib, infratuzilmaning rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Mavzuni yoritishda davriy matbuot materiallarini tadqiq etgan olimlarning, jumladan S. Shadmanovanning ilmiy xulosalariga tayanildi.

Muhokama. Dastavval matbuot sahifalarida o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus aholisi yashaydigan hududlarda tashkil etilgan shifoxonalar, tarqalyotgan kasalliklar xususida ma'lumotlar batafsil berib borilgan bo'lsa, keyinchalik matbuot sahifalarida mahalliy shifoxonalar va ularga aholining murojaatlari ham yoritilgan. Bir maqolada Toshkentda ayollar umumiy shahar shifoxonasiga ham borib tibbiy xizmatdan foydalanishyotgani bayon qilinib, bunday bemorlar kuniga

30-40 tani tashkil etgani aytiladi. Shu bilan birgalikda, Toshkentdagi shifoxonalarda statsionar davolanish ham boshlanadi. Fikrimizga dalil sifatida, Toshkentdagi 3-sonli shifoxonaga 1901-yilda 223 ta bemor kelib statsionar davolanigan bo'lsa, ulardan 100 tasi ruslar, 85tasi esa mahalliy Toshkentlik ayollar va bolalar bo'lgan [1]. Bu ko'rsatkich esa mahalliy aholi orasida tibbiy madaniyat shakllanib boshlanganini ko'rsatadi.

Toshkentda 1900-yillar boshida ko'zni bepul davolaydigan shifoxona ochilishi to'g'risida matbuotda materiallar uchraydi. "Nobino odamlarning ahvoloti qanday va na tariqa afsuslik va qiyinlikda bo'lg'oni har qayu xalqlarga ma'lum ravshandur. ... Bulturig'a afsuslik ahvolotga qarab ul olampanoh marhum Mariya Aleksandrovna mazkur bechoralarga rahm va shafqati oliy qilib, mundan o'n yil muqaddam ko'z og'rig'iga muftalo bo'lg'on bechoralar uchun Toshkand shahrida olishda shafqatlik jamoat har xil shaharlarda shifoxonalarni barpo qildurmoqqa rahmati oliy aylabdurlar"[2]. Maqola davomida mazkur shifoxona qurilishi uchun Turkiston general gubernatori, leytenant Nikolay Aleksandrovich 500 so'm hadya qilgani hamda gubernatorning turmush o'rtog'i Lidiya Ivanovna boshqa yuqori mansabdagi odamlardan hadya pullarni yig'ib berishni zimmasiga oladi. Biroq mazkur shifoxonaning qurilgani va faoliyat olib borilganligi haqida boshqa materiallar gazetada keng yoritilmagan.

Toshkentda tug'ilgan va keyinchalik Sankt-Peterburgda o'qigan Gulsum Asfandiyor Toshkent shahrida 29 yil davomida ayollarga tibbiy xizmat ko'rsatgan va bosh shifokor o'rinbosari lavozimida faoliyat olib borgan [3].

Davriy matbuotda shifoxonaga kelgan bemorlar haqida hisobotlar oy va yillar kesimida e'lon qilib turilgan. Ulardan biri Toshkentda musulmonlar turadigan dahadagi shifoxonaga 1896-yil sentyabr oyi ichida kelgan bemorlar adadi 1039 nafar bo'lib, ayollar 669, erkaklar 229 nafar va bolalar 396 tani tashkil etgan. Oy davomida tibbiy xizmat uchun kelgan bemorlar 2662 marotabaa kelishgan. Ularning ichida isitma shikoyati bilan kelganlar 599 nafar, qorin og'rigi bilan 97 nafar, tomoq va o'pka kasallari bilan 28 nafarni tashkil etgan. Yana bir Toshkentdagi shunday shifoxonaga 466 nafar ayol, 712 nafar bolalar, 1674 marotabaa umumiy tashriflar bo'lgani ma'lum qilinadi [4].

Mazkur shifoxonaga 1897-yilda fevral oyida esa 461 nafar erkak, 132 nafar ayol va 366 nafar bolalar tashrif buyurgan. Shu bilan birgalikda shifoxonaga kelgan insonlardan 156 nafari isitma bilan, 236 nafari tomoq va o'pka kasali bilan, 100 nafari qorin va oshqozon-ichak kasalliklari bilan, 74 nafar bemor esa yaralar tufayli, 46 tasi esa bod kasali bilan og'rib, Toshkentdagi musulmonlar turadigan dahadagi shifoxonaga murojaat qilgan. Fevral oyi ichida umumiy kelib ketgan tashriflar soni 1796 marotabaa bo'lgan [5]. 1896 oydagi tashriflar soniga e'tibor beradigan bo'lsak, yildan-yilga tibbiy xizmatga murojaat qiladigan aholi soni ortib borganini anglatadi.

Toshkent shahridagi musulmon xotin-qizlar va bolalarga xizmat ko'rsatadigan tabibxonaning hisobotiga ko'ra, mazkur tabibxona 1885-yilda 10 oy davomida bemorlarga qaragan, sunbula va mezon oylarida ta'mirlash ishlari olib borilganligi bois ikki oy davomida xizmat ko'rsatishga imkon bo'lmagan. 1885-yilda 1366 ta bolalar tibbiy xizmat uchun kelgan bo'lsa, 1883- va 1884 yillarda 1679 nafar bola bu tabibxonaga kelgan. Avvalgi yillarga qiyos qilib qaraganda bu tabibxonaga 1885-yilda ko'proq bolalar kelganligi va aholi orasida tibbiy madaniyat yaxshilanganligi ma'lum bo'ladi. Hisobotda 1366 nafar boladan 1329 nafari sart, yigirma bir nafari qozoq, o'n uch nafari juhud, uch nafari no'g'oy millatiga mansub bolalar ekanligi ma'lum qilinadi. Bu bolalardan 896 tasi qiz bolalar bo'lsa, 470 tasi o'g'il bolalar bo'lgan. Ulardan chechak kasalligiga qarshi emlangan 229 nafar boladan 96 tasi o'g'il bola 133 tasi qiz bolalar bo'lgan. 1366 nafar boladan rasman chechak kasalligi aniqlangani 758 ta bo'lib, ulardan 186 tasi o'g'il bolalar, 572 tasi qiz bolalar bo'lgan. Bu hisobotga ko'ra, o'tgan yillarga qaraganda 1885-yili chechak kasalligiga qarshi emlangan bolalar soni ko'paygani ma'lum bo'ladi. Xabar so'ngida " ... mundin ma'lum bo'ladirki, musulmon xalqi ham chechakka emlatmoqning foydasig'a ko'zlari yetibdur"[6] deb yozilganiga qaraganda emlanish masalalasi ham Toshkent shahridagi mavjud ixtilofli masalalardan biri bo'lgan ekan, degan faraz keladi.

"O'tgan 1909-yili ichinda Toshkand shahrini kasalxonalarig'a 1890 adad kasallar kelibdur. Ushul yil ichinda kasalxonalarni xarajatig'a va ul kasalxonada xizmat qiladurg'on odamlarni xarajatig'a 49 ming so'm sarf bo'lubdur. Har xil mazkur kasalxonalarda kasallarning boqurg'on

odamlarni gardanlarida 127500 so'm qarz aqcha qolub keyingi o'n yil miyonasida jami kasalxonani boqimanda aqchasi 60 ming so'mg'a yetibdur", deb bayon qilinadi [7]. Mazkur ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'tganasrda tibbiy xizmatning arzon narxlarda ko'rsatilishi aholining murojaatini oshirgan bo'lishi va tibbiyot muassasalarining moliyaviy holatini biroz og'irlashtirgan bo'lishi mumkin. Bunday hisobotlarning matbuotda berib borilishi ijtimoiy muhim ahamiyat kasb etgan. Bu aholi orasida vahima o'rniga ehtiyot choralarini ko'rib borishga undagan.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahri tibbiy infratuzilmasidagi o'zgarishlar murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan hamda quyidagi uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lgan.

Birinchidan, statistik ma'lumotlar tibbiy xizmatdan foydalanuvchilar sonining yildan-yilga barqaror o'sib borganini tasdiqlaydi. Xususan, 1896-yil sentyabr oyida Toshkentning musulmonlar dahasidagi shifoxonaga 1039 bemor murojaat qilgan bo'lsa, 1897-yil fevral oyida shifoxonaga umumiy tashriflar soni 1796 marotabani tashkil etib, o'sish tendensiyasini namoyon qildi. Bu dinamika mahalliy aholi orasida tibbiy madaniyatning bosqichma-bosqich shakllanib borganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, gender omili va milliy an'analar tibbiy xizmatdan foydalanishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Mahalliy ayollarning erkak shifokorlarga ko'rinishni istamasligi sababli dastlab umumiy shifoxonalarga borish darajasi past bo'lgan, biroq vaqt o'tishi bilan bu holat asta-sekin o'zgargan.

Uchinchidan, davriy matbuotda shifoxonalar moliyaviy holatining yoritilishi orqali arzon va bepul tibbiy xizmatning taqdim etilgani aholining murojaatini oshirganini, biroq tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligini og'irlashtirgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, davriy matbuot XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahri tibbiy infratuzilmasining shakllanish jarayonini o'zida aks ettirgan ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Dastlab faqat Yevropa aholisi ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilgan tibbiy muassasalar vaqt o'tishi bilan mahalliy aholining, xususan xotin-qizlar va bolalarning talablariga moslashtirilgan bo'lib, bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahri tibbiy infratuzilmasidagi o'zgarishlar nafaqat tibbiyot sohasidagi, balki umuman Turkistondagi modernizatsion jarayonlarning ajralmas qismi bo'lgan. Davriy matbuot orqali shakllangan ijtimoiy fikr aholi o'rtasida zamonaviy ilmiy tibbiyotga bo'lgan ishonchning asta-sekin ortishiga zamin yaratdi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur mavzuni Turkistonning boshqa shaharlari (Samarqand, Farg'ona, Qo'qon) tibbiy infratuzilmasi bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek arxiv hujjatlari asosida davriy matbuot ma'lumotlarini chuqurroq tekshirish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер, 1909, №172, 173.
2. Toshkentda ko'zni bepul davolaydigan shifoxona // Turkiston viloyati gazet, 1902, 38-son.
3. "Gulsum Asfandiyor o'lumi" // Yash Turkistan, 1938, 99-son.
4. Toshkent shahrining musulmonlar turadigan dahasidagi shifoxona // Turkiston viloyati gazet, 1896, 40-son.
5. Toshkent eski shahrida bo'lgan shifoxonaga fevral oyida kelgan kishilar // Turkiston viloyati gazet. 1897, 12-son.
6. Toshkent shahridagi musulmon xotinlari va bolalarni ko'radigan shifoxonaning hisobotnomasi // Turkiston viloyati gazet, 1886, 17-son.
7. Shahar shifoxonasi // Turkiston viloyati gazet, 1910, 4-son.

UO'K 94(575.171):339"13/14"

XORAZM SHAHARLARINING XIV–XV ASRLARDAGI SAVDO FAOLIYATI

TARIXSHUNOSLIGI: XIX–XX ASR TADQIQOTLARI TAHLILI

D.X.Jumaniyozov, mustaqil izlanuvchi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch

ORCID:0009-0009-8056-5047

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm vohasining XIV–XV asrlardagi tarixiy taraqqiyoti, xususan, shaharlar va savdo markazlarining shakllanishi hamda rivojlanishini o'rganishda XIX asr

va XX asr boshlarida rus va Yevropa tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning o'zni tahlil etiladi. Tadqiqotda G. Lansdell, G. Le Streij, de Gue, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, M.V. Voevodskiy, Ya.G'. G'ulomov, S.P. Tolstov va boshqa olimlarning ilmiy merosi hamda arxeologik izlanishlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, 1937-yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining voha shaharlarining tarixiy topografiyasi, savdo infratuzilmasi, hunarmandchilik markazlari, karvonsaroylar va sug'orish inshootlarini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari Xorazmning o'rta asrlardagi shaharlar tarmog'i va savdo markazlarini kompleks o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, XIV–XV asrlar, xalqaro savdo, savdo markazlari, shaharlar, Ko'hna Urganch, Mizdahqon, Zamaxshar, Hazorasp, Shemaxaqal'a, arxeologiya, tarixiy topografiya, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, S.P. Tolstov.

Аннотация. В статье рассматривается роль исследований русских и европейских ученых XIX — начала XX века в изучении исторического развития Хорезмского оазиса, в особенности его городов и торгово-экономических центров XIV–XV веков. На основе сравнительного анализа научного наследия Г. Ланселла, Г. Ле Стрейжа, де Гэ, В.В. Бартольда, А.Ю. Якубовского, М.В. Воеводского, Я.Г. Гулямова, С.П. Толстова и других исследователей раскрывается процесс формирования научных представлений об исторической географии, городской структуре и торговых связях Хорезма. Особое внимание уделяется деятельности Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, созданной в 1937 году по инициативе С.П. Толстова. Анализ археологических исследований Ургенча, Миздахкана, Замахшара, Шемахакалы, Хазараспа и других средневековых центров позволяет выявить особенности городской инфраструктуры, ремесленного производства, рынков, торговых рядов и караван-сараяв. Сделан вывод о том, что комплексные археологические исследования создали важную источниковую основу для изучения места Хорезма в региональных и международных торгово-экономических связях.

Ключевые слова: Хорезм, XIV–XV века, международная торговля, торговые центры, города, Ургенч, Миздахкан, Замахшар, Хазарасп, Шемахакала, археология, историческая топография, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, С.П. Толстов.

Abstract. This article examines the role of Russian and European scholarly research conducted in the nineteenth and early twentieth centuries in the study of the historical development of the Khorezm oasis, with particular emphasis on its cities and trade-economic centers in the fourteenth and fifteenth centuries. Based on a comparative analysis of the scholarly works of G. Lansdell, G. Le Streij, de Gue, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovsky, M.V. Voevodsky, Ya.G. Gulyamov, S.P. Tolstov and other researchers, the study analyzes the formation of academic knowledge concerning Khorezm's historical geography, urban structure and commercial relations. Particular attention is paid to the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition, established in 1937 on the initiative of S.P. Tolstov. Archaeological investigations of Urgench, Mizdahkhan, Zamakhshar, Shemakhakalah, Khazarasp and other medieval centers reveal important features of urban infrastructure, craft production, markets, trading quarters and caravanserais. The study concludes that systematic archaeological research provided an important source base for reconstructing the urban and commercial network of medieval Khorezm and assessing its role in regional and international trade relations.

Key words: Khorezm, fourteenth–fifteenth centuries, international trade, trade centers, cities, Urgench, Mizdahkhan, Zamakhshar, Khazarasp, Shemakhakalah, archaeology, historical topography, Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition, S.P. Tolstov.

Kirish. Xorazmning o'rta asrlar tarixini, xususan, uning shahar madaniyati va savdo-iqtisodiy aloqalarini tadqiq etish O'rta Osiyo tarixshunosligining muhim yo'nalishlaridan biridir. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm vohasi geografik jihatdan Sharq va G'arbni, dasht va o'troq dehqonchilik hududlarini o'zaro bog'lovchi makon sifatida shakllangan. Shu sababli voha hududidagi shaharlar nafaqat siyosiy-ma'muriy yoki hunarmandchilik markazlari, balki turli

yo'nalishlardagi savdo aloqalarini birlashtirgan iqtisodiy tugunlar sifatida ham rivojlangan. Mazkur jarayonni tarixiy jihatdan anglash uchun yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik materiallarning ilmiy ahamiyati ham nihoyatda katta.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm shaharlarining XIV–XV asrlardagi savdo faoliyati tarixshunosligini o'rganishda XIX–XX asrlarda yaratilgan tarixiy-geografik, sharqshunoslik va arxeologik tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Dastlabki tadqiqotlarda Xorazmning geografik o'rni, Amudaryoning quyi oqimi, shaharlararo va mintaqalararo aloqa yo'llari hamda savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar jamlangan. A.V. Butakovning Amudaryo deltasi va uning quyilish qismiga bag'ishlangan tadqiqoti hududning tabiiy-geografik sharoiti hamda suv yo'llarining iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini aniqlash uchun muhimdir [1]. G. Baziner, G.I. Danilevskiy va V.V. Grigoryev asarlarida Xiva xonligi hududi, uning geografik joylashuvi va tashqi aloqalariga oid ma'lumotlar berilgan [2; 3; 4]. N.I. Veselovskiyning Xiva xonligi tarixiy-geografik ma'lumotlariga bag'ishlangan tadqiqoti esa Xorazm hududidagi qadimgi va o'rta asr shaharlarining joylashuvi hamda tarixiy rivojlanishini umumlashtirish nuqtayi nazaridan muhimdir [5].

Xorazmning o'rta asrlardagi iqtisodiy va savdo aloqalarini o'rganishda V.V. Bartold tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Uning Turkiston va Amudaryoning quyi oqimi tarixiga oid ishlari Xorazmning siyosiy-geografik holati, Amudaryo havzasidagi tarixiy jarayonlar hamda mintaqalararo aloqalarni tushunish imkonini beradi [6; 7]. V.G. Tizengauzen tomonidan arab va fors manbalaridan keltirilgan ma'lumotlarning to'planishi va nashr etilishi esa Xorazmning Sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarini tarixiy manbalar asosida tadqiq etish uchun muhim manbashunoslik bazasini yaratdi [8; 9]. A.L. Kunning Amudaryo quyi oqimi vohasining madaniyatiga oid tadqiqoti ham hududdagi shaharlar va xo'jalik hayotining tarixiy xususiyatlarini aniqlashda muhimdir [10].

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xorazmning savdo-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar yanada boyidi. P.I. Nebolsinning Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdosiga bag'ishlangan tadqiqotida mintaqadagi savdo yo'llari va iqtisodiy munosabatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar Xorazmning umumiy savdo tizimidagi o'rnini baholash uchun ahamiyatlidir [17]. A.V. Kaulbarsning Amudaryoning quyi oqimiga oid tadqiqotlari esa daryo tarmog'i va hududning geografik xususiyatlarini o'rganish orqali savdo yo'llarining tabiiy-geografik asoslarini aniqlashga imkon beradi [18]. N.A. Samoylovichning Xiva, Buxoro va Toshkentga qilgan safari haqidagi hisoboti XX asr boshlaridagi hududning iqtisodiy va etnografik holatini kuzatish imkonini beradi [11].

XX asrning 1930-yillaridan boshlab Xorazm shaharlarining tarixini o'rganishda arxeologik yo'nalish ustuvor ahamiyat kasb etdi. A.Yu. Yakubovskiyning Mizdaxqon va Urganch xarobalariga bag'ishlangan tadqiqotlari Xorazmning o'rta asr shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganishning muhim bosqichini tashkil etadi [21]. M. Voyevodskiy hamda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida qadimgi va o'rta asr shaharlarining moddiy madaniyati, xo'jaligi va shaharsozlik xususiyatlariga oid keng ko'lamli ma'lumotlar to'plandi [22; 24]. N.N. Vakturskayaning Urganch, Shomahakal'a va Xorazmning boshqa o'rta asr shaharlariga bag'ishlangan tadqiqotlari esa XIV–XV asrlar shahar hayotini, jumladan, hunarmandchilik va iqtisodiy faoliyatning moddiy izlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega [25; 26; 27]. O.A. Vishnevskaya, M.G. Vorobyova, M.S. Laprov-Skoblo va E.E. Neraziklarning arxeologik tadqiqotlari ham Xorazm shaharlarining o'rta asrlardagi rivojlanishi va xo'jalik faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi [28; 29].

Umuman olganda, mavjud tarixshunoslik Xorazm shaharlarining XIV–XV asrlardagi savdo faoliyatini o'rganish uchun muhim tarixiy-geografik, yozma va arxeologik asos yaratgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda savdo faoliyati ko'pincha shaharlar tarixi, Amudaryo geografiyasi, hunarmandchilik yoki umumiy iqtisodiy munosabatlar doirasida yoritilgan. Shu jihatdan, XIV–XV asrlarda Urganch, Xiva, Xazarasp, Mizdaxqon va boshqa Xorazm shaharlarining savdo aloqalari, savdo yo'llari, bozor munosabatlari va mintaqalararo iqtisodiy tizimdagi o'rnini XIX–XX asr tadqiqotlari asosida kompleks tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Metod. Mazkur tadqiqot Xorazmning XIV–XV asrlardagi shahar va savdo markazlarini o'rganishga oid tarixshunoslik hamda arxeologik materiallarni kompleks tahlil qilish tamoyiliga asoslanadi. Tadqiqot metodologiyasining asosini **tarixiylik, xolislik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik** tamoyillari tashkil etadi.

Muhokama. Xorazmning XIV–XV asrlardagi tarixiy taraqqiyoti, xususan, uning savdo-iqtisodiy aloqalarini tadqiq etishda XIX asr va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan rus hamda boshqa yevropalik olimlarning ilmiy izlanishlari alohida bosqichni tashkil etadi. Mazkur davr tadqiqotlari natijasida Xorazmning savdo munosabatlari, iqtisodiy hayoti va mintaqalararo aloqalariga doir ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan ko'plab yangi ma'lumotlar aniqlanib, mavjud tarixiy tasavvurlar sezilarli darajada kengaytirildi.

Xorazm vohasi hamda unga tutash hududlarning tarixiy-geografik, etnografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishda XIX asr va XX asr boshlarida faoliyat olib borgan bir qator rus va yevropalik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A.V. Butakov, G. Baziner, G.I. Danilevskiy, V.V. Grigorev, N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, V.G. Tizengauzen, A.L. Kun, A.N. Samoylovich, M.I. Ivanin, V. Velyaminov-Zernov, M.N. Galkin, N.V. Xanikov, A.I. Levshin, P.I. Nebolsin, N.S. Nikitin va A.V. Kaulbars kabi olim hamda o'lkashunoslarning tadqiqotlari Xorazm tarixini ilmiy asosda yoritishga sezilarli hissa qo'shgan. Ularning asarlarida vohaning tarixiy geografiyasi, siyosiy va ijtimoiy hayoti, xo'jalik faoliyati, aholi turmushi hamda mintaqalararo aloqalariga oid qimmatli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, mazkur tadqiqotlar keyingi davr Xorazmshunosligi uchun muhim ilmiy zamin yaratgan [1; 2; 23; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17; 18].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, O'rta Osiyoni ilmiy jihatdan o'rganishga nafaqat rus tadqiqotchilari, balki Yevropa olimlari tomonidan ham qiziqish sezilarli darajada ortdi. Mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tadqiq etgan xorijiy mualliflar Xorazm vohasining tarixiy mavqei hamda uning hududiy va savdo-iqtisodiy aloqalariga oid masalalarni ham tadqiqot doirasiga kiritdilar. Xususan, ingliz sayyohi va tadqiqotchisi G. Lansdell Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Turkiston hududlariga bag'ishlangan asarida Xorazmning tarixiy obidalarini va yodgorliklari haqida muayyan ma'lumotlarni qayd etib, vohaning tarixiy-madaniy merosini o'rganish uchun muhim bo'lgan kuzatuvlarni qoldirgan [19, 314-341].

Sharqiy musulmon mamlakatlarining tarixiy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar muallifi G. Le Streij o'z asarida Xorazmning bir qator shaharlari haqida ham ma'lumotlar keltiradi. Muallif tomonidan tuzilgan va asarga ilova qilingan xaritada Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hazorasp va Xiva kabi shaharlar, shuningdek, Xorazm vohasiga olib boruvchi yo'nalishlar bo'ylab joylashgan karvonsaroylar hamda turli manzilgohlar qayd etilgan. Mazkur xarita vohaning tarixiy-geografik o'rmini, shaharlararo aloqa yo'llarini va savdo harakatining hududiy yo'nalishlarini aniqlashda muhim manbaviy ahamiyatga ega. Shuningdek, 1875-yilda Leyden shahrida Amudaryoga bag'ishlangan tadqiqotini nashr ettirgan golland sharqshunosi de Gue ham Xorazm hududidagi savdo markazlari va ularning iqtisodiy faoliyatiga doir ayrim ma'lumotlarni qayd etgan. Ushbu ma'lumotlar XIX asrda Yevropa sharqshunosligida Xorazmning savdo-iqtisodiy hayotiga bo'lgan ilmiy qiziqishning kuchayganini ko'rsatadi.

Mazkur masalaga oid tadqiqotlarda Xorazm hududida X–XV asrlarda faoliyat ko'rsatgan savdo markazlari nomlarini aniqlash va ularning toponimik shakllarini to'g'ri talqin etish bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligi ham qayd etilgan. Xususan, V.V. Bartold va M. Tomashek ayrim shahar va savdo maskanlari nomlarini manbalardagi turli yozilish shakllari asosida aniqlashda muayyan noaniqliklarga duch kelganlar. V.V. Bartoldning qaydlariga ko'ra, Nuzvar toponimini Xadravar, Nufuzravar nomini Buran, Varan nomini Ravan tarzida o'qish ehtimoli mavjud bo'lgan. Shuningdek, Buruzdum shahri nomining Savoron, Birzum yoki Burzuv shakllarida talqin qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan. Mazkur holat o'rta asr Xorazm shaharlari va savdo markazlari toponimiyasini tadqiq etishda manbalarning lingvistik xususiyatlari hamda turli davrlardagi yozuv shakllarini qiyosiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [20, 57-70].

XIX asr va XX asr boshlarida Rossiya hamda Yevropa tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar Xorazmning yirik shaharlarining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda yangi

ilmiy bosqichni boshlab berganini ta'kidlash lozim. Mazkur tadqiqotlar orqali vohaning shaharlar tizimi, ularning iqtisodiy faoliyati va tashqi aloqalariga oid muayyan ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan. Biroq ushbu izlanishlarni Xorazm shaharlarining xalqaro savdo tizimidagi real mavqei va mintaqalararo iqtisodiy jarayonlardagi rolini to'liq hamda xolis yoritgan tadqiqotlar sifatida emas, balki mazkur yo'nalishdagi dastlabki ilmiy qadamlar sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

1928–1929-yillarda A.Yu. Yakubovskiy rahbarligida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya Xorazm hududidagi Ko'hna Urganch hamda Xo'jayli shahri yaqinida joylashgan Mizdahqonqal'a yodgorligida arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Ekspeditsiya doirasida mazkur tarixiy shaharlarning barcha jihatlarini to'liq va kompleks tarzda tadqiq etish imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, amalga oshirilgan izlanishlar muhim ilmiy natijalarni berdi. Xususan, ilk bor Urganch va Mizdahqonning tarixiy topografiyasi arxeologik materiallar asosida ilmiy jihatdan o'rganilib, ularning hududiy tuzilishi va tarixiy taraqqiyotini aniqlashga zamin yaratildi[21].

1934-yilda M.V. Voevodskiy rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya Xorazmning o'rta asrlardagi muhim savdo-iqtisodiy markazlaridan biri sanalgan Zamaxshar shahri xarobalarida tadqiqot olib bordi. Mazkur arxeologik izlanishlar shaharning tarixiy taraqqiyoti, moddiy madaniyati hamda o'rta asrlar davridagi iqtisodiy hayotini o'rganish uchun muhim ilmiy dalillarni yuzaga keltirdi[22].

1936–1937-yillarda Ya.G'. G'ulomov rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi Xorazm hududidagi Guldursunqal'a va Norinjonqal'a yodgorliklarida arxeologik izlanishlar olib bordi. Mazkur tadqiqotlar ushbu qadimiy manzilgohlarning tarixiy taraqqiyoti, me'moriy tuzilishi va moddiy madaniyatiga oid muhim ma'lumotlarni aniqlash bilan birga, Xorazmning tarixiy shaharsozlik jarayonlari hamda iqtisodiy hayotini o'rganish uchun zarur ilmiy asoslarni shakllantirdi[23].

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida jamlangan dalillar mazkur qal'a va manzilgohlarning Xorazm tarixida qadimiy va uzluksiz an'analarga ega ekanini, shuningdek, vohaning o'zbek davlatchiligi shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim o'rnini ochib berishga xizmat qildi. Ushbu natijalar Xorazmning tarixiy-madaniy merosini yanada chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltirib, yangi arxeologik izlanishlarning kengayishiga turtki berdi. Xorazmning qadimgi davr tarixi, shuningdek, o'rta asrlarda faoliyat yuritgan shaharlar va savdo markazlarining iqtisodiy hayotini tizimli ravishda tadqiq etish jarayoni esa 1937-yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

1937-yilda mashhur arxeolog va etnograf S.P. Tolstov tashabbusi bilan tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi qariyb qirq yil davomida vohaning tarixiy-madaniy merosini tizimli va kompleks tarzda tadqiq etdi. Ekspeditsiya faoliyati davomida qum barxanlari ostida qolgan qadimiy va o'rta asr yodgorliklari, qal'a va shahar xarobalari, karvonsaroylar hamda sug'orish tizimlariga oid inshootlar keng miqyosda o'rganildi. Shu bilan birga, Orolbo'yi hududida istiqomat qilgan aholining etnik tarkibi va etnik shakllanish jarayonlari ham arxeologik, etnografik hamda tarixiy manbalar asosida tadqiq qilindi. Mazkur ekspeditsiyaning uzoq yillik izlanishlari Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini, xususan, vohaning shaharsozlik va savdo tizimini ilmiy jihatdan qayta tiklash uchun muhim manbaviy bazani shakllantirdi[24].

Xorazmning yirik savdo markazlari tarixini yoritishda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar bosqichlarini alohida ko'rib chiqish muhimdir. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tadqiqotchilari Ko'hna Urganchda avvalgi davrlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lgan holda, 1952-yildan boshlab shaharning tarixiy topografiyasi va moddiy madaniyatini kompleks tadqiq etishga kirishdilar. Tadqiqotlar jarayonida Ko'hna Urganch o'rta asrlardayoq rivojlangan savdo infratuzilmasiga ega bo'lgan yirik shahar markazi ekani aniqlandi. Xususan, shaharda katta bozor majmualari, savdo rastalari va karvonsaroylarning mavjud bo'lgani to'g'risida arxeologik dalillar qo'lga kiritildi. Mazkur topilmalar Urganchning nafaqat mahalliy, balki mintaqalararo savdo munosabatlarida muhim o'rin egallaganini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi[25].

1957-yilda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan vohaning yirik savdo markazlaridan biri hisoblangan Shemaxaqal'a hududida muntazam arxeologik tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tadqiqotlarga bevosita rahbarlik qilgan N.N. Vakturskayaning kuzatuv va xulosalariga

ko'ra, mazkur shahar o'rta asrlarda hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlangan markazlardan biri bo'lgan. Shaharda ko'plab hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat yuritgan bo'lib, ularda tayyorlangan turli mahsulotlar nafaqat mahalliy ehtiyojlarni ta'minlash, balki savdo munosabatlarida ham muhim o'rin egallagan. Bu ma'lumotlar Shemaxaqal'aning shahar iqtisodiyoti va savdo tizimida hunarmandchilik ishlab chiqarishi muhim omillardan biri bo'lganini ko'rsatadi[26, 246-295].

1958–1961-yillar oralig'ida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan vohaning savdo-iqtisodiy hayotida muhim mavqega ega bo'lgan qator shahar va manzilgohlarda keng ko'lamli arxeologik izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, Shahrlilik, Puljoy, Bug'roxon, Munchoqli, Zamaxshar, Tuproqqal'a, Yorbakirqal'a va Hazorasp kabi tarixiy markazlarda olib borilgan tadqiqotlar ularning moddiy madaniyati, shaharsozlik an'analari hamda xo'jalik va savdo faoliyatini o'rganishga imkon berdi. Mazkur arxeologik materiallar Xorazm vohasida shaharlar tarmog'i va savdo markazlari tizimining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun muhim daliliy asos bo'lib xizmat qiladi[27; 29].

Natija. Tadqiqot natijalari Xorazmning XIV–XV asrlardagi shahar va savdo markazlari tarixini o'rganish jarayoni bir necha ilmiy bosqichlarda shakllanganini ko'rsatdi. XIX asr va XX asr boshlarida rus hamda Yevropa tadqiqotchilari tomonidan to'plangan ma'lumotlar Xorazmning tarixiy geografiyasi, shaharlar tizimi, savdo yo'llari va iqtisodiy markazlari haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarni shakllantirgan. Ushbu davr tadqiqotlari hali Xorazmning xalqaro savdodagi o'rnini to'liq va kompleks ravishda ochib bermagan bo'lsa-da, keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim manbashunoslik bazasini yaratgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, XX asrning 20–30-yillaridan boshlab Xorazm shaharlarini o'rganishda arxeologik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagan. A.Yu. Yakubovskiy rahbarligidagi 1928–1929-yillardagi tadqiqotlar Ko'hna Urganch va Mizdahqonning tarixiy topografiyasini ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratgan bo'lsa, M.V. Voevodskiy ekspeditsiyasining 1934-yildagi Zamaxshar tadqiqotlari hamda Ya.G'. G'ulomov rahbarligidagi 1936–1937-yillardagi Guldursunqal'a va Norinjonqal'a izlanishlari Xorazm shahar madaniyatini arxeologik materiallar asosida tadqiq etish ko'lamini kengaytirdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Xorazmning o'rta asrlardagi savdo tizimini **“shahar – bozor – hunarmandchilik markazi – karvonsaroy – transport yo'li”** kabi o'zaro bog'langan elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan, arxeologik materiallar Xorazmning XIV–XV asrlardagi savdo-iqtisodiy hayotini rekonstruksiya qilishda yozma manbalarni to'ldiruvchi emas, balki ularni tekshirish va tarixiy jarayonlarning moddiy asoslarini aniqlash imkonini beruvchi mustaqil ilmiy dalil sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasida Xorazmning XIV–XV asrlardagi savdo-iqtisodiy tarixini o'rganish jarayoni uzoq davom etgan tarixshunoslik va arxeologik izlanishlar natijasida shakllanganligi aniqlandi. XIX asr va XX asr boshlarida rus hamda Yevropa olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar Xorazm shaharlarining tarixiy geografiyasi, savdo yo'llari va iqtisodiy markazlariga oid dastlabki ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirishga xizmat qilgan. Biroq mazkur izlanishlar ko'proq tavsifiy xususiyatga ega bo'lib, Xorazmning xalqaro savdo tizimidagi mavqeini to'liq ochib berish uchun yetarli emas edi.

XX asrning 20–30-yillaridan boshlangan arxeologik tadqiqotlar ushbu masalani yangi dalillar asosida o'rganish imkonini berdi. Ayniqsa, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ko'p yillik faoliyati natijasida vohaning shaharlar tarmog'i, tarixiy topografiyasi, hunarmandchilik markazlari, bozorlar, savdo rastalari va karvonsaroylari haqidagi tasavvurlar sezilarli darajada boyidi. Natijada Xorazm shaharlarining iqtisodiy funksiyalarini faqat yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida emas, balki arxeologik dalillar orqali ham aniqlash imkoniyati yuzaga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бутаков А.В. Дельта и устье Аму-Дарьи. Отечественные записки, 1866, кн. 1.
2. Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву. ЗРГО, вып. 4. кн. V, СПб., 1849.;
3. Данолевский Г.И. Описание Хивинского ханства. ЗРГО, кн. V, СПб., 1861.
4. Григорьев В.В. Описание Хивинского ханства и дорога туда из Сарайчиковой крепости. ЗРГО, №2, СПб., 1861.
5. Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. СПб., 1877.

6. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху мангодского нашествия. Соч., т. 1, М., 1963, с. 197-211.
7. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVI в. Соч., т. 3; Его же: К истории орошения Туркестана. Соч., т. 3 и другие работы.;
8. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов относящихся к истории Золотой Орды. Т.1. Извлечения из сочинений арабских. СПб., 1884.;
9. Тизенгаузен В.Г. Извлечение из персидских сочинений. М.-Л., 1941.
10. Кун А.Л. Культура оазиса низовьев Амударьи. МСТК, вып. IV, СПб., 1886.
11. Самойлович Н.А. Краткий отчет о поездке в Ташкент и в Бухару и в Хивинское ханства прикомандированного Университетом и русским комитетом приват-доценка Самойловича в 1908 г. ИРКА. СПб., 1909, № 19, с. 15-29.
12. Иелнин М.И. Хива и река Амударья. СПб., 1873.
13. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России со Средней Азией со времени кончины Абулхайрхан (1748-1765 гг.). Т. 1. Уфа, 1853. СПб, 1868.
14. Галькин М.Н. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю.; Хаников Я.В. Пояснительная записка и карте Аральского моря и Хивинского ханства с ее окрестностями.; ЗРГО, кн. V. СПб., 1851.
15. Левщик А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких орд и степей. Ч. 1, СПб., 1832.
16. Накиити С.Н. Отчеты экспедиции 1892 г. в Зауральские степи Уральской области и Усть-Урт. СПб., 1893.
17. Небольсин П.И. Очерки торговли России со Средней Азией. ЗРГО, кн. X, СПб., 1855.
18. Каульбарс А.В. Низовья Амударьи. Описания по собственным исследованиям в 1873 году. ЗРГО, т. IX, СПб, 1875.
19. Lansdell H. Russian Central Asia including Kuldjn, Bokhara, Khiva and Merv. Vol. I-II, London, 1885 p 314-341
20. Ibn Fadlan's reisebericht von AZeki Validi Togan. Leipzig, 1939; Шигабидинов Р. Неизвестные страницы А. Валидий. Перевод с башкирск. языка Д.Рашидова, "Ўзбекистон тарихи", 2000, №1-2, 57-70-бетлар.
21. Якубовский А.Ю. Городище Миздакан, «Записки коллегии востоковедов», г. V, Л., 1930, с. 551-591; Его же: Развалины Ургенча. ИГАИМК, зат. 2, г. VI, Л., 1930.
22. Voyevodsky M. A Summary Report of a Khwarizm Expedition. ВАИАА, 1938, №3.
23. Gulom J. O'tmush izlari. "Guliston", 1937, №4. 144
24. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948, с. 33, 156, 157, 168-170; Его же: По следам древнехорезмийской цивилизации. — М.-Л., 1948, с. 308-315; Его же: По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962, с. 246-295.
25. Вактурсии Н.Н. Раскопки тородаша Ургенч в 1952 г. ТХАЭЭ, т. II, М, «Наука», 1958; Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1947 г. ИАН СССР. СИФ т V №2 М 1947 с. 182-192.
26. Вахтурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городище Шемахакала. ТХАЭЭ, т. 1, М., 1952, с. 173-192.
27. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма. МХЭ, вып. 7, 1963.
28. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях левобережного Хорезма. МХЭ, вып. 7, М., 1963
29. Воробьева М.Г., Лапвров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. МХЭ, вып. 6, М., 1963.

UO'K 908

MUSTAQILLIK DAVRIDA MILLIY QADRIYATLAR VA TARIXIY XOTIRANING QAYTA TIKLANISHI

S.Karimbayeva, dots., Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqilligi davrida milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani qayta tiklash jarayonlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng milliy urf-odat va an'analar, diniy-ma'naviy meros, tarixiy shaxslar faoliyati hamda qatag'on qurbonlari xotirasiga munosabatda yuz bergan o'zgarishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy o'zlik, ma'naviy meros, urf-odatlar, jadidlar, qatag'on qurbonlari, tarixiy meros, ma'naviy tiklanish.

Аннотация. В статье с исторической точки зрения анализируются процессы возрождения национальных ценностей и исторической памяти в период независимости Узбекистана. Рассматриваются изменения в отношении к национальным традициям и обычаям, духовно-религиозному наследию, деятельности исторических личностей и памяти жертв политических репрессий.

Ключевые слова: независимость, национальные ценности, историческая память, национальное самосознание, духовное наследие, традиции, джадиды, жертвы репрессий, историческое наследие, духовное возрождение.

Abstract. This article analyzes the restoration of national values and historical memory in Uzbekistan during the period of independence from a historical perspective. It examines changes in attitudes toward national traditions and customs, spiritual and religious heritage, the legacy of historical figures, and the commemoration of victims of political repression.

Keywords: independence, national values, historical memory, national identity, spiritual heritage, traditions, Jadids, victims of repression, historical heritage, spiritual revival.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani tiklash jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sobiq sovet davrida mafkuraviy cheklovlar ta'sirida bir tomonlama talqin qilingan tarixiy meros, buyuk ajdodlar faoliyati, milliy urf-odat va an'analarni xolis o'rganish uchun keng imkoniyat yaratildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur, jadid ma'rifatparvarlari, qatag'on qurbonlari va boshqa tarixiy shaxslar merosini qayta baholash, milliy bayramlar, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Asosiy qism. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi milliy-ma'naviy hayotda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Siyosiy suverenitetning qaror topishi tarix, madaniyat, urf-odat va ma'naviy merosga munosabatni qayta ko'rib chiqish uchun zarur sharoit yaratdi. Uzoq yillar davomida turli mafkuraviy mezonlar ta'sirida cheklangan yoki bir tomonlama talqin qilingan milliy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tiklash, tarixiy merosni xolis baholash va uni avlodlarga yetkazish mustaqillikning dastlabki davridayoq ma'naviy taraqqiyotning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Milliy va diniy qadriyatlarga, tarixiy meros hamda urf-odatlariga munosabatdagi o'zgarishlar jamiyatda milliy o'zlikni anglash jarayonining kuchayishi bilan chambarchas kechdi[1; 133–135-b.].

Tarixiy xotiraning qayta tiklanishi faqat o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni qayta eslash bilan cheklanmaydi. U jamiyatning tarixiy taraqqiyotini anglash, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni saqlash va tarixiy tajribani zamonaviy ijtimoiy ong tarkibiga kiritish jarayonini ham qamrab oladi. Tarixiy xotira tarixiy bilim, tarixiy ong va tarixiy tafakkur bilan o'zaro bog'liq bo'lib, uning shakllanishida haqqoniy faktlar, ijtimoiy tajriba va tarixiy vorisiylik muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikdan keyingi davrda xalqning o'z tarixiy ildizlariga, ajdodlari qoldirgan madaniy merosga va ilgari yetarli darajada ochib berilmagan tarixiy voqealarga qiziqishi sezilarli ravishda kuchaydi[2; 91–93-b.].

Milliy qadriyatlarning tiklanishi xalqning kundalik hayoti, oilaviy munosabatlari, mahalla an'analari, milliy bayramlari va marosimlarida ham o'z ifodasini topdi. Bu jarayon aslida mustaqillik arafasidayoq boshlangan bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan an'analarning jamiyat hayotidagi tabiiy mavqeini qayta tiklashga xizmat qildi. XX asrning 80-yillari o'rtalarida Navro'z bayramiga nisbatan yuzaga kelgan mafkuraviy cheklovlar uning ijtimoiy-madaniy mohiyatiga zid edi. 1990-yilda Navro'zning umumxalq bayrami sifatidagi maqomi tiklanib, 21-mart dam olish kuni etib belgilandi, 1991-yilda esa bayramni respublika miqyosida tashkil etishga oid alohida chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu tariqa qadimiy bayramning qayta tiklanishi milliy madaniyatga munosabatdagi tub o'zgarishlarning ramziy ko'rinishlaridan biriga aylandi[3; 23–24-b.].

Navro'zning ijtimoiy hayotga qaytishi faqat bayram sanasining tiklanishi bilan izohlanmaydi. Uning mazmunida tabiat va inson uyg'unligi, mehr-oqibat, qo'ni-qo'shnichilik, kattalarga hurmat, saxovat, obodonchilik va birdamlik singari ko'p asrlik qadriyatlar mujassam edi. Mazkur an'analarning ommaviy ravishda davom ettirilishi ma'naviy merosning avlodlararo uzatilishiga xizmat qildi. Milliy marosimlarning hududiy ko'rinishlari ham saqlanib, ayrim unutilib borayotgan udumlar mustaqillikdan keyin yana faol ijtimoiy amaliyotga kirib bordi[4; 125–126-b.].

Milliy-ma'naviy tiklanishning muhim yo'nalishlaridan yana biri diniy qadriyatlarning tarixiy o'rnini qayta tiklash bilan bog'liq bo'ldi. 1991-yil 20-iyunda Qurbon hayitining birinchi kunini dam olish kuni sifatida belgilash milliy-diniy an'analarni ijtimoiy hayotga qaytarishga qaratilgan muhim

huquqiy qadamlardan biri edi. 1992-yil 27-martda Ro'za hayitining ham dam olish kuni sifatidagi huquqiy maqomi belgilandi. Ushbu o'zgarishlar diniy bayramlarning faqat e'tiqodiy emas, balki mehr-oqibat, hamjihatlik, saxovat va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlovchi tarixiy-ma'naviy qadriyat sifatidagi o'rnini kuchaytirdi[5; 1-3-b.].⁵

Mustaqillik davridagi ma'naviy yangilanish buyuk tarixiy shaxslar merosini qayta baholashda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi, 1992-yilda Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi, 1993-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi, 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Keyingi yillarda Cho'lpon, Ahmad al-Farg'oni, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa tarixiy shaxslarning yubileyariga bag'ishlangan tadbirlar ham o'tkazildi. Bunday yubileylar tarixiy shaxslarni xotirlash bilan bir qatorda, ularning asarlarini nashr etish, ilmiy konferensiyalar tashkil qilish, muzey va yodgorliklar bunyod etish orqali tarixiy bilimlarning ommalashishiga xizmat qildi[6; 135–136-b.].⁶

1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqyosda nishonlanib, UNESCO qarorgohida maxsus tadbirlar o'tkazildi. 1996-yilning Amir Temur bilan bog'liq xalqaro tadbirlarga bag'ishlanishi, temuriylar davri ilm-fani va madaniyatiga oid konferensiya va ko'rgazmalarning tashkil etilishi milliy davlatchilik tarixiga yangicha munosabat shakllanayotganini ko'rsatdi. Temuriylar tarixi bilan bog'liq muzey, yodgorlik va ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida ushbu davr faqat harbiy-siyosiy voqealar orqali emas, balki davlatchilik, ilm-fan, me'morchilik va madaniyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham chuqurroq o'rganila boshlandi.

Tarixiy xotirani tiklash jarayonida islom sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan allomalar merosining o'rganilishi ham muhim o'rin tutdi. Imom Buxoriy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband kabi allomalar merosiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, yubileylar, me'moriy majmualarni tiklash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1998-yilda Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan Xartangdagi yodgorlik majmuasining qayta bunyod etilishi, Ahmad al-Farg'oni bilan bog'liq maskanlarning obodonlashtirilishi, tarixiy qadamjolarining qayta tiklanishi ma'naviy xotiraning moddiy-madaniy makonda mustahkamlanishiga xizmat qildi[8; 136–137-b.].

Milliy qadriyatlarning tiklanishi moddiy va nomoddiy madaniy merosni bir-biridan ajratmagan holda davom etdi. Ayniqsa, an'anaviy marosimlarning hududiy xususiyatlarini o'rganish xalq tarixini faqat siyosiy jarayonlar orqali emas, balki kundalik turmush va etnomadaniy tajriba orqali yoritish imkoniyatini kengaytirdi. Bu esa tarixiy xotiraning jamiyatning turli qatlamlarida saqlanish mexanizmlarini aniqlash uchun muhimdir.

Xulosa. Mustaqillik davrida O'zbekistonda milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani qayta tiklash jarayoni jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu davrda tarixiy merosga munosabat tubdan o'zgardi, ilgari mafkuraviy cheklovlar ta'sirida bir tomonlama talqin qilingan tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini xolis o'rganish uchun zarur ilmiy hamda huquqiy sharoit yaratildi. Milliy bayramlar, urf-odat va an'analar, diniy-ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi xalqning tarixiy-madaniy o'zligini mustahkamlashga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murtazayeva R.H., Inoyatova D.M., Odilov A.A. va boshq. *O'zbekistonning eng yangi tarixi*. – Toshkent: Mehr-nuri, 2023. – B. 133–135. Ushbu sahifalarda ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlarga munosabat hamda mustaqillikdan keyingi tiklanish jarayoni yoritilgan.

2. Jumayev B.P. Tarixiy xotira fenomeni: ijtimoiy-falsafiy tahlil // *O'zMU xabarlari*. – 2024. – №1/9/1. – B. 91–93. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.9.1.4215.

3. Murtazayeva R.H. va boshq. *O'zbekistonning eng yangi tarixi*. – Toshkent: Mehr-nuri, 2023. – B. 23–24; Navro'zning umumxalq bayrami sifatida qayta tiklanishi haqida: 1990-yil 3-may va 1991-yil 12-fevralga oid ma'lumotlar.

4. Yusupova M.O'. Buxoro marosim taomlarining etnografik tahlili // *Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira: tarixiy-ma'naviy o'qitishning dolzarb muammolari*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2021. – B. 125–126.

5. O'zbekiston SSR Prezidentining 1991-yil 20-iyundagi PF–221-son “Diniy bayram ‘Qurbon hayiti’ni dam olish kuni deb e’lon qilish haqida”gi Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-martdagi PF–368-son “Ro'za hayitini dam olish kuni deb e’lon qilish to'g'risida”gi Farmoni.

OILA VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH SHAKLLARI**D.R.Matnazarova, mustaqil izlanuvchi, Ma'mun universiteti, Xiva**

Annotatsiya. Maqolada oilaning kelib chiqishi, tarixiy shakllari va zamonaviy davrdagi ahamiyati keng ilmiy asosda bayon etilgan. Shuningdek, oilani ijtimoiy institut sifatida insoniyat tarixidagi shakllanish bosqichlari, diniy va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda tahlil etilgan. Xususan, qadimgi diniy manbalar, jumladan "Avesto"dagi oila haqidagi tasavvurlar, matriarxat va patriarxat davrlaridagi oilaviy tuzilmalar, hamda Xorazm vohasida tarixiy-etnografik asosda shakllangan oilaning ijtimoiy va madaniy funksiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, tarixiy rivojlanish, matriarxat, patriarxat, Avesto, qadriyatlar, Xorazm, ijtimoiy institut, antropologiya, tarbiya, oilaviy struktura.

Аннотация. В статье на широкой научной основе описывается происхождение, исторические формы и значение семьи в современную эпоху. Также анализируются этапы формирования семьи как социального института в истории человечества в связи с религиозными и культурными ценностями. В частности, освещаются древние религиозные источники, включая представления о семье в «Авесте», структуры семьи в периоды матриархата и патриархата, а также социальные и культурные функции семьи, сформировавшиеся на историко-этнографической основе в Хорезмском оазисе.

Ключевые слова: семья, историческое развитие, матриархат, патриархат, Авеста, ценности, Хорезм, социальный институт, антропология, воспитание, структура семьи.

Abstract. The article describes the origin, historical forms and significance of the family in modern times on a broad scientific basis. It also analyzes the stages of formation of the family as a social institution in the history of mankind, in connection with religious and cultural values. In particular, ancient religious sources, including the ideas about the family in the "Avesta", family structures in the periods of matriarchy and patriarchy, as well as the social and cultural functions of the family formed on a historical and ethnographic basis in the Khorezm oasis, are highlighted.

Key words: family, historical development, matriarchy, patriarchy, Avesta, values, Khorezm, social institution, anthropology, upbringing, family structure.

Oila insoniyat tarixining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biridir. U jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlovchi asosiy tuzilmadir [1, 32-35]. Oilaning mazmuni, shakli va vazifalari jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u har bir sivilizatsiya bosqichida muhim ijtimoiy funksiyalarni bajargan [4, 51].

Qadimgi diniy manba "Avesto"da erkakning nikohdan qochishi, qarindoshlar o'rtasida nikohdan tiyilish, oilaviy poklik va avlod uzviyligi masalalari qat'iy belgilangan [2, 16-17]. Bu holat oilaning nafaqat biologik, balki axloqiy va ijtimoiy funksiyalarini ham qadim zamonlardayoq bajarganligini isbotlaydi. Mazkur manbada oila jamiyat barqarorligining kafolati sifatida talqin qilingan.

Zardushtiylikda oila axloqiy me'yorlar va ijtimoiy tartib asosiy manba sifatida ko'rilgan. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi sog'lom avlodning yaralishi yo'lida muttasil e'tiborda bo'lgan, oilasi, urug'i obro'si mustahkamligi, g'ururi uchun doim kurashib kelgan. Bunday oilaparvarlar va bolaparvarlar zardushtiylik g'oyalarining aynan bizning zaminda tug'ilishi bilan ham bog'liq. Buni tarixiy manbalarni kuzatishning o'ziyoq anglatib turibdi. Zarudushtiylikning muqaddas kitobi "Aveto"da oila, uning mustahkamligi, tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgani uning isbotidir. Oilaparvarlik va bolaparvarlik g'oyalari faqat yo'l-yo'riqlar sifatidagina qabul qilinib qolmay, avlod turmushining baxtli-saodatli, to'la ta'minotli, xushchaqchaq, serfarzand bo'lishi to'g'risida ham katta g'amxo'rlik ko'rsatilgan. Tadqiqotchi T.Xo'janiyozov fikricha, ajdodlarimiz oila va avlod muqaddasligini doimo e'zozlab kelganlar [2, 18]. Oila qadimiy dinlar va urf-odatlar orqali tartibga solingan bo'lib, bu holat uni nafaqat ijtimoiy, balki muqaddas institut sifatida ham ko'rsatadi [5, 72].

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, oilalarning paydo bo'lishida, odamzodni o'troq, madaniy hayotga o'tishida ayol – Onalar o'ta muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Ibtidoiy jamiyatdan boshlab ayol shaxsining oila shakllanishidagi roli muhim bo'lgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, oilalarning paydo bo'lishida, odamzodni o'troq, madaniy hayotga o'tishida ayol – Onalar o'ta muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Tabiiy sharoitlarda ovchilik, dehqonchilik va uy-mehnati ayollar tomonidan yo'lga qo'yilgan [1, 33]. Bu esa hozirgi sivilizatsiyaning – o'troq yashash, shaharlar paydo bo'lishining avvalida onalar ma'naviyati va tarbiyasi turganligini ko'rsatadi. Oilaning birinchi tarixiy shakli deb matriarxat davridagi urug'chilik tarkibida bo'lgan ona oilasini hisoblash mumkin; ba'zan uni totemik oila deb ham ataydilar. Bu birinchi to'rt-besh avlodagi ona tomonidan yaqin qarindoshlarning xiyla katta guruhi bo'lgan. Bu tipdagi oilada guruhli nikoh mavjud bo'lib, bolalarning otasini aniqlashning iloji bo'lmagan, shuning uchun ham bolalarning kelib chiqishi ona tomondan aniqlangan. Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar oilaning shakllanish bosqichlarini matriarxat va patriarxat davrlariga ajratadi. Dastlab ona urug'i asosidagi qarindoshlik ustun bo'lgan bo'lsa, keyinchalik otalik asosidagi ierarxik tizim kuchaygan [1, 34]. Oilaning totemik bosqichi, urug' jamoalari davridagi nikoh tizimi, avlodlararo ijtimoiy nazorat kabi jihatlar antropologiya fanida keng o'rganilgan [7, 81-82].

Oila qadimdan inson jamiyatining asosiy ijtimoiy tuzilmasi bo'lib, u faqat biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy birlik sifatida shakllanadi. Xorazm vohasida oila nafaqat farzand tarbiyasi va iqtisodiy hamkorlik negizida, balki axloqiy va madaniy qadriyatlarni saqlovchi mexanizm sifatida ham muhim rol o'ynagan. Tarixiy-etnografik manbalarda Xorazm oilalari ko'p avlodli, patriarxal tuzilishga ega bo'lganligi qayd etiladi [9, 87]. Bunday oila tuzilmasida ijtimoiy rollar qat'iy belgilangan bo'lib, erkaklar moddiy ta'minot, ayollar esa ma'naviy tarbiya uchun mas'ul bo'lgan [10, 24].

Xorazm oilaviy tuzumining shakllanishida islomiy qadriyatlar bilan bir qatorda zardushtiylik, shamanizm singari qadimgi e'tiqodlarning izlari ham kuzatiladi [11, 63]. Oila doirasidagi axloqiy nazorat, avlodlararo ierarxiya va qarindoshlik asosidagi ijtimoiy tartibot, ayniqsa, to'y marosimlari, kelin tushirish, mehmondorchilik odatlarida yaqqol namoyon bo'ladi [12, 52].

Oila atamasining kelib chiqishi arab tiliga borib taqaladi. “Oila” so'zi “oil” ildiziga ega bo'lib, “ayolmand”, “xonadon”, “uy bekasi” kabi ma'nolarni bildiradi [3, 97]. Lug'aviy mazmuni uning tarixiy ijtimoiy birlik sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Yangi tuzilgan besh jildlik “O'zbek tilining izohli lug'ati” uchinchi kitobida ham bu so'zning arabchaligi ta'kidlanib, uning ma'nosi farqlanadi. Unda: “Er-xotinlarning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon” deb berilgan. [8, 97] Arabchada xotin “zavja” deyilib, uning erkak bilan qo'shiluvidan bola chaqa dunyoga kelib, ayolmandlik yuzaga kelgan, binobarin, oila shakllangan. Aftidan, oilaning ibtidoiy ko'rinishlari sanaluvchi qon-qarindosh oila, undan keyingi bosqichda esa bir guruhga mansub opa-singillarning boshqa jamoa guruhidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlab “oil”dan iborat demografik birliknigina anglatgan ko'rinadi.

Oila – bu nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslangan kishilar ijtimoiy birligining birlamchi yacheykasi, sinflar, millatlar, davlatlardan ancha ilgari paydo bo'lgan eng qadimgi ijtimoiy institutlardan biridir. Oila o'zida murakkab ijtimoiy voqelikni ifodalaydi, unda ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning turli xil shakllari mujassamlashadi. U bilan boshqa biror tuzilmani solishtirish qiyin, unda turli-tuman insoniy va ijtimoiy ehtiyojlar qondiriladi. Oila o'zida shunday ijtimoiy guruhni ifodalaydiki, u insonning butun hayotiga tatigulik iz qoldiradi. Bular hammasi shunga olib keladiki, oila to'g'risida ob'ektiv ilmiy tadqiqot va shu asosda xulosalar olish oson ish emas. Amerikalik sotsiolog Gud ta'kidlaganidek: “Oilani ilmiy o'rganish uchun uning ko'p jihatlariga chuqur kirib borish zarur, chunki oila inson hayotining barcha bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi”[1, 35].

Hozirgi davrda ham oilaning ijtimoiy institut sifatidagi o'rni jamiyat barqarorligi, demografik rivojlanish, axloqiy normalar va shaxsiy salohiyat shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda [8, 14]. Shu tariqa, oilaning kelib chiqishi va ijtimoiy mohiyatini o'rganish – antropologiya, tarix, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik fanlari uchun dolzarb mavzudir. Oila – bu nafaqat jinsiy yoki qon-qarindoshlik, balki axloqiy, iqtisodiy, madaniy qadriyatlar tizimining markazidir.

Darhaqiqat, eng buyuk tarixiy ildizlarga ega xalqimiz bugungi kunda mustaqillikka erishib, bu jarayonda oilaning o'zni, mas'uliyati va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berilayotganligini e'tirof etish lozim. Millat oilasi tarixini o'rganish va o'tgan davr silsilalari asosida uning keng qamrovli munosabatlarining shakllanishi borasida alohida fikr yuritishning zaruriyati ziyoli va olimlar uchun o'ziga xos burch sanaladi. Shunday ekan bugun millatimiz oilasi va oiladagi tarbiya tarixini o'rganish va uning xususiyatlarini asoslash davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T., "O'qituvchi" nashriyoti, 1995. – 32–35-betlar.
2. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T., "Adolat", 2006. – 16–18-betlar.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Uchinchi jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007. – 97-bet.
4. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 51-bet.
5. Snesev G.P. Relikty domusul'manskix verovaniy i obryadov uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – 72-bet.
6. Itina M.A. Kultura i iskusstvo drevnego Xorezma. – M.: Nauka, 1981. – 81–82-betlar.
7. Arifxanova Z.X. Oila madaniyatining zamonaviy talqini. – T.: Ma'naviyat, 2013. – 14-bet.
8. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. Учинчи жилд, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, - Т.: , 2007, 97-бет.
9. Snesev G.P. Relikty domusul'manskix verovaniy i obryadov uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – 87-bet.
10. Toshbayeva T.X., Savurov M.D. Novoye i traditsionnoye v bytu selskoy semi uzbekov. — T.: Fan, 1989. – 24-bet.
11. Itina M.A. Kultura i iskusstvo drevnego Xorezma. — M.: Nauka, 1981. – 63-bet.
12. Lobacheva N.P. Svd'ebniy obryad xorezmskix uzbekov // Kratk. soobshch. Instit. etnografii, vyp. 34. — M., 1960. – 52-bet.

UO'K 902.6(575.1)

SHAHRIBARBAR YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR G'I. Maxamadiyev, PhD, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani Moybuloq hududida joylashgan Shahribarbar arxeologik yodgorligida 2025-yilda olib borilgan planigrafik qazishma ishlari natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yodgorlikning joylashuvi, stratigrafiyasi, qurilish bosqichlari hamda turar-joy va xo'jalik infratuzilmasi o'rganildi. Qazishmalar natijasida tandir, o'choq, o'ra, yo'lak va xonalar qoldiqlari aniqlanib, yodgorlikda o'troq aholi yashaganligi hamda kundalik xo'jalik faoliyati rivojlanganligi isbotlandi. Topilgan sopol buyumlar majmuasi yodgorlikning IX–XIII asrlarga mansubligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Shahribarbar yodgorligi, Kattaqo'rg'on tumani, Moybuloq, stratigrafiya, tandir, o'choq, o'ra, xom g'isht, sopol buyumlar, o'rta asrlar.


Аннотация. В статье рассматриваются результаты планиграфических археологических раскопок, проведённых в 2025 году на памятнике Шахрибарбар, расположенном в Мойбулокском массиве Каттакурганского района Самаркандской области. В ходе исследований были изучены планировка, стратиграфия, этапы строительства, а также элементы жилой и хозяйственной инфраструктуры. В результате раскопок выявлены тандыр, очаги, хозяйственные ямы, коридор и жилые помещения, что свидетельствует о существовании оседлого населения. Анализ керамического материала датирует памятник IX–XIII веками.

Ключевые слова: Шахрибарбар, Каттакурганский район, Мойбулок, стратиграфия, тандыр, очаг, хозяйственные ямы, сырцовый кирпич, керамика, средневековье.

Abstract. This article presents the results of planigraphic archaeological excavations conducted in 2025 at the Shahribarbar site located in the Moybuloq area of the Kattakurgan district, Samarkand region. The study examines the site's layout, stratigraphy, construction phases, and residential-economic infrastructure. Excavations revealed a tandoor, hearths, pits, a corridor, and room structures, indicating a sedentary population and developed household activities. The ceramic assemblage dates the site to the 9th–13th centuries.

Keywords: Shahribarbar site, Kattakurgan district, Moybuloq, stratigraphy, tandoor, hearth, pits, mudbrick, ceramics, medieval period.

Shahribarbar yodgorligi Kattaqo'rg'on tumani, Moybuloq MFY, Maybuloq qishlog'ining janubi-sharqiy chekkasida joylashgan (Axunboboyev. 1987). Yodgorlik Moybuloq bulog'idan 1 km janubda joylashgan. Yodgorlikning shimoliy va g'arbiy qismlaridan Moybuloq suvi oqib o'tadi. Hozirda ushbu buloq mavsumiy bo'lib, faqat bahor oylarida suv mavjud. Yodgorlik quydagi koordenatalarda joylashgan ($40^{\circ} 5'49.56''\text{C}$ / $66^{\circ}20'48.18''\text{B}$). (1-rasm).



1-rasm. Shahribarbar yodgorligining Google Earthda ko'rinishi

Shahribarbar yodgorligida dastlabki planigrafik qazishma ishlari 2025 yilning may oyida amalga oshirildi. Dastlabki qazishma yodgorlikning sharqiy qismida 9×4 m o'lchamda olib borildi. Dastlabki qazishmaning yuza qismida 5 sm chim qatlami olib tashlanib, yer sathidan 20 sm chuqurlikda qazilganda qazishmaning 1-qurilish davri qayt etildi. Qazishmaning janubiy-g'arbiy qismiga yaqin hududida 1-tandir qayt etildi. Uning diametri 50×50 sm bo'lgan doirasimon. Tandir devor qalinligi 1 sm, kuyish qatlami 5 sm. Tandir atrofi xom g'ishtlardan supa ko'rinishida ishlangan. Tandirning umumiy chuqurligi 20 sm. 5 sm kul qatlami mavjud. Atrofi supa bilan o'ralgan. Supa o'lchami $1 \times 1,3$ m. Supa xom g'ishtlardan qurilgan.

1-o'choq. Qazishmaning sharqiy burchagida joylashgan. Bir joyda 2 ta o'choq aniqlangan. O'lchami $1,20 \times 80$ sm. O'choqning g'arbiy devori toshlar bilan ko'tarilgan, yoqish joyi sharqiy tomonda. Shimoliy devorining uzunligi 47 sm, balandligi 20 sm.

2-o'choq to'g'ridan-to'g'ri davomiy qism bo'lib, yumaloq shaklda, 110×90 sm, chuqurligi 15 sm, 2 sm kul qatlami mavjud.

1-o'ra. Ikki qismdan iborat. 1-qismi to'rtburchak shaklda: 110×40 sm, chuqurligi 75 sm. 1 va 2-qismlar orasida balandligi 20 sm, qalinligi 30 sm bo'lgan devor mavjud; devor yuqoridan pastga qarab kengayib, 45 sm ga yetadi. O'ra devorlari notekis. 2-qismi bir oz ovalsimon kurinishda: 110×100 sm, balandligi 60 sm. O'raning g'arbiy qismida 55×50 sm o'lchamli, to'rtburchak shakldagi kirish joyi mavjud. O'ra atrofi $40 \times 42 \times 23-24 \times 7-10$ sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan qurilgan.

2-o'ra. Qazishmaning janubi-g'arbiy qismida, 1-tandirning shimolida, undan 25 sm shimolda, 1-o'choqdan 40 sm sharqda, joylashgan; 1-o'radan 55 sm janubda. Shakli to'rtburchak: 130×170 sm, chuqurligi 70 sm. O'ra poli 2 qismdan iborat: 1-qism dumaloq (diametri 70–75 sm), yonida 2-qism to'rtburchak (40×110 sm). O'rtadagi devor qalinligi 20 sm, balandligi 15 sm. O'ra ichida $41 \times 22 \times 9-10$ sm o'lchamdagi xom g'ishtlar notekis joylashgan.

3-o'ra. Qazishmaning markaziy qismida joylashgan. Kurinishi aylanasingin, 90×95 sm o'lchamda. Chuqurligi 73 sm ni tashkil etadi.

Qazishmaning 2-qurilish davriga mansub qatlamlarida 1 ta yo'lak (koridor) va 2 ta xona qayd etildi.

Yo'lakning shimoli-sharqiy devori qalinligi 1,1 m, balandligi 60 sm. Shimoli-g'arbiy qismi 1,1x1 m. Pol sathi g'arbdan sharqqa qarab ko'tarilib, notekis. Devorlar 39-40x21x9 sm o'lchamdagi xom g'ishtlardan qurilgan. Yo'lak bilan 1 va 2-xonalar orasida devor mavjud bo'lib, yaxshi saqlangan qismi qalinligi 90 sm, balandligi 1,1 m. G'arbdan sharqqa torayib, qalinligi 60 sm, balandligi 55 sm ga tushadi. Torayish sababi — 2-xonadagi 1-qurilish davriga oid o'ralar devorni kesib tushgan.

Yo'lakdan 1-xonaning sharqiy tomoniga o'tish joyi qayd etilmadi. Qazishma maydonining g'arbiy burchagidan 50 sm sharqda xonalar devori tugaydi.

1-xona yo'lakning janubi-sharqida joylashgan. Shimoldan janubga 1,3 m, sharqdan g'arbga 2,4 m. Shimoliy devori yo'lak bilan tutash. Devor balandliklari: shimoliy — 1 m, sharqiy — 90 sm, g'arbiy — 1 m. 1 va 2-xonalar orasida devor qayd etilgan: yuqorida 40 sm, pastda 75 sm qalinlikda, balandligi 105 sm.




2-rasm. Qazishmaning 2-qurilish davrining umumiy ko'rinishi

2-xona yo'lakning janubida. Shimoliy devori yo'lak bilan tutash. Devor balandligi 80 sm, poli tekis. 1 va 2-xonalar janubiy qismi qazishma maydonidan tashqarida. 2-xonaning g'arbiy polida 41x27x8–9 sm o'lchamdagi xom g'ishtlar qayd etildi (2-rasm).

1-qurilish davriga mansub bo'lgan 3 ta o'ra ham 2-qurilish davrining xona devorlarini malum bir qismini kesib tushgan.

Mazkur sopol majmuasi O'rta Osiyoning IX–XIII asrlaridagi turar-joy madaniy qatlamiga oid bo'lib, unda sirlangan stol idishlari va sirlanmagan pishirish-xo'jalik idishlari birgalikda uchraydi. Bu esa topilma joyi kundalik yashash va ovqat tayyorlash faoliyati bilan bog'liq uy-joy majmuasi bo'lganini ko'rsatadi.

Quyida kursatilgan IX-XII asrlar davri sopol buyumlar majmuasi Markaziy Osiyoning Eski Axsi (Mirzaaliev G. 1986. 153-162), Farg'ona vodiysi (Axxorov I. 1969. S. 146-151), Qanqa (Brusenko L.G., Galieva Z.S. 1982.), Afrosiyob (Kabanov S. K. 1973. S. 80. Ris. 17.), Axsiket (Anarbaev A. 2013. S. 56-74), Qorabuloq (Brikina G. A. 1974. S. 51. Ris. 82), Taraz (Senigova T. P. 1972. S. 152.) yodgorliklarida IX-XII asrlar qatlamlarida uchraydi.



2025-yilda o'tkazilgan planigrafik qazishmalar yodgorlikning turar-joy va xo'jalik infratuzilmasini aniqlash imkonini berdi. Qazishmada tandir, o'choq, o'ra, yo'lak va xonalar qoldiqlari aniqlanib, Shahribarbar hududida o'troq aholi yashaganini tasdiqlovchi aniq dalillar olindi. Tandır va o'choqlarning mavjudligi ovqat tayyorlash jarayonlari, o'ralarning mavjudligi esa xo'jalik saqlash va ishlab chiqarish faoliyatini ko'rsatadi. Xom g'ishtdan qurilgan supalar, devorlar va pol qatlamlari So'g'd turar-joy me'morchiligi an'analariga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X. Г. Ахунбабаевым. Отчёт археологических исследований по составлению свода памятников археологии Каттакурганского, Иштиханского и Жанбайского районов Самаркандской области. Самарканд. 1987. Фонд 4. Опись 1. Дело 166.
2. Мирзаалиев Г. Неглазурованная керамика XII-начала XIII в. городища Эски Ахси // ИМКУ. Вып. 20. Ташкент, 1986. С. 153–162, рис. 1, 2
3. Ахроров И. Кухонная керамика Ферганы XI-XII вв. // ИМКУ. Вып. 8, 1969. С. 146-151, рис. 2
4. Брусенко Л.Г., Галиева З.С. Материалы раскопок квартала керамистов городища Канка X– начала XI вв. // ИМКУ. Вып.17. Ташкент, 1982. рис. 2.
5. Кабанов С. К. Стратиграфический раскоп в северной части городища Афрасиаб //Афрасиаб. Вып. II. 1973. С. 80. Рис. 17.
6. Анарбаев А. Ахсикет - столица древней Ферганы. Ташкент, 2013. С. 56-74
7. Брыкина Г. А. Карабулак. М, 1974. С. 51. 52. Рис. 82
8. Сенигова Т. П. Средневековый Тараз. Алма-Ата, 1972. С. 152. Табл. XI

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI:
AN'ANAVIY DAVLATCHILIKDAN ZAMONAVIY HUQUQIY DAVLAT SARI**

H.O.Muhammadjonova, o'qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududida davlat boshqaruvi tizimining tarixiy taraqqiyot bosqichlari — qadimgi davlat uyushmalaridan tortib, zamonaviy huquqiy davlat qurilishigacha bo'lgan davr — tahlil qilinadi. Tadqiqot B.J. Eshovning davlatchilik va boshqaruv tarixiga oid asarlari, A.S. Sagdullaev va O'.M. Mavlonovning "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi" tadqiqoti hamda Sh.A. Saydullaevning davlat va huquq nazariyasiga oid ishlarida ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, an'anaviy davlatchilik, huquqiy davlat, konstitutsiyaviy islohotlar, mustaqillik, davlat hokimiyati, davlat va huquq nazariyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются исторические этапы развития системы государственного управления на территории Узбекистана — от древнейших государственных образований до современного этапа построения правового государства. Исследование проведено на основе научно-теоретических взглядов, изложенных в трудах Б.Ж. Эшова, посвящённых истории государственности и государственного управления, исследовании А.С. Сагдуллаева и У.М. Мавланова «История государственного управления в Узбекистане», а также работах Ш.А. Сайдуллаева в области теории государства и права.

Ключевые слова: государственное управление, традиционная государственность, правовое государство, конституционные реформы, независимость, государственная власть.

Abstract. This article analyzes the historical stages of the development of the system of public administration in the territory of Uzbekistan, from ancient state formations to the modern stage of building a rule-of-law state. The study is based on the scientific and theoretical views advanced in the works of B.J. Eshov on the history of statehood and public administration, the study History of Public Administration in Uzbekistan by A.S. Sagdullaev and U.M. Mavlonov, as well as the works of Sh.A. Saydullaev on the theory of state and law.

Key words: public administration, traditional statehood, legal state, constitutional reforms, independence, state power.

Kirish. Har qanday xalqning davlatchilik tarixi uning milliy o'zligini anglashida, huquqiy ongi va siyosiy madaniyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston hududi jahon tsivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri sifatida boy davlat boshqaruvi tajribasiga ega. Bu masala o'zbek tarixshunosligida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, xususan B.J. Eshovning tadqiqotlarida ilk davlatchilikning paydo bo'lish omillari, boshqaruv shakllari va davlatchilik nazariyalari izchil tahlil qilingan. A.S. Sagdullaev va O'.M. Mavlonov esa o'z tadqiqotlarida bevosita davlat boshqaruvi tizimining o'zini — uning institutsional tuzilmasi, mansab-martaba tizimi va boshqaruv mexanizmlarini — maxsus predmet sifatida o'rgangan. Bu ikki yo'nalish o'zaro bog'liq bo'lsa-da, farqli metodologik yondashuvlarga ega, va mazkur maqola aynan shu ikki yo'nalishni sintez qilishga harakat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda O'zbekiston huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barqaror shakllantirish yo'lida tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonni nazariy jihatdan tushunish uchun Sh.A. Saydullaevning davlat va huquq nazariyasiga oid ishlarida berilgan davlat, davlat funksiyalari va huquqiy davlat tushunchalarining ilmiy talqinlariga tayanish zarur.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining an'anaviy shakllardan zamonaviy huquqiy davlat qurilishi sari bosib o'tgan tarixiy yo'lini yuqorida qayd etilgan manbalarga tayangan holda bosqichma-bosqich tahlil qilish va bu jarayondagi asosiy qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.

Vazifalar:

- B.J.Eshovning tadqiqotlariga tayangan holda qadimgi va o'rta asrlar davlat boshqaruvi institutlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- A.S.Sagdullaev va O'.M.Mavlonov tadqiqotlari asosida boshqaruv tizimining institutsional evolyusiyasini kuzatish;
- mustaqillik yillarida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlarning bosqichlarini tizimlashtirish;
- A.S.Saydullaevning nazariy qarashlariga tayangan holda huquqiy davlat tushunchasining zamonaviy mazmunini asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, tizimli-tuzilmaviy tahlil, qiyosiy-huquqiy va logik metodlarga asoslanadi.

Asosiy qism.

1. Qadimgi va o'rta asrlar davlat boshqaruvi: an'anaviy davlatchilik asoslari

B.J.Eshovning fikricha, O'zbekiston hududida ilk davlatchilikning shakllanishi bronza davridagi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jaliklarining tashkil topishi bilan uzviy bog'liq. Bu qarash muhim metodologik ahamiyatga ega: davlat boshqaruvi tizimining paydo bo'lishini sof siyosiy hodisa sifatida emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning natijasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi qadimgi davlat uyushmalarida markazlashgan hokimiyat, ma'muriy-hududiy bo'linish va soliq tizimining dastlabki shakllari aynan shu asosda vujudga kelgan.

IX–XII asrlarda Somoniylar va Qoraxoniylar davlatlarida boshqaruv tizimi murakkablashib, devon institutlari shakllandi — devoni vazir, devoni mustavfiy (moliya), devoni sohib-baraid kabi markaziy boshqaruv organlari faoliyat yuritgan. B.J. Eshov o'zining “O'zbekiston davlatchiligi tarixi” asarida ushbu davrni mansablar va unvonlar tizimi, yer egaligi hamda soliq siyosati nuqtai nazaridan alohida tahlil qiladi.

Amir Temur va Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) O'zbekiston davlatchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvining huquqiy-axloqiy asoslarini o'zida mujassam etgan hujjat sifatida baholanadi, unda davlat boshqaruvi tamoyillari, mansabdor shaxslarning mas'uliyati va qonuniylik masalalari bayon etilgan.

2. Davlat boshqaruvi tizimi sifatida: A.S. Sagdullaev va O'.M. Mavlonov yondashuvi

Agar B.J. Eshov davlatchilikni yaxlit tarixiy jarayon sifatida o'rgansa, A.S.Sagdullaev va O'.M. Mavlonov o'z tadqiqotlarida bevosita boshqaruv tizimining o'ziga — uning tuzilmasi, funksiyalari va davrlar bo'yicha o'zgarishiga — e'tibor qaratadi. Ularning yondashuvi maqola uchun muhim metodologik asos beradi: davlat boshqaruvi tarixini alohida tadqiqot predmeti sifatida ajratib olish.

Bu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston hududidagi boshqaruv institutlarining evolyusiyasida uch xususiyatni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, markaziy va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi muvozanatning davriy o'zgarib turishi; ikkinchidan, boshqaruv apparatining kasbiylashuvi (devon tizimidan zamonaviy davlat xizmatigacha); uchinchidan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish an'analari (mahalla instituti) davlat tizimi bilan uzviy bog'liqligi.

3. Rossiya imperiyasi va sovet davri boshqaruv modellari

1917-yildan keyingi sovet davri O'zbekiston davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil topdi. B.J.Eshov o'zining keyingi nashrlarida ushbu davrni “sovet davri boshqaruvining mohiyati” nuqtai nazaridan alohida tahlil qiladi, uni qattiq markazlashgan, bir partiyaviy, ma'muriy-buyruqbozlik xarakteriga ega tizim sifatida baholaydi. Shu bilan birga, bu davrda zamonaviy davlat boshqaruvi uchun zarur bo'lgan ma'muriy tajriba va kadrlar tayyorlash tizimi shakllandi.

4. Mustaqillik davri: nazariy asos va konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi davlat boshqaruvi tarixida tubdan yangi davrni boshlab berdi. Ushbu bosqichni tahlil qilishda Sh.A.Saydullaevning davlat va huquq nazariyasiga oid ishlarida berilgan nazariy apparat muhim ahamiyatga ega. Sh.A. Saydullaev davlat funksiyalari, davlat mexanizmi va huquqiy davlat tushunchalarini umumnazariy jihatdan yoritarkan, bu tushunchalar aynan mustaqil O'zbekistondagi konstitutsiyaviy jarayonlarni baholash uchun zarur metodologik mezonlarni beradi.

Mahalla institutining davlat boshqaruvi tizimidagi o'zni qayta belgilanib, u fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida huquqiy maqom oldi — bu, A.S.Sagdullaev va O'.M.Mavlonov ta'kidlaganidek, an'anaviy davlatchilik elementlarining zamonaviy huquqiy tizimga integratsiyalashuviga yaqqol misoldir.

5. Yangi O'zbekiston: zamonaviy huquqiy davlat qurish jarayoni

2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi: hokimiyatlar taqsimoti tizimidagi muvozanat mustahkamlandi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi, inson huquqlari sohasidagi konstitutsiyaviy kafolatlar aniqlashtirildi. Sh. A. Saydullaev nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, bu jarayon davlat funksiyalarining ijtimoiy yo'nalishga tobora ko'proq burilishini aks ettiradi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil, xususan B.J. Eshov, A.S.Sagdullaev, O'.M.Mavlonov va Sh.A.Saydullaev tadqiqotlariga tayangan holda, shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu jarayonda an'anaviy davlatchilik institutlari bilan zamonaviy huquqiy davlat qurilishi tamoyillari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. B.J.Eshov ta'kidlagan ilk davlatchilikning iqtisodiy-ijtimoiy ildizlari, A.S.Sagdullaev va O'.M.Mavlonov ochib bergan boshqaruv institutlarining tuzilmaviy evolyusiyasi hamda Sh.A. Saydullaev asoslagan huquqiy davlat nazariyasi — uchalasi birgalikda mavzuni har tomonlama yoritish imkonini beradi.

Kelajakda davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, milliy an'analar bilan zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini uyg'unlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish ushbu jarayonning muvaffaqiyatli davom etishini ta'minlaydigan muhim omillar bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi (qadimgi davrlardan XIII asr boshlarigacha). Toshkent, 2009.
2. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012 (2-nashr — 2019).
3. Sagdullaev A.S., Mavlonov O'.M. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. — Toshkent: Akademiya, 2006.
4. Saydullaev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. — Toshkent: TDYU, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023.

UO'K 28-474

SOXTA SALAFIYLARNING TAVASSUL VA ISTIG'OSAGA OID DA'VOLARINING AHL AS-SUNNA AQIDASI ASOSIDA RAD ETILISHI

M.R.Nabijonov, o'qituvchi, Mir Arab oliy madrasasi, maqsadli tayanch doktorant, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada soxta "salafiy" da'vatchilarining (Ibn Abil-Izz, Ibn Taymiyya, Muhammad ibn Abdulvahhob) tavassul, istimdod va istig'osa amallarini inkor etib, ularni shirkda ayblashlari kalom va fiqh merosi asosida tanqidiy tahlil qilinadi. Qur'on, sahih hadislar va sahobalar amaliyotiga tayanib, shaxslar va amallar vositasida tavassul qilish joizligi hamda u "o'likdan so'rash" emas, balki Allohning maqbul bandalari martabasi orqali yolg'iz Allohdan so'rash ekani ilmiy dalillanadi. Faxriddin Roziy, Taftazoniy, Ibn Hajar al-Haytamiy kabi ulamolarning matnlari asosida, Payg'ambarimiz alayhissalom va solihlar bilan tavassul qilish Ahl as-Sunnaning uzluksiz ijmoiy amaliyoti ekani, unga muxolif fatvolar esa tarixiy manbalarda xurofot va ijmo'ga zid yo'l sifatida baholangani isbotlanadi.

Kalit so'zlar: tavassul; istig'osa; soxta salafiyalar; Ibn Taymiyya; Ahl as-sunna val-jamoa; kalom ilmi; shirk da'vosi; ijmo'.

Аннотация. В статье на основе наследия калама и фикха критически анализируются утверждения псевдосалафитских проповедников (Ибн Таймийи и др.), отрицающих практику тавассуля, истимдада и истигасы и обвиняющих мусульман в ширке. Опираясь на Коран, достоверные хадисы и практику сподвижников, доказывается дозволенность тавассуля, который является не «просьбой к мертвым», а мольбой исключительно к Аллаху посредством высокого статуса Его праведных рабов. Через анализ трудов авторитетных ученых (ар-

Рази, ат-Тафтазани, аль-Хайтами) показано, что тавассуль посредством Пророка (мир ему) и праведников представляет собой непрерывный консенсус (иджма) Ахль ас-Сунна, тогда как фетвы Ибн Таймийи оцениваются в исторических источниках как отклонение от авторитетного пути.

Ключевые слова: тавассуль; истигаса; псевдосалафиты; Ибн Таймия; Ахль ас-Сунна валь-Джамаа; наука калам; обвинение в ширке; иджма.

Abstract. This article critically analyzes the claims of pseudo-Salafi preachers (Ibn Taymiyyah, etc.) who deny the practices of tawassul, istimdad, and istighatha, accusing practitioners of shirk. Based on the heritage of Kalam and Fiqh, Quranic verses, authentic Hadiths, and the continuous practices of the Companions, the study proves the permissibility of tawassul. It demonstrates that tawassul is not "asking the dead for help," but supplicating solely to Allah through the honorable rank of His righteous servants. By analyzing the works of renowned scholars (al-Razi, al-Taftazani, al-Haytami), the article establishes that tawassul through the Prophet (PBUH) and righteous figures is the continuous consensus (Ijma) of Ahl al-Sunnah, while the unconventional fatwas of Ibn Taymiyyah are historically evaluated as deviations.

Key words: tawassul; istighatha; pseudo-Salafis; Ibn Taymiyyah; Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah; science of Kalam; accusation of shirk; Ijma (consensus).

Tavassul, istig'osa va istimdod masalalari islom aqidasi azaldan turli xil yondashuvlarga sabab bo'lib kelayotgan dolzarb mavzulardandir. Bu boradagi ilmiy bahslarning asosiy manbasi Qur'ondagi "vasila" tushunchasi, sahih hadislar hamda sahobalar amaliyotiga borib taqaladi.

Bir tomonda ushbu amallarni tarixiy meros va ko'plab ulamolarning xulosalariga asoslangan holda joiz sanovchi an'anaviy qarashlar mavjud. Ikkinchi tomonda esa, bunga ziddiyatli yondashib, mazkur amallarni shirk yoki bid'at deb baholovchi oqimlar turadi.

Soxta salafiylarning da'vatchilaridan bo'lgan Ibn Abil-Izz payg'ambarlar va avliyolar bilan tavassul qilishni inkor etgan. Bundan tashqari Ibn Taymiyaga ergashib Ibn Abdulvahhob ham tavassul, istimdod va isteg'osani inkor qilib, kim shu amallar bilan mashg'ul bo'lsa uni kofirga chiqargan.[1]

Ahli sunna val-jamoa ulomalarining tavassul va istig'osa masalalariga oid qarashlari, xususan, Muhammad Zohid Kavariyning "Mahq at-tavvul fi mas'ala at-tavassul" asari asosida ilmiy-teologik jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Kavariyning ta'kidlashicha, ba'zi radikal oqimlar (hashviylar va soxta salafiylar) tomonidan tavassulni inkor etish hamda bu amallarni shirkka nisbat berish asossiz bo'lib, bunday yondashuv tarixan ma'lum g'arazli maqsadlarga xizmat qilgan. Aslida, tavassulning shariatdagi qonuniyligi Qur'oni karim oyatlari, sahih hadislar, sahobalar amaliyoti va qat'iy aqliy dalillar bilan to'liq sobit bo'lgan.

Qur'oni karimdagi **"Unga (Allohga) vasila izlanglar"** (Moida surasi, 35-oyat) amri umumiy qoida bo'lib, ham solih amallar, ham shaxslar orqali vasila qilishni o'z ichiga oladi. Sahobalar amaliyotida, xususan, Umar roziyallohu anhunging istisqo namozida Abbos roziyallohu anhuni vasila qilganlari mazkur oyatning amaliy tasdig'i hisoblanadi. Shuningdek, Usmon ibn Hanif roziyallohu anhu rivoyat qilgan ko'zi ojiz kishining hadisidagi *"Ey Muhammad! Men siz orqali Robbimga yuzlandim"* ko'rinishidagi nido ham shaxslar bilan tavassul qilishning ochiq-oydin isbotidir. Ushbu o'rinda vasila qilinayotgan zotning tirik yoki vafot etganligi o'rtasida farq belgilash islom aqidasi ziddir. Zero, bunday yondashuv ruhning barzaxdagi davomiyligini inkor etishdek noto'g'ri aqidaviy xulosani keltirib chiqaradi.

Islom aqidasi fundamental qoidasiga ko'ra, haqiqiy yordam va madad faqatgina barcha sabablarni yuzaga keltiruvchi (*Musabbibul asbob*) – Yagona Allohdan ekanligiga qat'iy e'tiqod qilinadi. Tavassul – vasila qilinayotgan shaxsni mustaqil ta'sir kuchiga ega deb bilish emas, balki Alloh dargohida maqbul bo'lgan zotlar martabasi orqali Uning o'zidan madad so'rashdir. Shu sababli, Faxriddin Roziy, Sa'diddin Taftazoniy va Sayyid Sharif Jurjoniy kabi kalom ilmining yirik mutafakkirlari payg'ambarlar va solih zotlar bilan tavassul qilishning joizligini va bu amal sof tavhidga mutlaqo zid emasligini e'tirof etganlar.

Tavassul va istig'osa amaliyoti to Ibn Taymiyya tomonidan inkor etilib, "bid'at" degan tushuncha kiritilguniga qadar butun ummatning uzluksiz ijmoiy amaliyoti hisoblanib kelgan. Tarixiy manbalar, xususan, Abu Abdulloh at-Tilimsoniyning (vaf. 683-yil) "Misbohu-z-zolam fil-mustag'isina bi-xoyril-anam" kabi asarlari Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam va solihlar vositasida tavassul qilish Ahli sunna val-jamoa an'anasining ajralmas qismi ekanini ilmiy va amaliy jihatdan to'liq tasdiqlaydi.[2]

Shayx Abul Fazl al-Kandahariy o'zining "Sayf al-kandahoriy ala unuqi as-salafiy" asarida tavassul masalasini chuqur tahlil qilib, uning islom ummati tarixida Tojuddin Subkiy kabi olimlar tomonidan e'tirof etilgan uzluksiz an'ana (ijmo') ekanini ta'kidlaydi. Bu amaliyot to Ibn Taymiyya uni shirkka chiqarib, payg'ambarlar maqomini pasaytirilguniga qadar davom etgan. Asarda "tavassul"ning o'zagi bo'lgan "vasiyla" so'zi etimologik jihatdan "qurbat" (yaqinlik) va "vositachi" kabi ma'nolarni anglatishi, aqidaviy ziddiyatlar esa asosan ushbu tushunchaning shaxslarga nisbatan vosita sifatida qo'llanishi atrofida yuzaga kelgani bayon qilinadi.

Ahli sunna val-jamoa e'tiqodiga ko'ra, muborak zotlar orqali Allohga yaqinlik izlash ularning hayotligida ham, vafotidan keyin ham mutlaqo joizdir. Kandahariy muxolif oqimlarning "vafot etganlar hech narsaga yaramaydi" degan da'vosini va tavassulni shirk deb baholashini qat'iy rad etadi. Muallif teologik jihatdan solih zotlarning darajasi o'lim tufayli pasaymasligini, aksincha, ularning Alloh huzuridagi qurbati va maqomi yanada yuksalishini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, asarda Alloh taologa solih amallar orqali tavassul qilish barcha ulamolalar tomonidan ittifoqan joiz sanalishi alohida qayd etiladi. Bu qat'iy ruxsatga Moida surasining 35-oyatidagi "Unga vasiyla izlanglar" degan ilohiy amr hamda Imom Buxoriy rivoyat qilgan, uch kishining o'z solih amallari sababli qulab tushgan toshdan (g'ordan) najot topgani haqidagi mashhur hadis yorqin dalil sifatida keltiriladi.[3]

Hamdulloh ad-Dojaviy o'zining "Al-Basoir" asarida tavassulni shirk va kufrga chiqaruvchi radikal qarashlarni keskin rad etadi. Olimning ta'kidlashicha, tavassul qiluvchi shaxs ehtiyojni vosita qilinayotgan bandaning (payg'ambar yoki avliyoning) o'zi ravo qiladi, degan e'tiqodda mutlaqo bo'lmaydi. Aksincha, bu amal bandaning o'zini ma'siyatlari sababli noloyiq sanab, Alloh huzurida yuksak maqomga ega zotlarning qadri vositasida yolg'iz Parvardigordan madad so'rashidir. Hojatlarni ravo qilish mutlaq Yagona Alloh (Musabbibul asbob) ixtiyorida ekanligiga ishonish tavassulning asl mohiyatidir.

Asarda muxoliflarning tavassulda "tiriklar bilan joiz, o'liklar bilan nojoiz" degan farqlashi mantiqan va aqidaviy jihatdan asossiz ekani dalillanadi. Dojaviyga ko'ra, bunday ayirma qilish jismonan tirik insonga mustaqil ta'sir kuchi nisbat berishga (shirkka) olib keladi. Vaholanki, Islom aqidasi tirikning ham, vafot etganining ham mustaqil ilohiy qudrati yo'qdir. Tavassulda vosita qilinayotgan zotning jismoniy hayotda bor-yo'qligi emas, balki uning Alloh nazdidagi yuksak martabasi asos qilib olinadi. Muallif tavassulni inkor etuvchilarning asosiy dalili – Umar roziyallohu anhuning istisqo namozida Rasulullohni emas, Abbos roziyallohu anhuni vasila qilganliklari masalasiga qat'iy ilmiy yechim beradi. Bu holat istisqo marosimining sahroga jamoat bo'lib chiqishdek amaliy-logistik tabiati bilan izohlanadi. Vafot etgan zotlar barzaxda bo'lganligi sababli tiriklar bilan bir safda jismonan tura olmaydilar. Aynan shu amaliy hozirlik talabi tufayli istisqoda hayot bo'lgan zot vasila qilingan. Boshqa barcha o'rinlarda tirik va vafot etganlar orqali tavassul qilish birdek joiz bo'lib, bu asriy ijmoni inkor etish tarixiy xurofot va adashish sifatida baholanadi.[4]

Imom Ibn Hajar al-Haytamiyning "Al-Javhar al-munazzam" asarida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam vositasida tavassul va istig'osa qilishni inkor etish Islom ulamolari tarixida avval kuzatilmagan asossiz fatvo va xurofot sifatida baholanadi. Ahli sunna val-jamoa e'tiqodiga ko'ra, Rasululloh orqali u zot yaratilishlaridan oldin (Imom Hokim rivoyat qilgan Odam alayhissalomning duosi kabi), hayotlik chog'larida va vafotlaridan keyin ham tavassul qilish mutlaqo joiz va maqbul amaldir. Asarda tavassulning teologik mohiyati oydinlashtirilib, duodagi "haqi hurmati" iborasi Alloh zimmasidagi majburiyatni emas, balki vosita qilinayotgan zotning Parvardigor huzuridagi yuksak qadr-qimmatini anglatishi uqtiriladi. Tavassul – bandaning bevosita vositachidan emas, balki uning martabasini sabab qilib Yagona Allohning O'zidan madad so'rashidir. Shu bois, maqbul zotlarni vosita qilishni shirkka tenglashtirish ilmiy va shar'iy xato bo'lib, uni inkor etish ana shu ilohiy barakadan mahrum bo'lish demakdir.[5]

Mazkur maqolada tavassul, istig'osa va istimdod masalalarining kalom va fiqh merosi asosidagi talqini, xususan, ayrim oqimlar tomonidan ularning shirk yoki bid'at deb baholanishi tanqidiy tahlil qilindi. Qur'on oyatlari, sahih hadislar va sahobalar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tavassulni mutlaqo inkor etish ham, uni chek-chegarasiz qabul qilish ham tarixiy dalillar ko'lamini to'liq qamrab olmaydi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, bu boradagi haqiqiy ilmiy yondashuv islom aqidasiining asosiy tamoyili bo'lgan sof tavhidni qat'iy e'tirof etishni hamda mo'tabar ulamolar amaliyotini xolis tahlil qilishni taqozo etadi. Hojatlarni ravo qilish faqat Allohga xos ekanligini anglagan holda, tarixiy qonuniyatlarga asoslangan amallarni asossiz ravishda kufrga chiqarishdan saqlanish lozim. Shu bois, tavassulga doir bahslarni hissiyot va radikal tamg'alar (takfir va bid'atga chiqarish) orqali emas, balki manbalarni qiyosiy o'rganish hamda o'zaro ilmiy muloqot orqali olib borish zarur. Bunday mo'tadil yondashuv keskin ziddiyatlarni yumshatib, musulmon jamiyatida ijtimoiy birlik va sog'lom akademik muhokama muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammad Orif Muborakfuriiy "Al-asiyda as-samaviyya sharh aqida at-tahoviyya". – Janubiy Afrika. Darul ulum Zakariyya. 2020.
2. Muhammad Zohid Kavariy. "Mahq at-tavvul fi masala at-tavassul". – Qohira. Maktaba al-azhariyya litturos. 2006.
3. Shayx Abul Fazl Alloma Muhammad Ubaydulloh al-Kandahariy an-Naqshbandiy al-Ayyubiy al-Hanafiy. "Sayf al-Kandahoriy 'ala 'unuqi as-salafiy". – Pokiston. Ahli sunna val jamoa.
4. Hamdulloh ad-Dojaviy. "Al-Basoir limunkar at-tavassul bi ahliil maqobir". – Turkiya. "Maktabatul-haqiqah". 2016. – 417 b.
5. Shayx Yusuf ibn Ismoil Nabahoniy. "Shavahid al-haq fi isteg'osa bisayyid al-xolq". – Bayrut. Dor al-kutub al-ilmiyya. 1971.
6. Botirjon Tojiboev, Yunusxon Mamarasulov "Salafiy"larga ilmiy raddiyalar [Matn]. – Toshkent: Azon kitoblari, 2021.
7. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. – T.: Matbaachi nashriyoti, 2023. – 407 b.

UO'K 745.52(575.1)

SURXON VOHASI AN'ANAVIY KASHTACHILIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINING O'RNI: IP TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI VA RAMZIY BEZAKLAR

D.M.Narbaveva, tayanch doktorant, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
ORCID: 0000-0000-6241-3968

Annotatsiya. Maqolada Surxon vohasi an'anaviy kashtachiligida chorvachilik mahsulotlaridan foydalanishning tarixiy-etnografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Jun tolalaridan ip tayyorlash, ularni qayta ishlash, bo'yash va kashta tikishda qo'llash jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, kashtalardagi ramziy bezaklarning mazmuni, shakllanish omillari hamda ularning mahalliy madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot hunarmandchilik an'analarining avlodlararo uzatilishi va transformatsiyasini ham ko'rsatadi. Jarayonlarning tarixiy davomiyligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: voha, kashtachilik, chorvachilik, jun, ip, ramzlar, bezaklar.

Аннотация. В статье анализируются историко-этнографические особенности использования продуктов животноводства в традиционной вышивке Сурхандарьинского оазиса. Освещаются процессы изготовления нитей из шерстяных волокон, их обработки, окрашивания и применения в вышивке. Также раскрываются содержание символических орнаментов, факторы их формирования и связь с местными культурными ценностями. Исследование показывает межпоколенческую передачу и трансформацию традиций ремесла, а также определяет их историческую преемственность.

Ключевые слова: оазис, вышивка, животноводство, шерсть, нить, символы, орнаменты.

Abstract. The article analyzes the historical and ethnographic characteristics of the use of livestock products in traditional embroidery of the Surkhan oasis. It examines the processes of producing yarn from wool fibers, their processing, dyeing, and application in embroidery. The study also reveals the meaning of symbolic ornaments, factors of their formation, and their relationship

with local cultural values. Furthermore, the research highlights the intergenerational transmission and transformation of handicraft traditions, identifying their historical continuity.

Key words: *oasis, embroidery, livestock, wool, yarn, symbols, ornaments.*

Kirish. Surxon vohasi O'zbekistonning tarixiy-madaniy jihatdan o'ziga xos hududlaridan biri bo'lib, uning an'anaviy hunarmandchiligi mahalliy aholining xo'jalik faoliyati, tabiiy-geografik muhiti, turmush tarzi, estetik qarashlari va marosimiy an'analari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. O'troq dehqonchilik, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik madaniyatlarining o'zaro ta'siri vohaning amaliy san'atida, xususan, to'qimachilik, gilamchilik, kigizchilik va kashtachilikda o'ziga xos material, texnologik hamda badiiy an'analarning qaror topishiga zamin yaratgan. Shu jihatdan jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari nafaqat xo'jalik ehtiyojlarini ta'minlovchi xomashyo, balki mahalliy hunarmandchilikning moddiy va madaniy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Surxon vohasining an'anaviy kashtachiligi mazkur jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni faqat dekorativ san'at namunasi sifatida baholash uning tarixiy va etnomadaniy mazmunini to'liq ochib bermaydi. Kashta kundalik turmush, oilaviy munosabatlar, to'y marosimlari, kelin sepi va avlodlar davomiyligi bilan bog'liq holda shakllangan. Mahalliy etnografik ma'lumotlarda kashtachilik ko'nikmalarining oilada, shuningdek, ustoz-shogird an'anasi orqali avloddan avlodga o'tkazilgani qayd etiladi. Boysun hududida kashtachilik va jun gilamchilikning birgalikda rivojlangani, hunarlarning asosan ayollar faoliyati bilan bog'liqligi ham ushbu an'ananing ijtimoiy asoslarini ko'rsatadi.

Kashtachilikning moddiy asosini tashkil etgan iplarning kelib chiqishi va tayyorlanish texnologiyasi chorvachilik bilan hunarmandchilik o'rtasidagi uzviy aloqani yaqqol namoyon etadi. Dala ma'lumotlariga ko'ra, kashta tikishda ipak va jun iplaridan foydalanilgan, jun esa qo'y va echkidan olinadigan mahalliy xomashyo sifatida qadrlangan. Boysun hududida qorako'l qo'ylarining yumshoq juni va tog' echkilarining juni alohida ahamiyat kasb etgani qayd etilgan. Junni yuvish, tarash va qo'lda yigirish orqali ipga aylantirish esa chorvachilik mahsulotini tayyor hunarmandchilik xomashyosiga aylantiruvchi an'anaviy texnologik jarayonni tashkil etgan.

Jun faqat kashta uchun emas, balki gilam, kigiz, arqon va boshqa maishiy buyumlar tayyorlashda ham keng ishlatilgan. Uning pishiqligi, issiqlikni saqlashi va mahalliy sharoitda mavjudligi chorvachilik mahsulotlarini hunarmandchilik tizimining muhim resursiga aylantirgan. Natijada chorvachilik xo'jaligi bilan bog'liq xomashyo tayyorlash tajribasi hunarmandchilik ko'nikmalari bilan uyg'unlashib, oilaviy va avlodlararo mehnat taqsimotining muhim shakllaridan birini yuzaga keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiy-etnografik, qiyosiy-tarixiy, tipologik va semiotik tahlil metodlariga asoslanadi. Surxon vohasining Boysun, Sherobod, Denov va Muzrobod hududlarida to'plangan dala materiallari, hunarmandlar bilan suhbatlar, etnografik kuzatuvlar hamda mavjud kashtachilik namunalari tadqiqotning empirik manbasini tashkil etadi. Tadqiqotda junni yig'ish, tozalash, tarash, yigirish va ip sifatida qo'llash jarayonlari, shuningdek, kashta ornamentlarining shakliy va ramziy xususiyatlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid manbalar Surxon vohasi moddiy madaniyati, an'anaviy hunarmandchiligi va kashtachilik tarixini o'rganishda muhim ilmiy asos yaratadi. Ayniqsa, jun to'qimachiligi va ornamentikasiga oid tadqiqotlar xomashyo, texnologiya hamda ramziy bezaklarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Dala materiallari esa mahalliy kashtachilikning avlodlararo uzatilishi, jun iplaridan foydalanish va ramzlarning marosimiy mazmunini aniqlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasi an'anaviy kashtachiligini tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur hunarmandchilik turi vohaning xo'jalik hayoti, tabiiy muhiti va etnomadaniy an'analari bilan uzviy bog'langan holda rivojlangan. Kashtachilikning shakllanishida mahalliy xomashyo, ayniqsa chorvachilik mahsulotlaridan foydalanish tajribasi muhim omillardan biri bo'lgan. Shu bilan birga, kashtachilikni bevosita faqat jun mahsulotlari bilan bog'lash to'g'ri emas: Surxon vohasida kashta uchun ipak va boshqa tolalardan tayyorlangan iplar ham qo'llanilgan. Demak, chorvachilik mahsulotlarining ahamiyati kashtachilikning umumiy xomashyo tizimidagi

o'zni, jun iplaridan foydalanish an'anasi va kashtachilik bilan yonma-yon rivojlangan jun to'qimachiligi orqali namoyon bo'ladi. Vohada kashtachilikning iqlim, tabiiy-geografik sharoit va urug'-qabila an'analari bilan bog'liq holda turli mahalliy ko'rinishlarga ega bo'lgani ilmiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Tadqiqot materiallari asosida aniqlanishicha, chorvachilik mahsulotlari ichida qo'y juni alohida xo'jalik va hunarmandchilik ahamiyatiga ega bo'lgan. Boysun hududidagi dala ma'lumotlarida qorako'l qo'ylarining yumshoq juni va tog' echkilarining juni qadrlangani, jun gilam to'qish va boshqa hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashda foydalanilgani ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar chorvachilik va hunarmandchilikning bir-biridan ajralmagan xo'jalik tizimini tashkil etganini ko'rsatadi. Chorvadan olingan xomashyo tayyor mahsulotga aylantirilishi jarayonida ayollar mehnati, oilaviy tajriba va avlodlararo bilim uzatish mexanizmlari muhim rol o'ynagan. Boysunlik hunarmandning kashtachilik va jun gilam to'qish hunarini buvisidan o'rganganligi va uni to'rtinchi avlod vakili sifatida davom ettirayotgani ushbu an'ananing genealogik uzluksizligini ko'rsatadi.

Jun xomashyosining hunarmandchilik materialiga aylanishi muayyan texnologik jarayonni talab qilgan. Dala ma'lumotlarida junni yuvish, tarash va qo'lda yigirish orqali ip tayyorlash amaliyoti qayd etilgan. Kuzda qirqilgan jun uzunroq va pishiqroq bo'lgani sababli sifatli mahsulot tayyorlashda afzal ko'rilgan. Mazkur jarayonni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ip tayyorlash oddiy texnik amal emas, balki mahalliy hunarmandlarning xomashyoning sifatini aniqlash, uni qayta ishlash va undan foydalanish bo'yicha ko'p avlodlik tajribasini aks ettiruvchi texnologik bilimlar majmuasi bo'lgan. Junni tabiiy holatidan hunarmandchilik materialiga darajasiga olib chiqish jarayoni chorvachilik mahsulotining iqtisodiy qiymatini oshirib, uni oilaviy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismiga aylantirgan.

Jun iplaridan foydalanishning yana bir muhim jihati ularning kashtachilik bilan bog'liq boshqa hunarmandchilik turlari bilan texnologik jihatdan yaqinligidir. Surxon vohasida jun asosida gilam va boshqa to'qimachilik buyumlarining tayyorlanishi kashta tikish bilan bir xil madaniy muhitda rivojlangan. Shu sababli kashtachilikni alohida hodisa sifatida emas, balki vohaning umumiy to'qimachilik va amaliy san'at tizimining tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham Surxon kashtachiligi so'zana, zardevor, g'o'lko'rpa, choyshab kabi buyumlar bilan bir qatorda o'rganilib, uning mahalliy rang, naqsh, chok va kompozitsion xususiyatlari alohida ta'kidlanadi.

Tahlil natijalari kashta iplarining tarkibi tarixiy davr va mahsulot turiga qarab o'zgarib borganini ham ko'rsatadi. Mahalliy dala ma'lumotlarida kashta tikishda ipak va jun iplaridan foydalanilgani qayd etilgan. Demak, Surxon kashtachiligida xomashyo tanlovi bir xil bo'lmagan; tabiiy jun bilan bir qatorda ipak va keyingi davrlarda boshqa tayyor sanoat iplarining qo'llanilishi hunarmandchilikning tashqi iqtisodiy va texnologik muhit bilan aloqasini kuchaytirgan. Bu jarayon an'anaviy kashtachilikning butunlay o'zgarganini emas, balki uning moddiy bazasi yangilanib, an'anaviy badiiy kompozitsiyalar yangi materiallar orqali davom ettirilganini anglatadi.

Kashtachilikning tarixiy rivojlanishida bezak va ramzlar alohida o'rin egallaydi. Surxon vohasi kashtalarida geometrik, o'simliksimon, zoomorf va kosmologik mazmundagi obrazlarning uchrashi ularning oddiy estetik bezak emas, balki muayyan dunyoqarash va qadriyatlarni ifodalovchi semiotik tizim bo'lganini ko'rsatadi. Mahalliy materiallarda anor serfarzandlik va baraka, bodom baxt va farovonlik, gullar hayot va go'zallik, quyoshsimon shakllar esa yorug'lik va ezgulik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bunday ramzlarning kashta kompozitsiyasida muntazam takrorlanishi xalqning farovonlik, oilaviy totuvlik, avlod davomiyligi va himoya haqidagi tasavvurlari badiiy shaklda ifodalanganidan dalolat beradi.

Geometrik naqshlar orasida rombsimon shakllarning alohida o'rin tutishi ham e'tiborga loyiq. Tadqiqot materiallarida romb unumdorlik, nasl davomiyligi va baraka bilan bog'langan ramz sifatida talqin qilinadi; chorvachilik madaniyati doirasida esa uning ko'payish va sarmahsullik tushunchalari bilan aloqasi qayd etiladi. Bu holat kashta ornamentlari bilan vohaning xo'jalik tajribasi o'rtasida semantik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, chorvachilik faqat kashta tayyorlash uchun xomashyo manbai bo'lib qolmay, uning ramziy mazmuniga ham bilvosita ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Surxon vohasi an'anaviy kashtachiligida chorvachilik mahsulotlari, xususan qo'y va echki junining muhim xomashyo manbai bo'lganini ko'rsatdi. Junni yuvish, tarash va qo'lda yigirish orqali ip tayyorlash mahalliy hunarmandchilik tajribasining muhim tarkibini tashkil etgan. Kashta naqshlaridagi geometrik, o'simliksimon, zoomorf va kosmologik ramzlar esa voha aholisining baraka, farovonlik, himoya, avlod davomiyligi va ezgulik haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Shunday qilib, Surxon kashtachiligi chorvachilik xo'jaligi, hunarmandchilik texnologiyasi va xalqning ma'naviy-estetik qarashlarini birlashtirgan muhim tarixiy-madaniy meros sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov S., Pardayev T., Payg'amov A., Narzullayeva N. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2013.
2. Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
3. Mamatova F.I., Turdiyeva Sh.E. Surxon vohasida kashtachilik san'atining tarixiga nazar // Synapses: Insights Across the Disciplines. – 2025.
4. Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). – Toshkent: Yangi nashr, 2014.
5. Qobulov E. Surxon vohasi xo'jaligi (XVIII–XX asr boshlarida). – Toshkent: Akademnashr, 2012.

UO'K 908

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASINING SUG'ORISH VA MELIORATSIYA TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI

I.E.Qodirov, tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanish jarayonlari tarixiy izchillik va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sug'orish inshootlari va kollektor-drenaj tarmoqlarining texnik holati, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari, davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'larining yo'naltirilishi, zamonaviy texnikalarni joriy etish hamda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, melioratsiya va irrigatsiya tizimining takomillashuvi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, xususan, paxta, g'alla, sabzavotchilik rivojida ahamiyati ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, agrar soha, sug'orish, irrigatsiya, melioratsiya, kollektor-drenaj, suv resurslari, fermer xo'jaligi, tomchilatib sug'orish, suv tejovchi texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, davlat dasturi.

Аннотация. В статье на основе принципов исторической последовательности и системного подхода анализируются процессы развития системы орошения и мелиорации в Кашкадарьинской области в годы независимости. Особое внимание уделяется техническому состоянию оросительных сооружений и коллекторно-дренажных сетей, государственным программам, направленным на улучшение мелиоративного состояния орошаемых земель, направлению средств государственного бюджета и международных финансовых институтов, внедрению современной техники, а также использованию водосберегающих технологий. В статье раскрываются исторические особенности и практические результаты модернизации ирригационной и мелиоративной инфраструктуры Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, аграрная сфера, орошение, ирригация, мелиорация, коллекторно-дренажная система, водные ресурсы, фермерское хозяйство, капельное орошение, водосберегающие технологии, сельское хозяйство, государственная программа, сельскохозяйственное производство.

Abstract. This article analyzes the development of irrigation and land reclamation systems in the Kashkadarya region during the years of independence based on historical consistency and a systematic approach. The study focuses on the technical condition of irrigation facilities and collector-drainage networks, state programs aimed at improving the reclamation condition of irrigated lands, the allocation of state budget and international financial institution funds, the

introduction of modern equipment, and the implementation of water-saving technologies. Particular attention is also paid to the impact of improvements in irrigation and land reclamation systems on agricultural production, especially the development of cotton, grain production, and vegetable farming. The study provides a scientific assessment of the historical processes and practical outcomes associated with the modernization of irrigation and land reclamation infrastructure in the Kashkadarya region.

Keywords: *Kashkadarya, agricultural sector, irrigation, land reclamation, collector-drainage system, water resources, farming, drip irrigation, water-saving technologies, agriculture, state program, agricultural production.*

Kirish: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish jarayonida sug'orish va melioratsiya tizimini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi sug'orish infratuzilmasining texnik holati, yerlarning meliorativ holati hamda suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

Mazkur davrda sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, kollektor-drenaj tizimlarini takomillashtirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, keyingi bosqichda suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish irrigatsiya siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Shu bilan birga, mazkur tizimda amalga oshirilgan islohotlarning hududiy xususiyatlari hamda ularning agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyatini kompleks tahlil etish zarurati yuzaga keldi. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida sug'orish va melioratsiya tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlarni tarixiy izchillik va tizimli yondashuv asosida o'rganish, ularning qishloq xo'jaligi rivojiga ta'sirini ilmiy jihatdan baholash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: O'zbekistonda sug'orish va melioratsiya sohasi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan agrar siyosat, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan foydalanish va irrigatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalalarini umumiy yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati misolida sug'orish va melioratsiya tizimining tarixiy rivojlanishi, amalga oshirilgan davlat dasturlarining hududiy xususiyatlari hamda ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'siri yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan.

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va qarorlari, hukumat tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari, Qashqadaryo viloyat davlat arxivi materiallari, hududiy matbuot nashrlari hamda soha mutaxassislari tomonidan tayyorlangan ilmiy va tahliliy materiallar asosiy manbalar sifatida tahlil qilindi. Adabiyotlar va manbalar tahlili asosida Qashqadaryo viloyatida sug'orish va melioratsiya tizimida amalga oshirilgan infratuzilmaviy, texnik va texnologik o'zgarishlarning mazmuni hamda ularning agrar soha rivojidagi ahamiyati yoritildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida sug'orish va melioratsiya tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlarni tarixiy va tizimli jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari tarixiylik, tizimlilik, izchillik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanib, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi jarayonlarning mustaqillikdan keyingi yangi davrda rivojlanishi agrar soha taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

Shuningdek, sug'orish infratuzilmasining takomillashuvi, yerlarning meliorativ holati hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini tizimli ravishda tadqiq etish orqali Qashqadaryo viloyatining mavjud qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada oshirish imkoniyatlariga doir ilmiy xulosalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot davomida mavjud manbalar o'zaro qiyoslanib, hududiy xususiyatlar umumlashtirildi hamda sug'orish va melioratsiya tizimining agrar soha rivojidagi o'rni ilmiy jihatdan baholandi.

Tahlil va natijalar: Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, avvalo, mavjud sug'orish infratuzilmasidan samarali foydalanish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Viloyat agrar ishlab chiqarishining sug'orma dehqonchilikka tayanishi sharoitida irrigatsiya tarmoqlarining texnik holati, kollektor-drenaj tizimlarining faoliyati hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi qishloq xo'jaligi taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki davridan boshlab suv xo'jaligi infratuzilmasini saqlash va bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish agrar siyosatning ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy oldi.

Sug'orish va melioratsiya tizimining mavjud holatini yaxshilash zarurati, eng avvalo, infratuzilmaning eskirishi va kollektor-drenaj tarmoqlarining texnik imkoniyatlari bilan bog'liq edi. Bu muammolarni bartaraf etish keyingi yillarda davlat dasturlari asosida tizimli tus oldi. Shu asnda 2013 yil 19 aprelda qabul qilingan "2013 – 2017 yillar davrida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"[5] gi hukumat qarori asosida 2015 yilga kelib viloyatda davlat budjeti mablag'lari hisobidan qiymati 131,25 milliard so'mlik 224 ta loyiha amalga oshirilib, 864,7 kilometr kollektorlarni qurish, rekonstruksiya qilish va tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi. Shu davrda 517,1 kilometr yangi kollektor qurilgan, 252,8 kilometr kollektor rekonstruksiya qilingan va 5094,8 kilometr kollektor tozalangan. Mazkur ko'rsatkichlar viloyatda meliorativ infratuzilmani rivojlantirish faqat mavjud tarmoqlarni saqlab qolish bilan cheklanmaganini, balki ularni bosqichma-bosqich qayta tashkil etish va texnik jihatdan yangilashga yo'naltirilganini ko'rsatadi. [6].

Sug'orish tizimining takomillashuvi qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibidagi ishlab chiqarish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatdi. 2016-yil 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda 1 066 110 tonna don, 175 282 tonna kartoshka, 505 407 tonna sabzavot, 140 797 tonna poliz, 130 041 tonna meva va 97 049 tonna uzum yetishtirilgan. Ayniqsa, kartoshka va meva ishlab chiqarishida oldingi davrga nisbatan yuqori o'sish kuzatilgani agrar ishlab chiqarishning faqat an'anaviy ekinlar bilan chegaralanib qolmay, mahsulot tarkibining kengayib borganini ko'rsatadi [1]. Demak, irrigatsiya imkoniyatlarining yaxshilanishi ekinlar tarkibini diversifikatsiya qilish uchun ham muhim shartlardan biri bo'lgan.

Mazkur jarayonni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy ko'rsatkichlari bilan qiyoslaganda, sug'orish va melioratsiya infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning agrar ishlab chiqarish uchun muhim tabiiy-iqtisodiy zamin yaratgani ko'rinadi. 2016-yilning birinchi yarmida viloyatda 1 trillion 682 milliard so'mlik yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 foizlik o'sishga erishilgan. [2]. Bu holat melioratsiya xarajatlarini faqat infratuzilmaga sarflanadigan mablag' sifatida emas, balki agrar ishlab chiqarishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi investitsiya sifatida baholash imkonini beradi.

Biroq an'anaviy irrigatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning o'zi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini to'liq ta'minlash imkonini bermadi. Qashqadaryo vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari, ekin maydonlarining hududiy jihatdan notekis shakllanishi hamda ularni uzoq masofalarga yetkazib berish zarurati suv yo'qotishlarini kamaytirish va sug'orish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy, suv tejovchi texnologiyalarni qishloq xo'jaligi amaliyotiga keng joriy etishni taqozo etdi. Shu jihatdan 2018 yil 27 dekabrda "Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar" to'g'risidagi Prezident farmoni bilan mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarning shakllantirilishi suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Ushbu siyosatning Qashqadaryo viloyatidagi amaliy ko'rinishlaridan biri 14 ta fermer xo'jaligining 346 gektar paxta maydonida tomchilatib sug'orish tizimining yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur loyihalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida ijrochi pudrat tashkilotlari 5 milliard 556 million so'm imtiyozli kredit bilan ta'minlanishi belgilangan bo'lib, uning 4 milliard 995 million so'mi hisob raqamlariga o'tkazilgan. Bu texnologiyalarning joriy etilishi natijasida suv sarfi 40 foizga tejalishi bilan bir qatorda barcha mineral o'g'itlarning suv bilan berilishi orqali texnika sarfi

birmuncha qisqardi. [3]. Keyingi yillarda ham viloyatda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejovchi sug'orish amaliyotini qo'llash jarayoni izchil davom etdi. Xususan, 2021-yilga kelib, viloyatda faoliyat yuritayotgan 400 dan ziyod fermer xo'jaliklari va klaster tashkilotlarining 10 ming gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish faoliyati yo'lga qo'yilib, mazkur yo'nalishning qishloq xo'jaligidagi qamrovi sezilarli darajada kengaydi. [4]. Bu jarayon suv tejovchi texnologiyalarning Qashqadaryoda nazariy yo'nalishdan amaliy ishlab chiqarish vositasiga aylana boshlaganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida sug'orish va melioratsiya tizimini takomillashtirish agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Sug'orish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kollektor-drenaj tarmoqlarini takomillashtirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bilan bir qatorda, keyingi bosqichda suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ustuvor ahamiyat berildi. Bu jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda viloyat qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashga xizmat qildi.

Kelgusida Qashqadaryo viloyatining tabiiy-iqlim va xo'jalik xususiyatlarini hisobga olgan holda suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, mavjud irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasini muntazam modernizatsiya qilish hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, fermer xo'jaliklarining zamonaviy sug'orish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirish, sohaga zamonaviy texnikalarni jalb etish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash irrigatsiya tizimining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – b.355
2. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 723-Fond, 1-Ro'yxat, 67-yj, 27-varaq
3. O'z muxbir. Tomchilatib sug'orish – tejamkorlik va hosildorlik omili // *O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi*. – 2019. – №10. – B. 15.
4. O'z muxbir. Tomchilatib sug'orish – hosildorlik garovi // *O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi*. – 2022. – №2. – B. 17.
5. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasining “2013 – 2017 yillar davrida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1958-son (2013-yil 19-aprel) Qarori.
6. Irrigatsiya va melioratsiya: tarmoqdagi bugungi tadbirlar ertangi hosil garovi bo'ladi // *Qashqadaryo haqiqati*. – 2016. – № 010 (15079). – 23 yanvar. – B.4.

UO'K 316.7

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY-MADANIY QADRIYATLAR MUAMMOSI

S.Rahmanova, stajer-o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining zamonaviy jamiyatga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda globallashuvning ijobiy jihatlari – texnologik taraqqiyot, axborot almashinuvi va iqtisodiy integratsiya bilan bir qatorda uning madaniy sohada yuzaga keltirayotgan muammolari ham yoritilgan. Jumladan, madaniy unifikatsiya, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi hamda milliy o'ziga xoslikning zaiflashuvi kabi jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash va ularni rivojlantirishning dolzarb ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari globallashuvning murakkab va ziddiyatli mohiyatini ochib berib, milliy madaniyatni asrash zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy-madaniy qadriyatlar, madaniy transformatsiya, ommaviy madaniyat, madaniy unifikatsiya, iste'molchilik madaniyati, ma'naviyat, identiklik, madaniy gegemonlik, axborot jamiyati, an'analar, madaniy meros

Аннотация. В данной статье научно анализируется влияние процессов глобализации на современное общество, в частности на систему национально-культурных ценностей. В исследовании освещаются позитивные аспекты глобализации – технологический прогресс, обмен информацией и экономическая интеграция, а также проблемы, которые она создает

в культурной сфере. В частности, анализируются такие процессы, как культурное объединение, распространение массовой культуры, усиление потребительства и ослабление национальной идентичности. Обосновывается также насущная важность сохранения и развития национально-культурных ценностей в контексте глобализации. Результаты исследования выявляют сложный и противоречивый характер глобализации и обосновывают необходимость сохранения национальной культуры.

Ключевые слова: глобализация, национально-культурные ценности, культурная трансформация, массовая культура, культурное объединение, потребительская культура, духовность, идентичность, культурная гегемония, информационное общество, традиции, культурное наследие

Abstract. This article scientifically analyzes the impact of globalization processes on modern society, in particular on the system of national-cultural values. The study highlights the positive aspects of globalization - technological progress, information exchange and economic integration, as well as the problems it creates in the cultural sphere. In particular, such processes as cultural unification, the spread of mass culture, the strengthening of consumerism and the weakening of national identity are analyzed. The urgent importance of preserving and developing national-cultural values in the context of globalization is also substantiated. The results of the study reveal the complex and contradictory nature of globalization and justify the need to preserve national culture.

Key words: globalization, national-cultural values, cultural transformation, mass culture, cultural unification, consumer culture, spirituality, identity, cultural hegemony, information society, traditions, cultural heritage.

Kirish. Hozirgi davrda “globallashuv” tushunchasi atrofida turli xil ilmiy va ijtimoiy qarashlar shakllanib, bu borada bahs-munozaralar davom etmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar globallashuvni kelajakdagi xalqaro fuqarolik jamiyatining shakllanishi, yangi dunyo tartibi hamda demokratik jarayonlarning kengayishi sifatida talqin etadilar. Boshqa bir yondashuvga ko’ra esa, globallashuv asosan G’arb davlatlari, xususan AQShning iqtisodiy va siyosiy ustunligi sifatida baholanib, uning natijasida butun dunyo madaniyatlarining birxillashuvi, “Disneylendlashuv” jarayoni yuz berayotganligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ushbu qarashlarning har biri ma’lum asosga ega bo’lsa-da, ular globallashuv jarayonining murakkab va ko’p qirrali mohiyatini to’liq ifoda eta olmaydi. Aslida, globallashuvning shakllanishiga turtki bo’lgan iqtisodiy va texnologik o’zgarishlar bir tomondan yirik ijobiy imkoniyatlarni yaratgan bo’lsa, ikkinchi tomondan qator ijtimoiy va siyosiy muammolarni ham yuzaga keltirdi. Xususan, globallashuv zamonaviy ilg’or texnologiyalar asosida ishlab chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish, tezkor kommunikatsiya va axborot almashinuvi vositalarining rivojlanishi, ilmiy-texnik ma’lumotlarni jamlash va tarqatish jarayonlarining takomillashuvi orqali mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlatlar o’rtasidagi o’zaro yaqinlashuvni kuchaytirib, jahon xo’jaligi tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirmoqda.

Biroq globallashuvning salbiy jihatlari ham mavjud bo’lib, ular orasida madaniy qadriyatlar, ayniqsa ma’naviy-axloqiy me’yorlarga bo’lgan munosabatdagi o’zgarishlar alohida e’tiborni talab etadi. Ushbu qadriyatlar har bir davlat, jumladan O’zbekiston uchun ham jamiyatning barqaror rivojlanishi, ma’naviy sog’lomligi hamda xalqaro maydonda munosib o’rin egallashining muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik hamda obyektivlik tamoyillaridan keng foydalanildi. Ma’lumki, globallashuv bilan bog’liq ziddiyatlar eng avvalo madaniy sohada yaqqol namoyon bo’lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, globallashuvni butun dunyo miqyosida kechayotgan madaniy transformatsiya, ya’ni madaniy inqilob jarayoni sifatida ham talqin qilish mumkin. Bu jarayon ayrim ilmiy manbalarda milliy madaniyatlarni o’zida qayta ishlovchi yirik “madaniy eritish qozoni”ga qiyoslanadi.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, asosiy nazariy savol yuzaga keladi: globallashuv tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga asoslangan obyektiv jarayonmi yoki u muayyan markazlar tomonidan ongli ravishda boshqarilayotgan hodisami? Hozirgi xalqaro tizimda kuchli va yetakchi davlatlar

sifatida asosan G'arb mamlakatlarining ustuvor mavqega ega ekani hamda bipolyar tizimning barham topishi natijasida ularning global miqyosda ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgani qayd etiladi.

Rossiyalik olim V. L. Inozemsevning fikricha, globallashuv jarayoni “umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yagona sivilizatsiyaning shakllanishi” sifatida emas, balki G'arbgacha xos ijtimoiy modelning kengayishi va dunyoning ushbu modelga moslashuvi sifatida namoyon bo'lmoqda[1]. Shu sababli zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “axborot neokolonializmi”, “axborot urushlari”, “madaniy imperializm”, “madaniy gegemonlik” hamda “axborot ekspansiyasi” kabi tushunchalarning keng qo'llanilishi bejiz emasligi ta'kidlanadi.

Shakllanib borayotgan global madaniyatning keng tarqalishi uchun xizmat qiluvchi bir qator asosiy vositalar mavjud bo'lib, mutaxassislar ularni to'rt yirik guruhga ajratadilar. Birinchi guruhni xalqaro miqyosdagi yetakchi siyosiy va biznes elita vakillarining madaniy muhiti tashkil etadi. S. Xantington bu muhitni “Davos madaniyati” deb nomlab, uni global iqtisodiy tizimda faol ishtirok etayotgan va muvaffaqiyatga intilayotgan qatlam orasida shakllanayotgan o'ziga xos madaniy model sifatida tavsiflaydi[2].

Ikkinchi yo'nalish sifatida G'arb, xususan Amerika ziyolilariga xos global intellektual madaniyat ko'rsatiladi. P. L. Berger bu jarayonni “intellektuallar klub madaniyati” deb ataydi. Ushbu madaniyat asosini G'arb akademik va intellektual muhitida shakllangan hamda keng targ'ib qilinayotgan g'oyalar va xulq-atvor me'yorlari tashkil etadi. Bunga inson huquqlari konsepsiyasining G'arbcha talqini, ekologik mas'uliyat, feminizm, gender tenglik kabi ideyalar hamda ularni aks ettiruvchi ijtimoiy va siyosiy amaliyotlar kiradi.

Uchinchi guruh turli shakldagi ommaviy ijtimoiy harakatlarni qamrab oladi. Ular qatoriga diniy-konfessional yo'nalishdagi harakatlar, ekologik tashkilotlar (masalan, “Grinpis”), feminizm harakati va boshqa transmilliy ijtimoiy faollik shakllari kiradi.

To'rtinchi va eng keng tarqalgan, shu bilan birga eng murakkab ta'sir vositasi sifatida ommaviy madaniyat ko'rsatiladi. U global madaniyatni keng jamoatchilik orasiga yoyishda muhim rol o'ynaydi va ayrim hollarda uning eng kuchli hamda bahsli tarqalish kanali sifatida baholanadi. Ushbu vositalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, global madaniyatning shakllanishi va tarqalishi murakkab tizimli jarayon sifatida maxsus ilmiy tahlilni talab etadi. Shu sababli, mazkur masala ushbu tadqiqot doirasida batafsil yoritilmaydi.

Globallashuv jarayonlarining muhim oqibatlaridan biri sifatida amerikacha model asosida madaniy birxillashtirish tendensiyasi hamda turli xalqlarga xos bo'lgan madaniy xilma-xillikni nisbatan inkor etgan holda yagona global madaniyatni shakllantirishga qaratilgan jarayonlar ma'lum darajada o'z natijasini ko'rsatmoqda. Bu borada amerikalik siyosatshunos Z. Bjezinskiy ta'kidlaganidek, madaniy ustunlik AQShning global miqyosdagi kuch-qudratining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Uning fikricha, ayrim jamiyatlar Amerika madaniyatining estetik qadriyatlariga turlicha munosabatda bo'lishiga qaramay, ayniqsa, uning ommaviy madaniyati yoshlar auditoriyasini kuchli darajada o'ziga jalb etadi. Bu jozibadorlik ko'pincha hayotdan zavqlanish falsafasi va turmush sifatini targ'ib etuvchi g'oyalar bilan izohlanadi. Shuningdek, Amerika kino va televideniye mahsulotlari jahon media bozorining katta qismini egallashi, ommabop musiqa, iste'mol madaniyati, kiyinish va ovqatlanish standartlarining global darajada keng tarqalishi ham ushbu ta'sirning yaqqol dalili sifatida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, internet muhitida ingliz tilining ustuvorligi va raqamli kommunikatsiya tizimlarida Amerika originli atamalar va platformalarning keng qo'llanilishi global axborot almashinuvining mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, AQSh zamonaviy ta'lim olish istagidagi yoshlar uchun muhim akademik markaz sifatida ham global “intellektual markaz” maqomiga ega bo'lib bormoqda.

Shunga o'xshash tarzda nemis sotsiologi U. Bek o'zining “Globallashuv nima?” asarida zamonaviy dunyoni faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar orqali emas, balki “madaniy siyosat”, “madaniy kapital”, “madaniy identiklik”, “madaniy gomogenlik”, shuningdek, etnik, irqiy va gender mansublik kabi tushunchalarni hisobga olmagan holda talqin qilishni ilmiy jihatdan asossiz yondashuv sifatida baholaydi. Uning fikricha, globallashuv jarayonlarini ushbu madaniy o'lchovlarni inobatga olmasdan tushuntirish mumkin degan qarashlar ilmiy nuqtayi nazardan jiddiy xatolik hisoblanadi[3].

Mazkur qarashlarga qisman qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki, keng miqyosda tarqalib borayotgan global madaniyat o'z kelib chiqishi va mazmun-mohiyatiga ko'ra ko'p hollarda amerikalashgan madaniy model bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holat jahon miqyosida kechayotgan o'zgarishlarning yagona yo'nalishini tashkil etmasa-da, uni inkor etish yoki e'tibordan chetda qoldirish jiddiy nazariy va amaliy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, madaniyatning muhim tarqalish vositalaridan biri bo'lgan til masalasiga e'tibor qaratilsa, bugungi kunda ingliz tili, aniqrog'i uning Amerika varianti global kommunikatsiya va madaniy almashinuvning asosiy vositasiga aylanib borayotganini kuzatish mumkin.

Shuningdek, globallashuv jarayonlarida ayrim "liberal" yondashuv tarafdorlari tomonidan "demokratiya" va "inson huquqlari" kabi umuminsoniy qadriyatlar niqobi ostida mahalliy madaniyatlar, an'anaviy ijtimoiy institutlar, axloqiy me'yorlar hamda milliy qadriyatlardan asta-sekin uzoqlashish tendensiyasi qo'llab-quvvatlanayotgani ta'kidlanadi. Natijada, milliy madaniyatlar o'rnini egallashga da'vogar bo'lgan "umumjahon madaniyati" ko'pincha ommaviy madaniyat shaklida namoyon bo'lmoqda. Bu madaniyat modeli amerikalashgan turmush tarzi, daromadni maksimal darajada oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy ratsionallik hamda "McDonald's" yoki "Coca-Cola" kabi transmilliy brendlar orqali ifodalanadigan iste'molga asoslangan qadriyatlar tizimi bilan tavsiflanadi. Shu sababli uni "iste'molchilik madaniyati" sifatida talqin etish mumkin.

Mazkur kontekstdagi "iste'mol", "iste'molchi" tushunchalari bilan "iste'molchilik madaniyati" va "iste'molchilik kayfiyati" kabi kategoriyalar o'rtasidagi metodologik farqni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Inson tabiatan iste'mol subyekti ekanligi inkor etilmaydi, biroq iste'molchilik madaniyati shaxsning ehtiyojlarini shakllantirishda asosan past darajadagi instinktlar va sun'iy rag'batlantirish mexanizmlariga tayanishi bilan ajralib turadi. Natijada iste'molchilik kayfiyati ustuvor bo'lgan individ ijtimoiy hodisalarni ko'proq utilitar, ya'ni foyda mezonlari asosida baholashga moyil bo'ladi. Bunday sharoitda esa ezgulik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi ma'naviy-axloqiy kategoriyalar ikkinchi darajali yoki ahamiyatsiz qadriyatlar sifatida talqin etilishi xavfi yuzaga keladi.

Inson faoliyatining mazmun-mohiyati, avvalo, shaxsning erkin ijodkor sifatida o'zini namoyon etishi, o'zining ichki ma'naviy olamini shakllantirishi hamda shu asosda jamiyatni insonparvarlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, iste'molchilik kayfiyati ustuvor bo'lgan ommaviy madaniyat shakli asl madaniy taraqqiyotning muhim mezonlariga zid bo'lib, uning tub mohiyatini buzishi, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini toraytirishi hamda uni faqat biologik ehtiyojlar doirasida yashovchi mavjudot darajasiga tushirish xavfini yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatning ijtimoiy ong darajasi pasayib, u ma'naviy jihatdan passiv ommaga aylanishi mumkinligi ta'kidlanadi.

YUNESKOning so'nggi yillarda nafaqat moddiy madaniy meros obyektlarini, balki turli xalqlarning nomoddiy madaniy boyliklari — urf-odatlar, an'analar va milliy qadriyatlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratayotgani ham ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi[4]. Global madaniy oqimlar, xususan G'arb ommaviy madaniyatining keng yoyilishi ayrim hollarda milliy madaniyatlarning o'zligini saqlashga intilishini kuchaytirib, madaniy qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, faqat yuksak ma'naviy asosga va ko'p asrlik madaniy merosga tayangan jamiyatlargina barqaror taraqqiyotga erisha olishi haqidagi xulosa tobora ilmiy jihatdan asoslanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab aynan ana shu tamoyilni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, milliy ma'naviyat va madaniy merosni saqlash hamda rivojlantirish strategiyasini tanlagan.

Turli millat va xalqlarning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy hamda estetik ideallari jamiyat hayotini tartibga soluvchi muhim qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga tayangan holda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish insonparvar jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi globallashuv sharoitida yetakchi mavqega ega bo'lishga intilayotgan ayrim davlatlar tomonidan moddiy manfaat va iste'molchilik ruhiyatiga asoslangan qadriyatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida targ'ib etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda mazkur g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirish hamda

milliy madaniy va ma'naviy ildizlarni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Globallashuv jarayonlari zamonaviy dunyo taraqqiyotining eng muhim va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hodisalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan fan-texnika yutuqlari, axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi va jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratib, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirmoqda. Ikkinchi tomondan esa globallashuv ijtimoiy, siyosiy va ayniqsa madaniy sohalarida murakkab ziddiyatlarni yuzaga keltirayotgani bilan ham ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonlari atrofida turli ilmiy va mafkuraviy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari uni demokratik qadriyatlar va xalqaro fuqarolik jamiyatining shakllanishi sifatida talqin etsa, boshqalari uni G'arb, xususan Amerika madaniy-siyosiy modelining global miqyosdagi kengayishi sifatida baholaydi. Natijada "madaniy gegemonlik", "madaniy imperializm", "axborot neokolonializmi" kabi tushunchalarning ilmiy muomalaga kirib kelishi globallashuvning murakkab va ziddiyatli mohiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, globallashuvning eng sezilarli oqibatlaridan biri sifatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlar, xususan, madaniy unifikatsiya jarayonlari va ommaviy madaniyatning keng yoyilishi qayd etiladi. Global madaniyatning shakllanishi asosan xalqaro siyosiy va iqtisodiy elita, G'arb intellektual doiralari, transmilliy ijtimoiy harakatlar hamda ommaviy madaniyat kanallari orqali amalga oshmoqda. Bu jarayonda ingliz tili global kommunikatsiya vositasiga aylanishi, ommaviy axborot va internet makonida G'arb ta'sirining ustunligi ham muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, iste'molchilik madaniyati va ommaviy madaniyatning keng tarqalishi shaxsning ma'naviy-axloqiy dunyosiga ta'sir ko'rsatib, uni ko'proq moddiy manfaat va utilitar qarashlar bilan cheklanish xavfini kuchaytiradi. Bu esa milliy madaniyatlar, an'anaviy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlarning zaiflashuvi hamda madaniy identiklikning yo'qolish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shunga qaramay, xalqaro tashkilotlar, xususan YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy merosni asrashga qaratilayotgan e'tibor, milliy qadriyatlar va an'alarni saqlash zaruratini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Chunki har bir xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy merosi va madaniy o'ziga xosligi uning barqaror taraqqiyoti va o'zligini saqlashining muhim omilidir.

Globallashuv jarayonlari obyektiv tarixiy hodisa bo'lib, u ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy madaniy va ma'naviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois, har bir jamiyat, xususan O'zbekiston uchun globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'un holda rivojlantirish eng muhim strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иноземцев В. Л. Вестернизация как глобализация и «глобализация» как американизация // Вопросы философии. – 2004. – № 4. – С. 58–69.
2. Brzezinski Z. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. – New York: Basic Books, 1997. – 223 p.
3. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. -М., Прогресс-Традиция, 2001. С. 91-92.
4. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 17 October 2003. Available at: <https://unesco.org>
5. Клубов А.В., Халиков М.С., Клубова О.А. Глобализация социально-экономической жизни: история и современность// ВМУ. Сер. 18. Социология и политология. 2005. № 1. С. 138.
6. Usmanova, N.Y. "Globallashuv tushunchasining transformatsiyasi: tarixiy va zamonaviy talqin", Ijtimoiy fikr, 2, 78-85.
7. Berger P. L., Huntington S. P. (Eds.). Many Globalizations: Cultural Diversity in the Contemporary World. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 380 p.
8. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 248 p.
9. Tomlinson J. Globalization and Culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 238 p.

POYON RAVSHANOVNING BEHBUDIYSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDA ARXIV
HUJJATLARI VA OG'ZAKI XOTIRA SINTEZI

M.A.Rajabaliyeva, katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

G.P.Ravshanova, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada Poyon Ravshanovning Mahmudxo'ja Behbudiy hayotining so'nggi davriga bag'ishlangan tadqiqotlari manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. "Behbudiyning so'nggi kunlari" (2008), "Behbudiyning so'nggi manzili" (2010) maqolalari va vafotidan keyin chop etilgan "Behbudiy haqiqati" (2022) kitobida arxiv hujjatlari bilan og'zaki xotiraning qo'shib tahlil qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda dalillarning uch darajasi farqlanadi: hujjatli qayd, xotira guvohligi va tarixiy gipoteza. Bunday farqlash keyingi bioarxeologik tekshiruvlarda taxmin qilingan qabrlardan biri Behbudiyga tegishli ekanligi tasdiqlanmagan sharoitda ayniqsa muhimdir. Mazkur natija P.Ravshanov izlanishlarini rad etish emas, balki tekshiriladigan tarixiy tadqiqotning tabiiy davomiyligi sifatida talqin qilinadi. Arxiv – xotira – bioarxeologiya uch bosqichli verifikatsiya modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Poyon Ravshanov, Mahmudxo'ja Behbudiy, arxiv, og'zaki tarix, manbashunoslik, Eshoni Shahid, DNK tahlili, tarixiy rekonstruksiya.

Аннотация. В статье с позиций источниковедения рассматриваются исследования Поёна Равшанова о последнем периоде жизни Махмудходжи Бехбуди. Особое внимание уделено сочетанию архивных документов и устной памяти в статьях «Последние дни Бехбуди» (2008), «Последнее пристанище Бехбуди» (2010) и посмертно изданной книге «Бехбудий хакикати» (2022). В работе разграничены три уровня доказательности: документальная запись, свидетельство памяти и историческая гипотеза. Такое разграничение особенно важно, поскольку более поздние биоархеологические данные не подтвердили принадлежность одной из предполагаемых могил Бехбуди. Этот результат трактуется не как опровержение всего исследования Равшанова, а как нормальный процесс проверяемого исторического поиска и пересмотра источников. Предложена трехступенчатая модель верификации: архив – память – биоархеология.

Ключевые слова: Поён Равшанов, Махмудходжа Бехбуди, архив, устная история, источниковедение, Эшони Шахид, ДНК-анализ, историческая реконструкция.

Abstract. The article studies Poyon Ravshanov's research on the final period of Mahmudkhoja Behbudi's life from the perspective of source criticism. Particular attention is paid to the combination of archival records and oral memory in P.Ravshanov's articles "Behbudi's Last Days" (2008), "Behbudi's Last Resting Place" (2010), and his posthumously published book Behbudiy haqiqati (2022). The paper distinguishes three evidentiary levels: documentary record, remembered testimony, and historical hypothesis. This distinction is especially important because later bioarchaeological evidence has not confirmed one of the presumed graves as Behbudi's burial site. Rather than treating this as a rejection of P.Ravshanov's work, the article interprets it as a normal process of falsifiable historical inquiry and source revision. A three-stage verification model – archive, memory, and bioarchaeology – is proposed.

Keywords: Poyon Ravshanov, Mahmudkhoja Behbudi, archive, oral history, source criticism, Eshoni Shahid, DNA analysis, historical reconstruction.

Kirish. Mahmudxo'ja Behbudiy hayotining so'nggi kunlari va dafn etilgan joyi XX asr o'zbek tarixshunosligi hamda jadidshunosligidagi murakkab masalalardan biridir. Voqeaga doir hujjatlarning tarqoqligi, siyosiy sharoitda ayrim ma'lumotlarning yo'qolishi yoki yashirilishi, shuningdek keyingi avlod xotiralarining bir-biridan farq qilishi masalani faqat bitta turdagi manba bilan hal qilish imkonini bermaydi. Poyon Ravshanov bu muammoga uzoq muddat davomida murojaat qilib, Qashqadaryo arxivlaridagi hujjatlar, mahalliy xotira va matbuot materiallarini o'zaro bog'lashga harakat qildi. Uning "Behbudiyning so'nggi kunlari" va "Behbudiyning so'nggi manzili" maqolalari, keyinchalik "Behbudiy haqiqati" tadqiqnomasi ushbu izlanishning bosqichlarini aks

ettiradi [1–3]. Zamonaviy tadqiqot uchun muhim vazifa – P.Ravshanov keltirgan dalillarni ularning manba turiga qarab ajratish, so'ng ularni yangi hujjatli va bioarxeologik natijalar bilan qiyoslashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada manbashunoslik tanqidi, tarixiy rekonstruksiya, og'zaki tarix va dalillar triangulyatsiyasi usullari qo'llandi. P.Ravshanov asarlaridagi ma'lumotlar uch darajaga ajratildi: birinchisi – fond, ro'yxat va ish rekvizitiga ega hujjatli qayd; ikkinchisi – voqea yoki joy haqidagi bevosita yoxud vositali xotira guvohligi; uchinchi – bir necha dalilni birlashtirish orqali hosil qilingan tarixiy gipoteza. Bu darajalarni aralashtirmaslik muhim: arxivdagi ma'muriy qayd ham xato bo'lishi mumkin, og'zaki guvohlik esa xotira deformatsiyasiga uchraydi; gipoteza esa yangi dalil paydo bo'lishi bilan qayta ko'rib chiqilishi tabiiy. P.Ravshanov tadqiqotlarini aynan shu ochiq verifikatsiya tamoyili asosida baholash uning ilmiy qiymatini aniqroq ko'rsatadi.

Arxiv hujjatining funksiyasi. P.Ravshanovning 2010-yildagi “Behbudiyning so'nggi manzili” maqolasida Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivdagi 34-jamg'arma, 1-ro'yxat, 55-ishga doir qaydlar yangi izlanishga turtki bo'lgani yoziladi [2]. Bunday aniq arxiv rekviziti tadqiqotning tekshiriladigan nuqtasini yaratadi: keyingi tadqiqotchi hujjatning o'zini qayta ko'rishi, uning tuzilgan sanasi, muallifi, maqsadi va kontekstini baholashi mumkin. P.Ravshanovning metodik kuchi shu yerda ko'rinadi – u mahalliy xotirani mustaqil isbot sifatida qabul qilishdan oldin hujjatli iz bilan tutashtirishga intiladi. Shu bilan birga, arxiv hujjatida “Behbudiy qabri” yoki muayyan joy nomining qayd etilishi avtomatik ravishda arxeologik identifikatsiya degani emas; hujjat voqea haqidagi o'sha davr ma'muriy bilimni ko'rsatadi. Demak, arxiv dalili tarixiy qidiruv maydonini toraytiradi, lekin yakuniy jismoniy identifikatsiyani o'zi hal qilmaydi.

Og'zaki xotiraning o'ri. P.Ravshanov va Behbudiy qabrini izlagan boshqa qashqadaryolik ziyolilar faoliyatida keksa avlod vakillarining xotiralari muhim o'rin tutgan. Keyingi matbuot materiallarida Xo'ja Abdulazizxon madrasasi, beklik chorbog'i, tut daraxtlari va Eshon shahid qabristoni bilan bog'liq turli og'zaki xabarlar keltiriladi [2; 6]. Og'zaki tarixning afzalligi shundaki, yozma hujjatlarda qolmagan mikrogeografik nom, mahalliy marosim va jamoa xotirasini saqlab qolishi mumkin. Biroq bu manba turi vaqt oralig'i uzoqlashgani sari xotira almashuvi, eshitilgan voqeani bevosita ko'rilgan hodisa sifatida qabul qilish va keyingi matbuot ta'sirida “yangilanish” xavfiga ega. Shu sababli har bir guvohlik uchun kim aytgan, qachon aytgan, voqeani o'zi ko'rganmi yoki boshqalardan eshitganmi, geografik tafsilot boshqa mustaqil xotiralarda takrorlanadimi kabi savollar qayd etilishi zarur. P.Ravshanov ishlari ana shu og'zaki korpusni ilmiy muomalaga olib kirgani bilan qimmatli.

Gipoteza va uning tekshirilishi. “Behbudiy haqiqati” kitobida Behbudiyning o'lim va dafn joyiga doir P.Ravshanovning kengroq tarixiy rekonstruksiya berilgan [3; 4]. 2025-yilda “Ma'rifat”da chop etilgan maqolada P.Ravshanov Behbudiyning o'ldirilishini Qarshidagi 1920-yil sentabr voqealari bilan bog'lagani, Eshon shahid qabristoniga oid dalillarga tayangani qayd etiladi [6]. Shu manbada muhim yangi natija ham keltiriladi: nazarda tutilgan qabr bo'yicha o'tkazilgan ekskumatsiya va DNK tekshiruvlari u yerda Behbudiy dafn etilganini tasdiqlamagan [6]. Bu ma'lumotni metodologik jihatdan to'g'ri talqin qilish zarur. U P.Ravshanov topgan barcha arxiv va xotira ma'lumotlarini “noto'g'ri” qilmaydi; u faqat tekshirilgan konkret qabr identifikatsiyasini rad etadi. Tarixiy gipoteza shunday tekshiruvga ochiq bo'lgandagina ilmiy hisoblanadi.

Mazkur holat P.Ravshanov merosini qayta o'qish uchun muhim nazariy xulosa beradi. Olimning ilmiy qiymatini faqat “qabrni topdi yoki topmadi” mezon bilan baholash tor yondashuvdir. Uning asosiy hissasi Behbudiy masalasini mahalliy rivoyat darajasidan chiqarib, arxiv rekvizitlari, tarixiy matbuot, guvohlik va joy nomlarini tekshiriladigan savollar tizimiga aylantirishidir. Ilmiy izlanishda ayrim gipotezaning rad etilishi ham natija hisoblanadi: qidiruv doirasidan bitta variant chiqib ketadi, yangi variantlar uchun dalil talabi qat'iylashadi. Shu ma'noda 2025-yilgi DNK natijasi P.Ravshanov boshlagan qidiruvning tugashi emas, uning manbashunoslik jihatdan yangi bosqichga o'tishidir.

Ilmiy yangilik. Maqolada Behbudiy so'nggi manzili masalasini o'rganish uchun “arxiv – xotira – bioarxeologiya” uch bosqichli verifikatsiya modeli taklif qilinadi. Birinchi bosqichda voqea vaqtiga yaqin hujjatlar, idoraviy qaydlar, tergov materiallari va tarixiy matbuot korpusi tuziladi. Ikkinchi bosqichda og'zaki xotira joy nomlari va ehtimoliy obyektlarni aniqlash uchun ishlatiladi, ammo

guvohliklar kelib chiqishi va mustaqilligi bo'yicha kodlanadi. Uchinchi bosqichda aniq topografik obyekt arxeologiya, antropologiya va zarur bo'lsa genetik tahlil bilan tekshiriladi. Har bir bosqich avvalgisining xulosasini avtomatik tasdiqlamaydi; aksincha, alohida dalil sinfi sifatida baholanadi. Shunday model P.Ravshanov ishlatgan manbalarni zamonaviy fan imkoniyatlari bilan uyg'unlashtiradi va tarixiy xulosaga "ishonchlilik darajasi" berish imkonini yaratadi.

Kelgusi tadqiqotlar dasturi. Masalani davom ettirishda geografik va institutsional qamrovni kengaytirish zarur. Qashqadaryo fondlari bilan cheklanmay, Samarqand, Toshkent va Buxoro bilan bog'liq ma'muriy yozishmalar, 1919–1921-yillar matbuoti, keyingi komissiya va xotira materiallari yagona xronologik jadvalda solishtirilishi kerak. Har bir voqea uchun "eng erta qayd" aniqlansa, keyingi rivoyatlarning qaysi manbadan tarqalganini kuzatish osonlashadi. Tarixiy xaritalar va eski kadastr hujjatlari orqali Xo'ja Abdulazizxon madrasasi, beklik chorbog'i va Eshon shahid atrofidagi hududiy o'zgarishlarni GIS qatlamida tiklash ham qidiruvni aniqlashtirishi mumkin. Bioarxeologik tadqiqot esa faqat tarixiy dalil yetarlicha toraytirilgan obyektlarda, huquqiy va etik tartiblar asosida o'tkazilishi lozim. Bunday ko'p tarmoqli yondashuv 2025-yilgi maqolada ilgari surilgan tarixchi, tibbiy ekspert va antropologlar ishtirokidagi ekspeditsiya zarurati bilan hamohangdir [6].

Xulosa. Poyon P.Ravshanovning Behbudiyshunoslikdagi izlanishlari arxiv hujjati va og'zaki xotirani bir-biriga qarshi qo'ymasdan, ularni tarixiy rekonstruktsiya jarayonining turli bosqichlari sifatida qo'llashga uringanligi bilan ajralib turadi [1–4]. 34-jamg'arma, 1-ro'yxat, 55-ish kabi konkret arxiv ko'rsatkichlarining ilmiy muomalaga kiritilishi keyingi tadqiqot uchun tekshiriladigan tayanch yaratgan [2]. Shu bilan birga, Eshon shahid bilan bog'liq taxmin qilingan qabrning DNK tekshiruvda tasdiqlanmagani Behbudiy dafn joyi masalasi hozircha ochiq ekanini ko'rsatadi. Maqolada taklif etilgan arxiv – xotira – bioarxeologiya modeli dalil turlarini bir-biridan farqlagan holda ularni ketma-ket tekshirish imkonini beradi. P.Ravshanov merosining barqaror qiymati yakuniy javobdan ko'ra, yangi hujjatlarni topish, savolni dalillanadigan shaklga keltirish va keyingi tadqiqot uchun verifikatsiya qilinadigan yo'l ochib berishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ravshanov P. Behbudiyning so'nggi kunlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008-yil 22-avgust.
2. Ravshanov P. Behbudiyning so'nggi manzili // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2010-yil 23-iyul.
3. Ravshanov P. Behbudiy haqiqati: tadqiqnoma. Toshkent: Akademnashr, 2022. 125 b.
4. Rajabaliyeva M.A. "Behbudiy haqiqati" olim Poyon P.Ravshanov tadqiqotida // Yosh filolog olimlar jamiyati respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2022. B. 458–462.
5. Qosimov B. Behbudiy Mahmudxo'ja // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

UO'K 94(575.1)

ILK RENESSANS DAVRIDA XORAZMDA ILMIY MUHITNING VUJUDGA KELISHI VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI

D.Sh.Rajabova, kat.i.x., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-4748-7488>

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX–XII asrlarda — Islom Renessansi davrida Xorazm vohasida o'ziga xos intellektual muhit shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari va uning institutsional tabiati kompleks tahlil etilgan. Tadqiqotda Xorazm Ma'mun akademiyasi (Dorul-hikma) misolida ilmfanning tizimlashuvi, kadrlar siyosati, fanlararo sinergiya hamda fundamental fanlar (astronomiya, matematika, geodeziya, tibbiyot) rivojining davlat boshqaruvi bilan aloqadorlik jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Islom Renessansi, Xorazm intellektual maktabi, Ma'mun akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, institutsionalizatsiya, o'rta asrlar ratsionalizmi, Dorul-hikma.

Аннотация. В данной статье осуществлен комплексный анализ социально-исторических факторов формирования и институциональной природы уникальной интеллектуальной среды, сложившейся в Хорезмском оазисе в IX–XII веках — в эпоху Исламского Ренессанса. На примере Хорезмской академии Мамуна (Дорул-хикма) раскрываются аспекты систематизации науки, кадровой политики, междисциплинарной

синергии, а также взаимосвязь развития фундаментальных наук (астрономии, математики, геодезии, медицины) с государственным управлением.

Ключевые слова: Исламский Ренессанс, Хорезмская интеллектуальная школа, Академия Мамуна, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, институционализация, средневековый рационализм, Дорул-хикма.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the socio-historical factors driving the formation and institutional nature of the unique intellectual environment that emerged in the Khwarazm oasis during the 9th–12th centuries — the era of the Islamic Renaissance. Drawing on the case of the Khwarazm Mamun Academy (Dar al-Hikma), the study reveals the aspects of scientific systematization, personnel policy, and interdisciplinary synergy, as well as the structural correlation between government administration and the development of fundamental sciences, including astronomy, mathematics, geodesy, and medicine.

Key words: Islamic Renaissance, Khwarazmian intellectual school, Mamun Academy, Abu Rayhan al-Biruni, Abu Ali ibn Sina, institutionalization, medieval rationalism, Dar al-Hikma.

Kirish: IX–XII asrlar oralig'ida Markaziy Osiyo mintaqasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan mislsiz intellektual yuksalish jahon tarixshunoslik fanida Islom Renessansi davri sifatida fundamental fundamental yo'nalishda o'rganib kelinmoqda [4, 6. 45]. Mazkur sivilizatsion jarayonlarning eng yirik, tizimli va institutsional jihatdan mukammal shakllangan o'choqlaridan biri sifatida Xorazm vohasini ko'rsatish mumkin. O'zining qulay geosiyosiy va geoiqtisodiy o'rni, qadimgi urbanizatsiya poydevori hamda transkontinental aloqalarni bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining strategik tarmoqlarida joylashganligi tufayli, Xorazm ushbu davrda xalqaro intellektual almashinuv markaziga (xabga) aylandi [3, 6. 78].

Xorazm hududida bunday sermahsul ilmiy muhitning qaror topishi tasodifiy xarakterga ega bo'lmay, u uzoq davrli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, mintaqa dehqonchiligi va o'ziga xos gidrologik ehtiyojlari hamda mahalliy sulolalar yuritgan maqsadli homiylik (patronaj) siyosatining bevosita natijasi edi [7, 6. 112]. Aynan shu davrga kelib vohada ilm-fan shunchaki alohida mutafakkirlarning individual qiziqishlari doirasidan chiqib, davlat miqyosidagi barqaror tuzilmalar, akademiyalar, mukammal kitob fondiga ega kutubxonalar va maxsus jihozlangan rasadxonalar ko'rinishida professional bosqichga ko'tarildi, ya'ni tizimli ravishda institutlashdi [5, 6. 34].

Metodologiya: Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-tizimli (historical-systemic), qiyosiy-tarixiy (komparativistik) hamda retrospektiv va epistemologik tahlil metodlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida IX–XII asrlarga oid o'rta asr arab va fors tillaridagi birlamchi manbalar, xususan, Abu Rayhon Beruniyning asarlari va geodezik-mineralogik qaydlari [1], shuningdek, o'tgan asr va zamonamizning yirik tarixchi, sharqshunos va filosof olimlarining (Ya. G'ulomov, I. Mo'minov, M. Xayrullayev, S. F. Starr) fundamental tadqiqotlari qiyosiy tahlilga tortildi [2; 3; 6; 7].

Institutsional yondashuv yordamida Xorazmdagi ilmiy muhit alohida olingan kashfiyotlar zanjiri sifatida emas, balki davlat, jamiyat, madaniyat va fan subyektlarining o'zaro muvozanatli hamkorligini ta'minlagan mukammal ijtimoiy-intellektual tizim sifatida tadqiq etildi.

Natijalar: Mintaqada ilk Renessans g'oyalarining ildiz otishi va barqaror ilmiy platformaga aylanishi bir qator fundamental sotsial-iqtisodiy omillarga bog'liq edi. Akademik Ya.G'.G'ulomov o'zining ko'p yillik arxeologik va tarixiy tadqiqotlarida asoslab berganidek, Xorazm vohasining qadimgi murakkab sun'iy sug'orish tizimiga asoslangan dehqonchilik madaniyati jamiyatdan doimiy ravishda aniq amaliy bilimlarni — muhandislik, gidrologiya, matematika va astronomiyani talab etgan [2, 6. 110]. Kanal va to'g'onlar qurish, suv taqsimoti o'lchovlarini to'g'ri hisoblash, dehqonchilik taqvimini yuritish ehtiyoji tabiiy fanlarning empirik (tajriba) bazasini shakllantirdi.

Ikkinchi tomondan, Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi va mustaqil siyosiy mavqega ega bo'lishi davlat apparatini savodli, tahliliy fikrlaydigan kadrlar, kotiblar (katib), munajjimlar va tabiblar bilan ta'minlash zaruriyatini tug'dirdi [4, 6. 52]. Bu esa an'anaviy ta'lim tizimi (madrasalar) bilan bir qatorda, yuqori darajadagi dunyoviy ilmlar jamlangan institutlarning vujudga kelishiga turtki berdi.

Xorazm ilmiy muhitining eng oliy va tizimli shakli, shubhasiz, Gurganj (Ko'hna Urganch) shahrida faoliyat ko'rsatgan Xorazm Ma'mun akademiyasidir (manbalarda *Dorul-hikma* yoki *Majlisi ulamo* deb ham yuritiladi). Ushbu akademiya taxminan 1004-yilda Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun va uning vorisi Abu Abbas Ma'mun II tashabbusi bilan rasman institutlashtirilgan [6, 6. 18].

Akademiyaning institutsional o'ziga xosligi bir qator tarkibiy elementlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, tizimli patronaj va moliyaviy barqarorlik modelini aytish joiz. Xorazmshoh Ma'mun II shaxsan o'zi ilm-fan homiysi sifatida chiqdi. U akademiya jalb etilgan olimlarni davlat xazinasi hisobidan yuqori maosh (roti), shaxsiy turar joy, oziq-ovqat va mukammal laboratoriya asboblari bilan ta'minladi [7, 6. 145]. Bu model olimlarga moddiy qiyinchiliklardan xoli bo'lgan holda faqat fundamental tadqiqotlar bilan shug'ullanish imkonini berdi.

Ikkinchidan, akademiya ichida g'oyaviy va falsafiy qarashlar cheklanmagan bo'lib, intellektual avtonomiya ta'minlangan edi. Turli diniy-falsafiy oqimlar vakillari bo'lgan olimlar o'zaro ilmiy bahslarda erkin ishtirok eta olganlar. Uchinchidan, kutubxona fondi va uning infratuzilmasi muhim rol o'ynadi. Gurgandagi saroy kutubxonasi qadimgi yunon, hind, sushon, pahlaviy va qadimgi xorazmiy tillaridagi qo'lyozmalarning eng boy xazinasi hisoblangan [5, 6. 42]. Kutubxonada tarjimonlar, xattotlar va muqovalovchilarning maxsus shtatlari faoliyat yuritgan, bu esa axborot almashinuvi va ilmiy manbashunoslikning institutsional mexanizmini yaratgan.

Xorazm akademiyasi o'z davrining ochiq intellektual tizimi (kosmopolit markaz) edi. Ma'mun II va uning vaziri, o'zi ham yirik olim bo'lgan Ahmad Suhayliy butun Sharq dunyosidan eng sara aqllarni voha intellektual markaziga jalb etish bo'yicha maqsadli siyosat yuritdilar [3, 6. 95].

Akademiya jamoasining o'zagini quyidagi yirik mutafakkirlar tashkil etgan:

Abu Rayhon Beruniy — akademiyaning ilmiy rahbari, uning faoliyatini koordinatsiya qiluvchi bosh yetakchisi, qomusiy olim; **Abu Ali ibn Sino** — tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlar bo'yicha dunyoga mashhur siymo (Buxorodan taklif etilgan);

Abu Sahl Masixiy — mashhur tabib, faylasuf va astronom (Ibn Sinoning ustoz va safdoshi); **Abu Nasr ibn Iroq** — Beruniyning ustoz, trigonometriya va astronomiya sohasida inqilobiy kashfiyotlar qilgan matematik; **Ibn al-Xammar** — qadimgi yunon falsafasining yirik bilimdoni, tarjimon va mantiqshunos olim [6, 6. 32]. Ushbu olimlarning bir nuqtada, yagona intellektual korporatsiya doirasida jamlanishi fanlararo (interdisciplinary) tadqiqotlarning rivojlanishiga olib keldi.

Muhokama: Xorazm Ma'mun akademiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun uni IX asrda faoliyat ko'rsatgan Bag'doddagi «Baytul-hikma» (Donishmandlar uyi) bilan qiyosiy tahlil qilish lozim. Tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar ko'rsatishicha, bu ikki institut o'rtasida funksional farqlar mavjud bo'lgan [4, 6. 102]. Agar Bag'dod markazi o'z faoliyatining dastlabki bosqichlarida asosan antik davr merosini arab tiliga o'girish va tarjimachilik ishlari bilan cheklangan bo'lsa, Xorazm intellektual markazi mutlaqo yangi fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'zi ishlab chiquvchi (generator) institut sifatida maydonga chiqdi [7, 6. 210].

Xorazm ilmiy maktabining asosiy yutug'i uning metodologiyasida edi. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida o'rta asrlar faniga qat'iy empirik-tajriba metodini va ma'lumotlarni statistik-matematik tekshirish tamoyilini olib kirdi [1, 6. 142]. U o'zining geodezik tadqiqotlarida, xususan, Yer sathini o'lchash, ufqning pasayish burchagini aniqlash va globus yaratish jarayonlarida aniq asboblardan (astrolyabiya, sekstantlar) yordamida olingan o'lchovlar tizimiga tayandi.

Akademiya ilmiy muhitning eng yorqin sahifalaridan biri Beruniy va Ibn Sino o'rtasida kechgan ilmiy munozaralardir (disputlar). Ushbu ikki buyuk daho Arastu (Aristotel) tabiat falsafasi, xususan, osmon jismlarining harakati, yorug'likning tarqalishi, materiyaning bo'linishi va fizika qonuniyatlari borasida yozishmalar orqali keskin bahs olib borganlar [3, 6. 118]. Bu munozaralar o'rta asrlar sxolastik dogmalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqishga va fanda ratsionalizm tamoyillarining g'alaba qozonishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, Abu Nasr ibn Iroqning sferik trigonometriya sohasidagi kashfiyotlari (sinuslar teoremasining isboti) astronomik hisob-kitoblarni matematiklashtirish imkonini berdi [5, 6. 76]. Abu Sahl Masixiy va Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi ratsional-klinik kuzatishlari esa insonga tabiatning bir qismi sifatida qarash tizimini shakllantirdi.

Xorazm ilmiy muhitining muhim jihati uning ma'rifiy muvozanatidadir. Akademiyada dunyoviy, aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda islomiy ilmlar (fiqh, kalom, hadisshunoslik, tafsir) ham chuqur o'rganilgan [4, 6. 115]. Biroq, an'anaviy diniy muhitdan farqli o'laroq, bu yerda fanlarning bir-birini inkor etishi emas, balki simbiotik integratsiyasi kuzatildi.

Matematika meros huquqi (faroiz) masalalarini adolatli yechish uchun xizmat qilgan bo'lsa, astronomiya va geodeziya islom olamining turli nuqtalaridan turib qibla yo'nalishini (azimutini) aniq belgilash, muqaddas oylarning kirib kelish muddatlarini hisoblash kabi amaliy muammolarni hal qildi [1, 6. 250]. Akademiyadagi bu muvozanat ilm-fanning jamiyat va davlat tomonidan to'liq legitimlashtirilishini (tan olinishini) ta'minladi.

Xulosa: Islom Renessansi davrida Xorazm vahasida yuksak ilmiy muhitning vujudga kelishi va uning institutsionalizatsiyalashuvi jahon sivilizatsiyasi tarixidagi eng samarali intellektual tajribalardan biridir. Xorazm Ma'mun akademiyasi (Dorul-hikma) o'zining faoliyat prinsiplari, fanlararo integratsiyalashgan tizimi, davlat tomonidan maqsadli moliyalashtirilishi va erkin ratsional tadqiqot usullari bilan zamonaviy Fanlar akademiyalarining o'rta asrlardagi mukammal prototipi sifatida e'tirof etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Beruniy, Abu Rayhon. (1957) *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Tanlangan asarlar. T. I. Toshkent: Fan. — 486 b.
2. G'ulomov, Ya. G'. (1959) *Xorazmning sug'orilish tarixi (qadim zamonlardan hozirgacha)*. Toshkent: O'zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. — 326 b.
3. Mo'minov, I. M. (1974) *Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar falsafasi tarixidan lavhalar*. Toshkent: Fan. — 224 b.
4. Sultonov, X. (2010) *Islom Renessansi va Markaziy Osiyo mutafakkirlari*. Toshkent: Ma'naviyat. — 192 b.
5. Ahadova, M. (1976) *O'rta osiyolik olimlarning matematika va astronomiya tarixidagi xizmatlari*. Toshkent: O'qituvchi. — 144 b.
6. Xayrullayev, M. M. (2001) *Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning tarixiy o'rni*. Toshkent: Sharq. — 88 b.
7. Starr, S. Frederick. (2014) *Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane*. Princeton: Princeton University Press. — 658 p.

UO'K 908

XX ASRNING 50–80-YILLARIDA QASHQADARYO SANOATIDA ERISHILGAN YUTUQLAR

A.T.Raxmonov, mustaqil izlanivchi

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 50–80-yillarida Qashqadaryo viloyati sanoatida, xususan neft-gaz sohasida erishilgan yutuqlar tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Gazli, Muborak, Janubiy va Shimoliy Muborak, O'rtabuloq kabi yirik konlarning aniqlanishi, magistral gaz quvurlari tizimining shakllanishi, Muborak gazni qayta ishlash zavodining barpo etilishi hamda viloyatning O'zbekiston va butun O'rta Osiyo yoqilg'i-energetika tizimidagi strategik o'rni yoritiladi. Shuningdek, sanoat taraqqiyotining ijtimoiy hayotga ko'rsatgan ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, neft-gaz sanoati, Gazli koni, Muborak, magistral gaz quvuri, geologik-qidiruv ishlari, gazni qayta ishlash zavodi, oltingugurt sanoati, yoqilg'i-energetika tizimi.

Аннотация. В статье на основе исторических источников, архивных документов и статистических данных анализируются успехи, достигнутые в промышленности, в частности в нефтегазовой отрасли Кашкадарьинской области в 50–80-е годы XX века. Рассматриваются открытие крупных месторождений (Газли, Мубарек, Южный и Северный Мубарек, Уртабулак), формирование системы магистральных газопроводов, создание Мубарекского газоперерабатывающего завода, а также стратегическая роль области в топливно-энергетической системе Узбекистана и всей Средней Азии, включая её социальное значение.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, нефтегазовая промышленность, месторождение Газли, Мубарек, магистральный газопровод, геологоразведочные работы,

газоперерабатывающий завод, сернодобывающая промышленность, топливно-энергетическая система.

Abstract. The article analyzes, on the basis of historical sources, archival documents, and statistical data, the achievements of industry, particularly the oil and gas sector, in the Kashkadarya region during the 1950s–1980s. It examines the discovery of major fields (Gazli, Mubarek, South and North Mubarek, Urtabulak), the formation of the trunk gas pipeline system, the establishment of the Mubarek Gas Processing Plant, the region's strategic role in the fuel and energy system of Uzbekistan and Central Asia, and its social significance.

Key words: Kashkadarya region, oil and gas industry, Gazli field, Mubarek, trunk gas pipeline, geological exploration, gas processing plant, sulfur industry, fuel and energy system.

Kirish: XX asrning 50–80-yillari Qashqadaryo viloyati tarixida iqtisodiy va sanoat taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda sobiq Ittifoqning yoqilg'i-energetika siyosati doirasida viloyatning tabiiy resurslarini o'zlashtirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada hududda geologik-qidiruv ishlari keng ko'lamda olib borilib, neft, gaz va gaz-kondensat konlari aniqlanib, ularni sanoat miqyosida o'zlashtirish ishlari jadallashdi. Ayniqsa, Muborak, Sho'rtan, O'rtabuloq, Janubiy Muborak va Shimoliy Muborak kabi yirik konlarning foydalanishga topshirilishi Qashqadaryoning respublika iqtisodiyotidagi ahamiyatini keskin oshirdi.

Adabiyotlar tahlili va metod: mazkur tadqiqotning manba bazasini R.Shamsutdinov, K.N.Bedrintsev, U.Nuritdinov, O.Jo'raqulov, O.Omonov, R.Mirzaakbarova, T.Aliev, V.Pankovskiy kabi tadqiqotchilarning ilmiy asarlari, davriy matbuot (“Pravda Vostoka” gazetasi) hamda statistik to'plamlar tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-xronologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi: dastlab respublika miqyosidagi neft-gaz sanoati siyosatining shakllanishi, so'ngra Qashqadaryo viloyatidagi geologik-qidiruv ishlari va yirik konlarning aniqlanishi, nihoyat magistral gaz quvurlari tizimi va gazni qayta ishlash sanoatining barpo etilish jarayoni xronologik tartibda tahlil qilindi.

Asosiy qism: 1970-yillarga kelib sobiq Ittifoq yoqilg'i balansida neft va gazning ulushi tobora ortib bordi. KPSS XXIV syezdi qarorlarida ham neft va gaz qazib olish hajmlarini keskin oshirish vazifasi belgilandi. Bu esa O'zbekiston, xususan Qashqadaryo viloyatidagi neft-gaz sanoati korxonalarining yanada kengayishiga olib keldi. Natijada viloyatda yangi sanoat korxonalari, magistral gaz quvurlari, transport-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etildi [1]. Respublikada mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida neft va gaz konlarini qidirish, o'zlashtirish hamda qazib olish hajmlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yangi konlarning o'zlashtirilishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi hamda qayta ishlash sanoatining shakllanishi respublikaning energetika xavfsizligini ta'minlash va xalq xo'jaligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi [2].

O'zbekistonda gaz sanoati Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik gaz konlarining izlab topilishi va o'zlashtirilishi bilan bog'liq ravishda yuksalib bordi. 1950-yillarning ikkinchi yarmida “O'zbekneftegazrazvedka” tresti amalga oshirgan geologik-qidiruv ishlari natijasida 1956-yilda zaxirasi 500 milliard kubometrga teng bo'lgan, foydalanishga eng qulay Gazli koni ochildi. Shuningdek, Muborak, O'rtabuloq, Qultog', Shapatti, Uchqir, Jarqoq, Qoravulbozor kabi jami 100 dan ortiq neft va gaz koni topildi. Ularda 2 trillion kubometr gaz, 250 million tonna neft zaxiralari borligi aniqlandi [3].

1964-yilda “Sho'rtepa” koni negizida “Muborak” neft-gaz qazib chiqarish koni tashkil etilib, o'sha yilning o'zida dastlabki beshta quduq ishga tushirildi, keyingi yili esa yana 10–12 ta quduq foydalanishga topshirildi. 1966-yilda “Janubiy Muborak” konidan ilk bor gaz qazib olinib, “Shimoliy Muborak”da bir necha quduqlar burg'alanib, ishlab chiqarishga tayyor holatga keltirildi; shu asosda “Qashqadaryogaz” gaz konlari boshqarmasi tashkil etildi. Saratov shahridagi loyihalash institutlari ishlab chiqqan “Muborak–Zirabuloq–Toshkent–Chimkent–Frunze–Olmaota” magistral gaz quvuri loyihasi asosida 1300 km dan ortiq quvur qurilishi 1964-yilda boshlanib, 1966-yil oktabrida Toshkentgacha bo'lgan qismi ishga tushirildi, keyinchalik Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy viloyatlari ham undan foydalana boshladi [6].

Janubiy va Shimoliy Muborak konlari gazi tarkibida, ayniqsa O'rtabuloq koni gazida 4–5 foizgacha oltingugurt vodorodi borligi ilmiy tadqiqotlar orqali aniqlanib, bu gazni qayta ishlaydigan inshoot qurish zaruratini keltirib chiqardi [7]. SSSR Gaz sanoati vazirligi Qarshi cho'lidagi Muborak yaqinida gazni oltingugurtdan tozalovchi yirik korxona qurish loyihasini tayyorlab, hukumatga taqdim etdi; katta mablag' talab qilganligi sababli masala darhol hal etilmadi, biroq mutaxassislar korxona xarajatlarining tez qoplanishini va oltingugurtning kimyo hamda mudofaa sanoati uchun zarurligini asoslab berganidan so'ng qurilishga ruxsat berildi. Loyihani Saratov shahridagi “Vostokgiprokaz” va Moskvadagi “Giprokazochistka” institutlari tayyorladi; zavod qurilishiga 88 million rubldan ortiq mablag' ajratilib, bu xarajat 2,5 yilda to'la qoplanishi hisoblab chiqilgan edi [8]. 1966-yil oktabrda “VNIPIgazdobicha” instituti tayyorlagan loyiha tasdiqlanib, 1967-yil avgustda Qashqadaryo viloyatida zavod uchun yer ajratish to'g'risida farmon qabul qilindi. Farmon qabul qilingach, gaz sanoati inshootlarini qurishda katta tajribaga ega bo'lgan V.M.Kondruchuk boshchiligidagi “Buxaragaz promstroy” tresti hamda Qarshi, Samarqand va boshqa joylardan ko'plab quruvchilar Muborakka keldi.

Zavod qurilishida “Buxaragazpromstroy”, “Sredazneftegazstroy”, “Samarqandtransstroy” trestlari hamda “Qarhistroy” boshqarmasi ishtirok etdi; asbob-uskunalar Yugoslaviya, Ruminiya, GDR va Chexoslovakiyadan keltirildi. Gazdan oltingugurt ajratib olish jarayoni suv bilan bajarilganligi sababli Yakkabog'dan Muborakkagacha 158 km masofada katta quvurlar yotqizildi. Ketma-ket belgilanayotgan rejalarga muvofiq tozalangan gazni 15 milliard kub metrga yetkazish maqsadida 1977–1978-yillarda ikkinchi qayta ishlash korxonasi qurilishi rejalashtirildi, besh yillikning oxirida esa yana bitta shunday korxona qurish ko'zda tutildi. 1976-yilda “Sredazneftegazmontaj”ning 9-sonli tresti mavjud korxonani ta'mirlash ishlarini boshlab, texnologik kalonnalarni almashtirish va apparatlarni ta'mirlash ishlarini belgilangan muddatda yakunladi [9].

Mahalliy va mamlakatning turli mintaqalaridan kelgan soha mutaxassislari uzoq yillar davomida Qizilqum sahrolari va Qarshi cho'llarini sinchiklab o'rgandilar [10]. Qashqadaryo viloyatida gaz va neft konlarining ko'pligi neft qazib olishga ixtisoslashtirilgan mustaqil korxonalarni tuzishni taqozo etib, 1971-yilda Qarshida SSSR neft sanoati vazirligiga qarashli “Qarshineft” neft va gaz ishlab chiqarish boshqarmasi tashkil etildi [11]. 1972–1985-yillar oralig'ida dunyodagi eng yirik inshootlardan biri — Orenburg gazni qayta ishlash zavodidan so'ng ikkinchi o'rinda turgan Muborak gazni qayta ishlash korxonasi barpo etildi [12]. Korxona 1972-yildan mahsulot bera boshlab, so'nggi qurilmalari 1973-yilda foydalanishga topshirildi; zavod ishga tushgach, yiliga 220 ming tonna oltingugurt yetkazib beradigan yirik kombinatga aylandi [13]. Loyiha bo'yicha 5 milliard kub metr gazni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan zavodning birinchi navbati 1976-yilda ta'mirlanib, yiliga 6,2 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga yetdi. 1980-yillarga kelib zavod yiliga 21 milliard kub metr gazni qayta ishlab, 554 ming tonna oltingugurt va 6 ming tonnadan ortiq gaz kondensati ishlab chiqardi [14].

Muhokama va natijalar: o'tkazilgan tahlil XX asrning 50–80-yillarida Qashqadaryo viloyati sanoatining rivojlanishi bir necha bosqichda kechganini ko'rsatadi: dastlab (1930–1950-yillar) respublika miqyosida neft-gaz sanoatining umumiy negizi yaratildi, so'ngra (1956–1968-yillar) Gazli, Muborak, Janubiy va Shimoliy Muborak kabi yirik konlar aniqlandi, nihoyat (1965–1985-yillar) magistral gaz quvurlari tizimi va Muborak gazni qayta ishlash zavodi barpo etilib, mintaqa nafaqat respublika, balki butun O'rta Osiyo miqyosidagi yetakchi yoqilg'i-energetika markaziga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 50–80-yillarida Qashqadaryo viloyatida erishilgan sanoat yutuqlari — yirik neft-gaz konlarining aniqlanishi, magistral gaz quvurlari tizimining barpo etilishi hamda Muborak gazni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi — mintaqani O'zbekistonning, shuningdek butun sobiq Ittifoqning yetakchi yoqilg'i-energetika bazalaridan biriga aylantirdi. Geologik-qidiruv tashkilotlarining izchil faoliyati, ilmiy-tadqiqot institutlarining hissasi hamda respublikalararo qurilish aloqalari ushbu jarayonlarning umumittifoq miqyosidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sanoat rivojlanishi mintaqaning ijtimoiy qiyofasini ham tubdan o'zgartirib, yangi shaharchalar va malakali kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishiga xizmat qildi. Qashqadaryo sanoatining bu davrdagi tarixi O'zbekiston energetika xavfsizligi tarixini o'rganishda muhim manba bazasi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsutdinov R. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). III jild, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. – T.: Sharq, 2010. – 147-b.
2. Бедринцев К.Н., Десятчиков Б.А. Ўзбекистон саноати 40 йил ичида. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, 1957. – 19-б.
3. Нуритдинов У., Голован К.А. СССР иктисодий географияси. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
4. Жўракулов О. Кудратли энергия манбаи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 150-б.
5. Жўракулов О. Кудратли энергия манбаи... – 135-б.
6. Омонов О. Муборак газни қайта ишлаш заводи – 35 ёшда. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 15–16-б.
7. Газни олтингургуртдан тозаламасдан туриб фойдаланиш инсон саломатлиги учун хавфли бўлиб, иктисодий жihatдан ҳам зарarli ҳисобланган.
8. Жўракулов О. Кудратли энергия манбаи... – 175-б.
9. Петров В. Реконструкция идёт по графику, но её можно и нужно ускорить // Правда Востока. 1976 йил 14 июль.
10. Паньковский В. Ўзбекистон зангори олтини... – 10-б.
11. Жўракулов О. Кудратли энергия манбаи... – 102-б.
12. Мирзаакбарова Р., Алиев Т. Ўзбекистон табиий газы (Газ саноати экономикасининг баъзи масалалари ҳақида). – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 8-б.
13. Жўракулов О. Кудратли энергия манбаи... – 175-б.
14. Қашқадарё газы: бугун ва эртага // Ҳаёт ва қонун. 1992, №5. – 57-б.
15. Қашқадарё газы: бугун ва эртага // Ҳаёт ва қонун. 1992, №5. – 57-б.

UO'K: 94(575.1):622.32"1970/1990"

XX ASRNING 70–90-YILLARIDA SHO'RTAN NEFT-GAZ SANOATINING TARAQQIYOT TARIXI

A.T.Raxmonov, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 70–90-yillarida Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rtan neft-gaz sanoatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Urushdan keyingi geologik-qidiruv ishlari, Sho'rtan, Muborak, O'rtabuloq kabi yirik gaz-kondensat konlarining aniqlanishi, Muborak gazni qayta ishlash zavodining barpo etilishi, magistral gaz quvurlari tizimining shakllanishi hamda mintaqaning O'zbekiston yoqilg'i-energetika tizimidagi strategik o'rni yoritiladi. Shuningdek, Sho'rtan sanoat markazining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatgan ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, Sho'rtan, Muborak, O'rtabuloq, gaz-kondensat koni, geologik-qidiruv ishlari, gazni qayta ishlash zavodi, magistral gaz quvuri, oltingugurt sanoati.

Аннотация. В статье на основе исторических источников, архивных документов и статистических данных анализируются этапы становления и развития нефтегазовой промышленности Шуртанского месторождения Кашкадарьинской области в 70–90-е годы XX века. Рассматриваются послевоенные геологоразведочные работы, открытие крупных газоконденсатных месторождений, создание Мубарекского газоперерабатывающего завода, формирование системы магистральных газопроводов, а также стратегическая роль региона в топливно-энергетической системе Узбекистана и его социально-экономическое значение.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, Шуртан, Мубарек, Уртабулак, газоконденсатное месторождение, геологоразведочные работы, газоперерабатывающий завод, магистральный газопровод, сернодобывающая промышленность.

Abstract. The article analyzes, on the basis of historical sources, archival documents, and statistical data, the stages of formation and development of the oil and gas industry of the Shurtan field in the Kashkadarya region during the 1970s–1990s. It examines post-war geological exploration work, the discovery of major gas-condensate fields, the establishment of the Mubarek Gas Processing Plant, the formation of the trunk gas pipeline system, and the region's strategic and socio-economic role in Uzbekistan's fuel and energy system.

Key words: Kashkadarya region, Shurtan, Mubarek, Urtabulak, gas-condensate field, geological exploration, gas processing plant, trunk gas pipeline, sulfur industry.

Kirish. XX asrning 70–90-yillari O'zbekiston neft-gaz sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab bergan davr hisoblanadi. Bu yillarda respublikaning janubiy hududlarida, xususan, Qashqadaryo viloyatida geologik-qidiruv ishlarining kengayishi natijasida yirik uglevodorod konlari aniqlanib, sanoat miqyosida o'zlashtirila boshlandi. Ana shunday strategik ahamiyatga ega hududlardan biri Sho'rtan neft-gaz rayoni bo'lib, u qisqa vaqt ichida mamlakatning eng yirik gaz qazib olish markazlaridan biriga aylandi.

Sho'rtan hududida aniqlangan tabiiy gaz va gaz-kondensat zaxiralari respublikaning yoqilg'i-energetika salohiyatini mustahkamlashda muhim o'rin tutdi. Konlarning sanoat miqyosida ishga tushirilishi natijasida gaz qazib olish hajmlari keskin ortib, viloyatda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va sanoat infratuzilmasi shakllandi. Sho'rtan konlarining o'zlashtirilishi nafaqat Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy taraqqiyotiga, balki O'zbekistonning sobiq Ittifoq yoqilg'i-energetika tizimidagi mavqeining mustahkamlanishiga ham xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Mazkur tadqiqotning manba bazasini Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi (QVHA/QVDA) fondlaridan olingan hujjatlar, davriy matbuot (“Qashqadaryo haqiqati” gazetasi), shuningdek O.Jo'raqulov, J.Ergasheva, K.Polvonov, O.Omonov kabi mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy asarlari tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-xronologik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi: dastlab mintaqadagi geologik-qidiruv ishlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi, so'ngra yirik konlarning sanoat miqyosida o'zlashtirilishi, gazni qayta ishlash korxonalarining barpo etilish jarayoni hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri xronologik tartibda yoritildi.

Asosiy qism. Sho'rtan neft-gaz sanoatining shakllanishi O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda olib borilgan keng ko'lamli geologik-qidiruv ishlari bilan chambarchas bog'liq edi. Sobiq SSSR rahbariyati tomonidan mamlakatning yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyo hududlarida, ayniqsa Qizilqum sahrosi va Qarshi cho'li mintaqalarida yangi neft va gaz konlarini izlab topishga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari rahbariyati oldiga O'rta Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan qariyb 25 ming kvadrat kilometr maydonda geologik-qidiruv ishlarini olib borish hamda 700 ming metr hajmida chuqur burg'ulash ishlarini amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun neft-gaz qidiruv ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlar tizimi shakllantirildi. Dastlab Sibirdan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan “Sredazneftegazrazvedka” tresti mintaqadagi geologik-qidiruv ishlariga rahbarlik qildi. 1957-yildan boshlab ushbu tashkilot “O'zbekneftegazrazvedka” tresti nomi bilan faoliyat yuritib boshladi. Keyinchalik geologik tadqiqotlar ko'lamining kengayishi natijasida 1961-yilda “Buxoroneftegazrazvedka”, 1962-yilda “Qarshineftegazrazvedka”, 1964-yilda esa “Qoraqalpog'neftegazrazvedka” trestlari tashkil etildi [1]. Bu tuzilmalar O'zbekiston hududida yangi uglevodorod konlarini aniqlash va ularni sanoat miqyosida o'zlashtirish uchun zarur geologik asoslarni yaratdi.

1960-yillarning o'rtalaridan boshlab mintaqada qazib olinayotgan tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt va boshqa qo'shimcha komponentlarni qayta ishlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu sababli sobiq Ittifoq rahbariyati tomonidan Qashqadaryo viloyatida zamonaviy gazni qayta ishlash korxonalarini barpo etish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, 1965-yil 23-avgustda SSSR hukumati gazni qayta ishlash va oltingugurt ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan yirik gaz-kimyoo majmuasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qildi. Oradan ko'p o'tmay, 1965-yil 10-sentabrda SSSR Gaz sanoati vazirligi tomonidan ushbu loyihani amalga oshirish yuzasidan tegishli buyruq e'lon qilindi. Loyihani ilmiy va texnik jihatdan asoslash ishlari “VNIPIgazdobicha”, “Giprogazoochistka”, “Teploproyekt” va “Gosgorximproyekt” kabi yirik ilmiy-tadqiqot va loyihalash institutlari ishtirokida olib borildi [3]. 1967-yil avgust oyida O'zbekiston SSR hukumati tomonidan gaz-kimyoo sanoati obyektlarini qurish uchun zarur yer maydonlarini ajratish bo'yicha tegishli farmoyishlar qabul qilindi.

Korxonaning birinchi navbati 1971–1973-yillar davomida bosqichma-bosqich foydalanishga topshirildi va natijada yiliga 5 milliard kubometr tabiiy gazni qayta ishlash imkoniyatiga ega yirik

sanoat majmuasi shakllandi. Bu davrda zavod nafaqat tabiiy gazni tozalash va tayyorlash, balki uning tarkibidagi qimmatli kimyoviy komponentlarni ajratib olish bo'yicha ham muhim vazifalarni bajara boshladi. 1973-yilda korxonada gaz tarkibidan ajratib olingan oltingugurt asosida 76 ming tonna qimmatbaho kimyo sanoati xomashyosi ishlab chiqarildi. Ushbu ko'rsatkich zavodning iqtisodiy samaradorligini namoyon etibgina qolmay, balki Qashqadaryo viloyatida gaz-kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutganini ham ko'rsatadi. Zavodda ishlab chiqarilgan mahsulotlar kimyo, qishloq xo'jaligi va boshqa sanoat tarmoqlarining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan bo'lsa, korxoning o'zi O'zbekiston neft-gaz sanoatining eng yirik ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi [7].

Qashqadaryo viloyatida neft-gaz sanoatining rivojlanishida O'rtabuloq gaz-kondensat konining o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 1973-yilda gazni kompleks tayyorlash bo'yicha birinchi qurilma — UKPG-1 (Ustanovka kompleksnoy podgotovki gaza) ishga tushirildi va shu bilan bir vaqtda tarkibida yuqori miqdorda oltingugurt mavjud bo'lgan O'rtabuloq gaz-kondensat koni sanoat miqyosida foydalanishga topshirildi. Mazkur qurilmaning ishga tushirilishi qazib olinayotgan gazni dastlabki qayta ishlash, zararli aralashmalardan tozalash va magistral gaz quvurlariga uzatish uchun tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Konning geologik tuzilishi va tabiiy gaz tarkibida oltingugurt birikmalarining yuqori ulushga ega bo'lishi zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni talab etardi, shu sababli gazni kompleks tayyorlash tizimlari bosqichma-bosqich takomillashtirilib, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirildi [8].

Keyinchalik UKPG-2 qurilmasining ishga tushirilishi O'rtabuloq konining ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada oshirdi. Natijada konning yuqori oltingugurtli tabiiy gaz qazib chiqarish quvvati yiliga 4 milliard kub metrga yetkazildi. Bu esa nafaqat Qashqadaryo viloyatida, balki butun O'zbekiston neft-gaz sanoatida gaz qazib olish hajmlarining ortishiga xizmat qildi. O'rtabuloq konining jadal o'zlashtirilishi Sho'rtan, Muborak va boshqa yirik gaz-kondensat konlari bilan birgalikda respublikaning yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo'ldi. Shu tariqa, 1970-yillarning birinchi yarmida O'rtabuloq konida amalga oshirilgan texnologik va ishlab chiqarish yangilanishlari Qashqadaryo viloyatida neft-gaz sanoatining rivojlanish sur'atlarini jadallashtirib, mintaqaning O'zbekiston energetika tizimidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirdi [9].

Muhokama va natijalar. O'tkazilgan tahlil Sho'rtan neft-gaz sanoatining shakllanishi bir qator o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat bo'lganligini ko'rsatadi: 1950–1960-yillardagi geologik-qidiruv ishlari natijasida Sho'rtan, Muborak, O'rtabuloq kabi yirik konlarning aniqlanishi, 1965–1967-yillarda Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurilishi bo'yicha qaror qabul qilinishi va uning bosqichma-bosqich (1971–1973-yillar) foydalanishga topshirilishi, nihoyat 1970-yillarning birinchi yarmida O'rtabuloq konida UKPG-1 va UKPG-2 qurilmalarining ishga tushirilishi. Statistik ma'lumotlar (1973-yilda 76 ming tonna oltingugurt ishlab chiqarilishi, O'rtabuloq konining yiliga 4 milliard kub metr gaz qazib chiqarish quvvatiga yetishi) mintaqaning O'zbekiston yoqilg'i-energetika tizimidagi ahamiyatining tobora oshib borganligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 70–90-yillarida Qashqadaryo viloyatida Sho'rtan neft-gaz sanoatining shakllanishi va rivojlanishi urushdan keyingi davrda boshlangan keng ko'lamli geologik-qidiruv ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi. Sho'rtan, Muborak, O'rtabuloq kabi yirik gaz-kondensat konlarining o'zlashtirilishi, Muborak gazni qayta ishlash zavodining barpo etilishi hamda magistral gaz quvurlari tizimining kengayishi natijasida Qashqadaryo viloyati nafaqat O'zbekiston, balki butun sobiq Ittifoqning yetakchi gaz qazib olish va qayta ishlash markazlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жўрақулов О., Эргашева Ж. Қашқадарё саноати тарихи. – Қарши: Насаф, 1996. – Б.78–79.
2. “ВНИПИГаздобыча” – Газ қазиб чиқариш Бутуниттифок илмий тадқиқот лойиҳалаш институти.
3. Хусанов Ж. Қашқадарё хазинаси // Қашқадарё ҳақиқати, 1969 йил 6 сентябрь.
4. Полвонов К. Қашқадарё вилоятида шаҳарларнинг ташкил топиши ва ривожланиши тарихи (1970–2016 йй.): Тарих фанлари бўйича фалсафа тарихи (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Б.91–93.
5. Қашқадарё вилояти ҳокимлиги архиви (ҚБХА), 767-фонд, 4-рўйхат, 54-иш, 10-варақ.
6. Омонов О. Муборак газни қайта ишлаш заводи 35 ёшда. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. – Б.6–7.
7. Каримов Л. Қашқадарё гиганти // Қашқадарё ҳақиқати, 1973 йил 29 май.

8. ҚВДА, 536-фонд, 1-рўйхат, 585-иш, 71-варақ.

9. ҚВДА, 536-фонд, 1-рўйхат, 585-иш, 72-варақ.

UO'K 94(575.1):28-9

BUXORO TASAVVUF MAKTABI: X–XV ASRLARDA ISLOMIY TAFAKKUR VA MA'RIFAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

J.J. Saburov, PhD, Mir Arab o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada X–XV asrlarda Buxoro tasavvuf maktabining shakllanishi va rivojlanishi, uning islom tarixi, diniy-ma'rifiy tafakkur hamda axloqiy tarbiya taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Buxoro tasavvufiy muhitining nazariy asoslari Abu Bakr Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy merosi orqali, Xojagon maktabining shakllanishi Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy faoliyati orqali, XIV–XV asrlardagi yuksalishi esa Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso va Xoja Ahror Valiy an'analari doirasida yoritiladi. Tasavvufning shariat va ma'rifat uyg'unligini ta'minlash, ilm va amal birligini mustahkamlash, shaxsning axloqiy kamoloti hamda jamiyatdagi ma'naviy muhitni yuksaltirishdagi tarixiy ahamiyati ochib beriladi. Buxoro tasavvuf maktabining X–XV asrlarda islomiy ma'rifatni nazariy jihatdan tizimlashtirishdan amaliy-axloqiy maktab darajasiga ko'tarilgan uzviy taraqqiyot yo'li asoslanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro tasavvuf maktabi, islom tarixi, islom ma'rifati, Abu Bakr Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Xojagon, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, ilm va amal, ma'naviy tarbiya.

Аннотация. В статье анализируются формирование и развитие бухарской суфийской школы в X–XV веках, ее роль в истории ислама, развитии религиозно-просветительской мысли и нравственного воспитания. Теоретические основы суфийской среды Бухары раскрываются через наследие Абу Бакра Калабади и Мустамли Бухари, формирование школы Ходжагон — через деятельность Юсуфа Хамадани и Абдулхалика Гиждувани, а подъем XIV–XV веков — в рамках традиций Бахауддина Накиббанди, Ходжи Мухаммада Парса и Ходжи Ахрара Вали. Раскрывается историческое значение суфизма в обеспечении единства шариата и духовного познания, укреплении единства знания и практики, нравственном совершенствовании личности и возвышении духовной среды общества. Обосновывается преемственный путь развития бухарской суфийской школы в X–XV веках — от теоретической систематизации исламского просвещения к уровню практико-нравственной школы.

Ключевые слова: бухарская суфийская школа, история ислама, исламское просвещение, Абу Бакр Калабади, Мустамли Бухари, Ходжагон, Абдулхалик Гиждувани, Бахауддин Накиббанди, Ходжа Ахрар Вали, знание и практика, духовное воспитание.

Abstract. This article analyzes the formation and development of the Bukhara Sufi school in the 10th–15th centuries and its role in the history of Islam, religious enlightenment, and moral education. The theoretical foundations of Bukhara Sufism are considered through the legacy of Abu Bakr Kalabadi and Mustamli Bukhari; the formation of the Khwajagan tradition is examined in connection with Yusuf Hamadani and Abd al-Khaliq Ghijduwani; and its rise in the 14th–15th centuries is discussed through the traditions of Bahauddin Naqshband, Khoja Muhammad Parsa, and Khoja Ahrar. The study highlights the historical significance of Sufism in harmonizing Sharia and spiritual knowledge, strengthening the unity of knowledge and practice, improving individual morality, and enriching the spiritual environment of society. It argues that between the 10th and 15th centuries the Bukhara Sufi school developed continuously from a theoretical framework of Islamic spirituality into an influential practical and ethical school.

Key words: Bukhara Sufi school, history of Islam, Islamic enlightenment, Abu Bakr Kalabadi, Mustamli Bukhari, Khwajagan, Abd al-Khaliq Ghijduwani, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahrar, knowledge and practice, spiritual education.

Kirish. Buxoro o'rta asrlarda islom ilmlari va ma'rifati rivojlangan yirik ilmiy-ma'naviy markazlardan biri bo'lgan. Bu muhitda hadis, fiqh, aqid va tasavvuf bir-biridan uzilgan yo'nalishlar sifatida emas, balki musulmon shaxsining diniy bilimini, axloqiy qiyofasini va ruhiy tarbiyasini

shakllantiruvchi o'zaro bog'liq ilmiy-ma'rifiy tizim sifatida taraqqiy etgan. Abu Hafs Kabir Buxoriy, Imom al-Buxoriy, Abu Bakr Kalobodiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband va Xoja Muhammad Porso singari allomalarning Buxoro ilmiy muhitida yetishib chiqishi mintaqada islomiy tafakkurning ko'p yo'nalishli rivojlanganini ko'rsatadi [1, 2, 5].

X–XV asrlar Buxoro tasavvuf maktabi tarixida ayniqsa muhim davr hisoblanadi. X–XI asrlarda tasavvufning nazariy tushunchalari izohlanib, sunniylik aqidasi bilan uyg'unligi asoslangan bo'lsa, XII–XIII asrlarda Xojagon maktabi orqali ruhiy tarbiya amaliy tamoyillar bilan boyidi. XIV–XV asrlarda esa Naqshbandiya an'anasi tasavvufni jamiyatdan uzilish emas, balki ilm, mehnat, suhbat, odob va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un ma'naviy hayot shakli sifatida mustahkamladi. Mazkur maqolaning maqsadi ana shu tarixiy uzviylikni islom tarixi va ma'rifati rivoji nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Buxoro tasavvuf maktabining ilk nazariy bosqichini o'rganishda Abu Bakr Muhammad ibn Is'hoq al-Kalobodiyning «at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf» asari muhim manba hisoblanadi. Mazkur asarda tasavvufning asosiy tushunchalari tizimlashtirilgan va tasavvuf ahli e'tiqodining sunniylik aqidiga muvofiqligi yoritilgan [1]. Mustamliy Buxoriyning ushbu asarga yozgan keng sharhi esa mazkur nazariy merosning Buxoro va umuman Markaziy Osiyo ma'rifiy muhitida mustahkamlanishiga xizmat qilgan [2].

Xojagon-Naqshbandiya an'anasining tarixiy shakllanishi va yetuklashuvi to'g'risidagi muhim ma'lumotlar Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu aynil-hayot» hamda Muhammad Boqir Buxoriyning «Maqomoti Xoja Naqshband» asarlarida uchraydi [3, 4]. Bu manbalarda tariqatning silsilasi, ustoz-shogird an'anasi, ruhiy tarbiya usullari, odob va suhbatning o'rni yoritilgan. Najmiddin Komilovning tasavvuf tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlari esa Buxoro tasavvuf maktabining umumislomiy irfon taraqqiyotidagi o'rnini zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan anglashga yordam beradi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda X–XV asrlardagi Buxoro tasavvuf maktabiga doir tarixiy va tasavvufiy manbalar, xususan, Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Faxruddin Ali Safiy va Muhammad Boqir Buxoriy asarlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi. Tarixiylik, manbashunoslik tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish metodlari asosida Buxoro tasavvuf maktabining shakllanish bosqichlari hamda uning islomiy ma'rifatga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.

Tarixiylik metodi X–XV asrlar davomida tasavvufiy fikrning nazariy tizimlashtirishdan amaliy-axloqiy maktab darajasiga o'tishini kuzatish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil orqali Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy asarlaridagi nazariy qarashlar Xojagon-Naqshbandiya an'anasining amaliy tamoyillari bilan qiyoslandi. Tizimli yondashuv esa tasavvuf, fiqh, axloq va ma'rifat o'rtasidagi uzviy aloqani ochib berishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari Buxoro tasavvuf maktabining X–XV asrlardagi rivojini o'zaro bog'langan uch asosiy bosqich hamda ularning islom tarixi va ma'rifatiga ko'rsatgan ta'siri asosida tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi.

1. X–XI asrlarda Buxoro tasavvuf maktabining nazariy-ma'rifiy asoslari

X asrga kelib Buxoro tasavvufiy tafakkurida nazariy tushunchalarni tartibga solish va ularni islom aqidasi bilan uyg'un holda sharhlash ehtiyoji kuchaydi. Abu Bakr Kalobodiy ana shu jarayonning yirik namoyandalari biri bo'lib, uning «at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf» asari tasavvufning mohiyati, istilohlari va e'tiqodiy asoslarini izchil bayon etuvchi muhim manba sifatida shakllandi [1]. Kalobodiy merosining muhim jihati shundaki, tasavvuf alohida, shariatdan tashqaridagi yo'l sifatida emas, balki islomiy e'tiqod, ilm va axloqning ichki-ma'naviy qatlami sifatida talqin qilinadi.

Mustamliy Buxoriy Kalobodiy asariga yozgan sharhi orqali ushbu ilmiy an'anani davom ettirdi. Sharhning yaratilishi Buxoroda tasavvufga oid bilimlar faqat tor doiradagi ruhiy tajriba sifatida emas, balki tushuntiriladigan, o'qitiladigan va avloddan avlodga yetkaziladigan ma'rifiy meros sifatida shakllanganini ko'rsatadi [2]. Shu tariqa X–XI asrlarda Buxoro tasavvuf maktabi islom tarixi uchun muhim bo'lgan ikki vazifani bajardi: birinchidan, tasavvufiy tushunchalarni ilmiy-nazariy tartibga soldi; ikkinchidan, ularni ahli sunna aqidasi va shariat mezonlari bilan bog'liq holda talqin qildi.

Bu bosqich Buxorodagi islomiy ma'rifat rivojida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm, e'tiqod va ruhiy tarbiyaning birgalikda talqin qilinishi musulmon shaxsini faqat ma'lumot egasi emas, balki odobli va mas'uliyatli inson sifatida tarbiyalash g'oyasini kuchaytirdi. Natijada Buxoro tasavvuf maktabining keyingi Xojagon an'anasi uchun nazariy va ma'naviy poydevor yaratildi.

2. XII–XIII asrlarda Xojagon maktabi va amaliy ma'rifat an'anasi

XII asrdan boshlab Buxoro tasavvuf maktabi rivojida yangi bosqich – Xojagon an'anasi shakllandi. Yusuf Hamadoniydan boshlangan ruhiy-ma'rifiy silsila Abdulxoliq G'ijduvoni faoliyati bilan Buxoro muhitida mustahkamlandi. Bu an'anada insonning ichki poklanishi kundalik hayot, odob, suhbat, hushyorlik va amal bilan bog'landi [3, 5]. Shuning uchun Xojagon maktabini faqat zikr va riyozat tizimi sifatida emas, balki shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori va ma'naviy mas'uliyatini tarbiyalovchi maktab sifatida baholash mumkin.

Xojagon an'anasida ustoz va shogird o'rtasidagi ma'rifiy aloqa, suhbat orqali tarbiya, vaqtning qadriga yetish, ichki nazorat va ezgu amal muhim o'rin egallaydi. Bu jihatlar diniy bilimni nazariy darajada qoldirmay, uni shaxsiy xulq va kundalik faoliyatga ko'chirishga xizmat qilgan. Mazkur yo'nalish keyingi Naqshbandiya ta'limotida yanada rivojlanib, ilm va amal birligi Buxoro tasavvuf maktabining asosiy belgilaridan biriga aylangan.

Xojagon maktabining islom ma'rifati tarixidagi o'rni shundaki, u tasavvufiy tarbiyani jamiyatdan uzilish bilan emas, insonlar orasida yashab ma'naviy hushyorlikni saqlash bilan bog'ladi. Bu esa diniy-ma'rifiy faoliyatni xonaqoh doirasidan tashqariga olib chiqib, kundalik mehnat, muomala, kasb va ijtimoiy munosabatlarning axloqiy mazmunini kuchaytirgan.

3. XIV–XV asrlarda Naqshbandiya an'anasining yuksalishi

XIV asrda Bahouddin Naqshband faoliyati bilan Buxoro tasavvuf maktabi yangi yuksalish bosqichiga ko'tarildi. Xojagon an'anasining davomchisi bo'lgan Naqshbandiya ruhiy poklanish bilan ijtimoiy faollikni uyg'unlashtirdi. Tariqatning amaliy qoidalari insonni har bir nafas, qadam, vaqt va qalb holatini nazorat qilishga, ilm va amal o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yo'naltirdi [3, 4].

Naqshbandiya an'anasida «hush dar dam», «nazar bar qadam», «safar dar vatan», «xilvat dar anjuman», «yodkard», «bozgasht», «nigohdosht», «yoddosht», «vuqufi adadiy», «vuqufi zamoniyy» va «vuqufi qalbiy» kabi qoidalar shaxsning botiniy tarbiyasini kundalik xulq va faoliyat bilan uyg'unlashtiradi [3, 4, 5]. Ayniqsa, «xilvat dar anjuman» tamoyili jamiyat orasida yashab, qalbiy hushyorlikni saqlash g'oyasini ifoda etadi. Bu xususiyat Naqshbandiya ta'limotining keng ijtimoiy qatlamlar orasida ommalashishiga ma'naviy zamin yaratgan.

XV asrda Xoja Muhammad Porso va Xoja Ahror Valiy kabi namoyandalar orqali Buxoro tasavvuf maktabining ilmiy-ma'rifiy va axloqiy an'analari davom etdi. Shu davrga kelib Naqshbandiya faqat individual ruhiy kamolot yo'li emas, balki jamiyatdagi odob, o'zaro munosabat, halol mehnat, xalq bilan birga bo'lish va ma'naviy mas'uliyatni targ'ib qiluvchi ta'limot sifatida mustahkamlandi [3, 5].

4. Buxoro tasavvuf maktabining islom tarixi va ma'rifatiga ta'siri

X–XV asrlardagi tarixiy taraqqiyot Buxoro tasavvuf maktabining islom ma'rifatida bir necha muhim funksiyani bajarganini ko'rsatadi. Avvalo, u tasavvufni Qur'on, hadis, aqida va shariat bilan uzviy bog'liq holda talqin qilib, diniy bilimning ichki axloqiy mazmunini kuchaytirdi. Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy merosida bu jarayon nazariy ifodasini topgan bo'lsa, Xojagon va Naqshbandiya an'analari amaliy tarbiya tizimiga aylandi [1, 2, 3, 4].

Ikkinchidan, Buxoro tasavvuf maktabi ma'rifat tushunchasini faqat bilim yig'ish bilan cheklamadi. Ilmning inson xulqida, niyatida, muomalasida va faoliyatida namoyon bo'lishi zarurligi ilgari surildi. Odob, suhbat, hushyorlik, qalb nazorati va amal kabi tushunchalarning markaziy o'ringa chiqishi aynan shu yondashuvning natijasidir. Bu g'oya islomiy ta'limning axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirgan.

Uchinchidan, Buxoro tasavvuf maktabi islom tarixida ilm va jamiyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlovchi omil bo'ldi. Naqshbandiya an'anasida jamiyatdan chekinish emas, xalq orasida bo'lib ruhiy poklikni saqlash, mehnat va foydali faoliyat bilan shug'ullanish qadrlangan [3, 4, 5]. Shu sababli Buxoro tasavvuf maktabining ma'rifiy merosi individual kamolot bilan ijtimoiy mas'uliyatni bir butun jarayon sifatida ko'rishga imkon beradi.

5. X–XV asrlarda tarixiy uzviylik va ma'naviy meros

Buxoro tasavvuf maktabining X–XV asrlardagi rivojida tarixiy uzviylik yaqqol namoyon bo'ladi. X–XI asrlarda Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy tasavvufning nazariy va e'tiqodiy asoslarini izohlab bergan bo'lsalar, XII–XIII asrlardagi Xojagon maktabi bu g'oyalarni amaliy tarbiya tamoyillari bilan boyitdi. XIV–XV asrlarda esa Naqshbandiya ushbu ikki yo'nalish – nazariy ma'rifat va amaliy axloqni birlashtirgan yetuk maktab sifatida namoyon bo'ldi.

Bu uzviylik Buxoro tasavvuf maktabining kuchi faqat alohida bir shayx yoki bir davr faoliyati bilan belgilanmaganini ko'rsatadi. Uning tarixiy ahamiyati asrlar davomida shakllangan ilmiy meros, ustoz-shogird an'anasi, axloqiy tamoyillar va jamiyat bilan aloqador ma'rifiy faoliyatning o'zaro uyg'unligidadir. Shu ma'noda Buxoro tasavvuf maktabi X–XV asrlarda islom tarixining muhim ma'naviy-ma'rifiy markazlaridan biri sifatida shakllandi [1–5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, X–XV asrlarda Buxoro tasavvuf maktabi islomiy tafakkur va ma'rifat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. X–XI asrlarda Abu Bakr Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy tasavvufning nazariy asoslarini tizimlashtirib, uni sunniylik aqidasi va shariat bilan uyg'un holda sharhlashga xizmat qildilar. XII–XIII asrlarda Xojagon an'anasi mazkur nazariy merosni ruhiy-amaliy tarbiya bilan boyitdi, XIV–XV asrlarda Naqshbandiya esa ilm, odob, suhbat, mehnat va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirgan ma'naviy maktab sifatida yuksaldi.

Buxoro tasavvuf maktabining islom tarixidagi asosiy xizmati tasavvufiy tajribani shariat va ilmga qarama-qarshi qo'ymasdan, ularni o'zaro uyg'unlashtirganidadir. Bu maktabda ma'rifat bilim olish, qalbni tarbiyalash, xulqni go'zallashtirish va jamiyatga foydali bo'lish bilan bog'liq yaxlit jarayon sifatida qaralgan. Shu sababli uning merosi o'rta asr Buxorosining diniy-ma'rifiy muhitini tushinishda muhim tarixiy manba va nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tarixiy tajriba Buxoroning faqat alohida tasavvufiy markaz emas, balki islom ilmlari, axloq va ma'rifat uyg'unlashgan yirik madaniy makon bo'lganini ko'rsatadi. Kalobodiydan Xoja Ahror Valiy davrigacha davom etgan uzviy taraqqiyot Buxoro tasavvuf maktabining X–XV asrlarda mintaq ma'naviy hayotiga barqaror va chuqur ta'sir ko'rsatganini asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Is'hoq al-Kalobodiy. at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf. – Qohira: Maktabat al-Kulliyot al-Azhariyya, 1980. – 190 b.
2. Mustamliy Buxoriy, Abu Ibrohim Ismoil. Sharh at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf (Sharh al-Nur ul-muridin) / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi J. Raupov. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2020. – 480 b.
3. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari) / Mas'ul muharrir H. Karomatov. – Toshkent: Adolat, 2004. – 400 b.
4. Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Buxoriy. Maqomoti Xoja Naqshband. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, inv. № 9519. – 187 v.
5. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 272 b.

UO'K 94(575.1)

O'RTA VA QUYI ZARAFSHON VOHASIDAGI KOREYS DIASPORASINING HUDUDIIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI (1950-1990 yillar)

E.D.Saparbayeva, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada 1937 yilgi majburiy ko'chirish natijasida O'zbekistonga keltirilgan koreys aholisining Zarafshon vodiysi hududlari, ya'ni Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi tarixiy taqdiri o'rganiladi. Tadqiqot xronologik jihatdan ikki bosqichga ajratilgan bo'lib, sovet davri (1950 yildan 1990 yilgacha) va mustaqillik davri (1991 yildan 2025 yilgacha) alohida tahlil qilinadi hamda o'zaro qiyoslanadi. Muallif koreyslarning sug'orma dehqonchilik, «kobondi» pudrat instituti, sanoat va ijtimoiy soha orqali hududiy taraqqiyotga qo'shgan hissasini ochib beradi, mahalliy aholi bilan munosabatlarning o'zaro yordam va bag'rikenglik negizida shakllanganini ko'rsatadi. Mustaqillik davrida diasporaning institutsionallashuvi, migratsiya jarayonlari hamda Koreya Respublikasi bilan davlatlararo hamkorlikning hudud rivojiga ta'siri yoritilgan. Uch viloyat

kesimidagi arxiv va statistik ma'lumotlarning tanqisligi tadqiqotning mustaqil ilmiy natijasi sifatida qayd etilgan.

Kalit so'zlar. koreys diasporasi, korë saram, deportatsiya, Zarafshon vodiysi, Buxoro, Samarqand, Navoiy, moslashuv, integratsiya, kobondi, madaniy markazlar, hududiy taraqqiyot.

Аннотация. В статье исследуется историческая судьба корейского населения, переселённого в Узбекистан в результате принудительной депортации 1937 года, на материале областей Зарафшанской долины, а именно Бухарской, Самаркандской и Навоийской областей. Хронологически исследование разделено на два этапа. Советский период (с 1950 по 1990 год) и период независимости (с 1991 по 2025 год) анализируются отдельно и сопоставляются между собой. Автор раскрывает вклад корейцев в региональное развитие через орошаемое земледелие, подрядный институт «кобонди», промышленность и социальную сферу, показывает формирование отношений с местным населением на основе взаимопомощи и толерантности. Освещены институционализация диаспоры в годы независимости, миграционные процессы и влияние межгосударственного сотрудничества с Республикой Корея на развитие региона. Дефицит архивных и статистических данных в разрезе трёх областей зафиксирован как самостоятельный научный результат исследования.

Ключевые слова. корейская диаспора, корë сарам, депортация, Зарафшанская долина, Бухара, Самарканд, Навои, адаптация, интеграция, кобонди, культурные центры, региональное развитие.

Abstract. The article examines the historical destiny of the Korean population resettled to Uzbekistan as a result of the forced deportation of 1937, focusing on the provinces of the Zarafshan valley, namely Bukhara, Samarkand and Navoi. Chronologically the study is divided into two stages. The Soviet period (from 1950 to 1990) and the independence period (from 1991 to 2025) are analysed separately and then compared. The author reveals the contribution of Koreans to regional development through irrigated agriculture, the kobonji contract institution, industry and the social sphere, and shows that their relations with the local population were built on mutual assistance and tolerance. The institutionalisation of the diaspora during independence, migration processes and the impact of interstate cooperation with the Republic of Korea on regional development are highlighted. The scarcity of archival and statistical data at the level of the three provinces is recorded as an independent scholarly result of the study.

Key words. Korean diaspora, koryo saram, deportation, Zarafshan valley, Bukhara, Samarkand, Navoi, adaptation, integration, kobonji, cultural centres, regional development.

XX asr jahon tarixida totalitar davlatlarning etnik siyosati eng fojiali sahifalardan birini tashkil etadi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) Markaziy Komitetining 1937 yil 21 avgustdagi 1428-326cc sonli qarori asosida Uzoq Sharqda istiqomat qilgan butun koreys aholisi Markaziy Osiyoga majburan ko'chirildi [2, 5]. Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko'ra Qozog'istonga 170 mingga yaqin, O'zbekistonga esa 80 mingga yaqin koreys keltirilgan [6]. 1938 yil 15 noyabrga qadar O'zbekiston SSRda 48 ta mustaqil koreys kolxozi tashkil etilib, ularda 5301 xo'jalik jamlangan, yana 5145 xo'jalik respublikaning 211 kolxoz va sovxoziga qo'shib joylashtirilgan [6, 13]. Ko'chirilganlarni qabul qilish va joylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzurida maxsus komissiya faoliyat yuritgan [13].

Мавжуд илмий адабиётларнинг mutlaq ko'pchiligi koreys aholisi eng zich joylashgan Toshkent vohasi materiallariga qurilgan. «Polyarnaya zvezda», «Politotdel», «Severniy mayak» kabi mashhur kolxozlar hamda Kim Pen Xva va Xvan Man Gim singari yetakchilar timsollari butun respublika koreyslari tarixining o'ziga xos ramziga aylangan [7, 12]. Vaholanki Zarafshon vodiysining o'rta va quyi qismini tashkil etuvchi Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi koreys jamoalari tarixi maxsus tadqiqot obyekti sifatida deyarli o'rganilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan ilk urinishlardan biridir.

Uch viloyatni yagona tahliliy makon sifatida qarash uchun jiddiy ilmiy asoslar mavjud. Birinchidan, ularni Zarafshon daryosi havzasi yaxlit tabiiy-xo'jalik tizimiga birlashtiradi.

Ikkinchidan, ma'muriy-hududiy tarixning o'zi shuni taqozo etadi. Navoiy viloyati O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1982 yil 20 apreldagi farmoni bilan Buxoro va Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston hududlarining bir qismidan tashkil etilgan, 1988 yil sentabrda tugatilib Samarqand viloyati tarkibiga kiritilgan, 1989 yil mayda uning katta qismi Buxoro viloyatiga o'tkazilgan va nihoyat 1992 yil 27 yanvarda qayta tiklangan. Demak sovet davrining deyarli butun davomida hozirgi Navoiy hududi Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibida bo'lgan va o'sha davr statistikasi uni alohida aks ettirmaydi. Uchinchidan, 1958 yildan Navoiy shahrining yirik kon-metallurgiya majmuasi negizida bunyod etilishi mintqa iqtisodiyotiga qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda kuchli sanoat komponentini ham qo'shdi.

Buxoro, Samarqand va hozirgi Navoiy hududlarida koreyslarning joylashuvi etnodispers xarakter kasb etdi. Ular yopiq anklavlar hosil qilmasdan o'zbek, tojik va boshqa millat vakillari bilan aralash yashadi. Bunday makon modeli bir tomondan milliy tilning kundalik muomala doirasidan chiqib borishini tezlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mahalliy jamiyat bilan chuqur ijtimoiy aloqalar o'rnatilishiga zamin yaratdi. Asosiy joylashuv nuqtalari sifatida Zarafshon vodiysining sug'orma dehqonchilik tumanlari hamda viloyat markazlari xizmat qildi.

Diasporaning mintqa iqtisodiyotidagi dastlabki va eng salmoqli hissasi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Uzoq Sharqdan olib kelingan sholikorlik tajribasi dastlabki yillarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan bo'lsa, keyinchalik koreys mehnatkashlari paxta, kanop, makkajo'xori, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirishga muvaffaqiyat bilan o'tdi [6, 7]. Alohida tahlilga «kobondi» deb nomlangan xo'jalik instituti loyiqdir. Uning mohiyati shundaki, koreys oilalari va brigadalari bahordan kuzgacha turli viloyatlardagi xo'jaliklardan yer uchastkalarini kelishuv asosida olib, piyoz, poliz va sabzavot yetishtirgan hamda hosil evaziga daromad ulushini olgan [8]. Tarix fani nuqtai nazaridan kobondi rejali iqtisodiyot bag'rida yashab qolgan kvazibozor munosabatlarining noyob namunasi edi. U qatnashchilardan tashabbuskorlik, tavakkalchilik, mehnatni mustaqil tashkil etish va og'zaki kelishuvga sodiqlik kabi sifatlarni talab qilar edi. Ana shu tajriba koreys jamoalarida kuchli ijtimoiy kapital va ishonch tarmoqlarini shakllantirdi. Mavsumiy brigadalarining Samarqand, Buxoro va boshqa viloyatlar bo'ylab harakatlanishi ularni hududlararo iqtisodiy aloqalarning o'ziga xos tashuvchisiga aylantirdi.

Mintqa iqtisodiyotining ikkinchi ustuni sanoat edi. 1958 yildan boshlab Navoiy shahri yirik kon-metallurgiya majmuasi negizida qad ko'tardi va qisqa muddatda respublikaning muhim industrial markaziga aylandi. Yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab shahar aholisining ko'p millatli tarkibini shakllantirdi. Koreyslarning ma'lumot darajasi va kasbiy diversifikatsiyasi hisobga olinsa, ularning bir qismi muhandislik, tibbiyot, ta'lim va boshqaruv sohalarida ishtirok etgan deb taxmin qilish mantiqan asosli. Ayni paytda ilmiy halollik yuzasidan qayd etish lozimki, Navoiy sanoat korxonalarida koreys mutaxassislari ishtirokini bevosita tasdiqlovchi hujjat ushbu tadqiqot doirasida aniqlanmadi va mazkur xulosa arxiv materiallari asosida tekshirilishi zarur bo'lgan tahliliy farazdir.

Ijtimoiy-madaniy jihatdan bu davr «sovet koreysi» identikligining shakllanish davri bo'ldi. Rus tili ta'lim va kasbiy yuksalish tili sifatida ustuvorlik qildi, milliy til esa asosan oilaviy-maishiy doirada saqlanib qoldi [9]. An'anaviy marosimlar sekulyar sovet turmush tarzi doirasida qisqargan holda davom etdi. Shunga qaramay milliy oshxona, to'y va motam odatlari hamda yosh nishonlash an'analari avloddan avlodga o'tib bordi. Bu holat assimilyatsiya emas, balki tanlab moslashish, ya'ni jamoat sohasida integratsiya va oilaviy sohada milliy o'zlikni saqlash strategiyasi sifatida baholanishi to'g'ri bo'ladi.

Mahalliy aholi bilan munosabatlarning tarixiy o'zagi 1937 yil fojiasiga borib taqaladi. Deyarli barcha manbalar va xotiralar o'zbek xalqining ko'chirib keltirilganlarga non, boshpana va mehr bergani haqidagi motivni takrorlaydi [6, 7, 12]. Bu xotira keyingi o'n yilliklarda millatlararo munosabatlarning axloqiy poydevori vazifasini o'tadi. Umumiy mehnat jamoalari, qo'shnichilik, bolalarning bir maktabda o'qishi va kundalik iqtisodiy hamkorlik ikki xalqni yanada yaqinlashtirdi. E'tiborga molik jihat shundaki, 1980 yillarning oxiridagi ijtimoiy taranglik sharoitida ham koreys jamoasi millatlararo ziddiyatlarga tortilmadi va o'zining barqaror ijobiy obro'sini saqlab qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ким Сын Хва. Очерки по истории советских корейцев. Алма-Ата, Наука, 1965.
2. Белая книга о депортации корейского населения России в 30–40-х годах. Книга первая. Москва, 1992.

3. Книга памяти. Архивные списки депортированных российских корейцев в 1937 году. Сост. Пак Чон Хе, О.А. Ли. Москва, 1997.
4. Корейцы. Жертвы политических репрессий в СССР (1934–1938). Сост. С. Ку-Дегай, В.Д. Ким. Москва, Возвращение, 2007.
5. Ким Г.Н. Стереотипы и новые подходы исследования депортации корейцев 1937 года. Электрон нашр (world.lib.ru).
6. Ким Г.Н. Расселение и обустройство депортированных корейцев в Казахстане и Узбекистане. Электрон нашр (world.lib.ru).
7. Хан В.С., Сим Хон Ёнг. Корейцы Центральной Азии. Прошлое и настоящее. Москва, Изд-во МБА, 2014. 256 с.
8. Хан В.С. Историография корейцев Центральной Азии. Основные направления и этапы развития. Монография. 2023.
9. Хан В.С. Изучение корейского языка в Узбекистане в советский и постсоветский периоды. Известия корееведения в Центральной Азии. Выпуск 21. Алматы, 2014.
10. Тен М.Д. Биографический метод в устной истории. Воспоминания о Хван Ман Гыме. Устная история в Узбекистане. Теория и практика. Выпуск 1. Ташкент, 2011.
11. Шин Д.В., Пак Б.Д., Цой В.В. Советские корейцы на фронтах Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. Москва, ИВ РАН, 2011.
12. Ариран 1937. Литературно-художественное и научно-популярное издание. Выпуск 2. Сост. Б. Ким. Ташкент, Baktria press, 2017. 232 с.
13. Рахманкулова А.Х. Документы по истории депортации корейцев. Электрон нашр (kungrad.com).

UO'K 94(575.1):623.1

O'RTA OSIYODA QADIMGI QISHLOQ JAMOALARI MUDOFAA INSHOOTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

M.M.Shakirova, stajyor o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'rta Osiyo hududida qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida mudofaa inshootlari dastlab qishloq jamoalarining yashash hududini chegaralash va himoyalash vositasi sifatida shakllangan bo'lsa, keyingi bosqichlarda ularning vazifalari ijtimoiy-siyosiy, ma'muriy va strategik funksiyalar bilan kengaygani asoslanadi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, qishloq jamoasi, mudofaa inshootlari, istehkom, qal'a, mudofaa devori, xom g'isht, paxsa, bronza davri, ilk temir davri, Xorazm, Baktriya, Marg'iyo.

Аннотация. В статье на основе археологических источников анализируются процессы формирования и исторического развития оборонительных сооружений древних сельских общин Центральной Азии. На примере археологических памятников Копетдагского предгорья, Маргианы, Бактрии, Согда и Хорезма выявляются основные этапы развития оборонительной архитектуры.

Ключевые слова: Центральная Азия, сельская община, оборонительные сооружения, укрепление, крепость, оборонительная стена, сырцовый кирпич, пaxca, бронзовый век, ранний железный век, Хорезм, Бактрия, Маргиана.

Abstract This article examines the formation and historical development of defensive structures of ancient rural communities in Central Asia on the basis of archaeological evidence. Archaeological sites from the Kopet-Dagh foothills, Margiana, Bactria, Sogdiana and Khorezm are used to identify the principal stages in the development of defensive architecture.

Key words: Central Asia, rural community, defensive structures, fortification, fortress, defensive wall, mud brick, paxhsa, Bronze Age, Early Iron Age, Khorezm, Bactria, Margiana.

O'rta Osiyo qadimgi tarixini o'rganishda qishloq jamoalari va ularning moddiy-madaniy taraqqiyoti alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mintaqada sug'orma dehqonchilikning qaror topishi, hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, chorvachilik va dehqonchilikning o'zaro aloqasi, aholi manzilgohlarining yiriklashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida turli tipdagi manzilgohlar shakllangan. Mazkur jarayonlar bilan bir qatorda aholi yashash joylarini tashqi xavfdan himoyalashga qaratilgan me'moriy yechimlar ham takomillashib borgan. O'rta Osiyo me'morchiligining dastlabki ildizlari neolit davriga borib taqaladi. Keyingi davrlarda

xom loy, xom g'isht va paxsa kabi mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish kengaydi.[1] Bronza davriga kelib ayrim yirik manzilgohlarda turar joylar, ibodat inshootlari va hunarmandchilik majmualari bilan birga mustahkamlangan devorlar va darvozalar vujudga kelgan. Galina Pugachenkova ma'lumotlariga ko'ra, bronza davrining protoshahar majmualarida turar joylar, ibodatxonalar va ustaxonalar mudofaa devorlariga ega darvozalari bilan o'ralgan.[1] Mazkur jarayonni O'rta Osiyoning turli tarixiy-madaniy viloyatlarida bir xil ko'rinishda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki Kopetdog' oldi hududlari, Marg'iyona, Baqtriya, Sug'd va Xorazmning tabiiy-geografik sharoitlari, xo'jalik tizimi va tarixiy taraqqiyot sur'atlari bir-biridan farq qilgan.[6] Shu sababli mudofaa inshootlarini o'rganishda ularning nafaqat me'moriy xususiyatlari, balki joylashuvi, xo'jalik muhiti va ijtimoiy funksiyalarini ham hisobga olish zarur. Maqolaning asosiy maqsadi — O'rta Osiyoda qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va funksional xususiyatlarini arxeologik materiallar asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari qadimgi O'rta Osiyo manzilgohlarida mudofaa elementlarining paydo bo'lish jarayonini aniqlash, mudofaa devorlari, minoralar, darvozalar va xandaklarning asosiy turlarini tavsiflash, bronza davridan ilk temir davrigacha mudofaa me'morchiligidagi o'zgarishlarni aniqlash, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'd va Xorazm materiallarini qiyosiy tahlil qilish, mudofaa inshootlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik omillarni aniqlash. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik, xronologik, arxeologik-morfologik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Arxeologik yodgorliklarning mudofaa elementlari o'zaro qiyoslanib, ularning qurilish texnikasi, rejalashtirilishi va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Qadimgi jamoalarning mudofaa tizimini faqat harbiy ehtiyoj bilan izohlash biryoqlama yondashuv bo'ladi. Mudofaa devorlarining paydo bo'lishi, avvalo, aholi manzilgohlarining doimiylashuvi va hududiy jihatdan shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan. O'troq dehqonchilik jamoalari uchun yer, suv manbalari, chorva va ishlab chiqarish vositalarini muhofaza qilish muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rta Osiyoning janubiy hududlarida miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda aholi manzilgohlari tobora yiriklashib bordi. Kopetdog' oldi hududlaridagi Anov, Namozgoh va boshqa manzilgohlar keyingi davrlarda protoshahar taraqqiyotiga asos bo'lgan jarayonlarni ko'rsatadi.[4] Namozgoh madaniyati doirasidagi manzilgohlar bronza davri xronologiyasini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Mudofaa inshootlarining dastlabki ko'rinishlari, ehtimol, manzilgoh chegarasini belgilovchi devorlar shaklida yuzaga kelgan. Vaqt o'tishi bilan devorlarning konstruksiyasi murakkablashib, darvoza, burj va boshqa himoya elementlari qo'shilgan. Oltintepa bunga yaqqol misollardan biridir. Arxeologik ma'lumotlarda ushbu yodgorlik bronza davrining yirik manzilgohi sifatida tavsiflanadi va uning atrofida xom g'ishtdan qurilgan devor hamda to'g'ri to'rtburchak shaklidagi kuzatuv/mudofaa minoralari mavjud bo'lganligi qayd etiladi. Demak, bronza davriga kelib mudofaa inshootlari oddiy to'siq vazifasidan murakkabroq me'moriy tizimga aylana boshlagan.[4] Marg'iyona hududidagi qadimgi manzilgohlar O'rta Osiyo bronza davri sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lgan. Murg'ob daryosi deltasidagi aholi manzilgohlari sug'orma dehqonchilik uchun qulay sharoitda joylashgan. [6] Gonur materiallari shuni ko'rsatadiki, mudofaa me'morchiligi faqat oddiy qishloq manzilgohining himoya devori emas, balki murakkab ijtimoiy markazning tarkibiy qismi sifatida ham shakllangan.[2] Bu jarayonda mudofaa devorlari bir nechta vazifani bajargan, manzilgohni tashqi xavfdan himoyalash, hududiy chegarani belgilash, muhim xo'jalik va ma'muriy inshootlarni himoyalash, jamoaning ichki tashkilotini tartibga solish, markaziy hokimiyat yoki elita mavqeini me'moriy jihatdan namoyon etish. Shu jihatdan mudofaa inshootlari qadimgi jamiyatning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini o'rganishda ham muhim arxeologik manba hisoblanadi. Janubiy O'zbekiston hududi qadimgi Baqtriya tarixini o'rganishda alohida o'rin tutadi.[6] Bu hududda bronza davriga oid Sopolli madaniyati yodgorliklari, jumladan, Sopollitepa va Jarqo'ton kabi manzilgohlar muhim ahamiyatga ega. Sopollitepa mudofaa me'morchiligining o'ziga xos namunalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda yodgorlikning markaziy qismi kvadratga yaqin shakldagi qal'a yoki mustahkamlangan majmua ko'rinishida bo'lib, uning atrofi xom g'isht devorlar bilan o'ralgani qayd etiladi. Yodgorlikning ayrim qismlarida tashqi va ichki devorlar oralig'idagi makon ham aniqlangan. Jarqo'ton esa Baqtriya hududidagi yirik bronza davri

markazlaridan biri bo'lib, uning maydoni 100 gektardan ortiq bo'lgan. Ayrim tadqiqotlarda yodgorlikning katta hududida aniq mudofaa devorlari mavjudligi Sopollitepadagidek ravshan emasligi ko'rsatiladi. Bu holat juda muhim ilmiy masalani yuzaga keltiradi: yirik manzilgohning mavjudligi har doim ham uning to'liq mudofaa devorlari bilan o'ralganligini anglatmaydi. Shundan kelib chiqadiki qadimgi qishloq va ilk shahar jamoalarining mudofaa tizimini o'rganishda manzilgoh hajmi bilan mudofaa inshootlarining mavjudligini tenglashtirmaslik lozim.[9] Miloddan avvalgi I mingyillik boshlariga kelib O'rta Osiyoning bir qator hududlarida mudofaa inshootlarining shakli va konstruksiyasi yanada murakkablashdi. Bu davrda manzilgohlarning ayrimlari qal'a, qo'rg'on yoki mustahkamlangan shahar ko'rinishiga ega bo'ldi. Kuchuktepa yodgorligi so'nggi jez va ilk temir davriga oid qo'rg'on xarobasi sifatida tavsiflanadi. Yodgorlik tarixida bir necha me'moriy bosqich ajratilgan bo'lib, uning ayrim qismlari mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Sug'd hududidagi Ko'ktepa ham ilk temir davri mudofaa tizimini o'rganishda muhim yodgorlikdir. Yodgorlik atrofida mudofaa devori va darvoza o'rinlari aniqlangan, ayrim ma'lumotlarda esa tashqi mudofaa inshootining qoldiqlari ham qayd etiladi. Bu davr mudofaa tizimining muhim xususiyati — manzilgohning nafaqat markaziy qismini, balki kengroq hududini himoyalashga intilishdir.[8] Devorlar, burjlar va darvozalar tizimining takomillashuvi harbiy xavfsizlik ehtiyojlarining oshganidan dalolat beradi. O'rta Osiyoning mudofaa me'morchiligi tarixida Xorazm alohida o'rin egallaydi. Amudaryo quyi oqimining o'ziga xos geografik sharoiti, voha xo'jaligi va dasht hududlari bilan yaqin aloqalar bu yerda o'ziga xos istehkomlar tizimining shakllanishiga olib kelgan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ko'plab qadimgi qal'a va manzilgohlar tadqiq etilgan. Ular qatoriga Ko'zaliqir, Qal'aliquir, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a va boshqa yodgorliklar kiradi. Miloddan avvalgi VII–VI asrlardan milodiy IV asrgacha bo'lgan davr Xorazmda mustahkamlangan yirik manzilgohlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.[5] Zamonaviy tadqiqotlar ushbu qal'alarning ayrimlarini an'anaviy "shahar" sifatida talqin qilish bilan birga, ularning haqiqiy funksiyasi masalasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.[9] Xususan, ayrim yirik mustahkamlangan majmualarda doimiy yashash izlarining cheklanganligi ularning faqat oddiy shahar markazi bo'lmaganligini ko'rsatishi mumkin. Ularning shakllanishi suv ta'minoti, yaylovlar va dehqonchilik hududlarini nazorat qilish bilan ham bog'langan bo'lishi mumkin. Bu holat mudofaa inshootlarining funksiyasi vaqt o'tishi bilan kengayganini ko'rsatadi. Dastlabki himoya devori jamoaning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik qal'a hudud, suv resurslari, xo'jalik va siyosiy markazlarni nazorat qilish vositasiga aylangan.[3] O'rta Osiyo qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarini konstruktiv jihatdan bir necha asosiy guruhga ajratish mumkin. Oddiy mudofaa devorlar- bunday inshootlar manzilgohning tashqi chegarasini belgilagan. Minorali mudofaa tizimi-minora devordan tashqariga chiqib turuvchi konstruksiya sifatida kuzatuv va himoya imkoniyatlarini kengaytirgan. Xandaqli mudofaa tizimi-ayrim manzilgohlarda devorning tashqi tomonida xandaq bo'lgan. Bunday tizim devorga to'g'ridan-to'g'ri yaqinlashishni qiyinlashtirgan. Ichki qal'a yoki sitadel-yirik manzilgohlarda tashqi devor bilan birga alohida ichki mustahkamlangan markaz shakllangan. Bunday markaz ma'muriy, diniy yoki harbiy vazifalarni bajargan bo'lishi mumkin. O'rta Osiyoning qadimgi mudofaa me'morchiligida mahalliy xomashyodan foydalanish ustuvor bo'lgan. Xom g'isht, paxsa, loy va tuproq asosidagi konstruksiyalar keng qo'llanilgan. Buning asosiy sababi mintaqaning tabiiy sharoiti bilan bog'liq. Janubiy O'rta Osiyo vohalarida loy va allyuvial tuproqlarning ko'pligi xom g'isht ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratgan.[5] Gonurtepa hududida ham arxitekturaning katta qismi loydan tayyorlangan g'ishtlardan qurilgani qayd etiladi. Xom g'ishtdan foydalanishning yana bir afzalligi uning mahalliy sharoitda tez va nisbatan kam xarajat bilan tayyorlanishidir. Biroq mudofaa devorlarida oddiy g'isht bilan bir qatorda qalin devorlar, ko'p qatlamli konstruksiyalar va paxsa elementlaridan foydalanilgan.[2] Jarqo'ton mudofaa devorlarida ishlatilgan xom g'ishtlarning o'lchamlari bo'yicha ham arxeologik ma'lumotlar mavjud. Bu materiallar qurilish texnikasi va standartlashuv darajasini o'rganish imkonini beradi. Qadimgi O'rta Osiyoda mudofaa inshootlarining paydo bo'lishi birgina harbiy xavf bilan izohlanmaydi. Bu o'troq turmush tarzining qaror topishi, doimiy manzilgohlarning shakllanishi aholini o'z yashash hududini himoyalashga undagan. Suv kanallari, ekin maydonlari va hosilni saqlash joylari jamoa uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Keyingi o'rinda ijtimoiy tabaqalanish jihatidan jamiyat murakkablashgan sari ayrim

markazlarda boshqaruv va ma'muriy funksiyalar mujassamlashgan. Bunday markazlarni himoyalash zarurati kuchaygan. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida qimmatbaho buyumlar, xomashyo, metall va boshqa mahsulotlarning to'planishi ularni himoya qilish ehtiyojini kuchaytirgan. Xorazmda Amudaryo deltasi, Marg'iyonada Murg'ob vohasi, Baqtriyada tog'oldi va voha hududlari mudofaa tizimining joylashuviga o'z ta'sirini ko'rsatgan.[3] O'rta Osiyo materiallari asosida qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqich — miloddan avvalgi IV–III mingyilliklar. Manzilgohlarning hududiy jihatdan shakllanishi va ularni devorlar yordamida chegaralash jarayoni kuzatiladi. Mudofaa elementlari hali nisbatan sodda xarakterga ega. Ikkinchi bosqich — miloddan avvalgi III–II mingyilliklar. Bronza davrida yirik manzilgohlarning shakllanishi bilan mudofaa devorlari, mustahkamlangan darvozalar va minorali konstruksiyalar rivojlanadi. Oltintepa va Gonurtepa kabi yodgorliklar mazkur jarayonning muhim dalillarini beradi.[2] Uchinchi bosqich — miloddan avvalgi II mingyillik oxiri – I mingyillik boshlari. Qishloq manzilgohlarining ayrimlari qo'rg'on va mustahkamlangan markazlar ko'rinishini oladi. Kuchuktepa kabi yodgorliklarda bir necha me'moriy bosqichlarning mavjudligi mudofaa tizimining asta-sekin takomillashganini ko'rsatadi.[7] To'rtinchi bosqich — miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarmi. Xorazm, Sug'd va Baqtriyada yirik qal'a va shahar tipidagi mustahkamlangan markazlar shakllanadi. Qal'a devorlari, darvozalar, burjlar va ichki sitadellar murakkab mudofaa tizimini tashkil etadi. Beshinchi bosqich — milodiy ilk o'rta asrlar. Mudofaa inshootlarining funksiyasi yanada kengayib, ular shahar va vohalarning siyosiy-ma'muriy tuzilmasining muhim qismiga aylanadi. X asrgacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo vohalarida qal'a va qo'rg'onlarning ko'p funksiyali tizimi shakllangan. Xorazm misolida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar ham mustahkamlangan majmualarning funksiyasini faqat "shahar" tushunchasi bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Ayrim qal'alar hududni, suv resurslarini va xo'jalik tizimini nazorat qilish markazi sifatida faoliyat yuritgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, mudofaa inshootlari qadimgi jamiyatdagi iqtisodiy resurslar, aholi, ishlab chiqarish va boshqaruv tizimini birlashtiruvchi me'moriy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa. O'rta Osiyoda qadimgi qishloq jamoalari mudofaa inshootlarining shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, uning ildizlari miloddan avvalgi IV mingyillikka borib taqaladi. Dastlab mudofaa elementlari manzilgoh chegaralarini belgilash va aholini himoyalash vazifasini bajargan bo'lsa, bronza davriga kelib ular murakkab me'moriy tizimga aylangan. Bronza davrida Oltintepa, Gonurtepa va Baqtriyaning ayrim yodgorliklarida mudofaa devorlari, mustahkamlangan darvozalar va boshqa himoya elementlarining rivojlanishi kuzatiladi. Ilk temir davrida mudofaa inshootlarining konstruktiv va funksional imkoniyatlari kengayib, qo'rg'onlar, qal'alar va mustahkamlangan shaharlar tizimi rivojlandi. Kuchuktepa va Ko'ktepa kabi yodgorliklar ushbu jarayonni o'rganish uchun muhim manbalardir. Xorazm hududida esa miloddan avvalgi I mingyillikning ikkinchi yarmidan boshlab yirik mustahkamlangan majmualarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Ularning funksiyasi faqat mudofaa bilan cheklanmay, suv resurslari, xo'jalik hududi va siyosiy nazorat bilan ham bog'liq bo'lgan. Umuman olganda, qadimgi O'rta Osiyo mudofaa inshootlarining rivojlanishi o'troq dehqonchilikning taraqqiyoti, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, ijtimoiy tabaqalanish, resurslar ustidan nazorat va siyosiy markazlashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu sababli mudofaa inshootlarini o'rganish O'rta Osiyo qadimgi jamiyatlarining nafaqat harbiy tarixini, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va urbanistik taraqqiyotini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pugachenkova G. A. Architecture iv. Central Asian. Encyclopaedia Iranica.
2. Dubova N. A. Gonur Depe – City of Kings and Gods, and the Capital of Margush Country. In: Urban Cultures of Central Asia from the Bronze Age to the Karakhanids. Wiesbaden, 2019.
3. Negus Cleary M. Khorezmian Walled Sites of the Seventh Century BC—Fourth Century AD: Urban Settlements? Elite Strongholds? Mobile Centres? Iran, Vol. 51, Issue 1, 2013, pp. 71–100.
4. Urban Cultures of Central Asia from the Bronze Age to the Karakhanids: Learnings and conclusions from new archaeological investigations and discoveries. JSTOR Open Access.
5. The rise of bronze in Central Asia: new evidence for the origin of Bronze Age tin and copper from multi-analytical research. Frontiers in Earth Science, 2023.
6. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. The Territory of Ancient Uzbekistan in the Bronze Age.

7.Kuchuktepa haqidagi arxeologik ma'lumotlar. O'zbekiston ensiklopedik manbalari.

8.Ko'ktepa haqidagi arxeologik ma'lumotlar. O'zbekiston ensiklopedik manbalari.

9.Sopollitepa va Jarqo'ton bo'yicha zamonaviy arxeologik ma'lumotlar.

UO'K 94(575.1)"15":82-94

ZAYNIDDIN VOSIFIYNING «BADOYE' UL-VAQOYE'» ASARIDA XVI ASR TOSHKENT MUHITI

G.Soliyeva, *mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» asari asosida XVI asr Toshkentining ijtimoiy, diniy-ilmiy va adabiy-madaniy muhiti tahlil qilinadi. Asardagi ulamo va fuzalolar faoliyati, masjid va madrasalarning jamoat hayotidagi o'rni hamda diniy-ilmiy munozaralar yoritiladi. Shuningdek, Toshkentning tabiiy-geografik qiyofasi va adabiy muhiti haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinib, asarning Toshkent tarixini o'rganishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Zayniddin Vosifiy, «Badoye' ul-vaqoye'», Toshkent, XVI asr, shahar muhiti, ulamolar, fuzalolar, masjid, madrasa, fiqh, adabiy muhit.

Аннотация. В статье на основе произведения Зайнуддина Васифий «Бадое' ул-вақое'» анализируется социальная, религиозно-научная и литературно-культурная среда Ташкента XVI века. Освещается деятельность ученых и интеллектуалов, роль мечетей и медресе в общественной жизни, а также религиозно-научные дискуссии. Кроме того, анализируются сведения о природно-географическом облике Ташкента и его литературной среде, раскрывается значение произведения для изучения истории Ташкента.

Ключевые слова: Зайнуддин Васифий, «Бадое' ул-вақое'», Ташкент, XVI век, городская среда, ученые, интеллектуалы, мечеть, медресе, фикх, литературная среда.

Abstract. This article analyzes the social, religious, scholarly, and literary-cultural environment of sixteenth-century Tashkent based on Zayniddin Vasifi's work *Badoye' ul-vaqoye'*. The activities of scholars and intellectuals, the role of mosques and madrasas in public life, and religious and scholarly discussions are examined through the information provided in the work. The article also analyzes descriptions of Tashkent's natural and geographical features and its literary environment, demonstrating the significance of *Badoye' ul-vaqoye'* as an important historical source for studying the history of Tashkent.

Keywords: Zayniddin Vasifi, *Badoye' ul-vaqoye'*, Tashkent, sixteenth century, urban environment, scholars, intellectuals, mosque, madrasa, fiqh, literary environment.

Kirish. XVI asrning birinchi yarmi Movarounnahr tarixida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning murakkab kechgan davrlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda Toshkent shahri Movarounnahrning muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Shaharning ijtimoiy hayoti, diniy-ilmiy muhiti, hukmdorlar va ulamolar o'rtasidagi munosabatlar hamda adabiy hayotini o'rganishda yozma manbalar muhim ahamiyatga ega. Shunday manbalardan biri Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» («Nodir voqealar») nomli memuar asaridir. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, unda muallifning shaxsiy kuzatuvlari, turli tarixiy voqealar, mashhur kishilar bilan bog'liq hikoyalar hamda davrning ilmiy-adabiy hayotiga oid ma'lumotlar jamlangan. Tadqiqotlarda asarda XVI asrning birinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson, Turkiston va Eron hududlarining ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayoti aks etgani qayd etiladi.

Tadqiqot materiallari. Tadqiqotning asosiy manbasi Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» asaridir. Asarning ilmiy-tanqidiy matni A.N. Boldirev tomonidan tayyorlanib nashr etilgan. Mazkur ilmiy-tanqidiy matn asosida Naim Norqulov tomonidan asarning o'zbekcha qisqartirilgan tarjimasini 1979-yilda Toshkentda nashr qilingan. Maqolada, shuningdek, «Badoye' ul-vaqoye'»ga oid ilmiy tadqiqotlar, tarixshunoslikka oid adabiyotlar va asarning Toshkent shahri bilan bog'liq mazmunini yorituvchi ilmiy materiallardan foydalanildi. Manbaning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda Toshkentning siyosiy voqealari bilan bir qatorda shaharning ijtimoiy va madaniy hayoti, adabiy muhiti, unda yashagan yoki faoliyat yuritgan shoir, adib, xattot va boshqa ziyolilar

haqida ma'lumotlar beriladi [1]. Shuningdek, Toshkentning tabiiy sharoiti, bog'-rog'lari, havosi va suvlari ham tasvirlangan.

Metodlar. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanildi. «Badoye' ul-vaqoye'»dagi ma'lumotlarni tahlil qilishda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy hamda mikro tarixiy yondashuvlardan foydalanildi.

Natijalar. Toshkentning ijtimoiy muhiti. «Badoye' ul-vaqoye'»dagi Toshkentga oid ma'lumotlar shaharda turli ijtimoiy va ma'naviy qatlamlar faoliyat yuritganini ko'rsatadi. Asarda akobir, a'yon, ashrof, ulamo va fuzalolar kabi guruhlarining nomlari uchraydi. Bu ma'lumotlar Toshkent jamiyatida nafaqat siyosiy-hukmron qatlam, balki ilmiy va diniy ziyolilar ham muhim mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi.

Vosifiy asarida Toshkentdagi ilm ahlining majlislari va suhbatlariga ham alohida e'tibor beradi. Xoja Ubaydulloh madrasasi bilan bog'liq majlislar shahar ilmiy muhitining muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [3]. Bunday yig'inlarda diniy va falsafiy masalalar muhokama qilingan. Asardagi ma'lumotlardan masjid va madrasalar faqat ibodat yoki ta'lim berish joyi bo'lib qolmaganini, balki kishilar muloqot qiladigan, ilmiy masalalar muhokama qilinadigan va jamoatchilik hayotiga oid muammolar yuzasidan fikr almashiladigan maskanlar bo'lganini ko'rish mumkin. Toshkentning diniy-ilmiy muhitini yoritishda Vosifiy keltirgan ilmiy majlislar alohida ahamiyatga ega. Asarda diniy masalalar bilan bir qatorda mavjudlik, inson va jamiyat, diniy qarashlar kabi masalalarga oid munozaralar ham uchraydi. Xoja Ubaydulloh madrasasidagi ilmiy suhbatlarda Shayx Muhyiddin, Shayx Alouddavla Simmoniy va Aynulquzot Hamadoniy kabi mutafakkirlarning qarashlariga murojaat qilingani davr ilmiy muhitining nazariy manbalarga tayanganini ko'rsatadi. Shuningdek, Suyunchxo'jaxon ishtirokidagi majlislardan birida diniy-huquqiy masala yuzasidan munozara bo'lgani haqida ma'lumot beriladi. Unda soqol olishning sunnat yoki mustahab ekanligi masalasi muhokama qilinib, fiqhiy asarlarga murojaat qilingan. Bu holat Toshkentdagi diniy-ilmiy doiralarda fiqhiy masalalarni muhokama qilish an'anasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. «Hidoya» va «Sharhi Viqoya» kabi fiqhiy asarlarga murojaat qilinishi esa o'sha davr ulamolari o'z fikrlarini mashhur huquqiy manbalar asosida dalillashga intilganini ko'rsatadi [3].

Masjid va madrasalarning jamoat hayotidagi o'rni. «Badoye' ul-vaqoye'»dagi Toshkentga oid lavhalarda masjid va madrasalarning jamiyat hayotidagi o'rni yaqqol ko'rinadi. Masjid ibodat joyi bo'lish bilan birga diniy bilim berish, savol-javob va jamoaviy muloqot markazi vazifasini ham bajargan. Vosifiyning masjidda imomlik qilishi va namozdan keyin «Viqoya» asariga oid fiqhiy masalalarni tushuntirishi bu fikrni tasdiqlovchi muhim dalildir. Bunday faoliyat diniy ta'limning kundalik hayot bilan bevosita bog'langanini ko'rsatadi. Masjid atrofida yuzaga kelgan ayrim masalalarning mahalliy hokimiyat, qozilik va jamoatchilik ishtirokida hal qilinishi esa diniy muassasalarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini ko'rsatadi.

Toshkentning adabiy-madaniy muhiti. «Badoye' ul-vaqoye'» Toshkentning adabiy-madaniy muhitini o'rganish uchun ham muhim ma'lumotlarni beradi. Asarda Toshkent fuzalolari, shoirlari va adabiyotga qiziqqan kishilarning faoliyati haqida ma'lumotlar uchraydi. Toshkent fuzalolarining Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy» asarini mutolaa qilishi shaharda mumtoz adabiyot va tasavvufiy-falsafiy asarlarga qiziqish mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Vosifiy Toshkentning tabiiy va estetik qiyofasini ham badiiy tasvirlaydi. «Badoye' ul-vaqoye'»da Toshkentning go'zalligi, bog'-rog'lari, havosi va zilol suvlari madh etilgan 83 baytdan iborat masnaviy mavjudligi qayd etilgan [5]. Mazkur tasvirlar Toshkentning XVI asrda nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki estetik va madaniy makon sifatidagi qiyofasini ham tasavvur qilish imkonini beradi. Manbadagi ayrim voqealar hukmdor hokimiyati, qozilik va diniy-ilmiy doiralar o'rtasidagi munosabatlarni ham kuzatish imkonini beradi. Suyunchxo'jaxon atrofida ulamo va fuzalolarning to'planishi hukmdor saroyining ilmiy va diniy vakillar bilan aloqada bo'lganini ko'rsatadi [1]. Diniy masalalarning hukmdor huzurida muhokama qilinishi esa ulamolarning jamoat va siyosiy hayotdagi nufuzini ko'rsatadigan dalillardan biridir. Shuningdek, masjid bilan bog'liq ayrim nizolarda mahalliy hokim, qozi va jamoatchilikning ishtirok etishi diniy muassasalar faoliyati davlat boshqaruvi va huquqiy tizim bilan uzviy aloqada bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa. «Badoye' ul-vaqoye'»dagi Toshkentga oid ma'lumotlar XVI asrning birinchi yarmida shaharning ijtimoiy, diniy-ilmiy va adabiy-madaniy hayoti ancha rivojlanganini ko'rsatadi. Asarda ulamo va fuzalolarning faoliyati, masjid va madrasalarning ta'lim, ilmiy muloqot va jamoat hayotidagi o'rni haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Fiqhiy asarlarning mutolaa qilinishi va ilmiy munozaralarning mavjudligi Toshkentda diniy-ilmiy an'analar shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, adabiy majlislar, «Masnaviy» mutolaasi hamda shahar bog'lari, suvlari va tabiiy qiyofasining tasviri Toshkentning nafaqat ilmiy-diniy, balki adabiy-madaniy hayoti ham rivojlanganini ko'rsatadi. Shu jihatdan «Badoye' ul-vaqoye'» XVI asr Toshkentining ijtimoiy hayoti va shahar muhitini kompleks o'rganishda muhim tarixiy-memuar manba sifatida katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vosifiy, Zayniddin. Badoye' ul-vaqoye'. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
2. Boldirev, A.N. Zayn ad-din Vasifi. Bada'e ul-vaqa'e. Kriticheskiy tekst. – Moskva–Leningrad: Nauka, 1961.
3. Vosifiy Z.M. Badoye' ul-vaqoye'. Matnni tayyorlash va tuzish: M. Dilorov. –Dushanbe: Adib, 2017. – 480 b.
4. Saidalizoda R.A. «Бадоеъ-ул-вақоеъ»-и Зайниддин Махмуди Восифӣ ҳамчун сарчашмаи таърихӣ-этнографии асрҳои XV–XVI: diss. ... tarix fanlari. – Dushanbe, 2026
5. Temirova G. Zayniddin Vosifiyning “Badoye' ul-vaqoye'” asari – Buxoro tarixiga oid muhim manba // Modern Science and Research.
6. Radjabova B.T. “Temuriylar renessansi va Alisher Navoiy (“Boburnoma” misolida)” // O'zbekiston: til va madaniyat. – 2020.
7. Radjabova B.T. “Temuriylar renessansi va Alisher Navoiy (“Boburnoma” misolida)” // O'zbekiston: til va madaniyat. – 2020.
8. To'rayev H. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: Durdona, 2023
9. Alisher Navoiy ensiklopediyasi. I jild (A–H). – Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024

UO'K 370.2

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA HUQUQIY ONG TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

J.I.Soliyev, o'qituvchi, 70-maktab, Namangan tumani

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida huquqiy ongning mazmuni va uning transformatsion xususiyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning shaxs huquqiy tafakkuri, huquqiy qadriyatlarini hamda huquqiy xulq-atvoriga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, raqamli transformatsiya, axborot muhiti, huquqiy tafakkur, tarmoqlar, huquqiy xulq-atvor.

Аннотация. В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются содержание правового сознания и особенности его трансформации в условиях цифрового общества. Особое внимание уделяется влиянию информационно-коммуникационных технологий, Интернета, социальных сетей и цифровых платформ на правовое мышление личности, правовые ценности и правовое поведение.

Ключевые слова: цифровое общество, правовое сознание, правовая культура, цифровая трансформация, информационная среда, правовое мышление, социальные сети, правовое поведение.

Abstract. This article analyzes the content of legal consciousness and its transformational characteristics in the context of a digital society from a socio-philosophical perspective. Particular attention is paid to the influence of information and communication technologies, the Internet, social networks, and digital platforms on individuals' legal thinking, legal values, and legal behavior.

Keywords: digital society, legal consciousness, legal culture, digital transformation, information environment, legal thinking, social networks, legal behavior.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida raqamli texnologiyalar ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon insonning axborotni qabul qilishi, baholashi va undan foydalanish usullarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ayniqsa, huquqiy

axborotning internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalar orqali tezkor tarqalishi fuqarolarning huquqiy ongiga yangi mazmun bermogda. Natijada huquqiy bilim, huquqiy qadriyat va huquqqa munosabatning shakllanish mexanizmlari ham transformatsiyaga uchramogda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo'yicha mahalliy olimlardan Z.M. Islomov huquqiy ongning mazmuni, tarkibi va uning huquqiy munosabatlardagi o'rnini tadqiq etgan[1]. U. Tadjixanov va A.X. Saidov huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq nazariy jihatlarini yoritgan[2]. Xorijiy olimlardan P. Ewick va S.S. Silbey huquqiy ongni shaxsning kundalik hayotda huquqni idrok etishi va unga munosabati bilan bog'liq holda tahlil qilgan[3]. L. Lessig esa raqamli makonda qonun bilan bir qatorda texnologik kod va raqamli arxitektura ham inson xulq-atvorini tartibga soluvchi omil ekanligini asoslagan[4]. Mazkur yondashuvlar huquqiy ongning raqamli jamiyat sharoitidagi transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Huquqiy ong jamiyat huquqiy hayotining muhim tarkibiy elementi bo'lib, u shaxsning mavjud huquqiy voqelikni anglash, baholash hamda unga muayyan munosabat bildirish jarayonlarini qamrab oladi. Sh.A. Saydullayev huquqiy ongni kishilarning huquq, qonunchilik, huquq-tartibot va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan g'oyalari, his-tuyg'ulari hamda tasavvurlari majmui sifatida izohlaydi. Bunda huquqiy ong nafaqat mavjud huquqiy voqelikni aks ettiradi, balki huquqning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini baholash, huquq normalarini amaliyotga tatbiq etish va shaxs xulq-atvorini huquqiy mezonlar asosida tartibga solishda ham ishtirok etadi[5].

Raqamli jamiyatning shakllanishi mazkur jarayonga mutlaqo yangi ijtimoiy sharoitlarni olib kirdi. G.G'affarova zamonaviy jamiyat evolyutsiyasini bilim jamiyatidan tarmoqli jamiyatga, undan esa raqamli jamiyatga transformatsiyalanish jarayoni sifatida baholaydi. Raqamli va tarmoqli jamiyat sharoitida insonning dunyoni anglash usullari hamda tafakkurning yangi ko'rinishlari yuzaga kelayotganini ta'kidlaydi[6]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, raqamlashtirish huquqiy ongning faqat tashqi axborot manbalarini emas, balki huquqiy voqelikni idrok etish mexanizmini ham o'zgartirmogda. Fuqaro qonun mazmuni bilan endilikda faqat rasmiy hujjat, huquqshunos yoki an'anaviy ommaviy axborot vositasi orqali emas, balki elektron huquqiy bazalar, davlat portallari, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa raqamli platformalar orqali ham tanishmogda.

Huquqiy axborotning raqamli shaklda tarqalishi huquqiy ongning individual va ommaviy darajalari o'rtasidagi munosabatni ham jadallashtirdi. A.O'.Muhammadiyev huquqiy tartibga solish mexanizmini huquq normalari, huquqiy munosabatlar, subyektlar xulq-atvori va huquqiy axborot oqimlarini birlashtiruvchi ko'p tizimli axborot tuzilmasi sifatida ko'rsatadi. Muallif huquqiy ongning individual, jamoaviy va ommaviy shakllarini ham huquqiy axborot tuzilmalari bilan bog'liq mexanizmlar sifatida qayd etadi. Huquqiy axborotni tezkor tarqatish esa huquqiy axborot tizimining alohida ijtimoiy-huquqiy maqsadlaridan biri sifatida ko'rsatiladi[7].

Mazkur holat huquqiy ongning epistemologik xususiyatini ham o'zgartirmogda. Avval huquqiy bilimning shakllanishida professional institutlar va nisbatan barqaror axborot manbalari yetakchi bo'lgan bo'lsa, raqamli jamiyatda turli darajadagi, turli maqsadlarda yaratilgan va ba'zan bir-biriga zid axborotlar parallel ravishda tarqaladi. Shu sababli zamonaviy shaxsning huquqiy ongi faqat huquqiy ma'lumotni olish qobiliyati bilan emas, balki uni tanlash, manbaning ishonchliligini tekshirish, huquqiy va nohuquqiy axborotni farqlash hamda tanqidiy baholash qobiliyati bilan ham belgilanadi. F.A. Satvoldiyev huquqiy ongni huquqiy tartibga solish mexanizmining barcha bosqichlari bilan bog'lab, uning huquqiy normalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi[8]. Raqamli sharoitda ushbu jarayonga axborotning sifati va uni talqin qilish mexanizmi ham bevosita qo'shiladi.

Xorijiy ilmiy yondashuvlarda ham huquqiy ong qonunni oddiy bilish darajasidan kengroq ijtimoiy fenomen sifatida tushuntiriladi. S.S. Silbey huquqiy ong tadqiqotlarida e'tiborni rasmiy yuridik institutlardan oddiy insonlarning kundalik hayotda huquqni qanday tasavvur qilishi, talqin etishi va unga qanday munosabatda bo'lishiga qaratish zarurligini ko'rsatadi. Uning yondashuvida huquq insonlarning kundalik ijtimoiy munosabatlarini tushunish va talqin qilishda ishtirok etadigan konseptual kategoriyalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi[9]. Bu yondashuv raqamli jamiyat uchun

alohida ahamiyatga ega, chunki insonning bugungi kundalik hayoti onlayn va oflayn faoliyatning o'zaro qo'shilib borishi bilan tavsiflanadi.

Raqamli muhitning inson hayotiga chuqur kirib borishini boshqa tadqiqotlarda ham ko'rish mumkin. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi insonning o'zi, boshqa insonlar va atrof-muhit bilan munosabatini o'zgartirayotgani, real va virtual voqelik o'rtasidagi chegaralar tobora xiralashib borayotgani ta'kidlanadi[10]. Mazkur holat huquqiy ongga tatbiq etilganda, shaxsning huquq va majburiyatlar haqidagi tasavvurlari endilikda faqat an'anaviy ijtimoiy makonda emas, raqamli faoliyat, raqamli identifikatsiya, elektron kommunikatsiya va platformalardagi munosabatlar doirasida ham shakllanishini anglatadi. Raqamli jamiyatda huquqiy ong transformatsiyasining yana bir muhim xususiyati shundaki, shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi reguliyatorlar doirasi kengaymoqda. L. Lessig raqamli makonda xulq-atvorni qonun, ijtimoiy normalar, bozor va arxitektura – ya'ni dasturiy kod va texnologik tuzilma birgalikda tartibga solishini ko'rsatadi. Muallifning fikricha, dasturiy kod muayyan xatti-harakatni mumkin yoki imkonsiz qilish orqali reguliyativ vazifani bajarishi mumkin[11]. Demak, raqamli muhitda huquqiy ongning shakllanishi faqat davlat tomonidan o'rnatilgan yuridik normalarga munosabat bilan cheklanmaydi; texnologik platformaning o'zida belgilangan qoidalar va imkoniyatlar ham shaxsning "mumkin", "mumkin emas", "ruxsat etilgan" yoki "taqiqlangan" degan tasavvurlariga ta'sir qiladi.

Raqamli boshqaruvda algoritmning keng qo'llanishi mazkur transformatsiyaning keyingi bosqichini tashkil etmoqda. K. Yeung "algorithmic regulation" tushunchasi orqali katta ma'lumotlar, doimiy monitoring va hisoblash tizimlari yordamida inson xulq-atvorini kuzatish, prognozlash yoki muayyan yo'nalishga o'zgartirish imkoniyati paydo bo'lganini ko'rsatadi[12].

Xulosa. Raqamli jamiyatning shakllanishi huquqiy ongning an'anaviy chegaralarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Endilikda shaxsning huquqqa munosabati faqat qonun normalarini bilish yoki ularga rioya etish bilan belgilanmaydi, balki raqamli makonda qaror qabul qilish, axborot manbalarini baholash va texnologik vositalardan mas'uliyatli foydalanish bilan ham uzviy bog'lanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islomov Z.M. *Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi*. – Toshkent: TDYI, 2005. – B. 122.
2. Tadjixanov U., Saidov A. *Huquqiy madaniyat nazariyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. – B. 33.
3. Ewick P., Silbey S.S. *The Common Place of Law: Stories from Everyday Life*. – Chicago: University of Chicago Press, 1998. – P. 53–55.
4. Lessig L. *Code: And Other Laws of Cyberspace, Version 2.0*. – New York: Basic Books, 2006. – P. 1–7.
5. Saydullayev Sh.A. *Davlat va huquq nazariyasi*. – Toshkent: TDYU, 2021. – B. 113
6. G'affarova G. *Axborotlashgan jamiyat falsafasi: monografiya*. – Toshkent: SARBON LLS, 2024. – B. 3.
7. Muhammadiyev A.O'. *Huquqiy informatika*. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B. 34.
8. Satvoldiyev F.A. *Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari*. – Namangan, 2024. – B. 182.
9. Silbey S.S. *After Legal Consciousness // Annual Review of Law and Social Science*. – 2005. – Vol. 1. – P. 327.
10. Floridi L. (ed.). *The Onlife Manifesto: Being Human in a Hyperconnected Era*. – Cham: Springer, 2015. – P. 7.
11. Lessig L. *Code: Version 2.0*. – New York: Basic Books, 2006. – P. 125.
12. Yeung K. *Algorithmic Regulation: A Critical Interrogation // Regulation & Governance*. – 2018. – Vol. 12, No. 4. – P. 505.

UO'K 631.526.32:551.58(575.1

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA BUXORO VOHASIDA AGROIQLIM SHAROITGA MOS EKIN NAVLARINI SINASH VA RAYONLASHTIRISH JARAYONLARI (1991–2010-yillar)

M.S.Tog'oyeva, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
ORCID:0009-0001-5651-513X

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1991–2010-yillarda Buxoro viloyatida yangi qishloq xo'jaligi ekin navlarining tarqalishi, mahalliy va xorijiy navlarning ishlab chiqarishga joriy etilishi hamda bu

jarayonning agrar islohotlar bilan bog'liq jihatlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tahlil natijasida mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro paxtachiligida navlarni yangilash mahalliy seleksiya bilan bir qatorda xorijiy navlarni sinash ("Gedera-5", "Gedera-10"), ularni hududning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish va iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmlari orqali amalga oshirilgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, yangi ekin navlari, 1991–2010-yillar, paxtachilik, "Buxoro-6", "Buxoro-8", "Buxoro-102", "Gedera-5", "Gedera-10", seleksiya, urug'chilik, nav yangilash, rayonlashtirish, agrar islohotlar.

Аннотация. В данной статье с исторической точки зрения анализируются процессы распространения новых сортов сельскохозяйственных культур в Бухарской области в 1991–2010 годах, внедрение местных и зарубежных сортов в производство, а также их связь с аграрными реформами. Результаты исследования показывают, что обновление сортов хлопчатника и зерновых культур в первые годы независимости осуществлялось как за счет местной селекции, так и путем испытания иностранных сортов (в частности, «Gedera-5» и «Gedera-10»), их адаптации к почвенно-климатическим условиям региона и оценки экономической эффективности.

Ключевые слова: Бухара, новые сорта культур, 1991–2010 годы, хлопководство, «Бухара-6», «Бухара-8», «Бухара-102», «Gedera-5», «Gedera-10», селекция, семеноводство, обновление сортов, районирование, аграрные реформы.

Abstract. This article analyzes from a historical perspective the dissemination of new agricultural crop varieties, the introduction of local and foreign varieties into production, and their connection with agricultural reforms in the Bukhara region during 1991–2010. The study demonstrates that during the early years of independence, crop renewal in cotton and grain farming was accomplished through local breeding alongside the trial of foreign varieties (such as "Gedera-5" and "Gedera-10"), adapting them to regional soil and climatic conditions, and evaluating their economic efficiency.

Keywords: Bukhara, new crop varieties, 1991–2010, cotton growing, "Bukhara-6", "Bukhara-8", "Bukhara-102", "Gedera-5", "Gedera-10", plant breeding, seed production, variety updating, regional zoning, agricultural reforms.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, agrar sektorni tubdan isloh qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda, ayniqsa, murakkab tuproq-iqlim sharoitiga ega bo'lgan hududlarda yer hamda suv resurslaridan ratsional foydalanish, hosildorlikni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyoti talablariga mos raqobatbardosh ekin navlarini joriy etish masalasi g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Shu nuqtayi nazardan, Buxoro vohasining quruq iqlimi, suv resurslarining yetishmovchiligi va tuproq sho'rlanishi kabi tabiiy omillari agrar sektorda navchilik va urug'chilik tizimini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni tazo etdi. 1991–2010-yillarda viloyatda an'anaviy dehqonchilik usullaridan voz kechilib, mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos, qurg'oqchilik va sho'rga chidamli, tezpushar hamda yuqori tola va don sifatiga ega bo'lgan yangi ekin navlarini sinovdan o'tkazish, rayonlashtirish hamda ishlab chiqarishga joriy etish amaliyoti jadallashtirildi. Mazkur davrda navlarni yangilash jarayoni nafaqat mahalliy seleksiya yutuqlari, balki xorijiy tajriba va navlarni (masalan, Isroilning "Gedera-5" va "Gedera-10" g'o'za navlari) hududiy sharoitda sinash hamda iqtisodiy samaradorligini baholash orqali amalga oshirildi. Muhimi, ushbu islohotlar tartibsiz tus olmay, Davlat dasturlari va hukumat qarorlari asosida rejalashtirilgan institutsional tizimga aylantirildi. Xususan, "Buxoro-6", "Buxoro-8", "Buxoro-102" kabi g'o'za navlari hamda kuzgi bug'doyning "Andijon-2" va boshqa serhosil navlarining amaliyotga kiritilishi viloyatda paxta va g'alla hosildorligini keskin oshirishga xizmat qildi.

Ushbu maqolada 1991–2010-yillarda Buxoro viloyatida yangi ekin navlarining tarqalishi, urug'chilik bazasining shakllanishi hamda mahalliy va xorijiy seleksiya yutuqlarining agrar sektordagi tutgan o'rni tarixiy-analitik jihatdan atroflicha tahlil qilinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki yillarda qishloq xo'jaligida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ekin navlari tarkibining takomillashuviga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, hosildorlikni oshirish, mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarni tanlash va urug'chilik tizimini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu jarayonda Buxoro viloyatida ilgari mavjud bo'lgan navlardan foydalanish bilan bir qatorda, serhosil va mahalliy sharoitga mos yangi navlarni sinash, rayonlashtirish hamda ishlab chiqarishga joriy etish jarayoni kuchaydi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida paxtachilikda Buxoro viloyati uchun moslashtirilgan navlar muhim o'rin egalladi. Xususan, "Buxoro-6" g'o'za navi 1990-yilda Davlat reyestriga kiritilgan bo'lib, Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida ekishga tavsiya etilgan. Mazkur holat "Buxoro-6"ning mustaqillikdan keyin paydo bo'lgan nav emas, balki mustaqillik arafasida rayonlashtirilgan va keyingi yillarda Buxoro viloyatida kengroq tarqalgan navlardan biri bo'lganini ko'rsatadi.[1] Navning mustaqillikning dastlabki yillaridagi ahamiyati uning mahalliy agroiklim sharoitiga mosligi va urug'chilik tizimi orqali boshqa hududlarga ham tarqalganligi bilan izohlanadi.

Mustaqillik yillarida an'anaviy paxta navlari o'rniga suv tanqisligiga chidamli, vegetatsiya davri qisqa, tola sifati yuqori va eksportbop navlarni rayonlashtirishga e'tibor kuchaygani qayd etiladi. Bu tendensiya Buxoro uchun ayniqsa muhim edi. Hududning tabiiy sharoitida suvdan samarali foydalanish va yuqori hosildorlikni ta'minlash masalasi nav tanlashning asosiy mezonlaridan biriga aylangan. Xususan 1998-yilgi davlat dasturiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-noyabrdagi 491-sonli "1999-2000-yillarda paxta navlarini yangilash va joylashtirish dasturi to'g'risida" gi qarori bilan navlarni yangilash va ularni hududiy sharoitga qarab rejalashtirish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Ushbu qaror ijrosi doirasida Buxoro viloyatida ham yangi navlarni sinovdan o'tkazish va joylashtirish bo'yicha aniq hajmlar birlashtirilgan. Jumladan, dasturda Buxoro viloyati uchun 1999-yilda 0,15 ming gektar, 2000-yilda esa 1 ming gektar yangi navlar maydoni ko'rsatilgan.[2] Mazkur qaror navlarning tarqalishini tartibsiz jarayondan rejalashtirilgan tizimga o'tkazganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni navni yaratishning o'zi emas, balki uni qayerga, qancha maydonga va qanday tartibda ekish masalasi ham davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylangan. Shu sababli, 1991-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda Buxoro viloyatida fermer xo'jaliklarining shakllanishi bilan birga, davlat buyurtmasi va ehtiyojlari asosida har bir tuman hamda hududiy massivlar kesimida ekin turlarini aniq rejalashtirish va ratsional joylashtirish amaliyoti qat'iy yo'lga qo'yildi.[3] Xususan, Buxoro viloyatining tuproq-iqlim sharoiti va yer resurslarining holatidan kelib chiqqan holda, suv bilan ta'minlanish darajasi og'ir hamda tuproq sho'rlanishi yuqori bo'lgan Olot, Qorako'l va Jondor tumanlarida sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli navlarni joylashtirish, shuningdek, me'yorlashtirilgan nav almashlab ekish mexanizmlari qonunchilik darajasida tartibga solindi. Bu esa viloyatda g'alla hosildorligini dastlabki 18–22 centnerdan 2010-yilga kelib 50–55 centnergagacha oshirish hamda paxta hosildorligini barqaror 30 centnerdan yuqori darajada saqlab qolish imkonini berdi.[4]

1990-yillarning oxiriga kelib, Buxoro viloyatida nafaqat g'o'za, balki boshqoli don ekinlari navlarini yangilash jarayoni ham ancha jadallashdi. 1991–1995-yillarda boshqoli don ekinlari navchiligida mavjud navlarni saqlab qolish va tezkor ravishda ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish ustuvor bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab navlarni yangilash jarayoni ancha tizimli tus oldi. Bunda navning faqat hosildorligi emas, balki uning mahalliy tabiiy-iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, ertapisharligi, qishki sovuqlarga chidamliligi, yotib qolmasligi va donning texnologik sifati kabi belgilariga ham e'tibor qaratildi. Xususan bug'doy navining ertapisharligi O'zbekiston sharoitida muhim xo'jalik belgilaridan biri bo'lgan. Ertapishar navlar vegetatsiya davrini qisqaroq muddatda yakunlab, yuqori harorat va namlik tanqisligi kuchayadigan davrga qadar hosilni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, navning pishish muddati keyingi ekinlarni o'z vaqtida joylashtirish va sug'oriladigan yerlarning ekin almashinuvidan samarali foydalanish imkoniyatini ham kengaytiradi. Yakubjonov va hammualliflar nav tavsifida vegetatsiya davrini alohida ko'rsatkich sifatida berganlar. Masalan, Andijon-2 navining vegetatsiya davri O'zbekistonning janubiy viloyatlarida 187 kun, boshqa viloyatlarda esa 235–237 kunni tashkil etgani qayd etilgan. Andijon-2 navining tavsifida uning qishga chidamli ekani alohida qayd etilgan. Bu

xususiyat navning Andijon, Buxoro, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining sug'oriladigan yerlarida kuzgi muddatda ekish uchun 2003-yildan Davlat reyestriga kiritilishida muhim biologik ko'rsatkichlardan biri bo'lganini ko'rsatadi. Bu navning 2003-yildan Buxoroning sug'oriladigan yerlarida kuzgi muddatda ekish uchun davlat ro'yxatiga kiritilgani nafaqat yuqori hosildorligi bilan, balki hududning agroiklim sharoitida barqaror natija bera olishi va don sifatiga qo'yilgan talablarni qondirishi bilan ham bog'liq bo'lgan.[5]

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 17-avgustdagi 391-son qarori bilan 2000-yil hosili uchun boshqali don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirish belgilandi. Buxoro viloyatida 60 ming gektar boshqali don ekinlari maydoni belgilangan bo'lib, uning barchasi sug'oriladigan yerlarga to'g'ri kelgan. Mazkur maydon tarkibida "Kupava" – 27,5 ming gektar, "Polovchanka" – 8,6 ming gektar, "Demetra" – 7 ming gektar, "Ofeliya" – 1,4 ming gektar, "Kroshka" – 0,4 ming gektar, "Knyajna" – 0,2 ming gektar va "Umanka" – 0,6 ming gektar kabi navlar joylashtirilishi ko'rsatilgan.[6] Bu ma'lumotlar 1990-yillarning oxirida Buxoro dehqonchiligidagi navlar tarkibini yangilash davlat darajasida rejalashtirilganini ko'rsatadi.

Buxoro seleksiya maktabida yaratilgan navlar faqat viloyatning o'zida emas, balki boshqa hududlarda ham urug'chilik tizimiga kiritildi. 2000-yillarning boshlariga kelib Buxoro-6, Buxoro-8 va Buxoro-102 navlarining elita va reproduksion urug'larini ko'paytirish bo'yicha maxsus xo'jaliklar faoliyat yurita boshladi. 2004-yilgi hukumat qarorlarida Buxoro viloyatidagi ayrim elita urug'chilik xo'jaliklarining aynan shu navlar bo'yicha ixtisoslashtirilgani, shuningdek, Buxoro viloyatida yetishtirilgan urug'liklarning boshqa hududlarga chiqarilgani qayd etiladi. Bu hodisa Buxoroning yangi nav yaratish bilan birga, ularni respublika bo'ylab tarqatish markazlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.[9] Shu bilan birga, "nav yaratish" va "Davlat reyestriga kiritish" tushunchalarini farqlash zarur. Masalan, Buxoro-8 navi seleksiya va sinov jarayonlaridan ancha oldin o'tgan bo'lsa-da, amaldagi Davlat reyestri ma'lumotlarida uning reyestriga kiritilgan yili 2007, Buxoro-102 navining esa 2006-yil deb ko'rsatiladi. Demak, navning yaratilishi, tajribada sinovdan o'tishi, urug'chiligi yo'lga qo'yilishi va rasmiy reyestriga kiritilishi bir vaqtning o'zida sodir bo'lmagan, balki bir necha bosqichli jarayon bo'lgan.

Demak, 1991–2010-yillarni O'zbekiston, xususan Buxoro vohasi navchilik tarixida an'anaviy navchilik tizimidan mustaqil milliy seleksiya va urug'chilik tizimiga o'tish, navlarning hududiy moslashuvchanligini kuchaytirish hamda seleksiya natijalarini amaliy ishlab chiqarish bilan bog'lash jarayoni jadallashgan tarixiy bosqich sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi // O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reyestri, Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-noyabrda 491-son "1999–2000-yillarda paxta navlarini yangilash va joylashtirish dasturi to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (Yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 2004. – № 9. – 126-modda.
4. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Buxoro viloyatida qishloq xo'jalik ekinlari maydoni va hosildorlik ko'rsatkichlari (1991–2010-yillar bo'yicha statistik axborotnoma). – Buxoro, 2011. – 28–35-b.
5. Yakubjonov O., Tursunov S., Muqimov Z. Donchilik. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. – B. 73.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 17-avgustdagi 391-son qarori, 6-ilova: "2000-yilda 'O'zdonmahsulot' davlat korporatsiyasi korxonalari tomonidan boshqali don ekinlari urug'ligi tayyorlash hajmi".

UO'K 908

TURKISTONDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI TARIXIGA OID JADID MATBUOTI, ARXIV Hujjatlari va memuar manbalar tahlili

M.A.Xabibullo Xoji, bosh mutaxassis, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, tadqiqotchi, Urganch davlat universiteti

Orcid: 0009-0005-6647-7172

Annotatsiya. Maqolada Turkistonda xotin-qizlar ta'limi tarixini yoritishda jadid matbuoti, arxiv xarakteridagi hujjatlar, etnografik kuzatuvlar, memuar materiallar va adabiy-publistsistik merosning manbashunoslik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turkiston; xotin-qizlar ta'limi; jadid matbuoti; arxiv hujjatlari; manbashunoslik; memuar manbalar.

Аннотация. В статье анализируется источниковедческое значение джадидской периодической печати, документов архивного характера, этнографических наблюдений, мемуарных материалов и литературно-публицистического наследия при изучении истории женского образования в Туркестане.

Ключевые слова: Туркестан; женское образование; джадидская печать; архивные документы; источниковедение; мемуарные источники.

Abstract. The article examines the source value of Jadid periodicals, archival-type documents, ethnographic observations, memoir materials and literary-publicistic heritage in studying the history of women's education in Turkestan.

Keywords: Turkestan; women's education; Jadid press; archival documents; source studies; memoir sources.

Kirish. Turkistonda xotin-qizlar ta'limi tarixini o'rganish manbalar tarkibining murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu masala maorif tarixi, jadidchilik harakati, oila instituti, diniy-huquqiy qarashlar, ayollar ijtimoiy faolligi va mustamlaka davridagi madaniy siyosat bilan uzviy bog'liq. Shu sababli mavzuni bitta turdagi manba asosida yoritish yetarli natija bermaydi. Davriy matbuot, rasmiy hujjatlar, xususi kuzatuvlar, etnografik qaydlar, memuar materiallar va adabiy-publitsistik asarlar birgalikda tahlil qilinganda tarixiy manzara aniqroq ochiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida qizlar ta'limi masalasi jamoatchilik muhokamasiga kirib keldi. Bu jarayonning dastlabki izlari rus tilidagi rasmiy-davriy nashrlar, mahalliy gazeta sahifalari, keyinchalik jadid matbuoti materiallarida ko'rinadi. "Turkestanskiye vedomosti", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi nashrlardagi maqolalar ayol huquqi, qizlar savodi, oiladagi tarbiya, otinoyilik, yangi usul maktablari va jamiyatning yangilanish ehtiyojlari bo'yicha qimmatli manbaviy qatlamni tashkil etadi [1; 3].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mavzuga oid manbalar shartli ravishda bir nechta guruhga ajratildi. Birinchi guruhni davriy matbuot materiallari tashkil etadi. Bu guruhga rus tilidagi rasmiy nashrlar, mahalliy turkiy matbuot va jadid gazetalari kiradi. "Turkestanskiye vedomosti" sahifalarida mahalliy ayollar huquqi va jamiyatdagi mavqei haqida dastlabki kuzatuvlar berilgan. "Turkiston viloyatining gazetasi" materiallari mahalliy ijtimoiy muhitda ayollar masalasining qanday qabul qilinganini ko'rsatadi. Jadid matbuoti esa xotin-qizlar ta'limini milliy taraqqiyot, ona savodi va avlod tarbiyasi bilan bog'lagan holda yoritadi [1; 3; 4].

Ikkinchi guruh arxiv xarakteridagi hujjatlar, rasmiy yozishmalar, maktab va maorif tizimiga oid qaydlar hamda tashkilotlar faoliyatini aks ettiruvchi materiallardan iborat. Bunday hujjatlar matbuotdagi fikrlarning amaliy jarayon bilan bog'lanishini aniqlash imkonini beradi. Maktab ochish, qizlarni o'qitish, o'qituvchi tayyorlash, maorif jamiyatlari faoliyati, xotin-qizlarni savodxonlikka jalb etish haqidagi ma'lumotlar aynan rasmiy hujjatlar orqali tekshiriladi.

Uchinchi guruhni etnografik, memuar va kuzatuv manbalari tashkil etadi. V. va M. Nalivkinlarning Farg'ona o'troq aholisi ayollari hayotiga bag'ishlangan asari xotin-qizlarning oilaviy, huquqiy va kundalik turmushdagi mavqeini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Bunday manbalarda rasmiy hujjatlarda kam uchraydigan urf-odatlar, maishiy munosabatlar, nikoh, meros, ayolning oiladagi roli, savodlilik va tarbiya masalalariga oid kuzatuvlar uchraydi [2].

To'rtinchi guruh jadid ziyolilari va ma'rifatparvar ayollar merosiga oid adabiy-publitsistik manbalardir. Fitrat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, Anbar Otin, Dilshod Barno, Nodira va boshqa ma'rifatparvarlar merosida ayol savodi, oiladagi tarbiya, millat kelajagi, axloqiy yangilanish va ijtimoiy faollik masalalari badiiy hamda publitsistik shaklda ifodalangan. Bu manbalar tarixiy fakti bevosita qayd etishdan tashqari, davr ziyolilari ongida shakllangan ijtimoiy ideal va ma'rifiy dasturlarni ham aks ettiradi [5; 6; 7].

Muhokama. Turkistonda xotin-qizlar masalasini matbuot orqali keng jamoatchilikka olib chiqqan dastlabki nashrlardan biri "Turkestanskiye vedomosti" hisoblanadi. 1875-yilda P. Mayevning O'rta Osiyo xotin-qizlarining huquqlari haqidagi maqolasi e'lon qilinib, unda mahalliy

ayollarning huquqiy mavqei Qur'on va shariat me'yorlari bilan bog'liq holda sharhlangan. Muallif tashqi kuzatuvlarda ayollar holati cheklangandek ko'rinib-da, meros, nikoh, ajrashish kabi masalalarda muayyan huquqiy kafolatlar mavjudligini qayd etadi [1].

“Turkiston viloyatining gazetasi” materiallari xotin-qizlar masalasining mahalliy ijtimoiy muhitdagi aks-sadosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu nashr ma'muriy axborot, ijtimoiy xabarlar va mahalliy turmushga oid materiallarni birlashtirgan maydon sifatida qadrlidir. Undagi ma'lumotlar orqali ayollar savodxonligi masalasining faqat ziyolilar doirasida emas, kengroq jamoatchilik e'tiboriga chiqib boshlaganini kuzatish mumkin. Jadid matbuoti mavzuning eng sermahsul manbaviy qatlamini tashkil qiladi. “Sadoi Turkiston” sahifalarida ayollar ta'limi, qizlar maktabi, ona savodi, farzand tarbiyasi, oilada ilm-ma'rifatning o'rni va ayolning ijtimoiy faolligi muntazam yoritilgan. Fathiddinzoda tomonidan e'lon qilingan “Huquqi nisvon” maqolasi ayol huquqi masalasini islomiy-huquqiy, axloqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan muhokama qilgan muhim manbadir [3].

“Sadoi Turkiston”ning “Xonimlar tovushi” rukni xotin-qizlar ovozinining matbuotda mustaqil ko'rinish olganini bildiradi. Bu rukn orqali ayollarning o'z nomidan fikr bildirishi, jamiyatdagi holatini sharhlashi, ma'rifatga da'vat qilishi va sukut holatini tanqid qilishi kuzatiladi. Matbuot tarixida bunday materiallar xotin-qizlar masalasining tashqaridan tasvirlangan obyekt darajasidan chiqib, ijtimoiy subyektlik sari siljiganini ko'rsatadi.

Adabiy-publitsistik manbalar ayollar ta'limi tarixida alohida o'rin tutadi. Fitratning “Oila” asarida savodli ayol, oilaviy tarbiya va millat kelajagi masalalari uzviy bog'lanadi. Muallif oilani jamiyatning eng muhim tarbiya muhiti sifatida ko'rib, ona savodini farzandning axloqiy va aqliy kamoloti bilan bog'laydi. Bu asar qizlar ta'limi masalasining faqat maktab bilan chegaralanmaganini, oilaviy tarbiya tizimida ham markaziy o'rin egallaganini ko'rsatadi [5].

Avloniy merosi ham manbaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Uning tarbiya haqidagi qarashlarida ilm, axloq, oila va jamiyat bir-biri bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ayolning savodli bo'lishi avlod tarbiyasi va millat kelajagi uchun zarur omil sifatida yoritiladi. Bu jihat Avloniy asarlarini xotin-qizlar ta'limi masalasini pedagogik va ijtimoiy tarix kesimida o'rganish uchun muhim manbaga aylantiradi [6].

Ayol ma'rifatchilar merosi manbashunoslik jihatdan ikki qatlamli qiymatga ega. Dilshod Barno, Uvaysiy, Anbar Otin va Nodira kabi ijodkorlar merosida ayolning ma'naviy dunyosi, ilmga munosabati, ijtimoiy adolatsizlikka munosabati va o'zini anglash jarayoni ifodalangan. Bu meros ayolning tarixiy jarayondagi ovozi ko'rsatishi bilan muhimdir. Erkak ziyolilar yozgan matnlarda ayol ko'pincha isloh qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy masala sifatida tasvirlangan bo'lsa, ayol ijodkorlar merosida uning ichki pozitsiyasi va tafakkur doirasi ko'rinadi.

Teatr, badiiy so'z va jamoatchilik tadbirlariga oid xabarlar ham manbaviy qiymatga ega. “Ishtirokiyun” gazetasida berilgan xabarlar orqali sahna san'ati va xotin-qizlarning madaniy jarayonlarga kirib kelishi masalasi kuzatiladi. “Padarkush” sahnalashtirilishi, tushumlarning ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilishi, keyinchalik ayollarning sahnadagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar ma'rifiy harakatning madaniy shakllarini ochadi [7].

1916-yil voqealari va ayollar ishtiroki haqidagi ma'lumotlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan alohida ehtiyotkorlik talab qiladi. Bunday materiallarda siyosiy keskinlik, ijtimoiy norozilik, mustamlaka boshqaruvi va mahalliy jamiyat kayfiyati bir-biriga qorishgan holda namoyon bo'ladi. Ayollar ishtirokini yorituvchi xabarlar ularning ijtimoiy faolligi favqulodda vaziyatlarda qanday ko'rinish olganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rasmiy va publitsistik talqinlar o'rtasidagi tafovutlar qiyosiy tahlil qilinishi zarur.

Jadid matbuoti manbalari xotin-qizlar masalasini ommaviy bahs maydoniga olib chiqqani bilan ahamiyatlidir. “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg'ona” sahifalaridagi materiallar ayollar ta'limi, ma'rifat, ona savodi va ijtimoiy faollik mavzulari jadid dasturining tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Bu manbalar orqali jadidlar ayol ta'limini milliy uyg'onishning ichki omili sifatida tasavvur qilgani aniqlanadi.

Xulosa. Turli manbalar qiyosi xotin-qizlar ta'limi masalasini bir yoqlama talqinlardan xoli holda o'rganishga imkon yaratadi. Matbuotdagi da'vatlar rasmiy hujjatlar bilan, arxiv ma'lumotlari

etnografik kuzatuvlar bilan, adabiy-publitsistik qarashlar esa jadidlarning amaliy tashabbuslari bilan bog'lab tahlil qilinganda mavzuning tarixiy mohiyati yanada ravshanlashadi. Manbashunoslik asosidagi yondashuv Turkiston jamiyatida ayollar ta'limi masalasi ichki ijtimoiy ehtiyoj, ma'rifiy yangilanish va milliy taraqqiyot g'oyalari bilan bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Права среднеазиатской женщины // Туркестанские ведомости. — 1875. — 3 июнь.
2. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. — Казань: Типография Императорского Университета, 1886.
3. Фатхиддинзода З. Хукуки нисвон // Садои Туркистон. — 1914. — 10 декабрь.
4. Шарипов Р. Туркистон жадидчилиги ҳаракати тарихидан. — Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
5. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: Маънавият, 2000.

УЎК 94(495.02):930.2

PRISK PANIYSKIY ASARLARI ILK VIZANTIYA DIPLOMATIYASI BO'YICHA MANBA SIFATIDA

Z.U.Xayitov, f.f.n., dots., Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya. Ushbu maqolada vizantiyalik diplomat Prisk Paniyskiy asarlarining Vizantiya diplomatiyasi tarixini o'rganishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallifning xunlar saroyiga safari haqidagi ma'lumotlari asosida Vizantiyaning tashqi siyosati, elchilik munosabatlari, diplomatik marosimlari va xalqaro munosabatlar tizimi yoritilgan. Shuningdek, Prisk ma'lumotlarining manbashunoslik xususiyatlari va zamonaviy tarixshunoslikdagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Prisk Paniyskiy, Vizantiya, diplomatiya, gunnar, Attila, elchilik, tashqi siyosat, tarixiy manba.

Аннотация. В данной статье проанализировано значение трудов византийского дипломата Приска Панийского для изучения истории византийской дипломатии. На основе сведений автора о его поездке ко двору гуннов освещены внешняя политика Византии, посольские отношения, дипломатические церемонии и система международных отношений. Кроме того, рассмотрены источниковедческие особенности сведений Приска и их значение в современной историографии.

Ключевые слова: Приск Панийский, Византия, дипломатия, гунны, Аттила, посольство, внешняя политика, исторический источник.

Abstract. This article analyzes the significance of the works of the Byzantine diplomat **Priscus of Panium** in the study of the history of Byzantine diplomacy. Based on the author's account of his journey to the court of the Huns, the study examines Byzantium's foreign policy, diplomatic relations, embassy practices, diplomatic ceremonies, and the broader system of international relations. It also explores the source-critical value of Priscus's writings and their importance in modern historiography.

Key words: Priscus of Panium, Byzantium, diplomacy, Huns, Attila, embassy, foreign policy, historical source.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida diplomatiya davlatlar tashqi siyosatining muhim vositalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Zamonaviy diplomatik amaliyotning tarixi va taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda Vizantiya diplomatiyasi alohida o'rin tutadi, chunki u o'rta asrlar diplomatik an'analari va xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu nuqtai nazardan, Vizantiya diplomatiyasining amaliy jihatlari, tashqi siyosiy strategiyasi va qo'shni xalqlar bilan munosabatlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Vizantiya imperiyasi o'zining ilk tarixi davrida murakkab tashqi siyosiy kurashlar hamda og'ir xalqaro vaziyat markazida bo'lishi uning mohirona va murakkab diplomatiyasini shakllanishiga sabab bo'lgan edi. So'nggi Rim imperiyasining diplomatik an'alarini saqlab qolib, uni izchil davom ettirgan holda, Vizantiya o'z tarixining dastlabki bosqichidayoq keng tarmoqli diplomatik xizmat tizimini shakllantirishga va bu sohaga bilimli hamda malakali kadrlarni jalb etishga erishdi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. III-IV asrlarda varvar qabilalarining Rim imperiyasi hududlariga hujumlari odatiy holga aylanib qolgan bo'lsa, V asrga kelib bu jarayon yanada kuchaydi.

Vizantiya esa turli varvar qabilalari bilan o'ralgan murakkab geosiyosiy muhitda mavjud bo'lib, ularning ichki hayoti va tashqi aloqalari haqida har tomonlama keng ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qildi. Shu bois, vizantiyaliklar varvarlarning urf-odatlarini, harbiy salohiyatini, savdo aloqalari, o'zaro munosabatlari va nizolari, shuningdek, ular orasidagi nufuzli shaxslar va ularni siyosiy jihatdan o'z tomoniga og'dirish usullari haqida tizimli ravishda ma'lumot to'plaganlar. Aynan mana shu axborot va kuzatuvlar negizida Vizantiya diplomatiyasida varvar qabilalarini boshqarish, ularni o'zaro muvozanatda ushlab turish va imperiya manfaatlariga bo'ysundirishga qaratilgan o'ziga xos siyosiy-diplomatik kontsepsiya shakllandi. Bu jarayonlarni tadqiq etishda V asr vizantiyalik diplomat va tarixchisi Prisk Paniyskiyning asarlari noyob va ishonchli manba hisoblanadi. Muallifning Attila saroyiga qilgan safari haqidagi bevosita kuzatuvlari Vizantiya va xunnlarning o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, elchilik amaliyoti, diplomatik marosimlar hamda xalqaro huquqning ayrim tamoyillari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslikda Vizantiyaning «varvar» xalqlar bilan munosabatlari, xunnlarning davlatining xalqaro maydondagi o'rni va Attila shaxsining siyosiy faoliyatiga qiziqish ortib bormoqda. Prisk ma'lumotlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish mazkur masalalarni chuqurroq yoritish, Vizantiya diplomatik an'analari shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, Prisk Paniyskiy asarlarining Vizantiya diplomatiyasi tarixini o'rganishdagi ahamiyatini tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy natijalari. Vizantiyaliklar nafaqat o'zlarini varvarlardan himoya qilishga, balki ular bilan siyosiy va diplomatik munosabatlarga kirishishga ham majbur edilar. Shu tariqa, Vizantiya va varvar dunyosi o'rtasidagi o'zaro ta'sir nafaqat harbiy qarama-qarshiliklarda, balki diplomatik tajriba almashinuvida ham muhim rol o'ynagan. Imperiyaning tashqi siyosati va qo'shni xalqlar bilan munosabatlari o'rganishda tarixiy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday manbalardan biri V asr diplomati Prisk Paniyskiyning asarlaridir. U badavlat oilada tug'ilib, falsafa va notiqlik ta'limini olgan. Prisk davlat xizmatiga kiradi va tez orada imperator Feodosiy II davrida (408–450 yy.) yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan nufuzli amaldor Maksiminning kotibi va eng yaqin maslahatchisiga aylanadi.

Priskning e'tirof etishicha, V asrning 40-yillari oxirlariga kelib, Attila boshchiligidagi xunnlarning davlati nihoyatda qudratli kuchga aylangan bo'lib, Rim hamda Konstantinopol hukmdorlari Attilaning e'tiborini qozonish maqsadida o'zaro raqobatga kirishib, unga qimmatbaho sovg'alar bilan elchilar yuborganlar. Shu bilan birga, Konstantinopol hukumati va Ravenna saroyi xunn qo'shinlaridan boshqa varvar qabilalariga qarshi muvozanat vositasi sifatida foydalanishga ham harakat qilgan. Ayniqsa, Sharqiy Rim imperiyasi xunnlarning bilan munosabatlarni yaxshilashga katta ahamiyat bergan, chunki u bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlardan tahdidlarga duch kelgan: Sosoniylar davlati, vandallar, arab va efiop qabilalari imperiya xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirgan. Ana shunday murakkab va keskin xalqaro vaziyatda imperator Feodosiy II tomonidan 448 yilda Maksimining muhim diplomatik vazifa yuklatilib, u Vizantiya elchiligidagi boshchilik qilgan holda Pannoniyaga – xunnlarning hukmdori Attila huzuriga yuboriladi. Ushbu safarda Prisk ham ishtirok etib, uzoq va mashaqqatli safar davomida, shuningdek, Attila qarorgohida bo'lgan vaqtida kuzatgan barcha voqealarni muntazam ravishda qayd etib boradi. Elchilikning rasmiy maqsadi tinchlik va do'stlik shartnomasini tuzishdan iborat bo'lsa-da, uning yashirin vazifasi xunnlarning hukmdorini yo'q qilishdan iborat edi.

Prisk ushbu elchilik tarixini batafsil bayon qiladi: Konstantinopolga Attilaning qabiladoshi – xunn Edikon bilan birga, o'ziga yaqinda o'tgan hududlardan birida yashagan rimlik Orest ham yuborilgandi. Mazkur elchilik tafsilotlari Vizantiya siyosatining murakkab va ba'zan ikkiyoqlama usullarini yaqqol namoyon etadi. Imperiyaning ayrim mansabdorlari Edikonni Attilaga suiqasd uyushtirishga undab, Edikonni Attilani o'ldirishga undab, unga unga katta boylik va'da qiladilar. Edikon esa bu taklifga o'zini rozi bo'lganday qilib ko'rsatadi. Fitnaning asosiy tashkilotchilaridan biri xunn tilini mukammal bilgan Vigila edi. Vigilaning o'zi ham ishtirok etgan elchilik xunnlarning yurtiga yo'l oladi. Biroq manzilga yetib borgach, Edikon Attilani ushbu fitnadan xabardor qiladi. Shunga qaramay, Attila elchilik huquqlarini buzmaslikni ma'qul ko'rib, Vigilani o'ldirishdan o'zini tiydi. U hatto, agar elchilik daxlsizligi bo'lmaganida, Vigilani mixga o'tqazish va etini qushlar yeb

tashlashi kerak edi, deb aytgandi.[1] Prisk Attila o'ziga qarshi suiqasd tayyorlanayotganidan xabardor bo'lsa-da, Vizantiya bilan diplomatik aloqalarni uzmagani hamda Maksimin bilan kelishuvga erishganini alohida ta'kidlaydi. Elchilikning rasmiy maqsadi tinchlik va do'stlik shartnomasini tuzishdan iborat bo'lsa-da, uning yashirin vazifasi xunlar hukmdorini yo'q qilishdan iborat edi.

Qotillik rejasi fosh etilganidan so'ng, rivoyatlarga ko'ra, hunlar hukmdori Feodosiy II ga maktub yo'llagan. Unda u imperatorni o'zining tobesi, hatto quli sifatida ta'riflab, buning asosi sifatida Vizantiyaning unga o'lpon to'lab kelayotganini eslatgan. [2] Prisk Attilani oddiy ko'chmanchi hukmdor emas, balki o'zining siyosiy ustunligini anglagan, xalqaro maydonda gegemonlikka intilgan va diplomatiyani harbiy kuch bilan uyg'unlashtira olgan davlat arbobi sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuv muallifning tarixiy voqealarni faqat tasvirlash bilangina cheklanmay, ularning ichki sabablarini ochib berishga intilganini ko'rsatadi.

Priskning hunnlarning imperiya hududlariga 441-442 va 447 yillardagi hujumlari haqidagi xabarlar bizgacha to'liq yetib kelmagan. Biroq boshqa manbalardan ma'lum bo'lishicha, imperiya uchun eng og'ir oqibatlarga olib kelgan bosqin 447 yilda sodir bo'lgan. Bunda xunn qo'shinlaridan biri poytaxt – Konstantinopol yaqiniga yetib kelib, Frakiyani vayron qilgan edi. Vizantiyaliklar qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, butunlay tor-mor etilgan. Prisk asarining saqlanib qolgan parchalarida esa faqat Frakiya Xersonesida Vizantiya qo'shinining mag'lubiyati qisqacha tilga olinib, asosiy e'tibor ushbu mag'lubiyat oqibatlari hamda 447–448 yillarda hunlar bilan tuzilgan tinchlik shartnomasi shartlariga qaratilgan. Mazkur kelishuvga ko'ra, Vizantiya Attilaga bir martalik 6000 funt oltin hamda har yili 2100 funt oltin to'lash majburiyatini olgan.

Paniylik Prisk 447-448 yillarda hunlar bilan tuzilgan tinchlik shartnomasini baholar ekan, garchi varvar xalqlar bilan munosabatlarda o'lpon to'lash amaliyoti imperiya uchun odatiy hol bo'lgan bo'lsa-da, biroq, ushbu kelishuv orqali Vizantiya xunnlarga qaramligini tan olgan, degan fikrni ilgari suradi.

Prisk sinchkov kuzatuvchi sifatida Attila saroyiga tashrifi davomida nafaqat g'arbiy davlatlar elchilari bilan, balki xunlar orasida yashayotgan turli etnik guruhlar vakillari bilan ham muloqot olib borgan. Shu tariqa u “varvarlar” dunyosi haqida noyob va qimmatli ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'lgan. Muallif xunnlarning moddiy madaniyati, xususan, qurilish san'ati ancha rivojlanganligini ta'kidlaydi.

Priskning kundalik tarzida olib borilgan bu yozuvlari keyinchalik mashhur “Vizantiya tarixi va Attilaning faoliyati haqida sakkiz kitob” nomli asariga asos bo'lgan. Mazkur asar bizgacha to'liq holda yetib kelmagan bo'lsa-da, Yevagriy, Iordan, Konstantin Porfirogenet asarlari orqali saqlanib qolgan parchalari Vizantiya diplomatiyasi hamda xunlar tarixi bo'yicha muhim va ishonchli manba sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Prisk o'z tarixiy bayonini 411 yil voqealaridan boshlab, 472 yilgacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni qamrab olgan. Mazkur asarda V asrdagi siyosiy voqealar, Vizantiya tashqi siyosati va xunlar bilan munosabatlar bayon qilingan.

Prisk xunnlarning xalqona urf-odatlaridagi estetik jihatlarni ham chuqur anglaydi. U Attilaning qarorgohiga qaytish marosimini jonli va poetik ruhda tasvirlaydi: “Qishloqqa kirishda Attilani qator-qator tizilgan qizlar kutib oladi. Ular nozik oq yopinchiklar ostida harakatlanib, har bir yopinchiqni ikki tomondan ushlab turgan ayollar qo'llari ostida yettitadan yoki undan ham ko'proq qiz bor edi. Bunday qatorlar juda ko'p bo'lib, ular Attila oldida yurib, qo'shiqlarni kuylashardi”. [3] Prisk bu qo'shiqlarni “skifcha” deb ataydi, chunki u xunlarni qadimgi skiflar nomi bilan tilga oladi. Shuningdek, Attila saroyida tashkil etilgan tantanali ziyofat ham mufassal yoritilgan. Ziyofat qat'iy iyerarxik tartib asosida tashkil etilib, mehmonlar ularning martabasi va saroydagi mavqeiga muvofiq joylashtirilgan. Taomlar va ichimliklarning xilma-xilligi, dasturxon bezaklarining nafisligi ushbu marosimning dabdabali xarakterini ko'rsatadi. Ziyofat davomida xunn qo'shiqchilari Attilaning harbiy g'alabalarini madh etuvchi qo'shiqlarni kuylagan, shoirlar esa o'tgan janglar haqida hikoyalar va she'rlar o'qigan. Masxarabozlar esa lotin, xunn va got tillarini aralashtirib, kulgili chiqishlar orqali mehmonlarni xushnud etganlar. Bu holat xunlar saroy madaniyatining rang-barangligi, shuningdek uning ko'p madaniyatli muhitga ega bo'lganini yaqqol aks ettiradi.

Priskning Vizantiya imperiyasi hamda “varvar” xalqlar diplomatiyasiga oid ma'lumotlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. U Vizantiya adabiyotida birinchilardan bo'lib V asr diplomatik

amaliyotining ichki mexanizmlarini batafsil va ta'sirchan tasvirlab bergan. Xususan, u vizantiyalik elchilarning huquq va majburiyatlari, elchilik institutining tashkiliy tuzilishi, qabul marosimlari, kuzatish tartiblari hamda xalqaro munosabatlarning ayrim huquqiy me'yorlarini aniq va tizimli ravishda bayon etadi. Shu jihatdan, uning asari Vizantiya diplomatik tizimining shakllanish jarayonini va keyingi davrlarda erishilgan mukammallik darajasini kuzatish imkonini beradi.

Vizantiya diplomatik tizimining muhim jihatlaridan biri – elchilar darajasi va ularga beriladigan unvonlarning yuborilayotgan davlatning siyosiy qudrati va xalqaro mavqeiga qarab qat'iy tarzda belgilanishi tamoyili edi. Priskning yozishicha, Attila o'z huzuriga doimo yuqori martabali, nufuzli, konsullik unvoniga ega elchilar yuborilishini talab qilgan. Xunnlarning siyosiy bosimi ostida Vizantiya hukumati ayrim hollarda mavjud davlatlar iyerarxiyasini buzishga majbur bo'lib, Attila saroyiga odatdagidan yuqori darajadagi elchilarni yuborishga majbur bo'lgan.

Vizantiya, keyinchalik varvar qirolliklari diplomatiyasida sovg'alar almashinuvi va o'zaro mehmondo'stlik muhim o'rin tutgan. Priskning ta'kidlashicha, imperator saroyi tinchlikni saqlab qolish maqsadida Attila elchilariga katta sovg'alar bergan, hukmdor esa bundan o'z yaqinlarini mukofotlash vositasi sifatida foydalangan. Muallif bu holatni Vizantiya nufuzining pasayishi va Attilaning o'zini imperatordan ustun qo'yishga bo'lgan intilishining yaqqol ifodasi deb baholaydi. Imperiya tomonidan bu ko'pincha xavfli dushmanlarni "yumshatish" vositasi sifatida xizmat qilgan. Prisk vizantiyalik elchilar xunnlr hukmdori va uning atrofidaqlariga qanday sovg'alar olib borganini batafsil tasvirlaydi. Sovg'alar qat'iy ravishda martabaga qarab berilgan, varvarlar orasida kam uchraydigan va ayniqsa qadrlanadigan buyumlar tanlangan. Vizantiya elchilari Attilaning o'ziga 6 ming libra oltin, uning elchilariga ipak kiyimlar va qimmatbaho toshlar, slavyan fabilalari sardori Bledaning bevasiga esa mehmondo'stligi uchun kumush idishlar, qizil terilar, hind qalampiri, xurmo mevalarini hadya qilganlar.[4] Prisk Vizantiyaning xunnlr oldida yon berishlarini Vizantiya nufuzining pasayishi va siyosiy zaiflashuvi, Attilaning esa o'zini imperatordan ustun qo'yishga intilishining yaqqol ifodasi sifatida izohlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Prisk Paniyskiyning Attila saroyiga safari haqidagi ma'lumotlari nafaqat xunnlr tarixi, balki V asr xalqaro munosabatlari, elchilik amaliyoti va diplomatik marosimlarni o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Muallif asarda shaxsiy kuzatuvlari, his-tuyg'ulari hamda zamondoshlarining qarashlarini sodda, tabiiy va ortiqcha badiiy bezaklarsiz ifoda etadi. U bevosita o'zi ko'rgan va ishtirok etgan voqealarni xotirjam, samimiy hamda ishonchli tarzda bayon qilib, voqelikni real tasvirlashga intiladi. Shu sababli ham uning ma'lumotlari Vizantiya diplomatiyasi tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manba hisoblanadi. Asarning qimmati, avvalo, Priskning sinchkov kuzatuvchanligi, diplomatik tafakkuri va chuqur tarixiy tahlil qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan uning asari oddiy safar xotiralari emas, balki davlat arbobi va diplomat tomonidan yozilgan puxta tahliliy tarixiy manba sifatida baholanadi. Prisk yozuvchi, diplomat va davlat arbobi sifatida Vizantiya imperiyasining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarini yaxshi anglagan hamda tarixiy shaxslar va voqealarga nisbatan ko'p jihatdan xolis munosabat bildirgan. Prisk Paniyskiy asarlarini tadqiq qilish orqali Vizantiya tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, xunnlr bilan munosabatlar va o'sha davr diplomatik an'analarini chuqurroq anglash mumkin. Shu jihatdan uning ma'lumotlari V asr xalqaro munosabatlari va Vizantiya diplomatiyasini o'rganishda muhim tarixiy-manbashunoslik ahamiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Приск Панийский. Сказания Приска Панийского. -М., "Восточная литература", 1991.
2. Козлов А.С. «Византийская история» Приска Панийского как памятник классического исторического нарратива. –М., 2015.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-istochniki-ob-attile-i-ih-analiz>
4. <https://www.vostlit.info/Texts/rus/Prisc/frametext21.htm>
5. Гийу А. Византийская цивилизация. – Екатеринбург: "У-Фактория", 2005.

TEMIR DARVOZA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDA

X.B.Xurramov, *tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz*

Annotatsiya. *Temir darvoza yoki Darband nomlari ko'plab davrlardan beri tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinayotgan termin. Bu qadimgi davrda ham, hozirgi davrda ham muhim bo'lgan strategik joy hisoblanadi. Bu joy tarixi juda qadimga borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan temuriylar davrida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur va uning avlodlari ham bu joydan o'tib turishgan. Xususan, Amir Temur Hindiston yurishidan qaytishda ham shu joydan o'tgan. Temuriylar davrida yana bir nomi Qahlaha yoki Qag'laha deb yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Temir darvoza, Darband, Qahlag'a, Amir Temur, Zafarnoma, Termiz, Boysun, Rui Gonzales de Klavixo.*

Аннотация. *Названия Темир Дарваза или Дарбанд изучаются исследователями на протяжении многих веков. Это важное стратегическое место как в древности, так и в настоящее время. История этого места восходит к древним временам. В этом отношении оно также приобрело значение в период правления Тимуридов. Амир Темур и его потомки также проходили через это место. В частности, Амир Темур проходил здесь, возвращаясь из индийского похода. В период правления Тимуридов это место также называлось Кахлаха или Каллаха.*

Ключевые слова: *Железные ворота, Дербанд, Кахлага, Амир Темур, Зафарнама, Термез, Бойсун, Руи Гонсалес де Клавихо.*

Abstract. *The names Temir Darvaza or Darband are terms that have been studied by researchers for many centuries. It is an important strategic place both in ancient times and in the present. The history of this place dates back to ancient times. In this regard, it also gained importance during the Timurid period. Amir Temur and his descendants also passed through this place. In particular, Amir Temur passed through this place when returning from the Indian campaign. During the Timurid period, another name was Qahlaha or Qaghlaha.*

Key words: *Iron Gate, Darband, Kahlagha, Amir Temur, Zafarnoma, Termez, Boysun, Rui Gonzalez de Clavijo.*

Darband bu Surxondaryo viloyatini bevosita Qashqadaryo va unga tutash viloyatlar bilan bog'lovchi muhim joy hisoblanadi. Manbalarda Darbandi Ohanin-Boysundan (Surxondaryo viloyati) g'arbda Sarimas tizmasidagi tor dara bo'lib, uzunligi 2 km, eni-5-20 m, qoyalarning nisbiy balandligi 150 metr chamasidir. Qadimgi mashhur tog' yo'li, hozirgi Katta O'zbekiston traktidan sharqroqdan o'tgan. Yozma manbalarda uning nomi turlicha yozilgan: forsha "Darbandi Ohanin" (Temir Darvoza), qadimgi turkiy tilda: "Temur qapug'" ("qapug'" - darvoza), arabcha "Bob ul-hadid" (Temir darvoza), mo'g'ulcha "Qahlag'a" yoki "Qahlaqa" ("qalg'a", "xalg'a" - darvoza). Qadimda dara yonida shu nomdagi aholi maskani, qo'rg'on ham bo'lgan. Uni Buzg'alaxon ham deganlar. Hozirgi vaqtda Darbandi Ohanin yaqinida Darband qishlog'i bor. Boysun tumani hududida joylashgan.

Mavzuga doir adabiyotlar ikki qismga bo'lib tahlil qilinadi, 1980-yildan hozirgi kungacha yozilgan adabiyotlarda alohida to'xtalib o'tiladi. Hozirgi kungacha temuriylar davrida Darband atamasi ko'plab manbalarda Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"[9], Nizomiddin Shomiyning[7] "Zafarnoma"sida, G'iyosiddin Ali "Hindiston yurishi kundaligi"[3]da, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn"[1]da, Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur" asari[5]da, Rui Gonzales de Klavixoning "Samarqandga - Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi"[8]da, G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" asari[4]da, Jaloliddin Mirzoning "Termiz tarixi" asarlari[6]da muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Darband atamasini keng foydalanilishi alohida tadqiq etildi. Amir Temur va Temuriylar davrida Darband iqtisodiy va yo'l masalasida alohida ahamiyat kasb etgan. Amir Temur lashkar to'plab, Balxga Amir Husayn ustiga yurish boshlaydi. Ushbu katta yurishda ham Sohobqironning yo'li Chag'oniyon orqali o'tgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da bu yurishni quyidagicha

tavsiflaydi: “Mangloy Qahalqadan o‘tib Termizga yetib borgach, amir Husaynning Hindushoh va Xalil boshlab olib kelgan lashkari ularning qorasini ko‘rgandan qochmoqqa yuzlandilar va Omuya suvidan o‘tib Balx tomon yo‘l oldilar. Osmoniy tasdiqqa ega bo‘lmish hazrat Sohibqiron Termizdan uch farsax naridagi Buyo mavzei (hozirgi Sherobod)ga kelib qo‘ndi”[9]. ”Boburnoma”da ta’kidlanishicha, Ko‘hitang va Qahqa (Darbandi Ohanin)dan janubga Chag‘oniyon, Termiz, Hisor, Xatlon, Qunduz, Badaxshon to Hinduqush tog‘larigacha Sulton Mahmud Mirzo hukmida bo‘lgan. Shuningdek, Sulton Mahmud Mirzoning katta xotini Xonzodabegim Termiz mirlaridan bo‘lgan Buzrug Termiziyning qizi ekanligi ham ma’lum va shu sababdan bu shahzoda Termiz va Chag‘oniyonda xos obro‘-e’tibor sohibi edi”[10]. Ular Darbandi-Ohanin, deb ataladigan Qahalqadan o‘tib, amir Husayn qoshiga yetdilar va birgalashib Hisori-Shodmon tomon yurdilar[9]. G‘olib lashkar Qahalqadan o‘tib Boysun ularning humoyun qo‘nimgohi bo‘lib turgan chog‘da(elchilar) Malik-bahodir va Abdulloh yetib keldilar[9].

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “22-avgust, juma kuni tushlikdan so‘ng elchilar (Termizdan) chiqib, dalada, bir katta uy yonida tunash uchun to‘xtadilar. Shanba kuni elchilar keng tekislik bo‘ylab juda obod qishloqlar orasidan yurib, bir qishloqchaga yetib keldilar. Bu yerda elchilarni barcha zarur narsalar bilan ta’minladilar. Yakshanba kuni esa bir katta rabotda ovqatlandik. Aytishlaricha, podshoh bu yerlarda bo‘lganida shu uyda to‘xtab o‘tarkan. Mezbbonlar elchilarning gulli ovqat, meva-cheva, sharob, qovun bilan mehmon qildilar.

Bu yerlarning qovuni yirik-yirik, yaxshi va serhosil edi. Meva-chevaning odatdagiday juda ko‘p olib kelib, elchilar oldiga to‘kib tashladilar.

Elchilar o‘sha kuni bu yerdan jo‘nab, bir daryo yonida, dalada tunadilar. Ertasi, dushanba kuni ular cho‘qqilari baland tog‘ etagida tushlik qildilar. Bu yerda ko‘ch shaklida qurilgan ajoyib bir bino bor. G‘ishtdan qurilgan binoning devorlariga uyib va chizib gullar naqshlar ishlangan hamda rang-barang ko‘shinlar bilan bezatilgan. Tog‘ juda baland edi, tik tog‘ qoyalari o‘rilib, o‘chilgan oraliqdan tor yo‘l o‘tadi. Ikki tarafida tik qoyalar qad ko‘targan ushbu tor yo‘lakda yo‘lovchi va arava, ba’zi hollarda hayvonlar arang o‘tadi. Tog‘ etagida qad rostlagan tog‘ saroylari favqulodda toza. Tor yo‘lakdan o‘tib, biz Temur darvoza deb nomlangan mashhur darbandga yetib keldik. Kichik Hindistondan (Afg‘onistondan) yo‘l Temur darvoza deb ataladi. Buning tog‘ tizmasida bundan boshqa yo‘l yo‘q edi. Kichik Hindistondan (Afg‘onistondan) Samarqand saltanatiga kiriladigan boshqa yo‘l bo‘lmagani sababli, mazkur tog‘ yo‘li Samarqand saltanati uchun muhofazaviy nuqta hisoblanadi. Mabodo Samarqand aholisi Hindistonga boradigan bo‘lsa, ular uchun ham shu yo‘ldan boshqa yo‘l yo‘q edi. Temurbek tasarrufida bo‘lgan Temur darvoza unga katta foyda keltiradi, chunki Kichik Hindistondan (Afg‘onistondan) Samarqand va aksincha, undan (boshqa) mamlakatlarga yo‘l olgan savdogarlar faqat shu Temur darvozadan o‘tadilar. Bundan tashqari, Temurbekka Totor mulkining eng oxirida joylashgan Darband (Darg‘on) etagidagi ikkinchi Temur darvoza ham qaraydi. Bu yo‘l Totor mulkini Darband (Darg‘on) yerlaridan baland tog‘lar oralig‘ini xatlab o‘tiladigan Kafa shahri orqali bog‘laydi. Kafa Boku (Kaspiy) va Eronga olib boradi. Shu yo‘l bilan Samarqand saltanatidan Eron va Kafaga boriladi. Bu ikki yo‘l bir-biriga teng emas. Biri bir ming besh yuz liga keladi.

Mazkur ikki Temur darvoza va ular oralig‘idagi barcha yerlarga egalik qiluvchi Temurbek naqadar buyuk podshoh ekani haqida o‘zingiz o‘ylab ko‘ring. Temurbekka qarashli Darbanddagi Temur darvoza ham har yili unga katta foyda keltiradi. Shunday qilib, bizga (ya’ni g‘arbgga) yaqin bo‘lgan birinchi darvoza – Darband yonidagi Temur darvoza, ikkinchisi – bizdan uzoqdagi Temur darvoza Termiz yonida. Bu darvoza Kichik Hindiston (Afg‘oniston)ga yaqin erda. Xullas, Termiz yonidagi Temur darvozada elchilarga ot eshish buyurildi. Bu yerda ular yelimlanib bilintirib yozilgan Temur darvozasi bo‘y yo‘lida dov darasi bo‘lib, yallig‘i tosh-taqir joy edi. Aytishlaricha, mazkur yo‘lda ilgari bir tog‘dan ikkinchisiga o‘tiladigan Temur darvoza batamom temir bilan qoplangan bo‘lib, biroq kimsa ruxsatsiz kirishga jur‘at eta olmagan ekan.

O‘sha kuni elchilar tog‘dan jo‘nab, tepalik ustida, ochiq havoda tunadilar. Ertasiga bir daryo bo‘yida chig‘atoyliklarning o‘tovlarida ovqatlanib, hordiq chiqardik. Kechqurun yo‘lga chiqib, tog‘

tizmalari ustida tunadik. Yarim kechada bu yerdan jo'nab, bir qishloqda to'xtadik. Magistr Fra Alfonse Pasasning bir betob xizmatkori shu yerda vafot etdi"[8].

Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar"ida ham Darband haqida muhim tarixiy ma'lumotlarga duch kelamiz: "Jeta lashkari amirlari ustidan zafar topgan, mening paydo bo'lganim xabari keng tarqaldi. Shunda adl va insof bilan ish bularsam va zolimlar qo'lini mazlumlardan qisqartirsam va xarob bo'lgan mamlakatni aholi va jamiyat bilan obod etsam, bu viloyatning omon-rohatini ilgari mamlakatlarga boborsam, eski saltanatimni qayta rojuya keltirib mahbub etsam, bu mamlakat aholisi farog'at bilan mulk obodligiga sodiq xizmat qiladilar, deb niyat qildim.

Va yana saltanatim kengashini munda topdimki, jamg'argan xazinamni ulashturgaymen va avval Qahlaqa qal'asini ishg'ol qilgaymen. Shu maqsadla lashkarimga pul berib, tuzuk va tartibga keltirdim. Jayhun qirg'og'iga yetib, Termiz kechuvindan o'tib, Qahlaqa sariga qorovullar yubordim. Va Jayhun suvi etagisida necha kun iqomat qilib, qorovullar xabariga muntazir bo'ldim"[2].

Darband-Ozarbayjonning qadimiy shaharlaridan bo'lib, arablar uni Bob ul-abvob (Darvozalar darvozasi) deb ataganlar. Chunki Darband Kaspiy dengizi sohillari bo'ylab shimoldan janubga o'tadigan yo'lining tamomida joylashgan edi[3].

Shundan bilamizki, Darband degan atama ko'plab joylarda uchraydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda bir qator xulosalarga kelindi. Birinchidan, mavzu yuzasidan tadqiqotlar bir necha qismga bo'lib yoritildi, manbalarda dastlab qachondan uchray boshlashi hamda ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishini o'z ichiga olgan, bu manbalar tahlili o'tkazilgan. Ikkinchidan, Darband atamasini temuriylar davriga qisqa to'xtalib o'tildi va bu joyni kengroq tadqiq etish, bu umumiy geografik nomni asosli manbalardan yanada yaxshiroq tadqiq etish talab qilinadi. Darband nomi shu nuqtai nazardan temuriylar davrida asosiy o'rin tutgan degan xulosaga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurazzoq Samarqandiy Matlai Sa'dayn va Majmai Bahrayn. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 196 b.
3. G'iyosiddin Ali. Hindiston yurishi kundaligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 304 b.
4. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Fors tilidan J.Hazratqulov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
5. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) I-II-kitoblar. – Toshkent: Mehnat, 1992.
6. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
8. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Mas'ul muharrir: Muhammad Ali. – Toshkent: O'zbekiston", 2010. – 264 b.
9. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan Omonulla Bo'riyev tarjimasi. – Toshkent. 1994.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent. 1960.

УДК 94(575.1)(575.3)

ОТ СОГДА ДО МАВЕРАННАХРА: ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ТАДЖИКско-УЗБЕКСКИХ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ

А.А.Абдукадиров, преподаватель, филиал НИТУ МИСИС в г. Алмалык, Алмалык, Узбекистан

А.В.Барсукова, к.и.н., доц., Национальный исследовательский технологический университет «МИСИС», Москва, Российская Федерация

Annotatsiya. Maqolada O'rta Osiyo o'zbek va tojik xalqlarining hududiy va madaniy birligining tarixiy ildizlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida tojiklarning o'troq sug'diy-baqtriylar sivilizatsiyasi merosxo'rlari sifatidagi etnogenezi masalalari, tojik shahar an'analari, Movarounnahr madaniy markazlarini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar davrida turkiy-eroniy til va madaniy simbiozining mexanizmlari izchil yoritiladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodiga ikki xalq madaniy hamjihatligining namunasi sifatida alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi arxeologiya, antropologiya va yozma manbalar ma'lumotlarini kompleks umumlashtirishdan iborat bo'lib, bu tojik-o'zbek

munosabatlari qarama-qarshilik emas, balki bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *tojik-o'zbek munosabatlari, tojiklarning etnogenezi, turkiy-eroniy sintez, o'troq sivilizatsiya, Movarounnahr, madaniy birlik, O'rta Osiyo.*

Аннотация. *В статье рассматриваются исторические истоки территориального и культурного единства узбекского и таджикского народов Средней Азии. В ходе работы последовательно раскрываются вопросы этногенеза таджиков как наследников согдийско-бактрийской оседлой цивилизации, роль таджикской городской традиции в формировании культурных центров Мавераннахра, а также механизмы тюрко-иранского языкового и культурного симбиоза в эпоху Караханидов, Тимуридов и Шейбанидов. Особое внимание уделено творчеству Алишера Навои и Абдурахмана Джамии как примеру культурной солидарности двух народов. Научная новизна работы заключается в комплексном обобщении данных археологии, антропологии и письменных источников, позволяющем показать, что таджикско-узбекские отношения носили не конфронтационный, а взаимодополняющий характер.*

Ключевые слова: *таджикско-узбекские отношения, этногенез таджиков, тюрко-иранский синтез, оседлая цивилизация, Мавераннахр, культурное единство, Средняя Азия.*

Abstract. *The article examines the historical origins of the territorial and cultural unity of the Uzbek and Tajik peoples of Central Asia. The study successively addresses the ethnogenesis of the Tajiks as heirs to the sedentary Sogdian-Bactrian civilisation, the role of the Tajik urban tradition in shaping the cultural centres of Movarounnahr, and the mechanisms of Turkic-Iranian linguistic and cultural symbiosis during the Karakhanid, Timurid, and Shaybanid periods. Particular attention is devoted to the work of Alisher Navoi and Abdurahman Jami as an example of the cultural solidarity between the two peoples. The scientific novelty of the study lies in its comprehensive synthesis of archaeological, anthropological, and written-source data, which demonstrates that Tajik-Uzbek relations were not confrontational but complementary in nature.*

Keywords: *Tajik-Uzbek relations, Tajik ethnogenesis, Turkic-Iranian synthesis, sedentary civilization, Maverannahr, cultural unity, Central Asia.*

Этногенез народов Центральной Азии представляет собой сложный и многокомпонентный историко-цивилизационный процесс, сформировавшийся в результате длительного взаимодействия этнокультурных, политических и социально-экономических факторов, разворачивавшихся на пространстве Средней Азии. В данном поле особую научную значимость приобретает исследование характера и динамики взаимодействия таджикского и узбекского населения, которое носило системный и взаимодополняющий характер, выступая важнейшим фактором регионального развития. Указанные процессы находили своё отражение в формировании и функционировании крупнейших культурных центров Востока, где таджики, обладая устойчивыми традициями оседло-городской культуры, играли значительную роль в развитии интеллектуальной, художественной и административной сфер. Согласно исследованию узбекского академика А. Аскарлова, таджикский народ является наследником древних ираноязычных общностей, населявших Среднюю Азию в античную и раннесредневековую эпоху. К числу предков таджиков он относит согдийцев, бактрийцев и хорасмийцев — носителей высокоразвитой оседлой культуры, которая оказала значительное влияние на формирование культурного облика региона. В частности, А. Аскарлов отмечает: «Древние согдийцы и другие ираноязычные племена Средней Азии с давних времён во всех отношениях (кроме языка) родственны тюркам. Они совместно располагались в южных и центральных областях Средней Азии и говорили на двух языках. Такое состояние нашло своё чёткое отражение в материальной культуре и письменных источниках».

А. Аскарлов подчёркивает, что таджики в этнокультурном смысле никогда не были изолированы: «Современные узбеки и оазисные таджики составляют один тип и называли его “тип среднеазиатского междуречья”. Данный тип отличается узким лицом, средней высотой переносицы, высоким черепом и прямыми тёмными волосами. В отличие от тюрков-казахов и

киргизов, они отличаются большей европеоидностью, что связано с древними иранскими корнями этого населения». Таким образом, формирование таджикской идентичности происходило на пересечении локальных (согдийско-бактрийских) и общеисторических (исламских, персидских и тюрко-иранских) процессов. Это делает таджикскую нацию одной из древнейших и одновременно синкретичных в Центральной Азии.

Одним из краеугольных факторов формирования таджикского этноса и его устойчивой исторической идентичности является преобладание оседлой земледельческо-городской цивилизации. На протяжении веков таджики оставались одной из основных частей населения старейших центров культуры и торговли в Средней Азии — Балха, Самарканда, Бухары, Пенджикента, Термеза. Эти города формировали не только экономическое ядро региона, но и среду, в которой зарождалась письменность, религиозные школы, литературные и философские школы. В этой среде таджики не только сохраняли, но и развивали древние формы иранской урбанистики и ремесленного искусства, становясь главными носителями персоязычной традиции в регионе.

Археологические данные из Пенджикента и Бухары подтверждают существование глубокого культурного слоя, уходящего в домусульманскую эпоху. Исследования показывают, что исламизация этих центров происходила не путём вытеснения, а включения в уже развитую персоязычную среду, где персидский язык стал языком культуры, а арабский — религии.

А. Аскарлов также подчёркивает, что «культура Древней Бактрии своими корнями уходит в культуру Сапалли эпохи бронзы... культура этого периода нашла своё отражение в более чем 40 памятниках Южного Узбекистана — Кучуктепа, Кызылтепа...». Эти материалы указывают на устойчивость культурных форм, передававшихся через столетия: от бронзового века — к ахеменидской и греко-бактрийской эпохам, затем — к Согду, а оттуда — к таджикской городской традиции исламского Средневековья.

Сохранив и адаптировав иранское культурное наследие к исламской эпохе, таджики заложили базис для становления городской цивилизации Мавераннахр в IX–XII веках. Самарканд и Бухара стали не только центрами религиозного и философского знания, но и источником классической поэзии, канонов архитектуры и градостроительства, сохранявшихся в регионе вплоть до XX века.

Таким образом, оседлая цивилизация сыграла определяющую роль в сохранении таджикской культурной идентичности. Таджики выступали как трансляторы древних форм персоязычного урбанизма, носители непрерывной культурной памяти, воплощённой в архитектуре, письменности, образовательной системе и социальных институтах региона.

Одной из характерных особенностей исторического развития таджикского народа является его многовековое сосуществование и взаимодействие с тюркоязычными племенами. Начиная с VI века, на территории Средней Азии закрепляются различные тюркские объединения — сперва в форме каганатов, а затем в виде новых государственных образований. А. Аскарлов подчёркивает важный момент: «Среди населения Туркестана было распространено двуязычие - тюрко-узбекский и персидско-таджикский языки, но большинство жителей говорило на тюрко-узбекском языке. Эти народы, говорившие на двух языках, по своему территориальному расположению были до такой степени смешаны друг с другом, что в начале национально-территориального размежевания процесс разделения их на две части представлял большие трудности. Этот исторический процесс и такая этнокультурная обстановка существовала с древнейших времён. Степень общественно-экономического развития этих двух народов была одинакова, по своему антропологическому типу оседлые узбеки и оазисные таджики представляли один тип, то есть сформировавшийся в античное время «тип среднеазиатского междуречья».

Процесс интеграции проходил в несколько этапов: от раннего взаимодействия с тюркскими кочевниками эпохи Западнотюркского каганата до формирования сложных политико-этнических структур в период Караханидов и впоследствии — Тимуридов. Народы, различающиеся по языку и социальным укладам (оседлый/кочевой), вступали в постоянные

контакты: через торговлю, совместное земледелие, службу в армиях и на административных должностях.

Таким образом, отношения персоязычных с тюркоязычными народами не сводились к конфронтации или культурному вытеснению. Напротив, они свидетельствуют о глубоком и многоплановом взаимодействии, где таджики сохраняли свою идентичность, одновременно участвуя в создании общей цивилизационной основы региона.

Классическим примером культурного единства таджиков и узбеков служит творчество Алишера Навои и Абдурахмана Джамии. Несмотря на то, что Навои писал на тюркском языке, его литературный стиль и образность глубоко укоренены в персидской поэтической традиции. Как указывает Б.Гафуров:

«Алишер Навои и Абдуррахман Джамии являются яркими примерами культурной солидарности между таджиками и узбеками. Навои, используя персидский поэтический стиль и традиции, довел турецкий язык до уровня совершенного литературного языка».

Эти примеры демонстрируют неразрывность культурного пространства, где таджики и узбеки не противопоставлялись друг другу, а являлись частью единой цивилизационной системы.

Политическое взаимодействие также носило сложный характер. В разное время таджики и узбеки выступали союзниками или соперниками в борьбе за власть в регионе. Однако даже в периоды конфликтов сохранялись общие формы организации власти, права и религиозной жизни. Ислам, суфизм, общие формы градостроительства, традиции вакуфов (религиозных пожертвований) связывали оба народа в рамках единой общественной структуры.

Как пишет этнограф К. Шониёзов, «...в Мавераннахре и Хорезме узбекский литературный и повседневный разговорный языки развивались в тесной связи с таджикским языком. Этот факт является исторической реальностью, исторической аксиомой, потому что в центральных и южных городах Мавераннахра было довольно сильно этническое влияние таджиков. Образованные узбеки и таджики свободно говорили и писали на двух языках».

Кочевое и оседлое население на протяжении веков жило и развивалось в тесном взаимодействии. Их хозяйственная деятельность, культурный обмен и политические отношения способствовали формированию единого социокультурного пространства, особенно в районах Мавераннахра и Хорасана.

Особое место в исторической судьбе таджиков занимает их взаимодействие с узбеками. Несмотря на различие языков, таджики и узбеки на протяжении веков существовали в одном цивилизационном поле, разделяя общие социальные институты, религиозные традиции и культурные коды. Как подчёркивается в сборнике «Тоҷикон дар сарчашмаҳои таърих»:

«История показывает, что таджики и узбеки больше повлияли друг на друга, чем разделились. Их экономическая, образовательная и духовная атмосфера была общей и развивалась под взаимным влиянием».

Даже в условиях национально-территориального размежевания начала XX века таджико-узбекские культурные связи не прекратились. Бытовое двуязычие, смешанные браки, общие религиозные и хозяйственные традиции продолжают существовать до настоящего времени, подчёркивая глубокую связь этих народов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аскарлов А. История происхождения узбекского народа. — Ташкент: Akademnashr, 2018. С.63
2. Гафуров Б., Прохоров Н. Тоҷикон ва талашҳои таърихӣ онҳо барои озоии Ватан. — Душанбе, 2012. С.27
3. Шониёзов К. Узбек халқининг шаклланиш жараёни. - Т.: Шарк, 2001. С.393.
4. Тоҷикон дар сарчашмаҳои таърих. — Душанбе: Ирфон, 2018.С.22

ХЎЖАЙЛИ, ҚЎНҒИРОТ ВА ЧИМБОЙДАГИ ЖАДИД МАКТАБЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ ТАЪЛИМ РИВОЖЛАНИШИ ВА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИДА ТУТГАН ЎРНИ

У.Бекмуҳаммад, кат.и.х., PhD, доц., Хоразм Маъмун академияси, Хива
<https://orcid.org/0009-0006-6355-9524>

Аннотация. Ушбу мақолада Хўжайли ва Қўнғирот, Чимбойдаги жади́д мактаблари ҳамда уларнинг жади́дчилик ҳаракати, таълим ривожланишида тутган ўрни таҳлил этилади. СейфулҒабид Маҷидов, Сўфизодаларнинг янги усулдаги ўқитиш тизими, дарсликларнинг ўқувчилар саводхонлиги ва дунёқарабини юксалтиришидаги педагогик технологиялари ёритиб берилди.

Калим сўзлар: Қрим, Хоразм, Қўнғирот, Хўжайли, Чимбой, Наманган, жади́д, мактаб, янги усул, педагогика, дарслик, китоб, адабиёт, ўқувчи, таълим.

Аннотация. В данной статье анализируются джадидские школы Ходжейли и Кунграда, Чимбая а также их роль в джадидском движении и развитии образования. Освещаются педагогические технологии, использовавшиеся СейфулҒабидом Маҷидовым и Суфизаде, особенности новой методики обучения, а также значение учебников в повышении грамотности и расширении мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: Крым, Хорезм, Кунград, Ходжейли, Чимбай, Наманган, джадид, школа, новый метод, педагогика, учебник, книга, литература, ученик, образование.

Abstract. This article analyzes the Jadid schools of Khojayli and Kungrad, Chimboy, and their role in the Jadid movement and the development of education. It highlights the pedagogical technologies employed by Seyfulgabid Majidov and the Sufizadas, the system of new-method teaching, and the contribution of textbooks to improving students' literacy and broadening their worldview.

Key words: Crimea, Khorezm, Kungrad, Khojayli, Chimboy, Namangan, Jadid, school, new method, pedagogy, textbook, book, literature, student, education.

Кириш. Хўжайли ва Қўнғирот Қуйи Амударё бўйидаги, қолаверса Орол денгизига яқин, Чимбой эса денгизга туташ табиати, жойлашган географик ўрни кулай савдо-иқтисод ривожланган ҳудудлар бўлган. 1910 йилда Хива хонлигидаги бекликлар, аҳоли сони, ер ҳажми, миллий таркиби ва кимлар ҳокимлик қилаётганига оид рўйхатга олиш материалларида (1), давлатдаги 27 маъмурий бекликлар қаторида, Хўжайли ва Қўнғиротга оид ҳам статистика келтирилган.

Унга кўра, Хўжайлида 60 минг таноб ер, бўлиб икки минг хонадонда ўртача 7 кишидан истиқомат қилган. Ҳудудда ўзбек, сарт, қирғиз, қорақалпоқлар яшашган ва ҳокими 45 ёшли Авазбийхўжа ўғли Муртазабий бўлиб, 20 йиллик тажрибага эга ҳоким эди.

Қўнғиротда эса 44 ёшли Абдурахимбой Муҳаммадраҳимбоев 20 йилдан бери ҳокимлик қилар ва ҳудуддаги 15 минг хонадонда ўртача 7 кишидан истиқомат қилар ва таркиб ўзбек, шайх, қирғиз, қорақалпоқлардан иборат эди. Бекликнинг ер майдони эса 215 минг танобни ташкил қиларди (2).

Ана шундай муҳим стратегик ҳудудларда нафақат иқтисод, савдо, аграр соҳа, балки таълим ҳам ривожланган бўлиб, юқоридаги даврда ушбу бекликларда жади́д мактаблари истиқболли соҳа сифатида фаолият кўрсатар ҳамда Муҳаммадшариф Сўфизода, СейфулҒабид Маҷидов, кейинчалик Ҳамза Ҳакимзода ва бошқалар жади́д педагоглари сифатида танилганди.

Адабиётлар таҳлили ва метод. Мавзуни ёритишда Ўзбекистон Миллий архиви, “Таржимон” газетаси, Исмоил Гаспиралининг “Ҳаёт ва мамот” масаласи, Неъматжон Полвоновнинг “Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924)”, Ўсербай Алеёв, Қалбай Сейтмуратовларнинг “Қорақалпоғистонда жади́дчилик ҳаракати ва СейфулҒабид Маҷидов“ номли ва Бегали Қосимов, Зайнобиддин Абдирашидов, Сайёра

Самандар, Умид Бекмуҳаммадларнинг жадидчилик ҳаракатига оид монографияларидан, шунингдек, “Жадидчилик: ислоҳот, янгилавиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш”, “Туркистон жадидчилиги-миллий уйғониш даври тарихи” тўпламлари, профессор Дилором Алимова мақоласидан қиёсий манба сифатида фойдаланилди. Архив ҳужжатлари ва илмий адабиётлар, матбуотдаги маълумотларни бир-бирига таққослаган ҳолда, тарихийлик тамойилига амал қилинган ҳолда ҳолис, ҳаққоний ҳулосалар чиқарилди.

Таҳлиллар ва натижалар. 1883 йилдан матбуот, 1884 йилда янги усул мактабларини ташкил қилган Қримлик Исмоил Гаспралининг жадидчилик ғоялари Россия империясидаги мусулмон халқлари ҳаётига тезда кириб келди. “Тилда, фикрда, ишда бирлик” шиори билан нашр этилган “Таржимон” газетаси жадидларнинг ғояларини, дунё ва империяда, туркий, мусулмон халқлар ҳаётидаги жараёнларни ёритиш манбаси сифат Туркистон, Бухоро ва Хоразм заминиди ҳам ўз мухлисларига эга бўлди.

1873 йилдаги Россия истилосидан сўнг Тўрткўл номи ўзгартирилиб Петро-Александровск шаҳри деб аталган ва ҳудудда ишлаб чиқариш корхоналари, билим юрти, рус-тузем мактаби, черков, почта-телеграф ҳам ишга туширилганди. “Таржимон” газетаси нафақат Кавказ, Россия, Тошкентга борган савдогарлар ва зиёлилар орқали, балки Петро-Александровскдаги почта-телеграфдан ҳам келтирилди. Яъни, Ўрта Осиёга, Хоразмга жадидларнинг ғоялари дастлаб “Таржимон” газетаси туфайли тарқалган.

1898 йилда эса пойтахт Хивада биринчи марта жадид мактаби ташкил қилинади. Жадид мактабларидаги ўқитиш тизими, дунёвий фанлардан сабоқ берилиши, синф хоналарнинг жиҳозланиши, Оренбург, Қозон, Қрим, Тошкент шаҳрлик ва маҳаллий педагогларнинг тажрибаси, маҳорат дарслари тезда кенг омма эътиборини тортади. Натижада Хива, Янги Урганч, Хонқа, Ҳазорасп, Гурлан, Тошҳовуз, Шовот ҳудудларида, балки пойтахтдан узоқдаги Орол денгизига яқин Қўнғирот, Хўжайли, Чимбой ҳудудларида ҳам жадид мактаблари ташкил этилади.

Айнан Қўнғирот, Хўжайли, Чимбой, Шуманай, умуман олганда ҳозирги Қорақалпоғистон ҳудудларида жадид мактаблари ва жадидлар ҳаракатининг шаклланиши ва ривожиди Юсуф афанди Аҳмад ўғли (1876-1947), Сейфулғабид Мажидов (1867-1938), Муҳаммадшариф Сўфизода (1938), Ҳамза Ҳакимзода (1889-1929) сингари педагогларнинг ўрни катта. Табиийки, уларнинг издоши ва шогирди сифатидаги педагоглар ҳам бўлиб, улар ҳам вақт ўтиб ҳудудда таълим соҳаси ривожини, тараққиётини ўзларининг катта ҳиссаларини қўшишди.

Ўз номи билан янги усул бўлган жадид мактабларидаги ўқитиш жараёнини профессор Бегали Қосимов ўрганиб, воқеликни шундай тасвирлаганди:

“Буюк ислоҳотчи 5-6 ёшдан 10-12 ёшгача бўлган турли савия, қарашдаги болаларнинг бир синфда маълум бир тартиб-қоида сиз 7-8 соатлаб бир муаллим қўлида, кўпинча бир нарсани такрорлаб ўтиришини, уларнинг ўзлаштириш ва билимлари мутлақо назорат қилинмаслигини тарбияга ҳилоф билади. Алифбони билар-билмас, ўқувчи учун тушунарсиз арабий ё форсийга ўтиб кетилишини хато ҳисоблайди.

Янги усул мактабда қуйидагиларга риоя қилиш лозим:

1. Синфда (мактабда) болалар сони ўттиздан ошмасин.
2. Болаларни фақат икки дафъа-ёз ва қиш бошларидагина қабул қилиш мумкин.
3. Ҳар қабул нечта бўлишидан қаътий назар бир синф бўлсин.
4. Ҳар бир муаллимда кўпи билан 3-4 синф бўлсин.
5. Агар мактаб уч синфдан иборат бўлса, дарслар кетма-кет, маълум уйғунликда қўйилмоғи лозим.

6. 7-9 ёшлардаги бола 7-8 соат узлуксиз ўқий олмайди. Унинг учун 5 соат кифоя. Ҳар дарсдан сўнг 10 дақиқа танаффус лозим.

7. Жума ва байрам кунлари дам олинади.

8. Ўн ой ўқишдан сўнг ёзнинг иссиқ кунларида таътил бўлиши мақсадга мувофиқ.

9. Дарс зериктирмаслиги лозим. Беш соат давомида турли фанлардан дарс олиш оғир эмас, лекин беш соат фақат бир дарс билан машғул бўлиш дарсдан боланинг кўнглини совутади.

10. Ўқувчиларни уришга, сўкишга ҳожат йўқ.

11. Ҳар ҳафта сўнгида ўқувчига ҳафталик баҳо бериш лозим. Ҳафта давомида дарсларни яхши ўзлаштирган ўқувчиларга аъло баҳо қўймоқ керак.

12. Синфнинг деразалари катта, ичкарисси эса кенг ва ёруғ бўлишига аҳамият бериши керак... Совуқ хонада дарс бериш, илм ўргатиш бегуноҳ болани жазолаш билан баробардир” (3).

Давр ва таълим соҳасида дунёда кечаётган жараён эътиборга олиниб, жаид мактабларидаги ислохотлар, дарсликлар, қўлланмалар яратиш ва соҳага янгилик олиб кириш давом этаверган. Натижада ҳар бир ҳудуднинг Исмоил Гаспрали издошлари бўлган педагоглари етишиб чиқди ва улар ҳам ғоявий устозлари каби дарслик, китоблар яратишди.

Профессор Дилором Алимова таъкидлаганидек, “жаидлар мактабларида тафаккури ривожланган ва бу мактабларнинг истиқболини тушунган кишилар фарзандлари таълим олган. Жаид мактабларини Европа мактабларига бевосита ўхшаш бўлган, дейиш қийин, лекин уларда ўша мактабларнинг дастлабки намуналари (прообраз) бор эди. Биринчидан, улар парталар билан жиҳозланган, бу мактаблардаги болалар мусулмон мактабларидаги сингари ерда ўтирмаган ва ўқитувчилар уларнинг боши устида калтак ўйнатиб турмаган. Жаидлар мактабларида китоблар, кейинчалик эса хариталар бўлган.

Бу ўринда дарсликлар нашр қилишда Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Мунавварқорининг хизматларини алоҳида эътироф этиш жоиз. Дастлаб дарсликлар бўлмаган. Улар Россиядан олиб келинган ва татар мактабларига мўлжалланган бўлган. Исмоил Гаспринский бу масалада катта ёрдам кўрсатган. Жаидлар сўнгра ўзи дарсликлар чоп қилишга ўтган. Мунавварқори ва Беҳбудий жуда кўп дарсликлар ёзган. Масалан, “Китоби аввал” ёки математика, адабиёт, география бўйича дарсликларни олайлик. Албатта, улар қайсидир даражада Россия дарсликларида ўзлаштирилган бўлиши мумкин, лекин шунга қарамай, бу жуда катта олға силжиш эди. Жаид мактаблари синфларида глобуслар турган. Бу эски микёслар билан солиштирганда, бутунлай янги нарса эди ва албатта, ажойиб натижалар берган.

Рус тили борасида шуни айтмоқчиманки, жаидларнинг кўпчилиги бу тилни яхши билган. Тил концепцияси Беҳбудийнинг “Бир тил эмас, тўрт тил керак” деб номланган мақоласида очиб берилган, яъни унга кўра, Россия империясида яшаётганимиз сабабли, айниқса, рус тилини билишимиз зарур. Биз ҳаракатимиз тактикасини ишлаб чиқиш учун қандай бошқарилаётганимизни тушуниб олишимиз шарт. Жаид мактабларида рус тили ҳам ўқитилган. Улар Европа адабиётига жуда қизиққан” (4).

Шу тарзда Кримдаги Исмоил Гаспрали томонидан бошланган таълим соҳасидаги ислохотлар, Россия империяси таркибидаги ўлкалар сингари Хоразмни ҳам қамраб олди ва қуйи Амударё бўйларидаги Хўжайли, Қўнғирот ҳудудларида ҳам жаид мактаблари ташкил этила бошланади.

Аввало Хоразм ҳудудларида жаид мактаблари ташкил қилиниши, ривожига Хива хонлари Ферузхон (1844-1910), Асфандиёрхон (1872-1918), бош вазир Ислохўжа (1872-1913) ва бошқа Мамат маҳрам, Бобоохун Салимов сингари амалдорлар, шунингдек мулкдор бойлар катта таъсирчан кучга эга бўлганини таъкидлаш жоиз. Ҳатто Исмоил Гаспрали “Таржимон” газетасида Хоразмдаги янги усул мактабларининг ташкил қилинишида ҳукмдор Ферузхон, валиахд Асфандиёрларнинг ўрни катта бўлганини эътироф этгани таҳсинга лойиқдир. Шу тарзда Исмоил Гаспрали Хоразмда жаидлар кўпаётгани, уларни бевосита ҳукмдор, валиахд ва Ислохўжа сингари тараққийпарварлар қўллаб қувватлаётганини эътироф этган ҳолда, “Таржимон” газетасининг 1909 йилги № 40 сониди “мактабларнинг очилиши, кўпайиши лозим. Боқчасаройдан олинган дарс китоблари, Қозондан чақирилган муаллимлар Хивага энди тўғри келмайди, ярашмайди. Энди Хиванинг ўзидан муаллимлар етиштирмоқ керак ва Хивада чоп этиладиган алифболарни яратмоқ керак. Бунда ҳам ҳеч бир кимса зарар кўрмайди “(5) дея стратегик вазифани қўяди.

Бу борадаги жараёнларда эса Қуйи Амударё бўйларида янги усул мактаблари фаолиятини ва жаҳидлар ҳаракатини кенг йўлга қўйган таълим фидойилари ҳаёти, фаолиятига эътибор қаратиш зарур.

Юсуф Афанди Аҳмад ўғли (1876-1947)-Хоразмдаги жаҳид мактабида фаолият олиб борган педагог. 1907 йилда Хива хони Ферузхон томонидан Қозон шаҳридан Ҳусайин афанди билан бирга таклиф қилинган ва Хивадаги жаҳид мактабида ўқитувчилик қилган. Юсуф афанди ишлаган мактаб тезда ўқувчилар, ота-оналар эътиборини тортиб таълим сифати бўйича Хоразмдаги рус-тузем, жаҳид ва анъанавий (эски)мактаблар ўртасидаги рақобатда олдинги даражага чиққан. Юсуф афанди Аҳмад ўғли ҳаёти педагогик тажрибасини бошқа ҳудудларда оммалаштириш мақсадида 1909 йилда Хўжайли шаҳрига келади ва янги усул мактаби ташкил этади.

Юсуф афандини Хўжайлига таклиф қилган ҳоким Авазбийхўжа Муртазабийхўжа ўғли бўлиб, ўша вақтда 45 ёшда эди ва 20 йилдан бери ҳокимлик қилаётганди.

Авазбийхўжа ўз даврининг тараққийпарвар шахсларидан бўлиб, ҳудуд фарзандларининг истиқболини ўйлаб, Қизилкўприк ёнидаги ўз ҳовлисини жаҳид мактаби учун ажратади. Шунингдек, Юсуф афандига ҳам яшаши, ишлаши учун зарур шарт шароит яратиб беради. Маълумки, 1916 йил январь, февраль ойларида монархия ва мустамлакачиликка қарши айнан Хўжайлида Авазбийхўжа бошчилигида халқ қўзғолони бўлиб ўтади ва бутун хонлик ҳудудини қамраб олиб, Хива қамал қилинади. Бироқ Асфандиёрхон мустамлакачиларнинг генерал Галкин қўшинига таяниб қўзғолонни бостиришга эришади ва намояндалар қаторида Авазбийхўжани ҳам осиб ўлдиришга ҳукм қилишади.

1916 йил Авазбийхўжа очган жаҳид мактаби ҳам шу тарзда 7 йил фаолият кўрсатиб ёпилишга мажбур қилинади. Юсуф афанди ва ҳамкасблари эса педагогик фаолиятини бошқа ҳудудда давом қилдиради.

Қуйи Амударё бўйларидаги иккинчи жаҳид мактаби эса Қўнғирот шаҳрида 1910 йилда Наманганлик Муҳаммадшариф Сўфизода томонидан ташкил қилинади. Асли Наманганлик Сўфизода(1880-1938)нинг шу тарздаги педагогик фаолияти Қўнғирот билан боғлиқ кечди. “Таржимон” газетасидаги маълумотга кўра, 1907 йилда Хивада жаҳид мактабларини кўпайтириш, ўқув жиҳозлари, адабиётлари билан таъминлаш, улардаги таълим сифатини назорат қилиш учун Рамазон Муҳаммад Каримзода мактаблар нозири қилиб тайинланганди. Натижада талаб ва таклиф ортгани боис, Хўжайли, Қўнғирот, Чимбой, Манғит, Гурлан, Хонқа шаҳарларида ҳам жаҳид мактаблари ташкил этилади ва бу борадаги фаолиятнинг кенг оммалашishiда Рамазон Каримзоданинг ўрни катта бўлганди.

Филология фанлари номзоди, доцент Сайёра Самандар Сўфизоданинг Хоразмдаги педагоглиги бўйича тадқиқот олиб борган. Унинг таҳлилларига кўра “Айнан Сўфизоданинг Хоразмга келиб педагогик фаолиятини бошлашида Рамазон Каримзоданинг ўрни катта бўлган. Каримзода Сўфизодага пойтахт Хивадан узокдаги, аммо Орол денгизи, Амударёга яқин, яъни иқлими водийникига мос Қўнғиротдаги мактабда фаолият кўрсатишни таклиф қилади. Шу тариқа Сўфизоданинг уч йиллик педагогик фаолияти Қўнғирот шаҳрида давом этади. Қўнғирот шаҳридаги жаҳид мактабида муаллимлик қилиш билан бирга, маърифатпарварлик руҳидаги шеърларини ёзиб, Боку ва Оренбургда чиқадиган газета ва журналларда нашр этдиради. Унинг Хоразмда яшаган йилларда яратган шеърлари орасида айниқса, “Ўзбек хонимига”, “Хонимлар исминда”, “Ватан”, “Муслималар” асарлари диққатга сазовордир.

Сўфизода Хоразмга келган 1910 йилда Хива хони, маърифатпарвар Ферузхон хаста эди ва шу боис у билан учрашига муваффақ бўлмади. Кўп ўтмай эса Ферузхон вафот этади. Тахтга эса 1910 йил августида худди отаси сингари шоир, жаҳид мактаблари, педагоглари кўллаб қувватлаётган Асфандиёрхон чиқади. Айнан ундан умидвор бўлгани туфайли Сўфизода Асфандиёрнинг тахтга чиқиши муносабати билан шеър ёзган ва бу бағишлов “Шўро” журналнинг 1911 йил 12 сонидида нашр қилинган. Табиийки, Қўнғирот шаҳридаги жаҳид мактаби ўқитувчиси Сўфизода Асфандиёрхонни тараққийпарвар бўлишга ундаб, унга катта ихлос қўйганини шеърида ифодалаб ўтган” (6).

“1910-1913 йилларда Қўнғиротда таниқли ўзбек маърифатпарвари Муҳаммадшариф Сўфизода томонидан ташкил қилинган жаид мактабида шогирдларга она тили, география, хандаса (геометрия) каби фанлар ўргатилган “(7).“Қорақалпоғистонлик машхур шоир, ёзувчилар К.Эрманов ва Р.Мажидовларнинг ҳам ушбу янги усул мактабида таълим олганлиги маълум. Сўфизода Қорақалпоғистонда педагогик фаолият олиб борган даврида қорақалпоқ маърифатпарварлари С.Мажидов, А.Мусаевлар билан яқин алоқада бўлиб, улардаги маърифатпарварлик ва жаидчилик ҳаракатининг янада ривожланишига таъсирини шуктади.Натижада Сейфулғабид Мажидов Қўнғиротда 1912 йилда жаид мактабини ташкил қилиб, ўзи шу мактабда ўқитувчилик қилган. У айна пайтда яратган асарларида жаидчилик ғоялари, миллий озодлик ҳақидаги фикрларини тарғиб қилишга эришди”(8).

“1911 йилда Қўнғиротда Қ.Амиров томонидан кейинчалик обрўли таълим марказига айланган янги усулдаги мактаб ташкил этилиб, бунга Қозон шаҳридан тажрибали педагог Аҳмад Зокир Ботиров ўқитувчиликка чақирилган”(9).

Педагог ва шоир Сўфизоданинг маҳорати сабаб, “С.Мажидов, А.Мусаевлар билан яқин алоқада бўлиб, улардаги маърифатпарварлик ва жаидчилик ҳаракатининг янада ривожланишига таъсирини ўтказди.Натижада Сейфулғабид Мажидов Қўнғиротда 1912 йилда жаид мактабини ташкил қилиб, ўзи шу мактабда ўқитувчилик қилган. У айна пайтда яратган кўпгина асарларида жаидчилик ғоялари, миллий озодлик ҳақидаги фикрларини тарғиб қилишга эришди” (10).

Сейфулғабиднинг отаси Абдулмажид Абдулраҳиб ўғли 1881 йилда Қуйи Амударё бўйларига кўчиб келган, татар миллатига мансуб зиёли эди. Сасейфулғабид дастлаб Таллиқ бўйидаги Кулен бўлис котиби сифатида фаолият кўрсатади ва ижтимоий сиёсий, маърифий жараёнларга аралашган ҳолда ҳаёт кечиради. “Сейфулғабид Мажидовнинг оиласи XX аср бошида Таллиқдан Қўнғирот шаҳрига кўчиб келади. Бу шароит шоирнинг Россия ва Татаристон хабарларини билиб туришига имконият туғдиради. У жаидчилик ғоясини тарғиб қилувчи татар тилида чоп этиладиган “Вақт кўёши”, И.Гаспринский ташкил қилган “Таржимон” газетасини ва бошқа Россияда нашр қилинган журналлар ва китобларни олиб туради. Шоирнинг рус тилини яхши билганлиги, Россиянинг ижтимоий аҳволи ҳамда Татаристон, Ўрта Осиёдаги жаидчилик оқими билан матбуот ёрдамида узлуксиз танишиб бориши, ундаги демократик фикрлар, сиёсий-ижтимоий тушунчаларнинг кенгайиши, замонасининг таракқийпарвар ғояларини ўзлаштиришига ёрдам беради” (11).

Сейфулғабид Мажидов фақат жаид шоири, педагоги сифатидагина эмас, 1921йили Қўнғирот округи халқ таълими бўлим бошлиғи, 1925 йилдан Хўжайли округи инспектори, сўнгра эса Тошкент, Тўрткўл, Урганч, Нукус шаҳарларидаги ташкилотларда фаолият юритди. 1937 йилда “халқ душмани” сифатида қамалиб, 1938 йилда қатағон давр қурбони бўлди.

Юсуф афанди, Сўфизода, Сейфулғабид Мажидовларнинг янги усулдаги мактаблари, улардаги педагогик маҳорат ва ёшларнинг ушбу таълим даргоҳларига бўлган қизиқиши сабаб, Чимбойда ҳам мактаблар ташкил этила бошланади. Чимбой шаҳрида ҳам 1912 йилда жаид мактаби ташкил қилинган бўлиб, мактаб ташкилотчилари Қози Маулик номи билан танилган шахс ва бошқирд педагоги Аббос Амантаев эди.

“Жаид шоири Қози Маулик (1885-1950) Бухоро мадрасасида таҳсил олиб юрган пайтида “Ёш бухороликлар” ҳаракатига аъзо бўлиб, жаид мактабидаги таълим жараёни, жаидчилик ҳаракатининг миллий истиқлол учун интилиш режалари билан танишиб, диний билимларини чуқурлаштириш билан биргаликда ижтимоий-сиёсий қарашларини ҳам кенгайтириб боради. Қози Маулик мадрасани 1912 йилда тугатиб, Қорақалпоғистонга келиб жаидчилик ҳаракатини давом эттиради. Чимбойда ташкил қилинган янги мактаб болаларини бепул овқатлантириб, уларга таълим бера бошлади”.(12)

“Булардан ташқари Қози Маулик Чимбойда китоб дўкони очиб, унга ҳар хил босмаҳоналарда чоп этилган китобларни олиб келтиради ва ўзи ҳам котиблар жамоасини ташкил қилиб, китоблардан нусхалар кўчиртиради. Ушбу шаҳарда ўқитувчилик қилган бошқирд Аббос Амантаев ҳам янги усулдаги мактабда 1912 йилдан эътиборан ўн йил ичида 400 га яқин маҳаллий халқ болаларини саводли қилган эди “(13).

Хонлик тугаганидан сўнгги республика даврида яна бир жаид маърифатпарвари Ҳамза Ҳакимзода Хўжайлига келиб (1889- 1929) педагогик фаолиятини олиб борди. Ҳамза Ҳакимзода ўзбек жаид адабиётининг намояндаси ва Хоразмда театрнинг шаклланиши ҳамда педагогика тараққиётига ҳисса қўшган ижодкор. 1921 йил ноябридан 1924 июль ойларигача Хоразм республикасининг Хива шаҳри театрида, Хўжайли туманидаги мактабда фаолият кўрсатган. Хоразмдаги мактаблар учун ўзи билан Тошкент ва водийда нашр қилинган жаид мактабларида қўлланилган дарслик, қўлланмаларни олиб келган. Хоразм таълим соҳаси тарихини Ҳамза Ҳакимзода фаолиятисиз тасаввур қилиш қийин.

“Жаид маърифатпарвар педагоги Ҳамза Ҳакимзода фаолият кўрсатган мактаб-интернат Хўжайли пахта тозалаш заводи биносидан 1920 йилда ташкил қилинган. Бироқ кўп ўтмай ушбу таълим маскани фаолиятида турли сабаблар билан узилишлар бўлади. Хивада театрга асос солган ва ўз даврининг доврқли жаидларидан бўлган Ҳамза, санъаткорлар билан Қўнғирот, Мўйноқ худудларида бўлган ва кўнглида ушбу худуддаги мактабни қайтадан йўлга қўйиш истаги туғилган. Негаки, ушбу худудларда етим болалар қаровсиз юришини кўриб ачиниш ҳисси уйғонган. Қолаверса республика ва ички ишлар нозирлигининг айрим раҳбарлари билан театр соҳасидаги драмалар бўйича тушунмовчилик юз берган. Шундай вазиятда Хўжайлида тўхтаб қолган мактабни қайта йўлга қўйиш энг оқилона ечим эди”(14).

Шу тарзда Ҳамза Ҳакимзода 1923 йилнинг августида Хўжайлига келиб таълим соҳасида фаолиятини бошлайди. Дастлаб тарбиячи, ўқитувчи ва 13 октябрдан мактаб интернат мудир сифатида ишни давом этдиради. Бу даврга келиб ўлкадаги жаид мактаблари советлаштирилган, бироқ ўқитувчилар совет мафкуриси руҳидаги дарслик, қўлланмалар етишмаслигидан, ўқувчиларнинг саводини чиқариш, дунёқарашини кенгайтиришда олдинги давр китобларидан фойдаланишарди.

Ҳамза фақат мактабда педагогик қилиб қолмай, халқ орасида маърифатпарварлик ғояларини йўлга қўйиш учун “Шарқ оқшомлари” номли миллий концерт ва ўйинлар ўтказишни ҳам йўлга қўяди.

Ҳамза жаид маърифатпарвари, қолаверса олдин ҳам таълим соҳасида ишлаган тажрибали шахс бўлганидан, мактаб учун янги бино барпо этиш ташаббуси билан чиқади. У драматург, режиссёр сифатида театрда ишлагани боис, “Шарқ оқшомлари”ни бозорларда намойиш этиш, таниқли санъаткорларни жалб қилиш, халқдан берилган хайрияларни мактаб биносига сарфлашни ҳам йўлга қўяди. Ана шу тариқа Ҳамза Ҳакимзода томонидан Хўжайли туманида янги мактаб биноси ҳам барпо этилади.

Мактабда кутубхонага катта ўрин ажратилган бўлиб, Ҳамза Чоржўй, Аральскдан келиб турадиган пароходлар орқали бошқа худудлардан китоблар, газета-журналлар олдиришни ҳам йўлга қўяди. 1923 йил кузида Хива шаҳридан 86 номдаги китобларни олиб келтиради.

Ҳамзанинг ҳамкасблари сифатида Тўлеген Тўлеев, Пир Қутлимурад, Шариф Аҳмаджоновлар ҳам мактабда фаолият кўрсатишган.

Ҳамзада педагогик тажрибаси бўлгани учун ўзининг олдин нашр этдирган дарслик, қўлланма, бадиий асарларидан ҳам дарсда фойдаланарди.

Шунингдек у ўзининг жаид педагогик фаолиятдан келиб чиқиб, ўқувчиларни ўз ихтиёрича синфларга тақсимларди. “Ҳамзанинг мактаби тўрт синфдан: юкта-синф, яъни нолинчи синф, яриминча синф-бу биринчи группанинг тайёрлов синфи, биринчи синф ва иккинчи синфлардан иборат эди.

“Ҳамза раҳбарлик қилган интернатнинг юкта синфида 1923 йилнинг октябрида 33 бола, яриминчи синфда 14, биринчи синфда 23, иккинчи синфда 9 бола бўлиб, интернат бўйича 79 тарбияланувчи бор эди. Мактабда ўқув муддати гарчи тўрт йил бўлса ҳам, асосий синфлар, айтиб ўтилганидек, иккита эди, холос. Қолган иккита синф эса асосий синфларнинг қисмлари бўлиб хизмат қилар эди.

1923 йилда бўлиб ўтган умумреспублика ўқитувчилар курултойида қабул қилинган низом асосида Хоразм умумтаълим мактаблари биринчи ва иккинчи босқич мактабларига ажратилган эди.

Биринчи босқич мактаблар, шу курултойда қабул қилинган қарорга асосан, тўрт йиллик бошланғич мактаблар бўлиб, бу тоифадаги мактаблар учун дастур ҳам ишлаб чиқилган эди. 1923-24 ўқув йилида Хўжайли интернати ҳам тўрт синфли биринчи босқич мактабга айлантирилган эди. Бироқ ҳали Ҳамза мудир бўлиб турган пайтларда бу интернатни оддий биринчи босқич мактаблар қаторига қўшиш хато бўлур эди. Чунки Хўжайли интернатида, биринчидан, оддий биринчи босқич мактаблар учун хос бўлмаган бошқа фанлар ўқитилар эди. Масалан, биринчи ва иккинчи синфларда она тили, арифметика, ҳатто табиатшунослик ҳам ўқитиларди. Учинчи синфдан бошлаб эса физика, география, умумий тарих ва Хоразм тарихи, тўртинчи синфдан Хоразм географияси ўқитиларди.

Юқори синфларда геометрия, математика, Хоразм тарихи фанларни Ҳамзанинг ўзи ўқитарди. Иккинчидан, Хўжайли интернатида тарбияланувчиларнинг қари йиб ярми 14-18 яшар ўсмирлардан иборат эдики, бу ҳол болаларни республиканинг ўрта билим юртиларига тезкорлик билан тайёрлаш вазифасини бажаришга ёрдам берган.

Масалан, 1923-24 ўқув йилида Ҳамзанинг қўлида арифметика, геометрия фанларидан таҳсил олган, кейинчалик Қорақалпоғистон педагогика институти математика кафедраси доценти бўлиб ишлаган Умар Булешов шундай ёзади: “ Ҳамза интернатда арифметика, геометриядан бизга чуқур билим берган. Биз Хўжайли интернатида тарбия кўрган олти ўқувчи Хива педагогика техникумига республиканинг бошқа шаҳарларидан келган ўқувчиларга қараганда анча пешқадам эдик”.

Хўжайли интернати ўша даврдаги биринчи босқичли мактаблар дастурларида кўзда тутилганига нисбатан анча чуқурроқ билим берар эди. Шу сабабли, бу мактаб юқорироқ тоифадаги мактаблар қаторига қўшилди. Ўша вақтда Хоразмда бундай мактаблар жуда ҳам оз эди. Шунинг учун Ҳамза мудирлик қилган бу интернатнинг тез орада бутун Хоразмга машҳур бўлиб, халқ ҳурматини қозонганлиги ажабланарли эмас” (15).

Ҳамзанинг таълим соҳасидаги ушбу фаолияти тез орада доврқ қозониб ўз натижаларини бера бошлагач, Манғит, Қўнғирот, Қўхна Урганч ҳудудларида ҳам Хўжайлидаги сингари таълим даргоҳлари ташкил этила бошланади. Шу ва бошқа мактаблар учун Ҳамзанинг педагогик тажрибаси тадбиқ этила бошланади.

Негаки, Ҳамза Ҳакимзоданинг нафақат шоир, драматург, режиссёрлик, балки педагогик фаолияти ҳам жади́дчилик ғояларига асосланган эди.

Умуман олганда Хўжайли, Қўнғирот, Чимбойдаги жади́д мактаблари педагоглари нафақат таълим соҳасининг фидойилари, балки ўзларининг ижтимоий маърифий фаолияти билан жади́длар ҳаракатида ҳам муҳим нуфузга эга бўлишди. Сўфизода, Ҳамза Ҳакимзода сингари зиёлилар номи ва улар фаолиятисиз жади́длар ҳаракатини тасаввур қилиб бўлмайди.

Хулоса. Хўжайли, Қўнғирот, Чимбой сингари ҳудудлар гарчи пойтахт Хивадан чекка шаҳарлар бўлсада, географик жойлашуви ва савдогарларнинг ҳаракатланишига кўра ривожланиш омилига таъсир қилган. Натижада, мулкдорлар, савдогарлар ва фарзандлари истиқболини ўйлаган тараққийпарвар оилалар таълим соҳасидаги янгиликни қўллаб қувватлашди. Шу тарзда ҳудудда жади́д мактаблари ташкил қилиниб соҳага Қозон, Наманган, Хивалик тажрибали педагоглар ҳам таклиф қилинди. Таълим соҳасидаги бу жараён кейинчалик Қорақалпоғистонда турли соҳаларни эгаллаган миллий кадрлар шаклланишига ҳам сабаб бўлди. Вақт ўтиб ҳудудда педагог сифатида фаолият кўрсатган Сўфизода, Ҳамза Ҳакимзодалар эса Ўзбекистонда биринчи бўлиб халқ шоири, халқ ёзувчиси унвонлари билан тақдирландилар. Бу ҳам ҳудудда интеллектуал кадрлар педагогик қилиш билан бирга, ижодда ҳам ўз даврининг илғор шахслари бўлганини кўрсатади. Умуман олганда Қорақалпоғистондаги таълим ривожига Қўнғирот, Хўжайли, Чимбойдаги жади́д мактаблари ўқитувчиларининг ўрни катта бўлган ва бу педагогика ҳамда жади́дчилик тарихидан жой олган мозийнинг ёрқин саҳифаларидир.

ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Миллий архиви, 125-фонд, 1-рўйхат, 526,528,529,537-ишлар.
2. Неъмат Полвонов “Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924) “Академнашр”нашриёти, Тошкент-2011 йил, 13, 14, 15, 16-бетлар.

3. Исмоил Гаспринский “Хаёт ва мамот масаласи”, Бегали Қосимовнинг “Учинчи муаллим”номли сўзбошиси, “Маънавият” нашриёти, 2006 йил, 19-20 бетлар.
4. Дилором Алимова “Жадидларнинг ғоявий асослари, ютуқ ва хатолари”, <https://www.uzanalytics.com>, 2022 йил 10 март.
5. Исмоил Гаспрали “Таржимон” газетаси, 1909 йил № 40.
6. Сайёра Самандар “Сўфизоданинг Хоразм жадид мактабидаги педагогик маҳорати ва ижодий фаолияти”, “Инновация ва тараққиёт” журналы, 2026 йил № 4, 229-238-бетлар.
7. Р.Қосбергенов “Қарақалпақ халқынын колониал даўирдеги мэденияты хам турмыссы” .Нокис.Қарақалпақстан. 1970, 29-бет.
8. Ўсербай Алеўов, Қалбай Сейтмуратов “Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракати ва Сейфулғабид Мажидов” “Фан” нашриёти, Тошкент-2010 йил, 17-бет.
9. Ўсербай Алеўов, Қалбай Сейтмуратов “Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракати ва Сейфулғабид Мажидов” “Фан” нашриёти, Тошкент-2010 йил, 18-бет.
10. Ўсербай Алеўов, Қалбай Сейтмуратов “Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракати ва Сейфулғабид Мажидов” “Фан” нашриёти, Тошкент-2010 йил, 17-бет.
11. Ўсербай Алеўов, Қалбай Сейтмуратов “Қорақалпоғистонда жадидчилик ҳаракати ва Сейфулғабид Мажидов” “Фан” нашриёти, Тошкент-2010 йил, 17-бет.
12. А.Р.Кудияров.История города Чимбая (XIX-начало XX вв). Автореф.дис...канд.ист.наук.Нукус, 1999.- 17 с.
13. Урумбаев Ж. “Қарақалпақстан XX асир басында”.Нокис: Қарақалпақстан, 1912 йил, 36-бет.
14. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад “Хоразм жадидчилиги: ислохотлар, таълим ва адабиёт”, “Milleniumus print” нашриёти, Урганч-180-бет.
15. Жумек Ўрумбоев “Хамзанинг Хўжайли интернатидаги педагогик фаолияти” “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент-1969 йил, 21, 22, 23, 24 бетлар.

УДК 902/904:666.1(575.1)“08/12”

МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ СТЕКЛЯННЫХ СОСУДОВ ШАША IX — НАЧАЛА XIII ВЕКА

Е.Е.Мирзохидова, м.н.с., Институт антропологии Академии наук, Ташкент

ORCID: 0009-0004-0117-6582

Annotatsiya. Maqolada IX — XIII asr boshlariga oid Shosh shisha idishlarining morfologik tipologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning manbaviy asosini Binkat–Toshkent, Qanqa–Xarashkat, Banokat–Shohruxiya, Kavardon va Toshkent vohasining boshqa arxeologik yodgorliklaridan topilgan hamda ilmiy nashrlarda e’lon qilingan shisha buyumlar tashkil etadi. Idishlarni tasniflashda gardish shakli, bo’yin tuzilishi, tana profili, taglik konstruksiyasi, dastalar, oyoqchalar, halqasimon tagliklar, tumshuqlar va maxsus naychalar hisobga olindi. Morfologik tahlil natijasida ochiq oshxona idishlari, silindrsimon ichimlik idishlari, oyoqchali qadahlar, ko’za va krujkalari, grafin va shishasimon idishlar, kichik flakonlar hamda maxsus maishiy va kimyoviy idishlar ajratildi. Shosh idishlarining aksariyat shakllari Sug’d, Farg’ona va Buxoro materiallarida uchraydigan namunalarga yaqinligi aniqlandi. Mahalliy xususiyatlar asosan morfologik belgilar birikmasi, idishlarning mutanosibligi va bezak usullarida namoyon bo’lgan. Taklif etilgan tipologik tizim yangi arxeologik topilmalarni tavsiflash va muzey kolleksiyalarini kataloglashtirishda qo’llanilishi mumkin.

Kalit so’zlar: Shosh, Binkat, Toshkent vohasi, shishasozlik, shisha idishlar, morfologiya, tipologiya, o’rta asr hunarmandchiligi, Movarounnahr.

Аннотация. В статье рассматривается морфологическая типология стеклянных сосудов Шаша IX — начала XIII века. Источниковую основу исследования составили опубликованные археологические материалы Бинката–Ташкента, Канки–Харашкета, Баноката–Шахрухия, Кавардана и других памятников Ташкентского оазиса. При систематизации находок учитывались форма венчика, строение горловины, конфигурация тулова, конструкция основания, наличие ручек, ножек, поддонов, носиков и специализированных трубок. В результате выделены открытые столовые сосуды, цилиндрические сосуды для питья, бокалы на ножках, кувшины и кружки, графины и бутылевидные изделия, флаконы, а также специализированная бытовая и химическая посуда. Установлено, что большинство форм имеет аналогии в материалах Согда, Ферганы, Бухары

и других областей Мавераннахра. Региональные особенности проявлялись преимущественно в сочетании морфологических признаков, пропорциях изделий и способах декоративного оформления. Предложенная классификация может применяться при обработке археологических коллекций, составлении каталогов, музейных паспортов и электронных баз данных.

Ключевые слова: Шаш, Бинкат, Ташкентский оазис, стеклоделие, стеклянные сосуды, морфология, типология, средневековое ремесло, Мавераннахр.

Abstract. The article examines the morphological typology of glass vessels from Shash dating from the ninth to the early thirteenth centuries. The source base consists of published archaeological materials from Binkat–Tashkent, Kanka–Kharashket, Banakat–Shahruxhiya, Kavardan and other sites of the Tashkent oasis. The classification considers the form of the rim, the construction of the neck, the profile of the body, the structure of the base and the presence of handles, stems, ring feet, spouts and specialised tubes. The analysis distinguishes open tableware, cylindrical drinking vessels, stemmed goblets, handled jugs and mugs, decanters and bottles, small flasks, and specialised household and chemical vessels. Most forms have parallels in archaeological assemblages from Sogd, the Ferghana Valley, Bukhara and other regions of Mawarannahr. Regional characteristics are expressed primarily through particular combinations of morphological features, vessel proportions and decorative techniques rather than through entirely unique forms. The proposed classification can be applied to archaeological catalogues, museum documentation and digital databases of medieval glass finds.

Key words: Shash, Binkat, Tashkent oasis, glassmaking, glass vessels, morphology, typology, medieval crafts, Mawarannahr.

Введение. Стеклоделие занимало значительное место в системе художественного и бытового ремесла средневековой Средней Азии. Стеклянные изделия применялись в повседневном быту, торговле, медицине, фармацевтике и производственных процессах. Археологические находки свидетельствуют о существовании в городах Мавераннахра развитых традиций изготовления столовой, хозяйственной, парфюмерно-косметической и химической посуды. Наиболее интенсивное развитие среднеазиатского стеклоделия наблюдалось в домонгольский период, когда расширение городских рынков и межрегиональной торговли способствовало увеличению ассортимента стеклянных изделий [1].

Одним из значительных центров городского ремесла являлся Шаш — историко-культурная область, занимавшая территорию Ташкентского оазиса. В IX — начале XIII века здесь находились Бинкат, Канка–Харашкет, Банокат, Кавардан, Тункат и другие города и поселения, включённые в систему торговых путей Мавераннахра. Центральное положение в экономической жизни области занимал Бинкат, сформировавшийся как крупный административный, торговый и ремесленный центр Шаша [2].

Основной комплекс опубликованных стеклянных находок Бинката относится к IX–XI векам. В специальном исследовании Д. К. Мирзаахмедова, С. Р. Ильясовой и Ш. Т. Адылова были введены в научный оборот сосуды и их фрагменты, обнаруженные при археологических исследованиях средневекового Ташкента [3]. Представленный материал включает венчики, горловины, стенки, ручки и донья различных сосудов. Значительная фрагментарность находок затрудняет реконструкцию первоначального облика изделий, однако наличие диагностических элементов позволяет определить морфологические признаки и приблизительное функциональное назначение.

Отдельные стеклянные сосуды из Ташкента были рассмотрены М. Аминджановой на материалах музейных собраний Ташкента и Самарканда [4]. Исследовательница опубликовала формы средневековых чаш, стаканов, флаконов, бутылей и других изделий, обратив внимание на их конструктивные и декоративные особенности. Эти материалы имеют существенное значение для поиска аналогий и реконструкции сосудов, представленных отдельными фрагментами.

Обобщающий анализ стеклодельного ремесла крупнейших городов Узбекистана был проведён Д. К. Мирзаахмедовым. Исследователь рассмотрел материалы Бухары, Пайкенда, Самарканда, Ташкента, Ахсикета и Кувы, выделив основные функциональные категории средневековых стеклянных изделий [5]. Сравнение находок из различных ремесленных центров показывает наличие общих для Мавераннахра форм и отдельных региональных вариантов.

Методологической основой исследования является система нормированного описания археологического стекла, разработанная Ю. Л. Щаповой. Морфологическая характеристика сосуда должна включать сведения о его общей форме, конструктивных частях, размерах, технологии изготовления, цвете, прозрачности и особенностях декора [6]. Опыт систематизации стекла средневекового Согда и Пенджикента подтверждает эффективность классификации находок по форме, функциональному назначению и хронологическому контексту [7; 8].

Несмотря на наличие специальных публикаций и обобщающих исследований, стеклянные сосуды Шаша IX — начала XIII века не сведены в единую морфологическую систему. В отдельных работах находки преимущественно классифицируются по функциональному назначению, месту обнаружения или технологии изготовления. При этом форма венчиков, горловин, тулова и доньев не всегда рассматривается как взаимосвязанная система диагностических признаков.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью систематизации опубликованных археологических материалов и разработки морфологической типологии стеклянных сосудов Шаша. Такая типология позволяет определить устойчивые формы изделий, выделить типы и варианты, уточнить функциональное назначение фрагментов и проследить изменения в ассортименте стеклянной посуды.

Цель исследования — разработать морфологическую типологию стеклянных сосудов Шаша IX — начала XIII века на основе опубликованных археологических материалов. Для достижения цели необходимо систематизировать сведения о находках; определить основные функциональные и морфологические категории; выделить диагностические признаки конструктивных элементов; установить типы и варианты сосудов; сопоставить их с материалами других городских центров Мавераннахра.

Объектом исследования являются стеклянные сосуды и их фрагменты, происходящие с территории Шаша. Предмет исследования составляют морфологические признаки, конструктивные особенности, типологическое соотношение и функциональное назначение изделий. Научная новизна заключается в систематизации материалов по единой классификационной схеме и в акценте на диагностических фрагментах, позволяющих определять форму сосуда при неполной сохранности.

Материалы и методы исследования. Источниковую основу исследования составляют опубликованные стеклянные сосуды и диагностические фрагменты, происходящие из археологических комплексов Шаша IX — начала XIII века. В корпус включаются полностью и частично сохранившиеся изделия, а также венчики, горловины, ручки, ножки, поддоны, донья и специализированные трубки. При функциональном разделении материала учитывается классификация домонгольского стекла Пенджикента, включающая столовую, парфюмерно-аптекарскую, химическую и бытовую посуду [9].

Региональная выборка охватывает Бинкат–Ташкент, Канку–Харашкет, Банокат–Шахрухию, Кавардан, Тункат–Илак и другие памятники Ташкентского оазиса. Современное обобщение материалов Шаша–Илака показывает, что стеклянные изделия IX–XII веков происходят из нескольких городских центров и различаются по форме, назначению, цвету и способу изготовления [10]. Территориальная и историко-культурная характеристика памятников определяется по сводным археологическим исследованиям Ташкентского оазиса [11].

При отборе материала предпочтение отдаётся изделиям, представленным профильным рисунком, фотографией, обмерами или подробным описанием. Целые сосуды и экземпляры с

полным профилем используются для определения общей формы и пропорций. Фрагменты включаются в типологический анализ при наличии диагностических признаков. Сравнительные формы средневековых сосудов Мавераннахра привлекаются для реконструкции изделий, представленных отдельными частями [12].

Находки из Канки и Кавардана используются для проверки распространения типов за пределами Бинката [13; 14]. Синхронные материалы Ахсикента и Бухары позволяют определить межрегиональные аналогии и отделить общие формы Мавераннахра от предполагаемых локальных вариантов Шаша [15; 16]. Понятия «форма», «тип» и «вариант» разграничиваются с учётом принципов морфологической классификации археологических предметов [17].

Основным методом является морфологический анализ, предусматривающий последовательное описание сосуда от венчика к основанию. Для каждого изделия фиксируются сохранность, форма венчика, конструкция горловины, очертания плечиков и тулова, устройство донца, наличие ручек и других элементов, размеры, цвет, прозрачность, технология и декор. Форма не определяется по одному признаку: атрибуция строится на устойчивом сочетании взаимосвязанных характеристик.

Под формой понимается общий конструктивный облик сосуда — чаша, стакан, бокал, кувшин, графин, бутылка, флакон или специализированная ёмкость. Тип выделяется по устойчивому сочетанию основных морфологических признаков. Вариант определяется различиями, не изменяющими базовую конструкцию: цветом стекла, толщиной стенок, отдельными особенностями пропорций или декоративного оформления.

Сравнительно-типологический метод применяется для проверки выделенных типов по материалам Согда, Ферганы, Бухары и Пенджикента. Аналогия признаётся значимой при совпадении нескольких конструктивных характеристик и близкой датировке. Контекстуально-хронологический анализ используется для определения периода существования типа. Наиболее надёжными считаются находки из закрытых или стратиграфически ясных комплексов.

Таблица 1.

Система морфологического описания стеклянных сосудов

Элемент анализа	Основные фиксируемые признаки	Типологическое значение
Сохранность	целый сосуд; полный профиль; верхняя или нижняя часть; отдельный фрагмент	Определяет степень достоверности реконструкции
Венчик	прямой; отогнутый наружу; загнутый внутрь; утолщённый; закруглённый; оформленный валиком	Основной диагностический признак
Горловина	отсутствует; короткая; высокая; цилиндрическая; коническая; расширяющаяся	Разграничивает открытые и закрытые формы
Тулово	цилиндрическое; коническое; полусферическое; шаровидное; грушевидное; приплюснутое	Определяет общую форму сосуда
Основание	плоское; вогнутое; выпуклое; кольцевой поддон; ножка	Характеризует устойчивость и конструкцию
Дополнительные элементы	ручка; носик; слив; ножка; выступ для пальца	Уточняют форму и функцию
Размеры	диаметр венчика, тулова и дна; высота; толщина стенок	Позволяют анализировать пропорции
Технология	свободное выдувание; выдувание в форму; налёпные элементы; след понтии	Характеризует изготовление
Декор	накладная нить; рельеф; формовой орнамент; насечка; гравировка	Используется для выделения вариантов
Оптические свойства	цвет; прозрачность; пузырьки; иризация	Дополняют характеристику материала

Примечание. Таблица составлена автором на основе [1; 3; 6–9; 17].

Количественная обработка проводится после завершения атрибуции. Один сосуд, представленный несколькими соединяющимися фрагментами, учитывается как единая

находка. Несоединяющиеся венчики или донья рассматриваются как отдельные единицы только при отсутствии оснований считать их частями одного изделия.

Результаты исследования. Систематизация опубликованных материалов позволила установить, что стеклянные сосуды Шаша IX — начала XIII века различаются по степени открытости формы, конструкции венчика, высоте горловины, очертаниям тулова, устройству основания и наличию дополнительных элементов. В результате выделены семь основных групп: открытые столовые сосуды; цилиндрические сосуды для питья; бокалы на ножках; кувшины и кружки с ручками; графины и бутылевидные сосуды; малые флаконы; специализированная бытовая и химическая посуда.

Первую группу составляют чаши и пиалы. Их объединяют широкое устье, невысокое полусферическое или приплюснуто-шаровидное тулово и отсутствие выраженной горловины. Венчики могли быть прямыми, закруглёнными, утолщёнными или отогнутыми наружу. Основание представлено плоским или слегка вогнутым донцем, иногда невысоким кольцевым поддоном. Разграничение чаши и пиалы при неполной сохранности условно и требует учёта размеров и пропорций [4].

Цилиндрические сосуды представлены стаканами и кружками. Стаканы характеризуются прямыми или слабоконическими стенками, прямым венчиком и плоским либо вогнутым донцем. Кружки морфологически близки к стаканам, но снабжены петлевидной ручкой. Аналогичные формы известны в Пенджикенте, где они входят в состав столовой посуды X–XII веков [9].

Бокалы образуют отдельную группу сосудов на ножке. Их конструкция включает резервуар, сплошную или полую ножку и дисковидный либо кольцевой поддон. В материалах Бинката представлены формы, имеющие аналогии в Куве, Ахсикенте, Афрасиабе и Пенджикенте. Средневековые бокалы Кувы показывают наличие нескольких вариантов резервуара и основания [18].

Кувшины и кувшиновидные кружки определяются по сочетанию горловины, округлого тулова и вертикальной ручки. Наиболее выразительным диагностическим элементом является ручка с верхним выступом для большого пальца. Подобная конструкция известна в материалах Афрасиаба и других городских центров Мавераннахра [19]. Изолированная ручка без данных о венчике и тулове должна атрибутироваться осторожно.

Графины и бутылевидные сосуды относятся к закрытым формам с вытянутой горловиной. Графины нередко имеют отогнутый венчик и накладные стеклянные нити на горловине. Бутылки отличаются более узким устьем и шаровидным, приплюснуто-шаровидным или грушевидным туловом. Основные формы закрытых сосудов Средней Азии представлены в фундаментальном исследовании среднеазиатского стеклоделия [1].

Флаконы являются сосудами малого объёма с узкой горловиной и компактным туловом. Выделяются грушевидные и шаровидные формы. Они могли использоваться для хранения лекарственных, косметических и ароматических веществ. Функциональная атрибуция определяется не только размером, но и совокупностью морфологических признаков и контекстом обнаружения [12].

Специализированная посуда включает аламбики, чернильницы, тувак и сумак. Аламбики связаны с перегонкой и дистилляцией веществ; диагностическим элементом является длинная сужающаяся трубка. Чернильницы представляют собой небольшие сосуды с узким горлом. Стеклянные сумакы известны в Ташкентском оазисе, в том числе в материалах Канки X — начала XI века [13].

Большинство изделий изготовлено свободным выдуванием. Для них характерны тонкие стенки и след понтии на донце. Меньшую группу составляют сосуды, выдутые в форму, с рельефными геометрическими или растительными мотивами. Ручки, ножки, поддоны и нити изготавливались отдельно и присоединялись к горячему тулову. Технологические и декоративные аналогии прослеживаются в материалах Согда [7].

Цветовая гамма включает бесцветное, зелёное, голубое и синее стекло. Цвет не является самостоятельным критерием морфологического типа: одинаковые формы могли

изготавливаться из стекла различных оттенков. Он используется как дополнительный признак варианта.

Таблица 2.

Морфологическая типология стеклянных сосудов Шаша IX — начала XIII века

Группа	Морфологический тип	Диагностические признаки	Предполагаемое назначение
I. Открытые сосуды	I-A. Полусферические чаши	Широкое устье, округлённые стенки, прямой или закруглённый венчик	Подача и употребление пищи
	I-B. Приплюснuto-шаровидные чаши	Невысокое тулово, выраженное плечико, отогнутый венчик	Столовая посуда
	I-C. Пиалы	Небольшие размеры, полусферическое тулово, утолщённый край	Индивидуальный сосуд
II. Цилиндрические сосуды	II-A. Стаканы	Вертикальные стенки, прямой венчик, плоское или вогнутое дно	Употребление напитков
	II-B. Кружки	Цилиндрическое тулово, петлевидная ручка	Употребление и разливание напитков
III. Сосуды на ножке	III-A. Бокалы	Конический или округлый резервуар, ножка, круглый поддон	Столовая посуда
IV. Сосуды с ручкой	IV-A. Кувшины	Узкая горловина, округлое тулово, вертикальная ручка	Хранение и разливание жидкости
	IV-B. Кувшиновидные кружки	Широкое устье, ручка с выступом для большого пальца	Разливание напитков
V. Закрытые сосуды	V-A. Графины	Высокая горловина, отогнутый венчик, накладные нити	Хранение и подача жидкости
	V-B. Бутылевидные сосуды	Узкая горловина, шаровидное или грушевидное тулово	Хранение жидкости
VI. Малые ёмкости	VI-A. Флаконы	Узкое устье, малое грушевидное или шаровидное тулово	Лекарства, косметика, ароматы
VII. Специализированные сосуды	VII-A. Аламбики	Резервуар или длинная сужающаяся трубка	Дистилляция
	VII-B. Чернильницы	Маленький резервуар, узкое горло	Хранение чернил
	VII-C. Туваки и сумак	Вытянутая ёмкость или полая трубка специальной конструкции	Бытовое применение

Примечание. Таблица составлена автором по материалам [1; 3–5; 7–10; 12–19].

Обсуждение результатов. Выделенные формы развивались в рамках общей ремесленной традиции раннеисламского Востока. Чаши, стаканы, бокалы, кувшины, графины, бутылки и флаконы имеют многочисленные соответствия среди материалов Нишапура IX–XI веков [20]. Это свидетельствует о широком распространении устойчивого набора функционально-морфологических форм в городских центрах исламского мира.

Совпадение общего силуэта не означает полного тождества изделий. Внутри одинаковых функциональных категорий различались пропорции тулова, обработка венчика, высота горловины, конструкция поддона, форма ручки и характер декора. Каталоги исламского стекла Корнингского музея показывают, что классификация фрагментов должна

основываться на совокупности профильного рисунка, технологии и морфологических аналогий [21].

К общим признакам среднеазиатской и раннеисламской стеклянной посуды относятся свободное выдувание, тонкостенность, использование накладных стеклянных нитей, наличие следов понтии, распространение открытых столовых форм и закрытых сосудов с узкими горловинами. Сходные технологические и декоративные решения представлены в коллекциях исламского стекла [22; 23].

Локальная специфика Шаша могла проявляться в количественном соотношении форм и отдельных сочетаниях признаков: ручках с выступом для большого пальца, вариантах бокалов на короткой ножке, графинах с многорядными накладными нитями, специализированных трубках и химической посуде. Однако признание признака локальным требует его устойчивой повторяемости в нескольких памятниках региона.

Функциональное определение сосудов остаётся вероятностным. Одинаковые по форме ёмкости могли использоваться для различных веществ, а назначение могло меняться в процессе эксплуатации. Материалы Фустата демонстрируют, что один археологический комплекс включал разнообразные открытые и закрытые формы, определение которых основывалось на конструкции, размерах и контексте [24]. Аналогичный контекстуальный подход применён при изучении раннеисламского стекла Хирбат-эль-Тахирии [25].

Морфологическая близость сосудов разных городов может объясняться распространением общих ремесленных навыков, перемещением мастеров, торговлей готовой продукцией или сходными функциональными требованиями. На основании одной типологии невозможно определить, было ли конкретное изделие изготовлено непосредственно в Шаше или привезено из другого центра.

Современные исследования раннеисламского стекла показывают формирование региональных производственных групп, использовавших различные источники песка и растительной золы [26]. Анализ стекла Сирафа выявил несколько химических групп и сочетание местной обработки с поступлением сырья или изделий иного происхождения [27]. Следовательно, доказательство локального производства требует соединения морфологии с данными о печах, тиглях, стекольном бое, полуфабрикатах и химическом составе.

Показательны результаты анализа стекла Бухары IX — начала XI века, где выявлены местные или региональные группы и импортное высококачественное бесцветное стекло [28]. В одном среднеазиатском городе могли одновременно использоваться изделия местного производства и привозная продукция. Подобная ситуация могла существовать и в Бинкате, включённом в систему транзитной торговли.

Изотопные и химические исследования исламского стекла подтверждают существование нескольких производственных зон и перемещение стекольного сырья и готовой продукции между ними [29]. Самарские материалы также демонстрируют сочетание регионального производства и импорта в IX веке [30]. Поэтому типологическая общность и химическая общность должны рассматриваться как разные уровни анализа.

Основная часть подробно опубликованных материалов Бинката относится к IX–XI векам, тогда как XII — начало XIII века представлены менее полно. Поздние формы требуют проверки по материалам Баноката–Шахрухии и других предмонгольских комплексов. Неравномерность публикации ограничивает возможность статистически надёжного анализа хронологической динамики.

Предлагаемая типология имеет предварительный характер. Коллекции различаются по полноте публикации, значительная часть сосудов фрагментирована, а музейные предметы не всегда имеют точный археологический контекст. Морфологический анализ также не решает вопрос происхождения стекольной массы; для этого необходимы археометрические исследования, сопоставимые с крупными аналитическими сводами раннего стекла [31].

Несмотря на ограничения, иерархическая модель «функциональная категория — морфологическая группа — форма — тип — вариант» унифицирует описание находок. Она

создаёт основу для количественного анализа, картографирования распространения форм, сравнения городских комплексов и составления музейной документации.

Заключение. Проведённый анализ опубликованных археологических материалов позволил систематизировать стеклянные сосуды Шаша IX — начала XIII века по совокупности морфологических признаков. Основными критериями классификации выступили степень открытости формы, строение венчика и горловины, конфигурация тулова, устройство основания, наличие ручек, ножек, носиков и специализированных элементов. Технология изготовления, цвет и декор рассматривались как дополнительные признаки варианта.

Выделены семь основных групп: открытые столовые сосуды; цилиндрические сосуды для питья; бокалы на ножках; кувшины и кружки; графины и бутылевидные сосуды; малые флаконы; специализированная бытовая и химическая посуда. Наиболее диагностичными являются венчики, горловины, ручки, ножки, поддоны, донья и специализированные трубки. Фрагменты стенок без профиля имеют ограниченное типологическое значение.

Сравнительный анализ показал, что большинство форм имеет аналогии в материалах Афрасиаба, Пенджикента, Бухары, Ахсикента, Кувы и других центров Мавераннахра. Это свидетельствует о существовании общих ремесленных традиций. Региональные особенности Шаша проявлялись главным образом в сочетании конструктивных признаков, пропорциях сосудов, форме ручек и поддонов, а также в декоративном оформлении.

Морфологическое сходство не является достаточным основанием для определения места изготовления. Термин «стекло Шаша» обозначает прежде всего территорию обнаружения. Для выделения местной продукции необходимы производственные комплексы и химико-технологические анализы.

Хронологическое распределение материалов неравномерно: наиболее полно представлены комплексы Бинката IX–XI веков. Сосуды XII — начала XIII века требуют дальнейшей проверки по материалам Баноката–Шахрухии и других поздних памятников.

Разработанная типология может применяться при обработке новых археологических коллекций, составлении каталогов, музейных паспортов и электронных баз данных. Перспективным направлением является соединение морфологического анализа с графической реконструкцией, статистическим сопоставлением, картографированием и археометрическими исследованиями.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдуразаков А. А., Безбородов М. А., Заднепровский Ю. А. Стеклоделие Средней Азии в древности и средневековье. Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1963. 242 с.
2. Буряков Ю. Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса: историко-археологический очерк Чача и Илака. Ташкент: Фан, 1975. 201 с.
3. Мирзаахмедов Д. К., Ильясова С. Р., Адылов Ш. Т. Средневековое стекло и керамика Бинката–Ташкента IX–XI вв. Раздел 1. Стеклянные изделия // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 30. Самарканд, 1999. С. 237–245.
4. Аминджанова М. Средневековые стеклянные сосуды из музеев Ташкента и Самарканда // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 3. Ташкент, 1962. С. 87–100.
5. Мирзаахмедов Д. К. Ремесло стеклоделов крупнейших городских центров средневекового Узбекистана IX–XV вв. // Археология Узбекистана. 2011. № 2 (3). С. 53–93.
6. Щапова Ю. Л. Древнее стекло: морфология, технология, химический состав. Москва: Издательство Московского университета, 1989. 120 с.
7. Шишкина Г. В. Ремесленная продукция средневекового Согда: стекло, керамика, вторая половина VIII — начало XIII в. Ташкент: Фан, 1986. 178 с.
8. Распопова В. И. Стеклянные сосуды из Пенджикента: находки 1950–1999 гг. Санкт-Петербург: Синтез Бук, 2010. 162 с.
9. Аминов Ф. Ш. Стеклянные изделия домонгольского Пенджикента и его окружи // Записки Института истории материальной культуры РАН. 2020. Вып. 23. С. 103–118. DOI: 10.31600/2310-6557-2020-23-103-118.
10. Normurodov D. R. Glass Production of the Tashkent Oasis (Shash-Ilak) in the 9th–12th Centuries // Tarixiy tadqiqotlar. 2025. Vol. 3. No. 4. P. 132–146.
11. Исламов У., Кривошапкин А. И., Хужаназаров М., Баратов С. Р., Филанович М. И., Ильясова С. Р., Буряков Ю. Ф. и др. Археология Ташкентского оазиса. Ташкент–Самарканд, 2008. 148 с.
12. Аминджанова М. О некоторых стеклянных сосудах Мавераннахра // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 2. Ташкент, 1961. С. 241–254.

13. Брусенко Л. Г., Галнева З. С. Материалы раскопок квартала X — начала XI вв. на городище Канка // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 17. Ташкент, 1982.
14. Буряков Ю. Ф. Археологические материалы городища Кавардан // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 13. Ташкент, 1977. С. 85–86.
15. Папахристу О. А., Ахраров И. Стекло из раскопа в арке домонгольского городища Ахсикент // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 16. Ташкент, 1981. С. 88–95.
16. Абдуллаев К. Стекланные изделия X–XII вв. из Бухары // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 16. Ташкент, 1981. С. 52–57.
17. Щапова Ю. Л., Лихтер Ю. А., Столярова Е. К. Морфология древностей. Киев: Общество «Знание» Украинской ССР, 1990. 91 с.
18. Ахраров И. Средневековые стекланные бокалы из Кувы // Известия Академии наук Узбекской ССР. Серия общественных наук. 1960. № 4. С. 22–28.
19. Шарахимов Ш. Новые стекланные сосуды с Афрасиаба // Афрасиаб. Вып. 2. Ташкент: Фан, 1973. С. 224–228.
20. Kröger J. Nishapur: Glass of the Early Islamic Period. New York: The Metropolitan Museum of Art, 1995. 228 p.
21. Whitehouse D. Islamic Glass in The Corning Museum of Glass. Vol. 1. Corning: The Corning Museum of Glass, 2010. 432 p.
22. Carboni S. Glass from Islamic Lands: The al-Sabah Collection. London: Thames & Hudson, 2001. 416 p.
23. Carboni S., Whitehouse D. Glass of the Sultans. New York: The Metropolitan Museum of Art; Corning Museum of Glass, 2001.
24. Scanlon G. T., Pinder-Wilson R. Fustat Glass of the Early Islamic Period: Finds Excavated by the American Research Center in Egypt, 1964–1980. London: Altajir World of Islam Trust, 2001.
25. Jackson-Tal R. E. The Early Islamic Glass Finds from Khirbat el-Thahiriya // 'Atiqot. 2012. Vol. 71. P. 57–72.
26. Schibille N. Islamic Glass in the Making: Chronological and Geographical Dimensions. Leuven: Leuven University Press, 2022. 270 p.
27. Swan C. M., Rehren T., Lankton J., Gratuze B., Brill R. H. Compositional Observations for Islamic Glass from Sīrāf, Iran, in the Corning Museum of Glass Collection // Journal of Archaeological Science: Reports. 2017. Vol. 16. P. 102–116. DOI: 10.1016/j.jasrep.2017.08.020.
28. Schibille N., Klesner C., Neuville D. R., Stark S., Torgoev A. I., Mirzaakhmedov S. J. Geochemical Variations in Early Islamic Glass Finds from Bukhara, Uzbekistan // Geochemistry. 2024. Vol. 84. No. 1. Article 126078. DOI: 10.1016/j.chemer.2024.126078.
29. Henderson J., Ma H., Evans J. Glass Production for the Silk Road? Provenance and Trade of Islamic Glasses Using Isotopic and Chemical Analyses in a Geological Context // Journal of Archaeological Science. 2020. Vol. 119. Article 105164. DOI: 10.1016/j.jas.2020.105164.
30. Schibille N., Meek A., Wypyski M. T., Kröger J., Rosser-Owen M., Wade Haddon R. The Glass Walls of Samarra: Ninth-Century Abbasid Glass Production and Imports // PLOS ONE. 2018. Vol. 13. No. 8. Article e0201749. DOI: 10.1371/journal.pone.0201749.
31. Brill R. H. Chemical Analyses of Early Glasses. Vols. 1–2. Corning: The Corning Museum of Glass, 1999.

УЎК 94(575.1):297.14

«ЯТИМАТ АД-ДАХР» АСАРИНИНГ ХОРАЗМ ФИҚҲ МАКТАБИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ

**З.Нажмиддинов, доц., т.ф.н., Диний-маърифий соҳада малака ошириш ва қайта
тайёрлаш институтининг Наманган минтақавий филиали, Наманган**

Аннотация. Хоразмшоҳлар империясининг сўнгги йилларида ҳанафий фиқҳи бўйича бир нечта асарлар ёзилган. “Ятимат ад-дахр фи фатово аҳл ал-аср” улардан бири ҳисобланади. Мақола муаллифи ушбу асарнинг Қоҳирада сақланувчи нодир қўлёзмаси асосида Таржумонийлар оиласи ва улар қолдирган ёзма мерос ҳақида умумий маълумотларни келтирган.

Калит сўзлар: ҳанафий фиқҳи, Хоразмшоҳлар давлати, фатво, қўлёзма асар, араб тили, маҳаллий хоразмий тили

Аннотация. В последние годы правления Хорезм-шахов было написано несколько работ по ханафитскому праву. «Ятимат аль-дахр фи фатава ахль аль-аср» — одна из них. Автор статьи, опираясь на редкую рукопись этой работы, хранящуюся в Каире, приводит общую информацию о семье Тарджумани и оставленном ими письменном наследии.

Ключевые слова: ханафитское право, государство Хорезм-шахов, фетва, рукопись, арабский язык, местный хорезмский язык

Abstract. Several works on Hanafi jurisprudence were written in the last years of the Khorezm Shahs' empire. "Yatimat al-dahr fi fatawa ahl al-asr" is one of them. The author of the article, based on a rare manuscript of this work kept in Cairo, provides general information about the Tarjumani family and the written heritage they left behind.

Key words: Hanafi jurisprudence, Khorezm Shahs' state, fatwa, manuscript work, Arabic language, local Khorezmian language.

Кириш. Ўрта Осиёда ханафий мазҳаби тарихини ёритишда бугунги Хоразм ҳудудида ёзилган фикҳий асарларни ўрганиш алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу ҳудудга хос асарлар бир неча ўзига хосликларга эга. Ижтимоий ҳаётга доир диний-ҳуқуқий масалаларнинг кўплаб учраши ҳамда маҳаллий хоразмий тилига доир жумлалар иштирокида қазуслар учрашини шундай хусусиятлар қаторида зикр қилиш мумкин. Мазкур асарлар ичида “Ятимат ад-даҳр фи фатово аҳл ал-аср” (Замонасига доир фатволар бўйича ўз давридаги ягона асар) алоҳида ажралиб туради.

Тадқиқот услуби. “Ятимат ад-даҳр” муаллифининг исми Мажд ад-дин ат-Таржумоний бўлиб, у Хоразмдаги ханафий мазҳабига мансуб машҳур олимлар сулоласидан чиққан. [2:4:163] Таржумоний нисбаси ҳақида турлича тахминлар илгари сурилади. Кенгрок тарқалган ҳулосага кўра, ушбу оила вакиллари маҳаллий хоразмий тилидан араб тилига таржима қилиш билан шуғулланганлар.

Ўрта аср манбаларида “Ятимат ад-даҳр” муаллифининг тўлиқ исми шайх, буюк имом (ал-имом ал-ажалл), устоз, жамловчи, мукаммалликга элтувчи ва обрўли имом Абду Солиҳ Абду Раҳим ибн Умар ибн Муҳаммад ат-Таржумоний шаклида келган. [2:4:432] Муқаддимада берилган маълумотга кўра, Абду Раҳим Таржумоний XIII аср бошига қадар ёзилган ханафий ҳуқуқи асарларини имкон қадар ўрганиб чиқишга ҳаракат қилган. Бунга қўшимча равишда, ўзидан сўралган саволларни ва уларга фатво шаклида берган жавобларини бир ерга тўплаган ва шу асосда мустақил асар матни юзага келган. “Ятимат ад-даҳр”да, ўтмиш ҳуқуқшуносларининг фатволаридан келтирилган иқтибослар салмоғи муаллифнинг шахсий диний-ҳуқуқий ечимларидан кўра кўпроқ ўринни эгаллайди. Бу хусусиятларга қарамасдан, Таржумоний ўз асарини анъанавий ханафий фикҳ китобларида бўлгани каби “поклик” бўлими билан бошлаганини таъкидлаш лозим.

Натижалар. Мажд ад-дин ат-Таржумонийнинг отаси Умар ибн Муҳаммад ханафий фикҳ китобларида, хусусан фатво адабиётида исми зикр қилинадиган ханафий ҳуқуқшуносларидан бири эди. Асар муаллифи ўз отаси ҳақида “Ятима”нинг сўнггидаги “Тарих бўлими”да шундай маълумот беради:

“Отам ва устозим Абду Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ат-Таржумоний 530 йил 6 зу-л-ҳижжа куни / 1136 йил 5 сентябрь куни, аср намози пайтида вафот этди. Отам [ўз даврининг машҳур ханафий фақиҳи] Баққолий билан кўришган ва унинг қўлида илм ўрганган эди. Шунингдек, Хоразмда узоқ йиллар Вабарийнинг қўлида ҳам шогирд бўлиб ўқиган эди. Хуросонда эса Маҳмуд ас-Саффор ал-Марвазийда ўқиди.

[Отам] илмда шу даражага етган эдики, унинг исми зарби масал бўлди. Агар “Ушбу устун олтиндан ясалган” деб айтса, бунга исботлай олар эди.”

Айни пайтда, “Ятима”да келтирилган маълумотлар орқали биз Абду Раҳим ат-Таржумонийнинг бобоси бўлмиш Муҳаммад ат-Таржумоний ҳам фикҳга доир мустақил “ан-Нафақот” номли асар ёзгани ҳақида билишимиз мумкин. Ушбу маълумот Таржумонийлар оиласининг Хоразмда мўғуллар босқинидан олдин, Хоразмшоҳлар давлатининг сўнгги йилларида ханафий фикҳи бўйича сермахсул ижод қилганини исбот қилади.

Усмонли биограф олими Кафавий бошқа бир хоразмлик фақиҳ Бурҳон ад-дин ат-Таржумоний (ваф. 645/1247 й.) ҳақида маълумот берадики, бу шахс “Ятима” муаллифининг авлодларидан бири бўлган. Кафавий зикр қилган фақиҳнинг тўлиқ исми Бурҳон ад-дин Муҳаммад ибн Маҳмуд ат-Таржумоний ал-Хоразмий ал-Маккий бўлиб, “Садрлар садри” (садр

– ўрта асрлар Ўрта Осиё мусулмон жамиятида шаҳар ҳокими лавозимига тўғри келади) лақаби билан ҳам танилган. Бурҳон ад-диннинг отаси Маҳмуд эса Шараф ад-дин номи билан машҳур фақиҳ бўлган. Бурҳон ад-дин Муҳаммаднинг ўғли Аҳмад ҳам садр ва қози лавозимларида ишлагани маълум.

Кафавий томонидан “Катоиб”да зикр қилинган бошқа маълумотга кўра, Маҳмуд ат-Таржумоний билан бир асрда хоразмлик фақиҳлар Ало Маҳмуд ат-Тожирий ва имом [Заҳир ад-дин] ат-Тимуртоший яшаганлар. Таржумонийнинг шогирдларидан бири Разий ад-дин Абу-л-Музаффар Муҳаммад ибн Иброҳим ал-Бурҳоний ал-Хоразмий эди. [4:2: 154-155] Мазкур Бурҳонийга мансуб китоблар хазинаси ичидан унинг вафотидан сўнг ал-Маиний аш-Шаҳракандий исмли фақиҳга берилган ижоза топилган.

Маълумотлар таҳлили. “Ятимат ад-даҳр”да исми учраган ва Таржумонийга замондош хоразмлик фақиҳлар ҳаётини таҳлил қилиш орқали асардан Ўзбекистон тарихи учун манба сифатида фойдаланиш мумкин. Ҳамир ал-Вабарий исми кўп учрайдиган фақиҳлардан биридир: “Ҳамир ал-Вабарийдан ёз пайтида ҳаво иссиқ бўлгани сабабли мадрасамизда намоз ўқишнинг вақти ҳақида сўрадим”. [3: 39a]

Асарда зоҳид Абд ал-Жаббор исми ҳам учрайди. У ҳақида қўшимча маълумот берилмаган бўлса-да, бу ерда муътазилий йўналишидаги асосий шахслардан қози Абд ал-Жаббор ҳақида сўз бормоқда. Бу маълумот таҳлили Хоразмда муътазилийлик тарихи учун аҳамиятлидир.

“Ятимат ад-даҳр”да келтирилган маълумотлар XII-XIII асрларда Мовароуннаҳр ва Хоразм фақиҳлари яқин илмий алоқада бўлганларини кўрсатади. Масалан, шайх ал-Адибийдан ривоят қилинишича, Хуросон машойихлари фикҳий масалага жавоб истаб бухоролик Ҳалвонийга мактуб ёзганлар. Бошқа ўринда эса Хоразм ва Бухоро фақиҳлари иштирокида қуйидаги ривоят занжири учрайди: ат-Тароифий – ал-Хўжандий – ака-ука Садр ва Али ал-Баздавий. [3:766]

Қуйидаги фатво эса мўғул-татар босқини арафасида Хоразмда қўлёзма асарлар моддий жиҳатдан қийматли бўлганини кўрсатади:

«Юсуф ибн Муҳаммадга қуйидаги савол бердилар:

Марвдаги толиби илмлардан бири фикҳдан дарс олар ва илм таҳсили учун кутубхонадан бир китобни уйига сўраб олган эди. Сўнгра ўша машъум воқеа содир бўлиб, юртимиз одам ўлдириш, асирга олиш ва қарокчилик ичида қолди. Фақиҳ йигит китобни қайтариб бериш учун кутубхонага борди, лекин кутубхоначини топа олмади. Қараса, номаълум шахслар кутубхона эшигини ҳам синдириб, ундаги китоблардан баъзисини ўғирлаб олиб кетибдилар. Буни кўрган толиби илм кутубхонадаги китобларни уйига олиб кетди ва тинчлик пайти бўлганида уларни қайтариб беришни ният қилди.

Савол: Юртимизга тинчлик қайтгунига қадар бу китоблардан фойдаланиш жоизми? Жавоб: Бўлади. Лекин юртга тинчлик келгач, китобларни кечиктирмасдан қайтариши керак.

[Таржумоний деди:] Шунга асосан, Юсуф ибн Муҳаммаддан сўрадимки, Султон [Хоразмшоҳ] замонасида содир бўлган воқеалар қайтарилмаслиги мақсадида деҳқончилик уруғлари ва уй-жой жиҳозларини масжидга киритиб қўйиш жоизми? У киши жавоб бердики, жоиз бўлади.»

“Ятимат ад-даҳр”даги фатволар нафақат хоразмшоҳлар тарихи, балки Сомонийлар даври учун ҳам қимматли маълумотлар бера олади:

«Абу-л-Қосим ал-ҳаким [ас-Самарқандий, бир куни] Абу Мансур ал-музаккирга шундай деди: Менга айтишларича, сен Қуръонни тафсир қилаётган экансан.

Сен тафсир илмини кимдан эшитиб таълим олдинг? Мен қирқ тўртта тафсир китобини ўқиб чиқдим, лекин шунда ҳам бирор оят ҳақида мендан сўрасалар ҳолатим ўзгариб кетади ва қандай тафсир қилишни билмай қоламан. Сен қандай қилиб тафсир қиялсан? Сен [бунинг ўрнига аввало] ривоятлар ва ўтмишда яшаган салаф [олимлари]нинг ҳикояларини [ўрганишинг] лозим.» [3: 86a]

“Ятимат ад-даҳр”даги маълумотлар Хоразм аҳолиси ўртасида аҳл ал-байтга мансуб кишиларга эҳтиром кучли бўлганини кўрсатади:

«Иброҳим ибн Юсуфдан қуйидаги саволни сўрадилар:

Бир инсонга “Расулуллоҳ пок нарсаларни, ўз аёлларини ва фалон, фалон нарсаларни яхши кўрардилар”, деб айтилса, у “Мен уларни ёмон кўраман”, деса, бу инсон ҳақида нима дейиш мумкин?

[Иброҳим ибн Юсуф] айтди: у ислом динидан чиққан чиққан бўлади.

Яна савол берилди: “Пайғамбар алайҳи-с-салом учун Хусайн ибн Али (р.а.) улардан кўра суюклироқ эмасмиди?

[Иброҳим ибн Юсуф] жавоб берди: шундай.

Унга айтдилар: ундай бўлса, у [Хусайн]ни ўлдирган қотил диндан чиққан, деб ҳукм қилинадими?

[Иброҳим ибн Юсуф] жим қолди ва ҳеч қандай жавоб бермади.”

“Ятимат ад-даҳр”да келтирилган маълумотларини Андарасбоний қаламига мансуб биографик асар мазмуни билан қиёслаш натижасида XII аср охири ва XIII аср биринчи ярмида Хоразмдаги маданий, илмий ва маърифий ҳолат тўғрисида янги, илмий жиҳатдан ишончли маълумотларга эга бўлиш мумкин. Бу даврда бугунги Хоразм ҳудуди Яқин Шарқ ҳудудидан ҳам бир қисмни ўз ичига олган улкан империянинг илмий ва маданий марказига айланган эди. Иккинчидан, ҳанафий фикр ва илоҳиётида машҳур бўлган хоразмлик олимлар айнан шу даврда сермахсул ижод қилдилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Togan Z.V. Hwarezmische Sätze in einem arabischen Fiqh-Werke // Islamica, III. – Лейпциг (Lipsiae), 1927. – 190-213-66.;
2. Абд ал-Қодир ибн Муҳаммад ал-Кураший. Ал-Жавохир ал-музийя фи табақот ал-ҳанафийя: 5 жилдда / Абд ал-Фаттоҳ Муҳаммад ал-Хулв таҳрири остида. — 2-нашр. — Жиза (Миср): ал-Ҳажр ли-т-тибоъа ва-н-нашр, 1398-1408/1978-1988.
3. Ятимат ад-даҳр фи фатово аҳл ал-аср. Азҳар университети қўлғизмалар фонди, № 26958, 260 варак.
4. Маҳмуд ибн Сулаймон ал-Қафавий. Катоиб аълом ал-ахёр мин фуқаҳо мазҳаб ан-Нуъмон ал-мухтор: 4 жилдда. – Истанбул: Мактабат ал-иршод, 2017.
5. Ал-Андарасбани. Словарь биографий ученых мужей (Му'дjam аш-шуйух): Биография Абу Ханифы. (Памятники письменности Востока). – Москва, 2025 – 257 б.

UO'K 37.02:635.1/.8

SABZAVOTCHILIK FANIDAN POMIDOR O'SIMLIGI MAVZUSINI O'RGANISHDA INNOVATSION KLASSTER METODIDAN FOYDALANISH

I.I.Bafojev, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Orcid: 0009 0000 8673 7596

Sh.Sh.Nafetdinov, uslubshunos, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada pomidor o'simligini o'rganishda innovatsion klaster metodikasining pedagogik samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda ushbu metodikaning talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma, agrotehnologik fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati asoslangan.


Kalit so'zlar: pomidor, nav, duragay, ekish sxemasi, innovatsion klaster, pedagogik samaradorlik, agrar ta'lim, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматривается педагогическая эффективность инновационной кластерной методики при освоении технологии выращивания сортов и гибридов томата по различным схемам посадки. Обосновано значение данной методики в формировании у студентов теоретических знаний, практических навыков, агротехнологического мышления и профессиональных компетенций.

Ключевые слова: томат, сорт, гибрид, схема посадки, инновационный кластер, педагогическая эффективность, аграрное образование, профессиональная компетенция.

Abstract. The article examines the pedagogical effectiveness of the innovative cluster methodology in mastering the technology of cultivating tomato varieties and hybrids under different planting schemes. The study substantiates the role of this methodology in developing students' theoretical knowledge, practical skills, agrotechnological thinking, and professional competencies.

Key words: tomato, variety, hybrid, planting scheme, innovative cluster, pedagogical effectiveness, agricultural education, professional competence.



Kirish. O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko'p ekiladi. Pomidor mevalarining keng miqyosda ishlatilishi ularning yuqori oziqaviy qiymati bilan belgilanadi. Mevalari yangiligicha hamda qayta ishlangan holda iste'mol qilinadi. Ularidan turli sharbatlar, tomat qaylasi, pyure, souslar,

marinadlar va ko'plab mahsulotlar tayyorlanadi. Pomidor mevalari yuqori parhezboqlik va shifobaxshlik xususiyatlariga ham ega. Pomidor mevalarini kundalik ratsionda iste'mol qilish inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda pomidor ekini jami sabzavotlar yetishtiriladigan maydonlarning 40% dan ortig'ini egallaydi. Mamlakatimiz yangi uzilgan pomidor mevalarini va katta hajmdagi qayta ishlangan pomidor mahsulotlarini chet elga eksport qiladi.

Pomidor xususiyatlari. Pomidor ituzumdoshlari *Solanum lycopersicum* oilasiga mansub o'simlik bo'lib, dunyoda sevib iste'mol qilinadigan sabzavot hisoblanadi. O'simlikning vatani Janubiy Amerikaning Peru va Ekvador qismi hisoblanadi. Hozirgi kungacha Meksikada yovvoyi turlarini uchratish mumkin. Meksikada birinchi bor bu o'simlik madaniylashtirilgan. Aztaklar bu o'simlikni "tumantla" deb atashgan. 1523 yil Ispanlar Meksikani bosib olganlaridan so'ng uning yovvoyi urug'i boshqa o'simliklarga qo'shilib, Evropa kelib qolgan. 1554 yilda ispan botanigi Piero Andrea Mattioli va boshqalarning yozishicha, bu o'simlikni zaharli, iste'mol uchun yaroqsiz deb atashgan. Haqiqatan ham ituzumdoshlari oilasiga kiradigan bu sabzavotda alkaloid toksinlari uchraydi, bu oz miqdorda bo'lib, inson hayoti uchun xavfsiz hisoblanadi. Pomidor Evropa va Gollandiyada shifobaxsh o'simliklar yetishtiriladigan botanika maydonlarida ham o'stiriladi. O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida ommabop va keng tarqalgan pomidor bo'lib, maydoni va yalpi hosili bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Sabzavot ekinlar umumiy maydonining 35-38% ini pomidor tashkil etadi. Pomidor yuqori oziqaviy qiymatga ega sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning pishgan mevasining nihoyatda lazizligi, parhezligi bilan ajralib, tarkibida turli vitaminlar, mineral tuzlar, organik kislotalar va uglevodlarni saqlaydi. Pomidor qizil mevasining biokimyoviy tarkibi quyidagicha: quruq modda 0,6-6,6%, oqsil 0,95-1,0%, shakar 4,0-5,0%, moylar 0,2-0,3%, sellyuloza 0,8-0,9%, kul 0,6%, organik (olma, limon) kislotalar 0,5%, vitamin C (askorbin kislota) 19-35 mg/kg, karotin (provitamin A) 0,2-2 mg/kg, tiamin (B1) 0,3-1,6 mg/kg, riboflavin (B2) 1,5-6 mg/kg. Lekin pomidor mevasining tarkibi o'zgaruvchan bo'lib, u ekin naviga, mevalarning pishish darajasiga, hosilni yig'ish muddatiga, o'stirish sharoiti va texnologiyasi kabi omillarga bog'liq. Pomidor yangiligicha, tuzlangan va marinovkalanagan holda iste'mol qilinadi. U konserva (qayta ishlash) sanoati uchun muhim xomashyo hisoblanadi. Pomidor mevalari terib olingach, yetilish xususiyati va uzoq saqlashga chidamli. Shuning uchun hosil yig'ib olingach, uni iste'mol qilish muddatini yana 1,0-1,5 oyga uzaytirish mumkin.

Ildizi. Pomidor ildizi 1 metr chuqurlikka bormoqda, diametri 2,5 m gacha bo'lishi mumkin. Quvvatli sharoitda ildizlar o'simlikning har qanday vegetativ qismlarida paydo bo'lishi mumkin, shuning uchun pomidorni nafaqat urug'lar bilan, balki novdalari bilan ham ekish mumkin. Pomidorni yangi novdasi suvda 2-3 kundan keyin yangi ildizlar hosil qiladi.

Guli. Ko'chatlar paydo bo'lganidan oltinchi haftasida o'simliklarda birinchi gul to'plamlari paydo bo'ladi. Guli shakli va kattaligi mevaning qanday ko'rinishini belgilaydi, masalan, mayda mevalar pomidorlar kichkina gulga ega. Katta mevalar pomidorlar katta gullar mavjudligi bilan ajralib turadi. Pomidor bir yillik, o'z-o'zidan changlanadigan o'simlik bo'lib, shu vaqtning o'zida boshqa o'simliklardan ham changlanib qolishi mumkin. Bu holat asosan jazirama issiq havo sharoitida, har xil navlar bir dalada ekilganda vujudga keladi. Shu sababdan, navlar o'rtasidagi oraliq masofa ochiq dalada kamida 100 m, himoyalangan erlarda esa kamida 50 m bo'lishi talab etiladi.

Poyasi. Naviga qarab, yotib yoki tik o'sishi mumkin. Poyasi tik o'sadigan navlar oziqlanish maydonining katta bo'lishini talab qilmaydi, ularni mexanizatsiya yordamida parvarishlash oson. Naviga qarab, poyasining balandligi ham o'zgarishi mumkin. Baland bo'yli pomidor navlari ko'pincha kechpishar bo'ladi va meva shoxlarining siyrak 2-3 ta bargdan keyin joylanishi bilan farq qiladi. Shu sababli baland bo'yli navlarning hosil berish davri cho'zilib ketadi. Past bo'yli navlar 1-2 ta bargdan keyin, to'planganing g'uj joylashganligi, tezpisharligi va ommaviy meva tugishi, bir vaqtning o'zida pishishi bilan xarakterlidir.

Ochiq maydon uchun pomidor navlari. DO'STLIK. Ertapishar nav, o'sish davri – 95-100 kun. Tupi determinant tipida, shtambli, yaxshi barglagan, bargi kartoshka bargiga o'xshash. Mevasi yumaloqsimon, qattiq, yuzasi silq, to'q qizil, vazni 80-90 g. Hosildorligi – 40-45 t/ga. Vaqtincha likplonka ostida va ochiq dalalarda ertaki hosil olish uchun mo'ljallangan.

SEVARA. Ertapishar nav, o'sish davri 95-98 kun. Tupi tik o'suvchan, barglari kuchli rivojlangan, bo'yi 45-50 sm bo'lib, barglari yirik, qora-mir yashil rangli. Mevasi yumaloqsimon,

pushti rangli, yuzasi silq, vazni 90-100 g, degustatsion (tatib ko'rish) bahosi 5,0 ball. Hosildorligi – 30-35 t/ga. Issiqlik, nematoda kasalligiga chidamli.

SHAFAQ. Ertapishar nav, o'sish davri 88-100 kun. Tupi determinant tipida, bo'yi 50-60 sm. Barglari oddiy, yashil, o'rtacha hajmda bo'lib, mevasi yumaloqsimon va yasli yumaloqsimon, yuzasi silq, qovurg'ali, vazni 80-100 g, och qizil rangli, bir vaqtning o'zida pishib yetiladi, degustatsion bahosi 5,0 ball. Hosildorligi 35-40 t/ga. Qayta ishlashga yaroqli.

SAXIY. Ertapishar nav, o'sish davri 100-105 kun. Tupi oddiy, determinant tipida, o'rtacha barglangan. Mevasi uzunchoq 10-12 sm, qattiq, qizil, vazni 75-80 g, mevasi 85-90% bir paytda pishib yetiladi va transportboplik xususiyatini uzoq vaqtga saqlab turadi. Hosildorligi 45-50 t/ga. Transportda tashishga yaroqli.

TOSHKENT TONGI. O'rta ertapishar nav, o'sish davri 110-115 kun. Tupi past bo'yli 50 sm, barglanishi o'rtacha. Mevasi yumaloqsimon, indeksi – 0,9-1,0, yuzasi silq, qizil, vazni – 115-125 g, eti shirin, suvli, degustatsion bahosi – 4,2 ball. Tarkibida quruq modda miqdori – 5,3%. Hosildorligi – 40-45 t/ga. Iste'mol va qayta ishlash uchun yaroqli.

O'quv elementi	Klaster metodikasi orqali o'zlashtirish shakli	Kutilgan pedagogik natija
Pomidor navlari	Mahalliy va xorijiy navlarni qiyosiy tahlil qilish	Navlarning biologik va xo'jalik belgilarini farqlash
Pomidor duragaylari	Duragaylarning hosildorlik, kasallikka chidamlilik va moslashuvchanligini baholash	Duragay tanlash mezonlarini tushunish
Ekish sxemalari	70×30 sm, 70×40 sm, 90×30 sm kabi sxemalarni solishtirish	Ekish masofasi va o'simlik zichligini hisoblash
Agrotexnologik parvarish	Sug'orish, oziqlantirish, shakl berish va himoya tadbirlarini klaster asosida bog'lash	Texnologik jarayonni yaxlit tizim sifatida anglash
Hosildorlik tahlili	Ekish sxemasi va hosil ko'rsatkichlarini jadval orqali baholash	Sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash
Iqtisodiy samaradorlik	Hosil, xarajat va daromadni qiyosiy tahlil qilish	Agrotexnologik qarorning iqtisodiy natijasini tushunish

Xulosa. Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar shuni ko'rsatadiki, pomidor nav va duragaylarini turli ekish sxemalarida yetishtirish texnologiyasini o'zlashtirish jarayonida innovatsion klaster metodikasidan foydalanish agrar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur metodika o'quv jarayonini faqat nazariy ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklab qo'ymasdan, talabalarda nav va duragaylarning biologik-xo'jalik xususiyatlarini tahlil qilish, ekish sxemalarining agrotexnologik mazmunini anglash, o'simlik zichligi va hosildorlik o'rtasidagi bog'liqlikni izohlash hamda amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari innovatsion klaster metodikasi an'anaviy o'qitish yondashuviga nisbatan mavzuni tizimli, amaliy va kompetensiyaviy asosda o'zlashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Xususan, "nav — duragay — ekish sxemasi — agrotexnologik parvarish — hosildorlik — iqtisodiy samaradorlik" zanjiri asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarni faol fikrlashga, tajriba natijalarini tahlil qilishga va ishlab chiqarish sharoitiga mos yechimlar ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bu esa agrar ta'limda nazariya, tajriba va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi.

Umuman olganda, pomidor nav va duragaylarini turli ekish sxemalarida yetishtirish texnologiyasini o'qitishda innovatsion klaster metodikasidan foydalanish agrar ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, talabalarining amaliy tayyorgarligini kuchaytirish hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur metodikani sabzavotchilik, issiqxona xo'jaligi, urug'chilik va boshqa agrotexnologik fanlarni o'qitishda ham keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mamnoie, E., Dolatkhabi, A. Plant Spacing and Cultivar Affects Yield Components, Qualitative Traits and Early Ripening of Tomato (*Lycopersicon esculentum*). *Notulae Scientia Biologicae*, 2013.
2. Da Silva Filho, A.X. et al. Yield and fruit quality of two industrial tomato hybrids in different plant populations. *Revista Aracê*, 2024, 6(4), pp. 13023–13031.
3. Xu, Z. et al. A Scoping Review on the Impact of Educational Technology in Agricultural Education. *Education Sciences*, 2023, 13(9), 910.
4. FAO. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2010.

5. Asiydinova, M. Mahalliy pomidor navlarining xorijiy navlarga nisbatan qiyosiy o'rganish. *CyberLeninka*, 2022. Elektron manba.
6. Muxamedov, G., Xodjamqulov, U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif. Chirchiq: Universitet, 2019.
7. Achilov, T. Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida o'zaro hamkorlikning didaktik imkoniyatlari. Chirchiq davlat pedagogika universiteti elektron kutubxonasi, 2022.
8. Komilova, X.T. Pedagogik ta'limda innovatsion klasterlar konsepsiyasi: tizimli yondashuv va barqaror rivojlanish omillari. *Science Time Journal*.

UO'K 37.016:81'271.12

TALABALARDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: LINGVISTIK MUAMMOLAR VA METODIK YECHIMLAR

Sh.Sh.Hamroyeva, o'qituvchi, Buxoro shahar Bilim va malakalarni baholash agentligi, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi o'zbek talabalarida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida uchraydigan asosiy lingvistik va metodik muammolar tahlil qilinadi. Akademik yozuv zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabaning ilmiy fikrlash, mustaqil izlanish, dalillarni tizimlashtirish va o'z fikrini mantiqiy hamda izchil ifodalash qobiliyatini namoyon etuvchi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, EFL, o'zbek talabalari, yozuv kompetensiyasi, lingvistik muammolar, pedagogik yondashuv, ona tili interferensiyasi, akademik diskurs, yozuv strategiyalari, ingliz tili.

Аннотация. В данной статье анализируются основные лингвистические и методические проблемы, возникающие в процессе развития компетенции академического письма у узбекских студентов, изучающих английский язык как иностранный. Академическое письмо в современной системе высшего образования рассматривается как одна из важнейших компетенций, отражающих способность студента к научному мышлению, самостоятельному исследованию, систематизации аргументов, а также логичному и последовательному выражению собственных мыслей.

Ключевые слова: академическое письмо, EFL, узбекские студенты, письменная компетенция, лингвистические проблемы, педагогический подход, интерференция родного языка, академический дискурс, стратегии письма, английский язык.

Abstract. This article analyzes the main linguistic and methodological challenges encountered in developing academic writing competence among Uzbek students learning English as a foreign language. In the context of modern higher education, academic writing is regarded as one of the essential competencies reflecting students' ability to engage in academic thinking, conduct independent research, organize arguments, and express their ideas logically and coherently.

Keywords: academic writing, EFL, Uzbek students, writing competence, linguistic challenges, pedagogical approach, first-language interference, academic discourse, writing strategies, English language.

Bugungi globalashuv va xalqaro akademik hamkorlik sharoitida ingliz tili oliy ta'lim, ilm-fan va professional kommunikatsiyaning muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, ingliz tilida ilmiy maqola, esse, kurs ishi, dissertatsiya, konferensiya tezisi va boshqa akademik matnlarni yaratish ko'nikmasi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim kompetensiyalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalar uchun akademik yozuvni samarali o'rgatish zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb masalalaridan biridir. Akademik yozuv oddiy yozma nutqdan o'zining strukturaviy, lingvistik va pragmatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Unda muallifdan faqat grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish emas, balki fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, dalillar keltirish, manbalardan to'g'ri foydalanish, fikrlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish talab etiladi. Demak, akademik yozuv kompetensiyasi grammatik bilim, leksik boylik, matn tuzilishi, mantiqiy fikrlash va akademik diskurs me'yorlarini birlashtiruvchi kompleks kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek EFL talabalarining ingliz tilida akademik yozuvni egallash jarayonida bir qator o'ziga xos muammolar kuzatiladi. Jumladan, ingliz tilidagi gap tuzilishining o'zbek tilidan farqlanishi, artikl va predloglardan foydalanish, fe'l zamonlari, so'z tartibi, birlik-ko'plik shakllari, moslashuv, akademik kollokatsiyalar va bog'lovchi vositalardan foydalanish kabi masalalar talabalar yozuvida turli xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek talabalarida akademik matnning makrostrukturasi bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, esse yoki maqolaning kirish qismida aniq thesis statement shakllantirish, asosiy paragraflarda bitta markaziy g'oyani rivojlantirish, dalillarni tegishli misollar bilan asoslash hamda xulosada asosiy fikrlarni umumlashtirish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo'lishi mumkin.

Shu sababli akademik yozuvni o'qitish faqat grammatik xatolarni tuzatishga qaratilgan yondashuv bilan cheklanmasligi kerak. Talabalarni akademik fikrlash, argumentatsiya, matnni rejalashtirish, tahrirlash va qayta yozish jarayonlariga jalb qilish muhimdir.

Akademik yozuv tushunchasi ilmiy va ta'limiy maqsadlarda yaratiladigan yozma matnlarning majmuini anglatadi. Akademik matnlar ilmiy maqola, esse, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, dissertatsiya, hisobot va boshqa janrlarda namoyon bo'ladi.

Hyland akademik yozuvni muayyan akademik hamjamiyatning kommunikativ ehtiyojlari, qadriyatlari va me'yorlari bilan bog'liq murakkab ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qiladi. Demak, akademik yozuvni o'rganish faqat til birliklarini o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi. Talaba akademik hamjamiyatda qanday fikr bildirish, dalil keltirish, manbaga murojaat qilish va ilmiy pozitsiyani ifodalashni ham o'rganishi lozim.

Akademik yozuv kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- grammatik kompetensiya – grammatik jihatdan to'g'ri gaplar yaratish;
- leksik kompetensiya – akademik so'z va birikmalardan o'rinli foydalanish;
- diskursiv kompetensiya – gap va paragraflarni mantiqiy bog'lash;
- pragmatik kompetensiya – muayyan akademik vaziyatga mos til birliklarini tanlash;
- strategik kompetensiya – yozuvni rejalashtirish, tekshirish va tahrirlash;
- janr kompetensiyasi – turli akademik janrlarning strukturaviy xususiyatlarini bilish.

Shunday qilib, akademik yozuv kompetensiyasi ko'p komponentli hodisa bo'lib, uning rivojlanishi uzoq muddatli va bosqichma-bosqich ta'lim jarayonini talab qiladi. O'zbek EFL talabalarining akademik yozuvida eng ko'p uchraydigan muammolardan biri grammatik xatolardir. Bunday xatolar fe'l zamonlari, artikllar, predloglar, yordamchi fe'llar, ega-kesim moslashuvi va gap strukturasi namoyon bo'lishi mumkin. O'zbek va ingliz tillarining grammatik tizimlari o'rtasidagi farqlar mazkur muammolarning muhim sabablaridan biridir. Masalan, o'zbek tilida artikl kategoriyasi mavjud emas, ingliz tilida esa a/an va the artikllaridan foydalanish muhim grammatik va semantik vazifani bajaradi. Shu sababli o'zbek talabalarining inglizcha yozuvida artiklning tushirib qoldirilishi yoki noto'g'ri qo'llanishi tez-tez kuzatiladi. Shuningdek, o'zbek tilida so'z tartibi odatda SOV modeliga yaqin bo'lsa, ingliz tilida asosiy model SVO hisoblanadi. Bu farq talabalar tomonidan inglizcha gap tuzishda sintaktik interferensiyaning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Akademik yozuvda umumiy kundalik lug'atdan tashqari, ilmiy va akademik so'zlar hamda terminlardan samarali foydalanish talab qilinadi. Talaba bir xil so'zni takror-takror ishlatish o'rniga sinonimik birliklardan, akademik kollokatsiyalardan va fan sohasiga xos terminlardan foydalanishi kerak.

Masalan, *important, good, bad, big, show* kabi umumiy so'zlarning haddan tashqari takrorlanishi akademik matnning uslubiy sifatini pasaytirishi mumkin. Buning o'rniga *significant, beneficial, negative, substantial, demonstrate* kabi akademik birliklardan kontekstga mos ravishda foydalanish talab etiladi. Biroq faqat akademik so'zlarni yodlash yetarli emas. Talaba ularning kollokatsion va pragmatik xususiyatlarini ham bilishi zarur. Masalan, *conduct research, provide evidence, draw a conclusion, address an issue, significant impact* kabi birikmalarni yaxlit birlik sifatida o'rgatish akademik yozuv sifatini oshirishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq til bilan ishlash jarayonida tillararo ta'sir tabiiy hodisa hisoblanadi. O'zbek EFL talabalarining inglizcha yozuvida ham o'zbek tilining fonologik, grammatik, leksik va sintaktik xususiyatlari ma'lum darajada

namoyon bo'lishi mumkin. L1 interferensiyasi ayniqsa so'z tartibi, artikllar, predloglar, fe'l shakllari va iboralarni bevosita tarjima qilishda seziladi. Talaba o'zbek tilidagi fikrlash modelini ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirganda, grammatik jihatdan noto'g'ri yoki ingliz akademik diskursi uchun tabiiy bo'lmagan konstruksiyalar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda o'qituvchi faqat xatoni ko'rsatib qo'yishi emas, balki uning sababini ham tushuntirishi muhim. Kontrastiv tahlil o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rsatish uchun samarali vosita bo'la oladi.

Masalan, talabaga: **Uzbek:** Men bu masalani muhim deb hisoblayman. **English:** *"I consider this issue important"* kabi konstruksiyalarni taqqoslab ko'rsatish ingliz tilidagi sintaktik modelni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, so'zma-so'z tarjimadan voz kechish va ingliz tilida fikrni qayta konstruksiyalash ko'nikmasini rivojlantirish akademik yozuv sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. O'zbek EFL talabalarining yozma ishlarida lingvistik xatolardan tashqari, matnning umumiy tashkil etilishi bilan bog'liq muammolar ham uchraydi. Akademik esse yoki maqola odatda **kirish, asosiy qism va xulosa** kabi yirik qismlardan tashkil topadi. Kirish qismida mavzu konteksti, muammo, tadqiqot maqsadi va asosiy tezis ifodalanadi. Asosiy qismda esa asosiy fikrlar dalillar, misollar va ilmiy manbalar asosida rivojlantiriladi. Talabalar ko'pincha introduction qismida mavzuni umumiy tarzda bayon qiladilar, biroq aniq thesis statement bermaydilar. Natijada o'quvchi matnning asosiy maqsadini darhol anglay olmaydi. Asosiy paragraflarda ham topic sentence, supporting sentences va concluding sentence o'rtasidagi munosabat yetarlicha shakllanmagan bo'lishi mumkin. Shu sababli akademik yozuv darslarida paragraf strukturasi alohida o'rgatilishi kerak. Masalan: *Topic sentence → Explanation → Evidence/Example → Analysis → Concluding sentence* modelidan foydalanish talabaga fikrni tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, baholash jarayonida faqat grammatik xatolarga e'tibor qaratish yetarli emas. Baholash mezonlarida mazmun, tashkil etilish, argumentatsiya, koherensiya, leksik tanlov va grammatik aniqlik kabi komponentlar ham hisobga olinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek EFL talabalarida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda grammatik va leksik bilimlar bilan bir qatorda, akademik fikrlash, argumentatsiya, matnni tashkil etish, manbalardan foydalanish va tahrirlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot tahlili o'zbek talabalarining akademik yozuvda grammatik xatolar, akademik lug'atning cheklanganligi, ona tili interferensiyasi, koherensiya va koheziya muammolari hamda akademik matn strukturasi bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda jarayonli yozuv, janrga asoslangan ta'lim, scaffolding, peer feedback, kontrastiv tahlil va shakllantiruvchi baholash kabi metodlardan kompleks foydalanish samarali hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida akademik yozuvni o'qitish jarayoni o'zbek EFL talabalarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bunda o'qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki talabaning yozish, tahlil qilish, qayta ko'rib chiqish va mustaqil fikrlash jarayonini boshqaruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq.

Kelgusida o'zbek universitetlaridagi EFL talabalarining real yozma ishlari asosida korpus tadqiqotlari olib borish, xatolarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish hamda turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligini eksperimental asosda o'rganish ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hyland, K. (2003). *Second Language Writing*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Hyland, K. (2004). *Genre and Second Language Writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
3. Hyland, K. (2019). *Second Language Writing*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Ferris, D. R. (2002). *Treatment of Error in Second Language Student Writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
5. Hedge, T. (2005). *Writing*. Oxford: Oxford University Press.
6. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. New York: Routledge.
7. Raimes, A. (1983). *Techniques in Teaching Writing*. Oxford: Oxford University Press.

METHODOLOGICAL CHALLENGES IN TEACHING ACADEMIC WRITING

Sh.Sh.Hamroyeva, teacher, Agency for the Assessment of Knowledge and Competencies,
Bukhara

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o'rganuvchi o'zbek talabalarida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy metodik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda akademik lug'at boyligi, paragraf tuzilishi, matnning koherensiyasi va kohezias, argumentatsiya hamda o'zbek tilining ingliz tilidagi akademik yozuvga ta'siri bilan bog'liq qiyinchiliklarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, EFL talabalari, o'zbek talabalar, yozuv kompetensiyasi, metodik muammolar, jarayonli yozuv, janrga asoslangan ta'lim, pedagogik qo'llab-quvvatlash, tengdoshlar fikri, akademik lug'at, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt.

Аннотация. В данной статье анализируются основные методические проблемы, связанные с развитием компетенции академического письма у узбекских студентов, изучающих английский язык как иностранный (EFL). Особое внимание уделяется трудностям, связанным с академической лексикой, организацией абзаца, когерентностью и когезией текста, аргументацией, а также влиянием узбекского языка на академическое письмо на английском языке.

Ключевые слова: академическое письмо, студенты EFL, узбекские учащиеся, письменная компетенция, методические проблемы, процессное письмо, жанровый подход к обучению, педагогическая поддержка, взаимное оценивание, академическая лексика, цифровые технологии, искусственный интеллект.

Abstract. This article examines the major methodological challenges involved in developing academic writing competence among Uzbek students learning English as a foreign language (EFL). Particular attention is given to difficulties related to academic vocabulary, paragraph organization, coherence and cohesion, argumentation, and the influence of the Uzbek language on English academic writing.

Keywords: academic writing, EFL students, Uzbek learners, writing competence, methodological challenges, process writing, genre-based instruction, scaffolding, peer feedback, academic vocabulary, digital technologies, artificial intelligence.

One of the major challenges in academic writing instruction is the diversity of students' linguistic backgrounds and proficiency levels. Students entering higher education may have different levels of English proficiency, different experiences with academic writing, and different degrees of familiarity with research practices. Another significant challenge is the limited academic vocabulary of many EFL learners. Students may know everyday English but lack the vocabulary necessary for expressing abstract ideas, evaluating evidence, comparing arguments, and discussing research findings. For example, students may repeatedly use general words such as *important*, *good*, *bad*, *show*, and *big*. Academic writing, however, often requires more precise lexical choices such as *significant*, *beneficial*, *negative*, *demonstrate*, and *substantial*. Therefore, vocabulary instruction should focus not only on individual words but also on academic collocations and lexical patterns.

A further challenge is the development of coherent paragraphs. Students may produce several grammatically correct sentences without establishing a clear relationship between them. Academic paragraphs generally require a topic sentence, explanation, supporting evidence or examples, analysis, and, where appropriate, a concluding statement. Another methodological problem is students' tendency to consider writing as a one-stage activity. They may write a text once and submit it without revision. This approach prevents them from recognizing writing as a process involving planning, drafting, feedback, revision, and editing. For this reason, academic writing instruction should explicitly teach students how to revise their work. Revision should not be understood simply as correcting spelling or grammar. It should involve reconsidering ideas, organization, argumentation, coherence, vocabulary, and overall communicative effectiveness.

The process writing approach considers academic writing not as a single final product but as a dynamic and recursive process. It normally includes several stages: *pre-writing* → *drafting* → *peer review* → *revising* → *editing* → *final version*.

During the *pre-writing* stage, students identify the topic, generate ideas, collect information, and develop an outline. This stage is important because students often begin writing without having a clear plan. The *drafting* stage allows students to transform their ideas into a preliminary text. At this stage, teachers should encourage students to focus on the development of ideas rather than attempting to produce a perfect text immediately. The next stage is *peer review*. Students exchange their drafts and provide constructive comments based on clearly established criteria. Peer review can help students identify problems that they may not notice in their own writing. *Revision* involves substantial changes to the content and organization of the text. Students may add evidence, remove unnecessary information, reorganize paragraphs, clarify arguments, or improve transitions. The *editing stage* focuses more closely on grammar, vocabulary, punctuation, spelling, and formatting. Finally, students prepare a *final version* incorporating the results of the previous stages. The process approach is particularly useful for EFL learners because it teaches them that effective academic writing develops gradually. It also encourages learner autonomy and self-monitoring.

A *genre-based approach* introduces students to the structural, rhetorical, and linguistic characteristics of different academic genres. For example, an argumentative essay generally requires a clearly stated position, supporting arguments, evidence, counterarguments, and a conclusion. A problem-solution essay, in contrast, focuses on identifying a problem, explaining its causes or consequences, and proposing possible solutions.

Other important academic genres include: argumentative essays, cause-and-effect essays, problem-solution essays, research reports, literature reviews, analytical essays, reflective academic writing.

Students can benefit from analyzing model texts before producing their own writing. The teacher can guide learners in identifying the introduction, thesis statement, topic sentences, supporting evidence, transitions, and conclusion.

Genre-based instruction is especially valuable because it makes implicit academic conventions more explicit. Students can see how successful academic texts are structured and how particular linguistic features contribute to their communicative purpose.

Scaffolding refers to temporary instructional support provided by the teacher to help students perform tasks that they may initially find difficult.

In academic writing classes, scaffolding can include: providing writing outlines, presenting model paragraphs, giving lists of useful academic expressions, teaching linking devices, providing sentence starters, demonstrating how to formulate thesis statements, guiding students through paragraph development.

For example, at an early stage, students may receive a detailed paragraph template:

Topic sentence → *Explanation* → *Evidence* → *Example* → *Analysis* → *Concluding sentence*.

As students become more confident, the teacher gradually reduces the amount of support. Eventually, students are expected to organize and produce their texts independently.

This gradual transition from supported performance to independent writing is particularly beneficial for students who lack confidence in academic writing.

Peer feedback is another effective strategy for improving academic writing. It encourages students to become active participants in the evaluation process.

Instead of relying exclusively on teacher correction, students can evaluate one another's drafts according to specific criteria.

A peer-review checklist may include the following questions:

- Is there a clear thesis statement?
- Does each paragraph begin with an appropriate topic sentence?
- Are the ideas logically connected?
- Is sufficient evidence provided?
- Is academic vocabulary used appropriately?

- Are there significant grammatical errors?
- Is the conclusion related to the main argument?

Peer feedback can develop students' critical reading and metacognitive abilities. When students evaluate another person's writing, they often become more aware of similar problems in their own texts.

However, peer feedback should be carefully structured. Students need clear instructions and evaluation criteria. Otherwise, peer review may become too general or focus excessively on grammar.

The rapid development of digital technologies has created new opportunities for teaching academic writing. Online dictionaries, electronic corpora, learning management systems, grammar-checking tools, reference-management software, and other digital resources can provide students with immediate assistance. Online grammar-checking tools can also support the revision process. However, students should not rely entirely on automated corrections. A digital tool may identify a grammatical or stylistic problem without explaining the underlying reason. Therefore, teachers should encourage students to evaluate suggestions critically. Digital learning platforms can additionally facilitate collaborative writing. Students can share drafts, comment on each other's work, revise documents collaboratively, and receive feedback from teachers. The findings of this analysis suggest several students.

The genre-based approach helps students understand the structural and linguistic conventions of different academic texts. Scaffolding provides temporary support and gradually leads learners toward independent writing. Peer feedback encourages collaboration and metacognitive awareness. At the same time, digital technologies and artificial intelligence can provide additional opportunities for language development, provided that they are used responsibly. Students should remain the primary authors and decision-makers in the writing process. For Uzbek EFL students, pedagogical approaches should also take into account the linguistic characteristics of the Uzbek language and possible areas of first-language interference. Contrastive analysis and error analysis can therefore contribute to the development of more context-sensitive teaching practices. Ultimately, successful academic writing instruction should create an environment in which students are encouraged not only to write accurately but also to think critically, argue logically, evaluate evidence, revise independently, and participate confidently in academic discourse. Such an approach can contribute to the development of students' academic, professional, and research competencies and prepare them for participation in the international academic community.

REFERENCES:

1. Ferris, D. R. (2002). *Treatment of Error in Second Language Student Writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
2. Hedge, T. (2005). *Writing*. Oxford: Oxford University Press.
3. Hyland, K. (2003). *Second Language Writing*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Hyland, K. (2004). *Genre and Second Language Writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
5. Hyland, K. (2019). *Second Language Writing*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Nation, I. S. P. (2009). *Teaching ESL/EFL Reading and Writing*. New York: Routledge.
7. Raimes, A. (1983). *Techniques in Teaching Writing*. Oxford: Oxford University Press.

UO'K 378.147

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN METOD VA USULLAR SAMARADORLIGINI ANIQLASH

N.D.Hayitova, o'qituvchi, Buxoro innovatsiyalar universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan metod va usullarning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish jarayonida kommunikativ, kompetensiyaviy, axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida integratsiyalashgan metodlarning talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni, ularning motivatsiyasiga ta'siri hamda o'quv natijalarini yaxshilashdagi samaradorligi aniqlangan. Natijalar integratsiyalashgan metodlardan foydalanish talabalarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, integratsiyalashgan ta'lim, kommunikativ metod, kompetensiya, lingvodidaktika, innovatsion texnologiyalar, fanlararo integratsiya, til ko'nikmalari.

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность интегрированных методов и подходов в обучении английскому языку. Освещается значение подходов, основанных на коммуникативном, компетентностном обучении, использовании информационно-коммуникационных технологий и междисциплинарной интеграции в процессе преподавания иностранных языков в современной системе образования. В ходе исследования была определена роль интегрированных методов в развитии языковых компетенций студентов, их влияние на учебную мотивацию, а также эффективность в повышении образовательных результатов. Результаты показали, что использование интегрированных методов способствует комплексному развитию навыков аудирования, чтения, письма и говорения у студентов.

Ключевые слова: английский язык, интегрированное обучение, коммуникативный метод, компетенция, лингводидактика, инновационные технологии, междисциплинарная интеграция, языковые навыки.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of integrated methods and approaches in teaching English. It highlights the significance of communicative, competency-based, information and communication technology (ICT)-supported, and interdisciplinary approaches in the process of foreign language teaching within the modern educational system. The study identifies the role of integrated methods in developing students' language competencies, their impact on learning motivation, and their effectiveness in improving academic outcomes. The findings demonstrate that the use of integrated methods contributes to the comprehensive development of students' listening, reading, writing, and speaking skills.

Key words: English language, integrated learning, communicative method, competence, linguodidactics, innovative technologies, interdisciplinary integration, language skills.

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonlarining jadallashuvi chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy jamiyatda ingliz tilini bilish nafaqat kommunikativ ehtiyojlarni qondirish, balki kasbiy rivojlanish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun ham muhim omil hisoblanadi.

An'anaviy grammatika-tarjima metodlari uzoq yillar davomida chet tillarini o'qitishda qo'llanib kelgan bo'lsa-da, ular tilning amaliy qo'llanilishiga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Shu sababli bugungi kunda kommunikativ yondashuv, loyiha metodi, CLIL (Content and Language Integrated Learning), raqamli texnologiyalar hamda interaktiv metodlarni o'zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. [8]

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan metod va usullarning samaradorligini aniqlash hamda ularning o'quv jarayonidagi afzalliklarini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Chet tillarini o'qitishda integratsiya masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiya nazariyasini ishlab chiqib, til o'rganishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaganlar. J. Harmer ingliz tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan integrativ metodlarning samaradorligini asoslab bergan. Uning fikricha, til o'rganish jarayoni tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligida amalga oshirilishi lozim. [2:124]

D. Coyle tomonidan ishlab chiqilgan CLIL konsepsiyasi fan va tilni birgalikda o'qitishning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvda o'quvchilar nafaqat tilni, balki turli akademik fanlarni ham ingliz tili orqali o'rganadilar.

O'zbekistonlik metodist olimlar ham chet tillarini o'qitishda integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv, axborot texnologiyalari va interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishi qayd etilgan. [3:178]

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil hamda pedagogik manbalarni o'rganish usullari qo'llanildi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, so'rovnoma, test sinovlari va pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 100 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi.

Talabalar ikki guruhga ajratildi:

- Nazorat guruhi – an'anaviy metodlar asosida ta'lim oldi;
- Tajriba guruhi – integratsiyalashgan metodlar asosida o'qitildi.

Tajriba davomida quyidagi metodlar uyg'unlashtirildi:

1. Kommunikativ yondashuv;
2. CLIL texnologiyasi;
3. Loyiha asosida o'qitish;
4. Muammoli ta'lim;
5. AKT vositalari va sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish;
6. Hamkorlikda o'qitish metodlari.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Diagnostik bosqich;
2. Tajriba-sinov bosqichi;
3. Yakuniy baholash bosqichi. [2:28]

Natijalar va muhokama: Tajriba natijalari integratsiyalashgan metodlar asosida ta'lim olgan talabalar ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Tinglab tushunish	71%	88%
Gapirish	68%	91%
O'qish	75%	89%
Yozish	70%	86%
Umumiy natija	71%	89%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan metodlardan foydalanish o'quvchilarning barcha nutq faoliyati turlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, loyiha ishlari va kommunikativ topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlash, muloqot qilish hamda ijodiy faoliyatini faollashtirgan.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Chatbotlar, avtomatik baholash tizimlari va interaktiv platformalar orqali talabalar individual ta'lim trayektoriyasiga ega bo'lishgan.

Muhokama natijalari integratsiyalashgan metodlarning asosiy afzalliklarini quyidagicha belgilash imkonini berdi:

- ta'limning amaliy yo'naltirilganligini oshiradi;
- til kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi;
- motivatsiyani kuchaytiradi;
- mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi;
- fanlararo aloqalarni mustahkamlaydi;
- raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. [2:125]

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitishda integratsiyalashgan metod va usullar yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Kommunikativ yondashuv, CLIL, loyiha metodi, muammoli ta'lim va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning uyg'un qo'llanilishi talabalarning til kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shuningdek, integratsiyalashgan metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida mazkur metodlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education, 2015. – P. 78-90.

2. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 124-128.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 178.
4. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – P. 1-47.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014. – p. 120.
6. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. Bekmuratov U. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021. – P. 23.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga oid qarorlari va normativ hujjatlari.

UDC 37.016:811.111'24

EFL TEACHERS' PERSPECTIVES ON TOP-DOWN AND BOTTOM-UP READING STRATEGIES IN EFL READING INSTRUCTION: A QUALITATIVE STUDY

M.S.Ibrohimova, o'qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili bo'yicha o'qituvchilarning ingliz tilida o'qish o'qitishda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga o'qish strategiyalaridan foydalanishga oid qarashlari o'rganiladi. Tadqiqotda uchta ingliz tili o'qituvchisi bilan yarim tuzilgan suhbatlarga asoslangan sifatli dizayn qo'llanilgan. Suhbatlar davomida o'qituvchilarning ikki yondashuv haqidagi tushunchalari, ularning dars amaliyotidagi hisobotlari, o'qituvchilar bilim darajasini idrok etishlari va strategiya tanlashga ta'sir etuvchi boshqa omillar, o'qituvchilarning munosabati hamda o'qitishdagi qiyinchiliklar o'rganildi. Ma'lumotlar deskriptiv kodlash orqali tahlil qilindi va kengroq mavzularga guruhlandi.

Kalit so'zlar: ingliz tilida o'qish, o'qishni tushunish, yuqoridan pastga ishlash, pastdan yuqoriga ishlash, o'qish strategiyalari, o'qituvchi qarashlari.

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды преподавателей английского языка как иностранного на использование стратегий чтения top-down и bottom-up в обучении чтению. Исследование выполнено в рамках качественного подхода и основано на полуструктурированных интервью с тремя преподавателями EFL. Вопросы интервью были направлены на выявление понимания преподавателями двух стратегий, способов их применения на занятиях, влияния уровня владения языком и других факторов на выбор стратегии, а также трудностей, возникающих в учебном процессе.

Ключевые слова: чтение EFL, понимание прочитанного, top-down, bottom-up, стратегии чтения, взгляды преподавателей.

Abstract. This article examines EFL teachers' perspectives on the use of top-down and bottom-up reading strategies in English reading instruction. The study employed a qualitative design based on semi-structured interviews with three EFL teachers. The interviews explored teachers' understanding of the two approaches, their reported classroom practices, perceptions of learner proficiency and other factors affecting strategy choice, learner responses, and instructional challenges. The data were coded descriptively and organized into broader themes.

Keywords: EFL reading, reading comprehension, top-down processing, bottom-up processing, reading strategies, teacher perspectives.

Introduction. Reading comprehension requires learners to coordinate linguistic knowledge with meaning construction. It involves not only recognizing words but also interpreting information, connecting ideas, using context, and relating a text to existing knowledge.

Previous EFL research reports the use of both processing orientations. Bintang Nadea et al. (2021) identified both strategies among EFL students, Fitriana (2022) found variation in strategy use, and Budiharso (2014) supports an interactive view of reading. Together, these studies suggest that no single strategy is universally sufficient.

Learner proficiency is also important. Yang et al. (2019) reported differences between stronger and weaker readers, while Chen (2020) and Tsai and Huang (2023) identified relationships or

differences involving proficiency and strategy use. This provides a basis for examining how teachers adapt instruction to different learner levels.

The present study examines teachers' reported understanding and use of the two strategies. It does not experimentally determine which approach is more effective; rather, it explores teachers' experiences and perceptions of their use in EFL reading instruction.

The study was guided by the following research questions: 1. How do EFL teachers understand top-down and bottom-up reading strategies? 2. How do EFL teachers report implementing these strategies in reading instruction? 3. How do teachers perceive learner proficiency and other classroom factors as influencing their choice of reading strategies? 4. What challenges do teachers report when implementing top-down and bottom-up reading activities?

Materials and methods. A qualitative design was used to explore how teachers describe, interpret, and adapt reading strategies rather than to measure causal effects statistically.

Three EFL teachers (P1–P3) participated in individual semi-structured interviews of approximately 20 minutes. They had experience teaching English reading to learners at different proficiency levels. Detailed demographic and sampling information was not preserved in the available research records and is therefore not reported.

The interview guide covered definitions, pre-/while-reading activities, learner reactions, proficiency differences, text characteristics, assessment, challenges, and changes in practice. Participants were informed about the study and confidentiality, and permission to record was obtained.

Transcripts were reviewed repeatedly, descriptively coded, and grouped into broader themes. The analysis focused on teachers' understanding, classroom implementation, proficiency and strategy choice, learner responses and challenges, and movement toward flexible integration. Representative interview statements supported the interpretation.

Participants are identified only as P1–P3. The available records document confidentiality and permission to conduct and record the interviews. Formal institutional ethics approval is not reported because such documentation is unavailable.

Results. All three teachers associated top-down processing with background knowledge, prediction, context, inference, and global meaning. Reported activities included titles or pictures, brainstorming, prediction questions, skimming, scanning, and summarizing.

Bottom-up processing was associated with vocabulary, sounds, pronunciation, word forms, grammar, sentence structure, and decoding. Teachers viewed these elements as necessary when linguistic gaps hinder comprehension and described the two orientations as complementary.

Teachers reported using titles, pictures, brainstorming, guided questions, prediction, inference, skimming, scanning, and summarization to support top-down processing.

Bottom-up instruction included vocabulary pre-teaching, phonics/pronunciation, decoding, vocabulary matching, lexical identification, sentence-structure work, flashcards, annotations, and grammar clues. Thus, teachers translated both orientations into practical classroom techniques.

Higher-proficiency learners were described as more able to use prediction, inference, skimming, scanning, and summarization. Confidence, background knowledge, preferences, text familiarity, and text complexity also influenced strategy choice.

Teachers generally perceived top-down activities as engaging and confidence-building; learners reportedly enjoyed guessing, discussing pictures, predicting content, and connecting texts with prior knowledge.

Bottom-up activities were sometimes more challenging because of unfamiliar vocabulary, slow decoding, pronunciation, translation habits, and grammar difficulties. Teachers responded with scaffolding such as vocabulary pre-teaching, phonics, pronunciation work, flashcards, and structured exercises.

Top-down tasks could also be difficult when learners lacked background knowledge or confidence; unfamiliar topics could lead to weak prediction or overguessing. Teachers therefore adjusted the amount and type of support.

Teachers consistently preferred flexible integration: top-down supported broader understanding and confidence, while bottom-up supported vocabulary, pronunciation, accuracy, and linguistic detail. All three viewed the approaches as complementary.

Two teachers reported moving from stronger bottom-up reliance toward a more balanced approach, often beginning with global engagement and then addressing important linguistic details. The sequence varied by learners and lesson aims.

Discussion. The findings support viewing top-down and bottom-up processing as complementary. The teachers' descriptions are consistent with the interactive perspective discussed by Budiharso (2014), in which different processing sources contribute to meaning construction.

The classroom activities also correspond with Bintang Nadea et al. (2021) and Fitriana (2022), who reported use and variation of reading strategies among EFL learners. This study adds a teacher-focused perspective on how such processing is encouraged instructionally.

The emphasis on proficiency is consistent with Yang et al. (2019), Chen (2020), and Tsai and Huang (2023). The teachers similarly perceived lower-level learners as needing more linguistic support and higher-level learners as more able to engage in inferential and global processing. However, these qualitative data cannot establish causal relationships.

Teachers' reports suggest that prediction and contextual tasks can make reading more purposeful than word-by-word translation. However, these are teacher perceptions; the study did not directly measure student motivation, engagement, or performance.

Challenges in bottom-up work highlight the need for scaffolding. Vocabulary, decoding, and pronunciation can consume time, yet linguistic detail remains necessary. The teachers' accounts therefore support coordinating different levels of processing rather than relying on one alone.

The central pedagogical implication is flexibility. Teachers perceived value in adjusting the balance between global and linguistic work: a lesson may begin with prediction, move to vocabulary or structural support, and return to global interpretation, while difficult texts may require stronger bottom-up preparation. The appropriate balance depends on proficiency, text complexity, and lesson objectives.

Conclusion. This qualitative study examined how three EFL teachers understand and use top-down and bottom-up reading strategies. Top-down was associated with background knowledge, prediction, context, inference, and global meaning; bottom-up with vocabulary, decoding, pronunciation, grammar, and linguistic detail.

Teachers perceived proficiency as important: lower-proficiency learners often require more bottom-up support, while higher-proficiency learners can use more top-down activity. Text characteristics, familiarity, confidence, background knowledge, and lesson objectives also mattered.

The teachers did not regard the approaches as competing alternatives. They reported combining and adjusting them to learner needs, suggesting that reading lessons can connect global meaning-making with focused linguistic work. Because the study relies on three interviews and does not measure student performance, the findings are context-specific teacher perspectives rather than evidence of causal superiority.

Future research should combine teacher interviews with classroom observations and student data. Larger mixed-methods or experimental studies could examine instructional sequences across proficiency levels, text types, and reading purposes.

REFERENCES:

1. Al-Qahtani A.A. Reading Comprehension Models of Saudi Non-native Speakers of English // *International Journal of English Linguistics*. – 2016. – Vol. 6, No. 1. – P. 57–64. – DOI: 10.5539/ijel.v6n1p57.
2. Bintang Nadea A.B., Jumariati, Nasrullah. Bottom-up or Top-down Reading Strategies: Reading Strategies Used by EFL Students // *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*. – 2021. – Vol. 587. – P. 30–36. – DOI: 10.2991/assehr.k.211021.005.
3. Budiharso T. Reading Strategies in EFL Classroom: A Theoretical Review // *Cendekia: Jurnal Pendidikan dan Pembelajaran*. – 2014. – Vol. 8, No. 2. – P. 189–204. – DOI: 10.30957/cendekia.v8i2.63.
4. Chen P.-H. The Interplay Between English Proficiency and Reading Strategy Use in English Reading: Validating the Linguistic Threshold Hypothesis and the Interactive-Compensatory Model // *Taiwan Journal of TESOL*. – 2020. – Vol. 17, No. 2. – P. 1–37. – DOI: 10.30397/TJTESOL.202010_17(2).0001.

5. Fitriana D. Reading Strategies in English as Foreign Language Students at English Education & Literature Program // EDUKATIF: Jurnal Ilmu Pendidikan. – 2022. – Vol. 4, No. 3. – P. 3498–3514. – DOI: 10.31004/edukatif.v4i3.2772.

6. Oranpattanachai P. Relationship between the Reading Strategy, Reading Self-Efficacy, and Reading Comprehension of Thai EFL Students // LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network. – 2023. – Vol. 16, No. 1. – P. 194–220.

7. Tsai R.-M.R., Huang S.C. EFL Reading Strategies Used by High School Students with Different English Proficiency // Forum for Linguistic Studies. – 2023. – Vol. 5, No. 3. – Article 1855. – DOI: 10.59400/fls.v5i3.1855.

8. Yang Y., Tsai Y.-R., Hikaru Y. Top-down and Bottom-up Strategy Use Among Good and Poor Readers in EFL Reading Comprehension // European Journal of English Language Teaching. – 2019. – Vol. 4, No. 3. – P. 98–110. – DOI: 10.46827/ejel.v0i0.2277.

UO'K 372.8:811.124

LOTIN TILINI O'RGANISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH

Sh.Ismoilova, o'qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada lotin tilini o'qitish va o'rganish jarayonida interaktiv usullardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Lotin tili grammatik qurilishi, so'z yasalishi, terminologik boyligi hamda tarixiy-madaniy xususiyatlari bilan boshqa tillardan farq qiladi. Shu sababli uni o'rganishda faqat an'anaviy grammatik mashqlar bilan cheklanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir. Maqolada "Aqliy hujum", "Klaster", rolli o'yinlar, guruhli ish, didaktik o'yinlar, loyiha metodi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lotin tili, interaktiv ta'lim, grammatik mashq, terminologiya, rolli o'yin, loyiha metodi, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье освещается значение использования интерактивных методов в процессе преподавания и изучения латинского языка. Латинский язык отличается от других языков своей грамматической структурой, словообразованием, богатством терминологии, а также историко-культурными особенностями. Поэтому при его изучении важно не ограничиваться только традиционными грамматическими упражнениями, а использовать интерактивные методы, обеспечивающие активное участие обучающихся. В статье анализируются возможности применения таких методов, как «Мозговой штурм», «Классер», ролевые игры, групповая работа, дидактические игры, проектный метод и цифровые технологии.

Ключевые слова: латинский язык, интерактивное обучение, грамматическое упражнение, терминология, ролевая игра, проектный метод, цифровые технологии.

Abstract. This article highlights the importance of using interactive methods in the process of teaching and learning Latin. The Latin language differs from other languages in its grammatical structure, word formation, terminological richness, and historical and cultural characteristics. Therefore, when learning Latin, it is important not to be limited to traditional grammar exercises, but also to use interactive methods that ensure the active participation of learners. The article analyzes the possibilities of using "Brainstorming," "Clustering," role-playing activities, group work, didactic games, the project method, and digital technologies.

Keywords: Latin language, interactive learning, grammar exercise, terminology, role-playing activity, project method, digital technologies.

Bugungi kunda xorijiy va mumtoz tillarni o'qitishda ta'lim oluvchining darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Lotin tili, ayniqsa, tibbiyot, biologiya, farmatsiya, huquq va filologiya yo'nalishlarida muhim o'quv fanlaridan biridir. Ushbu til orqali ko'plab ilmiy atamalarining ma'nosini anglash, so'zlarning kelib chiqishini tushunish va professional terminlardan to'g'ri foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Biroq lotin tilining grammatik tizimi, kelishiklar, fe'l shakllari va so'z yasash qoidalari ayrim o'quvchilar uchun murakkab tuyulishi mumkin. Shuning uchun dars jarayonida o'quvchini passiv

tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradigan interaktiv usullardan foydalanish samarali natija beradi.

Interaktiv ta'limning mazmuni. Interaktiv ta'lim — o'qituvchi va ta'lim oluvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Bunday darslarda bilim tayyor holatda berilmaydi, balki o'quvchilar savol-javob, munozara, amaliy mashq, guruhli topshiriq va ijodiy faoliyat orqali bilimni mustaqil egallaydilar.

Interaktiv usullar quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta'minlaydi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'laydi;
- jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- darsni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi;
- o'zlashtirish darajasini tezkor aniqlash imkonini beradi.

Lotin tilini o'rganishda interaktiv usullarning ahamiyati. Lotin tilini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish, avvalo, murakkab grammatik mavzularni osonroq tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bo'yicha turlanishini oddiy yodlash orqali emas, balki jadval, guruhli mashq yoki musobaqa tarzida o'rganish o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Interaktiv yondashuv quyidagi natijalarni beradi:

-Lug'at boyligi kengayadi.

O'quvchilar yangi so'zlarni alohida yodlabgina qolmay, ularni gap va terminlar tarkibida qo'llashni o'rganadilar.

-Grammatik bilimlar mustahkamlanadi.

Kelishiklar, sifat va ot moslashuvi, fe'l zamonlari hamda gap tuzilishi amaliy topshiriqlar orqali o'zlashtiriladi.

-Talaffuz yaxshilanadi.

Juftlikda o'qish, dialoglar va ovoqli mashqlar lotincha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi.

-Kasbiy terminlarni anglash osonlashadi.

Tibbiyot yoki biologiya yo'nalishidagi o'quvchilar terminlarni qismlarga ajratib tahlil qilish orqali ularning ma'nosini tezroq tushunadilar.

-O'quv motivatsiyasi ortadi.

O'yin, musobaqa va ijodiy topshiriqlar darsga qiziqishni kuchaytiradi.

Lotin tili darslarida qo'llaniladigan interaktiv usullar:

-“Aqliy hujum” usuli

“Aqliy hujum” usuli yangi mavzuni boshlash yoki avvalgi bilimlarni faollashtirish uchun qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi “Lotin tilidan qanday tibbiy terminlarni bilasiz?” yoki “Lotincha so'zlar o'zbek tilida qaysi sohalarda uchraydi?” kabi savollarni beradi.

O'quvchilar o'zlari bilgan so'z va atamalarni aytadilar:

- *cor* — yurak;
- *vena* — vena;
- *musculus* — mushak;
- *os, ossis* — suyak;
- *aqua* — suv.

Ushbu usul o'quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlash va yangi mavzuga qiziqish uyg'otish imkonini beradi.

-“Klaster” usuli

Klaster usuli ma'lum bir tushuncha yoki grammatik mavzu atrofida fikrlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Masalan, “Otlarning turlanishi” mavzusi markazga yoziladi va uning atrofida beshta turlanish, ularning asosiy belgilari hamda misollar keltiriladi.

Misol:

- *I turlanish* — *rosa, rosae*;

- II turlanish — *servus, servi*;
- III turlanish — *rex, regis*;
- IV turlanish — *manus, manus*;
- V turlanish — *res, rei*.

Bu usul o'quvchilarga grammatik ma'lumotlarni tartibli va ko'rgazmali tarzda o'zlashtirishga yordam beradi.

-Juftlikda ishlash

Juftlikda ishlash lotincha so'zlarni o'qish, tarjima qilish va grammatik jihatdan tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Bir o'quvchi so'zni o'qiydi, ikkinchisi esa uning tarjimasini yoki grammatik shaklini aniqlaydi. Keyin ular rollarini almashtiradilar.

Masalan:

- *puellae* so'zining lug'aviy shaklini topish;
- uning kelishigi va sonini aniqlash;
- so'zning gapdagi vazifasini izohlash.

Bunday topshiriqlar o'quvchilarni hamkorlikda ishlashga va bir-birining bilimini tekshirishga o'rgatadi.

-Didaktik o'yinlar

Lotin tilidagi so'z va grammatik shakllarni mustahkamlash uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

"So'zni top" o'yini. O'qituvchi lotincha so'zning tarjimasini aytadi, o'quvchilar esa lotincha variantini topadilar.

"Terminlar zanjiri" o'yini. Bir o'quvchi lotincha termin aytadi, keyingi o'quvchi shu terminning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi terminni aytadi.

"Mosini top" o'yini. Lotincha so'zlar va ularning tarjimalari alohida kartochkalarga yoziladi. O'quvchilar mos juftliklarni topadilar.

"Grammatik estafeta" o'yini. Guruhlarga so'zlar beriladi. Har bir guruh so'zning lug'aviy shakli, tarjimasini, turlanishi yoki grammatik shaklini tez va to'g'ri aniqlashi kerak.

Bunday o'yinlar darsni jonlantiradi va o'quvchilarning bilimini tezkor baholashga imkon beradi.

-Guruhli ish

Guruhli ish jarayonida o'quvchilar kichik jamoalarga bo'linadi va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan:

- birinchi guruh otlarning turlanishini aniqlaydi;
- ikkinchi guruh sifat va otni moslashtiradi;
- uchinchi guruh anatomik terminlarni tarjima qiladi;
- to'rtinchi guruh lotincha maqollarni izohlaydi.

Guruhlar o'z natijalarini taqdim etadilar. O'qituvchi esa ularning javoblarini to'ldiradi va umumlashtiradi. Bu usul o'quvchilarda mas'uliyat, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

-Loyiha metodi

Loyiha metodi lotin tilini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. O'quvchilar kichik loyihalar tayyorlashlari mumkin:

- "Tibbiyotdagi lotincha terminlar";
- "Lotincha maqollar va ularning zamonaviy mazmuni";
- "O'zbek tilidagi lotincha o'zlashmalar";
- "Anatomik atamalarining lug'ati";
- "Lotin tilining Yevropa tillariga ta'siri".

Loyiha davomida o'quvchilar ma'lumot izlaydilar, so'zlarni tahlil qiladilar, taqdimot tayyorlaydilar va o'z fikrlarini himoya qiladilar. Natijada ularning tadqiqotchilik va taqdimot ko'nikmalari shakllanadi.

-Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy raqamli vositalar lotin tilini o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va qulay qiladi. Elektron lug'atlar, onlayn testlar, taqdimotlar, videodarslar va interaktiv platformalardan foydalanish mumkin. Masalan:

- *elektron kartochkalar orqali so'zlarni yodlash;*
- *onlayn testlar yordamida grammatik bilimlarni tekshirish;*
- *multimedia taqdimotlarida anatomik rasmlar va terminlardan foydalanish;*
- *audioyozuvlar orqali talaffuzni mashq qilish;*
- *QR-kodlar yordamida qo'shimcha topshiriqlarga o'tish.*

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchi materiallarning ta'limiy maqsadga muvofiqligiga e'tibor berishi lozim. Texnologiya darsning maqsadi emas, balki bilim berish vositasi bo'lishi kerak.

Interaktiv darsning namunaviy tuzilishi

Lotin tili darsini quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

Tashkiliy qism.

O'quvchilar darsga tayyorlanadi va guruhlariga bo'linadi.

Motivatsiya.

O'qituvchi lotin tilining tibbiyot, biologiya yoki boshqa sohalaridagi ahamiyati haqida qisqa savol yoki muammoli vaziyat beradi.

Avvalgi bilimlarni faollashtirish.

“Aqliy hujum” yoki qisqa test o'tkaziladi.

Yangi mavzuni tushuntirish.

Grammatik qoida jadval, slayd yoki misollar yordamida izohlanadi.

Amaliy faoliyat.

Juftlikda, guruhda yoki o'yin shaklida mashqlar bajariladi.

Mustahkamlash.

O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, javoblarini izohlaydilar.

Baholash.

Test, savol-javob, o'zaro baholash yoki guruhlar taqdimoti asosida natijalar aniqlanadi.

Interaktiv usullardan foydalanishda o'qituvchining roli. Interaktiv darsda o'qituvchi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchi:

- dars maqsadini aniq belgilashi;
- topshiriqlarni o'quvchilarning bilim darajasiga moslashtirishi;
- barcha o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilishi;
- guruhlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirishi;
- xatolarni tanqidiy emas, izohli tarzda tuzatishi;
- baholash mezonlarini oldindan tushuntirishi kerak.

Shuningdek, interaktiv usullardan foydalanishda vaqtning to'g'ri taqsimlash muhimdir. Aks holda o'yin yoki guruhli ish darsning asosiy maqsadini chetga surib qo'yishi mumkin.

Xulosa. Lotin tilini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradigan muhim omillardan biridir. Bunday usullar o'quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytiradi, grammatik qoidalarni amaliy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi, terminologik lug'atni boyitadi va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

“Aqliy hujum”, “Klaster”, juftlikda ishlash, rolli o'yinlar, guruhli topshiriqlar, loyiha metodi va raqamli texnologiyalar lotin tili darslarini mazmunli hamda qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Eng muhimi, tanlangan interaktiv usul dars mavzusi, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim maqsadiga mos bo'lishi kerak.

Demak, lotin tilini o'qitishda an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish orqali yuqori samaraga erishish, o'quvchilarda mustahkam bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

2. Larsen-Freeman, D., Anderson, M. Techniques and Principles in Language Teaching. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2011.
3. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed. New York: Pearson Education, 2015.
4. Bonwell, C. C., Eison, J. A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. Washington, DC: George Washington University, 1991.
5. Prince, M. "Does Active Learning Work? A Review of the Research." Journal of Engineering Education, 2004, Vol. 93, No. 3, pp. 223–231.

UO'K 372.881.111.1

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA FONETIKANING ROLI

M.D.Mahmudova, o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz tilini o'rganishda fonetikaning ahamiyatini yoritadi. Fonetikaning talaffuzni yaxshilash, intonatsiya va urg'u bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tinglash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun fonetikaning ahamiyati ham tahlil qilinadi. Ovozli mashqlar va amaliy metodlar yordamida fonetika o'rganish jarayonini qanday yengillashtirish mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqola ingliz tilini o'rganuvchilar uchun amaliy usullar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili fonetikasi, fonetik o'qitish, zamonaviy metodlar, minimal pairlar, multimedia texnologiyalari, talaffuz, interaktiv metodlar, mobil ilovalar, ta'lim texnologiyalari, pedagogik yondashuvlar, O'zbekistonda ta'lim, global muloqot.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность фонетики при изучении английского языка. Рассматривается роль фонетики в улучшении произношения и формировании навыков владения интонацией и ударением. Кроме того, анализируется значение фонетики для развития навыков аудирования и коммуникации. В статье обсуждаются способы облегчения процесса изучения фонетики с помощью речевых упражнений и практических методов, а также предлагаются конкретные приемы и рекомендации для тех, кто изучает английский язык.

Ключевые слова: английская фонетика, обучение фонетике, современные методы, минимальные пары, мультимедийные технологии, произношение, интерактивные методы, мобильные приложения, образовательные технологии, педагогические подходы, образование в Узбекистане, глобальная коммуникация.

Abstract. This article highlights the importance of phonetics in learning English. It examines the role of phonetics in improving pronunciation and developing skills related to intonation and stress. Additionally, the significance of phonetics for the development of listening and communication skills is analyzed. The article discusses how the process of learning phonetics can be facilitated through vocal exercises and practical methods, offering practical techniques and recommendations for English language learners.

Key words: English phonetics, phonetic instruction, modern methods, minimal pairs, multimedia technologies, pronunciation, interactive methods, mobile applications, educational technologies, pedagogical approaches, education in Uzbekistan, global communication.

Ingliz tili, dunyo miqyosida eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lib, bugungi kunda ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalarida global muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. Ingliz tili fonetikasi, ya'ni tovushlarning hosil bo'lishi, talaffuzi va ularning o'zaro aloqalari til o'rganish jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Ingliz tilining fonetik tizimi, uning talaffuzi va intonatsiyasi, o'quvchilarga to'g'ri va aniq muloqot qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Fonetikaning o'rganilishi, ayniqsa, ingliz tilining talaffuzidagi noaniqliklarni bartaraf etishda va mutlaq tushunishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ingliz tilini o'qitishda yuzaga kelayotgan murakkabliklar va qiyinchiliklar, shu jumladan talaffuzdagi xatolar, fonetik qoidalarining kompleksligi, o'qituvchilarning metodik va pedagogik bilimlari darajasidagi farqlar kabi omillar zamonaviy yondashuv va metodlarni joriy etishni talab qilmoqda[1].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rgatish bo'yicha o'qituvchilarning 60% dan ortig'i talaffuzni o'rgatishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ingliz fonetikasini o'qitishda texnologiya va innovatsion metodlar qo'llanilmoqda, bu esa talabalar va o'qituvchilarga samarali o'qitish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu o'zgarishlar, nafaqat o'quvchilarning tilni to'g'ri o'zlashtirishini, balki ingliz tilining global kommunikatsiya vositasi sifatida yanada rivojlanishini ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili xalqaro muloqot, ta'lim, fan, axborot texnologiyalari va biznesda keng qo'llaniladigan asosiy tillardan biridir. Shuning uchun ingliz tilini samarali o'rganish, ayniqsa og'zaki nutqni to'g'ri rivojlantirish zamonaviy til ta'limining eng muhim vazifalaridan biridir. Grammatika va lug'at bilan bir qatorda, fonetik bilim va ko'nikmalar ham tilni o'zlashtirishda ayniqsa muhimdir. Zero, so'zlarning to'g'ri talaffuzi, tovushlarni farqlash hamda urg'u va intonatsiyadan to'g'ri foydalanish nutqning ravonligi va tushunarligini ta'minlaydi.

Fonetika nutq tovushlarini, ularning shakllanishini, talaffuzini va nutq paytidagi xususiyatlarini o'rganadigan tilshunoslikning muhim sohasidir. Ingliz tilini o'rganishda fonetik bilimlarning yetarlicha rivojlanmaganligi talaffuz xatolariga, tushunmovchiliklarga va og'zaki muloqotda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Xususan, ingliz va o'zbek tillarining fonetik tizimlari o'rtasidagi farqlar individual tovushlarning talaffuzida, urg'uni to'g'ri joylashtirishda va intonatsiyani rivojlantirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi[2].

Ba'zi o'zbek tovushlari ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentlarga ega emasligi sababli, talabalar ularni talaffuz qilishda ona tilining fonetik xususiyatlariga tayanishlari mumkin. Bu fonetik interferensiyaga olib keladi. Fonetik mashqlar, tinglash va farqlash vazifalari, artikulyatsiya mashqlari, audio va multimedia vositalaridan samarali foydalanish ushbu muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, fonetika faqat individual tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan cheklanib qolmaydi. Og'zaki ingliz tilida so'z urg'usi, jumla urg'usi, ritm, intonatsiya va tovush o'zgarishlarini o'zlashtirish ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun juda muhimdir. To'g'ri fonetik ko'nikmalar talabalarga tabiiy, ravon va tushunarli gapirishga yordam beradi, shuningdek, ularning ingliz tilida ravon muloqot qilish qobiliyatini kengaytiradi.

Ingliz tilini o'rganishda fonetika juda muhim ahamiyat kasb etadi. Fonetika so'zi yunoncha «phonê» (tovush) va «tikos» (ilmi) so'zlaridan kelib chiqib, tovushlar haqidagi ilmni anglatadi. Tilni o'rganish jarayonida fonetika to'g'ri talaffuz qilishni, nutq ohangini tushunishni va tilning tabiiylik darajasini oshirishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda fonetikaning roli, uning afzalliklari va qanday qilib samarali o'rganish mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Ingliz tilining fonetikasi ko'plab o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu til boshqa tillardan farqli ravishda, tovushlarning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi tafovutlari bilan mashhur. Masalan, «knight» so'zida «k» tovushi talaffuz qilinmaydi, bu esa o'rganuvchilar uchun murakkablik tug'dirishi mumkin. Fonetika yordamida talaffuzning bu kabi qoidalarini o'rganish osonlashadi va o'quvchi so'zlarni to'g'ri aytishga o'rgatiladi[3].

Talaffuz o'rganishda fonetik transkripsiya katta ahamiyatga ega. Xalqaro fonetik alifbo (IPA) yordamida so'zlarning to'g'ri talaffuzi belgilab beriladi. Misol uchun, «through» so'zining IPA transkripsiyasi /θru:/ ko'rinishida yoziladi, bu esa o'rganuvchilarga so'zning qanday talaffuz qilinishini oson tushunishga yordam beradi.

Ingliz tili nutqining tabiiyligi nutq ohangi va intonatsiya bilan chambarchas bog'liq. Fonetika bu sohada ham yordam beradi. Intonatsiya gapning ma'nosini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, «You are coming?» va «You are coming.» jumllarining talaffuzi turli intonatsiya bilan aytiladi, natijada ularning biri savol, ikkinchisi esa tasdiq gap bo'ladi. Bunday farqlarni tushunish o'rganuvchining tinglash va muloqot qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, urg'u (stress) ham nutqning to'g'ri tushunilishi uchun muhimdir. Ingliz tilida so'z va gaplarda ma'lum bo'laklarga urg'u beriladi. Misol uchun, «record» so'zida urg'u birinchi bo'g'inda bo'lsa, u ot sifatida ishlatiladi ('record'), lekin ikkinchi bo'g'inga urg'u berilganda ('re'cord) esa fe'l bo'ladi. Fonetika yordamida bunday nozik farqlarni o'rganish o'quvchining so'z boyligini oshiradi va uni aniqlik bilan ishlatishga imkon yaratadi[4].

Fonetika tinglash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tinglash jarayonida so'zlarning talaffuzi va ohangini to'g'ri tushunish uchun fonetik bilim kerak bo'ladi. Ingliz tilining shevalari va dialektlari o'rtasida katta farqlar bor, shuning uchun turli talaffuzlarni anglash muhimdir. Masalan, Britaniya va Amerika ingliz tilidagi «water» so'zining talaffuzini olaylik: britanacha talaffuz /'wɑ:tə/ bo'lsa, amerikacha talaffuz /'wɔ:tə/ ko'rinishida bo'ladi. Tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda audio materiallar va interaktiv mashg'ulotlar katta rol o'ynaydi. Fonetika orqali tinglash texnikasini rivojlantirish o'rganuvchiga haqiqiy hayotdagi suhbatlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi[5].

Fonetika nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, amaliy mashqlar orqali ham rivojlantiriladi. Masalan, o'quvchilar uchun maxsus ovoqli mashqlar (tongue twisters), audio yozuvlar orqali talaffuzni takrorlash va mashq qilish samarali usullardandir. «She sells seashells by the seashore» kabi mashqlar talaffuzdagi noaniqliklarni yo'qotishga yordam beradi. Shuningdek, ingliz tilidagi filmlar, podkastlar va qo'shiqlarni tinglash ham fonetikani o'rganishning samarali usuli hisoblanadi. Bu nafaqat talaffuzni, balki turli ohanglar va urg'ularni ham o'rganishga yordam beradi. Misol uchun, ingliz tilidagi multfilmlar boshlang'ich o'quvchilar uchun juda foydali bo'lib, ular oddiy va aniq talaffuzni o'z ichiga oladi. Fonetikani o'rganish bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u o'quvchining talaffuzini sezilarli darajada yaxshilaydi va boshqalarga tushunarli nutqni shakllantiradi. Ikkinchidan, fonetika yordamida o'quvchi yangi so'zlarni osonroq o'zlashtiradi va yodda saqlaydi. Uchinchidan, fonetik bilim bilan qurollangan o'quvchi chet elliklar bilan muloqotda o'ziga ishonchli bo'ladi, chunki u o'z talaffuzining to'g'ri ekanligiga amin bo'ladi[3].

Ingliz tilini o'rganishda fonetika beqiyos ahamiyatga ega. Talaffuz, intonatsiya va urg'u bo'yicha to'g'ri ko'nikmalarni shakllantirish fonetika orqali amalga oshadi. Bu nafaqat so'zlashuv nutqini, balki tinglash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ovoqli mashqlar, audiokitoblar va interaktiv mashg'ulotlar kabi vositalardan foydalanish orqali fonetika yanada samarali o'rganiladi. Shunday ekan, ingliz tilini o'rganishni rejalashtirayotgan har bir kishi fonetika bilan ishlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yadgarova, Z. Nutq zanjirini hosil qilinishida segment va supersegment elementlarning roli. – Buxoro: Buxdu ilmiy axboroti jurnali. 2023. 4-son. – B. 131-134.
2. Бейкер А. Курс английской фонетики. – Москва: Астрель, 2004.
3. Гимсон А. Ч. Введение в произношение английского языка. – Москва: Высшая школа, 1970.
4. Леонтьева С. Ф. Теоретическая фонетика современного английского языка. – Москва: Менеджер, 2004.
5. Соколова М. А., Гинтовт К. П., Кантер Л. А. и др. Теоретическая фонетика английского языка. – Москва: Владос, 1996.

UO'K 378.147:61

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN STUDENT-CENTERED MEDICAL EDUCATION

M.A.Makhsuova, Senior Lecturer, Kimyo International University in Tashkent, Tashkent

Annotatsiya. *Hozirgi zamon talablariga javob beruvchi tibbiy ta'lim mantiqiy fikrlaydigan, bilimli va raqobatdosh malakali mutaxassislarini yaratuvchisi sifatida zamonaviy ilm-fanni talab qiluvchi texnologiyalarni qo'llashi, tibbiy ta'limni raqamlashtirishga e'tibor berishi zarur. Bunday texnologiyalardan biri talabaga yo'naltirilgan ta'lim yoki talaba markazlashgan ta'limdir.*

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim yoki talaba markazda bo'luvchi ta'lim (TMT) - bu o'quv jarayoni va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim uzluksiz refleksiya jarayonini talab qiladi. Bu jarayondagi asosiy falsafa talabalarning ehtiyojlari hamda qiziqishlarini inobatga olib, bunday yondashuv doimiy bo'lishi kerakligiga asoslanadi: talabalarning mas'uliyatini, mustaqilligini oshirish, ikki tomonlama refleksiv yondoshishdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ta'lim muassasalari o'zlarining o'qitish usullarini raqamlashtirish texnologiyasi bilan bog'lashi kerak. O'quv tajribasini oshirish va uni raqamlashtirish orqali avvaldan ta'lim istiqbolini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi. Shifokorlik kasbini tanlagan talabalar tibbiyotni raqamlashtirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, hamda o'qitish metodlari sifatida markazda talaba bo'ladigan usullarni darsda qo'llash

tarafdori ekanliklarini, raqamli tibbiyotning texnik realligiga tayyor ekanliklarini his qilishini bildirishgan. Ayrim talabalar o'z o'rnida raqamli tibbiyot tufayli bemorlar bilan muloqot, aloqani yo'qotishdan qo'rqishadi, boshqalari esa raqamlashtirish tibbiyot kasbiga tahdid solmasligiga ishonishadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, innovatsiya, raqamli texnologiya, mulohaza yuritish, tibbiy mas'uliyat, tibbiyot maktabi, virtual laboratoriya, ta'limni boshqarish tizimi (LMS) platformalari, veb-asosidagi simulyatsiyalar, o'yinlashtirish.

Аннотация. Современное медицинское образование, соответствующее требованиям времени, должно применять технологии, основанные на научных достижениях, и уделять внимание цифровизации обучения. Одним из таких подходов является студентоцентрированное обучение.

Обучение, ориентированное на студента (СЦО), представляет собой эффективный педагогический подход, направленный на реализацию учебных и воспитательных задач. Оно требует постоянной рефлексии и основывается на учёте потребностей и интересов студентов, акцентируя внимание на их ответственности и самостоятельности, а также на двустороннем рефлексивном взаимодействии.

Учебные заведения должны интегрировать цифровые технологии в образовательный процесс. Повышение качества обучения за счёт цифровизации создаёт основу для перспективного развития образования.

Студенты, выбравшие медицинскую профессию, проявляют заинтересованность в цифровизации медицинского образования и внедрении студентоцентрированных методов обучения. Многие из них чувствуют готовность к техническим реалиям цифровой медицины. Однако некоторые выражают опасения по поводу потери прямого общения с пациентами, тогда как другие уверены, что цифровизация не представляет угрозы для медицинской профессии.

Ключевые слова: цифровизация, инновации, цифровые технологии, рефлексия, ответственность медицинских работников, медицинский вуз, виртуальная лаборатория, платформы систем управления обучением (LMS), веб-симуляции, геймификация.

Abstract. Modern medical education, which aims to develop logical, knowledgeable, and competitive specialists, must employ science-driven technologies and prioritize the digitalization of medical instruction. One such educational innovation is student-centered learning.

Student-centered learning (SCL) is an effective pedagogical approach focused on both academic and formative objectives. It requires a continuous process of reflection, grounded in the principle that teaching should consistently take into account students' needs and interests. This method enhances student responsibility and independence, and promotes two-way reflective interaction.

It is essential that educational institutions integrate digital technologies into their teaching methodologies. Enhancing the learning experience through digitalization paves the way for long-term advancements in education.

Students who pursue a medical career have expressed a strong inclination toward digitalizing medical education and implementing student-centered methods in the classroom. Many of them feel prepared to embrace the technical realities of digital medicine. However, some students express concerns that digital medicine may diminish direct communication with patients, while others are confident that digitalization does not pose a threat to the medical profession.

Key words: digitalization, innovation, digital technology, reflection, medical responsibility, medical school, virtual laboratory, Learning Management System (LMS) platforms, web-based simulations, gamification.

Introduction. A student-centered approach recognizes and adapts to the individual differences among learners. Students exhibit diverse learning styles: some learn best from mistakes and hands-on experience, while others grasp material more effectively through reading or theoretical

discussions. In medical education, student-centered learning (SCL) should utilize digital technologies in ways that align with each student's life and professional experience.

For example, if a particular group of students already possesses significant experience with relevant technologies or in key research areas, then focusing on deepening their theoretical knowledge may yield better results. Students should be provided with the opportunity to share their personal experiences and express their ideas freely. Directing the educational content toward the topics that spark the most curiosity and interest among students is critically important.

At the same time, it is necessary to explain that patients' expectations are also evolving. Today, patients often search for preliminary information about their diagnoses on the internet and increasingly expect to participate personally in decision-making during the treatment process. This makes it essential for medical students to be aware of such trends.

Doctors play a pivotal role in the digital transformation of healthcare — not only as users but also as drivers of innovation. Their participation is a key factor in the successful integration of digital technologies in medicine. Medical students have demonstrated their openness to innovation and readiness for change. This is especially evident in their increased levels of independence and personal responsibility throughout the learning process.

Combining the shortened forms of traditional teaching with the integration of modern digital technologies creates a well-balanced and complementary environment for both autonomous learning and student-centered education. To foster deeper engagement, students should be actively involved in shaping how their education is structured.

In traditional education, initiative and preparation are determined by the instructor. In student-centered education, however, responsibility is shifted to the student, which encourages critical thinking, inquiry, knowledge application, reflection, analysis, synthesis, and problem-solving.

Purpose: To establish mutual understanding and constructive collaboration between students and faculty in higher education institutions in addressing issues that arise in the learning process. To explore the role of digital technology in student-centered teaching in medicine, determine the appropriate pedagogical approach, and achieve effective outcomes in educating medical school students.

Materials and Methods. Among medical school students, several instructional tools and approaches were implemented, including virtual laboratories, Learning Management System (LMS) platforms (such as Moodle and Google Classroom), web-based simulations, and gamification (teaching through game elements).

To collect data, a special questionnaire was developed. A total of 843 second-year students participated in the survey — 393 students from the General Medicine program and 450 students from the Dentistry program. In all the methods applied, the student remained at the center of the educational process.

Sociological Survey. The questionnaire included dichotomous (yes/no) questions such as:

- “Should students engage in independent learning?”
- “Is student-centered education necessary?”
- “Do you have a positive attitude toward digital technologies in medical education?”
- “Do virtual laboratories improve learning efficiency?”
- “Would you like to work in a fully digital medical institution?”

These questions were designed to analyze students' perspectives (see Table 1).

Table 1.

Analysis of Overall Survey Results

Program	Gender	Yes	No
Dentistry	Male	70%	30%
	Female	50%	50%
General medicine	Male	85%	15%
	Female	68%	32%

In the Dentistry program, 70% of male students responded “Yes”, indicating a strong positive attitude toward the direction and tools used. In contrast, female responses were evenly split: 50%

answered “Yes” and 50% answered “No”, suggesting a balance between interest and indifference among female students in this field.

In the General Medicine program, 85% of male students answered “Yes” — the highest result among all groups — indicating a very strong interest in general medicine. Among female students, 68% responded “Yes” and 32% “No”, also reflecting a significantly positive attitude, and confirming that General Medicine is quite popular among female students as well.

Virtual Laboratories allowed students to independently conduct practical simulations in Medical Biology and General Genetics. This method contributed to the development of analytical and clinical thinking (see Table 2).

Table 2.

Pre- and Post-Application Survey Results of Virtual Laboratories (%)

Program	Before		After	
	Yes	No	Yes	No
Dentistry	20%	80%	63%	37%
General medicine	10%	90%	71%	29%

The table presents a comparative analysis of responses for both programs, showing data “before” and “after” the intervention. The percentages for “Yes” and “No” responses indicate the effectiveness or impact of the methods applied.

In the Dentistry program, prior to the use of virtual laboratories, 20% of students responded “Yes” and 80% responded “No.” After implementation, 63% answered “Yes” and 37% answered “No.” This increase from 20% to 63% in positive responses shows a significant improvement in students’ interest or favorable perception of the subject following the specific teaching method. Negative responses decreased from 80% to 37%, indicating a notable shift toward a more positive overall attitude.

In the General Medicine program, 10% responded “Yes” and 90% “No” before the intervention. Afterward, 71% responded “Yes” and 29% “No.” This 61% increase in affirmative responses suggests an even more pronounced positive change. The drop from 90% to 29% in negative responses further confirms the effectiveness of the applied approach.

In both programs, the post-intervention results show a significant rise in “Yes” responses, indicating that the measures taken — whether informative, instructional, or interactive — led to a greater interest and more positive perception among students. This effect was especially strong in the General Medicine group.

Learning Management System (LMS) platforms (such as Moodle and Google Classroom) were used to distribute learning materials, submit homework assignments, and facilitate rapid feedback (see Table 3).

Table 3.

Pre- and Post-Application Survey Results Using LMS Platforms (%)

Program	Before		After	
	Yes	No	Yes	No
Dentistry	5%	95%	57%	43%
General medicine	7%	93%	64%	36%

In the Dentistry program, before the use of LMS platforms, 5% of students answered “Yes” and 95% “No.” After implementation, 57% responded “Yes” and 43% “No.” This represents a 52% increase in positive responses, indicating a significant improvement in student interest and confidence in the lesson format. At the same time, negative responses dropped from 95% to 43%.

In the General Medicine program, 7% responded “Yes” and 93% “No” before the method was introduced. Afterward, 64% answered “Yes” and 36% “No,” showing a 57% increase in affirmative responses. This also reflects a highly positive change, demonstrating an increased willingness among students to engage with the subject. Negative responses fell from 93% to 36%.

In both programs, the number of students answering “Yes” increased significantly:

- Dentistry: 5% → 57%
- General Medicine: 7% → 64%

These results indicate that the use of LMS platforms greatly improved students' perceptions of the learning experience.

Web-based simulations are interactive sessions based on real clinical cases, designed to teach students how to navigate and respond to complex situations (see Table 4).

Table 4.

Pre- and Post-Survey Results for Web-Based Simulations (%)

Program	Before		After	
	Yes	No	Yes	No
Dentistry	6,6%	93,4%	67%	33%
General medicine	8%	92%	66%	34%

In the Dentistry program, prior to using web-based simulations, 6.6% of students responded “Yes” and 93.4% “No.” After the implementation, 67% responded “Yes” and 33% “No.” This indicates a 61.4% increase in positive responses, demonstrating a substantial improvement in student engagement and interest in this teaching method. At the same time, negative responses declined from 93.4% to 33%.

In the General Medicine program, the “Yes” responses increased from 8% to 66%, representing a 58% increase. “No” responses fell from 92% to 34%. This also reflects a highly positive change, showing that students became significantly more interested in the subject following the implementation of web-based simulations.

In both programs, the number of students responding positively rose sharply:

- Dentistry: 6.6% → 67%
- General Medicine: 8% → 66%

These results confirm that web-based simulations effectively increased student motivation and readiness to learn through realistic clinical scenarios.

Gamification (instruction based on game elements) introduced engaging formats into the learning process through quizzes, mini-competitions, and digital tournaments. This approach served to increase student motivation (see Table 5).

Table 5.

Pre- and Post-Survey Results for Gamification-Based Lessons (%)

Program	Before		After	
	Yes	Nos	Yes	No
Dentistry	11.8%	88,2%	73.1%	26.9%
General medicine	13.1%	86.9%	74.3%	25.7%

In the Dentistry program, prior to the use of gamification, 11.8% of students responded “Yes” and 88.2% “No.” After implementation, 73.1% answered “Yes” and 26.9% “No.” This represents a 61.3% increase in positive responses, indicating a marked improvement in student interest in lessons conducted using gamification. Negative responses decreased from 88.2% to 26.9%.

In the General Medicine program, 13.1% of students responded “Yes” before, and 74.3% afterward — also a 61.2% increase. Negative responses dropped from 86.9% to 25.7%, reflecting a strong positive shift in student attitudes and increased learning motivation.

Across both programs, the number of students responding “Yes” increased significantly:

- Dentistry: 11.8% → 73.1%
- General Medicine: 13.1% → 74.3%

Overall, “No” responses decreased from 87.5% to 26.3%, showing that the gamified approach was well received across disciplines.

These methods proved effective in enhancing personalization, distance learning, and reflective learning approaches. As a result, students demonstrated increased engagement and independent thinking, while educators gained the ability to manage the learning process more effectively through digital monitoring and analytics tools.

Discussion. For medical school students, both practical and theoretical materials were developed for distance learning in the subjects of Medical Biology and General Genetics. These materials included audio lectures, diagrams, test questions, tables, images, virtual laboratories, and case-based tasks with explanations.

This comprehensive resource package enabled students to study at their convenience, re-listen to the content, review lessons independently, and analyze their own learning outcomes — effectively placing the student at the center of the educational process.

1. Advantages of Student-Centered Learning

✓ Improving the quality of education:

Any improvement in the conditions for work and learning through digital technologies should be equally welcomed by both educators and students. Student-centered education benefits not only the universities that implement it but also society as a whole, which receives graduates who are innovative, critically thinking, and capable of managing change.

✓ Enhancing the status of the educator:

✓ Student-centered learning is grounded in innovation and digital technology, offering teachers the opportunity to design educational content independently and creatively, based on their own pedagogical vision.

✓ Increasing student engagement:

Educational institutions that focus on addressing students' needs tend to achieve higher instructional quality. A university's ability to evaluate its own courses and the extent of students' scientific engagement is an indicator of how well-prepared its graduates are. The broader benefit to society lies in the fact that such graduates are more likely to become analytical, proactive, and innovative citizens. This is because, during their studies, they learn to take responsibility for their own learning, to engage deeply with content, and to solve problems effectively.

This form of education fosters a lifelong learning culture, teaching students to continually improve themselves throughout life.

✓ Advantages of virtual laboratories for students in student-centered education:

Digital technologies provide numerous benefits for students in the educational process. The first steps in academic life strongly influence future professional development. In traditional instruction, rigid teaching models often made it difficult to apply knowledge in practice. In contrast, modern approaches and interactive online simulators encourage students to think independently, support the early development of analytical skills, and improve critical thinking abilities.

In such an environment, the emergence of broader opportunities defines the effectiveness of research-based digital instruction. For educators, this approach also opens up possibilities to analyze student motivation and explore new directions for their teaching.

It is important to remember: today's students are tomorrow's educators.

2. Advantages of Implementing Student-Centered Learning by Educators

✓ In reality, when educators choose to implement student-centered learning, both the teacher and the student take on key roles in the educational process. This approach broadens the learner's autonomy, encourages independent inquiry, and provides the necessary conditions for students to prepare at home and then generate new knowledge in the classroom.

It is essential to recognize that a student's prior experience is always connected to how they absorb new knowledge. This connection makes it easier for instructors to work with students, facilitating both teaching and learning. In this model, responsibility is shifted to the student, while the educator's role is to create supportive conditions for learning.

The financial investment made by students in their own education encourages both improved learning quality and greater attention to individual needs, which in turn makes the educator's work more engaging and helps to reduce negative experiences in the teaching process.

✓ Student-centered education also gives instructors an opportunity to reassess and improve their teaching practices, opening up new professional development pathways. If appropriate teaching methods are selected to improve the quality of instruction, and if the student becomes the focal point of the learning process, this fosters effective, constructive feedback between teacher and student — which is a crucial step toward improving curricula and instructional strategies.

In medical education, digital technologies and student-centered learning empower instructors to personalize education, make it more inclusive, and guide students toward independent research. With digital tools, educators can design customized learning programs that consider each student's academic level and specific needs, thereby maximizing individual potential.

Effective use of these technologies allows teachers to adapt instruction more personally and create learning environments that support inclusivity for a broader range of learners.

By using digital technologies, instructors can assess students' academic levels and needs, apply individual approaches when necessary, and organize remote learning based on personalized curricula that raise each student's potential to the highest level.

Today, there are many adaptive digital tools, including “smart” textbooks and notebooks, that allow each student to find and study assignments appropriate to their current level of knowledge. Once a student masters a particular topic, these digital resources present new exercises for reinforcement or gradually increase the complexity of existing tasks.

Digital technologies also allow teachers to grade student work more quickly, freeing up time to focus on other aspects of instruction. Many platforms offer automatically graded assessments, enabling students to take tests at their convenience, view their results immediately, and analyze their mistakes.

This enables instant feedback between student and teacher, helping maintain student attention and motivation. In contrast, when test or written assignments take days to be reviewed, students often lose interest, which can result in detachment from the subject.

Conclusion.

1. Student interest in the application of digital technologies in medicine reached 60% among Dentistry students and 75% among General Medicine students — a 15% difference, favoring the General Medicine group. This indicates that students in General Medicine show greater preference for digital medical tools and student-centered learning.

2. The use of Learning Management System (LMS) platforms (such as Moodle and Google Classroom) enabled instructors to enhance individualized approaches and place the student at the center of the educational process.

3. Web-based simulations helped students develop decision-making skills in complex clinical scenarios.

4. Gamification (instruction using game elements) — through tests, mini-quizzes, and digital tournaments — significantly increased student motivation and engagement in the learning process.

Digital technologies also allow instructors to communicate more easily and comfortably with their colleagues, facilitating experience exchange and professional dialogue. Today, nearly all educators use social media platforms and messaging apps, and professionals across many fields are adopting these familiar modes of communication for professional purposes as well.

Additionally, online conversations between educators can foster a friendly and open environment for sharing experiences and seeking support from peers.

REFERENCES:

1. Attard, A., Di Iorio, E., Geven, K., & Santa, R. (2017). Student-Centered Learning: Toolkit for Students, Academic Staff and Higher Education Institutions. Astana: NKAOKO-IQAA. p. 64.
2. Attard, A., Di Iorio, E., Geven, K., & Santa, R. (2017). Student-Centered Learning: A Deeper Understanding of Theory and Practice. Astana: NKAOKO-IQAA. p. 55.
3. Sorg, X., & Ehlers, J. P. (2022). Digitalization in Medicine: Are German Medical Students Well Prepared for the Future? *International Journal of Environmental Research and Public Health*, **19**(14), 8308. <https://doi.org/10.3390/ijerph19148308>
4. Bazarbaev, M. I., & Tulyaboev, A. K. (2018). *Information Technologies in Medicine (Textbook)*. Tashkent.
5. Shestak, N. V., Krutii, I. A., & Karnaushenko, P. V. (2019). Digital Pedagogy in the Educational Process of Medical Education. *Proceedings of the RosMedObr Conference*. September 10, 2019, 21:50.
6. Chirkina, Tatyana Alexandrovna – Senior Research Fellow, Osokina, Polina Vladimirovna – Research Intern, International Laboratory for the Evaluation of Practices and Innovations in Education. Higher School of Economics, Moscow. Available at: <https://ioe.hse.ru/digitalineducation>

DEVELOPING EFFECTIVE LESSON PLANS: PRINCIPLES, STRATEGIES, AND OUTCOMES

H.M.Qurbanova, assistant o'qituvchi, Khorezm branch of Asian International University, Urgench

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida darsni rejalashtirishning ahamiyati va samarali pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Yunusobod tumanidagi agrar ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 17 yoshli o'quvchilarning turli til darajalarini hisobga olgan holda olib borilgan. O'quvchilar Elementary, Pre-Intermediate va Intermediate darajalariga ajratilib, ularning til ko'nikmalari, ehtiyojlari, qiziqishlari va mavjud muammolari aniqlangan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning asosiy qiyinchiliklari grammatika, lug'at boyligi va talaffuz bilan bog'liqligi kuzatilgan. Shu sababli darslarni rejalashtirishda Task-Based Language Teaching (TBLT), Sheltered Instruction hamda o'quvchi markazli yondashuvlardan foydalanish taklif etilgan. Shuningdek, listening, speaking, reading va writing ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ehtiyojlarni to'g'ri aniqlash va o'quvchilarning individual darajasiga mos dars rejasini ishlab chiqish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Lesson planning, needs assessment, EFL, TBLT, Sheltered Instruction, language proficiency, IELTS, grammar, vocabulary, language skills.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение планирования урока и эффективных педагогических подходов в процессе обучения английскому языку как иностранному. Исследование проводилось среди 17-летних учащихся аграрного образовательного учреждения Юнусабадского района с учетом различий в их уровнях владения английским языком. Учащиеся были разделены на три уровня: Elementary, Pre-Intermediate и Intermediate. В ходе исследования были определены их языковые потребности, интересы, сильные и слабые стороны. Основные трудности учащихся связаны с грамматикой, недостаточным словарным запасом и произношением. В связи с этим при планировании уроков предлагается использовать Task-Based Language Teaching (TBLT), Sheltered Instruction и личностно-ориентированный подход. Особое внимание уделяется интегрированному развитию четырех языковых навыков: аудирования, говорения, чтения и письма. Результаты показывают, что правильное определение потребностей учащихся и разработка уроков с учетом их индивидуального уровня являются важными факторами повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: планирование урока, анализ потребностей, английский язык как иностранный, TBLT, Sheltered Instruction, языковая компетенция, IELTS, грамматика, словарный запас, языковые навыки.

Abstract. This article examines the significance of lesson planning and effective pedagogical approaches in teaching English as a foreign language. The study was conducted among 17-year-old learners at an agrarian educational institution in the Yunusabad district, taking into consideration their different levels of English proficiency. The learners were classified into three levels: Elementary, Pre-Intermediate, and Intermediate. Their language needs, interests, strengths, and weaknesses were identified through needs assessment. The findings indicate that the major challenges faced by the learners are related to grammar, limited vocabulary, and pronunciation. Therefore, the lesson planning process incorporates Task-Based Language Teaching (TBLT), Sheltered Instruction, and learner-centered approaches. Particular attention is given to the integrated development of four language skills: listening, speaking, reading, and writing. The study demonstrates that accurate needs assessment and the development of level-appropriate lesson plans are essential factors in improving the effectiveness of English language instruction and supporting learners in achieving their IELTS-related academic goals.

Key words: lesson planning, needs assessment, EFL, TBLT, Sheltered Instruction, language proficiency, IELTS, grammar, vocabulary, language skills.

Introduction: As an English teacher, it is teachers' responsibility to teach in any place such as Agrarian lyceum in Yunusabad region for 2 years which urged me to teach learners, there are 15 students in the group whose ages are 17 years old. There are 1st and 2nd course students in the lyceum and the target learners are 2nd course pupils. The students' language levels are not the same, namely their levels are different, 3 of them are elementary level, 8 students are pre-intermediate and 6 students are intermediate level. Students whose levels are intermediate have been learning English since they are ten. The students can easily communicate with others in English and write any essays or stories on any topic. They just need more practice on writing in order to write essays as formal as possible. When it comes to pre-intermediate students, they learned it when they were 1st course at this lyceum by their interest. They are able to understand and even reply to the given questions but sometimes with pauses and hesitations because they do not have enough vocabulary base. The lowest level students are elementary ones who started English just 3 months ago. Making just simple sentences with several tenses such as Present Simple, Present Continuous or Future Simple is easy for them. Admittedly, in all three levels students still have pronunciation problems. As their L (1) is Uzbek, some words are challenging to pronounce especially if one letter (syllable or vowel is pronounced) differently. Although their level is not similar, their goal is the same which is to get IELTS 7+. The duration of the class is 80 minutes and there are 3 lessons in odd days of the week in a semester. Time is enough to divide them to 3 groups in terms of their levels and teach grammar and vocabulary for all levels. All in all, they have huge interest and effort to learn the language because even if they fail on exams they do not give up and ask me to explain their mistakes and some time to correct them. The instructional context is Agrarian university in Yunusabad region. They are required to attend English classes 2 times a week and the duration of the semester is 5 months. They have aimed to go to abroad by taking IELTS for studying master's degree by learning English as a foreign language. My classes focus on students' 4 skills (listening, speaking, writing, reading) together at the same time but mostly they have a problem with grammar and lack of vocabulary, therefore methods and activities cover grammar and vocab as well as 4 skills.

Methodology: Needs Assessment.

1) What is the **first thing** you do when you are asked to teach a new course? (Viana et al., 2019, p.2).

Justification: There are several **things** to do when a teacher starts a new course such as level of the students, weak points or skills in a language as well as their needs from learning English (for business, for exam in the future studying process, marketing, engineering). My students want to learn it for their future career.

Answer: The initial part of the new course is identifying the **level** of my target learners and preparing materials in terms of their level. Because if knowledge and materials are not suitable to learners level, they just may lose their time instead of improving their English. Besides, their **weak point(s)** should be determined and analyzed the mistakes. They should be given/shown the ways how to decrease the numbers of mistakes and how to make the weak points into strong skills. Materials and teaching with different, interactive methods can be one of the most useful ways to become your English developed.

2) How do students like to learn English? (Viana et al., 2019, p. 14).

Justification: Whenever I am given a group of students who want to learn English, I am always interested in whether themselves like to learn the language or not. It is very important to have a desire for learning a language on themselves.

Answer: Unfortunately, I cannot say that all of my students learn English by their desire. Admittedly, English is already international language, some of my students study because they need it in the future, even if they do not like it. However, I have to be the kind of teacher that it is my responsibility to explain even through some examples, that English is actually an interesting language and that it opens the door to many opportunities. The rest of my students love to learn for English accent because of watching a lot of English movies especially when they communicate with native people they are motivated and run to learn it until they completely comprehend or reply in the speech.

Therefor I bring them to the destinations where multiple tourists can be came across in order to feel real English accent.

3) *What goals do parents have for their children?* (Linse, 1993, p. 44).
Justification: As soon as children are born, they see their first teachers namely, their father and mother, and begin to receive knowledge from them. So, if we imagine a child as a high building, parents are the builders of that building, that is, they are the masters who lay the pillars/foundations.

Answer: A child learns behavior in society, how to communicate with people with respect and thirst for knowledge from his/her parents. If parents realize how great and inexhaustible wealth science is and love it, teachers will not suffer from the incompetence or irresponsibility of the learners they are teaching. In addition, it is very important for parents to develop the child's self-control, cope with stressful situations and always be respectful for others' ideas and thoughts regardless of nationality and religion.

Discussion the Subject: English Grade:1st course (80 duration)

•Content objectives:

1. Students are aware of multiple types of Sports.
2. Students learn the benefits of Sports to their health.
3. Students receive much information about how to be famous and successful by Sports in life
4. Students are able to exchange several ideas about Sports and Winners with anyone.

Listening activity

•**Pre-** the names of different types of sports are given in a book or handouts and teacher explains that the recording describes any type of them without refering to their names but with the order of letters. (S, L) 3 min.

•Then students have to find the names of them from the list and write down the correct letter to the handout. (R) 10 min

•**While-** The recording is played. Students must listen and choose the correct answer. (L) 4 min

•**Post-** the recording is played once and for the second time teacher checks students answers together by discussion whether their answers are right or wrong. (L, S, R) 8 min

Reading activity

•**Pre-** the teacher gives a topic to students and one word related to sports in every sentence is written wrongly by changing the orders of letters such as TENNIS- ISENTN. It may seem challenging to students until they understand the meaning of every single sentence. They can easily follow the instruction because sentences are proper to their level. (R) 5 min

•**While-** the teacher asks students to read the words according to the meaning of the sentences and they may discuss the answers as well. (R, S) 10 min

•**Post-** the teacher tells the right answers to the students. (S, R) 3 min

Speaking activity

•**Pre-** students are asked to continue the idea of IF I WERE GIVEN A CHANCE OF CHOOSING sports' types, I would be Student have to talk about a type of sports which they chose and explain the reason/s by their speech. (S) 15 min

•**While-** teacher give information about the benefits and drawbacks of different sport types then they can choose easily. (S) 7 min

•**Post-** students are controlled by a teacher and asks some questions about their choices. Another group members also may face to ask some questions if they have/want. (S) 10 min

Writing

•**Pre-** teacher requires students to write about their lovely successful person in Sports by describing him/her and teacher explains how to write it. (W, L, S) 5 min

•**While-** the questions are given to students in order to take place the process as as fast as possible. "Who is he/she", "What is her/his sports type", "How long have you known him/her", "Why do you prefer/love/like him/her" "Describe the person's appearance" (S, L W) 15 min

• **Post-** after they have finished to write an essay about their favourite sports players, they can exchange the essays with peers or other group members in order to aware of different players. (S) 10 min

Conclusion: Although writing is a difficult skill for many students, I have tried to make it as easy as possible. That is, I left the tactic of writing by not only giving a topic for writing, but also by answering special questions for the topic, that is, writing. Special questions will be asked and students will write an essay based on their level. This is one of the best ways for writing for students of any level. Also, after writing, exchanging ideas with other students greatly contributes to their logical idea improvement.

The questions are very easy as they are intended to be answered by students of any level. From this, writing essays makes them adapt their ideas to the frame as well as writing academic essays. I recommend my ISERA method to my students and it can help them a lot. That is, here I - idea S-supporting sentence E-example R-result A- alternative. As Chamot (2007) emphasized the teacher might assign the same version to all students, but then provide different sets of comprehension questions so that some students would answer literal comprehension questions, others could also answer inferential questions, and the most proficient readers would, in addition, respond to questions requiring analysis and critical thinking.

REFERENCES:

1. Linse, C.T. (1993). Assessing student needs. In Italiano, G., & Rounds, P. (Eds). *English as a Second Language curriculum resource handbook. A practical guide for K–12 ESL programs* (pp. 35-48). Kraus International Publications.
2. Viana, V., Bocorny, A. E. P., & Sarmento, S. (2019). *Teaching English for Specific Purposes*. TESOL Press.
3. Rubin, J., Chamot, A. U., Harris, V., & Anderson, N. J. (2007). Intervening in the use of strategies. In A. D. Cohen & E. Macaro (Eds.), *Language learner strategies* (pp.141–160). Oxford, UK: Oxford University Press.
4. Subban, P. (2006). A research basis supporting differentiated instruction. Retrieved from <http://www.aare.edu.au/06pap/sub06080.pdf>
5. Tomlinson, C. (2003). *Fulfilling the promise of the differentiated classroom: Tools and strategies for responsive teaching*. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.
6. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London: Longman, 1985.
7. Swan, M. *Practical English Usage*. Oxford: Oxford University Press, 2005.
8. Azar, B. S. *Understanding and Using English Grammar*. Pearson Education, 2002.
9. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press, 2003.
10. Ionin, T. "Article Semantics in Second Language Acquisition." *Second Language Research*

UO'K 37.036:004.8

SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

A.A.Raxmatov, PhD, v.b. dots., Shahrizabz davlat pedagogika instituti, Shahrizabz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida generativ sun'iy intellekt vositalarining g'oya yaratish, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish, vizual va matnli mahsulotlar tayyorlash, ijodiy loyihalarni takomillashtirish hamda talabalarga individual tavsiyalar berishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Maqolada "inson g'oyasi – sun'iy intellekt yordami – tanqidiy tahlil – ijodiy takomillashtirish – refleksiya" bosqichlariga asoslangan metodik model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, generativ sun'iy intellekt, ijodkorlik, ijodiy tafakkur, oliy ta'lim, talaba, mustaqil fikrlash, innovatsion texnologiya, raqamli ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности развития творческих способностей студентов высших учебных заведений с использованием технологий искусственного интеллекта. В ходе исследования были проанализированы педагогические возможности генеративных инструментов искусственного интеллекта в генерации идей, рассмотрении проблем с разных точек зрения, создании визуальных и текстовых продуктов, улучшении творческих проектов и предоставлении индивидуальных рекомендаций студентам. В статье предлагается методическая модель, основанная на этапах «идея

человека – помощь искусственного интеллекта – критический анализ – творческое совершенствование – рефлексия».

Ключевые слова: искусственный интеллект, генеративный искусственный интеллект, креативность, креативное мышление, высшее образование, студент, независимое мышление, инновационные технологии, цифровое образование.

Abstract. This article examines the possibilities of developing the creative abilities of students of higher educational institutions through the use of artificial intelligence technologies. The study analyzed the pedagogical potential of generative AI tools in generating ideas, approaching problems from different perspectives, creating visual and textual products, improving creative projects, and providing individual recommendations to students. The article proposes a methodological model based on the stages of "human idea - artificial intelligence assistance - critical analysis - creative improvement - reflection".

Keywords: artificial intelligence, generative artificial intelligence, creativity, creative thinking, higher education, student, independent thinking, innovative technology, digital education.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jarayonlarning tez o'zgarishi mutaxassisdan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki yangi g'oyalarni ilgari surish, muammolarni noodatiy usulda hal etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab qilmoqda. Shu sababli talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta'limning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Ijodkorlik shaxsning yangi va amaliy ahamiyatga ega g'oyalarni yaratishi, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chira olishi hamda muammoga bir necha nuqtayi nazardan yondashishida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ChatGPT, Gemini, Copilot, Claude, Midjourney, DALL-E va boshqa generativ sun'iy intellekt vositalarining ommalashuvi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirdi. Mazkur vositalar matn yaratish, tasvir tayyorlash, dastur kodi yozish, ma'lumotlarni tahlil qilish, loyiha g'oyalarini taklif etish hamda foydalanuvchining savollariga tezkor javob qaytarish imkoniyatiga ega. Biroq sun'iy intellektning mavjudligi o'z-o'zidan talabaning ijodkorligini rivojlantirmaydi. Uning pedagogik samarasi topshiriqning mazmuni, o'qituvchining metodik rahbarligi, talabaning mustaqil ishtiroki va yaratilgan natijani tanqidiy baholash darajasiga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat va nazariy-tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Sun'iy intellekt, oliy ta'lim, ijodiy tafakkur, inson va sun'iy intellekt hamkorligi masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda pedagogik manbalar o'rganildi. Manbalarni tanlashda ularning ilmiyligi, mavzuga bevosita aloqadorligi va oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyati hisobga olindi.

Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlari to'rtta asosiy mezon bo'yicha talqin qilindi. Birinchi mezon – g'oyalar ravonligi, ya'ni muayyan muammo bo'yicha ko'plab g'oyalar yarata olish. Ikkinchi mezon – fikrlash moslashuvchanligi, ya'ni muammoga turli yondashuvlardan qarash. Uchinchi mezon – originallik, boshqalardan farq qiluvchi yangi yechimni ilgari surish. To'rtinchi mezon – ishlab chiqilganlik, ya'ni dastlabki g'oyani mazmunan boyitish va amaliy mahsulot darajasiga yetkazish.

Tahlil jarayonida sun'iy intellektidan foydalanishga asoslangan topshiriqlar uch turga ajratildi. Birinchi tur "AI – g'oyalar generatori" bo'lib, bunda talaba dastlab muammoni mustaqil o'rganadi, keyin sun'iy intellektidan qo'shimcha variantlar so'raydi. Ikkinchi tur "AI – tanqidiy hamkor" bo'lib, sun'iy intellekt talaba g'oyasining kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatadi. Uchinchi tur "AI – mahsulot yaratish vositasi" bo'lib, talaba matn, tasvir, taqdimot, video, dastur yoki loyiha prototipini tayyorlashda undan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy tamoyili inson ijodkorligining yetakchi o'rni saqlashdan iborat. Sun'iy intellekt yakuniy muallif sifatida emas, balki g'oyalarni kengaytiruvchi, muqobil yechimlarni ko'rsatuvchi va qayta aloqa beruvchi yordamchi vosita sifatida qaraldi.

Natijalar. Tahlil natijalari sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga besh asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Birinchi yo'nalish g'oyalarni tezkor ishlab chiqish bilan bog'liq. An'anaviy mashg'ulotda talaba muayyan muammo yuzasidan bir yoki ikkita yechim bilan cheklanib qolishi mumkin. Generativ sun'iy intellekt esa bir savolning bir necha variantdagi javoblarini taklif qiladi. Talaba ushbu variantlarni qiyoslash, birlashtirish, rad etish yoki qayta ishlash orqali fikrlash doirasini kengaytiradi. Bunda asosiy talab – sun'iy intellekt bergan javobni tayyor mahsulot sifatida qabul qilmaslikdir.

Ikkinchi yo'nalish muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishdir. Masalan, ekologik muammoni iqtisodchi, pedagog, muhandis, dizayner yoki mahalliy aholi nuqtayi nazaridan tahlil qilish topshirig'i berilishi mumkin. Sun'iy intellekt turli rollarni modellashtirishga yordam beradi. Natijada talaba muammoning faqat bitta jihatiga bog'lanib qolmaydi va yechimning ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy hamda texnologik oqibatlarini hisobga olishni o'rganadi.

Uchinchi yo'nalish ijodiy to'siqlarni kamaytirishdir. Ayrim talabalar topshiriqni qanday boshlashni bilmagani yoki xato qilishdan qo'rqqani uchun o'z fikrlarini erkin ifodalay olmaydi. Sun'iy intellekt bilan savol-javob qilish dastlabki reja, tayanch tushuncha yoki namuna olish imkonini beradi. Bu esa talabaning ijodiy faoliyatga kirishishini osonlashtiradi. Biroq berilgan namuna chegarasida qolib ketmaslik uchun o'qituvchi talabaning kamida bitta mustaqil va noodatiy yechim yaratishini talab qilishi lozim.

To'rtinchi yo'nalish individual qayta aloqani tashkil etishdir. O'qituvchining har bir talabaga doimiy ravishda batafsil tavsiya berish imkoniyati cheklangan. Sun'iy intellekt talaba yaratgan matn yoki loyiha bo'yicha tezkor savollar, tahrir variantlari va takomillashtirish yo'nalishlarini taklif qilishi mumkin. Talaba sun'iy intellekt tavsiyalarining qaysi biri asosli ekanini tekshiradi va yakuniy qarorni mustaqil qabul qiladi. Bu jarayon metakognitiv ko'nikmalar, ya'ni o'z fikrlash faoliyatini kuzatish va baholash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Beshinchi yo'nalish fanlararo ijodiy faoliyatni kengaytirishdir. Generativ sun'iy intellekt yordamida pedagogika yo'nalishidagi talaba interaktiv dars ssenariysi, iqtisodiyot talabasi biznes g'oya, axborot texnologiyalari talabasi dastur prototipi, filologiya talabasi badiiy matn, dizayn talabasi esa vizual konsepsiya yaratishi mumkin. Bitta loyiha doirasida bir necha fan bilimlarining integratsiyasi ijodiy fikrlashning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Muhokama. Olingan natijalar generativ sun'iy intellekt ijodkorlikni avtomatik ravishda shakllantirmasligi, ammo to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda kuchli ijodiy yordamchi vazifasini bajarishini ko'rsatadi. Habib va hammualliflarning tadqiqotida ham generativ sun'iy intellektidan foydalanish talabalarining kreativ fikrlashiga ijobiy ta'sir qilishi, biroq natija topshiriqning tuzilishi va talabalar ishtirokinining faol darajasiga bog'liqligi qayd etilgan.

Sun'iy intellekt bilan ijodiy hamkorlikning asosiy afzalligi – g'oya yaratish jarayonining tezlashishidir. Talaba qisqa vaqt ichida ko'plab variantlar bilan tanishib, ulardan maqsadga muvofiqlarini tanlaydi. Lekin g'oyalar sonining ko'payishi ularning barchasi original yoki sifatli ekanini anglatmaydi. Sun'iy intellekt mavjud ma'lumotlar va takrorlanuvchi qoliplar asosida javob yaratgani sababli, uning takliflarida umumiylik va stereotiplar uchrashi mumkin.

Shu sababli talabaning ijodkorligini faqat yakuniy mahsulotga qarab baholash yetarli emas. Baholash jarayonida dastlabki g'oya, so'rovlar tarixi, rad etilgan variantlar, kiritilgan o'zgartirishlar va refleksiv izoh ham hisobga olinishi zarur. Baholash mezonlariga g'oyaning originalligi, muammoni hal qilish darajasi, dalillarning ishonchligi, mualliflik hissasi va sun'iy intellektidan mas'uliyatli foydalanish kiritilishi maqsadga muvofiq.

Sun'iy intellekt vositalarini taqiqlashdan ko'ra, ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish samaraliroq hisoblanadi. O'qituvchi axborot yetkazib beruvchi yagona manbadan ijodiy faoliyat tashkilotchisi, maslahatchi va ekspert roliga o'tadi. Talaba esa tayyor javob oluvchi emas, balki savol qo'yuvchi, natijani tekshiruvchi, tanlovni asoslovchi va yangi mahsulot yaratuvchi subyektga aylanadi.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'limda talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Ular g'oyalar yaratishni tezlashtiradi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishga yordam beradi, individual qayta aloqa taqdim etadi, ijodiy to'siqlarni kamaytiradi hamda fanlararo loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Biroq sun'iy intellektning ijobiy ta'siri undan qanday foydalanishga bog'liq. Tayyor javoblarni ko'chirib olishga qaratilgan faoliyat ijodkorlikni rivojlantirmaydi, aksincha, mustaqil fikrlashning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellekt talabaning o'rnini bosadigan vosita emas, balki uning fikrini kengaytiradigan ijodiy hamkor sifatida qo'llanilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.Sh. Nurmamatov Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik o'quv qo'llanma .-T.: "O'zbeksavdonashriyoti" NMIU - 2026. -260 b
2. A.A. Raxmatov Texnik ijodkorlik va dizayn o'quv qo'llanma T.: "O'zbeksavdonashriyoti" NMIU - 2025. - 197 b
3. UNESCO IESALC. ChatGPT and Artificial Intelligence in Higher Education: Quick Start Guide. – Caracas: UNESCO IESALC, 2023. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385146>.
4. Vincent-Lancrin S., González-Sancho C., Bouckaert M., de Luca F., Fernández-Barrerra M., Jacotin G., Urgel J., Vidal Q. Fostering Students' Creativity and Critical Thinking: What It Means in School. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 350 p. DOI: <https://doi.org/10.1787/62212c37-en>.
5. Vincent-Lancrin S., van der Vlies R. Trustworthy Artificial Intelligence in Education: Promises and Challenges // OECD Education Working Papers. – 2020. – No. 218. DOI: <https://doi.org/10.1787/a6c90fa9-en>.
6. Lo C.K. What Is the Impact of ChatGPT on Education? A Rapid Review of the Literature // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, No. 4. – Article 410. DOI: <https://doi.org/10.3390/educsci13040410>.
7. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., Dementieva D., Fischer F. et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // Learning and Individual Differences. – 2023. – Vol. 103. – Article 102274. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274>.

UDC 37.016:81'24:159.955

CRITICAL-CREATIVE THINKING AND DESIGN IN LANGUAGE LEARNING

N.I.Salikhova, research scholar, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. *Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy til ta'limining muhim maqsadlaridan biriga aylandi. An'anaviy til o'qitish jarayonida ko'pincha grammatik aniqlik, lug'at boyligini oshirish va ma'lumotlarni qayta takrorlashga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim yondashuvlari o'quvchilardan axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, original g'oyalarni ilgari surish, muammolarni hal etish hamda real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilishni talab etmoqda. Ushbu maqolada til o'rganish jarayonida tanqidiy-ijodiy fikrlash va dizayn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv sifatida dizayn tafakkuriga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada til darslari lingvistik kompetensiyalar bilan bir qatorda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini ham bir vaqtning o'zida rivojlantiruvchi ta'lim muhitiga aylanishi mumkinligi asoslab beriladi. Empatiya, muammoni aniqlash, g'oyalarni ishlab chiqish, prototiplash, sinovdan o'tkazish va refleksiya kabi dizayn tafakkuri bosqichlari o'quvchilarga tilni muammolarni o'rganish, tahlil qilish hamda mazmunli va samarali yechimlarni yaratish vositasi sifatida qo'llash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, dizayn tafakkuri, til o'rganish, ingliz tilini o'qitish, yuqori darajadagi fikrlash, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim dizayni.*

Аннотация. *Развитие критического и творческого мышления стало одной из важных целей современного языкового образования. Традиционное обучение языку зачастую было ориентировано преимущественно на грамматическую правильность, расширение словарного запаса и воспроизведение информации, тогда как современные образовательные подходы всё в большей степени требуют от обучающихся умения анализировать информацию, оценивать доказательства, генерировать оригинальные идеи, решать проблемы и эффективно общаться в аутентичных жизненных ситуациях. В данной статье рассматривается взаимосвязь критико-творческого мышления и дизайна в процессе изучения языка, при этом особое внимание уделяется дизайн-мышлению как личностно-ориентированному педагогическому подходу. В статье обосновывается положение о том, что языковые занятия могут стать образовательной средой, в которой языковые навыки и мышление высокого порядка развиваются одновременно. Такие этапы дизайн-мышления, как эмпатия, определение проблемы, генерация идей, прототипирование, тестирование и рефлексия,*

предоставляют обучающимся возможность использовать язык как инструмент исследования проблем и создания содержательных и эффективных решений.

Ключевые слова: критическое мышление, творческое мышление, дизайн-мышление, изучение языка, преподавание английского языка, мышление высокого порядка, личностно-ориентированное образование, педагогический дизайн.

Abstract. The development of critical and creative thinking has become an important objective of contemporary language education. Traditional language instruction has often emphasized grammatical accuracy, vocabulary acquisition, and reproduction of information, whereas modern educational approaches increasingly require learners to analyze information, evaluate evidence, generate original ideas, solve problems, and communicate effectively in authentic contexts. This article examines the relationship between critical-creative thinking and design in language learning, with particular attention to design thinking as a learner-centred pedagogical approach. The article argues that language classrooms can become environments in which linguistic development and higher-order thinking develop simultaneously. Design thinking processes such as empathy, problem definition, ideation, prototyping, testing, and reflection provide opportunities for learners to use language as a tool for investigating problems and creating meaningful solutions.

Keywords: critical thinking, creative thinking, design thinking, language learning, English language teaching, higher-order thinking, learner-centred education, instructional design.

Introduction. The introduction of new subjects at university level requires attention to students' academic needs, previous educational experiences, and the competencies required for successful study and future professional development. Critical-creative thinking and design in language learning can be introduced as an interdisciplinary subject for first-year university students because it develops language proficiency together with the thinking skills needed for communication, academic learning, and problem solving. Combining critical-creative thinking with design-oriented pedagogy can make language learning more meaningful, autonomous, collaborative, and future-oriented. Research discussed in this study indicates positive relationships between design thinking and student learning, while second-language research shows that exploratory dialogue and appropriately designed tasks can foster critical thinking. Effective implementation, however, depends on scaffolding, teacher preparation, assessment criteria, and thoughtful use of technology.

First-year students enter university with different levels of language knowledge and learning experience. Previous education may have emphasized memorizing vocabulary, learning grammatical rules, reproducing information, and finding predetermined answers. These skills remain important, but university study also requires students to ask meaningful questions, analyze information, compare viewpoints, evaluate evidence, express opinions, solve problems, and develop original ideas. Language, thinking, creativity, and problem solving are therefore closely connected: when learners communicate in a foreign language, they interpret information, make decisions, explain ideas, respond to others, negotiate meaning, and construct knowledge. Language classes can consequently serve as an effective environment for higher-order thinking.

Critical thinking enables learners to examine information, identify assumptions, distinguish facts from opinions, consider alternative perspectives, and make reasoned judgments. Creative thinking encourages them to generate ideas, explore possibilities, experiment with language, and develop original solutions. For first-year students, the course can begin with basic questions about thinking, critical and creative thinking, design thinking, and the role of language in creating and solving problems. Its central pedagogical sequence may be expressed as: Think → Question → Explore → Create → Evaluate → Improve → Communicate. This movement helps students shift from passive reception toward investigation, creation, collaboration, and reflection, supporting the transition from school-based learning to more independent university study.

Critical-Creative Thinking and Design Thinking in Language Learning. Contemporary language learning is not limited to vocabulary, grammar, and predetermined structures. Learners are expected to communicate accurately while also interpreting information, questioning assumptions, evaluating perspectives, making decisions, solving problems, and creating meaning. Critical thinking

includes interpretation, analysis, evaluation, inference, explanation, self-regulation, reasoned judgment, and reflection. Creative thinking involves generating, developing, and transforming ideas in novel and meaningful ways. These processes support one another: creativity produces possibilities, while critical thinking helps learners examine, refine, and communicate those possibilities.

Design thinking provides a practical framework for combining these abilities with language use. In the empathy stage, learners explore the experiences, needs, and perspectives of others, for example by interviewing classmates about difficulties in learning English. Defining the problem then turns broad observations into a manageable challenge, such as finding ways to increase confidence when speaking English outside the classroom. Ideation encourages learners to produce several possible solutions through brainstorming, mind maps, discussion, and “what if?” questions. Prototyping transforms an idea into a product that can be examined, such as a poster, podcast script, video concept, language-learning game, website plan, presentation, dialogue, or classroom activity. Testing and reflection require learners to receive feedback, identify weaknesses, revise their work, and explain decisions. Across these stages, English functions not only as a subject of study but also as a tool for inquiry, creation, evaluation, and communication.

Designing Language-Learning Tasks for Higher-Order Thinking. The effectiveness of design-oriented learning depends greatly on task design. Speaking is especially demanding because learners may know grammar and vocabulary yet still struggle to use English effectively in real communication. Tasks should therefore be open enough to allow different solutions but structured enough to provide clear objectives. A closed question such as “What is the definition of pollution?” mainly tests recall, whereas a task such as “Your school wants to reduce plastic waste. Design a campaign that would persuade students to change their behaviour” requires research, discussion, vocabulary selection, persuasive reasoning, decision-making, and production of a final outcome. The same principle can be applied across skills: reading tasks may ask students to compare sources and judge reliability; listening tasks may focus on different perspectives and the strength of arguments; speaking may use problem-solving scenarios; and writing may require proposals, evaluation of alternatives, or solutions for authentic audiences.

Collaboration, Dialogue, and Reflection. Collaborative learning is central to critical-creative language education because design problems rarely have only one correct answer. Students must explain ideas, listen to alternative perspectives, negotiate decisions, and reach agreements, creating authentic reasons for communication. Group discussion also makes thinking visible: when learners justify a solution, they organize their reasoning and use language to support decisions. Peer feedback exposes them to different perspectives and encourages evaluation.

Reflection is equally important. After a project, learners can consider what they learned, which decisions were difficult, what evidence influenced the solution, what they would change, and how their ideas developed. Such questions support metacognition, or the ability to think about one’s own learning and decision-making. Structured dialogue, questioning, reflection, and peer feedback can therefore strengthen both critical and reflective thinking in EFL contexts.

The Role of Technology and Artificial Intelligence. Digital technologies expand opportunities for critical-creative language learning by allowing learners to collaborate online, create multimedia products, access diverse sources, and communicate beyond the classroom. Digital innovation has also influenced English Language Teaching, including speaking development, where traditional classrooms may be limited by instructional time, learner anxiety, and lack of individualized feedback.

Technology, however, should remain a means rather than an educational objective. Generative artificial intelligence can support brainstorming, language feedback, idea development, and interaction, but uncritical acceptance of generated answers may reduce learners’ own cognitive engagement. Its influence on critical and creative thinking therefore depends on instructional design. Teachers should ask students to evaluate, question, compare, verify, revise, and critically respond to AI-generated material. Learners might compare two AI explanations, identify weaknesses, verify claims using reliable sources, and produce an improved version. In this approach, AI becomes both a creative tool and an object of critical analysis.

Challenges for Teachers and Learners. Integrating critical-creative thinking and design into language education also creates challenges. Teachers need sufficient knowledge of task design and higher-order thinking because a lesson does not become creative merely by adding group work; the cognitive demands of the task must be deliberate. Time is another constraint, since design projects require investigation, discussion, creation, feedback, and revision. Assessment can also be difficult because traditional language tests often emphasize accuracy and predetermined answers, whereas critical and creative tasks may produce several valid outcomes. Assessment criteria should therefore consider language performance together with reasoning, evidence, originality, collaboration, reflection, and revision.

Learners may initially feel uncomfortable with open-ended tasks if they are accustomed to fixed instructions and predetermined answers. Scaffolding, models, guiding questions, vocabulary support, and clear assessment criteria can make the transition more manageable. A 2026 systematic review cited in the original study reported generally positive associations between design thinking and creativity, problem solving, critical thinking, engagement, and learner ownership, while emphasizing that outcomes vary by implementation, context, discipline, and learner characteristics. Design thinking should therefore be treated as a flexible pedagogical approach rather than a universal formula.

Conclusion. Critical-creative thinking and design are increasingly important in modern language learning. Language education should develop not only grammar, vocabulary, and accuracy but also the ability to analyze information, evaluate ideas, solve problems, and create original solutions. Critical thinking supports questioning, comparison of perspectives, evidence use, and informed decision-making, while creative thinking supports imagination, flexibility, and idea generation. Design thinking connects these dimensions through empathy, problem definition, ideation, prototyping, testing, and reflection, enabling learners to communicate meaningfully while developing analytical reasoning, creativity, collaboration, decision-making, and problem-solving skills.

The educational value of design-oriented approaches depends on careful implementation. Language lessons should move beyond simple reproduction of information by giving students meaningful problems, authentic audiences, opportunities to make decisions, and freedom to develop and revise ideas. Technology and AI can strengthen this process when used purposefully and reflectively. Ultimately, integrating critical-creative thinking and design can transform the language classroom from a place where learners mainly practise language into an environment where they use language to think, design, solve problems, create, and participate meaningfully in the world.

REFERENCES:

1. Beckman, S. L., & Barry, M. (2007). Innovation as a learning process: Embedding design thinking. *California Management Review*, 50(1), 25–56.
2. Facione, P. A. (1990). Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction. The Delphi Report. American Philosophical Association.
3. Li, L. (2016). Integrating thinking skills in foreign language learning: What can we learn from teachers' attitudes? *Thinking Skills and Creativity*, 22, 273–288.
4. Pande, M., & Bharathi, S. V. (2020). Theoretical foundations of design thinking—A constructivism learning approach to design thinking. *Thinking Skills and Creativity*, 36, 100637.
5. Retna, K. S. (2016). Thinking about “design thinking”: A study of teacher experiences. *Asia Pacific Journal of Education*, 36(sup1), 5–19.
6. Rowe, P. G. (1987). *Design Thinking*. MIT Press.
7. Salikhova N.I., The use of innovative technologies in developing students' oral communication skill. *Houghton Street Review journal*, London. ISSN: 2058-5519. <http://houghtonstreetreview.com/index.php.hsr> 2026
8. Salikhova N.I., Digital Innovation in English Language Teaching: A Focus on Speaking Skills. 2026.
9. Salikhova N.I., Enhancing speaking skills in English language learning: pedagogical approaches and future directions. *Innovations in science and education system. Ethiopian international multidisciplinary research conferences. Dehli – 2025.*, <http://ejmr.org/conferences/>
9. Salikhova N.I., Enhancing speaking skills in English language learning: pedagogical approaches and future directions. *Innovations in science and education system. Ethiopian international multidisciplinary research conferences. Dehli – 2025.*, <http://ejmr.org/conferences/>
12. Zhang, X. (2026). *Cultivating critical thinking in college English teaching: A study on task-based teaching method*. SAGE Open.

13. Chen, H. (2025). Analysis of the coupling effect between critical thinking and interdisciplinary language learning: A study on the mechanism of action based on college English teaching. SAGE Open.

14. Nurmasyitah, Sukarmin, & Yamtinah, S. (2026). Mapping research on design thinking as an instructional approach in critical thinking studies: A bibliometric analysis (2015–2024). Discover Education, 5, 405.

15. Abibullakzy, A., Poshayev, A., Uzakhova, A., Baibatshayeva, A., & Bitemirova, A. (2026). The role of design thinking in enhancing students' creative thinking: A narrative review. Frontiers in Education.

UO'K 159.9:37.015.3

O'QUVCHILAR TAFAKKUR JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI PSIXOKORREKSION DASTURLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK NATIJALARI

Sh.R.Samarova, dots., Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Mazkur maqolada 7-9 sinf o'quvchilar tafakkur jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixokorreksion dasturlarning pedagogik-psixologik natijalari tahlil qilingan. O'smirlik davrida fikrlash jarayonlarining rivojlanishi shaxsning intellektual kamoloti, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, fikrlash jarayonlari, psixokorreksiya, psixodiagnostika, refleksiya, tizimli fikrlash, sababiy tahlil, integrativlik, prognozlash, kognitiv rivojlanish, psixokorreksion dastur, pedagogik-psixologik samaradorlik.

Аннотация. В данной статье с психолого-педагогической точки зрения проанализирована эффективность психокоррекционных программ, направленных на развитие процессов мышления учащихся 7–9 классов. Развитие процессов мышления в подростковом возрасте выступает важным психологическим фактором, определяющим интеллектуальное становление личности, успешность учебной деятельности, социальную адаптацию, принятие решений в проблемных ситуациях и будущую профессиональную направленность.

Ключевые слова: подростковый возраст, процессы мышления, психокоррекция, психодиagnostika, рефлексия, системное мышление, каузальный анализ, интегративность, прогнозирование, когнитивное развитие, психокоррекционная программа, психолого-педагогической эффективность.

Abstract. This article analyzes, from a pedagogical-psychological perspective, the effectiveness of psychocorrectional programs aimed at developing the thinking processes of 7th–9th grade students. The development of thinking processes during adolescence manifests as an important psychological factor determining an individual's intellectual maturation, academic achievement, social adaptation, decision-making in problem situations, and future professional orientation.

Key words: adolescence, thinking processes, psychocorrection, psychodiagnosis, reflection, systemic thinking, causal analysis, integrativity, predictive thinking, cognitive development, psychocorrectional program, pedagogical-psychological effectiveness.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni tayyor shaklda o'zlashtirishi yetarli natija bermaydi, chunki bugungi axborotlashgan jamiyat shaxsdan mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammoni turli tomonlama baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda o'z faoliyati natijalarini ongli ravishda tahlil qila olishni talab etmoqda. Shu jihatdan o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish maktab ta'limining eng muhim psixologik va pedagogik vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Ayniqsa, 7–9-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan psixologik ishlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yosh davri o'smirlik bosqichiga to'g'ri kelib, bu davrda shaxsning bilish jarayonlari, refleksiv qobiliyatlari, emotsional-irodaviy xususiyatlari, motivatsion sohasi va ijtimoiy munosabatlar tizimi faol qayta shakllanadi. O'smir endi oddiy eslab qolish va takrorlashga asoslangan o'quv faoliyatidan mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqliklarini anglash, o'z fikrini dalillash, muammoni mustaqil hal qilish va kelajakdagi oqibatlarni oldindan ko'ra olish darajasiga o'tadi.

Shu bois o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash yosh va pedagogik psixologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Psixokorreksion dasturlar faqat mavjud kamchiliklarni bartaraf etish vositasi emas, balki o'quvchilarning intellektual salohiyatini, mustaqil fikrlashini, refleksiv tahlilini, ijtimoiy faolligini va o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi tizimli pedagogik-psixologik ta'sir mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Fikrlash jarayonlari psixologiyada shaxsning bilish faoliyatining eng murakkab shakli sifatida talqin qilinadi. Fikrlash orqali inson voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki bog'liqliklarni anglaydi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi, yangi xulosalar chiqaradi hamda o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradi. O'quvchi fikrlashining rivojlanishi uning o'quv muvaffaqiyati, mustaqil qaror qabul qilishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

L.S. Vigotskiy fikrlash va nutqning uzviy bog'liqligini asoslab, bolaning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muloqot, madaniy vositalar va ta'limiy ta'sir orqali shakllanishini ta'kidlagan. J. Piaje o'smirlik davrida formal-operatsional fikrlashning rivojlanishini ko'rsatib, bu yoshda bola mavhum tushunchalar bilan ishlash, taxminlar ilgari surish va mantiqiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishini asoslagan. A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteyn esa fikrlashni faoliyat, motiv, maqsad va shaxsiy tajriba bilan bog'liq holda tushuntirganlar.

Pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan o'quvchilarning fikrlash jarayonlari ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, o'quv motivatsiyasi, pedagogik muloqot, baholash madaniyati, mustaqil topshiriqlar va refleksiv faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Demak, fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur faqat psixologik mashqlar majmui sifatida emas, balki ta'limiy, motivatsion, kommunikativ va refleksiv ta'sirlarning uyg'un tizimi sifatida tashkil etilishi zarur.

O'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur tizimli, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan tarzda ishlab chiqilishi lozim. Bunday dasturda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual-psixologik imkoniyatlari, emotsional holati, o'quv motivatsiyasi va refleksiv rivojlanish darajasi hisobga olinadi.

Dastur mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: tizimli fikrlashni rivojlantirish, sababiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish, integrativ fikrlashni kuchaytirish, prognozlash qobiliyatini rivojlantirish, refleksiv tahlilni shakllantirish, emotsional-irodaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va o'quv motivatsiyasini faollashtirish.

Tizimli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarga muammoni alohida qismlar emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit tizim sifatida ko'rishga yordam beruvchi topshiriqlar beriladi. Sababiy tahlilni rivojlantirishda o'quvchilar voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab va oqibat munosabatlarini aniqlashga, dalillarni farqlashga, asoslangan xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Integrativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo bog'liqlik, hayotiy tajriba va o'quv materiallarini birlashtirish orqali kengroq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Prognozlash mashqlarida esa o'quvchilar mavjud ma'lumotlar asosida ehtimoliy natijalarni oldindan ko'ra olish, qaror oqibatlarini taxmin qilish va mas'uliyatli tanlov qilishga yo'naltiriladi.

Refleksiv mashqlar psixokorreksion dasturning markaziy tarkibiy qismi sifatida qaraladi, chunki o'quvchi o'z fikrlash jarayonini anglamas ekan, uning fikrlash sifatini ongli ravishda rivojlantirish qiyin kechadi. Shu sababli dasturda o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv savollar, "men qanday fikrladim?", "qayerda xatoga yo'l qo'ydim?", "boshqa qanday yechim bo'lishi mumkin edi?" kabi tahliliy savollar asosida ishlash muhim ahamiyatga ega.

Psixokorreksion dastur samaradorligini ta'minlash uchun uni bir necha izchil bosqich asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich diagnostik bosqich bo'lib, unda o'quvchilarning fikrlash jarayonlari, refleksiya darajasi, o'quv motivatsiyasi, emotsional-irodaviy holati va individual-psixologik xususiyatlari aniqlanadi. Bu bosqich dastur mazmunini o'quvchilarning real ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich motivatsion-tayyorlov bosqichi bo'lib, unda o'quvchilarda psixokorreksion mashg'ulotlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi, fikrlashni rivojlantirishning shaxsiy muvaffaqiyat va kelajakdagi imkoniyatlar bilan bog'liqligi tushuntiriladi.

Uchinchi bosqich rivojlantiruvchi-korreksion bosqich bo'lib, bu bosqichda tizimli, sababiy, integrativ, prognozli va refleksiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, muammoli vaziyatlar, guruhiy munozaralar, keys topshiriqlar va mantiqiy tahlil mashg'ulotlari tashkil etiladi.

To'rtinchi bosqich mustahkamlovchi bosqich bo'lib, unda o'quvchilarning egallagan fikrlash ko'nikmalari o'quv faoliyati, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muloqot jarayonida qo'llaniladi.

Beshinchi bosqich yakuniy baholash bosqichi bo'lib, unda dasturdan oldingi va keyingi natijalar qiyosiy tahlil qilinadi, psixokorreksion ta'sirning samaradorligi aniqlanadi hamda keyingi amaliy ishlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlarning samaradorligini aniqlashda bir nechta mezonlarga tayanish zarur. Birinchi mezon o'quvchilarning tizimli fikrlash darajasidagi ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bunda o'quvchining muammoni yaxlit ko'ra olishi, elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishi va xulosani tizimli asoslay olishi baholanadi.

Ikkinchi mezon sababiy tahlil ko'nikmalarining rivojlanishidir. Bu mezon o'quvchining voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, dalillarni ajratishi va asoslangan xulosa chiqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Uchinchi mezon integrativ fikrlashning rivojlanishi bo'lib, bunda o'quvchining turli fanlar, bilimlar, tajribalar va ijtimoiy vaziyatlarni o'zaro bog'lay olishi hisobga olinadi.

To'rtinchi mezon prognozlash qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining mavjud ma'lumotlar asosida ehtimoliy natijalarni oldindan ko'ra olishi, qaror oqibatlarini taxmin qilishi va muqobil variantlarni baholashi orqali aniqlanadi.

Beshinchi mezon refleksiya darajasining oshishi hisoblanadi. Refleksiv rivojlanish o'quvchining o'z fikrlash jarayonini anglay olishi, xatolarini tahlil qilishi, o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishi va o'z faoliyatini mustaqil baholashi bilan belgilanadi.

Oltinchi mezon o'quv motivatsiyasining kuchayishi bo'lib, o'quvchining bilishga qiziqishi, mustaqil izlanishga moyilligi, savol berish faolligi va o'z fikrini asoslashga intilishi orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa. O'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dasturlar yosh va pedagogik psixologiyaning muhim amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 7–9-sinf o'quvchilarida fikrlash jarayonlarini samarali rivojlantirish uchun tizimli, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan psixokorreksion dasturlar zarur.

Bunday dasturlar o'quvchilarda tizimli fikrlash, sababiy tahlil, integrativ yondashuv, prognozlash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Psixokorreksion ta'sir samaradorligi o'quvchining kognitiv rivojlanishi bilan bir qatorda, uning motivatsiyasi, emotsional-irodaviy barqarorligi, o'ziga ishonchi va ta'limiy muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bois maktab psixologi, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligida tashkil etilgan psixokorreksion dasturlar o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy, refleksiv va prognozli fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, maxsus diagnostik mezonlar va psixokorreksion texnologiyalarni takomillashtirish kelgusidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
3. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
5. Elkonin D.B. Yosh davrlari psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001.
6. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1968.
7. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
8. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
10. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: TDPU, 2017.

XIX ASRDA XIVA VA QO'QON XONLIKLARI O'RTASIDAGI SIYOSIY-DIPLOMATIK MUNOSABATLARNI TARIX TA'LIMIDA O'RGATISH METODIKASI**A.T.Teshayev, o'qituvchi, p.f.f.d., Buxoro innovatsiyalar universiteti, Buxoro**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi XIX asr siyosiy-diplomatik munosabatlari misolida ushbu tarixiy mavzuni umumta'lim va oliy ta'lim tizimida o'rgatish metodikasi masalalari yoritiladi. Elchilik maktublari, arxiv va tarixiy asarlardan olingan asl manbalar asosida o'quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash, manbashunoslik ko'nikmalari va tarixiy tahlil qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar taklif etiladi. Tadqiqotda muammoli-izlanuvchi va manba tahliliga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Tayanch so'zlar: tarix ta'limi metodikasi, manbashunoslik, tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, diplomatiya, xonlik, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, elchi, harbiy ittifoq.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы методики преподавания темы политико-дипломатических отношений между Хивинским и Кокандским ханствами Средней Азии в XIX веке в системе общего и высшего образования. На основе первоисточников — дипломатических писем, архивных и летописных материалов — автором предлагаются методические подходы, направленные на формирование у учащихся и студентов критического мышления, навыков источниковедческого анализа и исторического мышления. В исследовании показаны пути применения проблемно-поисковых и источниковедческих образовательных технологий при изучении данного исторического материала.

Ключевые слова: методика преподавания истории, источниковедение, критическое мышление, проблемное обучение, дипломатия, ханство, Хивинское ханство, Кокандское ханство, посол, военный союз.

Abstract. This article examines the methodology of teaching the topic of nineteenth-century political and diplomatic relations between the Khiva and Kokand khanates of Central Asia within general and higher education. Drawing on primary sources such as diplomatic letters, archival materials, and historical chronicles, the author proposes methodical approaches for developing students' critical thinking, source-analysis skills, and historical reasoning. The study demonstrates ways of applying problem-based and source-oriented educational technologies in teaching this historical material.

Key words: methodology of teaching history, source studies, critical thinking, problem-based learning, diplomacy, khanate, Khiva khanate, Kokand khanate, ambassador, military alliance.

Kirish. Zamonaviy tarix ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi va talabalarda nafaqat tarixiy voqealar haqida bilim shakllantirish, balki ularda mustaqil tahlil qilish, manbalar bilan ishlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixining XIX asrga oid davri — qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligidagi (1804-1920) Xiva, minglar sulolasi hukmronligidagi (1710-1876) Qo'qon va mang'itlar sulolasi hukmronligidagi (1747-1920) Buxoro xonliklari o'rtasidagi murakkab siyosiy-diplomatik munosabatlari mavzusi tarix ta'limida alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Ushbu davr tarixi ko'plab asl manbalar — elchilik maktublari, saroy solnomalari va zamondosh muarrixlar asarlari orqali yetib kelgani bois, uni o'quv jarayonida o'rgatishda birlamchi manbalar bilan ishlash metodikasidan foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi XIX asr boshlaridagi siyosiy-diplomatik munosabatlarini konkret misolida tarix ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun avvalo mazkur davr tarixiga oid asosiy voqealar va ularni yorituvchi manbalar qisqacha tavsiflanadi, so'ngra ularni o'quv jarayonida qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi o'zbek va xorijiy tarixshunoslikda bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Xususan,

В.М.Бабаджанов Qo'qon xonligining ichki siyosati va tashqi aloqalarini keng yoritgan bo'lsa [Бабаджанов, 48], Анке фон Кюгеллен mang'itlar sulolasi davridagi Buxoro amirligining diplomatik faoliyati va uning qo'shni xonliklar bilan munosabatlarini tahlil qilgan [Анке фон Кюгеллен, 112, 114]. Mirzo Olim Maxdum Xoji "Tarixi Turkiston" asarida Qo'qon xonligining harbiy yurishlari xronologiyasini keltiradi [Mirzo Olim Mahdum hoji, 86], K.Xudoyberganov esa Xiva xonlari tarixiga oid elchilik yozishmalarini o'rganib chiqqan [Xudoyberganov, 87]. X.G'.Гулямов tadqiqotida esa O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tahlil qilingan [Гулямов, 247-251]. Ushbu tadqiqotlar mazkur davr tarixini faktologik jihatdan yoritib bergani holda, ularda keltirilgan boy manba material — xususan, elchilik maktublari va rasmiy murojaatnomalar — tarix ta'limida amaliy mashg'ulot materiali sifatida qo'llanilishi mumkinligi masalasi alohida o'rganilmagan. Zamonaviy tarix ta'limi metodikasida esa muammoli-izlanuvchi ta'lim, manba tahliliga asoslangan o'qitish va keys-stadi usullarining o'quvchida tarixiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati keng tan olingan. Biroq mahalliy tarix ta'limi amaliyotida O'rta Osiyo xonliklari diplomatiyasiga oid asl manbalarni aynan shu maqsadda — didaktik material sifatida — qayta ishlash tajribasi hozircha yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud tarixiy va metodik qarashlarni birlashtirib, amaliy metodik takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar mavzusini tarix ta'limida o'rgatish metodikasi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, tarixiy-qiyosiy metod asosida Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga oid asl manbalar (elchilik maktublari, solnomalar) tahlil qilindi va ularning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, manbashunoslik tahlili metodi qo'llanilib, xususan, Muhammad Rahimxon I ning Umarxonga yo'llagan maktubi kabi birlamchi manbalar matni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi.

Uchinchidan, muammoli-izlanuvchi ta'lim metodidan foydalanib, xonliklararo harbiy-siyosiy ittifoqlar mavzusi asosida o'quvchilar oldiga qo'yilishi mumkin bo'lgan muammoli savollar va topshiriqlar ishlab chiqildi.

To'rtinchidan, didaktik loyihalash metodi qo'llanilib, o'rganilgan tarixiy material asosida tarix darslari va seminar mashg'ulotlari uchun namunaviy metodik tavsiyalar va mashg'ulot tuzilmasi taklif etildi. Natijada, qo'llangan metodlar majmui asosida Xiva-Qo'qon diplomatik munosabatlari mavzusi tarix ta'limining amaliy-metodik resursi sifatida talqin qilindi.

Asosiy qism. Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar mavzusini tarix ta'limida o'rgatishning metodik asoslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin.

I. Xonliklararo diplomatik jarayonlarni tarix darslarida tizimli tanishtirish. O'zbekistonda O'rta Osiyodagi davlatchilik va tashqi siyosiy jarayonlar tarixining XIX asr davrini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu davrda mintaqada uchta xonlik — qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi (1804-1920) davridagi Xiva, minglar sulolasi hukmronligi davridagi (1710-1876) Qo'qon va mang'itlar sulolasi hukmronligi davridagi (1747-1920) Buxoro amirligi mavjud bo'lgan. Tarix darsida ushbu uch davlatning parallel xronologik jadvalini tuzish, ularning sulolaviy hukmronlik davrlarini taqqoslash o'quvchida davrlashtirish va tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shundan so'ng, o'qituvchi uch xonlikning o'zaro elchilik munosabatlari masalasiga o'quvchilar e'tiborini qaratib, bu orqali ularda davlatlararo aloqalarning shakllari (elchilik, savdo, harbiy ittifoq) haqida tushuncha hosil qiladi. Xiva-Buxoro, Buxoro-Qo'qon, Xiva-Qo'qon o'rtasidagi diplomatik va savdo-sotiq aloqalarining davomiyligi, xonliklarning o'z siyosiy nufuzini oshirishga urinishlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda XIX asr mahalliy tarixchilari yaratgan tarixiy manbalardan foydalanish — masalan, ularda qaysi masalalarga asosiy e'tibor qaratilgani haqida savol-javob tashkil etish — manbashunoslik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

II. Elchilik maktubi matni asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mashg'ulotlari. Birlamchi manba matnlari bilan ishlash tarix ta'limining eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Mirzo Qalandar Mushrifning "Shohnomayi nusratpayon" asarida keltirilgan, 1821-yil may oyida

Qo'qon hukmdori Umarxon saroyiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) nomidan kelgan elchilik maktubi shu maqsadda ayni namunali material bo'la oladi. Maktubda shunday jumlar bor: "Agar men tomonga marhamat nazarlari bilan ishora qilib, sarkashligi bila ma'lum bo'lgan Buxoro podshohining ahvolini xarob qilishga amr qilsalar, agar Parvardigor o'z lutfi karami bilan madadkor bo'lsa, aminmanki, ularni tag-tugi bilan yulib tashlardim. Assalom attaqsir" [Xudoyberganov, 87]. Ushbu matnni tarix darsida o'rganishda o'quvchilarga quyidagi turdagi muammoli savollar taqdim etilishi mumkin: maktub muallifi qanday maqsadda va kimga qarshi ittifoq taklif qilmoqda; matndagi uslub va murojaat shakli davr diplomatik odob-axloqi haqida nimalarni ko'rsatadi; ushbu manbaga qanchalik ishonch bilan qarash mumkin va uni boshqa davr manbalari bilan qiyoslash zarurmi. Bunday savollar orqali o'quvchida manbani tanqidiy o'qish, uning kontekstini aniqlash va xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Ayni shu maktub va Umarxonning unga bergan javobi Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasida Buxoro amirligiga qarshi harbiy ittifoq tuzilganini anglatishi o'quvchilarga tushuntirilib, elchilik yozishmasining siyosiy voqealarga bevosita ta'sirini ko'rsatuvchi misol sifatida tahlil qilinishi mumkin.

III. Harbiy-siyosiy ittifoq mavzusini muammoli-izlanuvchi topshiriqlar orqali o'rgatish.

1810-yildan Qo'qonda hukmronlik qilgan Umarxon (1810-1822) davrida xonlikning kuchayishi Buxoro amirligi bilan munosabatlarni keskinlashtirdi: Umarxon Qo'qonni Buxoro amirligiga qaramlikdan qutqarib, mustaqil va kuchli davlat qilish yo'lida harakat qildi, bu esa Buxoro amirligini Qo'qonga nisbatan avval raqobatchi, keyin dushman pozitsiyasiga olib keldi [Бабаджанов, 48]. Natijada Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi. Markaziy Osiyoda yetakchi mavqeni egallash borasida Amir Haydar va Umarxon o'rtasidagi kurash, shuningdek, Amir Haydarning Usmonli turklar bilan aloqalarni yaxshilab, Qo'qon va Xiva xonlarining turk sultoni bilan yaqinlashuviga to'sqinlik qilishi [Анке фон Кюгеллен, 112] Qo'qon va Xiva xonliklari yaqinlashuviga qo'shimcha turtki bo'lgan edi. Ushbu voqealar zanjiri asosida o'quvchilarga guruhli topshiriq shaklida quyidagi muammoli vaziyat taqdim etilishi mumkin: agar siz Umarxon o'rnida bo'lganingizda, Buxoro amirligiga qarshi ittifoq izlashda qaysi omillarni (geosiyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy) hisobga olgan bo'lardingiz? O'quvchilar guruhlariga bo'linib, xonliklarning manfaatlarini asoslashi, ittifoqning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi so'raladi. Bunday topshiriq davomida 1821-yil 27 ramazon kunida (1821-yil 28-iyun) Xiva qo'shinining Buxoro tumanlariga yetib kelgani va Umarxonning 12 ming askar bilan yurishga otlanganligi kabi faktlar, shuningdek, "Tarixi Turkiston" asari muallifi Mirzo Olim Maxdum Umarxonning Buxoroga yurishini xitoy-qipchoqlarning iltimosiga bog'lashi [Mirzo Olim Mahdum hoji, 86] kabi turli manbalardagi qarama-qarshi talqinlarni qiyoslash orqali o'quvchida tarixiy voqealarni ko'p qirrali baholash ko'nikmasi rivojlanadi. Samarqand qamalida Amir Haydarning qiyin ahvolga tushib qolishi, shahar ulamolarining tinchlik so'rab Umarxonga arznoma yozishlari va mashhur "ko'k tosh" (sangi kabud)ni sulh evaziga berishlari kabi tafsilotlar [Анке фон Кюгеллен, 114] esa o'quvchilarga diplomatik yechimlarning nafaqat harbiy kuchga, balki muzokara va murosaga ham asoslanishi mumkinligini ko'rsatib beradi.

IV. Uch xonlik diplomatiyasi misolida yakunlovchi mashg'ulot loyihasi. Mavzuni yakunlash bosqichida o'quvchilarga XIX asrda Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklari orasidagi diplomatik aloqalarning siyosiy vaziyatga qarab o'zgarib turgani, bu aloqalarda Dashti qipchoq va Usmoniylar saltanati kabi tashqi omillarning ham aralashib turgani haqidagi umumlashtiruvchi xulosa taqdim etiladi [Гулямов, 247-251]. Shu asosda yakunlovchi mashg'ulot loyihasi sifatida o'quvchilarga "XIX asr O'rta Osiyo xonliklari diplomatik xaritasi" nomli amaliy loyiha taklif etilishi mumkin: o'quvchilar uch xonlik o'rtasidagi ittifoq va raqobat munosabatlarini sxematik tarzda (xaritada yoki jadvalda) tasvirlaydilar, har bir aloqaning asl manbadagi tasdig'ini ko'rsatadilar va ushbu munosabatlarning zamonaviy Markaziy Osiyo davlatlararo aloqalari bilan qanday o'xshash yoki farqli jihatlariga ega ekanligini muhokama qiladilar.

Xulosa. XIX asrda Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar mavzusi tarix ta'limida boy didaktik material manbai bo'la oladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, elchilik maktublari va boshqa birlamchi manbalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchida manbashunoslik ko'nikmalarini, muammoli vaziyatlar va guruhli topshiriqlar esa tanqidiy fikrlash va

tahlil qilish qobiliyatlarini samarali rivojlantiradi. Yakunlovchi loyiha shaklidagi mashg'ulotlar esa o'rganilgan bilimlarni tizimlashtirish va ularni zamonaviy kontekst bilan bog'lash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Анке фон Кюгеллен. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). — Алматы, Дрейн пресс. 2004.
2. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. — Токио-Ташкент, 2010.
3. Mirzo Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. — T.: Yangi asr avlodi, 2008.
4. Muhammad Rizo Erniyozbiy o'g'li Ogahiy. Riyoz ud-davla. V jild. — T., 1978.
5. Muhammad Rizo Erniyozbiy o'g'li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix: tarixlar sarasi. - T.: O'zbekiston, 2009. -137 b.
6. Гулямов Х.Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII — первой половине XIX века. Ташкент, 2005, -С.247-251.
7. Xudoyberganov K. Xiva xonlari tarixidan. — Urganch, 2008.

UDC 796.01:379.85

SPORT AND TOURISM AS THE PRIMARY MEANS OF PHYSICAL CULTURE ACTIVITIES

A.I.Tuychiyev, Associate Professor, PhD, Fergana State University, Fergana

ORCID: 0000-0001-8880-1651

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport va turizm jismoniy madaniyatning ikki asosiy va bir-birini to'ldiruvchi vositasi sifatida ko'rib chiqiladi; ularning tarixiy rivojlanishi, pedagogik funksiyalari va ijtimoiy-madaniy ahamiyati jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi doirasida tahlil qilinadi. P.F.Lesgaftning klassik ta'limotiga hamda undan keyingi sovet, o'zbek va g'arb tadqiqotchilarining ishlariga tayangan holda, tadqiqot sport — harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarni takomillashtirishga qaratilgan izchil jarayon, turizm esa hayotiy-amaliy va sog'lomlashtiruvchi faol dam olish shakli ekanligini hamda ular birgalikda jismoniy tarbiya tizimining amaliy asosini tashkil etishini ko'rsatadi. Nazariy va qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanib, maqolada sport va turizmning o'ziga xos funksiyalari tavsiflanadi, ularning farqlovchi pedagogik xususiyatlari aniqlanadi hamda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini muvofiqlashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sport, turizm, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, harakat ko'nikmalari, sog'lomlashtirish, poxod, hayotiy-amaliy xususiyatlar, sport turizmi, O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье спорт и туризм рассматриваются как два основных и взаимодополняющих средства физической культуры, историческое развитие, педагогические функции и социально-культурное значение которых анализируются в рамках теории и методики физического воспитания. Опираясь на классическое наследие П.Ф. Лесгафта, а также на последующие исследования советских, узбекских и западных учёных, автор показывает, что спорт — понимаемый как целенаправленный процесс совершенствования двигательных навыков и физических качеств, — и туризм — понимаемый как жизненно-практическая, оздоровительная форма активного отдыха, — совместно составляют практическую основу системы физического воспитания. С помощью теоретического и сравнительно-исторического методов в статье охарактеризованы специфические функции спорта и туризма, выявлены их отличительные педагогические особенности и обоснована необходимость согласованной государственной политики по дальнейшему развитию физического воспитания и спортивного туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: спорт, туризм, физическая культура, физическое воспитание, двигательные навыки, оздоровление, поход, жизненно-практические особенности, спортивный туризм, Узбекистан.

Abstract. This article examines sport and tourism as two fundamental, complementary means of physical culture, analysing their historical development, pedagogical functions and socio-cultural significance. Building on the classical legacy of P.F. Lesgaft and subsequent scholarship, the study shows that sport — a purposeful process of perfecting motor skills and physical qualities — and tourism — a life-practical, health-improving form of active recreation — together form the practical foundation of physical education. Using theoretical and comparative-historical methods, the article

characterises the distinguishing features of sport and tourism and argues for a coordinated state policy for the further development of physical education and sports tourism in Uzbekistan.

Keywords: sport, tourism, physical culture, physical education, motor skills, health promotion, hiking, sport tourism, Uzbekistan.

Introduction. The term “sport” was originally understood as a game and later as a means of entertainment; for much of the nineteenth and early twentieth centuries it was regarded chiefly as a way of achieving results or securing recreation, with little recognised educational value. This view changed once physical culture began to be studied as an independent scientific discipline. Physical culture — of which sport is the most visible component - is directed at the physical improvement of the individual through purposeful motor activity: perfecting movement technique and developing strength, speed, endurance, flexibility and coordination [1]. Alongside sport, tourism — realised through hiking, excursions and mountaineering — is one of the oldest and most universal means of physical education, combining physical exertion with cognitive, aesthetic and moral development. The joint examination of sport and tourism as related yet structurally distinct means of physical culture is the subject of this article.

Literature Review. The proposition that sport is a principal means of physical education was first systematically substantiated by the Russian educator P.Lesgaft, who placed conscious, purposeful movement, rather than mechanical drill, at the centre of pedagogical practice [1]. His ideas were later developed by European and Soviet researchers and systematised by Coakley, whose sociological framework explains how sport's social functions differ under different socio-economic conditions [2]. Within Uzbek physical-education science, related questions of health promotion, physical fitness and differentiated training have been examined by a broad circle of scholars, confirming that physical education rests on the complementary use of sport, gymnastics, games and tourism.

The theoretical status of tourism as a component of physical culture forms a closely related research tradition. Tourism connected with physical activity has been conceptualised internationally as "sport tourism," first systematically analysed by Gibson, who distinguished active, event and nostalgia forms [3], and further elaborated by Standeven and De Knop [4] and by Gammon and Robinson, who proposed a conceptual framework linking sport and tourism as overlapping fields of leisure [5]. The World Tourism Organization has likewise recognised the pedagogical and health-related value of sport-related travel [6]. Although studied predominantly within separate disciplinary traditions, sport and tourism address a common problem: the search for effective, life-practical means of developing the physical, moral and social qualities of the individual.

Research Methodology. The study is theoretical and analytical, combining several complementary methods: theoretical analysis and synthesis of scientific literature; the comparative-historical method, used to trace the evolution of sport from entertainment into a scientifically grounded pedagogical tool; content analysis of the normative legal documents that regulate physical culture and sports tourism in Uzbekistan [7, 8]; structural-functional analysis, used to classify the distinguishing characteristics of sport and tourism (Table 1); and generalisation and systematisation, used to formulate the conclusions.

Results and Discussion. The social status of sport has changed radically since the beginning of the twentieth century. Today sport is expected not only to raise individual physical fitness but also to strengthen solidarity between nations and reveal, through competition, the humanistic potential of its participants. Sport is not socially neutral, however: in the former Soviet Union it was assigned an explicitly educational and mass-participation purpose, whereas in market economies professional sport has often developed primarily as a commercial and entertainment industry [2]. National and international federations in athletics, wrestling, swimming, football and many other disciplines — together with sports included in the Asian Games, World Championships and Olympic Games — are today considered the principal means of sport-related physical education.

Tourism, by contrast, is a planned activity realised through travel, excursions, hiking and mountaineering. Unlike production activity, it does not itself create material wealth; rather, it

develops physical abilities and organises active recreation. During tourist trips participants develop the skills needed to overcome natural obstacles, and their mental, physical, moral and aesthetic qualities are cultivated together through teamwork and adaptation to unfamiliar environments — skills that classroom-based physical education alone cannot provide.

As a means of physical education, tourism is distinguished by several key features: a life-practical character that fosters initiative, leadership and route-planning skills; comprehensiveness, in that it develops the full range of physical qualities rather than those of a single sport; combined training content drawing on walking, running and obstacle-work; accessibility to participants regardless of prior fitness; variable load depending on climate and terrain; a non-competitive orientation; collective, experience-based leadership; and the hiking (organised tourist expedition) as its principal training form, integrating all the skills tourism requires. This classification is broadly consistent with Gibson's international typology of sport-related travel [3, 4], with Uzbek hiking-based tourism corresponding most closely to the “active” category of sport tourism. Table 1 summarises the comparative characteristics of sport and tourism as means of physical culture.

Table 1.

Criterion	Sport	Tourism
Primary aim	Achievement of maximal individual or team results; perfection of movement technique	Development of life-practical skills; active recreation and health promotion
Character of activity	Competitive, regulated by uniform written rules	Predominantly non-competitive; regulated chiefly by the natural environment and route
Institutional expression	National/international federations; official competitions (Olympic Games, World and Continental Championships)	Tourist clubs, hiking organisations, national and international tourism associations
Requirement for prior fitness	Requires a defined, often high, level of physical preparedness	Accessible to participants with varying levels of physical preparedness
Dominant qualities developed	Specialised motor skills and physical qualities specific to a given sport	Comprehensive development of general physical qualities and life-practical skills (orientation, teamwork, endurance)
Social/economic role	Professional and commercial sport industry; military-applied and educational value	Health-improving, educational and, increasingly, economic role within the sport-tourism industry

Discussion. The comparison in Table 1 shows that sport and tourism function as complementary, rather than competing, means of physical education. Both address the task set out in the WHO 2020 Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour, which recommend that adults undertake 150–300 minutes of moderate-intensity activity per week and that children average at least sixty minutes daily; yet roughly one in four adults and four in five adolescents worldwide fail to meet these minimums, making the diversification of accessible physical activity a matter of public-health importance [9].

For Uzbekistan, presidential resolutions on the development of physical education and mass sport provide the normative basis for coordinated development of sport and sports tourism [7, 8]. Even so, normative and methodological programmes specifically addressing physical-education-oriented sports tourism remain underdeveloped, both in Uzbekistan and more broadly in the post-Soviet space — a finding consistent with recent studies on introducing accessible, life-practical activities such as Nordic health walking into schoolchildren's extracurricular physical education [10]. Sport and tourism should therefore be planned and coordinated as two mutually reinforcing branches of a single system of physical education, rather than as separate curriculum components.

Conclusion. Sport and tourism, despite differences in organisational form, share a common pedagogical foundation as purposeful means of developing the physical, moral, aesthetic and social qualities of the individual. Sport, having evolved from entertainment into a scientifically grounded pedagogical and social institution, today performs educational, health-improving, competitive and

economic functions simultaneously, while tourism — through the hiking — offers a comprehensive, life-practical and accessible form of physical activity requiring no predetermined level of fitness.

At the same time, normative and methodological programmes for physical-education-oriented sports tourism remain insufficiently developed in Uzbekistan and the wider post-Soviet space, and the theory and practice of tourism as a component of physical education has not been studied with the thoroughness accorded to sport proper. The coordinated, evidence-based development of sport and sports tourism, guided by national policy and international scientific experience, should accordingly be regarded as a priority direction for the further development of physical culture in Uzbekistan.

REFERENCES:

1. Lesgaft P.F. Journal of Sport History. - 1977. - Vol. 4, No. 3. - P. 229–241.
2. Coakley J. Sports in Society: Issues and Controversies. — 13th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021.
3. Gibson H.J. Sport tourism: a critical analysis of research // Sport Management Review. — 1998. — Vol. 1, No. 1. — P. 45–76.
4. Standeven J., De Knop, P. Sport Tourism. — Champaign, IL: Human Kinetics, 1999.
5. Gammon S., Robinson, T. Sport and tourism: a conceptual framework // Journal of Sport and Tourism. — 2003. — Vol. 8, No. 1. — P. 21–26.
6. World Tourism Organization (UNWTO). Sport and Tourism — Introductory Report. — Madrid: UNWTO, 2003.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori PQ-3031-son, 2017-yil 3-iyun.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash to'g'risidagi Qarori PQ-3907-son, 2018-yil 14-avgust.
9. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. — Geneva: WHO, 2020.
10. Azizov M.M. The effectiveness of using the Nordic walking wellness exercise in extracurricular time of primary school students // European Journal of Sport Science. — 2021. — Vol. 1, No. 2. — P. 32.

UO'K 316.7

IJODKORLIK FAOLIYATINING IJTIMOIIY -TARIXIY AHAMIYATI

J.X.Xayitov, katta o'qituvchi, PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijodkorlik faoliyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati tahlil qilingan. Ijodkorlik insoniyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ilm-fan, texnika, madaniyat va ta'lim sohalarining rivojlanishiga xizmat qilishi yoritilgan. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda ijodkorlikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'siri hamda yosh avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ijodiy faoliyatning innovatsion g'oyalarni yaratish, ijtimoiy muammolarni hal etish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni boyitishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijtimoiy taraqqiyot, tarixiy rivojlanish, innovatsiya, ijodiy fikrlash, ilm-fan, texnika, madaniyat, ta'lim, kreativlik, intellektual salohiyat, yangi g'oyalar, jamiyat rivoji, ma'naviy qadriyatlar, ilmiy-texnik taraqqiyot, yoshlar tarbiyasi, bunyodkorlik, inson omili, ijtimoiy ahamiyat.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль творческой деятельности в развитии общества и её социально-историческое значение. Раскрывается, что творчество как один из важнейших факторов развития человечества способствует развитию науки, техники, культуры и образования. Также рассмотрены этапы формирования и развития творческой деятельности в различные исторические периоды, её влияние на общественную жизнь, а также значение в развитии творческого потенциала молодого поколения. В статье научно-теоретически обоснована роль творческой деятельности в создании инновационных идей, решении социальных проблем, а также обогащении национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: творчество, творческая деятельность, социальное развитие, историческое развитие, инновация, творческое мышление, наука, техника, культура,

образование, креативность, интеллектуальный потенциал, новые идеи, развитие общества, духовные ценности, научно-технический прогресс, воспитание молодёжи, созидательная деятельность, человеческий фактор, социальная значимость.

Abstract. *This article analyzes the role of creative activity in the development of society and its socio-historical significance. It highlights creativity as one of the key factors in human development and examines its contribution to the advancement of science, technology, culture, and education. The article also explores the stages of the formation and development of creative activity across different historical periods, its impact on social life, and its importance in developing the creative potential of the younger generation. The role of creative activity in generating innovative ideas, addressing social problems, and enriching national and universal human values is scientifically and theoretically substantiated.*

Keywords: *creativity, creative activity, social development, historical development, innovation, creative thinking, science, technology, culture, education, creativity, intellectual potential, new ideas, societal development, spiritual values, scientific and technological progress, youth education, constructive activity, human factor, social significance.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri ijodkorlik faoliyati ekanligini ko'rish mumkin. Ijodkorlik insonning yangi g'oyalar yaratish, mavjud muammolarga yangicha yechim topish hamda moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirishga qaratilgan faoliyatidir. Tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ijodkorlik faoliyati jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelgan[1].

Shu sababli ijodkorlik nafaqat shaxsning o'zini rivojlantirish vositasi, balki butun jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda globallashtirish va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda ijodkorlik faoliyatining ahamiyati yanada ortib bormoqda[2]. Shuning uchun ham yosh avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni hamda jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissassi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodkorlik inson shaxsining rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti hamda ilmiy-texnik yutuqlarning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Xorijiy olimlardan J. Gilford, E. Torrens, A. Maslou va K. Rojers ijodkorlikning psixologik asoslarini o'rganib, uning insonning intellektual va shaxsiy rivojlanishidagi o'rnini yoritib berganlar. Ularning tadqiqotlarida ijodkorlik yangi g'oyalarni yaratish, muammolarga nostandart yondashish va innovatsion fikrlash qobiliyati sifatida talqin etiladi[3]. Ayniqsa, E. Torrensning ijodiy fikrlashni baholashga qaratilgan ishlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mahalliy va MDH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ijodkorlik faoliyatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda texnik ijodkorlikni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu tadqiqotlarda ijodkorlikning shaxsning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi o'rni asoslab berilgan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Mirzo Ulug'beklarning ilmiy merosi ham ijodiy tafakkurning jamiyat rivojiga qo'shgan ulkan hissasini namoyon etadi[4]. Tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ijodkorlik faoliyati nafaqat shaxs rivojlanishining muhim omili, balki jamiyatning ilmiy, texnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini o'rganish uchun ilmiy bilishning nazariy va amaliy metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari tashkil etdi. Ushbu metodlar yordamida ijodkorlik faoliyatining mazmun-mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari o'rganildi[5].

Mantiqiylik tamoyili esa ijodkorlikning ijtimoiy hayot, ilm-fan, texnika va madaniyat rivojiga ta'sirini ilmiy asosda izohlash imkonini berdi. Bundan tashqari, kuzatish, hujjatlarni o'rganish hamda ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi. [6].

Tahlil va natijalar. Ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida yangi g'oya, kashfiyot va ixtirolarning yuzaga kelishi bevosita ijodiy tafakkur bilan bog'liq bo'lgan [7]. Tarixiy rivojlanish jarayonida ijodkorlik dastlab oddiy mehnat qurollarini yaratish va takomillashtirishda namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ilm-fan, texnika, hunarmandchilik, san'at va madaniyatning rivojlanishida muhim omilga aylandi. Tadqiqot natijalari ijodkorlik faoliyatining faqatgina moddiy ishlab chiqarish bilan chegaralanib qolmasligini ko'rsatdi. [8].

Xususan, Sharq ilm-fani rivojida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning ilmiy va ijodiy merosi muhim o'rin egallaydi. Ularning faoliyati ijodkorlikning ilmiy tafakkur, ma'rifat va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Tahlil natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: birinchidan, ijodkorlik insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir; ikkinchidan, ijodiy faoliyat ilm-fan, texnika, madaniyat va ta'lim rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi; uchinchidan, ijodkorlik shaxsning intellektual va amaliy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi; to'rtinchidan, zamonaviy sharoitda ijodkorlikni rivojlantirish innovatsion jamiyatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida ijodkorlik faoliyati insoniyatning ijtimoiy, ilmiy, texnik va madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Ijodkorlik insonning mavjud bilim va tajribalar asosida yangilik yaratishi, muammolarga noodatiy yechim topishi hamda jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.

Takliflar

1. Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar va ijodiy topshiriqlarni ko'paytirish.
2. Texnik va innovatsion ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida turli tanlovlar, ko'rgazmalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar va loyiha faoliyatlarini muntazam tashkil etish.
3. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar, loyiha texnologiyalari, interfaol metodlar va zamonaviy raqamli vositalardan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish shaxsning har tomonlama kamol topishi bilan bir qatorda, jamiyatning ilmiy-texnik, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
2. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. va boshqalar. *Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish*. – Toshkent: "Muhammad poligraf" MCHJ, 2017.
3. Xayitov J. *Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlikni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish* / UzMU Xabarlari, 2025.
4. Xayitov, J.X. *Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini shakllantirish texnologiyasi*. – ilmiy maqola (PDF).
5. Xayitov J.X "Xalqaro tadqiqotlar va ta'limda innovatsion texnologiyalar". Darslik.-T. "Ta'lim innovatsiyalari" nashriyoti, 2026.-228b.
6. Xayitov J.X "Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali, texnologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish". Monografiya.-T. "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2025.-112b.
7. Xayitov J.X, Ro'ziqulov D.I, Ulashova M.N "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash". Uslubiy qo'llanma. Qarshi-"Ilm-fan-Ma'naviyat" nashriyoti, 2025.-126b.
8. Xayitov J.X Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.

UO'K 618.14-006.36:615.8-089:612.6

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA BACHADON MIOMASINING
ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI VA ULARNING REPRODUKTIV FUNKSIYAGA
TA'SIRI****F.T.Kosimxojeva, PhD, assistant, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon**

Annotatsiya. Ushbu maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarda bachadon miomasini davolashning zamonaviy yondashuvlari va ularning ayol organizmining farzand ko'rish qobiliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Kam invaziv jarrohlik usullari (gisterorezektoskopiya, laparoskopiya) va konservativ terapiyaning samaradorligi solishtirilgan.

Kalit so'zlar: Bachadon miomasi, reproduktiv salomatlik, miomektomiya, embolizatsiya, bepustlik, konservativ davo.

Аннотация. В данной статье проанализированы современные подходы к лечению миомы матки у женщин репродуктивного возраста и их влияние на фертильность. Проведено сравнение эффективности малоинвазивных хирургических методов (гистерорезектоскопия, лапароскопия) и консервативной терапии.

Ключевые слова: Миома матки, репродуктивное здоровье, миомэктомия, эмболизация, бесплодие, консервативное лечение.

Abstract. This article analyzes modern approaches to the treatment of uterine fibroids in women of reproductive age and their impact on fertility. The efficacy of minimally invasive surgical techniques (hysteroscopy, laparoscopy) and conservative therapy was compared.

Keywords: Uterine fibroids, reproductive health, myomectomy, embolization, infertility, conservative treatment.

Kirish. Reproktiv yoshdagi ayollar orasida bachadon miomasi (BM) ginekologik kasalliklar tarkibida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va ushbu yosh guruhidagi ayollarning taxminan 20% dan 40% gacha bo'lgan qismida aniqlanadi. So'nggi o'n yilliklarda ayollarning ijtimoiy va kasbiy faolligi ortishi munosabati bilan birinchi homiladorlik va tug'ruq vaqtini kechiktirish (30–35 yoshdan keyinga surish) tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bachadon miomasining klinik namoyon bo'lishi va ayol organizmining farzand ko'rish (reproduktiv) davrining mos kelishiga olib kelmoqda. Konservativ miomektomiya, bachadon arteriyalari embolizatsiyasi (BAE) va zamonaviy medikamentoz (gormonal) terapiya kabi kam invaziv usullar bu borada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ushbu usullarning har biri bachadon devorining butunligiga, endometriy holatiga va miometriydagi qon aylanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, jarrohlikdan keyin bachadonda chandiqlik hosil bo'lishi keyingi homiladorlikning kechishi va tug'ruq usulini tanlashda xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, reproduktiv rejasi bo'lgan ayollarda davolash taktikasini to'g'ri tanlash va optimallashtirish tibbiyotning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal etish uchun Andijon davlat tibbiyot instituti 1-Akusherlik va ginekologiya kafedrasi klinik bazalarida reproduktiv yoshdagi (18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan) bachadon miomasi aniqlangan va farzand ko'rishni rejalashtirayotgan 80 nafar bemor ayol ustida klinik-laborator kuzatuvlar olib borildi.

Tadqiqot davomida quyidagi zamonaviy va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tekshirish usullari majmuasi qo'llanildi:

1. Klinik va anamnestik tahlil usullari
 - Anamnez yig'ish: Bemorlarning shikoyatlari, kasallik tarixi, menstrual va reproduktiv funksiyalarining xususiyatlari (ilgari o'tkazilgan homiladorliklar, tug'ruqlar, abortlar, bepustlik muddati va turi) batafsil o'rganildi.
 - Umumiy va ginekologik ko'rik: Bemorlarning somatik holati baholandi va standart bimanual (ikki qo'llik) ginekologik tekshiruvlar o'tkazildi.
2. Instrumental tekshirish usullari

• Transvaginal va transabdominal Ultratovush tekshiruvi (UTT): Bachadon va uning ortiqlarining holati, mioma tugunlarining soni, o'lchamlari, lokalizatsiyasi (FIGO klassifikatsiyasi bo'yicha) va ularning bachadon bo'shlig'iga nisbatan joylashuvi aniqlandi.

• Dopplerometriya usuli: Bachadon va tugun atrofidagi qon tomirlarida (bachadon arteriyalari va spiral arteriyalarda) qon aylanishining gemodinamik ko'rsatkichlari, jumladan, pulsatsiya indeksi, rezistentlik indeksi va sistola-diastolik nisbati o'rganildi.

• Gisteroskopiya: Bachadon bo'shlig'i holatini, deformatsiya darajasini baholash va submukoz (shilliq osti) mioma tugunlari mavjudligini aniqlash maqsadida diagnostik gisteroskopiya o'tkazildi.

3. Laborator tekshirish usullari

• Gormonal tahlillar: Menstrual siklning 2–5 kunlarida qon zardobidagi gipofiz va tuxumdon gormonlari (FSG, LG, prolaktin, estradiol, progesteron) hamda reproduktiv zaxirani baholash uchun Antimiyuller gormoni (AMG) miqdori IFA (immunoferment tahlil) usulida tekshirildi.

• Morfologik (gistologik) tekshiruv: Operatsiya davomida olingan mioma tugunlari va bachadon shilliq qavati (endometriy) namunalari patomorfologik tekshiruvdan o'tkazilib, o'sma to'qimasining xavfsizligi tasdiqlandi.

4. Statistika tahlil usullari. Olingan raqamli ma'lumotlarni tizimlashtirish va qayta ishlash maqsadida zamonaviy variatsion statistika metodlari qo'llanildi. Bunda Statistica 10.0 va Microsoft Excel dasturlaridan foydalanildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar uchun o'rtacha qiymat va o'rtacha kvadrat xatolik hisoblandi. Guruhlararo farqlarning ishonchliligi Studentning kriteriyasi yordamida baholandi va ishonchlilik darajasi $p < 0.05$ bo'lganda statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqotimizda ishtirok etgan 80 nafar reproduktiv yoshdagi bachadon miomasi (BM) bo'lgan bemorlarning o'rtacha yoshi 31.4 ± 2.8 yoshni tashkil etdi. Bemorlarning shikoyatlari tahlil qilinganda, asosiy klinik belgilar sifatida algodismenoreya — 52 nafar ayolda (65%), menorrhagiya (ko'p qon ketish) — 44 nafar ayolda (55%) va kichik to's sohasidagi og'riqlar — 36 nafar ayolda (45%) aniqlandi. Bemorlarning 28 nafari (35%) birlamchi bepustlikdan, 20 nafari (25%) esa ikkilamchi bepustlik va odatdagi homila boy berishdan (samoproizvolny vyikidysh) shikoyat qilgan. UTT va dopplerometriya natijalariga ko'ra, mioma tugunlarining bachadon devorida joylashishi va ularning hajmi reproduktiv a'zolar qon aylanishiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, reproduktiv yoshdagi bachadon miomasi bor ayollarda organi saqlovchi jarrohlik taktikasi (miomektomiya) konservativ terapiyaga qaraganda reproduktiv funksiyani tiklashda yuqoriroq samara beradi (62.5% ga qarshi 45.0%). Buning asosiy sababi — mioma tugunining mexanik ravishda olib tashlanishi natijasida bachadon devori deformatsiyasining butunlay yo'qolishi va spiral arteriyalarda gemodinamikaning tez fursatda tiklanishidir. Biroq, jarrohlikdan keyin bachadon devorida mustahkam chandiq hosil bo'lishi va keyingi homiladorlik asoratsiz o'tishi uchun reabilitatsiya davriga rioya qilish o'ta muhimdir. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, operatsiyadan keyingi 6–12 oylik reabilitatsiya davriga to'liq rioya qilgan ayollarda homiladorlikni muvaffaqiyatli oxirigacha yetkazish ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Xulosa. Reprodukativ yoshdagi ayollarda bachadon miomasini davolash usullari va ularning reproduktiv funksiyaga ta'sirini kompleks baholash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Diagnostika va individual yondashuvning ahamiyati: Reprodukativ yoshdagi ayollarda davolash taktikasini tanlashda faqatgina tugunlarning o'lchami emas, balki ularning lokalizatsiyasi (FIGO klassifikatsiyasi bo'yicha) va bachadon devori gemodinamikasi bosh mezon bo'lishi lozim. Reabilitatsiya va homiladorlikni rejalashtirish: Konservativ miomektomiyadan so'ng bachadonda to'laqonli va mustahkam chandiq shakllanishi uchun kamida 6–12 oy davomida kontrasepsiya va bachadon miometriysi gemodinamikasini yaxshilovchi reabilitatsion terapiya o'tkazilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayupova F.M., Kosimxojeva F.T. Reprodukativ yoshdagi ayollarda bachadon miomasini davolashning zamonaviy jihatlari va fertillikni tiklash muammolari // Akusherlik va ginekologiya jurnali. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 45–51.

2. Радзинский В.Е., Архипова М.П. Миома матки: Органосохраняющее лечение и репродуктивный прогноз // Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение. – Москва, 2022. – Т. 10, №2. – С. 18–25.

3. Ismoilova M.A., Nazirova N.N. Bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda kam invaziv jarrohlik amaliyotlaridan keyingi gemodinamik o'zgarishlar tahlili // O'zbekiston tibbiyot jurnali. – Toshkent, 2024. – №1. – B. 32–37.

4. Stewart E.A., Laughlin-Tommaso S.K. Uterine fibroids: Pathogenesis, clinical manifestations, and diagnosis // New England Journal of Medicine. – 2021. – Vol. 384, No. 12. – P. 1132–1142.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI

№9/3 (142)
2026 y., sentabr

O‘zbekcha matn muharriri:
Ruscha matn muharriri:
Inglizcha matn muharriri:
Musahhih:
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod
Hasanov Shodlik
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
O‘rozboyev Abdulla
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi
Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 07.09.2026
Bosishga ruxsat etildi: 14.09.2026.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 14.
Hajmi 12,0 b.t. Buyurtma: № 9-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18